

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

**“FARG‘ONA VODIYSI TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari
(2025- yil 15-16- may)**

***Материалы международной научно-практической конференции по*
**«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСТОРИИ ФЕРГАНСКОЙ
ДОЛИНЫ»**
*(15–16 мая 2025 года)***

**Materials of the International Scientific and Practical Conference on
“RELEVANT PROBLEMS OF THE HISTORY OF THE FERGANA
VALLEY”
(May 15–16, 2025)**

1

NAMANGAN – 2025

“Farg‘ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari” / mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – **Namangan: , 2025. – 000 b.**

Mas’ul muharrir: t.f.n., dots. A.A. Sarimsokov

Tahrir hay’ati: g.f.d., prof. K.M. Boymirzayev, t.f.d., prof. A.N. Rasulov, f.f.n., dots. O.V. Mamatov, t.f.n., dots. B.Ya. Tursunov, PhD., dots. I.A. Ubaydullayev, PhD., dots. U.U. Mansurov, PhD., dots. A.R. Nurmatov, PhD., dots. M.A. Maxmudov.

Muharrir: U.X. Gulmatov

Ushbu to‘plam University of Business and Scienceda nodavlat oliy ta‘lim muassasasida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024- yil 27-d ekabrdagi “490”- sonli buyrug‘iga asosan “2025- yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”da belgilangan “Farg‘ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallarini o‘zida jamlagan. Unda Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi, etnologiyasi, o‘rta asrlar, Qo‘qon xonligi, Rossiya imperiyasi, sovet mustamlakachiligi, O‘zbekistonning eng yangi tarixi davri muammolariga oid dolzarb mavzular doirasidagi rang-barang maqolalar keng kitobxonlar ommasi e‘tiboriga havola qilingan.

Umuman olganda, ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, respublikamiz oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, talabalari, magistrleri, stajyor–tadqiqotchi–izlanuvchi, mustaqil izlanuvchi va tarixchi olimlarning so‘nggi ilmiy tadqiqotlari natijalari o‘rin olgan. To‘plamdan Farg‘ona vodiysi tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Ushbu maqolalar xolisona yoritilganligi, keltirilgan dalillar va ilmiy muomalaga kiritilgan manbalar asosli ekanligi, ishonchliligi bo‘yicha mas‘uliyat mualliflar zimmasida. Maqolalarda ilgari surilgan fikr-mulohazalar anjuman tahrir hay‘atining nuqtai-nazari bilan farq qilishi mumkin.

Mazkur to‘plam University of Business and Science nodavlat oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-texnikaviy Kengashining 2025- yil 12- maydagi navbatdan tashqari 10- sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy tarixni qayta ko‘rib chiqish va uning ilmiy asosda tiklanishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Davlatimiz tomonidan milliy meros, tarixiy haqiqat va xalqning tarixiy xotirasini tiklashga qaratilgan keng qamrovli siyosiy-ijtimoiy islohotlar natijasida mamlakat tarixini har tomonlama o‘rganish, ayniqsa uning mahalliy va mintaqaviy jihatlarini tadqiq etish muhim vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Bu jarayonda vatanparvarlik, tarixiy tafakkur va fuqarolik tuyg‘usini shakllantiruvchi tarixiy bilimlarni yosh avlodga yetkazish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan “Taraqqiyotning milliy modeli”, “Yangi O‘zbekiston” tamoyillari va ilm-fan taraqqiyotiga oid davlat dasturlari tarix fanini rivojlantirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, tarixiy manbalarni qayta o‘rganish, arxiv hujjatlari asosida mahalliy tarixni ilmiy jihatdan tadqiq etish, arxeologik va etnografik ma’lumotlarni integratsiyal tahlil qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonda mamlakat tarixining ajralmas qismi bo‘lgan Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos tarixi alohida o‘rin tutadi. Farg‘ona vodiysi – qadimdan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida tanilgan, ko‘plab davlatchilik an’analarining shakllanishiga guvohlik bergan hudud hisoblanadi. Ushbu mintaqa tarixi jahon tarixiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ilk davlatchilik shakllari, islom sivilizatsiyasining kirib kelishi, mo‘g‘ullar istilosi, Temuriylar davri madaniyati va siyosiy tizimi, shuningdek, so‘nggi o‘rta asrlar va yangi davrdagi ijtimoiy o‘zgarishlar muhim o‘rin egallaydi. Ammo bu jarayonlarning aksar qismi hanuzgacha yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan bo‘lib, ularni har tomonlama tadqiq etishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

So‘nggi yillarda Namangan, Farg‘ona va Andijon davlat universitetlarida o‘tkazilgan “Farg‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” kabi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar ushbu ehtiyojni qondirishga qaratilgan ilmiy platformalar sifatida xizmat qilmoqda. Bu tadbirlar nafaqat mavjud ilmiy ishlar sarhisobini amalga oshirish, balki yangi metodologik yondashuvlarni ilgari surish, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shu qatorida, University of Business and Science tashabbusi bilan tashkil etilgan “Farg‘ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman mintaqamiz tarixiy merosi bo‘yicha hududiy, milliy va global miqyosdagi ilmiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan muhim maydon hisoblanadi. Anjumanda taqdim etilayotgan ma‘ruzalar, ilmiy maqolalar va bahs-munozaralar nafaqat akademik muhitda, balki jamiyatda ham tarixiy tafakkurning chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy merosni qayta baholash, mintaqaviy tarixni milliy va jahon tarixi kontekstlarida tahlil etish zarurati tobora ortib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan Markaziy Osiyodagi qo‘shni davlatlar bilan yaqin hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan siyosat zamirida ham umumiy tarixiy ildizlarni o‘rganish, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarixiy xulosalarni shakllantirish maqsadi mujassam.

Umuman olganda, mazkur anjuman ilmiy tadqiqotlarning dolzarb muammolarini muhokama qilish, yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish va kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilab olishda muhim platforma sifatida xizmat qilishi shubhasizdir. U orqali Farg‘ona vodiysining tarixiy merosini yanada chuqur va xolis tadqiq etishga hissa qo‘shiladi, degan umiddamiz.

I SHO‘BA. FARG‘ONA VODIYSI ARXELOGIYASI VA ETNOLOGIYASI MUAMMOLARI

AXSIKENT ARXELOGIYA PARKI (NATIJALAR VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR)

АКСИКЕНТСКИЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПАРК (РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЗАДАЧИ)

AXSIKENT ARCHAEOLOGICAL PARK (RESULTS AND FUTURE TASKS)

Anarbayev Abdulhamidjon

tarix fanlari doktori, professor – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi bo‘lim boshlig‘i.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Namangan viloyati To‘rqo‘rg‘on tumanida joylashgan Axsikent arxeologiya yodgorligi asosida tashkil etilayotgan Axsikent arxeologiya parkini bunyod etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan qurilish va tadqiqot ishlari bo‘yicha natijalar va istiqboldagi vazifalar haqida batafsil ilmiy mulohazalar yuritilgan.

Аннотация

В данной статье изложены научные рассуждения о проводимых строительных и исследовательских работах по созданию Археологического парка Аксикент на основе одноимённого археологического памятника, расположенного в Туракурганском районе Наманганской области. Подробно рассмотрены достигнутые результаты и обозначены приоритетные задачи на будущее.

Abstract

This article presents detailed scholarly reflections on the construction and research activities being carried out to establish the Axsikent Archaeological Park, based on the Axsikent archaeological site located in the To‘rqo‘rg‘on district of Namangan region. The paper discusses the achieved results and outlines future tasks related to the development of the park.

Kalit so‘zlar.

Axsikent, G‘ovasoy, Kosonsoy, Chustsoy, Dalvarzin, Ashqoltepa, protogorod, Eski Axi, Yangi Axi, Xitoy manbalari, Muzey, Ochiq osmon ostidagi ko‘rgazma ob‘ektlari, tarixiy davrlar, artefaktlar, suv yo‘li, kulolchilik, temirga ishlov berish.

Ключевые слова:

Аксикент, Говасай, Касансай, Чустсай, Дальварзин, Ашкольтепа, протогород, Старый Акси, Новый Акси, китайские источники, музей, объекты под открытым небом, исторические эпохи, артефакты, водный путь, гончарное производство, обработка железа.

Keywords:

Axsikent, G‘ovasoy, Kosonsoy, Chustsoy, Dalvarzin, Ashqoltepa, proto-city, Old Axi, New Axi, Chinese sources, museum, open-air exhibition objects, historical periods, artifacts, waterway, pottery, ironworking.

Farg‘ona vodiysi ilk paleolit davridan boshlab ibtidoiy odamlar yashagan makon hisoblangan. Bu haqida Janubiy Farg‘onaning So‘x vohasidan topilgan tosh qurollari guvohlik beradi. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarga qaraganda,

Shimoliy Farg‘ona, ya’ni hozirgi Namangan viloyati hududi so‘nggi paleolit davridan boshlab o‘zlashtirila boshlangan. Aniqroq qilib aytganda, bundan 40-50 ming yil avval G‘ovasoy irrigatsiya rayonining tog‘ oldi hududlarida so‘nggi paleolit davri odamlari yashagan. Miloddan avvalgi III minginchi yillarning ikkinchi yarmida G‘ovasoy irmog‘laridan biri hisoblangan Chustsoyning adir orti mikrovohasida, Farg‘ona vodiysida birinchi bo‘lib ilk sug‘orma dehqonchilik yo‘lga qo‘yiladi va hozirgi Chust shahrini shimolidagi Buvanamozor yodgorligi o‘rnida dastlabki dehqonchilik manzilgohi shakllanadi. Miloddan avvalgi II minginchi yillarning ikkinchi yarmiga kelib vodiyning boshqa daryo va soylari havzalarining adir orti mikrovohalarida ham eng qulay yerlar o‘zlashtirilib, sug‘orma dehqonchilik yo‘lga qo‘yiladi va qator manzilgohlar paydo bo‘ladi. Shu asosda Chust, Dalvarzin, Ashqoltepa kabi ilk shahar tipidagi qarorgohlar (“protogorod”) shakllanadi.

Miloddan avvalgi X-IX asrlarda Sharqiy Farg‘onada Oqbura va Aravonsoy, Shimoliy Farg‘onada Kosonsoyning irmog‘lari asosida ilk kanallar quriladi. Natijada, yuzlab gektar yangi yerlar o‘zlashtiriladi. Xususan, Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab yastanib yotgan unumdor pasttekisliklarning sug‘orish uchun qulay bo‘lgan yerlari o‘zlashtirilib, dehqonchilik qilinadi. Bu xaqida Eski Axsi yodgorligi tagidan va uning atofida aniqlangan agroirrigatsion qatlamlar va topilmalar guvohlik beradi. Bunga o‘xshash holat Farg‘ona vodiysining qolgan hududlarida ham yuz beradi. Oqburaning delta qismida Andijonsoy, Aravonsoyning delta qismida Shaxrixonsoy kabi kanallar quriladi. Marg‘ilonsoy vohasining Simtepa mikrovohasidagi Simtepa yodgorligi tagidan ham ushbu davrga oid agroirrigatsion qatlamlar (sug‘orma dehqonchilik qoldiqlari) topilgan.

Keyinchalik, ilk temir davridan boshlab vodiyning daryo va soylari havzalarida shaharlar va urbanizatsiyalashgan qarorgohlar quriladi. Bunga Chust madaniyati negizida shakllangan Eylatan, Qirxujra va Simtepa yodgorliklari o‘rnidagi shahar va shahar tipidagi qarorgohlar yaqqol misol bo‘la oladi. Miloddan avvalgi III-II asrlardan boshlab Farg‘ona vodiysining daryo va soylarini adir oraliq va delta qismlaridagi yerlarning asosiy qismi o‘zlashtirilib, yangi shaharlar va urbanizatsiyalashgan qarorgohlar quriladi. Ular ichida Eski Axsi yodgorligi o‘rnida miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida 40 gektardan ziyod maydonda Farg‘ona davlatining poytaxti Farg‘ona (xitoycha”Yuan”) shahri qurilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lum bo‘lishicha, Axsikat (Axsikent) shahri qadimdan to IX asrning birinchi yarmigacha Farg‘ona, IX asrni ikkinchi yarmidan to XI asrni o‘rtalarigacha Farg‘ona-Axsikat, XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab mo‘g‘ullar bosqinigacha Axsikat deb atalgan. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng shahar hozirgi Axsi qishlog‘i yaqinidagi Yangi Axsi yodgorligi o‘rniga ko‘chadi. Bu yerda shahar to XVII asrning o‘rtalarigacha, ya’ni kuchli zilzilagacha faoliyat ko‘rsatib, manbalarda Axsikat, Axsi, ba’zida Axsikent deb tilga olinadi. Hozirgi kunlarda ushbu shaharning nomi mahalliy xalq orasida Eski Axsi, Axsi yoki Axsikent nomi bilan saqlanib qolgan.

Dastlab, shahar ikki qismdan iborat bo‘lgan: ark (qal’a) va shahriston (Axsi IA, Axsi IB), keyinchalik, miloddan avvalgi II asrda 10 gektarga yaqin maydonda

hunarmandlar shahri “rabod” (Aksi II) paydo bo‘ladi. Natijada, shahar 3 qismdan iborat bo‘lib, maydoni 50 gektardan oshib ketadi. Ilk o‘rta asrlarda shahar sharq tomonga kengayib, maydoni taxminan 70 gektarga yaqinlashadi. Rivojlangan o‘rta asrlarda uning maydoni 400 gektardan oshib ketib, o‘z davrining “megapolisi”ga aylanadi. Xozirgi kunlarda undan 50 ga. dan ziyodroq joy saqlanib qolgan, xolos.

Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi muhim bo‘g‘in vazifasini o‘tab kelgan Aksikat shahri tarixi o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu poytaxt shahar va uning atrofidagi shaharlar hamda urbanizatsiyalashgan qarorgohlar qoldiqlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘rsatmasi bilan “**Axsikent arxeologiya parki**” tashkil qilinmoqda. Kompleks asosan ikki qismdan iborat bo‘ladi:

I. Muzey.

II. Ochiq osmon ostidagi ko‘rgazma.

I. Muzey ekspozitsiyasining maqsadi, asosan, Farg‘ona vodiysining daryo va soylari havzasidagi vohalarni qadimgi davrdan boshlab inson tomonidan o‘zlashtirilishi, dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanishi, ilk shahar tipidagi qarorgohlarning paydo bo‘lishi va shu asosda shaharlarning qurilishi va rivojlanish tarixini arxeologik materiallar va yozma manbalar asosida bilan ko‘rsatish.

Shu asosda quyidagi vazifalar bajariladi:

-G‘ovasoy va Kosonsoy vohalarida ilk sug‘orma dehqonchilik madaniyatining shakllanish va rivojlanish tarixini ko‘rsatish;

-Shimoliy Farg‘onada urbanizatsiya jarayonlarining shakllanish va rivojlanish tarixini berish;

-Farg‘ona (Aksikat-Axsikent) shahrining paydo bo‘lishi va tarixiy topografiyasini ko‘rsatish;

-Shaharning moddiy va madaniy merosini har tomonlama yoritib berish;

-Shaharning etnomadaniy va diniy bag‘rikenglik va ijodiy hamjihatlik markazi bo‘lganligini aks ettirish;

- Farg‘ona-Aksikat, Bob (Pop) va Koson shaharlarining Buyuk ipak yo‘lidagi o‘rnini aks ettirish;

-Shaharning o‘zbek milliy hunarmandchiligini rivojlanishida tutgan o‘rnini ko‘rsatish;

-Shahar madaniy hayotida o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxslarning hayoti va ijodiy faoliyati xaqida batafsil ma’lumot berish.

Muzey 2 qavatli bo‘lib, uning tag qismi-yarim yarim yerto‘la bilan 3 qavatli.

Yarim yerto‘la ikki qismdan iborat bo‘ladi: 1-qism arxeologik artefaktlar ta’miratlanadigan, tadqiq qilinadigan va saqlanadigan xonalardan iborat bo‘ladi. Qazishmalar davrida topilgan barcha artefaktlar shu yerda ta’mirlanib, so‘ng ko‘rgazmaga qo‘yiladi. Shuning uchun, ushbu joy zamonaviy va jahon standartlarida tashkil qilinadi. Bu yerda arxeolog va ta’mirchi-restavratorlar ishlaydi.

2-qismda 50 kishilik kichik konferensiya zali bo‘ladi.

Birinchi qavat ikki qismga bo'linadi

1-qismda Farg'ona-Axsikat shahri xarobalaridan topilgan arxitektura qoldiqlarining (mudofaa devorlar, yer osti vodoprovodi, yer osti gumbazli xona, turarjoylar, ustaxonalar, kazarma, hammom, tazarlar) tiklangan ko'rinishdagi nus'halari (kopiya) zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda 3 tildagi (o'zbek, rus, ingliz) tekstlar bilan ta'minlangan holda beriladi. Shu yerni o'zida yodgorlikning ko'rinishlari, qazishma jarayonlarining rangli rasmlari ham ko'yiladi.

Farg'ona vodiysidagi qadimgi shaharlar va ularning Buyuk ipak yo'lidagi o'rni davrma-davr rangli kartalarda beriladi. Qirxujra yodgorligida (Bob-Pop) qazib ochilgan olov ibodatxonasining ko'rinishi, Mug'tepa va Mug'qal'adagi qadimgi Koson shahrining ko'rinishlari zamonaviy texnologiyalar yordamida aks ettiriladi. Shu bilan birga, Farg'ona-Axsikatda tug'ilib, voyaga yetgan yirik allomalar xaqida ma'lumotlar, ularning rasmlari va ularning ijodiy faoliyati xaqida ma'lumotlar beriladi.

2-qismda Axsikent arxeologiya parki boshqaruvi joylashadi va 400 kishilik konferensiya zali bo'ladi.

Muzeyning ikkinchi qavatida 4 ta katta zal bo'ladi.

Markaziy Farg'onadagi mezolit-neolit davriga oid ibtidoiy dehqonchilik (termachilik), Chust madaniyatiga tegishli ilk sug'orma dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlar kosmosdan olingan rasmlardan foydalangan holda karta-sxemalar va tiklangan landshaftlar ko'rinishda zamonaviy texnologiyalar yordamida 3 tilda (o'zbek, rus, ingliz) ko'rsatiladi. G'ovasoy va Kosonsoy vohalaridagi urbanizatsiya jarayonlar, Eski Axi (Axsikent) yodgorligi va uning atrofidagi shaharlar xarobalaridan qazib olingan arxeologik topilmalar davrma-davr xronologik tarzda namoyish qilinadi.

Qadimgi davr

Markaziy Farg'ona mezolit-neolit davrlaridagi ilk ibtidoiy dehqonchilik (termachilik) rangli rasmlarda qadimgi davr landshafti ko'rinishida beriladi.

G'ovasoy va Kosonsoy vohalarining adirorti qismidagi eng qulay yerlarning o'zlashtirilishi, sug'orma dehqonchilikni yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi namoyish etiladi. Xususan, G'ovasoy vohasida Chustsoy mikrovohasini tashkil topishi, Bibiona (Buvanamor) yodgorligi o'rnida miloddan avvalgi 3 minginchi yillarning ikkinchi yarmida ilk dehqonchilik qarorgohini paydo bo'lishi karta-sxema va o'sha davr landshafti ko'rinishida berilib, ularni 3 (o'zbek, rus, ingliz) tildagi tushuntirish tekstlar bilan ta'minlanadi.

Miloddan avvalgi II minginchi yillarning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysining qator daryo va soy havzalarining adirorti qismilaridagi eng qulay yerlar o'zlashtirilib, sug'orma dehqonchilik yo'lga qo'yiladi va asta sekin kengayadi. Jumladan, Qoradaryo va G'ovasoy vohalarining adirorti mikrovoahalarida urbanizatsiya jarayonlari shakllanib, Chust, Dalvarzin, Ashqoltepa kabi ilk shahar tipidagi qarorgohlarning (protogorod) paydo bo'lishi va joylanishi o'sha davr landshafti va karta-sxema ko'rinishda beriladi. Shu davrga oid arxeologik topilmalar ham namoyish etiladi.

Miloddan avvalgi X-IX asrlardan boshlab G'ovasoy, Kosonsoy, Oqbura va Aravonsoy kabi daryolarining delta qismlarini o'zlashtirilishi va ilk kanallarni paydo bo'lishi karta-sxemalarda beriladi. Bunday ulkan ishlarni boshida siyosiy uyushmalar, ya'ni ilk davlatlar turgan bo'lishi kerak. Bular muzey ko'rgazmasidan karta sxemalar ko'rinishida joy oladi. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda G'ovasoyning irmog'i Olmossoyning delta qismida Qirqxujra yodgorligi o'rnida 20 gektarga yaqin maydonda Bob (Pop) shahri quriladi. Kosmosdan olingan rasmlar va topografik kartalar yordamida Olmossoyning delta qismining irrigatsiya sxemasi, shaharning joylanishi va topografiyasi zamonaviy texnologiyalar yordamida beriladi. Yodgorlikning kosmosdan olingan rasmi, topografik kartasi, arxeologik obyektlar va ulardan topilgan artefaktlar davrma-davr 3 tildagi tekstlar bilan ta'minlangan holda namoyish etiladi.

Antik davr (miloddan avvalgi IV asrning oxiri -milodiy eraning IV asri)

Xitoyning "Shiszi" va "Xanshu" kabi tarixiy solnomalarida antik davrdagi Farg'onani siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to'g'risida ilk ma'lumotlar keltiriladi. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, qadimgi Farg'ona davlati ikkita yordamchisiga ega bo'lgan hukmdor tomonidan boshqarilgan. Mamlakat siyosiy hayotida "Oqsoqollar kengashi" (Parlament) katta ahamiyat kasb etgan. Unda davlat hayotiga oid eng muhim masalalar, xususan urushlarning e'lon qilinishi, tinchlik muzokaralarini olib borish va zarurat tug'ilganda hukmdorning o'zining taqdirini hal qilish kabi holatlar ko'rib chiqilgan. Masalan, miloddan avvalgi 104-yilda boshlangan Farg'ona va Xitoy orasidagi 4 yillik urush yakuniga kelib, "Oqsoqollar kengashi"ning qarori bilan urushning eng asosiy aybdori sifatida Farg'ona podshosi Mugua o'ldirilgan. Shu bilan birga, Shiszi da Yuan, Yuchen, Ershi kabi 3 ta shahar tilga olinadi. Yuchen va Ershi Farg'ona konfederativ davlatiga kiruvchi kichik davlatlar poytaxti bo'lganga o'xshaydi. Yuan shahri esa markazlashgan Farg'ona davlatining bosh poytaxti bo'lgan. Oqsoqollar kengashining a'zolari konfederativ davlatga kiruvchi davlatlardan saylangan vakillar bo'lsa kerak. Xuddi shunga o'xshash siyosiy tuzimni ilk o'rta asrlar So'g'd konfederativ davlati misolida ko'rishimiz mumkin. Bunda Samarqand bosh poytaxt hisoblangan. Bularni hammasi ko'rgazmada o'z aksini topadi.

Miloddan avvalgi III-II asrlardagi migratsion jarayonlar butun Yevroosiyo dashtlari bo'ylab tarqalgan. Xususan, yuyechji (toxtarlar)larning Sinszyandan g'arb va janub tomonga yurishi Farg'ona orqali amalga oshgan. Ushbu yurishda shuningdek, ko'psonli noma'lum xalq va qabilalar ishtirok etganlar. Ularning ma'lum bir qismi yurish vaqtida Farg'onada qolib, mahalliy xalqlar bilan bir qatorda, antik davrdagi Farg'onaning o'ziga xos madaniyatining shakllanishida ishtirok etganlar. Ko'rgazmada Farg'onaning antik davr siyosiy hayoti rangli xaritalarda va 3 tilda tegishli tekstlar bilan ta'minlangan holda beriladi.

Aniqlanishicha, miloddan avvalgi III asrda Farg'ona davlatining (xitoycha "Dayyuan") poytaxti Sirdaryoni o'ng sohili bo'ylab hozirgi Axsikent yodgorligi o'rnida 40 gektardan ziyod maydonda Farg'ona (xitoycha "Yuan") shahri quriladi. U dastlab, ark va shahristondan iborat bo'lgan. Shahristonning o'zi ikkiga bo'lingan (Aksi IA, Aksi IB). Miloddan avvalgi II asrda shahristonning g'arbida

10 gektarga yaqin maydonda tashqi shahar (“rabod”) shakllanadi. Endi shahar 3 qismdan iborat bo‘lib, maydoni 50 gektardan oshib ketadi. Ushbu antik davr shahari o‘rta asrlar shahrini tagida bo‘lganligi uchun uni o‘rganish ancha qiyin. Lekin, shunga qaramay shaharning 5 ta yerida stratigrafik qazishmalar yordamida, uning qadimgi davr topografiyasi va xronologiyasi o‘rganildi. Natijada, ark va ikkinchi shahristonda mahobatli mudofaa devor qoldiqlari topilgan. Ma’lum bo‘lishicha, miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi - II asrda shahar ikki qavat qalinligi 5 metrdan ziyod devorlar bilan o‘rab olingan ekan. Xitoy va Farg‘ona orasidagi urushlardan keyin shahar uzog‘i bilan 50 yil davomida qalinligi asosida 15 metrga yaqin yangi ikki qavatli devorlar bilan o‘rab olingan. Devorlar o‘ziga xos burjlarga ega bo‘lib, ular devor tashqarisiga chiqmay, balki undan kamida 4 m. baland bo‘lgan. Qazishmalar vaqtida moddiy madaniyat qoldiqlari ham qo‘lga kiritilgan. Bularning hammasi kosmosdan olingan rasmlardan foydalangan holda topografik karta-sxemalar va maxsus rangli sxemalarda davrma-davr zamonaviy texnologiyalar yordamida, 3 tilda tushuntirish tekstlar bilan namoyish etiladi. Shu bilan birga bu yerda Qirxujra (qadimgi Pop) yodgorligidan topilgan artefaktlar ham alohida o‘rin oladi.

Miloddan avvalgi I asrning 90 - milodiy eraning 23 yillarida Farg‘ona davlatining siyosiy hayotida o‘zgarishlar yuz beradi. Davlat tepasiga yarim ko‘chmanchi qabilaning vakillari keladi. Xuddi shu davrda Farg‘ona vodiysida 10 balli kuchli yer qimirlash sodir bo‘ladi. Poytaxt shahar Farg‘ona (Axsikat) butunlay vayron bo‘ladi. Yangi xukmdorlar Mug‘tepa (qadimgi Koson) yodgorligi o‘rnida o‘zlariga poytaxt quradilar. Yodgorlik topografiyasiga qaraganda podsho shaharning o‘rtasida maxsus shoxona chodirda yashagan. Bu yerda shaharning joylanishi, topografiyasi va ko‘rinishi yangi texnologiyalar yordamida beriladi.

Xitoy manbalarida berilgan ma’lumotlar va arxeologik tadqiqotlarga asoslanib, Buyuk ipak yo‘lining Farg‘ona orqali o‘tgan tarmog‘ini shimoliy, janubiy yo‘nalishlarini va ularning o‘zaro bog‘lanishlarini rangli xaritalarda ko‘rsatiladi. Bu davrda Farg‘ona Xitoyga samoviy tulporlar, har xil mevalar va paxta yetkazib bergan. Xitoydan esa ipak matolar va har xil bronzadan yasalgan buyumlar olgan. Xitoy yilnomalarida Farg‘onaning samoviy tulporlari va uzumi xaqida yozib quyidagilarni takidlaydi: farg‘onaliklar uzumdan tayyorlangan mayni (vino) qanday yaxshi ko‘rib ichsa, ularning otlari (“tyanma”) ham bedani (“mu su”) xuddi shunday yaxshi ko‘rib yeydi. Xitoyliklar Farg‘onadan faqat, samoviy otlar emas, balki ularning yemishi bedani va farg‘onaliklarning sevimli mevasi uzumni ham olib borib imperator saroyiga ekishgan. Bularning hammasi zamonoviy texnologiyalardan foydalangan holda ko‘rgazmada o‘z aksini topadi.

Poytaxt shahar Farg‘ona-Axsikat va uning atrofidagi shaharlar ilk o‘rta asrlarda

V asrning oxirgi choragidan boshlab xitoy manbalarida Farg‘ona Lona nomi bilan, keyinchalik – Boxan, Boxanna, Polona tarzida berilgan. Bu yerda ko‘plab qizil rangdagi mineral (simob sulfid), oltin va temir borligi ta’kidlangan. Farg‘onaning hukmdori chjaovu (jabg‘u) unvoniga ega bo‘lgan. U tillarang qo‘y tasviridagi taxtda o‘tirgan, uning ayoli esa boshiga tillarang gulchambar taqib

yurgan. Bu davrga kelib, Fargʻona Gʻarbiy Turk xoqonligi hokimiyatini tan olgan. VII asr oʻrtalariga kelib, Gesay (Koson) shahrida Turk xoqonligining vakili, janubda Xumin (Quva) shahrida esa mahalliy sulolalardan birining vakili taxtda oʻtirganlar. Keyinchalik, “Tanshu”da esa Fargʻona “Ninyuan” deb atalib, uning poytaxti Sigyan shahri deb koʻrsatilgan. Xukmdorining qarorgohi Chjenchju (Sirdaryo) daryosining shimoliy tarafida joylashgan Sigyan (Fargʻona) shahrida joylashgan. Bu davrga kelib, xitoy manbalarida Fargʻona shahri Sigyan deb nomlangan. 6 ta katta va 100 ga yaqin kichik shaharlari bor - degan maʼlumotlar uchraydi. Ushbu maʼlumotlardan kelib chiqqan holda, bu davrda oltita mulkning poytaxtlari boʻlgan olti katta shaharni oʻz ichiga olgan konfederativ davlat faoliyat koʻrsatishda davom etgan, degan fikrni aytish mumkin. Xitoy manbalarida ulardan faqat uchtasigina (Gesay, Xumin, Sigyan) nomlari qayd etilgan boʻlsa, arxeologik materiallar bu yerga yana toʻrta shahar Pop (Balandtepa), Oʻsh (Oqbura), Quva va Qoʻqonni (Tepaqoʻrgʻon) kiritish mumkin - degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Fargʻona xalqlari hayotida Turk xoqonligi muhim oʻrin egallagan. Fargʻonaning dastlab xitoyliklarga, soʻngra arablarga qaramligi faqatgina nominal xarakterga ega boʻlgan. Faqatgina xalif Mahdiy (775-783) zamonida Fargʻona hukmdori rasman xalifalik hokimiyatini tan olgan. Fargʻona vadiysi va poytaxt shahri Fargʻonadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot Oʻrta Osiyoning boshqa qoʻshni mintaq va shaharlaridagidan kam farq qilgan. Yozma manbalar va Mugʻ togʻidan topilgan sugʻdiy hujjatlar maʼlumotlariga koʻra, hukmron tabaqa na siyosiy, na iqtisodiy hayotda yaxlit bir butunlikni tashkil etmagan. Ushbu iyerarxiyada xitoy manbalarida “chjaovu” deb atalgan hukmron oilalarining vakillari eng yuqori oʻrinda turganlar. “Beyshi”, “Suysu” va “Tanshu” dagi maʼlumotlarga koʻra, ushbu sulolalarning ota urugʻlari yuyechjilarga borib ulangan. Sugʻdiy tangalarida oʻqilgan ayrim ismlar ushbu sulolaning uzoq vaqt davomida kuchli darajada eroniylashib ketganligini koʻrsatadi. Oqsuyaklarning keyingi tabaqasini yer egalari - dehqonlar tashkil etganlar. Mugʻ kolleksiyasining A9 hujjatida aholining ijtimoiy guruhlarining muhim roʻyxati keltiriladi. Bu yerda “oqsuyak va savdogarlar” (“azat”), “oddiy xalq” (“ishchi”) va ruhoniylar (“baxshi”) haqida maʼlumotlar uchraydi. Ijtimoiy tabaqalashuvning eng oxirgi roʻyxatidan turli darajadagi xizmatchilar joy olganlar. Shahar va qishloqlarda yerning asosiy qismi yuqorida qayd etilgan yirik yer egalari tegishli boʻlgan. Yerlar ozod odamlarga: yaʼni shaharlarda hunarmand va mayda savdogarlarga; qishloqlarda esa dehqon-ziroatchilarga ijaraga berilgan. Shu bilan birgalikda, jamoa aʼzolari barchasi egalik qilgan jamoa yerlari ham mavjud boʻlgan. Fargʻonaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bogʻliq boʻlgan barcha narsalar rangli xaritalar, sxemalar va rasmlarda berilib, kerakli ilmiy tekstlar bilan taʼminlanadi.

Milodiy eraning VII asrida Fargʻona (Axsikat) shahri oʻz siyosiy mavqeni tiklab oladi, yaʼni vodiyning bosh poytaxt iga aylanadi. Xitoy manbalarida u Sigyan deb tilga olinadi. Bu davrda shahar sharq tomonga kengayadi. Koʻrgazmada shahar topografiyasi (plani, mudofaa devorlari, turarjoylari) va

arxeologik artefaktlar (sopol idishlar, jangovar qurollar, mehnat qurollari va boshqalar) namoyish etiladi. Qadimgi Koson (xitoy manbalarida “Guyshuan”) xarobalari Mug‘tepa va Mug‘qal’aning topografiyasi (plani, mudofaa devorlari va boshqalar) qadimgi davr landshafti ko‘rinishida ko‘rgazmada aks ettiriladi.

Ilk o‘rta asrlarda Bob (Pop) Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklari o‘rnida bo‘lgan, ya’ni milodiy eraning IV asrini oxirlarida Qirxujradan shahar bu yerga ko‘chadi. Ko‘rgazmada Balandtepa va Munchoqt tepaning plani, u yerda ochilgan xumdonlar, shahar nekropoli va qazishmalarni ko‘rinishlari beriladi. Shahar nekropolidan topilgan boy arxeologik topilmalar namoyish qilinadi. Jumladan, qamishdan to‘qilgan tobutlar, sopol idishlar, hilma xil to‘qilgan savatlar, yog‘ochdan tayyorlangan taxtachalar, xunarmandchilik asboblari, jang va mehnat qurollari, ayollarning buyumlari va rang barang zebu-ziynat taqinchoqlar ko‘rsatiladi. Ular orasida Xindiston, Qora dengiz bo‘yi mamlakatlari va uzoq Sharqdan keltirilgan mo‘nchoqlar ham bor. Mahalliy va xitoy ipak matolarining qoldiqlari ham namoyish etiladi. Shu bilan birga, Munchoqtepa materiallari asosida Farg‘ona xalqlarining diniy bag‘rikengligi ham o‘z aksini topadi.

Bu davrda Yevroosiyo xalqlarining o‘zaro aloqalari yanada kengayadi. Sug‘d-turk savdogarlari sharqda Xitoy orqali Quriya- Silla (Koreya) va Yaponiyagacha, g‘arbda O‘rta yer dengizi bo‘yi davlatlarigacha, janubda Eron, Hindiston, Seylongacha borib, o‘zaro savdo aloqalarini doimiy muloqat yo‘liga aylantirishga erishadilar. Buyuk ipak yo‘li orqali ipak matolar, qimmatbaho buyumlar, rangli shishadan tayyorlangan munchoqlar, dori-darmonlar, har xil ichimliklar, samoviy tulporlar tashilgan. Afsonalarga boy bu yo‘l bo‘ylab din targ‘ibotchilari, qo‘li gul hunarmandlar, musiqachilar va akterlar sayohat qilishgan. Bunda Farg‘onaning ham o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan. Xususan, Farg‘onadan Xitoyga mevalar, paxta va paxta matolari va samoviy tulporlar junatish davom etgan. Bularning hammasi ko‘rgazmada o‘z aksini topadi. Buyuk ipak yo‘lining yo‘nalishlari va undagi Farg‘onaning o‘rni rangli xaritalarda beriladi.

Farg‘ona-Axsikat shahari rivojlangan o‘rta asrlar davrida

Arablar bosqinidan keyin, Tohiriylar, so‘ngra Somoniylar davlatining tashkil topishi Farg‘ona xalqlari hayotida ham siyosiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy va madaniy yuksalishga olib keladi. Bunday vaziyat Qoraxoniylar davlati davrida ham o‘zgarmaydi. Sivilizatsiyaning asosiy mezonini hisoblangan shaharlar, ayniqsa, poytaxt shaharlar tez taraqqiy etadi. Xususan, poytaxt shahar Farg‘ona-Axsikent bu davrda gullab yashnaydi. Uning maydoni 400 gektardan oshib ketib, o‘z davrining “megapolisi”ga aylanadi. Ko‘rgazmada shahar topografiyasi davrma davr berilib, unda shaharning suv bilan ta‘minlagan yer osti vodoprovodi, xavuzlar, dunyoga “Damashq qilichlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan qurollar yasalgan ustaxonalar, bozorlar, mudofaa inshootlar, yer osti qurilmalar, jome maschiti, turar joylar, hammomlar, kanalizatsiya inshootlari va boshqalarning qazishmadan keyingi ko‘rinishlari, chizmalari va tiklangan nus‘halari beriladi. Xususan, X arsda shaharga 16 km masofada hozirgi To‘raqo‘rg‘on shahri ichidan oqib o‘tayotgan Kosonsoydan pishiq g‘ishtdan tunel ko‘rinishda qurilgan yer osti vodoprovodi orqali suv olib kelingan. Shahar ichida

ham suv xuddi shunday yer osti vodoprovodi orqali taqsimlangan. Shahar ichidagi vodoprovod hozirgi metro uslubida qurilganligi kishini xayron qoldiradi. Uning qoldiqlari shahristonning 3 joyida ochib o'rganilgan bo'lib, ular ko'rgazmada o'z aksini topadi.

Bu davrda Farg'ona-Axsikatda toshga ursa kesadigan, dunyoga "Damashq qilichlari" nomi bilan mashhur qurollar tayyorlangan. Bunday qurolni yasash uchun toza po'lat ("bulat") kerak bo'lgan. Toza po'latni Axsikat metallurglari o'ta murakkab texnologiya orqali qo'lga kiritgan. Shuning uchun uni sir saqlashgan. Ustasi farang Axsikat hunarmandlari tayyorlagan qurollar Sharqda Xitoy, G'arbda Damashq bozorlarida sotilgan. Bunday qurollarni tayyorlagan ustaxonalar va po'lat ishlab chiqarishning qoldiqlari yodgorlikning 50 gektardan ziyod maydonida kuzatilgan. Arxeologik qazishmalarga asoslanib, ustaxonalarning maketlari yasaladi, ularning ichki interyeri tiklanadi. Bularning hammasi ko'rgazmada zamonaviy texnologiyalar yordamida o'z aksini topadi. Shu bilan birga qazishmalar davrida topilgan arxeologik artefaktlar davrma davr, kerakli tarixiy tekstlar bilan ta'minlangan holda namoyish etiladi.

Shahar mudofaa inshootlari, jumladan, arkdagi kazarma, yer osti yo'li va mudofaa devor qoldiqlarining holati, qazishmalar davrida olingan rasmlar, chizmalar va shu asosda tiklangan inshootlarni ko'rinishi zamonoviy texnologiyalar yordamida beriladi. Bu yerdan topilgan osori atiqalar davrma davr, kerakli ilmiy tekstlar bilan ta'minlangan holatda beriladi.

IX-XI asrlar turarjoylari V obyektida ochilgan ikki qavatli uy misolida maketi tiklanib, ichki interyeri ko'rsatiladi. Keyingi davrlar VII obyektida ochilgan o'rta hol hunarmandlar yashagan uylar qoldiqlarining planlari, qazishma vaqtidagi ko'rinishlar va maketlari beriladi. Bunda xonalarning ichki interyeri arxeologik materiallar asosida tiklanib, ko'rsatiladi. Arxeologik artefaktlar davrma davr komplekslarda namoyish etiladi.

Shahar obodonchiligida muhim o'rin tutgan hammom I obyektida o'rganilgan hammom qoldiqlari misolida ko'rsatiladi. Uning plani, ichki interyeri, xonalarning funksiyasi, isitgich sistemasi, suv ta'minoti, ishlatilgan suvning tazar sistemasi yordamida tashnav bilan bog'lanishi va ularning faoliyati arxeologik materiallar asosida namoyish etiladi. Shu bilan birga, shahardagi tazarlar, tashnavlar va badrablar va ularning shahar tozaligida tutgan o'rni maketlar va ilmiy tekstlar bilan ta'minlangan holda namoyish etiladi.

VIII-IX asrlardan boshlab Buyuk ipak yo'lining Farg'ona orqali o'tgan tarmog'i "Shimoliy yo'l" va uning yo'nalishlarining davrma davr o'zgarishi xaqida arab tarixchi va geograflari qiziqarli ma'lumotlar beradi. Farg'ona orqali o'tgan savdo karvonlari albatta poytaxt shahar Farg'ona-Asikent, Shimoliy va Janubiy Farg'onadagi tog'-kon sanoati orqali o'tishga hamda Iloq tog'-kon sanoati bilan bog'lanishga xarakat qilganlar. Ko'rgazmada, yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik materiallar bilan qiyosiy tahlil qilgan holda Buyuk ipak yo'lining Farg'ona orqali o'tgan yo'nalishlarini davrma davr rangli xaritalarda berilib, ilmiy tekstlar bilan ta'minlanadi.

Xususan, IX asrning birinchi yarmida Ibn Xordadbexning yozishicha Samarqanddan chiqqan karvon Ustrushona orqali Xo‘jandga kelgan, so‘ng Samgar, Xojiston, Turmukon va Bob orqali Farg‘onaga (Axsikat) borgan. Undan Qubo, O‘sh, O‘zgan orqali o‘ncha katta bo‘lmagan Otboshi shahriga kelgan, so‘ng at-Tubbot orqali Sharqiy Turkistonga borgan. Xo‘jandga borgan karvonlar Samgar va Xojiston orqali Iloqqa o‘tgan. X asrda Istaxri va Ibn Xavqallarning bergan xabarlariga qaraganda, Sug‘ddan chiqqan karvonlar Xo‘jand, Kent (Kanibodam) orqali So‘xga kelgan, so‘ng Rishton, Zanderamish, Qubo orqali O‘sh va O‘zganga borgan. Vodiyning bosh shahri Axsikatga ham So‘h orqali o‘tib, so‘ng Xo‘qandga (Qo‘qon) borgan. Xo‘qondan yo‘l ikkiga bo‘lingan: biri suvsiz Markaziy Farg‘ona qumliklari orqali to‘g‘ri Axsikatga borgan bo‘lsa; ikkinchisi Bob orqali borgan. XI asrda asosiy yo‘l So‘xdan so‘ng ikkiga bo‘lingan: biri avvalgidek Xo‘qand orqali Axsikatga borgan; ikkinchisi Xaydarkon, O‘xna, Qadamjoy orqali Marg‘ilongan kelgan, so‘ng Qubo, O‘sh, O‘zgandga o‘tgan. Birinchi yo‘l Axsikatdan keyin ikkiga bo‘lingan: birinchisi “Ikki suv orasi” (Norin va Qoradaryo) orqali O‘zgandga borgan; ikkinchisi Marg‘ilondan keyin Qubo, O‘sh orqali O‘zgandga kelgan. XII asrda ham ushbu holat saqlanadi, faqat shimoliy yo‘nalishda karvonlar Axsikatdan so‘ng Kosonga ham o‘tgan. Yuqoridagilarni hammasi davrma davr rangli xaritalarda beriladi.

Ko‘rgazmada ushbu davr madaniy hayotiga ham katta o‘rin berilib, Ahmad Farg‘oniy, aka uka Axsikatiylar va boshqa qator allomalar hayoti va ijodiga alohida e‘tibor beriladi. Xususan, Ahmad Farg‘oniyning jahon matematika va astronomiya fanlariga qo‘shgan xissasi ko‘rgazmada aks ettiriladi.

Axsikat - so‘ngi o‘rta asrlar davrida. Mo‘g‘ullar istilosi tufayli O‘rta Osiyo, jumladan Farg‘ona xalqlari boshiga tushgan og‘ir kunlar XIV asrning 70 yillarida Sohibqiron Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi bilan tugab, yangi o‘yg‘onish davri boshlanadi. Vayron bo‘lgan shaharlar qaytadan tiklanadi. Temur va Temuriylar davrida Axsikent shahri yangi joyda, Eski Axsi yogorligidan 5 km g‘arbdagi hozirgi Axsi qishlog‘i yaqinida Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab barpo etilgan. Ushbu shahar xarobalari mahalliy xalq orasida Yangi Axsi deb atalib, bir qismini Sirdaryo suvlari yuvib ketgan bo‘lsa, qolganini 1960-1970-yillardagi paxta yakka hokimligi davrida yo‘q qilib yuborilgan. Uning ba‘zi bir uzuq yuluq qoldiqlari madaniy qatlamlar ko‘rinishida hozirgi Yakkayigit qishlog‘i uylari tagida qolgan. Temuriylar davridagi Axsikentning arki, shahristoni va rabodi bo‘lib, hunarmandchilik har tomonlama rivojlanadi. Bu yerda Bobur mirzoning otasi Umar shayx mirzo Farg‘ona vodiysini boshqargan. Ko‘razmada shaharning joylashuvi, taxminiy plani va 1970-yillarda topilgan arxeologik materiallar namoyish etiladi. Shaharning 1620-yildagi yer qimirlash tufayli butunlay vayron bo‘lishi va Axsikat (Axsi) tarixini yakuni ko‘rgazmada o‘z aksini topadi.

Ko‘rgazmaning asosiy qismini o‘sha davr madaniy hayoti tashkil qiladi. Xususan, Bobur mirzoning Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o‘rni keng qamrovli ko‘rinishda beriladi. Ayniqsa, uning ijodiy faoliyatiga katta o‘rin ajratiladi. Bunda “Boburnoma” asarining yozilishi va

uning Markaziy Osiyo va Xindiston tabiati hamda xalqlari tarixi xaqidagi qomusiy asar sifatida namoyish etiladi.

II Ochiq osmon ostidagi ko‘rgazma. Ochiq osmon ostidagi ko‘rgazma Eski Aysi (Axsikent) yodgorligi xududida bo‘lib, asta- sekin bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki yodgorlik 10-15 metrli madaniy qatlama ega bo‘lib, o‘z bag‘rida 1,5 ming yillik tarixni saqlab kelayapti. Har bir madaniy qatlam ma’lum bir davr xaqida ma’lumot beradi. Shuning uchun yodgorlik xududida qaysi obyektida ish boshlanmasin, u yerda qazishma eng yuqori qatlanni (XII-XIII asrning birinchi choragi) o‘rganishdan boshlanadi. O‘tgan yillar davomida, asosan, yuqori qatlamlar yaxshiroq o‘rganilganligi tufayli, dastlabki ko‘rgazma fanga ma’lum, o‘rganilgan obyektlarda tashkil qilinadi. Shuni takidlash joizki, qaysi obyektida ish boshlansa, o‘sha yerda 24 soatli qo‘riqlash tashkil qilinishi zarur.

Birinchi navbatda mutaxassis arxeologlar nazorati ostida, yodgorlikning muhofazasini to‘liq xal qilish zarur. Buning uchun yodgorlik maxsus devorlar bilan o‘rab olinishi kerak. Xususan, Jomashuy tomonga ketishda yo‘lning chap tomoni bo‘ylab, shahristonni g‘arb tomondan o‘rab turuvchi shahar mudofaa devorining qadimgi ko‘rinishini ilmiy asosda tiklash. Shahriston va sharqiy rabodning shimoliy, sharqiy tomonlarini va g‘arbiy rabodni shimoliy hamda shimoliy-sharqiy tomonlarini kamida 25 m. kenglikda muhofaza zonasini tashlab, so‘ng maxsus devorlar bilan o‘rab olish. Yodgorlikning janub tomonida ham kamida 25 m. muhofaza zonasini qoldirib, setka devor bilan o‘rab olish. Uni tashqarisida yana 25 m. kenglikda joylashgan yerga sholi ekishni to‘xtatish va mavsumiy xavuzlarni quritish - birinchi navbatda amalga oshiriladigan vazifalardir.

Eski Aysi yodgorligi xududida quyidagi osmon ostidagi ko‘rgazma obyektlar tashkil qilinadi:

ark (sitadel) devori, kazarma va yer osti yo‘lini ochish, ta’irlash, konservatsiya qilish va uni ko‘rgazmaga tayyorlash;

sharqiy roboddagi (Aysi III) hammom qoldiqlarini ochish, ta’irlash, konservatsiya qilish va uni ko‘rgazmaga tayyorlash;

g‘arbiy roboddagi (Aysi II) IX -XI asrlarga oid turarjoyini (uy) ochish, ta’irlash, konservatsiya qilish va uni ko‘rgazmaga tayyorlash;

birinchi shahristondagi (Aysi IB) yer osti vodoprovodini ochish, ta’irlash, konservatsiya qilish va uni birga-bir nus’hasini (kopiya) tayyorlab, ko‘rgazmaga qo‘yish;

birinchi shahristondagi yer osti gumbazli tagxona va uning atrofini arxeologik o‘rganish, konservatsiya qilish. Gumbazli tagxonani birga-bir nus’hasini (kopiya) tayyorlash va uni ko‘rgazmaga qo‘yish;

turistik mavsumda yodgorlik xududidagi arxeologik tadqiqotlar olib borilayotgan obyektlarning birida arxeologik turizm tashkil qilish;

yodgorlikning janubida birinchi muhofaza zonasidan tashqarida maxsus yo‘lakcha tashkil qilinib, u yerdan sayyohlarga 1,5 ming yillik madaniy qatlamlar panarammasi ko‘rsatiladi. Ushbu panarammani Sirdaryo orqali maxsus jihozlangan kayiqlarda ham kuzatsa bo‘ladi.

Umuman olganda, O‘zbekiiston Respublikasi Prezidentining ko‘rsatmasi bilan tashkil qilinayotgan “**Axsikent arxeologiya parki**” Respublika madaniy hayotida katta voqelik hisoblanadi. Ushbu Majmua ilmiy-amaliy markaz hisoblanib, u mahalliy va xorijiy ziyoratchilar hamda sayyohlarning keng ko‘lamli tashrif qiladigan maskaniga aylanadi.

FARG‘ONA VODIYSIDAGI QADIMGI DAVRGA OID YODGORLIKLAR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI TAHLILLARI

HISTORIOGRAPHICAL ANALYSIS OF THE HISTORY OF ANCIENT MONUMENTS IN THE FERGANA VALLEY

ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСТОРИИ ПАМЯТНИКОВ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Eshov Baxodir Jo‘rayevich

Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada qadimgi davrga oid Farg‘ona vodiysi yodgorliklari tarixining tarixshunoslik tahlillari yoritilgan. Asosan, rus, xitoy va boshqa xalqlar olimlarining mavzuga doir turli qarashlari, olingan natijalari hamda xulosalari bayon etilgan.

Abstract.

This article presents a historiographical analysis of the history of ancient monuments in the Fergana Valley. It mainly outlines the various perspectives, findings, and conclusions of scholars from Russia, China, and other nations related to the topic.

Аннотация.

В данной статье освещён историографический анализ истории памятников древнего периода Ферганской долины. В основном изложены различные взгляды, полученные результаты и выводы учёных из России, Китая и других народов, касающиеся данной темы.

Kalit so‘zlar.

Davan, Mug‘qal‘a, Eski Ahsi, Chust yodgorligi, Ayritom, Munchoqtepa, Balandtepa, Chekkadagi Aleksandriya, Chjan Syan, N.I. Veselovskiy, M.Ye. Masson, Yu.A. Zadneprovskiy.

Keywords.

Davan, Muqqala, Old Akhsi (Eski Akhsi), the Chust monument, Ayritom, Munchoqtepa, Balandtepa, Alexandria on the Edge (Chekkadagi Alexandria), Zhang Qian, N.I. Veselovsky, M.E. Masson, Yu.A. Zadneprovsky.

Ключевые слова.

Давань, Мугала, Старый Акси, Памятник Чусту, Айритом, Мунчактепа, Баландтепа, Александрия на окраине, Чжан Сян, Н.И. Веселовский, М.Е. Массон, Ю.А. Заднепровский.

O‘tgan asrning 30-40 yillaridan boshlab Farg‘ona vodiysida olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bu mintaqa hududi bronza davrida qadimgi Sharq sivilizatsiyasining madaniy-xo‘jalik ta‘siridan yiroq va biqiq o‘lka hisoblangan. Mil.avv. II ming yillikning birinchi yarmida

O‘zbekistonning janubiy va markaziy hududlarida Sopolli va Sarazm kabi qadimgi dehqonchilik madaniyatlari gullab-yashnagan davrda Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi, hatto, Amudaryoning quyi xavzalari ham chorvador turk va sak qabilalari keng tarqalgan o‘lkalar edi. Shuning uchun ham, Sirdaryoning yuqori va o‘rta havzalari, ya’ni Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi to mil. avv. II ming yillikning oxirgi choragiga qadar chorvador qabilalar keng tarqalgan hudud bo‘lib qolaverdi [6, 175-176].

Yuqori Sirdaryo va uning irmoqlari havzasida joylashgan qadimgi Farg‘ona haqida yunon-rim mualliflari ma’lumotlar bermaydilar. Farg‘ona (Parg‘ona) haqidagi yozma ma’lumotlar asosan Xitoy manbalarida – Chjan Syan ma’lumotlari, Sima Syanning “Tarixiy xotiralar”, Ban Gunning “Birinchi xan sulolasi tarixi” kabi asarlarda ilk marta beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat “Da-yuan” yoki “Davan” nomi ostida eslatiladi. Farg‘ona (Parg‘ona) so‘zi so‘g‘d manbalarida “Fragonik” shaklida yozilib “tog‘lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik” ma’nosini bersa, Xitoy manbalaridagi “Da-yuan” tog‘lar orasidagi vodiy” ma’nosini beradi [29, 146].

Ko‘pgina, tarixiy-ilmiy adabiyotlarda “O‘rta Osiyoning javohiri” deb atalgan bu vodiy eng qadimgi davrlardan boshlab insoniyat tomonidan o‘zlashtirib borilib, o‘ziga xos sivilizatsiyaga makon bo‘lgan hamda ilk temir, antik va ilk o‘rta asrlar davrida qo‘shni davlatlarning ham diqqatini o‘ziga jalb etgan. Bu holat Farg‘ona vodiysining qadimgi davrlardan boshlangan jadal o‘zlashtirish jarayonlari ilk temir, antik va ilk o‘rta asrlar davrida ham faol davom etganligidan dalolat beradi. Ushbu jarayonlar tarixi va tarixshunosligini tadqiq etish – O‘zbekiston tarixini o‘qitish va o‘rganishga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgan bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ko‘pgina tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, Farg‘ona vodiysining tarixi, arxeologiyasi, etnologiyasi, iqtisodiy va madaniy munosabatlari, moddiy madaniyati tarixi yuz yildan ziyodroq vaqt mobaynida o‘rganilib kelinmoqda. Bu davr mobaynida Farg‘ona vodiysi tarixining turli davrlariga oid ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari va arxeologik qazishmalar amalga oshirilib, vodiy shaharsozligi, mudofaa inshootlari, qal’alari haqida muhim ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.

Demak, qadimgi Farg‘ona yodgorliklarining o‘rganilishi tarixi XIX asrning so‘nggi choragidan boshlanadi. Chunonchi, N.I.Veselovskiy 1884- yilda Rossiya IAK (Rossiya imperatorligi Arxeologiya komissiyasi)ning topshirig‘i bilan Farg‘ona vodiysiga keladi. Olim Eski Aysi (Axsikent) yodgorligidan mahalliy aholi tomonidan topilgan topilmalarni o‘rganib, Eski Aysi yodgorligi bilan tanishib, bu himoya inshootlari deb taxmin qilingan tepaliklarda unchalik katta bo‘lmagan qazishma ishlarini o‘tkazadi hamda asosan o‘rta asrlarga oid bo‘lgan sopol materiallarini qo‘lga kiritadi [11, 61-80]. Shundan so‘ng XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi a‘zolari Eski Aysi va Mug‘qal’ada ayrim tekshiruv ishlarini o‘tkazganlar [26]. Ushbu tadqiqotlar natijalari faqat o‘rta asrlar sopolari bilan yakunlanib, mudofaa inshootlari hamda yanada qadimgiroq davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot va madaniy aloqalar haqida ma’lumotlar yo‘q edi.

XX asrning birinchi choragidan boshlab O'rta Osiyoning tarixiy-madaniy viloyatlarida ma'lum arxeologik usullarni qo'llagan holda tadqiqotlar boshlandi. Jumladan 30- yillarning boshlarida V.A.Latinin Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy hududlarida arxeologik tadqiqotlar olib bordi [21, 109-170]. Olim ushbu hududlardagi bir nechta yodgorliklarda qidiruv va qisman qazishma ishlari olib borib, vodiyning himoya inshootlari hamda qadimgi madaniyati haqidagi davrlashtirishni taklif etdi. Keyinroq esa, Katta Farg'ona kanali qurilishi munosabati bilan M.Ye.Masson boshchiligida bir guruh olimlar kanal qurilishi hududlarida tadqiqot ishlari olib bordilar [22, 50-53]. Ushbu tadqiqotlar natijasida vodiyning bronza davridan o'rta asrlar davrigacha bo'lgan qator yodgorliklari aniqlandi hamda ular madaniyatini o'rganish, qiyosiy solishtirish, kelib chiqishini aniqlash ishlari boshlandi.

O'tgan asr 50- yillarining boshlarida Yu.A. Zadneprovskiy vodiydagi Dalvarzin ko'hna shahrini o'rganib, yodgorlikning tarixini tuzdi va keyinroq himoya inshootlari haqida ma'lumotlarni e'lon qildi [17, 41]. Ma'lum bo'lishicha, ko'hna shahar 4-6 metr qalinlikdagi himoya devori bilan o'rab olingan bo'lib, balandligi 2,5 metrda saqlanib qolgan.

1950- yilda E.M.Vorones tomonidan Chust yodgorligi ochilib, keyingi yillarda stansionar arxeologik tadqiqotlar davom ettirildi. Tadqiqotlarga ko'ra, Chust yodgorligi 1,5 gektaridagi hudud devor bilan o'ralgan bo'lib, 1,5 metr qalinlikda, 286 metr uzunlikda saqlanib qolgan [27, 229-230].

Yu.A.Zadneprovskiyning tadqiqotchilariga ko'ra Eylaton ko'hna shahri mil.avv. VI-IV asrlarga oid bo'lib, to'g'ri burchakli minoralar bo'lgan ikki qator devor bilan o'ralgan [20, 21-23]. T.G.Obolduyevaning fikricha, Eylaton devorlari ba'zi jihatlarini orqali (xom g'ishtlarning o'lchamlari, taxlanishi) Dalvarzin himoya inshootlari bilan o'xshashlik topadi [25, 192-194].

Farg'ona vodiysining antik davr tarixi va madaniyatini tadqiq etishda A.N.Bernshtamning xizmatlari kattadir. Ushbu olim rahbarligida 1948-1951- yillarda vodiyning qator manzilgohlari va mozor-qo'rg'onlarida tadqiqot ishlari olib borildi. Bu tadqiqotlarda olim asosiy e'tiborini tarixiy-madaniy jarayonlar va aloqalarga qaratib, mavjud arxeologik va yozma manbalarning qiyosiy tahlillari asosida O'rta Osiyo shimoli-sharqiy hududlarining tarixiy-madaniy davrlashtirishning quyidagi jadvalini ishlab chiqdi: [9, 346].

1. Bronza davri – mil.avv.II ming yillikdan.

2. Sak-usun davri – mil.avv.VII-V asrdan – II-I asrgacha (bu davr sak davri – mil.avv. VII-V asrlar, sak-issedon davri – mil.avv. V-III asrlar, usun-davan davri – mil.avv. II-I asrlarga ajratiladi) .

3. Xunn davri – mil.avv. I asr – milodiy II asr.

4. Kushon davri – II-V asrlar.

5. Turkiy davr – VI-VIII asrlar.

6. Qarluq davri – IX-X asrlar.

7. Qoraxoniylar davri - IX-XII asrlar.

Undan tashqari olim Marhamat, Koson Mug'tepa, Eski Aysi, Pop, Ayritom, Munchoqtepa, Balandtepa [8, 210] kabi yodgorliklarda ham tadqiqot ishlari olib

borib, ushbu yodgorliklardagi antik davrga oid tarixiy-madaniy jarayonlari jumladan mudofaa inshootlari haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladi va ularni fanga joriy etdi [19, 18].

Qadimgi davr Farg'ona vodiysi tarixi va madaniyatini o'rganishda Yu.A.Zadneprovskiyning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozimdir. O'tgan asrning 50- yillaridan boshlab olim Eylaton qo'hna shahri xarobalarini mil.avv. I ming yillikning o'rtalari bilan sanaladi [16, 29-45]. va keyinroq A.Latininning 1933-34 yillardagi qazishmalari hamda o'zining 1952- yildagi qazishmalariga asoslanib, "Eylaton madaniyati" degan atamani fanga joriy etdi.

Tadqiqotchi Farg'ona vodiysining antik davrga oid ko'plab ko'hna shahar, manzilgohlarida tadqiqot ishlari olib borar ekan, yodgorliklarni davrlashtirish masalalariga ko'plab aniqliklar kiritdi. Vodiydagi shahar va qal'alarning himoyalanihi, o'ziga xos madaniyatning ildizlari, kelib chiqishi, vodiyl aholisining iqtisodiy va madaniy aloqalari, ichki va tashqi migratsiya jarayonlari, vodiyl madaniyatiga ichki va tashqi ta'sir masalalari, mintaqa madaniy hayotining taraqqiy etishidagi qadimgi yo'llar va yo'nalishlarning ahamiyati kabi ko'plab tarixiy-madaniy rivojlanishi masalalari bevosita Yu.A.Zadneprovskiyning Farg'onadagi tadqiqotlari bilan bog'lanadi [18]. Olimning ayniqsa, Eylaton, Sho'rabashat, Marhamat kabi yodgorliklardagi antik davrga oid himoya inshootlarining tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

XX asrning o'rtalari va 2-yarmidan boshlab O'zSSR Fanlar Akademiyasining Tarix va Arxeologiya instituti hamda muzeylar xodimlari tomonidan ham Farg'ona vodiysida tadqiqot ishlari olib borildi. Xususan, bir guruh tadqiqotchilar Eski Axi qo'hna shahri hududida qazishmalar olib bordilar. Ushbu qazishmalar natijalarini umumlashtirgan I.Axrarov qo'hna shahar rivojini uch bosqichga ajratdi hamda birinchi bosqich antik davrga oid, degan xulosaga keldi [7, 53-58].

1957-1959- yillarda Eski Axi hududida Namangan muzeyi xodimi Yu.T. Chulanov ham tadqiqotlar olib bordi. Tadqiqotchi, ko'hna shahar hududida dastavval antik davr shahri mavjud bo'lganligini qayd etgan holda, himoya devorlari bilan o'rab olinganligi hamda bu shaharning madaniy va savdo-iqtisodiy markaz bo'lganligini ham alohida ta'kidlaydi [28, 146].

Keyingi yillarda O'zR FANing Tarix va Arxeologiya Instituti xodimlari tomonidan Quvaning shahristoni va arkida tadqiqotlar olib borildi. Bu yerdagi tadqiqotlar 1965-1970- yillarda V.A.Bulatova tomonidan davom ettirildi [10, 183]. Tadqiqotlar natijasida Quvaning antik davriga, jumladan, himoya inshootlariga ham oid bo'lgan qiziqarli ma'lumotlar olindi.

Farg'ona vodiysining g'arbiy chekkasida joylashgan Xo'jand yodgorligida N.N.Negmatov boshchiligidagi tadqiqotchilar qazishma ishlari olib bordilar. Uzoq yillik tadqiqotlar natijasida Xo'jandning tarixi va madaniyati qayta tiklanib, Aleksandr Makedonskiy bunyod ettirgan Chekkadagi Aleksandriya (Aleksandriya Kraynyaya) aynan ko'hna Xo'jand o'rnida bo'lganligi aniqlandi [24].

Farg'ona vodiysining antik davr yodgorliklarini tadqiq etishda A.A.Anarbayevning ilmiy tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozimdir. Olim o'zining

uzoq yillik ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysigi antik va o‘rta asrlar davri urbanizatsiya jarayonlari, vodiydagi ilk davlatchilik masalalari, vodiyl shaharlarining irrigatsiya tizimi, qadimgi yo‘llar va yo‘nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot masalalarini o‘rganib [4], Axsikent (Eski Aysi) ko‘hna shahri tarixi va madaniyati bo‘yicha fundamental tadqiqot ishini [3, 537]. yaratdi.

N.G. Gorbunovning vodiydagi Karkidon vohasidagi Karkidon, Miqtiqo‘rg‘on, Chuntepa kabi yodgorliklarda olib borgan tadqiqotlari ham diqqatga molikdir [13, 45-70]. Tadqiqotlarga ko‘ra, Karkidon yodgorligi noto‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi 1 gektar maydonni egallab, II-IV asrlarga oid himoya devorlari bilan o‘rab olingan. Minorasi to‘rtburchak shaklda, qurilish materiallari guvala, xom g‘isht va paxsadan iborat [13, 71-102].

Miqtitepa 1,5 gektardan iborat noto‘g‘ri to‘g‘riburchakli shaklni o‘zida aks ettiradi. To‘g‘ri burchakli minoralari bo‘lgan himoya devori (ehtimol ichki inshootlari ham bo‘lishi mumkin) yodgorlikning g‘arb, janub va sharqiy tomonlarida aniqlangan. Himoya devorlarining qalinligi 10 metrgacha bo‘lib, saqlanib qolgan balandligi 4,5 metr. Yodgorlikning “ichki xonalarsiz katta minorasi” qal‘a vazifasini bajargan. 4 metr qalinlikdagi devori to‘g‘ri burchakli (pastki qatlamlari) 1 metr balandlikdagi tuproq poydevor asosida bunyod etilgan [13, 75-80].

Chuntepa tomonlari 50 metrdan bo‘lgan kvadrat tarxga ega. Yodgorlik I-IV, VIII, XI-XII asrlar bilan sanalgan uchta rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tganligi aniqlangan. Tuynuksimon shinak (boynitsa)lari bo‘lgan Chuntepaning himoya devorlari 2 metrdan ko‘proq qalinlikdagi paxsadan qad ko‘targan. 2,5 metr balandlikda saqlangan himoya devorining ichkari qismida ikkita yo‘laklar ham ochilgan [13, 96-98].

2002- yilda N.G.Gorbunova va T.G. Obolduyevalar tomonidan Andijon viloyatining Bo‘z tumanida joylashgan II-III asrlar bilan sanalgan Kalamishtepa haqidagi ma‘lumotlar nashr etildi. Ma‘lumotlar natijalariga ko‘ra, umumiy maydoni 15-16 gektardan iborat ushbu yodgorlik, markazida ark bo‘lgan ikki qism (g‘arbiy va sharqiy)dan tashkil topib, aylana shaklga ega. Bu yerdagi to‘g‘ri burchakli ark 2-3 metrli tabiiy poydevor ustiga xom g‘ishtdan tiklangan. Uning to‘g‘ri burchakli minoralari va shinaklari bo‘lgan xochsimon tarxi hamda tashqi devorning 1,2-1,3 metr qalinligi aniqlangan [12, 166-172].

1970-1980- yillarda B.Abulg‘oziyeva Andijon viloyatining rejaviy asosida mudofalangan Sartepa va Qo‘rg‘ontepa yodgorliklarida tadqiqotlar olib bordi. Sartepa ko‘hna shahri Andijondan 50 km shimoliy g‘arbda, Qoradaryoning baland qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan. Yodgorlikning 10 metr balandlikda, 1,7 gektar maydonni egallagan noto‘g‘ri beshburchak shakldagi arki ochilgan. Arkka kirish joyi shimoli-sharqiy tomondan to‘g‘ri burchakli minora bilan himoyalangan. Ko‘hna shaharning I-VIII asrlarga oid uchta qurilish qatlami aniqlangan. Har uchala qatlamda ham tashqi himoya devorlari mavjud bo‘lgan [1, 149-155].

Qo‘rg‘ontepa mil.avv. III-I – milodiy VIII asr bilan sanalangan. B. Abulg‘oziyevaning tadqiqotlariga ko‘ra, ko‘hna shahar 16 gektar maydonni egallagan bo‘lib, 16 metr qalinlikdagi burchaklarida minoralari, janubiy qismida

arki, sharqiy qismida darvozasi bo'lgan devorlari bilan o'rab olingan. Qo'rg'on tepaning arki to'g'ri burchak shaklda bo'lib, paxsa, poydevor ustida 5 metr qalinlikdagi devor bilan o'rab olingan. Himoya devorlarida shinaklar aniqlanmagan [2, 20-28].

Himoyalashning voqea tuzimini o'rganishda Bilovur tepada olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qal'aning sharqiy devori, ichkaridagi hovuz va arkda izlanishlar olib borildi. Natijada antik va ilk o'rta asrlar bilan sanalangan uchta qurilish davri aniqlanib antik davrga oid qurilish xomashyosi va texnikasi, arkning shakli, ichki xonalari bo'lgan minoralari, kamondan o'q uzish shinaklari o'rganildi. Yodgorlikning geografik joylashuvini tahlil qilgan Yu.A.Zadneprovskiy Bilovur tepa mustahkam himoyalangan ko'hna shahar bo'lib, qadimgi O'sh himoya tizimida, Farg'onaning poytaxt shahri Mingtepa ko'hna shaharini himoyalash maqsadida qad ko'targan, degan xulosaga kelgan [15, 88-95]. B. X. Matboboyev antik davr Farg'ona vodiysining shahar markazlari himoya inshootlarini o'rganar ekan, bu davrda shaharlar himoya inshootlarida sifatli o'zgarishlari bo'lib o'tganligini, "himoya inshootlarining ma'lum qonunlari shakllanganligini" e'tirof etadi. Olimning fikricha, Mingtepa (Marxamat)ning himoya inshootlari ikki davr: shakllanish hamda vazifa bajarish bosqichlarini bosib o'tgan. Himoya devorlarida ichki xonalari bo'lgan minoralar mavjud bo'lib, ko'hna shaharda vodiyning yagona himoya tizimi kuzatilgan [23, 20].

1994- yilda N. G. Gorbunova II-III asrlarga oid bo'lib, to'rt davrga ajratilgan Ark tepadagi arxeologik tadqiqotlar natijalarini e'lon qildi. Tadqiqotlarga ko'ra, Ark tepada tuynuksimon shinaklari bo'lgan minorali mudofaa devorlari, tarx qal'a va devorlaridagi yo'laklar, qurilish materiallari, hamda qal'aning turli bosqichlaridagi rivojlanishi evolyutsiyasi aniqlangan [14].

So'nggi yillarda Axsiketning antik davr himoya inshootlari bo'yicha ham ma'lum ishlar amalga oshirildi. Xususan, tadqiqotlar natijasida arkning himoya devorlari, Axsiketning ikkinchi shahristonining rivojlanish evolyutsiyasi, shinaklarsiz devor minoralari, to'g'ri burchakli minoralar aniqlanib, ular bosqichma – bosqich mil.avv. III-I asrlarda bunyod etilganligi aniqlangan [5, 21-25].

Farg'ona vodiysi antik davr fortifikatsiyasi mudofaa inshootlarining sonining ko'payishi hamda turli shakllarga ega bo'lganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, shahar, qal'a, qo'riqlash qo'rg'onlarini o'z ichiga olgan himoya tizimining takomillashuvi ham antik davr uchun xosdir.

Bugungi kunga qadar nashr etilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Farg'ona vodiysining qadimgi davr himoya inshootlari evolyutsiyasi quyidagicha kechgan [23, 20-21].

1. Umumiy rejalari aniqlangan, davrlashtirilgan manzilgohlar.
2. Davrlar bo'yicha manzilgohlar soni va joylashuv xususiyatlari.
3. Turli davrlardagi yodgorliklarning xususiyatlari (minoralarining mavjudligi, minora ichidagi xonalar, kamondan o'q otish galereya va tuynuklari, devor oldi inshootlari va handaqlar).
4. Qurilish xomashyosi va uslublarining rivojlanishi.

5. Himoya inshootlaridagi ayrim elementlarning rivoji.

Farg‘ona vodiysidagi qadimgi davrga oid yodgorliklar tarixi tarixshunosligi tahlillari shuni ko‘rsatadiki, vodiyning o‘tmish tarixi va moddiy madaniyati, mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlari, shahar hamda qal’alarning himoyalaniishi madaniyatning turlari va shakllari, davrlashtirish masalalari, madaniyatlarning bosqichlari va vodiya xos xususiyatlari, vodiydagi davlatchilik masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin, ushbu tadqiqotlarda Farg‘ona vodiysining antik va ilk o‘rta asrlar davrida Markaziy Osiyoning iqtisodiy hamda madaniy aloqalar tizimida tutgan o‘rni va roli, egallagan mavqei maxsus ko‘rib chiqilmagan yohud alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Абулгазиева Б. Раскопки на городище Кургантепа // ИМКУ. Вып. 20. Ташкент. 1986.
2. Абулгазиева Б. Раскопки Сар-тепе // История и археология Средней Азии.- Ашхабад. Илим. 1978.
3. Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы. – Ташкент. Изд-во “Тафаккур”. 2013.
4. Анарбаев А.А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. Ташкент. 1981. 143 с; О‘sha muallif. Ахсикент в древности и средневековые (итоги и перспективы исследования) // СА. №1 М., 1988. С. 174-187; О‘sha muallif. Фергана в Великом Шелковом пути // Формирование и развитие трасс Великого Шёлкового пути в Центральной Азии в древности и средневековые. Ташкент. 1990. С.83-85; О‘sha muallif. Города Северный Ферганы и процесс урбанизации. – Ташкент. 1992, с.17-21; О‘sha muallif. Города Северной Ферганы в древности и раннем средневековые // ОНУз, №1-2. Ташкент, 1994. С.47-51; О‘sha muallif. Урбанистические традиции Ферганы // Изучение культурного наследия Востока // Мат.межд.конф. Санкт-Петербург. 1999. С.65-66; О‘sha muallif. Муғтепа ва унинг атрофида олиб борилган 2002 йилдаги тадқиқотлар // Археологические исследования в Узбекистане-2002 год. Ташкент. 2003.
5. Анарбаев А.А. Заметки о фортификации античного Ахсикета // Археология и история Центральной Азии. К 70-летию Ю.Ф. Бурякова.-Самарканд. 2004.
6. Аскарров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи.-Тошкент.: “O‘zbekiston”. 2015.
7. Ахраров И. Археологические исследования городища Ахсикент в 1960 г. // ОНУз №8. Ташкент, 1962.
8. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши // СЭ. №4. М., 1948. С. 155-161; О‘sha muallif. Древняя Фергана. – Ташкент, 1951.
9. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА.№26. – М.Л. 1952.
10. Булатова В.А. Древняя Кува. Ташкент.
11. Веселовский Н.И. Отчёт о работах в Средней Азии в 1884-1888 гг. // ОАК за 1882-1888 гг. СПб. 1891.
12. Горбунова Н.Г. Памятники Керкидонской группы в Южной Ферганы // Судьба учёного. К 100-летию со дня рождения Бориса Александровича Латынина.-СПб. 2002.
13. Горбунова Н.Г. Памятники Керкидонской группы в Южной Ферганы //АСГЭ. Ленинград. 1985. Вып. 26.
14. Горбунова Н.Г. Поселение Арк-тепа в Южной Ферганы // РА.-М. 1994.
15. Заднепровский Ю.А. Городище Билувур-тепа // КСИА-М., 1985. Вып. 184.

16. Заднепровский Ю.А. Городище Эйлатан (к вопросу о датировке памятника) // СА. №3. – М., 1960.
17. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. М., Наука, 1962,-№118.
18. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА №118. – М. –Л., 1962. 328 с; O'sha muallif. Археологические памятники Южных районов Ошской области (середина I тыс. до н.э-середина I тыс. н.э.). Фрунзе. 1960. -176 с; O'sha muallif. Древняя Фергана // История Киргизской ССР. Том I. Фрунзе, Киргизстан. 1984. с.177-201; O'sha muallif. Фергана (в античную эпоху) // Археология СССР. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Гл. 16. – М., Наука. 1985. С.304-316; O'sha muallif. Сто лет археологического изучения Ферганы // Информ. Бюлл. МАИКЦА. Вып. 10. М., 1986. С.75-86 ва бошқ.
19. Заднепровский Ю.А. Древняя Фергана. Автореф. дис.... канд. ист. наук. Л., 1954.
20. Заднепровский Ю.А. Развитие фортификации в Ферганы (I тыс. до н.э.) // фортификация в древности и в средневековье.-Санкт-Пб.1995.
21. Латынин Б.А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г // АсГЭ. Вып. 3. – Л., Искусство. 1961.
22. Массон М.Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала // КСИИМК. Вып. 4. М– Л., 1940.
23. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Оборонительные сооружения древней Ферганы. - Ташкент: "Extrem Press", 2011.
24. Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Раскопки на цитадели Ленинабада и локализация Александрии Эсхаты // АО 1976. М., 1977. С.341-350; Беляева Т.В. К открытию древнего поселения на территории Ленинабада // История и археология Средней Азии. Ашхабад. 1978. С. 41-48; O'sha muallif. Архаический, античный и раннесредневековый Ходжент по данным письменных и археологических источников // Исследования по истории и культуре Ленинабада. Душанбе, 1986. С.82-100.
25. Оболдуева Т.Г. О датировке стен Эйлатана (к вопросу о датировке памятника) // СА. 1981.-№4.
26. Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии // ПТКЛА.IV.СПб. 1897. ПТКЛА. VI/ СПб.1910.
27. Спришевский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана // СА.1972. №3.
28. Чуланов Ю.Г. Городище Ахсикент // СА, №3. М., 1963.
29. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи: Биринчи китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.

FARG'ONA VODIYSINING G'OVASOY VOHASIDA OLIV BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГАВАСАЙСКОЙ ОАЗИСЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH CONDUCTED IN THE G'OVASOY OASIS OF THE FERGANA VALLEY

Bekmirzayev Islomjon Ibrohim o'g'li

*Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi "Ipak yo'li arxeologiyasi" bo'limi katta ilmiy
xodimi*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan G‘ovasoy vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotlar davomida vohaning o‘rta qismida joylashgan va so‘nggi bronza hamda ilk temir davrlariga oid Bibiona (Chust madaniyatiga mansub) yodgorligida amalga oshirilgan qazishmalar asosida muhim ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Mazkur yodgorlikdan aniqlangan arxeologik materiallar – jumladan, qadimgi sopol buyumlar, metallurgiya faoliyatiga oid izlar, xo‘jalik va turar-joy inshootlari – G‘ovasoy vohasida antropogen landshaftning shakllanish jarayonlarini aniqlash va baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Аннотация.

В данной статье научно проанализированы результаты археологических исследований, проведённых в Гавасайской долине, расположенной в северной части Ферганской впадины. В ходе исследований на памятнике Бибиона, расположенном в центральной части долины и относящемся к позднему бронзовому и раннему железному векам (культура Чуст), были получены важные научные выводы. Археологические материалы, обнаруженные на данном памятнике – в том числе древняя керамика, следы металлургической деятельности, хозяйственные и жилые сооружения – служат важным источником для выявления и анализа процессов формирования антропогенного ландшафта в Гавасайской долине.

Abstract.

This article presents a scientific analysis of the results of archaeological investigations carried out in the G‘ovasoy valley, located in the northern part of the Fergana Basin. Important conclusions were drawn based on excavations at the Bibiona site, situated in the central part of the valley and associated with the Late Bronze and Early Iron Ages (Chust culture). The archaeological materials discovered at this site – including ancient ceramics, traces of metallurgical activity, and domestic and residential structures – serve as a significant source for identifying and interpreting the processes of anthropogenic landscape formation in the G‘ovasoy valley.

Kalit so‘zlar.

G‘ovasoy vohasi, arxeologik tadqiqotlar, Bibiona yodgorligi, Chust madaniyati, bronza davri, temir davri, metallurgiya, antropogen landshaft, moddiy madaniyat.

Ключевые слова.

Гавасайская долина, археологические исследования, памятник Бибиона, культура Чуст, бронзовый век, железный век, металлургия, антропогенный ландшафт, материальная культура.

Key words.

G‘ovasoy valley, archaeological research, Bibiona site, Chust culture, Bronze Age, Iron Age, metallurgy, anthropogenic landscape, material culture.

G‘ovasoy vohasi bugungi kunda Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida, O‘zbekiston Respublikasining Namangan viloyati (Pop va Chust tumanlari) hamda Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod viloyatiga qarashli Ola-Buqa tumani hududlarida joylashgan. Tabiiy-geografik nuqtai nazardan voha uchta asosiy qismga – quyi, o‘rta va yuqori bo‘limlarga bo‘linadi.

Quyi G‘ovasoy vohasi asosan pasttekisliklardan iborat bo‘lib, G‘ovasoy daryosi ushbu hududdan oqib o‘tib, Sirdaryo tomon yo‘naladi hamda bir necha irmoqlarga ajralgan holda delta shakllantiradi. Ayni paytda mazkur delta Sirdaryo

daryosidan taxminan 10 kilometr masofada joylashgan. Arxeologik tadqiqotlar ushbu vohaning eramizdan avvalgi VI asrda ham G'ovasoy daryosi orqali sug'orilganini ko'rsatadi [1: 77]. Bu esa quyi vohada qadimiy sug'oriladigan dehqonchilik tizimi mavjud bo'lganini va ilg'or irrigatsiya inshootlari rivojlanganini tasdiqlaydi. Mazkur hududda joylashgan Chilxujra yodgorligi muhim arxeologik obyektlardan biri bo'lib, olib borilgan qazishmalar natijasida u vohaning qadimgi dehqonchilik va hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida shakllanganini ko'rsatdi [2: 11]. Yodgorlikdan aniqlangan moddiy madaniyat namunalari, jumladan, sopol buyumlar, xo'jalik inshootlari va ishlab chiqarish faoliyatiga oid qoldiqlar, vohaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutganligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

O'rta G'ovasoy vohasi adirliklar hamda adir orti pasttekisliklardan tashkil topgan bo'lib, uning asosiy qismini G'ovasoy, Ko'kteraksoy va Sumsarsoy daryolarining konussimon yoyilma shakllaridan iborat adirliklari egallaydi. Bu relyef shakllari G'ovasoy daryosining uzoq muddatli denudatsion va akkumulyativ jarayonlari natijasida shakllanib, vohaning Sirdaryo tomonga kengayishiga sabab bo'lgan. Ushbu adirliklar tizimining eng baland nuqtasi dengiz sathidan 858 metr balandlikda joylashgan bo'lib, ularning kelib chiqishi neogen geologik davriga taalluqlidir [10: 19]. G'ovasoy daryosining o'ng sohili keng tekisliklar bilan ajralib turadi; bu yerda mavjud bo'lgan tabiiy buloqlar va daryo tarmoqlari ta'sirida mikrovohalar shakllangan. Mazkur mikrovohalar ilk sug'orma dehqonchilikka oid manzilgohlar rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Aynan shu mintaqada joylashgan Bibiona yodgorligi [11] o'rta G'ovasoy vohasining arxeologik jihatdan eng muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida vohada so'nggi bronza va ilk temir davrlarida qadimgi dehqon jamoalari yashab, sug'orma dehqonchilik va metallurgiya faoliyati bilan shug'ullanganliklari to'g'risida muhim ilmiy ma'lumotlar olingan [5: 69]. Topilmalar orasida sopol buyumlar, turar-joy inshootlari, xo'jalik qurollari va ishlab chiqarish faoliyatiga oid arxeologik materiallar mavjud bo'lib, ular ushbu hududda antropogen landshaftning shakllanish jarayonlarini ilmiy asosda o'rganishga imkon yaratadi.

Yuqori G'ovasoy vohasi asosan tog'li relyefdan iborat bo'lib, bu hudud Tyonshon tog' tizmasining g'arbiy etaklarida – Qurama-Chotqol tog'lari oralig'ida joylashgan. Bu tog'li hudud yer osti boyliklariga nihoyatda boy bo'lib, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi aholilar bu yerda temir, kumush va oltin kabi foydali qazilmalarni qazib olish va ularni qayta ishlash bilan shug'ullanganlar [9: 103]. Mazkur hudud, ayniqsa, qadimgi konchilik va metallurgiyaning ilk bosqichlarini o'rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

2021- yildan boshlab, Chust madaniyatining dastlabki yodgorligi bo'lmish Bibiona yodgorligida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy Arxeologiya markazi ilmiy xodimlari A. Anarbayev va S. Baratovlar boshchiligida arxeologik tadqiqotlar boshlandi [3: 9]. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi – Bibiona yodgorligi hamda unga tutash hududlarni tizimli ravishda o'rganish orqali G'ovasoy vohasida ilk antropogen omillarning shakllanish jarayonlarini aniqlash, qadimgi ijtimoiy-

iqtisodiy tuzilma, dehqonchilik va xo‘jalik faoliyatining rivojlanish bosqichlarini yoritishdan iboratdir. Ushbu izlanishlar nafaqat Chust madaniyatining xronologik va madaniy ko‘lamini belgilashga, balki butun voha tarixini arxeologik jihatdan chuqurroq talqin qilishga xizmat qilmoqda. Yodgorlik Namangan viloyatining Chust shahri shimoliy chekkasida, Bibiona ziyoratgohi yaqinida joylashgan tepalik bo‘lib. Geografik jihatdan G‘ovasoy daryosining o‘ng sohilidagi tepalik hisoblanadi. 1950- yillarda yodgorlik umumiy maydoni 4,06 gektarni tashkil etgan. Hozirgi kunda yodgorlikdan 2,3 gektar maydon saqlanib qolgan. Bu yodgorlik dastlab XX asrning 50 yillarida aniqlanib, M. E. Vorones [4: 56], V. I. Sprishevskiy [5: 69], Y. A. Zadneprovskiy [6: 54]. va B. X. Matboyoev [7: 85]. lar tomonidan ko‘p yillik qadishmalar olib borilgan.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yodgorlik ikki qismdan iborat bo‘lib: shimoli-g‘arbiy qismi, taxminan 1,5 gektar maydonga ega bo‘lib, mudofaa devori bilan mustahkamlangan. Bu yerda turar joylar topilmagan. S. Baratov fikricha “ushbu qism chorva uchun qo‘ra yoki harbiy xavf tug‘ilganda atrof aholisi uchun boshpana sifatida foydalanilgan bo‘lishi mumkin.” Ikkinchi, ya‘ni sharqiy qism esa mustahkamlanmagan bo‘lib, bu yerda turar joylarning qoldiqlari aniqlanib, o‘rganilgan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar yodgorlikning shimoli-sharqiy qismida olib borildi.

Arxeologik tadqiqotlar dastlab yodgorlikning sharqiy qismida rejali qazishma asosida amalga oshirildi. Qazishmalar 2×2 metr o‘lchamdagi to‘rtburchak shakldagi kvadratlarda olib borilib, uzun tomoni shimol-janub yo‘nalishida yo‘naltirildi. Har bir qazishma mavsumida sharqiy va janub yo‘nalishlarida ish maydoni bosqichma-bosqich kengaytirilib bordi. Kvadratlarning gorizontal yo‘nalishi harflar (A, B, V, G, D) bilan, vertikal yo‘nalishi esa arab raqamlari (1, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7) bilan belgilandi.

Tadqiqotlar davomida 7A va 6A kvadratlari joylashgan janubi-g‘arbiy burchakda stratigrafik qazish (Shurf 1) amalga oshirilib, materik qatlamigacha etib borildi. Natijada to‘rtta qurilish davri aniqlandi, har bir davrda turli qurilish bosqichlari qayd etildi. Tadqiqotlar davomida har bir qurilish davrida yashash qoldiqlari va binolarning rejaları o‘zgarib borganligi kuzatildi.

Dastlabki yil yodgorlikning so‘ngi davriga oid qatlamlar tozalanib, o‘lchami 17x4,5 m umumiy maydonda tadqiqotlar olib borildi [3, 9]. qazishmaning markazidan yumaloq shakldagi yarim qazilma turdagi turar joy (zemlyanka) qoldiqlari ochib o‘rganildi.

Qazishmalar jarayonida turar-joy va arxitektura qoldiqlari aniqlangan kvadratlar orasidagi brovka (ajratkich devorlar) olib tashlandi. Hozirga qadar qazish ishlarining umumiy maydoni 22,5×9,5 metrni tashkil etib, qazishmalar V. I. Sprishevskiyning markaziy qazishma hududidan 2 metr sharqda amalga oshirildi. Keyingi bosqichda, qazish joylarini bog‘lash maqsadida ikki qazishma hududi orasidan 1,5 metr kenglikdagi transheya vertikal yo‘nalishda qazildi. 2024- yilda ushbu transheya kengaytirilib, turar-joy pol qismi va xum topilib o‘rganildi. Tadqiqot natijasida ushbu arxitektura qoldiqlari yodgorlikning beshinchi qurilish davriga oidligi aniqlandi.

Bu olib borilgan statsionar arxeologik tadqiqotlar natijasida yodgorlikning shu qismidan arxeoesmologik tadqiqotlar ham olib borildi. Natijada ikkinchi uchunchi va to'rtinchi qurulishdavriga oid sesmik belgilar taxlil qilindi [5: 5].

Yuqorida taqdim etilgan ilmiy tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'rta G'ovasoy vohasi uzoq tarixiy davrlardan buyon inson faoliyati uchun qulay tabiiy-geografik muhitga ega bo'lgan va antropogen omillar ta'sirida izchil o'zlashtirilgan muhim tarixiy-hududiy makonlardan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar bu hududda ilk dehqonchilik va chorvachilik faoliyatining shakllanganligini, doimiy aholi manzillarining paydo bo'lganligini yaqqol ko'rsatadi. Insoniyat faoliyati natijasida tabiiy landshaft elementlari bosqichma-bosqich o'zgarib, murakkab antropogen landshaft vujudga kelgan. Bibiona yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishmalar mazkur hududda yashagan qadimgi jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ishlab chiqarish faoliyati va madaniy merosi to'g'risida muhim ilmiy dalillar taqdim etgan. Aniqlangan turar-joylar, xo'jalik inshootlari, sopol buyumlar hamda boshqa moddiy madaniyat namunalari vohaning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, G'ovasoy vohasida ilk sug'orma dehqonchilik tizimining shakllanishi ushbu hududning o'ziga xos geoeologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lganligini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI. (REFERENCES)

1. Анарбаев А., Максудов Ф., Кубаев С., Насриддинов Ш. Чильхуджра (Кыркхуджра) – руины древнего города северо-западной Ферганы //ИМКУ. Вып. 39. Самарканд, 2015.
2. Анарбаев А., Баратов С., Саидов М.М., Кубаев С. Археологические исследования на городище Чильхуджра // Археологические исследования в Узбекистане 2013 г. Самарканд, 2014. В-11.
3. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Омонов Ш., Нажмиддинов А. Новые археологические работы на поселении Чуст – Бибиона в 2021 году. Археологические исследования в Узбекистане. 2022. с-9.
4. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Нажмиддинов А., Бекмирзаев И., Пардаев М. Археологические работы на поселении Чуст-Бибиона в 2023 году. // Археологические работы в Узбекистане в 2023 году. Вып. 16. Самарканд 2024. С 39 – 46.
5. Анарбаев А., Корженков А. Сейсмическая опасность Ферганской долины: Археосесмологические данные. Ташкент: Фан, 2024. С.5.
6. Воронец М. Э. Археологическая рекогносцировка 1950 г. по Наманганской области. – Известия АН УзССР. № 5. Ташкент, 1951.
7. Спришевский В.И. Чустская стоянка эпохи бронзы (раскопки 1953 г.) // СЭ. № 3. – Москва: 1954. – С 69–76.
8. Заднепровский Ю. А. Раскопки поселений чустской культуры Ферганы. // АО. 1974. М, 1975.
9. Матбабаев Б. Х. Новые исследования на Чустском поселении (Фергана). // СА. № 4. М, 1984.
10. Дженчураева Р.Д. Генетические типы скарнов Гавасайского рудного поля (северо-восток Кураминского хребта) и условия их формирования. “Изв. АН СССР”, сер. геол., 1971, № 6.
11. Mirzamahmudov O.T., Boymirzayev K.M. Namangan viloyati adirlarining landshaft-ekologik sharoitini baholash. Toshkent. Muharir nashriyoti 2011- yil 19-bet.

12. Bibiona yodgorligi sovet davri arxeologik adabiyotlarida Chust yodgorligi nomi bilan tilga olingan bo'lib, keyinchalik ushbu yodgorlik va unga o'xshash madaniy qatlamlarga ega bo'lgan boshqa obyektlar bir butun arxeologik birlik sifatida Chust madaniyati nomi bilan atala boshlandi. Bu madaniyat so'nggi bronza va ilk temir davrlariga oiddir.

ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDAGI HIMOYA INSHOOTLARINING QIYOSIY TAHLILLARI

COMPARATIVE ANALYSIS OF PROTECTIVE STRUCTURES IN THE FERGANA VALLEY OF ANTIQUITY

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАЩИТНЫХ СООРУЖЕНИЙ ДРЕВНОСТИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Eshov Baxodir Jo'rayevich

Qarshi davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida t.f.d. professor

Annotatsiya.

Ushbu maqola Farg'ona vodiysidagi himoya inshootlarining kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari va tahlillari ilmiy manbalar va adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil etilgan.

Abstract.

The article compares the origin, stages of development and analyzes the protective structures of the Fergana Valley based on scientific sources and literature.

Аннотация.

В статье на основе научных источников и литературы сравниваются происхождение, этапы развития и анализируются защитные сооружения Ферганской долины.

Kalit so'z.

Antik davr, Shurabashot davri, Marhamat davri, Mingtepa, Sarvontepa, Kulunchak, Xo'jambog'tepa, Miqtiqo'rg'on, Mirzaolimtepa, Bilovurtepa, Arktepa, Oroltepa, shinaklar.

Key words.

Antiquity period, Shurabashot period, Merhamat period, Mingtepa, Sarvontepa, Kulanchak, Khodjambog'tepa, Miktikurgan, Mirzaolimtepa, Bilovurtepa, Arktepa, Oroltepa, Shinaki.

Ключевое слово.

Период античности, период Шурабашот, период Мерхамат, Мингтепа, Сарвонттепа, Куланчак, Ходжамбогтепа, Миктикурган, Мирзаолиментепа, Биловуртепа, Арктепа, Оролтепа, шинаки.

Antik davr Farg'ona vodiysida mil. avv. IV-I asrlar Shurabashot davri va milodiy I-IV asrlar Marhamat davrlari ajratilgan [1,106-112]. Hozirgi kunga kelib Shurabashot davri yodgorliklari himoya inshootlarida qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar Shurabashot, Mingtepa, Sarvontepa ko'hna shaharlari, Kulunchak, Xo'jambog'tepa kabi qo'rg'onlar himoya inshootlari haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Mingtepa ko'hna shahri Andijon viloyati, Marhamat shahrining sharqiy chekkasida joylashgan bo'lib, 38 gektar maydonni egallagan. Ushbu ko'hna shahar

antik davr Fargʻona vodiysi boshqa yodgorliklardan maydoni, toʻgʻri burchakni rejasi va mustahkam himoyalanganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, koʻhna shahar toʻgʻri burchakli minoralari, 5 metr qalinlikdagi mustahkam poydevor ustida qurilgan qaʼlasi boʻlgan qalin devor bilan oʻrab olingan [2, 64-66]. Ammo, dastlabki tadqiqotlar davomida koʻhna shahar himoya devorlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi, koʻhna shahardagi boshqa himoya inshootlarining paydo boʻlishi masalalari ochiq qolganligi sababli keyingi tadqiqotlarga ehtiyoj sezilgan.

Yangi tadqiqotlar koʻhna shaharning himoya devorlarida olib borildi [3,101-104]. Ushbu tadqiqotlar natijasida Mingtepa koʻhna shahrining himoya devorlari qoʻyidagi uchta davrda mustahkamlanib borganligi kuzatilgan:

Birinchi davr – mil. avv. III-I asrlar. Bu davrda eniligi 2,5 metr va toʻgʻri burchakli minoralari boʻlgan himoya devori bunyod etiladi. Minoralarning ichki tomondan oʻlchami 10,5x5,5 metr. Minoralar va devor paxsadan qurilgan boʻlib, ularda oʻq otish shinaklari mavjud [4].

Ikkinchi davr-milodiy I-II asrlar. Himoya devorlari va minoralar kuchaytiriladi, yaʼni, devorning qalinligi 4 metrgacha balandligi 4,2 metrga boradi. Minoralar atrofi xom gʻisht terib, oʻrab olinganligi bois eni 18 metrga kengayadi. Ehtimol, minora xonalari ham mavjud boʻlgan.

Uchinchi davr-milodiy III-IV asrlar. Himoya devorlari yon tomonida xom gʻisht terilib, ichki va tashqi tomondan kengayib qalinligi 7,3 metrga boradi. Devorlarda kamondan oʻq otish shinaklari koʻpaytirilib, minora xonalari qisqaradi.

Mingtepa koʻhna shahri himoya inshootlarining oʻziga xosligi shundaki, har uchchala davrda himoya devorlarida ichki kamondan oʻq otish yoʻlaklari (koridor) mavjud emas edi. Xuddi shunday holatni shimoliy-sharqiy Fargʻonaning Karkidon vohasidagi Miqtiqoʻrgʻon koʻhna shahrida himoya devorlari (qalinligi 10 metrgacha)da ham kuzatish mumkin [5,39-48].

Shaharga kiraverishdagi hudud hamda shahar ichining, himoya devorlarining koʻplab qalalar bilan oʻrab olinganligi Mingtepaning kuchli himoyalangan koʻhna shahar boʻlganligini dalillaydi. Xuddi shunga oʻxshash oʻtroq aholining kuchli himoya tizimi Parfiya koʻhna shaharlarida ham oʻrganilgan [6].

Vodiydagi yana bir antik davrga oid yodgorlik Sarvontepa hisoblanadi. Ushbu yodgorlik Andijon shahrining shimoli-gʻarbiy qismida joylashgan boʻlib, 6 metr balandlikdagi tepalikdan iborat. Sarvontepa ilk marta B. Abdulgʻoziyeva tomonidan oʻrganilgan boʻlib, “milodiy I-VIII asrlar” bilan sanalangan. Qazishmalar natijasida ushbu yodgorlik ikkita qurilish davrida qurilgan, 3 metr qalinlikdagi devorlar bilan oʻrab olinganligi aniqlangan. Devorlar 1,5 metr shibbalangan tuproq poydevor asosda qurilgan [7, 21].

Mustaqillik yillarida Andijon shahrining yoshini aniqlash maqsadida Sarvontepada tadqiqotlar qayta tiklandi. Dastlabki ishlar Eylaton madaniyatiga oid materiallar yoyilgan madaniy qatlamlarni aniqlashdan boshlanib, keyinroq poydevor asoslarining yanada qadimgiroq qatlamlarini aniqlashga harakat qilingan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida umumiy maydoni 15 gektardan iborat boʻlgan

Sarvontepa qalali manzilgoh bo'lib, mil. avv. I ming yillik oxirlaridan milodiy I ming yillik o'rtalarigacha mavjud bo'lgan. Yodgorlikda kuchli himoya inshootlarining mavjudligi Sarvontepa vohaga kirishdagi malum himoya vazifasini bajarganligi [8,24]. haqidagi xulosalarga asos bo'lib xizmat qilgan.

Farg'ona vodiysining antik davr himoya inshootlari haqida gap ketganda takidlash lozimki, ko'hna shaharlarning tarixiy rejasi har doim ham to'g'ri burchakli bo'lmasdan ular atrofi minoralar bilan kuchaytirilgan mudofa devorlari bilan o'rab olingan.

Antik davrga oid uch qismdan iborat bo'lgan Sho'rabashot ko'hna shahri 70 gektar maydonni egallagan. Ko'hna shahar himoya devorlarining ochilishi devorlarining shibbilang tuproqdan qad ko'tarish analari Sho'rabashotda ham davom etganligini ko'rsatadi. Aftidan, bu devorlar xom g'isht yoki paxsa bilan o'ralib, mustahkamlangan. Bu devorlarni tadqiq etgan N. G. Gorbunova Sho'rabashot ko'hna shahar himoya tizimida minoralar bo'lmagan, deya xulosa chiqargan. Ammo, himoya devorlarining bunday qurilishi Sho'rabashot davrining ilk bosqichiga oid bo'lishi mumkin. Chunki mil. avv. II asrdan boshlab qurilish texnikasi o'zgarib borgan [9, 61].

Takidlash lozimki, Mingtepa ko'hna shahri ham Sho'rabashot davrida bunyod etilgan. Ko'hna shahar to'g'ri burchakli rejaviy tuzilishiga ega bo'lib, to'g'ri burchakli minoralari bo'lgan paxsadan qad ko'targan. Aynan Sho'rabashot davrida ichkarida hovlisi bo'lgan mustahkamlangan qo'rg'onlar bunyod etiladi. Xo'jambog'tepa va Mirzaolimtepa yodgorliklari aynan mana shunday qo'rg'onlar sirasiga kiradi. Ko'p xonali uylardan iborat Mirzaolimtepa qo'rg'oni 5 metr balandlikdagi poydevor ustiga qad ko'tarib, 2 metr qalinlikdagi paxsa devor bilan o'rab olingan [10].

Sho'rabashot davrining ilk bosqichida ham himoya devorlari ayrim manzilgohlarda paxsadan qad ko'targanligi qayd etilgan. Misol uchun mil. avv. V-II-asrlarga oid Qulunchak qishloq manzilgohining 0,5 gektar maydoni paxsadan qurilgan devor bilan o'rab olingan [11,11-17].

Takidlash joizki, Farg'ona vodiysining Marhamat davri (antik davr) himoya inshootlarining barcha asosiy: kuchli himoyalangan qala; o'q otish yo'laklari va minoralari bo'lgan mustahkam himoya devorlari; devorlardagi shinaklar; tashqi devor oldidagi xandaqlar; ko'hna shahardan tog'larga qadar zanjirsimon cho'zilgan xabar beruvchi (ogohlantiruvchi) kabi belgilarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu davr yodgorliklari orasida Bilovurtepa va Arktepa ko'hna shaharlari hamda Oroltepa qalalari yaxshi o'rganilgan.

Bilovurtepa, Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani Turabod qishlog'ida, Oqbura daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Ko'hna shahar shimoli-g'arbiy qismida trapetsiya shaklidagi qalasi bo'lgan 1 gektar maydonda saqlanib qolgan. Ko'hna shaharning tashqi devorida bir-biridan malum masofada joylashgan to'rtta minora mavjud. Minoralar himoya devorlari chizig'idan chiqmagan. Devorlardagi o'xshash minoralar Xorazmdagi Qo'yqirilgan qala ko'hna shahri minoralarida uchraydi [1248-53].

Bilovurtepadagi minoralarning bunday joylashuvi undagi arkni o‘rab turgan ikki qatorli devor bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ichki va tashqi devorlar 1 metr qalinlikda bo‘lib, devorlar oralig‘ida yo‘lak qoldirilgan. Himoya devorlarining ichida beshta katta-kichik xonalar bo‘lib, ularning eng kattasi 50 kv.m.ga boradi. Bino ichiga kirish uchun devorning shimoliy tomonida darvozasi mavjud bo‘lgan [13, 90-94].

Milodiy I-IV asrlarga kelib, Marhamat bosqichi davrida arklar yanada rivojlanadi. Mingtepa arkining himoya tizimida o‘zgarishlar bo‘lib, burchaklarida minoralari bo‘lgan o‘q otish yo‘laklari aniqlangan. Ta’kidlash lozimki, Antik davr Xorazm, Sug‘d, Baqtriya arklari ham himoyalaniish va mamuriy markazlardan tashqari, sig‘inish (diniy) himoyalaniish va mamuriy markazlar vazifalarini ham bajarganlar [14,124]. Ammo, Farg‘ona vodiysi arklarining diniy markazlar vazifasini ham bajarganligi deyarli kuzatilmagan. Faqatgina Bilovurtepa arki ikkinchi davri rejaviy tuzilishida diniy inshoot mavjudligi haqida taxminlar mavjud [15,94]. xolos.

Xullas, antik davr Farg‘ona vodiysi mudofaa inshootlarini mavjud manbalar asosida o‘rganish, bu jarayonni O‘rta Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy viloyatlari mudofaa tizimi bilan qisman qiyosiy tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona mudofaa tizimi evolyutsiyasi o‘ziga xos bo‘lsada, boshqa hududlardagi shu jarayonlar bilan o‘xshashlik topadi. Ta’kidlash lozimki, antik davr vodiyning himoya tizimi rivojida ikkita an‘ana- devorlar qurilishidagi an‘anaviylik hamda ilgari tajribalarni tez o‘zlashtirish holatlari yaqqol kuzatiladi. Vaqt o‘tishi bilan harbiy qurollanish, urush olib borish strategiyasi va usullarining o‘zgarib borishi bilan ko‘hna shahar va qal’alardagi mudofaa tizimi ham takomillashib boradiki, bu jarayon nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki qadimgi O‘rta Osiyoning barcha tarixiy-madaniy viloyatlari uchun ham xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Горбунова Н.Г. Поселения Ферганы первых веков нашей эры // СА. М., 1977. №3.
2. Заднепровский Ю. А., Матбабаев Б.Х. Городище Мархамат// ИМКУ. Ташкент. 1991. Вып. 25.
3. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Исследование на западной оборонительной стены городища Мингтепа // Археологические исследование в Узбекистане-2001 год. Ташкент. 2002.
4. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғона мудофаа иншоотлариниғ ривожланиш босқичлари // ОНУз.- Тошкент, 1997.
5. Горбунова Н.Г. Памятники Керкидонской группы в Южной Фергане // АСГЭ.- М., 1987.-Вып. 28.
6. Кошеленко Г. А. Парфиянская фортификация // СА. №2. 1963.
7. Абулгазиева Б. Восточная Фергана в древности и раннем средневековье // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд: ИА АН РУз. 1988.
8. Абдуллаев Б. М. Возникновение и этап развития фортификации Ферганы в древности и средневековье (кон. II тыс.дон.э.-нач. II тыс. ы. э) // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд. 2007.
9. Горбунова Н.Г. Оборонительные сооружения на поселениях...

10. Перегулова С. Я. Древняя Фергана по письменным источникам и археологическим материалам // Изучения древнего и средневекового Кыргызстана.- Бишкек, 1998.

11. Абулгазиева Б. Археологические памятники Мархаматского района Андижанской области // ИМКУ-Ташкент, 1992. Вып.26.с. 119-125; Она же. К исследованию фортификационных сооружений городов Ферганы эпохи античности // Марк . Ос. Урбанизация жараёнларининг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. - Самарканд. 1995.

12. Ходжаниязов Г. История развития фортификации античного Хорезма // СА, 1981-№2.

13. Заднепровский 70.А. Городище Билувур-тепе // КСИА.М., 1985. Вып. 184.

14. Исаков А. И. Цитадель древнего Пенджиканта. – Душанбе. Дониш. 1977.

15. Заднепровский Ю. А. Городище Билувур-тепе // КСИА.М., 1985. Вып. 184.

QIRQXUJRA (CHILXUJRA) – ARXEOLOGIYA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ILMİY TADQIQOTLAR.

НАУЧНЫЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НА ПАМЯТНИКЕ КИРКХУДЖРА (ЧИЛХУДЖРА).

QIRQXUJRA (CHILXUJRA) – SCIENTIFIC ARCHAEOLOGICAL RESEARCH CONDUCTED AT THE SITE

Nasriddinov Shukrullo Nazrullaevich

Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.

e-mail: shukrullonasriddinov46@gmail.com

Tel.+998 99 398 56 78

Annotatsiya.

Mazkur maqola Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan Qirqxujra yodgorligida olib borilgan arxeologiya tadqiqotlari tarixiga bag'ishlangan.

Аннотация

Данная статья посвящена истории археологических исследований, проведённых на памятнике Киркхуджра, расположенном в Папском районе Наманганской области.

Annotation

This article is dedicated to the history of archaeological research conducted at the Qirqxujra site, located in the Pop district of Namangan region.

Kalit so'zlar.

G'ovosoy, Qirqxujra, Pop, ilk shahar, urbanizatsiya bosqichlari, spool topilmalar.

Ключевые слова

Гавасай, Киркхуджра, Пап, ранний город, этапы урбанизации, керамические находки.

Keywords

G'ovosoy, Qirqxujra, Pop, early city, stages of urbanization, ceramic findings.

Qirqxujra (Chilxujra) yodgorligi Namangan viloyati Pop tumanidagi Kelachi qishlog'i yaqinida, Pop shahridan 2 km janubda Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida G'ovosoyning quyi oqimida joylashgan (1-rasm). Hudud geografik jihatdan

Farg‘ona vodiysining shimoli-g‘arbiy qismiga to‘g‘ri keladi va shimoldan Chotqol - Qurama tog‘ tizmasi bilan chegaradosh bo‘lib, undan G‘ovasoy havzasi tizimiga kiruvchi ko‘plab mavsumiy va doimiy suv oqimlari (soylar) oqib o‘tadi.

Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi adirliklarga tutashib ketuvchi bu hududlardagi deyarli barcha tepaliklarda qadimgi davrda insonlar istiqomat qilganligini bildiruvchi arxeologik moddiy manbalar topilgan. Ammo ularning ko‘pchiligi sel oqimlari, Sirdaryoning o‘z o‘zanini o‘zgartirishi, shuningdek insonlar tomonidan o‘zlashtirilishi tufayli turli darajada zarar ko‘rgan bo‘lsa, ayrimlari umuman buzilib ketgan.

G‘ovasoy havzasidagi dastlabki tadqiqotlarni Yaxyo G‘ulomov boshchiligidagi Farg‘ona arxeologiya otryadi 1964 yildagi arxeologiya kuzatuvlar davrida olib bordilar.

Tadqiqotlar davomida Shimoliy Farg‘ona xududidagi Pop tumanida joylashgan Qirqxujra (G‘arqiz arxeologiya yodgorligi deb nomlangan) va Munchoqtepa kabi antik davr shaharlari qoldiqlarida ham kuzatuv tadqiqotlarini olib bordilar [6: 28-35]. 1982 yilda shimoliy Farg‘ona hududidagi M. Isamiddinov boshchiligidagi arxeologik yodgorliklarni ro‘yxatga olish guruhi tomonidan Qirqxujra (G‘arqiztepa nomi bilan) yodgorligi qayd etilgan [6: 28-35].

Qirqxujra qadimgi shahar yodgorligida dastlab 1988 yilda antropolog SH. Abilov tadqiqot olib borgan va asosan antropologik topilmalarini o‘rgangan. Lekin uning tadqiqot materiallari maqola sifatida ilmiy jamoatchilikka xabar qilinmagan va nashr etilmagan [6: 31]. Shuningdek, 2012 yilda “Toshkent-Pop” temir yo‘l o‘tkazilishi munosabati bilan olib borilgan tadqiqotlar davomida ham yodgorlik Farg‘ona vodiysining qadimiy shahar markazlaridan biri ekanligi e‘tirof etilgan [4: 24].

2013 yilda A. Anarbayev rahbarligida Qirqxujra yodgorligining ark va shaxriston qismida dastlabki rejali qazish ishlari olib borildi [3: 23-36]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Qirqxujra qadimiy shahari o‘zining eng dastlabki bosqichida mill. avv. VI asrda o‘z tarkibida qadimiy shaharga xos bo‘lgan barcha belgilarga: mustahkam qal‘a, mudofaa devorlari va ibodatxona joylashgan shaxristondan iborat ekanligi ilmiy isbotlandi. Qirqxujra yodgorligi saqlangan qismining janubiy-sharqiy qismida shahar arki yaqqol ajralib turadi. Ark yuqori va quyi maydonlardan tashkil topib, qalinligi 11 metrdan ortiq ikki qatorlik mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Shaharning birinchi shahristoni arkning shimoliy qismini egallagan bo‘lsa, ikkinchi shahriston ark va birinchi shahriston sharqiy tomonini egallagan. Bugungi kunda shahar arkida va ikkinchi shahristonda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ikkinchi shahristondagi tadqiqotlar asosan, shahriston markazini egallagan tepalikda olib borilib, mazkur joyda shaharning mahobatli diniy inshooti ochib o‘rganilgan.

2013 va 2021 yillarda ibodatxonada olib borilgan qazuv ishlari davomida tepalik ustini egallagan yuqori qatlamlardan er.avv. VI-IV asrlarga oid deb taxmin etilgan sopol idishlar namunalari yig‘ib olindi. Kulollik idishlarining dastlabki statistik tahlili ularning asosiy qismi qo‘lda tayyorlangan namunalardan iborat ekanligini ko‘rsatdi.

2013 yilda 2-shahristoning mazkur qismida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari davomida markazda joylashgan tepalikda, zikkurat ko'rinishidagi diniy inshoot qoldiqlari aniqlandi (2-rasm). Tadqiqotchilar tomonidan otashparastlar ibodatxonasi deb taxmin etilgan ushbu inshoot 45x20 m o'lchamdagi, balandligi 9 m bo'lgan tepalik ko'rinishida bo'lgan [2: 33]. 2- shahristonning g'arbiy qismi tadqiqotning dastlabki yillarida 1950 yillarda paxta maydonlarini o'zlashtirish davrida buzib yuborilgan deb hisoblanib kelingandi.

Ammo 2016 yilda yodgorlik atrofida olib borilgan dala-qidiruv kuzatishlari (razvedka) davomida arkdan 1 km g'arbda, Sobiq ittifoq davrida dala shiyponi sifatida foydalanib kelingan tepalikda madaniy qatlamlar va qurilish qoldiqlari saqlanib qolinganligi aniqlandi. Garchi bugungi kunda ham bu hududda bog' maydoni joylashgan bo'lsada, tepalik atrofida Qirxujra yodgorligida yig'ib olingan IV-III asrlarga oid sopol kompleksiga xos sopol siniqlari yig'ib olindi. Demakki aytishimiz mumkinki, bu qism madaniy qatlamlari qadim shaharning hududi IV-III asrlardayoq anchagina qatta maydonni egallaganligini ko'rsatmoqda [1: 55].

Qirxujra arxeologik yodgorligida olib borilgan izlanishlar davomida ko'p miqdorda sopol idishlar bo'laklaridan iborat kulollik idishlari majmuasi yig'ib olindi. Ushbu kulollik idishlari yodgorlikda kechgan hayot faoliyati davriy chegarasini belgilab berish bilan birgalikda bu erda yashagan halqning turmush tarzi, madaniyati haqida ham ma'lumotlar beradi. Qirxujra yodgorligida olib borilgan qazuv ishlari asosan shaharning mudofaa va diniy monumental inshootlari qoldiqlarida olib borilganligi sababli mazkur qazishmalardan olingan sopol namunalari tahlil etildi. Bunda e'tibor qaratishimiz kerakki, arxeologik tadqiqotlar tajribalaridan kelib chiqib fortifikatsiya inshootlarida sopol idishlari siniqlari ko'p uchramasa, diniy monumental inshootlarda aksincha anchagina boydir. Bizga ma'lumki qadimgi davrga tegishli bo'lgan sopol idishlarning asosiy qismi qo'lda tayyorlangan.

Qirxujraning Ark (hukmdor saroyi) qismida olib borilgan 1- tadqiqot obyektidagi qazishmalar davomida xronologik jihatdan mil.avv. VI-V asrlar bilan davrlashtiriladigan Eylaton tipiga xos qo'lda ishlangan ikkita bezakli sopol idish parchasi aniqlangan [3: 31]. Eylaton madaniyatiga xos topilmalardan yana biri yodgorlikning shahriston qismida olib borilgan 2- tadqiqot obyektidagi qazishmasidan sirtiga qizil-jigarrang tusli geometrik monoxrom naqsh tushirilgan qo'lda ishlangan idish topilgan [3: 33].

Yodgorlikning shahriston qismidagi 3-qazishma obyektidan aniqlangan sopol majmuasida ham qo'lda yasalgan bezakli idishning qorin qismi parchasi mavjud. Idish parchasining har ikkala tomoni silliqlangan va sirtiga jigarrang tusdagi geometrik naqsh bilan bezatilgan. Gorizontal tarzda joylashgan teng tomonli uchburchaklar shtrix hosil qilgan. Uchburchaklar burchagi tepaga qaratib chizilgan va ularning o'rtasidan yupqa chiziq o'tkazilgan [2: 94].

Farg'ona vodiysidagi eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanuvchi Qirxujra shahri xarobalarida 2021 yilgi qazish mavsumida, uning ochiq tipdagi ibodatxonasidan yana bir Eylaton tipiga xos idish parchasi aniqlandi. Uning ham

sirtiga qizil-jigarrang tusli geometrik naqsh tushirilgan. Yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar va qo'lga kiritilgan moddiy manbalarni o'rgangan holda Qirxujra qadimgi shahar xarobalari bugungi kunga qadar qadimiy Farg'onaning Eylatan-Oqtom madaniyatining yaxshi saqlangan yagona yodgorligi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi (3- rasm). Arxeologik materiallar tahlili Qirxujra o'lkasida to'xtab qolgan shahar hayoti, ehtimol, g'arbdan 1 km uzoqlikda joylashgan Balandtepa o'lkasida qayta tiklanganligini aniqlashga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Саидов М., Археологические исследования городища Чилхуджра в 2013 году. // Археологические исследования в Узбекистане в 2013-2014 года. Самарканд. 2016.
2. Анарбаев А, Максудов Ф, Кубаев С, Насриддинов Ш. Чилхуджра (Киркхужра)-руины древнего города северо-западной Ферганы //ИМКУ. Вып. 39. Самарканд, 2016.
3. Анарбаев А.А, Баратов С.Р, Саидов М, Кубаев Археологические исследования городища Чилхуджра в 2013// Археологические исследование 2013 году в Узбекистане 2013-2014 года. Вып.10. Самарканд. 2016.
4. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Буряков Й.Ф., Вульферт Э., Сайфуллаев Б. Археологические разведки и исследования Ангрэн-Пап. //Археологические исследования в Узбекистан 2013-2014 года. Вып.10. Самарканд.2016.
5. Исамиддинов М.Х. Материали к своду памятники Наманганского области-Самарканд, 1982.
6. Исамиддинов М.Х. Отчет Наманганского отряда 1983 г. // Архив ИА АН Республики Узбекистан - Самарканд, 1984.

SO'NGGI BRONZA VA ILK TEMIR DAVRI FARG'ONA VODIYSIDAGI CHUST VA EYLATON YODGORLIKLARI HIMOYA INSHOOTLARINING O'RGANILISHI TAHLILLARI

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИЗУЧЕНИЯ ЗАЩИТНЫХ СООРУЖЕНИЙ ПАМЯТНИКОВ ЧУСТ И ЭЙЛАТОН В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ ПОСЛЕДНЕГО БРОНЗОВОГО И РАННЕГО ЖЕЛЕЗНОГО ВЕКОВ

ANALYSIS OF THE STUDY OF THE PROTECTIVE STRUCTURES OF CHUST AND EILATON MONUMENTS IN THE FERGANA VALLEY OF THE LAST BRONZE AND EARLY IRON AGE

Normatov Sherzod Mirzayevich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti tarix kafedراسи dotsenti

e-mail: sherzodnormatov453@gmail.com

Tel: +998 93 930 79 30

Annotatsiya.

Ushbu maqola Farg'ona vodiysining so'nggi bronza va ilk temir davri himoya inshootlari Chust va Eylaton manzilgohlarining barpo qilinishi, taraqqiyot bosqichlari va tahlillari ilmiy manbalar va adabiyotlar asosida yoritilgan.

Abstract.

This article covers the construction of the last bronze and early Iron Age protective structures of the Fergana Valley Chust and Eylaton settlements, stages of development and analysis based on scientific sources and literature.

Аннотация.

В данной статье рассматривается строительство последних защитных сооружений бронзового и раннего железного веков поселений Чуст и Эйлатон в Ферганской долине, этапы разработки и анализ, основанный на научных источниках и литературе.

Kalit so‘z.

Chust, Eylaton, so‘nggi bronza, Qoradaryo, Simtepa, “qal’asimon”, yoysimon, paxsa, xom g‘isht, guvala, minora.

Keywords.

Chust, Eylaton, the last bronze, Karadarya, Simtepa, “Castle”, arch, paxsa, raw brick, guvala, Tower.

Ключевые слова.

Чуст, Эйлатон, последняя бронза, Карадарья, Симтепа, “Замок”, арка, пакша, кирпич-сырец, гувала, башня.

Farg‘ona vodiysining so‘nggi bronza va ilk temir davri himoya inshootlari qurilishi bosqichlarini davrlashtirishda Chust manzilgohi himoya inshootlarida olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chust manzilgohi shimoli-g‘arbdan tashqari barcha tomondan tabiiy soylar va botqoqliklar bilan o‘rab olingan. Yodgorlikning shimoli-g‘arbiy qismidagi 15 gektar maydon himoya devorlari bilan o‘rab olingan. Bu “yoysimon” devor deb ataladigan, qurilishlardan tashkil topgan inshoot hisoblanadi. Uzunligi 64 metrdan iborat ushbu yoysimon devor V.I.Sprishevskiyning fikricha, shimoliy va janubiy qanot qismlaridan iborat bo‘lgan [1,227-233].

Yodgorlikdagi yoysimon devorning shimoliy qanoti 34 metr uzunlikda, 3 metr qalinlikda, 2,1 metr balandlikda saqlanib qolgan. Shuningdek, bu yerda poydevor asosida aylana shakli (diametri 10-11 metr) dagi “qal’a ko‘rinishidagi” inshoot mavjud bo‘lgan. Ushbu qal’a qurilishida devorda ishlatilgan xom g‘ishtlardan foydalanilgan. Devorlar va qal’a qurilishidan oldin maydon shibbalab tekislanganligi bois ularning ostidagi madaniy qatlamlarning qalinligi bir xilda kuzatilmagan [2,72-78].

Yoysimon devorning janubiy qanoti qalinligi 30 metr, balandligi 4 metr, eniligi 3 metr qalinlikda saqlanib qolgan. Ushbu devorning pastki qismi paxsadan, yuqori qismi esa xom g‘ishtdan qad ko‘tarib, xom g‘ishtlar orasi loysuvoq aralashma bilan mustahkamlangan. Tadqiqotchilar g‘ishtlar orasidagi loysuvoq aralashmaga ayrim holatlarda somon yoki ganch qo‘shilganligini devorning mustahkamligini ta’minlashi bilan izohlaydilar [3,230]. Bu holat loyga somon qo‘shib qurilishda (g‘isht o‘zida, g‘ishtlar terilayotganda ular orasida) ishlatilish an‘analari bronza davridayoq qadimgi binokorlar tomonidan qo‘llanilganligidan dalolat beradi.

Chust manzilgohi himoya inshootlari qurilishlaridagi qurilish xom ashyosini tahlil etar ekan V.I.Sprishevskiy, xom g‘ishtlar o‘lchamlaridagi farqlar va ularning paxsa bloklaridan farqlanishni tahlil etar ekan, devorlarning janubiy qismi inshoot bunyod etilishining ikkinchi bosqichida qurilganligi haqida fikr bildiradi.

Tadqiqotchining e'tirof etishicha, xom g'ishtlar o'lchami katta va kichik bo'lganligiga sabab, bu davrda g'ishtlarning standart o'lchamlari ma'lum emas edi. Binokorlar loy va suv mavjudligiga qarab, ya'ni, sharoitdan kelib chiqib g'isht ishlab chiqarganlar. Undan tashqari g'ishtlarning o'lchamlari hal qiluvchi ahamiyat ham kasb etmagan [4,44-51].

Chust himoya inshootlarining asosiy tadqiqotchisi bo'lgan V.I.Sprishovski tahlillar asosida bu yerdagi himoya tizimi uch bosqichda shakllanganligini ta'kidlaydi. Birinchi bosqichda "qal'asimon" inshooti bo'lgan yoysimon devorning shimoliy qismi bunyod etilgan. Ikkinchi bosqichda yoysimon devorning shimoliy qismi (tomoni) tiklangan. Uchinchi bosqichda janubiy yoysimon devor oldida qo'shimcha himoya inshootlari qurilib, 1,65 gektarni o'z ichiga olgan butun himoya tizimi shakllanadi [5,231].

Dalvarzin ko'hna shahri shubhasiz Chust madaniyatining markazi hisoblansada, ushbu madaniyat yoyilgan hududlarning g'arbiy chegarasida joylashgan Chust manzilgohi uchun himoyalani masalalari o'z davri uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga qurilish materiallarining tahlillari shuni ko'rsatadiki, Chustning himoya inshootlari Chust madaniyati gullab yashnagan davrda bunyod etilgan.

Xullas, Chust manzilgohining himoya inshootlarida paxsa, xom g'isht, guvala kabi qurilish materiallari ishlatilgan. Chust madaniyati himoya inshootlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib quyidagi xulosaga kelish mumkin: rejasiga ko'ra ko'hna shaharlar trapetsiyasimon ko'rinishga ega; ko'hna shaharlar ular atrofidagi botqoq va soylar bilan tabiiy himoyalangan; yodgorliklarni o'rab olgan devorlarda minoralar bo'lmagan; atrof qishloq va vohalar markazlari bo'lgan yirik va o'rta hajmdagi manzilgohlarda qal'alar mavjud bo'lgan. Ushbu davrda qo'llanilgan qurilish uslublari keyingi davrlarda ham davom etgan. Aynan shuning uchun ham qurilish uslublarning vorisiyligi va ayrim o'zgarishlar bilan rivojlanishi Eylaton madaniyati himoya inshootlarida kuzatiladi.

Ta'kidlash lozimki, Farg'ona vodiysi Eylaton madaniyati himoya inshootlari uncha ko'p emas va Eylaton ko'hna shahri [6,36-40]. hamda Simtepaning pastki qatlamlari [7,92-104], shuningdek qisman Sarvontepaning pastki qatlamlarida [8,28-29]. o'rganilgan. Shunga qaramasdan tadqiqotlar davomida olingan natijalar Eylaton himoya tizimini so'nggi bronza va ilk temir davri Chust madaniyati himoya inshootlari bilan qiyosiy solishtirish imkonini bergan.

Eylaton yodgorligi Andijon viloyati, Izboskan tumanining Eylaton qishlog'ida, Qoradaryoning qadimgi botqoqsimon qirg'og'i bo'yida joylashgan. Ko'hna shahar to'rtburchak minoralarga ega bo'lgan ikki qatorli himoya devorlari bilan o'rab olingan. Himoya inshootlari nuqtayi nazaridan ko'hna shahar paydo bo'lgan davrni aniqlash maqsadida ichki shaharning minoralari bo'lgan sharqiy devori va darvozasida qazishmalar olib borilgan. Natijada enliligi 4,2 metr va balandligi 2-2,5 metrli devor qoldiqlari aniqlangan bo'lib, devor qumloq yer sathida shibbalangan tuproq va guvala aralash 50-60 sm.li poydevor ustiga qurilgan [9,39]. Devor xom g'isht va guvaladan qad ko'targan. G'ishtlar

to'g'riburchak va to'rtburchak shaklda bo'lib, qolipda qo'yilmagan, o'lchamlari ham turlicha.

Ko'hna shahar mudofaa inshootlaridagi ushbu stratigrafik qazishmalar muallifi T.G. Obolduyeva ularni tahlil etib quyidagi xulosalarni chiqargan.

1. Devor va xonalari bo'lgan minoralar Eylaton davrida qurilgan

2. Devorlar va minoralar vayron bo'lgan.

3. Milodnig boshlariga kelib devorlar eski asosda qayta tiklangan [10,193].

Tadqiqotlarni umumlashtirish asosida Eylaton ko'hna shahri himoya inshootlarining rivojlanishi (evolyutsiyasi) bosqichlari tahlil qilingan bo'lib, quyidagi davrlarga ajratilgan:

1-davr. Ko'hna shahar faoliyati boshlangan dastlabki davr (aynan Eylaton davri)da barcha himoya inshootlari-devorlar, darvoza, minoralar va darvozaxona bunyod etilgan.

2-davr. Mil.avv. I ming yillikning so'nggi asrlariga kelib ko'hna shahar darvozaxonasida qurilishlar amalga oshirilgan.

3-davr. Devor qurilganidan ma'lum muddat o'tgach devorning sharqiy darvozasi mustahkamlanib, o'tish yo'lagi qisqaradi.

4-davr. Devorlarning nuragan joylari ta'mirlanadi.

5-davr. Himoya inshootlari faoliyati to'xtaydi.

Eylaton davriga oid Simtepadan ichki xonalari bo'lgan poydevorgina aniqlangan bo'lib, unda inson faoliyati izlari kuzatilmagan. Simtepa devorlari paxsa va xom g'isht ketma-ketlikda terilishi uslubida qad ko'targan. Devorning balandligi va enliligi haqida ma'lumot uchramaydi [11,96].

Eylaton ko'hna shahri himoya inshootlari bilan bog'liq ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysi himoya tizimining rivojlanishida Eylaton davri ahamiyat kasb etgan. Chust manzilgohidan farq qilgan holda Eylaton ko'hna shahri 200 gektardan iborat to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, ikki qismli ichki va tashqi shahardan tashkil topgan. Himoya devorlari bir-biridan aniq masofada joylashgan to'rtburchak minoralar bilan mustahkamlangan. Bu yerdagi qurilish xom ashyosi Chustdagi qurilish xom ashyosi bilan o'xshashlik topadi. Fikrimizcha, xom ashyo hamda qurilish uslublarining o'xshashligi Farg'ona vodiysi binokorlari bunyodkorligining o'zaro uyg'unligidan dalolat beradi.

Vodiydagi so'nggi bronza davri Chust bosqichida Chust manzilgohiga kiraverishda yagona mustahkam darvozasi bo'lgan qalin muhofaza devorlari aniqlangan. Chustning atrofi himoya devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, ularda hukmdor yashaydigan ark ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Спришевский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана // СА.1972. -№3.

2. Абдуллаев Б.М. Цитадели в оборонительной ссистеме древней Ферганы // Вестник Международного Института Центральноазиатских исследований. – Самаркан-Бишкек. Вып.3. 2006.

3. Спришевский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана // СА.1972.-№3.

4. Спришевский В.И. Раскопки Чустского поселения эпохи бронзы в 1957 году // Изв. АН.УзССР.-№6.-Ташкент. 1958.
5. Спришевский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана // СА.1972.-№3.
6. Оболдуева Т.Г. Раскопки 1960 года на городище Эйлатон // КСИА.-М., 1962.Вып.91.с.28-47; Он же. О датировке стен Эйлатон // СА.1981.-№4. С. 186-195; Кудратов С.С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в.до.н.э.-V в.н.э.) Автореф.дисс...канд.ист.наук.-СПб. 1992.25.с., Кудратов С.С. Фарғона тарихида Эйлатон маданияти // Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. Респуб.илмий-амалий конф.мат. Фарғона. 2000. Б. 36-40.
7. Горбунова Н.Г., Козенкова В.И. Поселение Сым-тепе // АСТЭ.-М., 1974. с. 92-104.
8. Матбабаев Б.Х. К открытию древнего поселения Эйлатонской культуры на территории Андижана // Цивилизации Центральной Азии: земледельцы и скотоводы, традиции и современность. Мат. Меж.конф. Самарканд-Бишкек. 2002.
9. Оболдуева Т.Г. Раскопки 1960 года на городище Эйлатон // КСИА.-М., 1962. Вып.91. с. 28-47.
10. Оболдуева Т.Г. О датировке стен Эйлатон // СА.1981.-№4. С. 186-195.
11. Горбунова Н.Г., Козенкова В.И. Поселение Сым-тепе // АСТЭ.-М., 1974. с. 92-104.

FARG‘ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINING DAVLATCHILIK TARIXIDAGI O‘RNI (CHUST YODGORLIGI MISOLIDA)

МЕСТО АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВА (НА ПРИМЕРЕ ПАМЯТНИКА ЧУСТ)

THE PLACE OF THE ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS OF THE FERGANA VALLEY IN THE HISTORY OF STATE (ON THE EXAMPLE OF THE CHUST MONUMENT)

Beknazarov Borillo Erkinboyevich

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy Arxeologiya Markazi doktoranti

email:borillobeknazarov@gmail.com

Tel: +998 94 493 23 82

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi va vodiydagi arxeolgik yodgorliklar, ulardan qazish ishlari davomida topilgan moddiy madaniyat yodgorliklari, xususan, Chust yodgorligi, bu madaniyatga tegishli hunarmandlar ustaxonalari qoldiqlari, turarjooylar qoldiqlari, Chustda hunarmandchilik va kulolchilik rivoji, mudofaa devorlari qoldiqlari va me‘morchilik, binokorlik haqidagi ma’lumotlar jamlangan.

Аннотация

В статье обобщены сведения о Ферганской долине и археологических памятниках долины, памятниках материальной культуры, найденных при раскопках, в частности, Чустском памятнике, остатках ремесленных мастерских, относящихся к этой

культуре, остатках поселений, развитии ремесел и гончарного дела в Чусте, остатках оборонительных стен, архитектуре и строительстве.

Annotation

This article summarizes information about the Fergana Valley and archaeological monuments in the valley, the monuments of material culture found during excavations, in particular, the Chust monument, the remains of artisan workshops belonging to this culture, the remains of settlements, the development of crafts and pottery in Chust, the remains of defensive walls, and architecture and construction.

Kalit so'zlar:

Farg'ona vodiysi, arxeologik topilma, moddiy madaniyat yodgorliklari, hunarmandchilik, binokorlik, hunarmandchilik ustaxonalari, turar joylar, mudofaa devorlari.

Ключевые слова:

Ферганская долина, археологические находки, памятники материальной культуры, ремесла, строительство, ремесленные мастерские, поселения, оборонительные стены.

Keywords:

Fergana Valley, archaeological finds, monuments of material culture, crafts, construction, craft workshops, settlements, defensive walls.

Uzoq yillar davomida Farg'ona vodiysining qadimgi davr xo'jalik hayotini o'rganishda Chust, Dalvarzin va O'sh (Qirg'iziston) kabi yodgorliklar muhim arxeologik yodgorlik sifatida o'rganib kelinmoqda. Bu yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar asosida Chust madaniyatining dehqon jamoalari turar joylari xususida ham ko'plab xulosalar olingan va Farg'ona vodiysi qadimgi davr xo'jaligi hayotini tiklashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Bibiona (Chust) yodgorligi o'rta G'ovasoy vohasi Chust soy bo'yida joylashgan yodgorlik bo'lib, voha geografik jihatdan adirliklar va adir orti past tekisliklardan iborat. Bu adirliklarni bugungi kunda ham uchratish mumkin va G'ovasoy daryosi shu adirliklarni yorib o'tib Sirdaryo tomon keng vodiya hosil qilgan. Bu adirlikning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 858 m ni hosil qiladi. Ushbu adirliklar neogen davrida shakllangan tabiiy lyuss tepaliklardir. Shuningdek, G'ovasoyning o'ng sohili keng tekisliklardan tashkil topgan bo'lib, bu yerda kichik buloq daryo suvlari mikro vohani tashkil etadi. Ushbu hududda dastlabki sug'orma dehqonchilik manzilgohlari shakllangan edi. Bu tadqiqot maqsadi bu yodgorlik asosida vohaning qadimgi antropogen belgilari, turar-joy va qurilish qoldiqlarini arxeologik manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Yodgorlik bugungi kunda Namangan viloyatining Chust shahri shimolida joylashgan. Bu yodgorlik bugungi kunda 2.5 ga yaqin maydon saqlanib qolgan. Bu arxeologik tepalik dastlab 1950- yilda M.E.Vorones tomonidan topib tekshirilgan [4,21-23]. Keyingi yillarda yodgorlikda uzoq yillik qazishmalar boshlandi. Xususan V.I. Sprishevskiy, 1953-1961 yillarda, Yu.A.Zadneprovskiy 1974 yildan va 1982 yilda B.X. Matbaboevlar tomonidan qazishmalar olib borilgan [5,56].

Hozirda 2021-2024- yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazining Chust arxeologik guruhi Abdulhamid Anorboyev va Sergey Ravshanovich Baratovlar boshchiligida yodgorlikda statsionar arxeologik tadqiqotlar olib bormoqdalar [2,76]. Keyingi yillarda olib borilgan bu tadqiqotlar Farg'ona vodiysining moddiy madaniyatini, shaharlashuvi va qadimda yuz bergan tabiiy ofatlarni o'rganishda muhim tadqiqot deb hisoblash mumkin.

Bibiona yodgorlik turi va tuzilishi jihatidan shaharmonand manzilgoh hisoblanib, Farg‘onaning Chust madaniyati yodgorliklari sirasiga kiradi [2,19]. Bu madaniyatga bugunga qadar 80 dan ortiq yodgorliklar aniqlangan. Shu madaniyatga tegishli ko‘plab yodgorliklar Farg‘ona vodiysining shimoliy va sharqiy qismlarida keng tarqalgan va faqat 10 tasida qurilish va turar joy qoldiqlari aniqlangan [6,13]. Lekin faqat uchta yodgorlikda Chust, Dalvarzin va O‘sh manzilgohlarida turar-joy va moddiy madaniyat yaxshi o‘rganilgan. Bu maqola asosan Bibiona yodgorligida turar-joylar joylashish va xom ashyo materiallari to‘xtalib o‘tilgan. Xususan Chust madaniyatga tegishli turar joy qoldiqlarini tadqiqotchilar 3 ta qurilish bosqichiga bo‘lishgan. 1. Sinchli uylar. 2. Paxsa va g‘ishtdan. 3. Yerto‘la shakldagi turar-joylar belgilangan [6,23]. Lekin turar-joy va mudofaa inshooting aynan bir turdagi xom ashyo yoki bir xom ashyo faqat bir davrga tegishli deb xulosa qilmaslik kerak. Sababi madaniyat egalari shu hududning tabiiy sharoitidan foydalangan holda qurilish xom ashyolaridan foydalangan. Bibiona yodgorligida ham uchala qurilish bosqichi va xom ashyolari aniqlangan. Shu qurilish rejasiga ko‘ra Bibiona yodgorligi ikki qismga bo‘linadi: [2,28].

1. Shimoliy-g‘arbiy.

2. Sharqiy.

Qurilish rejasiga ko‘ra shimoliy-g‘arbiy qism himoyalangan qism bo‘lib mudofaa devori bilan o‘ralgan. Devor yoysimon ko‘rinishda bo‘lib, yodgorlikning faqat 1.5 gektar maydonni o‘rab olgan. Shuningdek, mudofaa devori yodgorlikning dastlabki qurilish bosqichida emas keyingi davrda qurilgan. Misol uchun mudofaa devor tagidan madaniy qatlamlar aniqlangan. Shuningdek mudofaa devoriga ishlatilgan g‘isht o‘lchamlari keyingi turar-joy qurilishidagi g‘ishtlar bilan o‘xshash o‘lchamda. (54-55X32, 54X32X8) Sharqiy qism yodgorlikning asosiy yashash qismi hisoblanadi va qurilishning barcha bosqichi shu qismdan aniqlangan. Avvalgi tadqiqotlarda yodgorlikdan jami 11 ta turar joy qoldiqlari aniqlangan. Shu turdagi yodgorliklar bilan solishtirganda, Dalvarzin yodgorligi 25 ta, O‘sh yodgorligida 15 ta turar joy qoldig‘i o‘rganilgan [8,17]. Ayniqsa bu madaniyatga tegishli Dalvarzin yodgorligi maydoni 25 gektarni tashkil etadi va uchta tarkibiy qismga ajratiladi. So‘ngi yillardagi Bibiona yodgorligidagi turar-joy qismlari qayta o‘rganilib, Sprinshevskiy qazishmasining sharqiy qismida davom ettirilmoqda. Bu qazishma hozirda yodgorlikning oxirgi davrini o‘rganib, qazish ishlari 22,5x9,5 m maydonda tashkil etildi [8,28]. Qazishma davomida aylana shakldagi 9 metr atrofida turar-joy pol qismi ochib o‘rganildi. Tadqiqotchilar bu yashash joyini chashka shakliga qiyoslashadi. Turar-joy pol qismi uzoq vaqt foydalanilgan va qayta-qayta suvab chiqilgan. Ularning sathining sirtlari sariq va oq rangli yumshoq organik qatlamlar bilan qoplangan. Bu turar joy poli uzoq vaqt foydalanilgan. Turar joyning markazida diametri 240 sm bo‘lgan dumaloq chuqur mavjud. Chuqur qattiq zichlab shakl berilgan. Bu kabi turar joylar avval ham aniqlangan va ularning markazida birnechta chuqurlar tozalangan. Bu chuqurlarni ayrimlari o‘choq bo‘lib xizmat qilgan [11,17]. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ham turar joyning markaziy chuquridan 20 sm sharqda, o‘lchamlari

100x100 sm, balandligi 20 sm bo'lgan to'rtburchaklar shaklidagi pol qoldiqlari va kul tozalangan. Uning o'rtasida katta qozonning yuqori yarmidan yasalgan o'choq va uning sharqiy qismiga yaqin joyda sufa sathida joylashgan katta xumcha qozon qazilgan. Shu qazishma yon qismlaridan devor qoldiqlari ham aniqlandi. Bu devorlar xonadon devori sifatida qurilganligi ma'lum bo'ldi. Bu devor oxirgi davrda qurilgan bo'lib, qalin madaniy qatlam ustiga qurilgan. Shuningdek turar-joyning shimoliy qismida yerto'la aniqlandi. Shu madaniyatga tegishli so'ngi bronza davrining yerto'lalarini bajargan vazifasiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: [10,46].

1. Yashashga mo'ljallangan yerto'lalar.

2. Ishlab chiqarish uchun qurilgan xo'jalik yerto'lalari. Qazishmadan topilgan yer to'la shakliy jihatdan xo'jalik yer to'lasiga mos keladi. Shuningdek yodgorlikda yashashga mo'ljallangan yerto'lalar ham aniqlangan. Bu yerto'lalar "piyolasimon" ko'rinishga ega, rejasi ovalsimon, shimoli-garbdan janubi-sharqqa karab cho'zilgan. O'lchamlari yuqori qismida 9,5x8,5, asosida 7,2x7,2 m, maydoni 80 m² gacha yetadi. Devorlari bir oz qiyaroq va ustun o'rinlari topilmagan. Stratigrafik jihatdan yerto'la quyi qurilish davriga to'g'ri keladi. Polda rejasi to'rtburchak ko'rinishli o'choq atrofida ko'plab idish siniqlari qayd qilingan. Uning yaqinida sopoldan to'rt oyoqli qalin "dasturxon"ning ("stolcha") bo'laklari topilgan. Bularning barchasi ushbu yerto'la uy-joy sifatida foydalanilganini tasdiq etuvchi ashyoviy dalillardir. Yodgorlikda dastlabki qazish davrida aylana, tuxumsimon shakldagi chuqurliklar tozalangan. Kamdan kam holatda chuqurliklar shakli to'rtburchak shaklda bo'lgan. Tadqiqotchi shu chuqurliklarning 163 tasi ochiq qadimgi chust madaniyati aholisining turar-joylari va xo'jalik hayotiga aniqlik kirituvchi xulosalar beradi. Chuqurlikning diametri 0,5 dan 2,3 m gacha, chuqurligi 0,2 dan 1,6 m gacha. Yaqin vaqtgacha chuqurlarning maqsadi va ularning davr bo'yicha taqsimlanishi masalasi juda kam o'rganilgan. Chuqurlarning aksariyati maishiy ehtiyojlar uchun va birinchi navbatda don va boshqa mahsulotlarni saqlash uchun ishlatilgan. Bunday chuqurlarning yasalishi va shakli har xil bo'lib, ular maxsus loy aralashmasidan yasalgan va ularning qalinligi ham mahsulot shakliga bog'liq bo'lgan. Bu yodgorlikda turar-joyning rejasi to'rtburchak shaklga ega bo'lgan arxitektura qoldiqlari ham uchraydi. Turar-joy devorlari 5-10 sm balandlikda saqlanib, kengligi 35-40 sm li madaniy qatlam ustiga qurilgan. Inshootning kirish eshigining kengligi 2 m bo'lib, polda kuygan to'sinlar qoldiqlari topilgan. Bunday yog'och to'sin izlari boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham aniqlangan va bu madaniyatning boshqa yodgorligi Dalvarzin yodgorligi to'liqroq o'rganilgan. Bibiona yodgorligi ham turar-joy qurilishi, xom ashyosi va hunarmandchilik buyumlarini yasalishi jihatidan boshqa shu kabi yodgorliklardan farq qilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Bibiona yodgorligi Chust madaniyatining muhim yodgorligi bo'lib, bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi, Ayniqsa keyingi yillarda qayta boshlangan arxeologik tadqiqotlar Farg'onaning eng qadimgi jamoalar hayot tarzi va xom ashyo manbalari o'rganishga yordam bermoqda. Shuningdek, ulardan topilayotgan turar-joy

qoldiqlari, ularning shakllari va foydalangan arxetektura xom ashyo materiallari bilan qadimgi insonlarni qay darajada antropogen muhit bilan tanish bo‘lganliklarini aniqlash muhim masala bo‘lmoqda. Bu esa Farg‘ona vodiysining qadimgi davr so‘ngi bronza va ilk temir davrini o‘rganishda vodiyning shimoliy qismida joylashgan G‘ovasoy vohasi arxeologik yodgorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Anorboyev A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni – Toshkent: 2002, 148 bet
2. Анарбаев А.А., Баратов С.Р. Новые археологические работы на поселении Чуст–Бибиона. // ИМКУ 42. Самарканд. 2022. С. 204–226.
3. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Нажмиддинов А., Бекмирзаев И. //Археологические работы на поселении Чуст-Бибиона в 2022 году. Самарканд. 2023. С. 19.
4. АнарбаевА.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Нажмиддинов А., Бекмирзаев И., Пардаев М. // Археологические работы на поселении Чуст-Бибиона в 2023 году. Самарканд. 2024.
5. Воронец М.Э Археологические исследования Института истории и археологии и Музея истории АН УзССРна территории Ферганы в 1950 –1951 гг. // В кн.: Труды Музея истории УзССР. Вып. II. Ташкент, 1954. С. 53 –57).
6. Воронец М.Э. Археологическая рекогносцировка 1950 г. по Наманганской области. – Известия АН УзССР, 1951, № 5. С. 95.
7. Воронец М.Э. Археологические исследования Института истории и археологии и Музея истории АН УзССР на территории Ферганы в 1950-1951 гг. // В кн.: Труды Музея истории УзССР. Вып. II, 1954. С. 53 – 57).
8. Заднепровский Ю.А. Раскопки поселений чустской культуры Ферганы. // АО. 1974. М.: Наука, 1975. С. 449.
9. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореф. дисс... док. ист. наук. М, 1978. 52 с.
10. Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х. Основные итоги изучения Чустского поселения в Фергане (1950 – 1982). // ИМКУ. Вып 19. Ташкент, 1984. С. 46 – 71.
11. Заднепровский Ю.А., Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореф. дисс. на соиск. уч. степени доктора исторических наук. М. 1978. С.17.
12. Матбабаев Б.Х. Исследование жилищ в памятниках Чустской культуры Ферганы // ИМКУ. Вып. 33. –Ташкент: Фан, 2002. –С. 46-60.

FARG‘ONA VODIYSIDAGI DALVARZIN YODGORLIGI HIMOYA INSHOOTINING O‘RGANILISHI TAHLILLARI

ANALYSIS OF THE STUDY OF THE PROTECTIVE STRUCTURE OF THE DALVARZIN MONUMENT IN THE FERGANA VALLEY

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИЗУЧЕНИЯ ЗАЩИТНОГО СООРУЖЕНИЯ ПАМЯТНИКА ДАЛЬВАРЗИН В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Normatov Sherzod Mirzayevich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti tarix kafedrasida dotsenti e-mail:

sherzodnormatov453@gmail.com

Tel: +998 93 930 79 30

Annotatsiya.

Ushbu maqola Farg‘ona vodiysidagi Dalvarzin manzilgohining o‘rganilishi, taraqqiyot bosqichlari va tahlillari ilmiy manbalar va adabiyotlar asosida yoritilgan.

Abstract.

This article covers the study, stages of development and analysis of the Dalvarzin settlement in the Fergana Valley on the basis of scientific sources and literature.

Аннотация.

В этой статье мы расскажем о том, как Фергана водийсидага Далварзина помогли строить, развивать и анализировать научные ресурсы и литературу.

Kalit so‘z.

Dalvarzin, Qoradaryo, xo‘jalik o‘ralari, himoya tizimi, shibbalangan tuproq, guvala, xom g‘isht.

Keywords.

Dalvarzin, Karadarya, farm ditches, protection system, shibbled soil, guwala, raw brick.

Ключевые слова.

Дальварзин, Карадарья, фермерские каналы, система защиты, щебеночный грунт, гувала, кирпич-сырец.

Farg‘ona vodiysi so‘nggi bronza va ilk temir davrining uchta yodgorligi nisbatan (Chust va Eylaton madaniyatlarini) to‘liq o‘rganilgan bo‘lib, ular Chust, Dalvarzin va ko‘hna shaharlaridir.

Dalvarzin ko‘hna shahri Andijon viloyatidagi Oyim qishlog‘idan 2 km. sharqda, hozirgi Qoradaryo daryosining qirg‘og‘idan 3-4 km. chapda joylashgan. Umumiy maydoni 25 gektar bo‘lgan ushbu yodgorlik yer sathidan 5 metr balanlikdagi tepalik ustida barpo etilgan. Yodgorlik o‘tgan asrning 50- yillarida ochilgan bo‘lib, bu yerda uzoq yillar tadqiqotlar olib borilgan [1,39-48]. Bu tadqiqotlar vodiy tarixi va madaniyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Dalvarzinning barcha hududlarida stratigrafik tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, yodgorlikning barcha hududlarida madaniy qatlamlar (50 sm.dan 4 metrgacha) ning qalinligi bir xil emas. Yu.A.Zadneprovskiy “yer sathi bilan bir tekisda bo‘lgan xo‘jalik o‘ralari va qurilishlarga qarab”, Dalvarzindagi uchta qurilish bosqichini ajratgan [2,48]. Yuqoridagi qurilish bosqichi alohida turar-joylar devorlari hamda ko‘p sonli xo‘jalik o‘ralari bilan izohlanadi. Pastki qurilish bosqichi yuqoridagi ikkita bosqichga nisbatan qurilish qoldiqlarining yaxshi saqlanib qolganligi kuzatilgan. Bu bosqichda qalinligi 0,6-1,0 metr bo‘lgan devor qoldiqlari aniqlangan bo‘lib, bu yerdan topilgan o‘chog‘, sopol idishlar, bir nechta bronza quyish qoliplari, aylana shakldagi sopol pishirish qozoni bu yerda “ishlab chiqarish ustaxonasi” mavjud bo‘lganligi haqidagi fikrga asos bo‘ldi [3,146].

Dalvarzin ko‘hna shahri inson faoliyati barcha jabhalarining rivojlanishi kuzatiladi. Bu rivojlanish avvalo qurilish jarayonida, ayniqsa, ko‘hna shahar himoyasi bilan bog‘liq qurilishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ko‘hna shaharning mustahkam himoya devorlari ular turli qurilish bosqichlari bosib o‘tganligini dalillaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, Dalvarzin uch qismli rejaga ega bo‘lib, 1) turar

joylar, 2) chorva saqlanadigan joy va 3) qal'adan iborat holda shakllangan. Yodgorliklarning janubiy qismidagi dastlabki himoya devori 100 metrdan ziyodroq uzunlikda, 4-6 metr qalinlik va 2,5 metr balandlikda saqlanib qolgan. Bu devor 50-80 sm. qalinlikdagi madaniy qatlamda bunyod etilgan [4,3-13].

O'tgan asrning 50-70- yillarida Dalvarzinda ko'plab tadqiqotlar olib borgan Yu.A.Zadneprovskiy yodgorlikning hayot faoliyati, mudofaa tizimi va uning rivojlanishi bo'yicha quyidagi xulosani beradi:

1-davrda himoya devorlarisiz ochiq manzilgoh 50-80 sm.li pastki madaniy qatlam ustiga bunyod etilganligi bilan izohlanadi.

2-davrda himoya devorlari shakllanib, ayrim hollarda ta'mirlanganligi ham kuzatiladi. Bu davrda devorning qalinligi 2,5 metrga yetadi.

3-davr devorlarining vayron etilishi va ko'hna shaharda hayot to'xtagani bilan izohlanadi [5,3-13].

Dalvarzinda sopol idishlarga ko'ra nisbiy davrlashtirish bo'lmaganligi sababli bu davrlashtirishni qurilish texnikasi va qurilish xom ashyolari orqali amalga oshirish zaruriyati paydo bo'lgan. Bunday davrlashtirishga urinish M.Turebekov tomonidan amalga oshirilgan [7,79]. Devorlar qurilishining evolyutsiyasi va himoya inshootlaridagi qurilish materiallarini o'rganib, M.Turebekov Dalvarzin himoya tizimini quyidagicha davrlaydi:

1-davrda ko'hna shaharning 5 gektar maydoni himoya devorlari bilan o'rab olinadi.

2-davrda ko'hna shahar g'arbga tomon kengayib boradi va 18 gektar hudud himoya inshootlari bilan o'rab olinadi.

3-davrda ko'hna shaharning qal'a hududi himoya devorlari bilan o'rab olinadi [7,80].

Mustaqillik yillariga qadar olib borilgan Dalvarzin ko'hna shahrining himoya tizimi masalalari bo'yicha tadqiqotlardan quyidagicha xulosalar chiqarilgan: 1. Qadimgi quruvchilar himoya inshootlari bunyod etishda turli-tuman - shibbalangan tuproq, guvala, xom g'isht, paxsa kabi qurilish materiallaridan foydalanganlar. 2. Xom g'ishtlar bir xil hajm va shaklda bo'lmasdan, ularda ustalarning belgi-muhri qo'yilgan hamda g'ishtlar bir-biriga bog'lash usulida terilgan. 3. Devorlar qalinligi 15-30 sm.li tuproq poydevor ustida qad ko'targan. Devorlar yon tomonlarida qad ko'tarib, bo'sh qolgan o'rta qismi tuproq, siniq g'isht va guvalalar, chiqindilar bilan to'ldirilgan [8,49].

2003-2004- yillarda O'z RFA Arxeologiya institutining Andijon guruhi tadqiqotlari natijasida Dalvarzin ko'hna shahrining himoya inshootlari tarixi bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi.

So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, Dalvarzin qal'asining shimoliy himoya devorlari 5 ta qurilish davrini o'z ichiga olgan 4,5 metrli madaniy qatlamdan iborat. Himoya devori vaqti-vaqti bilan ta'mirlanishlarni hisobga olingan holda uchta qurilish bosqichini bosib o'tgan. Bu holatni nafaqat ko'hna shaharning qal'asi, balki shimoli-sharqiy qismida nisbatan uzoq vaqt hayot mavjud bo'lganligi ham tasdiqlaydi. Yangi ma'lumotlar shuningdek, ko'hna shahar himoya devorlar,

umuman, koʻhna shahar volyutsiyasining alohida bosqichlarini yangicha talqin etishga imkoniyat beradi [9,18-24].

Dalvarzinda olib borilgan yangi izlanishlarning natijalari tadqiqotchilarga quyidagi xulosalar chiqarish imkonini bergan:

1. Koʻhna shahar atrofidagi va qalʼadagi himoya devorlarining qurilishi devor tashqarisidagi turar-joy mahallalari rejasiga mos ravishda bunyod etilgan.

2. Dastavval koʻhna shaharning shimoli-gʻarbiy qismidagi tashqi himoya devori qurilgan boʻlib, yer sathidagi tekis boʻlmagan asosda uch bosqichda bunyod etilgan. Koʻhna shaharning sharqiy qismi ikki, gʻarbiy qismi esa bir bosqichda tiklangan.

3. Koʻhna shaharning sharqiy devori turli qurilish xom ashyolari va texnik uslublar asosida inshoot etilgan. Shimoliy devor koʻhna shahar faoliyatining soʻnggi bosqichida qurilgan.

4. Koʻhna shahar himoya devorlari faoliyatining soʻnggi davriga kelib, qalʼasi boʻlgan shimoliy devor bilan tutashgan turar-joy majmuasida kuchli yongʻin izlari aniqlangan [10,78-80].

Dalvarzin koʻhna shaharning himoya devorlari qurilishida shibbalangan tuproq, paxsa, xom gʻisht va guvala kabi qurilish materiallari ishlatilgan. Shibbalangan tuproq ilk davrda faqatgina himoya devorlarining janubiy tomonida qisman ishlatilgan boʻlsa, soʻnggi bosqichda janubiy va gʻarbiy devorlari(chorva boshpanasi)ni tiklashda asosan shibbalangan tuproqdan foydalanilgan. Paxsa esa, Dalvarzining deyarli barcha tashqi himoya devorlarini tiklashda guvala va xom gʻisht aralashgan holda qoʻshib ishlatilgan [11,56].

Vodiydagi soʻnggi bronza davri Chust bosqichida Chust manzilgohiga kiraverishda yagona mustahkam darvozasi boʻlgan qalin muhofaza devorlari aniqlangan. Himoyaning bunday usuli dastavval Dalvarzinga ham qoʻllanilgan. Aynan Dalvarzintepaning atrofi himoya devorlari bilan oʻrab olingan boʻlib, unda hukmdor yashaydigan ark ajralib turadi.

Koʻp yillik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, 25 gektardan iborat Dalvarzintepada yashaydigan aholi uni uch qismdan iborat qilib bunyod etgan. Har bir qism alohida mudofa devorlari bilan oʻralgan hamda ularning oʻz vazifasi boʻlgan. Koʻhna shahar hududining 18 gektari turar joylar, 5 gektari xavf tugʻilgan paytda aholi jon saqlaydigan boshpana qism, 2 gektari esa maxsus alohida ajratilgan qism boʻlib, bu yerda hukmdorlar yashagan. Koʻhna shaharning devorlari guvala, xom gʻisht va paxsadan foydalanib tiklangan. Xullas, Dalvarzinda mukammal mudofa tizimi mavjud boʻlib, koʻhna shaharning har bir qismi alohida himoyalangan. Ular orasida arkka alohida eʼtibor berilib, u puxta oʻylangan reja asosida himoyalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Заднепровский Ю.А. Дальварзинское поселение. (раскопки 1959 г) // КСИА. Вып.86. 1961.с.39-48; Раскопки на Дальверзинском поселение // АО .М.1970. 1971.с. 102-110. Он же. Историческая Дальверзина // Уса. Ташкент, 1972. Вып.1.с.18-26 и др.
2. Заднепровский Ю.А. Дальварзинское поселение...с.48.

3. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. Ленинград.1962.146с.
4. Заднепровский Ю.А. Укрепление Чустских поселений и их место в истории первобытной фортификации Средней Азии // КСИА. Вып.47.М., 1976.с.3-13.
5. Заднепровский Ю.А. Укрепление Чустских....., с. 3-13
6. Туребеков М.Т. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Согда.-Нукус: Каракалпакстан.1990.с.79. (153).
7. Туребеков М.Т. Оборонительные сооружения...с.80.
8. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Оборонительные сооружения...с.49.9. Матбабаев Б.Х., Древние города Ферганы (по археологическим материалам) // Великий шелковый путь и Ферганская долина. Ташкент. 2004.с. 18-24.10. Матбабаев Б.Х., Пардаев М.Х, Абдуллаев Б.М. Новое об оборонительных стенах городища Далварзинтепа // История Узбекистана в археологических и письменных источниках.-Ташкент. Б.И. 2005.с. 78-80.
- 9.Матбабаев Б.Х., Древние города Ферганы (по археологическим материалам)// Великий шелковый путь Ферганская долина. Ташкент. 2004.с.18-24.
10. Матбабаев Б.Х.,Пардаев М.Х, Абдуллаев Б.М. Новое об оборонительных стенах городища Далварзинтепа // История Узбекистана в археологических и письменных источниках.-Ташкент. Б.И.2005 с78-80.
11. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Оборонительные сооружения...с.56.

FARG‘ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI

ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS OF THE FERGANA VALLEY

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Abduhamidov Doniyorbek Yodgorxo‘ja o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi talabasi

tel +998 94 115 70 45

e-mail: doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada qadimiy va hamisha navqiron, “O‘rta Osiyo durdonasi” bo‘lgan Farg‘ona vodiysining bronza, temir va antik davrlarga oid yodgorliklari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar.

Farg‘ona vodiysi, ilk manzilgohlar, arxeologik yodgorliklar, Chust, Eylaton, Qovunchi, Mingtepa.

Annotation.

This article presents information about the archaeological monuments of the Fergana Valley – an ancient yet ever-young region known as the “Pearl of Central Asia.” The focus is on sites dating back to the Bronze, Iron, and Antique periods.

Keywords.

Fergana Valley, early settlements, archaeological monuments, Chust, Eylaton, Qovunchi, Mingtepa.

Аннотация.

В данной статье представлена информация об археологических памятниках Ферганской долины – древнего и вечно молодого региона, известного как “жемчужина

Средней Азии”. Рассматриваются памятники, относящиеся к бронзовому, железному и античному периодам.

Ключевые слова.

Ферганская долина, ранние поселения, археологические памятники, Чуст, Эйлатон, Ковунчи, Мингтепа.

Farg‘ona vodiysi nafaqat o‘zining go‘zal tabiati, baland tog‘lari, unumdor yerlari, mehnatkash xalqi balki, qadimiy tarixi, qadimiy va hamisha navqiron shaharlari, noyob arxeologik yodgorliklari bilan ham mashhur hisoblanadi. Ana shunday qadimiy yodgorliklardan biri Chust madaniyatidir.

Chust madaniyati qadimgi Farg‘onadagi ilk dehqonchilik madaniyati bo‘lib, qadimgi Farg‘onadagi ilk dehqonchilik madaniyati yodgorligi hisoblanadi. Bu madaniyatni yaratgan aholi dastlab chorvachilik bilan shug‘ullangan, keyinchalik esa o‘troq hayot tarziga o‘tishgan. Ularning ilk qishlog‘i 1951- yilda M.E.Vorones tomonidan Chust shahri yaqinidagi Buvanamozor deb atalgan buloq yonidan topilgan. Arxeologlar bu yodgorlikka shartli ravishda Chust madaniyati nomini berganlar, chunki bu yodgorlikka yaqin yirik aholi punkti Chust shahri bo‘lgan. Chust madaniyati so‘ngi bronza va ilk temir davriga oid bo‘lib, u miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri – I ming yillikning birinchi choragida shakllangan. Bugungi kungacha Farg‘ona vodiysida Chust madaniyatiga mansub 80 dan ortiq yodgorlik topilgan. Shuningdek, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand hududlaridan ham topilgan. “Naqshinkor rangli sopol” madaniyatining ko‘plab mehnat qurollari Chust madaniyatiga o‘xshashligi masalasi dastlab A. Asqarov tomonidan ta’kidlanib, ularning kelib chiqishini Chust madaniyati bilan bog‘laydi. A.Asqarovning ta’kidlashicha, “Sopolli madaniyati o‘zining Bo‘ston bosqichida gullab-yashnab turgan kezlarda, Baqtriya sarhadlariga Qadimgi Farg‘onaning Chust madaniyati tipidagi etnik guruhlar kirib keladilar. Chustda M.E.Voronesdan keyin V.I.Sprishevskiy, B.Matboboyev, Yu.A.Zadneprovskiylar tadqiqot ishlarini olib bordilar. Tadqiqotlar Dalvarzintepa, Qoraqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on, Tergovchi, Yoztepa, Go‘rmiron, G‘ayrattepa, Chimboy, Ashqoltepa kabi yodgorliklarda olib borilgan. Ularda madaniy qatlam 1,5 – 3 metrgacha qalinlikda saqlanib qolgan, bu ham chust madaniyati aholisining o‘troq hayot kechirganligidan dalolat beradi [1. – B. 96-98].

Chust madaniyatining ilk bosqichida aholisi yerto‘la va yarim yerto‘la uylarida yashagan. Ikkinchi bosqichda uy joylar yerning ustida paxsa va xom g‘ishtdan qurila boshlaydi. Aholi kulolchilik, to‘qimachilik, bronza quyish ishlari bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Kulolchilik buyumlari qo‘lda yasalgan, sirtiga turli naqshlar chizilgan. Mis va bronzadan uy-ro‘zg‘or anjomlari va qurol yarog‘lar yasalgan. Chust madaniyatining shakllanish masalasida mutaxassislar tomonidan turli xil fikrlar bildiriladi. Ahmadali Asqarov mahalliy Andronovo madaniyatiga mansub chorvador aholining o‘rtoqlanish natijasi deb hisoblangan bo‘lsa V. I Sarianidi O‘rta Osiyoning janubidan kelgan aholisi asos solganligini aytgan. K. Sverchkov bu madaniyatning ildizini Sharqiy Turkistonning Tarim vohasi bilan bog‘lashga harakat qilgan.

Vodiyning qadimiy yodgorliklaridan yana biri Eylaton madaniyatidir. Eylaton – bu madaniyatiga oid yodgorliklar orasida shu nomdagi manzilgoh yaxshi o‘rganilgan. Manzilgoh Qoradaryo bo‘yida joylashgan umumiy maydoni 200 gektardan iborat. Manzilgoh ichki va tashqi qismdan iborat. Ichki qismi qudratli mudofaa tizimiga ega. Mudofaa devori kvadrat burjlar bilan kuchaytirilgan. Manzilgoh birinchi devoridan 500 m masofada unga parallel qilib qurilgan ikkinchi devor joylashgan. Eylaton madaniyati xo‘jaligining asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etgan. Bu davrda temirdan yasalgan buyumlarning soni ko‘payadi. Ayrim mutaxassislar amurgiya saklarini Farg‘ona vodiysi hududiga joylashganligini qayd etadi. Ma‘lumki, amurgiya saklari ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan. Yozma manbalarda amurgiya saklarining Roksanaka va Fosta shaharlari to‘g‘risida yashaganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. Farg‘ona vodiysining Eylaton davriga oid yirik manzilgohlari ahamoniylar shaharsozligi usulida barpo etilib, ularni yozma manbalarda qayd etilgan shaharlar bilan qiyoslash mumkin [2. – B. 146 – 148].

Qovunchi madaniyatining ilk bosqichida o‘troq manzilgohlari shakllanib, miloddan avvalgi II asrdan asrdan o‘lkada shaharsozlik taraqqiyotining ikkinchi bosqichi boshlandi. Qovunchitepa, Kindiktepa, Shoshtepa va boshqa shaharlar shakllandi. Arxeolog olim M.I.Filanovichning fikricha, Shoshtepa me‘moriy majmuasi Jetiasar madaniyati qurilishga o‘xshaydi.

Qovunchi madaniyatining keyingi bosqichida Mingo‘rik yodgorligi o‘rnida aholi manzilgohi shakllanib, shahar markaziga aylanadi. Uning umumiy maydoni 35 gektardan iborat mudofaa devoriga ega manzilgoh ark va shahriston qismlaridan tashkil topgan. Arkda saroy, harbiy zaxira ombori va boshqa imoratlarining o‘rni ochib o‘rganilgan. Imoratlarning devorlari turli mazmundagi rang tasvir namunalari bilan bezatilgan.

Antik davrlariga oid yodgorliklar majmuasini Yu.A.Zadneprovskiy Sho‘rabasht va Marhamat davrlariga ajiratadi. N.G.Gorbunova, Farg‘ona vodiysining Eylaton madaniyati o‘rnida vujudga kelgan yodgorliklarini Ko‘gay-Qorabuloq madaniyati nomi bilan yoritilgan.

Sho‘rabasht manzilgohi antik davrga oid eng yirik manzilgoh hisoblanadi. Umumiy maydoni 70 gektar keladigan ko‘hna shahar xarobasi daryodan tashqari uch tomoni mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Devor burjilar bilan kuchaytirilgan. Manzilgohning sharqida joylashgan Ark qismi ham alohida mudofaa devoriga ega. Bu manzilgohni Yu.A.Zadneprovskiy xitoy manbalarida qayd etilgan Yuchen shahri bilan qiyoslagan [3. – B. 217- 222].

Farg‘ona vodiysi va uning janubidagi tog‘lik rayonlarda ham mezolit davriga oid makonlar ancha keng tarqalgan. Shular jumlasiga Farg‘ona vodiysining janubidagi Qatron tog‘ining janubiy yon bag‘ridan topilgan Obisher I va Obisher V g‘or makonlarini kiritish mumkin.

Mingtepa arxeologik yodgorligi 40 gektar maydonni egallab, 52 ta katta kichik tepalik o‘rab olgan. 1986- yil O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Arxeologiya instituti tomonidan ushbu yodgorlik majmuasini o‘rganishga kirishildi. Tekshirish guruhi rahbari, tarix fanlari nomzodi Boqijon

Matboboyev, ilmiy maslahatchi Sayfiddin Jalilov dastlab, “Mingtepa”ning qoq o‘rtasida joylashgan katta tepalik-shahar o‘rdasining qoldig‘i kovlanib o‘rganildi va jiddiy ilmiy xulosalarga sabab bo‘ladigan talaygina arxeologik ashyolar topildi. Chust madaniyatiga mansub guldor sopol buyumlar topilgan. Chust tipidagi rangli sopol idishlar O‘rta Osiyoning ko‘p joylarida uchraydi. Sopol idishlar uy xo‘jaligida ishlatilgan [4. – B. 143-144].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES).

1. Egamberdiyeva N. A. Arxeologiya. Darslik. – T.: LESSON-PRESS” nashriyoti, 2023.
2. Ibragimov R. Arxeologiya. – T.: Fan, 2022.
3. Ibragimov R. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent, 2020.
4. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

FARG‘ONA VODIYSIDA KULOLCHILIK, SHAHARSOZLIK VA ME‘MORCHILIK(AXSIKENT YODGORLIGI MISOLIDA)

ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО И АРХИТЕКТУРА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (НА ПРИМЕРЕ ПАМЯТНИКА АХСИКЕНТ)

URBAN PLANNING AND ARCHITECTURE IN THE FERGANA VALLEY (ON THE EXAMPLE OF THE AKHSIKENT MONUMENT)

Xayitova Shaxnoza Muxammadjonovna

“University of Business and Science”, Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

e-mail:hayitovashahnoza51@gmail.com

Tel: +998 93 402 36 72

Annotatsiya.

Ushbu maqolada qadim Farg‘ona vodiysi va undagi shahar Axsikent ,shaharda hunarmandchilikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan kulolchilik tarixi,tuproqqa ishlov berish, kulollar tomonidan qanday buyumlar tayyorlanganligi, tayyorlanish jarayoni va ushbu buyumlarning bir biridan yasaliş va davr nuqtai nazaridan farqli va o‘xshash tomonlari, hamda Axsikentda shaharsozlik,me‘morchilik, temirchilik va bugungi kun tadqiqotlari va natijalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Аннотация.

В статье представлена информация о древней Ферганской долине и городе Ахсикенте, об истории гончарного дела, одного из важнейших направлений ремесла, обработке почвы, о типах изделий, изготавливаемых гончарами, о процессе производства, о различиях и сходствах между этими предметами с точки зрения их изготовления и периода, а также о городском планировании, архитектуре, кузнечном деле, а также о современных исследованиях и результатах в Ахсикенте.

Annotation.

This article presents information about the ancient Fergana Valley and the city of Akhsikent, the history of pottery, one of the most important branches of craftsmanship, soil processing, the types of objects made by potters, the production process, and the differences and similarities between these objects in terms of their manufacture and period, as well as urban planning, architecture, blacksmithing and current research and results in Akhsikent.

Kalit so‘zlar.

Farg‘ona vodiysi, sopol buyumlar, Axsikent temirchiligi, kulolchilik xumdonlari, loy, tuproq, hunarmand ustalar, arxeolog tadqiqotchilar

Ключевые слова.

Ферганская долина, керамика, аксикентское кузнечное дело, гончарные хумдоны, глина, почва, ремесленники, исследователи-археологи..

Key words.

Ferghana Valley, ceramics, Akhsikent blacksmithing, pottery khumdons, clay, soil, artisans, archeological researchers

Farg‘ona vodiysi qadim tarixiy shahar ekani barchamizga ma’lum. Axsikent, Mingtepa, Sho‘rabashat, Chust, Dalvarzintepa, Eylatan kabi arxeologik yodgorliklari vodiyning ko‘hna tarixiy xudud ekanini bildiradi. Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyodagi yirik tarixiy-madaniy o‘lkalardan biri hisoblanib, u O‘rta Osiyoning shimoliy-sharqiy qismida, Sirdaryo va uning irmoqlari xavzasida joylashgan. U shimolda Chotqol, Qurama, sharqda Farg‘ona, janubda Oloy, Turkiston tog‘ tizmalari bilan chegaralangan. Vodiyning g‘arbiy chegaralari tarixiy-geografik jihatdan Xo‘jabaqirgansoy havzasi bo‘lib, undan keyingi hududlar Sug‘diyona-Ustrushona tarixiy-madaniy o‘lkasi hisoblangan [5,23]. To‘g‘ri, ba’zi manbalarda Xo‘jand qadimgi Farg‘ona xududiga kiritilgan va Xo‘jabaqirgansoy xavzasi vodiyni xududi hisoblangan. Qadimgi Farg‘ona Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm kabi Turonzaminning yirik tarixiy-madaniy o‘choqlaridan biri hisoblanib, umumbashariyat madaniyatiga qo‘shgan munosib hissasi tufayli “Farg‘ona sivilizatsiyasi” degan nom ostida jahon tarixiga kirgan [9,32]. Manbalarda “O‘rta Osiyo javohiri” deb nom olgan Farg‘ona vodiysi suv manbalariga boy, iqlimi mo‘‘tadil, tuprog‘i unumdor bo‘lib, bu zaminda insonni yashab mehnat qilishi uchun juda qulay tabiiy shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan [9,36]. U insoniyat tarixining ibtidosidayoq eng qadimgi odamzot ajdodlarining makonlaridan biri bo‘lgan. Jumladan, Janubiy Farg‘onadan topilgan tosh qurollari va odam suyaklariga qaraganda, bu o‘lka Markaziy Osiyoda insoniyatning eng qadimgi vakillari paydo bo‘lgan, shakllangan mintaqalar qatoriga kiradi. Farg‘onaning so‘nggi bronza davri yodgorliklarini har tomonlama o‘rganish natijasida aniqlanishicha, dastlab dehqonlar qarorgohi, keyin shaharmonand qal’a-qo‘rg‘onlar, so‘ngra esa ilk shaharlar paydo bo‘ladi. Dalvarzin o‘zining tarixiy topografiyasi va o‘ziga xos moddiy madaniyati bilan nafaqat vodiya, balki O‘zbekistondagi ilk shaharlar qatoriga kirgan. Qolaversa, uning vodiyning eng qadimgi o‘troq dehqonchilik va hunarmandchilik markazi bo‘lgani manbalarda tasdiqlangan [5.90]. Yana bir necha arxeologik yodgorliklar Chust, Ashqoltepa, Dehqon, Xo‘jambog‘ (maydoni 4-13 ga) kabilar ham o‘z navbatida qadimgi voha dehqonchiligi markazlari bo‘lgan. Demak, mil. avv. II mingginchi yillikning oxirgi choragidan vodiya ilk shaharlar, shaharmonand qal’a-qo‘rg‘onlar tarkib topgan [1,9]. / İlk shaharlar shubhasiz, dastlabki irrigatsiya inshootlari asosida yuzaga kelgan. Irrigatsiya tarmoqlarining mavjudligi va hunarmandchilikning rivojlangani, shubhasiz, dastlabki davlatchilikning asosiy belgilaridandir.

Ilk temir va antik davrlarda ham Farg‘onada (mil. avv. VI-IV va milodiy IV asrigacha) dehqonchilik madaniyati an‘analari davom etadi.

Sopol buyumlar arxeologiyada juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'rganilayotgan hudud yoki yodgorlikning davri, uni taraqqiyoti darajasi xususida ko'plab ma'lumotlar bera oladi. Biz ushbu maqola orqali sizga ba'zi muhim ma'lumotlarni beradigan Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Axsikent yodgorligi hududidan topilgan kulolchilik buyumlari qoldiqlari, hunarmandchilik ustaxonalari qoldiqlari, harbiy aslahalar qoldiqlari turar joy, makonlar qoldiqlari ham Axsikentning qadimiy shahar ekanligi va u yerda kulolchilik, me'morchilik shaharsozlik yuksak darajada rivojlanganligidan dalolatdir [1,41].

Axsikent shahrining bizgacha saqlanib qolgan qismlaridan ham ko'plab sirlangan va sirlanmagan sopol buyumlar yetib kelgan. Axsikent xarobalarini arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX asr oxirlari XX asr boshlaridan boshlangan [2,16]. 1885- yil Nikolay Veselovskiy, 1914- yili I.A. Kastane shaharda arxeologik qazilma va qidiruv ishlarini olib bordi. Sho'rolar davrida Mixail Masson (1939) va A. Bernshtamlar (1948) shahar ustida tekshiruv ishlarini amalga oshirishadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida shaharning ark, shahriston va rabotdan iborat bo'lganligi, uchala qismi ham alohida devorlar bilan o'ralganligi, arkda hokim saroyi, zindon, shahristonda ichki bozor, jome' masjid, pishiq g'ishtdan ishlangan hovuz va ariqlar, rabotda hunarmandlar mahallalari va tashqi bozor mavjud bo'lganligi aniqlangan [2,15]. Shuningdek, Axsikent shahri Namangan o'lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham 1957–1959- yillarda o'rganilgan.

1960- yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti tomonidan uyushtirilgan maxsus ekspeditsiya Axsikent rabotidan XI asrga oid ko'hna hammom o'rnini aniqlagan.

Hammom 13 xonadan iborat bo'lib 3 ta qurilish davriga ega. Hammomning 7 chi va 8 chi xonalaridan tashqari hama xonalari issiq xonalar hisoblanib ularning asosiy qismi yet sathidan pastda joylashgan [1,78]. Hammomdan sopol idish, quvur, chaqa tanga va shisha buyumlar topilgan.

Bundan tashqari, xarobalarning g'arbiy qismida o'rta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi ham aniqlangan. Akademik Yahyo G'ulomov va arxeolog Inqilob Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikki shahar bo'lganligini, ulardan biri qadimgi Axsikent va ikkinchisi Bobur tug'ilgan Axsi shahri ekanligini birinchi bo'lib isbotlashgan. 1967- yil rassom I. Smirnov shahar xarobalaridan yig'ib olingan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. Axsikent yodgorligi o'zbek xalq madaniyati tarixida muhim o'rin tutganligi uchun 1950-yildan davlat muhofazasiga olingan.

2002- yilda London Universiteti Arxeologiya instituti professori Tilo Rehren Axsikentda o'tkazilgan Britaniya – O'zbekiston arxeologik ekspeditsiyasiga rahbarlik qiladi. Olimlar bu yerda mustahkam, ammo bukiladigan va parchalanishga chidamli Damashq po'lati ishlab chiqarilganiga oid dalillarni topadilar [1,77]. Shuningdek, ular 1300 gradusgacha bo'lgan haroratga bardosh beradigan kaolindan yasalgan, yong'inga chidamli tigellarni topadilar. Hunarmandlarning ko'pchiligi temir, po'lat ishlab chiqarish va ulardan xilma-xil

buyumlar va qurollar tayyorlash bilan band bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar Farg'ona-Axsikat shahrining iqtisodiy salohiyati va uning Markaziy Osiyoda tutgan o'rnini aniqlash imkonini berdi. Ma'lum bo'lishicha, Axsikatning ustasi farang hunarmandlari boyitilgan temirdan sof po'lat ("bulat") olishni bilishgan. Buning uchun maxsus kaolin loyidan tayyorlangan silindr shaklidagi idishga ("tigel") boyitilgan temir xom ashyosini solib, unga yog'och ko'mir va boshqa bizga noma'lum bo'lgan qo'shimchalarni qo'shib, so'ng maxsus pechga qo'yilgan. Pechning ichi ham kaolin loyi bilan suvalgan. Kaolin loyidan tayyorlangan maxsus idish (tigel) va pech 1650-1700 C issiqlikka chidagan [12,28]. Po'lat ishlab chiqarish texnologiyasi sir tutilgan. Tayyor bo'lgan po'latni idishda sovutib, so'ng, uni idishni sindirish yo'li bilan olingan. Bunday po'latdan tayyorlangan qilichlarning bahosi juda yuqori turgan. Shuning uchun bunday qurollar ko'pincha boy-badavlat odamlar yoki savdogarlar buyurtmasi asosida tayyorlangan. Axsikatda tayyorlangan qurollar "Damashq" qilichlari nomi bilan butun dunyoga mashhur edi. Buni biz manbalardagi ma'lumotlardan ham bilib olsak bo'ladi. Masalan, arab tarixchi-geograflari Muqaddasiy va Ibn Havqal yozib qoldirgan manbalarda, Ustrushona temiri Farg'ona(Axsikat) ustalari qo'liga tushgach, u u insom aqli yetmaydigan qurollar(narsalar) ga aylangan deyiladi .

Ushbu qurollar ikki xil bo'lib, biri hind po'latiga o'xshab qattiq po'latdan, ikkinchisi yumshoq po'latdan tayyorlangan. Masalan, yumshoq po'latdan tayyorlangan qilichlar to'g'risida mahalliy xalq orasida har xil rivoyatlar yuradi. Axsikent yodgorligini o'rganish jarayonida metallurgiya qoldiqlari ham topilgan. Ular qora va rangli metallga ikkilamchi ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan. Birinchi shahristonning bir ob'ekti (VIII) va ikkinchi shahristonning to'rt ob'ektida (IV,VII, XV, XXII) IX-XIII asrlar boshlariga oid temirga ishlov berish bilan bog'liq ustaxona qoldiqlari topilgan. G'arbiy rabodning (Aksi II) ikki nuqtasida metallurgiya pechi qoldiqlari ochilgan. Xususan, ob'ekt XIII da temir eritish pechining kichik qoldiqlari, ob'ekt XIV esa mis eritish pechining qoldiqlari ochilgan.

Axsikent yodgorligi va uning atrofida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalardagi ma'lumotlar va ularning qiyosiy tahlili Farg'ona vodiysida antik va o'rta asrlar davri shahar madaniyatining rivojlanish dinamikasini aniqlashga imkon berdi. Arxeologik tadqiqot asosida Eski Aksi yodgorligi o'rnida miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida 40 gektardan ziyod maydonda Farg'ona (Yuan) shahri qurilganligi isbotlanadi. Uning qurilish madaniyati Chust va Eylaton madaniyati asosida shakllangan. Dastlab shahar ikki qismdan iborat bo'lgan, keyinchalik, miloddan avvalgi II asrda hunarmandlar shahri "rabod" ("protogorod") paydo bo'ladi. Natijada, shahar 3 qismdan iborat bo'lib, maydoni 50 gektardan oshib ketadi [2,24]. Ilk o'rta asrlarda shahar sharq tomonga kengayib, maydoni 70 gektarga yaqinlashadi. Rivojlangan o'rta asrlarda uning maydoni 400 gektardan oshib ketadi. Ushbu tadqiqot natijasida, Farg'ona shahar moddiy madaniyatining 1,5 ming yillik evolyusiyasi kuzatildi. Bunga Eski Aksi yodgorligining quyi qatlamlari o'rganilgan 5 ta ob'ektdan olingan antik va ilk o'rta asrlar davriga tegishli sopol komplekslari va yuqori qatlamlari o'rganilgan 15 ta

ob'ektdan olingan rivojlangan o'rta asrlarga oid sopol komplekslarini qiyosiy tahlil qilish tufayli erishilgan. Bu esa o'z navbatida Farg'ona vodiysi moddiy madaniyatining, ayniqsa kulolchilik hunarmandchiligining yuksak darajada tivojlanganligidan dalolatdir. Sopol komplekslarini qiyosiy tahlil qilish davrlashtirishda asos bo'lib hizmat qildi. Aniqlanishicha, Farg'ona-Axsikat shahri tarixida sopol idishlar o'z ko'rinishi va shaklini antik va ilk o'rta asrlarda 70-90-yillar oralig'ida o'zgartirganligi ma'lum bo'ldi. XI asrning ikkinchi yarmi – XIII asrni boshlari uchun esa bunday o'zgarishlar 50-60 yilda yuz bergan.

Xullas, arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalardagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish tufayli Farg'onaning antik va o'rta asrlar davri shahar madaniyati tarixini tiklashga harakat qilindi. Axsikent shahri xarobalaridan topilgan moddiy madaniyat ashyolari rang-barang. Ayniqsa, sirlangan sopol idishlar diqqatga sazovordir. Ularning ba'zilarida kufiy yozuvidagi bitiklarni o'qish mumkin. Ushbu bitiklarda har xil aforizmlar va hadislardan olingan so'zlar yozilgan. Axsikat hunarmandlari X-XII asrlarda sirli sopol idishlarni bezash va sirlash borasida o'ziga xos maktab yaratgan. Buning mahsuli bo'lgan ajoyib naqshindor va chinnidek jiloga ega X asrga oid idishlarning namunalari O'zbekiston san'at muzeyi va dunyoning eng nufuzli muzeylarida saqlanmoqda. Shunday idishlardan ikkita katta kosa O'zbekiston san'at muzeyida saqlanadi. Idishlar juda ham nafis ishlangan, yengil, xuddi chinnidek tovlanadi. Birinchi idishning ichki qismida qoramtir jigarrang va qoramtir qizil rangda kufiy yozuvida arab tilida quyidagi so'zlar bitilgan: "Fikr bildirish uchun hech qachon shoshilma" [1,90].

Ushbu so'zlar Markaziy Osiyo xalqlarining ming yillik hayot tajribasidan kelib chiqib aytilgan. Bu yerda insonni har bir masala bo'yicha o'ylab, so'ng, fikr bildirishga chaqiriladi. 2- rasimdagi sopol idishda esa "Boylikdagi olijanoblik – xohishdan voz kechishdir" deb arab kufiy yozuvida fikrlar yozilgan [1,92]. Umuman olganda, Farg'ona-Axsikat shahri o'rta asrlarda har tomonlama rivojlanib, o'z davrining megapolisiga aylanadi. Qazishmalar davrida XI-XII asrlarga oid tangalar va XII asrning oxiri – XIII asrni birinchi choragiga taaluqli sopol idishlar topildi. 2019- yilda Axsikatning rabod qismidagi XXIV obyektida ham Qoraxoniylar davriga mansub mahobatli turar joy qoldiqlari topildi. Binoning asosiy qismidan birgina tashnov va uyum-uyum pishiq g'ishtlar qolgan. Lekin pishiq g'ishtlardan qurilgan tagxonalar yaxshi saqlangan. Demak, so'ngi yillarda Axsikent yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasi va tadqiqot ishlariga boshchilik ilayotgan arxeolog ustozimiz tarix fanlari doktori, professor Abdulhamidjon Anorboyevning xulosalariga ko'ra Eski Axi va Yangi Axi toponimlari bitta Axsikat shaharining turli davrlarga oid xarobalariga mahalliy xalq tomonidan berilgan nomlardir. Hozirgi kunlardagi Axi qishlog'i esa 1620-yilda yuz bergan 9 balli zilziladan keyin shakllangan 15 ta qishloqning biri hisoblanadi [1,95]. Uning Eski Axi va Yangi Axi deb atalgan arxeologik yodgorliklarga aloqasi yo'q. So'ngi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda Axsikentning o'rganilishi va o'rganish bo'yicha berilayotgan ilmiy xulosalarga qarshi fikrlar ham uchrab turibdi. Shuni ta'kidlash joizki, Eski Axi (Axsikent) yodgorligi

hududida olib borilgan qazishmalar davrida biror joyda Temuriylar davriga oid arxitektura qoldiqlari topilmadi. Bunday topilmalar 1980- yillarda Yakka Yigit qishlog‘i hududida saqlanib qolgan Yangi Axxi yodgorligida olib borilgan tadqiqotlarda qo‘lga kiritilgan. Jamiyat taraqqiyotida shaharning o‘rni yuqori darajada bo‘lib, qishloqlarda ham boy-badavlat oilalar shahardagi uylarga taqlid qilib turar joylar qurishgan. Xususan, ilk o‘rta asrlarda shahar aholisining asosiy qismini o‘ziga to‘q oilalar tashkil qilgan. Bu holat turar joylarda o‘z aksini topgan. Bu davrda shahar hayoti jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoniga aylanadi. Farg‘ona o‘zining samoviy tulporlari, paxtasi, shirin-shakar uzumlari va undan tayyorlangan vinolari bilan mashhur bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligida boshqali o‘simliklar, paxta va xilma-xil meva va sabzavotlar ekilgan. Ularning ba‘zi birlari qayta ishlanib chet davlatlarga eksport qilingan. Jumladan, Xitoyga samoviy tulporlar bilan birga paxta va uzum mahsulotlari eksport qilingan. Shuni ta‘kidlash joizki, aholini ko‘payishi munosabati bilan yuzlab gektar yangi yerlar o‘zlashtiriladi. Yozning issiq kunlari ba‘zi bir soy havzalarida suv tanqisligi yuz bera boshlaydi. Bu esa o‘z navbatida suvni to‘g‘ri taqsimlash va uni ustidan nazorat qilishni taqozo etadi. Natijada, daryo va soylar havzasining yuqori qismida suvdan foydalanishni nazorat qilish joylari paydo bo‘ladi. Masalan, So‘x havzasida Sariqo‘rg‘on, Marg‘ilonsoyda Surxtepa, Isfayramsoyning irmog‘i hisoblangan Quvasoyning yuqori qismida Yuqori Mo‘yan va Qorovultepa kabi kuzatuv qal‘a qo‘rg‘onlari quriladi. Bunday holatni vodiyning qolgan daryo va soy havzalarida ham kuzatish mumkin.

Bugungi kunda ham Axxikentda professor A. Anorboyev boshchiligidagi arxeologlar tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Juda ko‘p o‘rganilishi kerak bo‘lgan joylar mutaxassis va tarixchilarni kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Anorboyev A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni. – Toshkent, 2002.
2. Анорбоев А. Фаргонанинг антик ва урта асрлар даври маданияти Докт.дисс. – Тошкент, 2017.
3. Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. Ташкент, 2013.
4. Анарбаев А. Довоннинг самовий отлари // ФАН ва ТУРМУШ. № 3-5. Тошкент, 2008.
5. Горбунова Н.Г. Женские украшения Кугайско-карабулакской культуры Ферганы // Древний и средневековый Кыргызстан. – Бишкек: Илим, 1996.
6. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. Москва-Ленинград, 1962.
7. Заднепровский Ю.А. Древняя Фергана // История Киргизской ССР. Том I. Фрунзе.: Кыргызстан, 1984.
8. Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. Самарканд, 2009.

**FARG‘ONA ARXEOLGIK YODGORLIKLARI – DUNYO NIGOHIDA
(KO‘HNA AXSIKENT TIMSOLIDA)**

**THE ARCHAEOLOGICAL HERITAGE OF FERGANA – IN THE EYES
OF THE WORLD (ON THE EXAMPLE OF ANCIENT AKHSIKENT)**

**АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ФЕРГАНЫ – ВО ВЗГЛЯДЕ МИРА
(НА ПРИМЕРЕ ДРЕВНЕГО АХСИКЕНТА)**

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998 93 102 17 25

Annotatsiya.

Ushbu maqolada “O‘zbekiston gavhari” deya e‘tirof etilgan Farg‘ona vodiysining arxeologik yodgorliklari, xususan, Axsikent yodgorligi, unda olib borgan arxeologik tadqiqotlar va uning natijalari haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar.

Axsikent, Davan, Syuan Szyan, A.N.Bernshtam, N.I.Veselovskiy, Yahyo G‘ulomov, A.Anorboyev, ark, shahriston, rabot, 70 gektar, madaniyat markazi, mustaqillik, direksiya.

Аннотация.

В данной статье представлена информация об археологических памятниках Ферганской долины, известных как “Жемчужина Узбекистана”, в частности памятнике Ахсикент, проведенных там археологических исследованиях и их результатах.

Ключевые слова.

Ахсикент, Даван, Суан Сзянь, А.Н. Бернштам, Н.И. Веселовский, Яхья Гуломов, А. Анорбоев, ковчег, Шахристон, Рабат, 70 га, культурный центр, независимость, дирекция.

Annotation.

This article provides information on the Fergana Valley archeological monuments, particularly the archeological monument, which were recognized by “Gavkari of Uzbekistan, and the Axikent monument and its results.

Key words.

Axikent, Dawan, Suan Szyan, A.N.Bernshtam, N.I.Veselovski, Yahya Gulyamov, A.Anorbayev, ark, shahristan, rabot, 70 hectares, cultural center, Independence, directive.

Axsi – Farg‘ona shaharlarining onasidir.

Mirzo Muhammad Haydar.

Farg‘ona – Markaziy Osiyodagi eng qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri. Farg‘ona vodiysi Sirdaryoning yuqori qismida joylashgan Pomir-Oloy va Tyanshan tog‘ tizimlari bilan o‘ralgan. Faqat g‘arbda vodiya 9 km kengligida tor yo‘lak bo‘lib, Mirzacho‘l va Qayroqqum tekisligi orqali O‘rta Osiyoning boshqa hududi bilan bog‘langan. U sharqdan g‘arbga qarab nishab joylashgan va uzunligi 300-350 km.ni, kengligi 100-140 km.ni tashkil etadi. Farg‘ona vodiysi tabiatining go‘zalligi, tabiiy boyliklarining ko‘pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham uni “O‘zbekiston gavhari” deb ataydilar. Bu yerda inson hayoti uchun barcha zarur tabiiy shart-sharoitlar mavjud: unumdor tuproq, qulay

iqlim va suv resurslari mo'1-ko'1. Bularning barchasi qadim zamonlardanoq qishloq xo'jaligi madaniyatining paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan [6].

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri yirik o'lkalarda biridir. Xitoy yozma manbalarida (Beyshi, Tanshu) Farg'ona vodiysi hududi Lona (Polona) Boxan va Ninyuan nomlari bilan tilga olingan. Xitoylik sayyoh Syuan Szyan bergan ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysida Turk xoqonligi istilosigacha yagona hukmdor boshqaruviga ega bo'lmasdan bir nechta mustaqil mulkliklardan tashkil topgan.

Vodiyda ilk o'rta asrlarga oid 250 dan ortiq arxeologik yodgorliklar qayd etilib, shundan 22 tasi shahar turidagi yodgorliklardir. Bu davrda Farg'onada Koson, Axsikent, Quva, Andijon, O'sh, O'zgan, Qo'qon kabi yirik shahar markazlari va Qo'rg'ontepa, Oqbura kabi boshqa shaharlar va shaharchalar mavjud bo'lgan.

Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar davri aholi manzilgohlari orasida Axsikent mavqeyi va ahamiyati jihatdan ikkinchi shahar hisoblanadi [1. – B. 258].

Axsikent – qadimgi shahar xarobasi Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan [2. – B. 119]. Arxeolog A.N.Bernshtam shaharning shakllanishini Kushon davri bilan, taraqqiyotini esa VI-VII asrlar bilan belgilaydi. A.Anorboyev esa mil. avv. II asrning boshlarida shakllangan deb hisoblaydi. Shaharning ilk o'rta asrlar davriga oid madaniy qatlamlari yaxshi o'rganilmagan. Yozma manbalarda hukmdor qarorgohi bo'lganligi qayd etilgan. U antik davrdan shakllana boshlagan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib mahalliy hukmdorlar markazi hisoblangan yirik shahar markazlaridan biriga aylangan. Manzilgoh shahriston va uning ichkarisida joylashgan ark qismlaridan iborat. Shaharning har ikkala qismi mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan va ularga tutashtirib qurilgan mudofaa burjlari ham kuchaytirilgan. Bu shahar rivojlangan o'rta asrlar davri arab va fors mualliflari keltirgan manbalarda ark, madina va rabot qismlaridan iborat bo'lgan, deb keltiriladi. Hozirgi paytda umumiy maydoni 27 ga. hududni egallagan trapetsiya shaklidagi shahriston va uning shimoli-g'arbida joylashgan ark qismlarining o'rni saqlanib qolgan. Keyingi yillarda bu yerda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan arxeolog olim A. A. Anorboyevning tadqiqotlari natijasiga ko'ra, shahar rivojlangan o'rta asrlar davrida yuksalib va uning maydoni bir necha barobar kengaytirilgan. Axsikent dastlab 70 gektardan iborat maydonni egallagan bo'lib, uch qism; ark, shahriston (Aksi I a va Aksi I b), va keng rabotlardan iborat bo'lgan [1. – B. 258-259].

Axsikentning eng pastki madaniy qatlami mil. avv. III-II asrlarga oid. Qal'a paxsa va xom g'ishtdan qurilgan mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Devor balandligi 20 metrga yaqin bo'lib, qalinligi 10 metr bo'lgan, 5 ta darvozasi bo'lib, uning atrofi chuqur xandaqlar bilan o'ralgan.

Shahriston 35 ga maydonni egallagan. Hozirda uning 25 ga hududi saqlanib qolgan. Shahriston ikki qism – ichki va tashqi qismdan iborat bo'lgan. Ichki shahristonda 2 ta minora, tashqi shahriston devoridan 20 ga yaqin minora qoldiqlari topilgan. Milodning V-VII asrlarida shaharda aholi uylar 5-6 xonali qilib

qurilgan. Xona devorlari suvalgan va turli ranglar berilgan. Har xonadonda alohida yotoqxona, omborxona, oshxona, toza suv qudug‘i bo‘lgan. Yotoqxonalarda devor bo‘ylab keng supa, yerda esa sandalga o‘xshagan isitish o‘chog‘i bo‘lgan.

VII-IX asrning boshlarida arab yilnomalarida Axsikent “Fraganik” deb beriladi. IX-X asrlar shaharning eng rivojlangan davri bo‘lgan. Bu davrda Axsikentda zarb qilingan mis tangalarning butun Somoniylar davlati hududiga tarqalgan. IX asr o‘rtalarida Axsikent shahristonining devorlari mudofaa holatini yo‘qota boshlagan, chunki markazlashgan davlat sharoitida devorga ehtiyoj bo‘lmagan.

Shaharga 14-15 km masofadan, ya’ni, Kosonsoydan suv keltirilgan. Bosh vodoprovod qoldiqlari 1960- yilda topilgan, Ichki shahristonning ikki joyidan yer osti vodoprovodi ochilgan. Ular X asrda bunyod etilgan. U aholiga 200 yildan ziyod xizmat qilgan.

Arkning sharqiy tomonidan X-XII asrlarga oid jome masjidi topilgan. U to‘rtburchak shaklda bo‘lib, uning ichki qismida ayvon bo‘lgan. Hovlisida hovuz bo‘lib, hovuz qirg‘oqlari va masjid hovlisiga pishiq g‘ishtlar yotqizilgan.

Tashqi shahristondan XI-XII asrlarga oid savdo do‘konlari, hunarmandchilik ustaxonalari, aholi turar joylari o‘rganilgan. Axsikent ustalari po‘latning egiluvchanligini oshirish usullarini yaxshi bilishgan, lekin uni qattiq sir saqlaganlar. U yerda yasalgan qilichlar mashhur bo‘lgan. Axsikentdan topilgan sirlangan sopol idishlar alohida diqqatga sazovordir. Ularning ba’zilarida kufiy yozuvidagi bitiklar bor, ba’zilarida afsonaviy va yirtqich hayvonlar, xonaki qushlarning rasmlari tasvirlangan. Axsikent hunarmandlari bu davrda sirli sopol idishlarni bezash va sirlashda o‘ziga xos maktab yaratdilar. Uning namunalari bugungi kunda Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Shahar raboti 350 ga dan ziyod bo‘lgan. U yerda tadqiqotlar natijasida badavlat insonarning uylari, bog‘lar, hunarmandlar mahallasi va hammom topilgan. XIII asrning 20- yillarida Axsikent mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilgan va shahar xarobaga aylantirilgan. Ustalari qul qilib, Mo‘g‘ulistonga olib ketilgan. Oradan ma’lum vaqt o‘tgach, Eski Aysi yodgorligidan 5-6 km shimoli-g‘arbda, hozirgi Yakkayigit qishlog‘i o‘rnida yangi shahar Yangi Axsiga asos solinadi [3. – B. 104-105].

“Aysi” so‘zi savdo, olish-berish yoki qo‘rg‘on, qal’a ma’nolarini bildiradi, degan fikrlar uchrab turadi. Shuningdek, “Aysi” atamasi “Oqsuv” so‘zidan kelib chiqqan, degan ma’lumotlar ham mavjud [4. – B. 118].

Mil. avv. IV asrdan qadimgi Xorazmda markazlashgan davlat tizimining mustahkamlanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga imkon bergan. Shahar qurilishi, me’morchilik va hunarmandchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. Abu Rayxon Beruniy ma’lumotiga ko‘ra, bu davrda 300 dan ortiq shaharlar qurilgan. Ularning xarobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan [3. – B. 105].

O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan qator ilmiy manbalarda, moziy Axsikent nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun Turkiston, jahon tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shaharlardan ekanligi xususida ham ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Axsikent yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab allomalarning kindik qoni to‘kilgan zamin hamdir. Xususan, Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad As-So‘fiy Axsikatiy, “Zul fazoil” (“Fazilatlar sohibi”) nomi bilan shuhrat qozongan Abu Rishod Axsikatiy, “Zul manoqib” (“Maqtovgga sazovor xislatlar egasi”) laqabini olgan Abul Vafo Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy, “Maliki shuaro” va “Amiri shuaro” darajasiga erishgan Abul Fazl Muhammad Tohir Asiriddin Abu Bakr bin Ahmad al-Axsikatiy al-Xo‘jandiy, Sayfiddin Axsikatiy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy, Muhammad Yusuf ibn Imomuddin Axsikatiy, Ibrohim ibn Yusuf bin Imomiddin Axsikatiylar diniy va dunyoviy ilmlar sohasida shuhrat qozonganlar.

Tariximizning turli davrlarida poytaxt vazifasini o‘tagan Axsikentning eng ko‘hna davriga doir ma’lumotlarni asosan bizgacha saqlanib qolgan Xitoy manbalarida, shuningdek, bu yerda o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijalari asosidagi xulosalardan olviz.

Shaharning Islom dini kirib kelganidan keyingi, ya’ni, o‘rta asrlar davri tarixini yoritishda asosan arab, fors hamda turkiy tilli manbalardan foydalanamiz. Balazuriy, Tabariy, al-Muqaddasiy, Yoqut ibn Hamaviy, ibn Havqal, ibn Xurdodbeh, Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balxiy, Istahriy va boshqalarning asarlarida Axsikentning geografik joylashuv o‘rni, o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyati haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Axsikentda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bir qator rus sharqshunos va arxeolog olimlari, akademiklar – A.Middendorf va V.V.Bartold, professorlar – N.I.Veselovskiy hamda A.N.Bernshtam, tadqiqotchi-sharqshunoslar I.A.Kastanye, V.Nalivkin, N.P.Ostroumov, N.Pavlov va boshqalar tadqiqot olib borganlar.

Axsikentning arxeologik jihatdan o‘rganilishi 1885- yildan boshlangan. Dastlab, Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog va sharqshunos N.I.Veselovskiy tadqiqot olib borgan. 1913- yilda I.A.Kastanye tomonidan navbatdagi qazishma va tadqiqot ishlari o‘tkazilgan. 1939- yilda Katta Farg‘ona kanali qurilishi davrida professor M.E.Masson bu yerda arxeologik razvetka ishlari bilan shug‘ullangan. 1960- yildan esa O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi Yahyo G‘ulomov boshchiligida mutaxassislar Axsikentda arxeologik qazishma ishlarini amalga oshiradilar. I.Axrarov, Y.Qosimov, A.Anorboyev va boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan 1967-1969, 1970-1974, 1980-1990 va undan keyingi yillarda arxeologik qazishmalar o‘tkazilgan va muhim ma’lumotlar, ashyoviy dalillar to‘plangan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori A.Anorboyev Axsikentda uzoq yillar davomida ilmiy tadqiqot va qazishma ishlarini olib borishi natijasi o‘laroq, ko‘plab ilmiy maqola va risolalar chop etildi. Olim, Eski Aysi manzilgohi qadimgi Xitoy tarixiy manbalarida ko‘rsatib o‘tilgan Davan (Farg‘ona) davlatining poytaxti bo‘lganligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

So‘nggi yillarda ushbu qadimuy yodgorlikka hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 16-oktabrdagi “Namangan viloyatining To‘rao‘rg‘on tumanida

“Axsikent” arxeologiya merosi ob’yektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorligi majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” 831-sonli va Namangan viloyati hokimligining 2017- yil 31-oktabrdagi 761-sonli qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar asosida majmuani saqlash, uning ish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida viloyat hokimligi muassisligida davlat unitar korxonasi shaklidagi “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi tashkil etilib, uning oldiga Axsikent tarixini yoritish, mazkur hududni xalqaro turizm makoniga aylantirish, Axsikentdan yetishib chiqqan olimlar hayot faoliyatini o‘rganish va ilmiy-badiiy meroslarini xalqqa yetkazish, dunyo muzeylari, kutubxonalarida saqlanayotgan Axsikentga doir osori-atiqalarni aniqlash kabi keng ko‘lamli vazifalar qo‘yildi [5. – B. 5-36].

Xulosa qilib shuni qayd qilish mumkinki, Axsikent ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan shahar-davlat va poytaxtdir. Tarixiy-arxeologik topilmalar va tadqiqotlar chuqur bir moziydan darak bergani kabi “Axsikent” ham o‘tmishdan bizga sado beradi. Axsikentni o‘rganish jarayonida ajdodlarimiz qanday bo‘lgani va qanday mahoratga ega bo‘lganliklari haqida, hunarmadchilik, quruvchilik sohasida qay darajada xabardor bo‘lganliklari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Axsikent nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo olimlarini ham o‘ziga jalb etayotgan ko‘hna bir tarix zarvarog‘idir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ibragimov R. Z. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. – T.: Asian Book House, 2020.
2. Xolboyev Z., Alimov A. O‘zbekistonning arxeologiya yodgorliklari. – T.: Tafakkur qanoti, 2014.
3. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2011.
4. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – T.: Navro‘z, 2018.
5. Qozoqov T. Axxi – Farg‘ona shaharlarining onasi. – T.: Navro‘z, 2018.

FARG‘ONA VODIYSI ARXELOGIYASI VA ZAMONAVIY USULLAR.

ARCHAEOLOGY OF THE FERGANA VALLEY AND MODERN METHODS.

АРХЕОЛОГИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ

Jumayev Abror Muzaffarovich

O‘zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti “Tarix” kafedrasida o‘qituvchisi:

e-mail: abrorjumayev203@gmail.com

Tel: +998 93 998 94 96

Otaqulova Parinoz Ilyos qizi

O‘zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi I-kurs talabasi

e-mail: parinozotaqulova@gmail.com

Tel: +998 94 302 30 06

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining arxeologiyasi va uning tadqiqot natijalari muhokama qilingan. Ushbu hududning arxeologik yodgorliklari, savdo yo'llari, qadimiy shaharlar, nekropollar va yozuvlar kabi muhim topilmalar haqida so'z borgan. Maqolada Farg'ona vodiysining tarixiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, zamonaviy arxeologik tadqiqotlar, yangi metodlar va texnologiyalar, xususan LIDAR, dronlar, 3D format va geofizik usullardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola arxeologiya va etnologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va ularning foydalanish sohalari haqida ma'lumot beradi.

Abstract.

This article discusses the archaeology of the Fergana Valley and the results of its research. Important finds from this area include archaeological sites, trade routes, ancient cities, necropolises, and inscriptions. The article focuses on the historical and cultural significance of the Fergana Valley, as well as modern archaeological research, the use of new methods and technologies, in particular LIDAR, drones, 3D format, and geophysical methods. The article provides information on scientific research in the field of archaeology and ethnology and their areas of application

Аннотация.

В данной статье обсуждается археология Ферганской долины и результаты её исследований. Речь шла об археологических памятниках этого региона, торговых путях, древних городах, некрополях и важных находках, таких как надписи. В статье особое внимание уделяется историческому и культурному значению Ферганской долины, а также современным археологическим исследованиям, использованию новых методов и технологий, в частности LIDAR, дронов, 3D-формата и геофизических методов. Статья предоставляет информацию о научных исследованиях в области археологии и этнологии и их областях применения.

Kalit so'zlar.

Farg'ona vodiysi, Fayoztepa, Beshtepa, Shahriston, arxeologiya, tarix, madaniyat, arxeologik yodgorliklar, savdo yo'llari, zamonaviy texnologiyalar, LIDAR, etnologiya, tadqiqot natijalari.

Keywords.

Fergana Valley, Fayoztepa, Beshtepa, Shahristan, archaeology, history, culture, archaeological monuments, trade routes, modern technologies, LIDAR, ethnology, research results.

Ключевые слова.

Ферганская долина, Фаязтепа, Бештепа, Шахристан, археология, история, культура, археологические памятники, торговые пути, современные технологии, LIDAR, этнология, результаты исследований.

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyo mintaqasida joylashgan va o'zining tarixiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Qadimiy Farg'ona o'z bag'rida ming yillik sirlarni yoshirgan beqiyos diyordir. Ushbu hududning arxeologiyasi so'ngi yillarda ko'plab tadqiqotlar natijasida o'zining boy va rang-barang tarixini, madaniy yodgorliklarini, shuningdek, qadimgi yashash joylari va hayot tarzini o'rganishda katta yutuqlarga erishdi. Farg'ona vodiysining arxeologik merosi nafaqat O'rta Osiyo, balki butun dunyo tarixining muhim qismi sifatida o'rganilmoqda.

Farg'ona vodiysi arxeologiyasining boshlanishi XIX asrning oxirlariga borib taqaladi. Bu davrda rus arxeologlari hududda birinchi qazishmalarni boshladilar. O'sha davrda o'tkazilgan tadqiqotlar Farg'ona vodiysi hududidagi qadimgi madaniyatlar va yodgorliklar haqida dastlabki ma'lumotlarni taqdim etdi. Farg'ona

vodiysini arxeologik jihatdan o'rganish mutaxassislar tomonidan birinchi marta 1884-1885- yillarda Peterburg dorulfununi dotsenti sharqshunos olim I.N.Veselovskiyning (1848-1918) Farg'ona vodiysiga kelishdan boshlanadi. Olim o'z e'tiborini Kosonsoy (Mug'), Axsikent, O'zganni tadqiq etishga qaratdi. Keying ishlar 1930- yillarda Uchqo'rg'on elektr stantsiyasini qurilishi munosabati bilan qurilish yaqin yerlarda arxeologik kuzatuv ishlari olib boorish uchun Ermetaj hodimi B.A.Latinin tomonidan amalga oshirildi. Uning eng katta hizmatlaridan biri shunda ediki hali ma'lum bo'lmagan yodgorliklarni aniqladi va Farg'onaga xos bo'lgan qizil angobli sopollar va bo'yoq bilan gul solingan sopollarni topilishi edi. Keyinchalik bu topilmalar vodiyl arxeologiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bu olimni yana bir xizmati shunda ediki, O'rta Osiyoda birinchi bo'lib yirik dehqonchilik hududlarining – Farg'ona vodiysining sug'orilish tarixini o'rganishni boshladi va bu sohani kelajakda katta ahamiyat kasb etishini ta'kid etgan [1, 29-43].

1939- yillarning II yarmida Katta Farg'ona kanalini qazilishida arxeologik ekspeditsiyasi Farg'ona vodiysi arxeologiyasini o'rganishda samarali natejaga erishgan. Ekspeditsiyaning o'ttiz uch a'zosi marshrut bo'ylab doimiy harakatda bo'lishdi. Qazish ishlari tugaganidan so'ng ekspeditsiya faoliyatining ikkinchi bosqichi bu magistralga tutashgan hududlarni arxeologik tekshirish edi. Natijada, Farg'ona ko'plab marshrutlarini qamrab olgan va arxeologik kuzatuvlar ekspeditsiyaga aylandi. Arxeologik kuzatuv natijasida aniqlangan yodgorliklarning eng ko'p miqdori arab istilosidan oldingi vaqtga to'g'ri keladi. Ekspeditsiya topilmalari ichida Farg'onada shu paytgacha juda kam uchraydigan qadimiy bronza buyumlar bor: nayzalar, o'qlar, zargarlik buyumlari va boshqalar. Ekspeditsiya tomonidan qayd etilgan ko'plab arxaik istehkomlari orasida VIII asrda Farg'ona poytaxti deb hisoblangan qadimgi Koson xarobalari o'rganilgan. Umuman olganda Masson rahbarligidagi ushbu ekspeditsiya yutuqlari va natijalari keying davrlarda Farg'ona vodiysi arxeologiyasi yutuqlari va rivojida alohida ahamiyati bilan ajralib turadi [2, 57-65].

Biroq, keyingi yillarda, ayniqsa XX asrning 60-80 yillari oralig'ida, Farg'ona vodiysi arxeologiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Yirik arxeologik ekspeditsiyalar va qazishmalar bu hududdagi tarixiy merosni o'rganishda muhim qadam bo'ldi.

Farg'ona vodiysi arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'plab qadimiy shaharlar va yashash joylari aniqlangan. Bularning orasida Fayoztepa, Beshtepa, Shahrison va Qal'atepa kabi shaharlar alohida e'tiborni tortadi. Fayoztepa, masalan, miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid yodgorlik bo'lib, qadimgi shaharning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Beshtepa va Shahrison kabi shaharlar esa, o'rta asrlarga oid rivojlanishni ko'rsatadi va bu yerda topilgan yodgorliklar orasida noyob arxitektura va san'at namunalari duch kelinadi [3, 32-34].

Farg'ona vodiysida o'tkazilgan qazishmalar davomida juda ko'p nekropollar (qabrlar) aniqlangan. Ushbu nekropollar hududdagi qadimiy xalqlarning dafn marosimlari, diniy e'tiqodlari va ijtimoiy strukturasi haqida qimmatli

ma'lumotlarni taqdim etadi. Masalan, Qal'atepa nekropoli miloddan avvalgi IV asrga tegishli bo'lib, bu yerda topilgan qabrlarda qadimgi ashyolar va toshlardan yasalgan haykallar, zargarlik buyumlari, keramika va qurollar ko'plab tarixiy ma'lumotlarni keltirib chiqargan [3, 56-63].

Farg'ona vodiysining arxeologik yodgorliklarida topilgan san'at asarlari, xususan keramika, mis ishlov berish, to'qimachilik va boshqa hunarmandchilik buyumlari, hududdagi qadimgi madaniyatlarning boyligini va o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ayniqsa, keramika buyumlari o'rganilganda, ularning rang-barangligi va naqshlarining murakkabligi Farg'ona vodiysida rivojlangan madaniyatlarni tasvirlaydi. Bu buyumlar, shuningdek, hududdagi savdo yo'llari va madaniy almashinuvlar haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Islom davriga oid yodgorliklar ham Farg'ona vodiysi arxeologiyasida muhim o'rin tutadi. Madrasalar, masjidlar va maqbaralar o'rta asrlar Farg'ona vodiysi madaniyatining diniy va ma'rifiy markazlari sifatida e'tiborga loyiqdir. Bu yodgorliklarning o'rganilishi orqali, o'rta asrlardagi ilm-fan, adabiyot va diniy hayot haqida ma'lumotlar olish mumkin [4, 32-34].

Mustaqillikning dastlabki yillarida soha mutaxassislari fan rivojiga salmoqli hissa qo'shishga intilishdi. Butun O'rta Osiyoning ajralmas o'tmishi hisoblangan vodiya osori-atiqalari, yodgorliklari bo'yicha arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirishga harakat qilindi. Misol tariqasida yurtimizda keng ko'lamda qadimgi shaharlar yubiley yoshlarini nishonlash arafasida ularda arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Shunday shaharlardan biri qadimgi Marg'ilon bo'lib. mutaxassislar tomonidan uning qadimgi manzilgohlari saqlangan Qizlartepa yodgorligida keng ko'lamli izlanishlar olib borildi va Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubiley yoshi nishonlandi. Bu boradigi tadqiqotlar 1994-1999 yillarda Marg'ilon otryadi tomonidan amalga oshirilgan bo'lib mustaqillikning dastlabki yillarida Farg'ona vodiysida amalga oshirilgan keng ko'lamli tadqiqotlardan biri hisoblanadi [5. 160].

Farg'ona vodiysi arxeologiyasidagi so'nggi yutuqlar bir necha jihatdan muhimdir:

1. Tarixiy merosni asrab-avaylash: Farg'ona vodiysi arxeologik yodgorliklari, nafaqat O'rta Osiyo, balki butun dunyo madaniyatining rivojlanishidagi muhim o'rinini anglatadi. Shu sababli, ushbu yodgorliklarni saqlash va o'rganish jahon madaniy merosining ajralmas qismi sifatida ahamiyatlidir.

2. Madaniy almashinuvlarni o'rganish: Arxeologik qazishmalar, Farg'ona vodiysining turli xalqlari va madaniyatlari o'rtasidagi aloqalar, savdo yo'llari va madaniy almashinuvlarni o'rganish imkonini beradi. Bu, shuningdek, Farg'ona vodiysi va uning atrofidagi hududlarning rivojlanishini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3. Hozirgi ijtimoiy va madaniy jarayonlarni o'rganish: Farg'ona vodiysining arxeologik merosi hozirgi davrdagi ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq muammolarni yechishda yordam berishi mumkin. Yodgorliklar va

topilmalar orqali, hududning hozirgi madaniy nuqtai nazardan ahamiyati va istiqboli haqida chuqurroq fikr yuritish mumkin [6. 52-54].

Farg'ona vodiysi o'rta asrlar va qadimgi davrlarda savdo yo'llarining muhim tugunlaridan biri bo'lgan. Bu hudud orqali **Ipak yo'li** o'tgan, bu esa iqtisodiy va madaniy almashinuvlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Arxeologik qazishmalar savdo yo'llari bilan bog'liq qishloq xo'jaligi yodgorliklarini, savdo markazlarini va almashinuvlarga oid ashyolarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, **Farg'ona vodiysida topilgan hunarmandchilik buyumlari, oltin va kumush zargarlik buyumlari**, ko'plab savdo va madaniy almashinuvlarni aks ettiradi. Bu elementlarni maqolaga qo'shish, hududning iqtisodiy rivojlanishiga va madaniy aloqalariga yangi nuqtai nazar kiritadi.

So'nggi yillarda Farg'ona vodiysining arxeologik tadqiqotlari zamonaviy texnologiyalar yordamida yanada chuqurlashgan. **LIDAR (Light Detection and Ranging)**, **geofizik usullar** va **dronlar yordamida olib borilgan tadqiqotlar** hududdagi arxeologik yodgorliklarni aniqlash va o'rganishda katta yordam bermoqda. Bunday zamonaviy yondashuvlar orqali ko'plab yashirin yodgorliklar va qadimiy qurilishlar aniqlanmoqda. Maqolada bu metodlar haqida batafsil ma'lumot berish Farg'ona vodiysi arxeologiyasining bugungi kundagi rivojlanish darajasini ko'rsatadi.

Arxeologik yodgorliklar bilan birga, Farg'ona vodiysi etnologiyasining arxeologik kontekstini tahlil qilish ham muhimdir. **Etnolinguistik tadqiqotlar** orqali hududdagi turli etnik guruhlar, shu jumladan, o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar va boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatlarini yanada chuqurroq o'rganish mumkin. Arxeologik materiallar va etnografik ma'lumotlar yordamida, bu xalqlarning tarixiy ildizlarini va o'zaro ta'sirini tahlil qilish, hududning madaniy xilma-xilligi haqida yangi ma'lumotlar beradi.

Farg'ona vodiysida arxeologik qazishmalar davomida **qadimiy yozuvlar** ham topilgan. Masalan, **Yunon-Rim davri yozuvlari** yoki **toshga o'yilgan yozuvlar** o'rta asrlar va undan oldingi davrlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu yozuvlar nafaqat tarixiy voqealar, balki ijtimoiy, diniy va siyosiy tuzumlarni o'rganishda muhim manba bo'ladi. Maqolaga bu topilmalar haqida qisqacha ma'lumot kiritish, Farg'ona vodiysi tarixining yozma manbalari va ularning ahamiyatini ko'rsatadi [7. 74].

Farg'ona vodiysi arxeologiyasining o'rganilishi, faqat ilmiy jihatdan emas, balki turizm va ta'lim sohalarida ham katta ahamiyatga ega. Arxeologik sayohatlar va ekskursiyalar nafaqat hududning tarixiy merosini saqlashga, balki o'quvchilarga va keng jamoatchilikka qadimiy madaniyatni o'rganishga yordam beradi. Ta'limda Farg'ona vodiysining arxeologik yodgorliklari asosida maxsus darslar, ekspeditsiyalar va tadqiqotlar o'tkazilishi mumkin. Bu orqali yangi avlodga o'rta asrlar va qadimgi tarix haqida bilimlar taqdim etish mumkin.

Farg'ona vodiysi O'zbekistonga tegishli hudud bo'lgani sababli, bu yerda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar va qazishmalar O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi uchun juda muhimdir. O'zbekistonning arxeologik tadqiqotlar sohasidagi yutuqlari va Farg'ona vodiysining madaniy merosini saqlash bo'yicha

olib borayotgan sa'y-harakatlari maqolada alohida e'tiborga loyiq. O'zbekistonning arxeologik institutsiyalari, ilmiy markazlari va davlatning madaniy merosni saqlash bo'yicha olib borayotgan ishlarini ta'kidlash maqolaga amaliy va ilmiy ahamiyat qo'shadi.

Farg'ona vodiysi arxeologiyasi so'ngi yillarda katta ilmiy yutuqlarga erishdi va bu hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy merosini o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. O'tkazilgan tadqiqotlar Farg'ona vodiysining qadimgi madaniyatlari va tarixini yaxshi tushunishimizga yordam berib, bu hududni saqlash va yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Arxeologik yodgorliklar nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki jahon madaniy merosiga qo'shgan ulkan hissadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. Тошкент.: Фан, 2001. - 29-43 б.
2. Массон М. Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала им. И.В. Сталина //Археология Средней Азии М-2015. 57-65
3. Rahimov, A. I. O'rta Osiyodagi savdo yo'llari va Farg'ona vodiysining ahamiyati. Arxeologiya va etnologiya jurnali, 2018 12(3), 56-63.
4. Abdullaev, B. T. Farg'ona vodiysining etnologik tadqiqotlari: tarix va zamonaviy tendensiyalar. Toshkent: IIm. 2021.
5. Анарбаев А., Максудов Ф.А. Древний Маргилан (Из истории земледельческой и городской культуры Ферганы). Ташкент: Фан, 2007. 161
6. Kamolov, A. X. Arxeologiyada zamonaviy metodlar va texnikalar. Toshkent: G'azal nashriyoti. 2017.
7. Qurbonova, L. R. Farg'ona vodiysining etnologik merosi. Toshkent: Akademiya. 2020.

XIII ASR BOSHLARIDA AXSIKENT SHAHRINING MUDOFAA DEVORI: QURILISH USULLARI VA AHAMIYATI.

THE DEFENSE PERIOD OF AKSIKENT CITY IN THE EARLY 13TH CENTURY: CONSTRUCTION TECHNIQUES AND SIGNIFICANCE

ОБОРОННЫЙ ПЕРИОД ГОРОДА АКСИКЕНТ В НАЧАЛЕ XIII ВЕКА: СТРОИТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ И ЗНАЧЕНИЕ.

Arslanov Bahodir

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Milliy arxeologiya markazi tayanch doktoranti

e-mail: arslanovbahodir1979@gmail.com

Tel: +998 97 230 55 79

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining yirik shaharlari qatoriga kirgan Axsikent (Axsikat) shahrining ichki shahristonini o'rab olgan mudofaa devori tahlil qilinadi. Tadqiqotda

qadimgi davrlardan XIII asrning birinchi choragigacha bo'lgan vaqt oralig'ida shaharning qudratli mudofaa inshootlari rivojlanish jarayonlari, har bir bosqichdagi devorlarning me'moriy xususiyatlari, qurilish texnologiyalari va qo'llanilgan materiallar haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Аннотация.

В данной статье анализируется оборонительная стена, окружавшая внутренний шахристан (цитадель) города Ахсикент (Ахсикат), одного из крупнейших исторических городов Ферганской долины. Исследование охватывает период от древнейших времён до первой четверти XIII века, с акцентом на этапы развития мощных оборонительных сооружений города. В работе представлена информация об архитектурных особенностях стен на каждом этапе, о строительных технологиях и применяемых материалах.

Annotation.

This article analyzes the defensive wall surrounding the inner citadel (shahristan) of Axsikent (Axsikat), one of the major historical cities of the Fergana Valley. The study covers the period from ancient times to the first quarter of the 13th century, focusing on the development stages of the city's powerful defensive structures. It presents information on the architectural features of the walls at each stage, construction techniques, and materials used. The research also examines the economic, political, and military factors that influenced the construction of the walls during different periods.

Kalit so'zlar.

Axsikent, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, shahar, mudofaa devori, paxsa, xom g'isht, g'isht terish texnikasi.

Ключевые слова.

Ахсикент, Караханиды, Хорезмшахи, город, оборонительная стена, пaxca, сырцовый кирпич, техника кирпичной кладки.

Keywords.

Axsikent, Qarakhanids, Khwarazmshahs, city, defensive wall, pakhsa (rammed earth), mudbrick, bricklaying technique.

Axsikent shahri qadimgi va o'rta asrlar davrida Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiy-siyosiy markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu yodgorlikda olib borilgan arxeologik topilmalar bu fikrni tasdiqlaydi. X-XIII asr boshlariga oid yozma manbalar hamda numizmatik materiallar shahar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va harbiy ahamiyati haqida yetarlicha ma'lumot beradi. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona-Axsikat shahri miloddan avvalgi III asrda Eski Axsi (Axsikent) yodgorligi hududida tashkil topgan bo'lib, maydoni 40 gektardan ortiqni tashkil etgan. Shahar ikki asosiy qismdan iborat bo'lgan: tsitadel va shahriston (Axsi IA, Axsi IB). Dastlab, shaharning mudofaa devorlari 3 metr kenglikda bo'lgan va minoralarga ega emas edi. Ularning mudofaa funksiyasini maxsus koridorsimon inshootlar bajargan.

Miloddan avvalgi II asrda shahristonning g'arbiy tomonida 10 gektar maydonga ega bo'lgan yangi qism – Axsi II paydo bo'lgan. Shahar maydoni 50 gektardan oshgan. Miloddan avvalgi II asr oxiriga kelib, ikkinchi shahristonning devori 2 metrqa qalinlashtirilib, 5,3 metrqa yetkazilgan. IX–XIII asr boshlarida Axsikat topografik jihatdan uch qismdan iborat bo'lgan: qal'a, shahriston va rabod. Qal'adan faqatgina janubiy devorning bir qismi va uning ichida joylashgan, Qoraxoniylar davriga oid harbiy garnizon inshooti saqlanib qolgan. Yuqorida aytilganidek, shahriston ikki qismdan iborat bo'lgan. Birinchi shahristonda juma

masjidi, muhtasham turar joy binolari va ishlab chiqarish korxonalari joylashgan. Ikkinchi shahristonda esa markaziy bozor, havzalar, ko‘plab ustaxonalar va hunarmandlarga tegishli uylar bo‘lgan.

Bugungi kunga kelib shahristonning 30 gektarga yaqin maydoni saqlanib qolgan, 10 gektardan ortig‘i esa Sirdaryo suvlari ta‘sirida yuvilib ketgan.

Ko‘p yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida Axsikatda bir necha bosqichlarda qurilgan qudratli mudofaa inshootlari mavjud bo‘lganligi aniqlangan. Ulardan eng qadimiysi miloddan avvalgi III–II asrlarda barpo etilgan bo‘lsa, eng so‘nggisi – XIII asrning birinchi choragida qurilgan devor bo‘lgan [1: 186]. Biz tadqiq qilayotgan devor XVIII va XIX raqamli yodgorlik hududidagi qazishmalar doirasida o‘rganilgan. Bu devor Axsikent (Aksi IA) shahrining ichki qismini o‘rab olish uchun qurilgan. Shaharda ichki va tashqi devorlar hamda arka inshooti saqlanib qolgan. Rabodning tashqi devorlariga oid ma‘lumotlar yo‘q, sababi XX asrning 30–40- yillarida rabod hududining asosiy qismi va uning tashqi mudofaa devorlari buzilib, ekin yerlarga aylantirilgan [2: 75]. Axsikentning mudofaa va mustahkamlash tizimi shakllanish bosqichlari orasida Xorazmshohlar davriga oid devor alohida o‘rin egallaydi. Bu devor ushbu tizimning uchinchi – yakuniy bosqichiga tegishli bo‘lib, mustahkamligi va qurilish uslubi jihatidan avvalgi davrlarning mudofaa devorlaridan tubdan farq qilgan. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlarimiz natijasida ushbu inshoot haqida boy ma‘lumotlar to‘plandi. Markaziy Osiyodagi fortifikatsiya tizimlari o‘z vazifalari va ko‘lami jihatidan davlat, mintaqaviy, shahar va xususiy darajalarga bo‘linadi [3: 41]. Fortifikatsion inshootlarni shaharlarning asosiy atributi sifatida o‘rganish, ularning konstruktiv asoslarida va qurilish xususiyatlarida (texnika, qurilish materiallari) mavjud umumiy belgilarni aniqlash jamiyat urbanizatsiyasi evolyutsiyasini kuzatishga imkon beradi [4: 28].

Mudofaa devorlari yoki ular o‘rnini bosuvchi inshootlar qadimdan boshlab qishloqlar, qal‘alar va shaharlarni dushmanlardan himoya qilish maqsadida barpo etilgan. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, Osiyoning janubiy qismi – Anatoliya, Mesopotamiya, Eron, Hindiston va Xitoy kabi serhosil hududlar – miloddan avvalgi III ming yillikdan to milodiy XX asr boshlarigacha shimoldan kirib kelgan ko‘chmanchilar uchun asosiy hujum yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Ushbu ko‘chmanchi xalqlar keng qamrovli qurg‘oqchil cho‘l va dashtlar bilan qoplangan Osiyoning shimoliy hududlaridan kelgan. Mazkur hududlardagi og‘ir iqlim sharoitlari, tez-tez yuz beradigan qurg‘oqchiliklar ko‘chmanchi qabilalarni janubdagi serhosil yerlarni bosib olish, o‘lja topish va yashash uchun qulay sharoit izlab yurishga majbur qilgan. Natijada Janubiy Osiyo hududidagi qishloq va shaharlar o‘z xavfsizligini ta‘minlash maqsadida har xil turdagi mudofaa inshootlarini – devorlar, minoralar, xandaqlar va boshqa to‘siqlarni qurishga majbur bo‘lganlar. Ushbu inshootlar ayniqsa turkiy va mo‘g‘ul qabilalarining hujumlaridan himoyalanişda alohida ahamiyat kasb etgan hamda Buyuk Ipak yo‘li kabi savdo yo‘llarining xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynagan. Mustahkam mudofaa devorlari shaharlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan [5: 1–2, 17].

Mo'g'ullar bosqinidan oldingi davrda, aniqrog'i XII asr oxiri – XIII asr boshlarida, Markaziy Osiyodagi shaharlarning aksariyati mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Biroq ayrim shaharlar zaif mudofaa inshootlariga ega bo'lgan. Masalan, Sirdaryo bo'yida joylashgan Xo'jand shahri Chingizxonning 5000 kishilik qo'shini tomonidan qamalga olingan, ammo uning mudofaa devorlari dushman bosimini uzoq vaqt ushlab tura olgan. Qamal chog'ida shaharning ayrim qismlari vayron qilingan, devorlar jiddiy zarar ko'rgan, shundan so'ng shahar bosib olingan. 1220 yilda Chingizxon Buxoroga kelganida, shahar devorlari eski va zaif bo'lganligi sababli, shahar tezda taslim bo'lgan. Faqatgina qal'a garnizoni uzoq qarshilik ko'rsatgan, ammo qal'a qo'lga kiritilgach, uning barcha himoyachilari butunlay yo'q qilingan. Samarqandda esa devorlar mustahkam bo'lishiga qaramay, uzoq davom etgan qamal shaharni taslim bo'lishga majbur qilgan. Garnizon dushmanga qarshi jasorat bilan qarshilik ko'rsatgan, ammo qamal davomida kuchsizlanib, yakunda taslim bo'lgan. Qamal vaqtida shahar devorlarining ayrim qismlari ham vayron qilingan. Yuqorida qayd etilganidek, aynan shu davrda Axsikentda faqatgina ark va ichki shahriston mudofaa devori bilan o'ralgan edi [6: 78–88].

Xorazmshohlar davriga oid Axsikat mudofaa devori dastlab XVIII raqamli arxeologik obyektida aniqlangan. Qazish ishlari natijasida o'rta asrlarga oid qal'a devorining 4,3 metr uzunlikdagi, 2,05 metr balandlikdagi va 3,3 metr kenglikdagi qoldiqlari ochib tozalandi. Devor 52×25–26×11–13 sm o'lchamdagi xom g'ishtlardan qurilgan bo'lib, u zich siqilmagan mustahkam to'kilma tuproq qatlamiga tiklangan. Inshoot ichki va tashqi tomondan to'liq ochilib, arxeologik jihatdan o'rganildi [8: 122, 125].

2019 yilda Axsikentda "Ochiq osmon ostidagi muzey" qurilishi boshlanganligi munosabati bilan ushbu qazilma uchastkasi g'arb va sharq yo'nalishlarida kengaytirildi. Natijada devorga oid ilgari olingan dastlabki xulosalar o'z tasdig'ini topdi. Ushbu qazish mavsumi davomida 32 metr uzunlikdagi devor qismi aniqlanib ochildi. 2023 yilda ochiq osmon ostidagi muzey qurilishi ishlari davom ettirildi. Muzey binosi uchun janubdan shimolga yo'nalgan, kengligi 2,1 metr, chuqurligi ayrim joylarda 2 metrdan 6 metrgacha yetadigan va uzunligi 40 metr bo'lgan tranşeya qazildi. Tranşeya boshlang'ich nuqtasi 23,5 metr balandlikda joylashgan edi. Devorning yana bir qismi XIX raqamli arxeologik obyektidagi qazishmalar davomida aniqlangan. XIX obyektidagi antik va o'rta asr mudofaa devorlari tabiiy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, ma'lum vaqt davomida o'z ahamiyatini yo'qotgan. Mazkur devor bilan antik davrga oid devor orasidagi masofa 2 metrn tashkil etadi. Bu qatlam mustahkam emas, asosan bo'sh tuproq va chiqindilardan iborat bo'lib, xom g'isht bo'laklari kam miqdorda uchraydi. Tuproq tarkibida XII asr oxiri – XIII asr boshlariga oid keramikalar ham aniqlangan. Faqatgina XIII asrning birinchi choragida ushbu qatlam ustiga zaif mudofaa devori qurilgan.

Yozma manbalarda ham xom g'isht Markaziy Osiyo shaharlarida asosiy qurilish materiallaridan biri bo'lganligi qayd etilgan. Masalan, Isfijob shahridagi binolar xom g'ishtdan qurilganligi ta'kidlanadi (10: 136; 11: 232–233).

Xuddi Axsikentdagidek, Ozarbayjonning oʻrta asr shaharlari arxitekturasida ham yirik oʻlchamdagi xom gʻishtlar keng qoʻllanilgan [4: 28].

Oʻrta asrlarda Oʻzbekiston hududida xom gʻisht yashash inshootlari uchun asosiy qurilish materiali sifatida keng qoʻllanilgan. Ayniqsa, XII – XIII asr boshlarida koʻplab turar joylar, qalʼalar va boshqa inshootlar xom gʻishtdan qurilgan. Ushbu davrda eng keng tarqalgan shakl kvadrat koʻrinishdagi gʻisht boʻlib, u asosan devorlar va poydevorlar qurilishida ishlatilgan. Masalan, Dalvarzintepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham kvadrat shakldagi xom gʻishtlarning qoʻllanganligini tasdiqlaydi.

XII–XIII asrlarda Janubiy Qozogʻiston meʼmorchiligida ham xom gʻisht keng qoʻllanilgan. Oʻrta asr Otror shahristonida turar joy inshootlarida standart oʻlchamdagi (40–45×20–22×8–10 sm) xira sargʻish rangli xom gʻishtlardan foydalanilgan. Pishgan gʻisht esa kamroq hollarda – devor poydevorlari, tandirlar va suv oʻtkazgich tizimlarida ishlatilgan. Devorlar yupqa qatlamli suvoq bilan ehtiyotkorlik bilan suvalgan. Bunday konstruksiya inshootlarning uzoq saqlanishini taʼminlagan, shuningdek, gʻisht qatlamlari orasiga qoʻyilgan qamish devorlarni tuz taʼsiridan himoya qilgan [12: 176].

Axsikent mudofaa devorining oʻrganilishi XII–XIII asrlardagi Markaziy Osiyo fortifikatsion meʼmorchiligi haqida yangi maʼlumotlar olishga va oʻsha davr shaharsozlik qarorlarining asosiy jihatlarini ochib berishga imkon berdi. Aniqlanishicha, mustahkamlash ishlarining soʻnggi yirik bosqichi XIII asrning birinchi choragiga toʻgʻri keladi, bu esa tarixiy voqealarning mavjud sanasiga aniqlik kiritadi. Tadqiqot davomida xom gʻishtdan, turli oʻlchamli shakllarda terilgan va siqilgan tuproq yordamida mustahkamlangan devorlar qurilishida qoʻllanilgan oʻziga xos qurilish texnikalari aniqlangan. Bu maʼlumotlar mintaqadagi mudofaa inshootlari texnologiyasi haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Arxeologik topilmalar, jumladan, keramika majmuasi va qurilish materiallari, davrning ijtimoiy-iqtisodiy kontekstini aniqlashtirishga, shuningdek, Axsikentda XII asr oxiri – XIII asr boshlarida keramika ishlab chiqarish darajasini belgilashga yordam berdi. Ushbu ish Axsikentning Fargʻona vodiysidagi mustahkamlangan markaz sifatidagi strategik ahamiyatini tasdiqladi hamda mudofaa choralari kuchaytirilishi bilan mintaqadagi siyosiy beqarorlik oʻrtasidagi bogʻliqlikni ochib berdi.

Mudofaa devorining oʻrganilishi quyidagi xulosalarga olib keldi. Yozma manbalardan maʼlumki, Muhammad Xorazmshoh Chingizxon boshchiligidagi moʻgʻul bosqinchilariga qarshi kurashda katta xatoga yoʻl qoʻygan. U dushmani mamlakatning shimoliy-sharqiy chegaralarida kutib olib hujum qilish oʻrniga, ikki yuz minglik qoʻshinini boʻlib, shaharlar mudofaasini kuchaytirishga harakat qiladi. Aynan uning farmoni bilan shaharlarning mudofaa inshootlari qayta tiklangan. Mazkur obyektida olib borilgan arxeologik qazishmalar bu tarixiy voqealarni nafaqat tasdiqladi, balki ularni aniqlashtirishga ham imkon berdi. Maʼlum boʻlishicha, ichki shaharni oʻrab olgan ushbu mudofaa devori xom gʻishtdan qurilgan boʻlib, u taxminan 1 metr qalinlikdagi zichlashtirilgan tuproq asosiga oʻrnatilgan. Devor nihoyatda tezlik bilan qurilgani sababli, qurilish texnologiyasida

belgilangan standart o'lchamlarga to'liq rioya qilinmagan. Bunday devorlarning mudofaa salohiyati past bo'lgan va Chingizxon qo'shini uchun ularni yorib o'tib shahar ichkarisiga kirish katta qiyinchilik tug'dirmagan. Devor 54×30×10–12 sm o'lchamdagi xom g'ishtlardan tiklangan bo'lib, kengligi 4 metrni tashkil etadi. Devor tashqarisida esa 3 metr kenglikdagi xandaq bilan o'rab olingan. Agar ushbu devorni qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid tashqi shahar devorlari bilan taqqoslasak, ular orasida katta farq borligini ko'rish mumkin. Masalan, miloddan avvalgi I asr boshlarida, to'rt yil davom etgan Farg'ona–Xitoy urushidan so'ng qurilgan tashqi shahar devorlari xom g'isht va paxsa aralashmasidan barpo etilgan bo'lib, oradan 2000 yildan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, yaxshi saqlanib qolgan [13: 23–24].

Axsikentda "Ochiq osmon ostidagi muzey" tashkil etilishi ko'p jihatdan uning mudofaa devorlarining tarixiy ahamiyatiga bog'liq. Qadimiy mudofaa inshootlarini o'rganish ularni saqlash va restavratsiya qilish uchun muhim metodik asos yaratadi. Bu hol me'morchilik va shaharsozlik sohalaridagi mutaxassislar uchun urbanizatsiya jarayonlarini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu tadqiqotlar turizmni rivojlantirish va madaniy merosni ommalashtirishga xizmat qiladi. Qadimiy shaharlarning mudofaa devorlarini o'rganish nafaqat tarixiy faktlarni aniqlashga, balki harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy va me'moriy rivojlanishni tushunishga ham yordam beradi. Bunday tadqiqotlar madaniy merosni asrash hamda yangi ilmiy kashfiyotlar amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Анарбаев А.А. Ахсикент в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // СА. №1. М., 1988.
2. Анарбоев А. XII асрнинг иккинчи ярми – XIII асрни биринчи чорагида Ахсикат ва Самарқанд мудофаа истехкомлари // Ўзбекистон археологияси. №1(8). Самарқанд. 2014.
3. Воронина В.Л. Из истории среднеазиатской фортификации // СА. № 2.М.: Наука, 1964.
4. Нагиев Г.Г. Техника строительства крепостных сооружений средневековых городов Азербайджана // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований №5, 2014.
5. Labbaf-Khaniki, M. Long Wall of Asia: The Backbone of Asian Defensive Landscape. – Tehran: University of Tehran Press, 2016.
6. Jackson, Peter. The Mongols and the Islamic World: From Conquest to Conversion. New Haven: Yale University Press, 2017.
7. Анарбаев А. Заметка о фортификации античного Ахсикента //Археология и история Центральной Азии. К 70 летию со дня рождения академика Академии наук Республики Узбекистан Юрия Федоровича Бурякова. Самарқанд. 2004.
8. Анарбаев А. А. Ахсикент – столица древней Ферганы. Ташкент. 2013.
9. Анарбаев А.А. Военная казарма средневекового Ахсикента // ИМКУ. Вып.33. Ташкент. 2002.
10. Makdisi. Descriptio imperii moslemici auctore Schamso'd-dîn Abû Abdollâh Mohammed ibn Ahmed ibn abî Bekr al-Bannâ al-Basschârî al-Mokaddasî. Ed. M. J. de Goeje, Lugduni Batavorum, 1877; ed. 2: 1906 (BGA, III).
11. Бартольд В. В. Т. 1: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М. 1963.

12. Байпаков К.М. Урбанизация Средневекового Казахстана. Т. 2. – Алматы: Казахстан, 2001.

13. Анарбаев А.А., Кубаев С., Насриддинов Ш., Оманов Ш., Муродалиев Р., Пардаев М. 2018-2019 йилларда Ахсикент ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар// Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 12-сон / тўплам; масъул муҳаррир Ф.А. Максудов; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Миллий археология маркази. – Самарқанд, 2020.

ФОРМИРОВАНИЕ ГОРОДСКИХ И СЕЛЬСКИХ ПОСЕЛЕНИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

FORMATION OF URBAN AND RURAL SETTLEMENTS IN THE FERGANA VALLEY

Турсунов Бустон Рахмонович

Профессор кафедры истории таджикского народа, Худжандского государственного
Университета им. академика Б.Гафурова, доктор исторических наук

e-mail: 7561172@mail.ru

Тел: +998 92 855 64 37

Джурабаева Миджгона

преподаватель кафедры политологии и религиоведения Худжандского государственного
Университета им. академика Б.Гафурова, Худжанд, Таджикистан.

Аннотация.

На основе сопоставления археологических данных, письменных источников и исторической литературы анализируется генезис поселений и урбанизационный процесс в бассейне реки Сырдарья. Дан краткий экскурс в Чустскую и Кайраккумскую культуры, показана их взаимосвязь с соседними областями, возникновение первых земледельческих оазисов-поселений в долине: Эйлатана, Дальверзина, Чинбанд-тепы, Хантепы. Первые письменные сведения о поселениях эпохи древности имеются в священной книге зороастрийской религии – Авесте, где отмечено название древнего Худжанда. Также имеются материалы об объединениях, в дальнейшем образовавших первые города-государства, в результате их объединения и возникают первые государства Центральной Азии. Число поселений умножается в период Ахеменидов. Западная часть долины вошла в состав первой мировой державы, образованной потомками арийцев. Между Бунджикатом и Худжандом располагались семь городов, перечисленных во время борьбы свободолюбивых соотечественников против греко-македонских захватчиков. В эпоху эллинизма и с возникновением государства в Фергане – Даваня, в долине заметно увеличилось число городов. Тщательно исследовавший поселения этого периода А. М. Бернштам констатировал возникновение большинства новых поселений на месте старых. Об урбанизационном процессе в бассейне р. Сырдарья на последнем этапе эпохе древности и Средневековья имеются письменные источники: китайские, пехлевийские, тюркские, арабские, персидско-таджикские. Благодаря им можно проследить урбанизационный процесс в бассейне р. Сырдарья.

Abstract.

Based on the comparison of archaeological data, written sources, and historical literature, the genesis of settlements and the urbanization process in the Syr Darya River basin are analyzed. A brief overview of the Chust and Kayrakkum cultures is provided, showing their interconnections with neighboring regions, and the emergence of the first agricultural oasis-

settlements in the valley: Eilatana, Dalverzin, Chinband-tepa, and Khantepa. The first written records about settlements from ancient times are found in the sacred book of Zoroastrianism, the Avesta, which mentions the ancient city of Khujand. There is also information about the unions that later formed the first city-states, and as a result of their unification, the first states in Central Asia were created. The number of settlements increased during the Achaemenid period. The western part of the valley became part of the first global empire formed by the descendants of the Aryans. Between Bunjikat and Khujand, seven cities are mentioned during the struggle of the freedom-loving locals against the Greco-Macedonian invaders. In the Hellenistic era and with the formation of the state in Ferghana—Davan, the number of cities in the valley significantly increased. A. M. Bernshtam, who thoroughly studied the settlements of this period, noted the emergence of most new settlements on the site of the old ones. Written sources from the last stages of ancient and medieval periods—Chinese, Pahlavi, Turkic, Arabic, and Persian-Tajik—provide information about the urbanization process in the Syr Darya River basin. Thanks to these sources, the urbanization process in the basin can be traced.

Ключевые слова.

Урбанизационный процесс, агрокультура, Чустская культура, Кайраккумская культура, бассейн Сырдарьи, Ферганская долина, области Илак, Чач, Эйлатан, Дальверзин, Чинбанд-тепа, Хантепа, древний Восток, античные источники, В. М. Массон, Ю. Ф. Буряков, Н. Г. Горбунова, Александрия Эсхата, Кирополь, Газа, Антиохия Скифская.

Key words

Urbanization process, agriculture, Chust culture, Kairakkum culture, Syr Darya basin, Fergana Valley, Ilak, Chach, Eilatana, Dalverzin, Chinband-tepa, Khantepa regions, ancient East, ancient sources, V. M. Masson, Yu. F. Buryakov, N. G. Gorbunova, Alexandria Eskhata, Cyropol, Gaza, Scythian Antioch.

Формирование поселений, возникших и развивавшихся в бассейне Сырдарьи, является одним из интересных моментов в истории таджикского народа. К сожалению, в академических исследованиях и исторических книгах советской и постсоветской эпохи, очень скудна информация о поселениях эпохи Кокандского ханства [12; 15, 114-123; 14, 346; 17, 25-27; 16, 220-222]. Хотя из источников известно, что в эпоху древности и Средневековья этот регион превращается в активную зону урбанизационного процесса. Как показывает сравнительный анализ исторических источников, исследуемый регион, и в частности долина Ферганы, является не только местом обитания первых людей древнейшей эпохи, но и первых земледельцев и их поселений. В исторической науке открытие таких очагов цивилизации как Кайрак-кумская культура, и особенно Чустская культура, показало, что долина также является колыбелью земледельческой культуры в истории народов Центральной Азии. Чустская культура возникла и развивалась в центральной и восточной части долины как земледельческая цивилизация [10; 11, 17-20]. Параллельно с Чустской культурой в западной части Ферганской долины существовала Кайрак-кумская культура, академик Б. А. Литвинский первым из исследователей, назвал её культурой сакских кочевых скотоводческих племен. Эти очаги цивилизации, возникшие в эпоху палеолита, существовали и влияли друг на друга в течение тысячелетий, сохранившись в эпоху бронзы и позднее в железный век. Таким образом, "... урбанизационные процессы в центральной части Ферганской долины

наблюдаются уже в эпоху ранней бронзы. К ним с большой долей уверенности можно отнести городища Эйлатан, Дальверзин, Чинбандтепа, Хантепа и др., которые возникли и функционировали в конце II – начале I тыс. до н.э.” [22, 121-130].

Учитывая процесс формирования поселений в Центральной Азии, В. М. Массон выделяет два этапа урбанизации: древневосточный (конец III – середина I тыс. до н.э.) и античный (III в. до н.э. – IV в. н.э.) [21, 196]. Как показывают археологические исследования, процесс урбанизации в Ферганской долине возникает в III тыс. – II тыс. до н.э., а в древней Чаче он начался позднее, в III в. до н.э. Если учесть хронологию В. М. Массона и сопоставить с ней археологические материалы и письменные источники, то Ферганскую долину можно отнести к первой группе – древневосточному этапу урбанизации, а области Илака – Курамы и Чача – Ташкента, а также территории по среднему и нижнему течению Сырдарьи и область Семиречья, соответственно, ко второму – античному этапу урбанизации.

Как показывают археологические исследования, о первых поселениях Ферганской долины дают сведения археологические материалы из городища Эйлатан-Актам, расположенную между современными областями Намангана и Андижана, к северу от Андижана. Именно здесь археологами была обнаружена “... архаическая культура оседлых земледельцев, живших в домах из сырцового кирпича” [3, 5]. Археологи считают, что образование и существование городища относятся к VII – III вв. до н.э. Помимо городища Эйлатан, в округе возникают другие поселения эпохи чустской культуры, вот что пишет о них академик Ю. Ф. Буряков: “Известен также целый ряд поселений эйлатанского времени, которые, однако, не подвергались широкому раскопкам” [7, 101].

Постэйлатанский период культурного развития Ю. А. Заднепровский предлагает называть мархаматским, шурабадским, а Н. Г. Горбунова предлагала другое название – кугайско-карабулакский. Изученные материалы показывают, что постэйлатанские поселения возникли и существовали во II в. до н.э. – VII в. н. э., “... среди более чем 600 памятников, на которых имеется древнеферганский материал, первое место, естественно, занимают небольшие поселения. Заметным своеобразием отличаются западные районы Ферганской долины, особенно в месте выхода Сырдарьи из горных теснин на равнинные просторы. Там расположен Ходжент, бывший важным центром и в эпоху Средневековья” [20, 200-201]. Хотя и безосновательно, некоторые исследователи не включают Ходжент в состав Ферганской долины, но здесь В. М. Массон совершенно прав, что именно Ходжентом и завершается западная часть Ферганской долины.

О культуре древнейшей эпохи в западной части Ферганы собраны ценнейшие археологические материалы. В результате археологического исследования региона в исторической науке они получили название Кайрак–кумская культура. Обследованная археологами Кайрак – Кумская степная зона перед строительством Таджикского водохранилища и ГЭС им. Дружбы

народов в г. Кайраккуме (ныне г. Гулистон) в 1953-1956 гг. была крупным открытием отечественной истории, которое дало возможность провести более глубокое исследование древнейшей и древней эпохи в истории западной части Ферганской долины. В 1954 г. был создан Кайрак-кумский археологический отряд, под руководством академика с мировым именем А. П. Окладникова. "... В результате исследований, проведенных в Кайрак-Кумах, открыта и изучена очень яркая палеолитическая культура, существовавшая на берегах Сырдарьи более 100 тысяч лет тому назад" [19]. Одно из главных достижений Кайраккумской археологической экспедиции – обнаружение и изучение более 30 поселений бронзового века в Кайраккумской степной зоне. Это были первые поселения на западной границе долины [19, 149].

Таким образом, археологические исследования показывают, что Ферганская долина с древнейшей эпохи была не только местом обитания первобытных людей, а является ареалом, где впервые появились земледельческая и скотоводческая цивилизация, благодаря которому возникают поселения земледельцев, в результате увеличилась численность населения, расширилась территория посевных площадей и размер поселений.

О дальнейшем развитии поселений в Ферганской долине имеются данные в античных и китайских письменных источниках. О городах Ферганы, Усрушаны и Чача впервые упоминается в письменных источниках античных авторов, это Александрия Эсхата, Кирополь, Газа, позднее Антиохия Скифская. Правитель Ахеменидов "...Кир для укрепления северо-восточных границ своей империи, по преданию, построил здесь, в бассейне Сырдарьи, на левобережье, семь пограничных крепостей, которые вскоре сосредоточили в своих стенах многочисленное население и превратились в города и крупные населенные пункты" [23, 16-17]. В числе этих городов и был древний Хварджанд (от авестийского слова "город Солнца", "Солнцеград") [24, 17-21]. – современный Худжанд, в эпоху античности получивший название Александрия Эсхата. Греко-македонцы построили крепость в городе с целью защиты от набегов кочевых сакских племен. В 1974 г. отрезок этой стены был обнаружен археологом Т. В. Беляевой в центре Худжанда [22, 126].

Проанализировав античные письменные источники, Н. Г. Горбунова пришла к выводу, что и Ахемениды и греко-македонские завоеватели, проникшие в Центральную Азию, не переходили на восток от речки Худжа-Бакирган-сая (до XI в. р. Такоб). Они овладели только западной частью Ферганской долины – окрестностями г. Худжанда (Александрия Эсхата). Она также отмечает, что с приходом к власти Селевкидов, их военачальник Демодам организовал поход за р. Сырдарью (в античных источниках р. Яксарт), позднее, через нескольких столетий, один из греко-бактрийских правителей, Евтидем, также организовал поход в Восточный Туркестан [8, 27; 9, 304].

Сведения китайских путешественников и историков являются ценнейшими письменными источниками о государстве в Фергане под названием Давань, а также о его населении, городах, политической, экономической и культурной жизни. В донесениях китайцев, Чжан Цяня и Сыма Цяня, Фергана впервые кратко охарактеризована под названием Давань [4, 147-168], "... по словам Чжан Цяня, в Давани было до 70 больших и мелких поселений, а население ее, насчитывающее несколько сот тысяч человек..." [18; 12, 352].

У них мы встречаем названия городов Эрши (останки последнего расположены вблизи современного г. Мархамат), Ю (отождествляемый с Узгеном), эти сведения, оставленные китайцами, относятся ко II в. до н.э., и в дальнейшем, в Кушанскую эпоху, в этот список добавляются и города Гуйшань (Касан), Шуаньми (Худжанд), Гуйшуан (Бекабад) –локализация городов Боровковой [5, 56-57; 6, 276-277]. Городские поселения эпохи древности имели два ряда стен – внешние, которые в китайских источниках назывались "вайчэн", и внутренние, по-китайски называемые "чжунчэн", таким образом город разделялся стенами на две части, которые в средние века носили названия цитадель и шахристан. Такую развитую структуру поселения имела прежде всего столица Ферганы, город Эрши [3, 12]. Археологические исследования города показали, что внутренняя часть, называемая цитаделью, хорошо сохранилась. Внешняя часть, позднее получившая название шахристан, в результате возникновения и расширения поселения была разрушена. "... Центральную часть города Эрши составляет прямоугольник стен 500x750 м, ориентированный сторонами света. Стены и защищающие их башни были сложены из крупного квадратного кирпича размером 40x40x10 см" [3, 12]. Основная часть жилых помещений в Эрши располагалась внутри оборонительных стен. Изучив письменные источники и сопоставив археологические материалы, А. Н. Бернштам пришел к выводу: "... все эти города возникали на обжитых местах, на местах древнеферганских поселений..." [3, 12].

Эпоха Кушанидов является эпохой расцвета экономической жизни. В связи с развитием ирригационной системы расширяются посевные площади, открыв путь к благополучию населения. В результате кушанскими поселениями застроилась "...вся равнинная Фергана, берега Сырдарьи и Кара- дарьи, не говоря уже о сплошь заселенных берегах горных речек" [3, 18]. Если в государстве Давань Эрши был столичным городом, то Кушанидах Касан (по-китайски Гуйшань) превращается в политический, административный, экономический и культурный центр Ферганы. "Древний Касан стоял на стыке границ "кочевой" и "оседлой" Ферганы, на последнем уступе Чаткальских подгорных долин" [3, 19]. В результате археологических исследований было уточнено, что город возник на месте древнего поселения Даваньской эпохи. Город имел цитадель небольшого размера (60 м X 40 м), построенную из крупного сырцового кирпича, первоначально размер основной части города тоже был небольшим. Ученые предполагают, что

Касан возник не как центр Ферганы, а на начальном этапе возникновения и расширения государства Кушанидов был столичным городом новообразованного государства. В результате расширения территории государство Кушанидов превращается в империю, и столица тоже переместилась на юг. Так и Касан позднее из столицы государства превращается в центр ферганского владения Кушанидов. Поселения этого периода были своего рода замками, китайцы их делят на две группы, крупные поселения называли – “чэнго”. Другой “... тип поселений китайцы называли “уши”, т.е. буквально отдельные дома-усадыбы. Развалины этих домов в изобилии представлены руинами Ферганы” [3, 13].

В дальнейшем кушанские замки уступают место города-экономическим центрам оазисов. Наравне с Касаном возвышается как экономический центр Сигянь-Ахсикет. До прихода арабов Ахсикет возвышается и превращается в столичный город Ферганы. Таким образом, после Касана возникает третья столица Ферганы – Ахсикет, город имел цитадель и шахристан. Ахсикет был расположен на правом берегу р. Сырдарья, цитадель города “... возвышается метров на 50 выше реки. Используя обрывистый берег и глубокие овраги с востока и запада, строители города обнесли шахристан еще рвом и стенами, с башнями посередине стен и на углах. Рабад был сильно укреплен стенами с башнями, стоящими через каждые 50-100 м” [3, 27]. Полагаясь на нумизматические материалы, А.Н. Бернштам считает, что свой политический статус столицы Ферганы Ахсикет смог сохранить в течение двух следующих столетий [3,28].

В древний период Фергана, в китайских источниках отмечалась как Давань, в раннем средневековье китайцы называли её Лона, Полона, Бохана. И те же источники, отмечающие название долины в эпоху раннего средневековья, подчеркивают существование в долине около 100 городов [3, 24]. Эти сведения о числе городов в долине в определенный период не были серьезно восприняты учеными. Но археологические исследования середины и второй половины прошлого века изменили представления ученых о процессе урбанизации в Фергане и в целом в Центральной Азии в эпоху раннего Средневековья. “... Сеть городских поселений была, бесспорно, достаточно густой. Цифры китайских хроник, округленные в сторону преувеличения, рисуют, видимо, близкую к действительности картину”, - писали ученые, ознакомившись с имеющимися письменными источниками и сопоставив их с археологическими материалами начала 70-х годов XX в. И дальнейшие почти полувековые археологические исследования региона еще убедительнее подтвердили сведения китайских письменных источников [2,6]. Особенная черта городов и укрепленных сооружений этого периода состоит в том, что в основном они сооружались из глины: “... стены городов, крепостей и замков представляют собой глинобитный массив, как правило, лишенный бойниц” [2, 14].

Материальные источники и имеющийся письменные сведения, их сопоставление и анализ показывают, что Фергана является одним из первых

очагов цивилизации в истории народов Центральной Азии. В дальнейшем, под влиянием Ферганской долины очаг цивилизации распространяется в соседние регионы – северные и северо-западные области Центральной Азии. В результате среднее и нижнее течение бассейна реки Сырдарья становится густонаселенным регионом Центральной Азии, где образовались десятки крупных поселений. С небольшими перерывами этот процесс продолжался до Средневековья и Нового времени, до формирования Кокандского ханства.

ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ И ССЫЛКИ. (REFERENCES)

1. Байпаков К., Ерзакович Л. Древние города Казахстана. – Алма-Ата: Издательство Наука Казахской ССР, 1971. – 211 с.
2. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Лгд.: Наука, 1973. – 389 с.
3. Бернштам А.Н. Древняя Фергана. – Ташкент: Издательство Академии наук Уз ССР, 1951. – 46 с.
4. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том. 2. – М. – Лгд., 1950. – С. 147-168.
5. Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до н.э. – VII в. н.э. (историко-географический обзор по древнекитайским источникам). – М.: Наука, 1989. – 181 с.
6. Боровкова Л.А. Народы Средней Азии III – VI веков (по древним китайским и западным источникам). – М.: Институт востоковедения РАН, 2008. – С. 276-277.
7. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – 212 с.
8. Горбунова Н.Г. Фергана по сведениям античных авторов // История и культура народов Средней Азии. (Древность и средние века)/Под редакцией Б.Г. Гафурова и Б.А. Литвинского. – М.: Наука, 1976. – С. 27-37.
9. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. /Отв. редактор тома Г.А. Кошеленко. – М.: Наука, 1985. – 495 с.
10. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы //МИА. Вып.118. М.-Л., 1962.
11. Заднепровский Ю.А. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы //Древний город Средней Азии. Тезисы докл. – Ленинград., 1973. – С. 17-20.
12. История таджикского народа Том. I. С древнейших времен до – V в. н.э. /Под редакцией Б.Г. Гафурова, Б.А. Литвинского. – М.: Издательство Восточной литературы, 1963. – 596 с.
13. История таджикского народа Том. II. Поздний феодализм (XVII в. – 1917 г.) /Под редакцией Б.И. Искандарова, А.М. Мухтарова. – М.: Издательство Наука, 1963. – 356 с.
14. История таджикского народа. Том IV. Позднесредневековье и новое время (XVI в. – 1917 г.). – Душанбе: Дониш, 2009. – 896 с.
15. История Таджикской ССР. – Душанбе: Маориф, 1983. – 298 с.
16. История Узбекистана. Том III. (XVI-первая половина XIX вв.) /Отв. редактор д.и.н., профессор Р.Г. Мукминова. – Ташкент: Фан, 1993. – 476 с.
17. История Узбекской ССР. Том I. Книга вторая /Под редакцией: М.Г. Вахабова, В.Я. Непомнина и Т.Н. Кары-Ниязова. – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1956. – 497 с.
18. Кюннер И.В. Китайские известия о народах южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока. Глава III. Давань.
<http://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/China/I/Kuner/red.htm>

19. Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.А. Древности Кайрак-Кумов (Древнейшая история Северного Таджикистана). – Душанбе, 1962. – 300с.+103 с. Прилож.
20. Массон В.М. Культурогенез Древней Центральной Азии. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского государственного университета, 2006. – 384 с.
21. Массон Е.М. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. Изд. АН Уз ССР, 1953. – 144 с.
22. Мирбабаев А., Рахимов Н. Сакские наследие архаического Худжанда (К этнической истории таджиков) / Актуальные проблемы культурогенеза таджикского народа / Ответственный редактор: профессор Аскарали Раджабов. – Душанбе: Дониш, 2016. – 806 с.
23. Негматов Н. Усрушана в древности и раннем средневековье. – Сталинабад: Издательство Академии Наук Таджикской ССР, 1957. – 160с.
24. Турсунов Н. Таърихномаи Хучанд – История Худжанда. – Худжанд: Меъроч, 2012. – 352 с.

FARG‘ONA VODIYSIDA TEMIRGA ISHLOV BERISH TEKNOLOGIYALARI TARIXI

ИСТОРИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ОБРАБОТКИ ЖЕЛЕЗА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

THE HISTORY OF IRON PROCESSING TECHNOLOGIES IN THE FERGANA VALLEY

Maxmudov Abduqaxxor Burxonjon o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida dotsenti v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

e-mail: abduqahhormahmudovab2712@gmail.com

Tel: (94)304-06-50

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida qadimdan temirga ishlov berish texnologiyalari tarixi hususida ma‘lumotlar keltirilgan. Temirga ishlov berish texnologiyalari “Chust madaniyati”, Qorabuloq va Munchoqtepa arxeologik yodgorligi, Axsikent temirchilik markazlari misolida o‘rganilgan. Shuningdek Axsikent metallurg-temirchi ustalarining yuqori sifatli tigel po‘lat ishlab chiqarish texnologiyasi to‘g‘risida fikrlar berib o‘tilgan.

Аннотация.

В данной статье представлены сведения о истории технологий обработки железа в Ферганской долине с древних времен. Технологии обработки железа изучены на примере “Чустской культуры”, археологических памятников Карабулок и Мунчоктепа, а также кузнечных центров Ахсикента. Кроме того, изложены мнения о технологии производства высококачественной тигельной стали ахсикентскими металлургами-кузнецами.

Abstract.

This article provides information on the history of iron processing technologies in the Fergana Valley since ancient times. The technologies of iron processing have been studied using examples from the “Chust culture,” the archaeological sites of Qorabuloq and Munchoqtepa, as well as the blacksmithing centers of Axsikent. Additionally, opinions are presented on the technology of high-quality crucible steel production by the metallurgist-blacksmiths of Axsikent.

Калит сўзлар.

Temir, temirchilik, "Chust madaniyati", Buvonamozor, Axsikent temirchilik markazi, misgarlik, degrezlik, pichoqchilik, tigil po'lat, damashq po'lati, temir eritish pechlari, metallardan jangovar hamda mehnat qurollari tayyorlash, Qarag'anda va archa (pista) ko'mir.

Ключевые слова.

Железо, кузнечное дело, "Чустская культура", Бувонамозор, Ахсикентский кузнечный центр, медное дело, токарное дело, ножеделие, тигельная сталь, дамасская сталь, печи для выплавки железа, изготовление боевого и рабочего инструмента из металла, карагандинский и можжевелевый (фисташковый) уголь.

Key words.

Iron, blacksmithing, "Chust culture," Buvonamozor, Axsikent blacksmithing center, coppersmithing, lathe work, knife-making, crucible steel, Damascus steel, iron smelting furnaces, manufacturing of weapons and labor tools from metal, Karaganda and juniper (pistachio) charcoal.

Ma'lumki, mustahkam temir olish va unga ishlov berish kasbi bo'lgan temirchilik Turon xalqlarining eng qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, ibtidoiy davridayoq sof holda topiladigan, ya'ni meteorit temirdan foydalanilgan va bunga aynan temirni ilohiy deb qarashlariga dastlab meteoritlarda uchraganligi ham sabab bo'lgan. Buning natijasida temirdan yasalgan buyumlar ilohiylashtirilgan. Buni Qadimgi Sharq, Zarafshon, Qashqadaryo, Farg'ona va Chochdagi dehqonchilik markazlaridan topilgan qabrlardagi taqinchoqlar misolida ham ko'rish mumkin. Bundan tashqari, ushbu hududlarda temir va qalay konlari mavjud bo'lib, metallurgiya sohasini rivojlanishiga zamin yaratgan [1, 13].

Temirdan birinchi bo'lib Kichik Osiyodagi xetlar (miloddan avvalgi XIV – XIII asrlar), so'ngra qo'shni mintaqalardagi Mesopotamiya, Eron va Kavkazorti xalqlari foydalangan [2, 81]. Temir buyumlarning tarqalishi asta-sekinlik bilan ortib borgan. Mehnat qurollari ishlab chiqarishda temirning kashf etilishi o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlarning asosi bo'lib xizmat qilgan. Temirning eritilishi va uning qayta ishlanishi metallurgiya tarixida yangi davrni ochib bergan hamda texnika bilan madaniyatning rivojlanishidagi "buyuk bosqich" vazifasini o'tagan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston hududida temirchilik qishloq xo'jaligi asboblari, turli xil o'ymakor mahsulotlar va tub aholisi milliy hunarmandchiligining ajralmas qismi sanalgan ketmon, tasha, o'roq, bolta, chopqi, pichoqlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday buyumlarni qadimgi aholi manzilgohlaridan topilgan metall qurollarida ham ko'rish mumkin. Shuningdek, Turonda eng qadimgi temir buyumlar qariyb 20 dan ortiq yodgorliklardan topib o'rganilgan. Ushbu yodgorliklardan temirdan yasalgan pichoq, o'roq, harbiy va xo'jalik qurollari topib o'rganilgan [3, 41].

Xususan, metall buyumlar tayyorlash qadimdan Farg'ona vodiysida ham rivojlangan bo'lib, buni arxeologik topilmalar [4, 81]. va o'rta asr manbalaridagi ma'lumotlar [5, 34]. ham tasdiqlaydi. Xususan, ilk o'rta asrlar yasalgan tangalar, devorga ishlangan suratlarda mehnat va jangovar qurollarni tasvirini ko'rish mumkin. Masalan, Munchoqtepa arxeologik manbalar orasida Farg'onaning qoya

toshlardagi suratlarida kamon tasvirini uchratish mumkin. Ushbu tasvirlar tushirilgan qoyatoshlardagi rasmlar xronologiyasi uzoq davrga ega bo'lib, miloddan avvalgi III ming yillikdan tortib to so'nggi o'rta asrlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Munchoqtepadan topilgan kamon va uning o'q-yoylari mavjud ma'lumotlarni to'ldiradi. Bu orqali Turonda temir va unga ishlov berish orqali temir buyumlar ishlab chiqarish hamda qurolsozlik rivojlanganligini ko'rish mumkin [6, 160].

Farg'ona vodiysidan bronza va temir davrlariga oid ilk dehqonchilik madaniyatlaridan biri Chust hududidan aniqlangan bo'lib, u tarixga "Chust madaniyati" nomi bilan kirgan. Ushbu madaniyatga oid ilk manzilgoh 1951- yilda M. Vorones tomonidan Buvonamozor bulog'i yonidan topilgan. Chust madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davriga oid bo'lib, miloddan avvalgi II ming yillik oxiri – I ming yillikning birinchi choragida shakllangan. Chust madaniyatida temirchilik yaxshi rivojlanganligini arxeologik qazishmalar orqali topilgan o'roq, pichoq, bigiz kabi aslahalarni yasashga moslangan qoliplardan ham ko'rish mumkin. Jumladan, Chust madaniyatining yuqori qatlamidan turli shaklga ega pichoqlar ko'plab topilgan [7,48]. Demak, Farg'ona vodiysida qadimdan metall konlari mavjud bo'lib, temir eritish pechlari, metallardan jangovar hamda mehnat qurollari tayyorlash, misgarlik, degrezlik, pichoqchilik kabi temirchilik tarmoqlari rivojlanganini o'tkazilgan arxeologik va dala tadqiqotlari hamda yozma manbalardan bilish mumkin [8, 68].

Bundan tashqari bir necha yillar davomida Chust madaniyatida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida mazkur hududda metall quyadigan qoliplar topib o'rganilgan. Bunda maxsus metall eritiladigan o'choqlarda Qurama va Farg'ona vodiysining shimoliy-g'arbiy hududlarida joylashgan tog' konlaridan rudalarni olib kelib qayta ishlangan [9, 28].

Xususan, Farg'ona vodiysida qadimdan Chust, Namangan, Axsikent, Andijon va Qo'qon kabi temirchilik markazlarida temir hamda unga ishlov berish hunarmandchiligi keng rivojlangan. Mazkur hududlarda temirchilik taraqqiy etishi natijasida milliy hunarmandchilikning asosiy tarmog'i biri hisoblangan pichoqchilik ham alohida tarmoq sifatida rivojlangan [10, 46].

Ilk o'rta asrlarga kelib, ikki tomoni kesuvchi dudama qilichlarning ahamiyati pasayib, jangchilar bir tomoni kesadigan qilichlar bilan qurollantirila boshlangan. Shuningdek, temir plastiklardan uchli dubulg'alar yasashga o'tilgan. Otliq jangchilarning anjomlarida o'zgarishlar yuz berib, ot uzangilari temirdan yasala boshlangan. Ushbu davrda qurol-yarog'ga ixtisoslashgan ustaxonalar Turonning Usturushona [11, 107], Choch va Farg'ona hududlarida mavjud bo'lgan.

O'rta asrlardagi taniqli tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida metallurgiya bilan bog'liq bir qator atamalar uchraydi. Masalan, boqir – qizil mis, qumuq–kumush, temur – temir, kona suvi – simob [12, 377] kabilarni misol keltirish mumkin. Metallurgiya bilan bog'liq atamalar Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham qayd etilgan. Jumladan, chodxin – quyma mis, sun altun – uzunligi bir barmoqdan bir gazgacha bo'lgan mustahkam oltin bo'lagi, som quyma – kumush [13, 432] kabilar.

Farg‘ona vodiysida metall konlari ko‘pligi va unga ishlov berish rivojlanganligi to‘g‘risida ham asosli ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, bu haqda muallifi noma‘lum bo‘lgan “Hudud ul-olam” asarida ham ayrim ma‘lumotlar keltirilgan [14, 63]. Unda Axsikent shahri to‘g‘risida so‘z yuritilib, uni Farg‘ona vodiysining yirik temirchilik markazi ekanligi ta‘kidlangan. Shuningdek, “Hashart” (Yaksart) daryosi bo‘yida kumush, oltin, simob va qimmatbaho tosh konlari mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida ham muhim ma‘lumotlar keltirgan [15, 125].

Farg‘ona vodiysida temirchilikning yuqori darajada rivojlanishida mintaqaga yaqin hududda temir, ko‘mir, oltin va kumush konlarining o‘sha davrda o‘zlashtirilganligi asosiy rol o‘ynagan. Chunki, Qurama-Chotqol tog‘ tizmalarida qora va rangli metallarning mavjudligi, hozirgi Angren shahri atrofida ochiq ko‘mir koni zaxiralari bo‘lganligi, temirchilar o‘sha davrlardayoq metall qazib olish hamda qayta ishlov berish sir-asrorlarini egallaganligi, Axsikent metallurgiya sohasi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini isbotlaydi. Ayniqsa, axsikentliklar qilich va pichoqlarni tayyorlash texnologiyasini yuqori darajada o‘zlashtirgan ediki, po‘latga turli boshqa unsur-qorishmalarni qo‘shish yo‘li bilan pishiq, egiluvchan hamda sinmaydigan qilib tayyorlangan [16, 14].

Farg‘ona vodiysining temirchilik rivojlangan qadimiy markazlaridan biri Quva shahridir. Ushbu hudud to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar miloddan avvalgi 2 ming yilliklarda Xitoy manbalarida uchraydi. Quvada qadimdan hunarmandchilikning temirchilik va shishasozlik kabi tarmoqlari taraqqiy etgan. Quvada o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida VIII asr boshlaridayoq tanga pullar ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo‘lgan degan xulosaga kelingan. Bundan tashqari Quvaning VII – VIII asrlarga oid qatlamlarini o‘rganish jarayonida temirdan yasalgan pichoq, o‘roq, bog‘ pichoqlar, ketmon namunalari topib o‘rganilgan. Ushbu mahsulotlar tarkibi o‘rganilganda ustalar po‘lat sifatini oshirishda kremniy, rux, marganes, alyuminiy kabi aralashmalardan keng foydalanganliklari aniqlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki Farg‘ona vodiysida Quva ham temirchilik markazi sifatida rivojlangan.

Quva shahristonining sharqiy tomonida shisha va g‘arbiy qismida simob ko‘zacha ishlab chiqaradigan ustaxonalar ham topib o‘rganilgan. Quva shahrining ichkarisiga kirishdagi darvozaxona qoldiqlarini o‘rganish jarayonida unga tirkab qurilgan temirchilik ustoxanalari mavjudligi aniqlangan. Darvozaxonaning g‘arbiy tomonidagi temirchilik va temir eritish bilan bog‘liq topilmalar hududda temirga ishlov berish texnologiyalari rivojlanganidan dalolat beradi. Shuningdek mazkur arxeologig yodgorlikdan topilgan qilich va nayza qoldiqlari XII asrda temirchilikning alohida tarmog‘i qurolsozlik taraqqiy etganini isbotlaydi .

O‘rta asrlarga kelib, vodiya temirchilik rivojlanganligini Axsikent misolida ham ko‘rish mumkin. Ushbu davrda yuqori sifatli po‘lat olish va unga ishlov berishda Ohangaron, Qarag‘anda va archa (pista) ko‘mirlardan keng foydalanilgan. Tangritog‘ tizmalarida o‘sadigan tog‘ archa g‘o‘lalarini olib kelib, maxsus qo‘ralarda yoqilgan. G‘o‘lalar cho‘g‘ holatiga kelganda, qo‘ra og‘zi somonli loy bilan suvalib 10–15 kun davomida saqlangan. Buning natijasida hosil qilingan cho‘g‘lar kulga aylanishining oldi olingan. Keyinchalik haroratni oshirishda ushbu

cho'g'lardan foydalanilgan. Pista ko'mirdan qadimdan temirchilikda keng foydalanib kelingan. Hozirda ushbu usuldan foydalanish kamayib bormoqda [17, 82].

Temirga ishlov berishda Axsikent hunarmandlari yuqori mahoratga ega bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, VII – XII asrlarda Axsikent metallurg-temirchi ustalari yuqori sifatli tigel po'lat ishlab chiqarish texnologiyasi sirlarini bilganlar. Axsikentda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida yirik metallurgiya ustaxonalari topilgan. Shulardan biri uzunligi 250 metr, eni 25 metr bo'lgan temirchilik ustaxonasidan 2 kgdan 10 kggacha og'irlikda po'lat olishga moslangan tigillar topilgan [18, 171]. Bundan ko'rinib turibdiki, Axsikentda tigil orqali po'lat olish uslubi uzoq yillar davomida o'z samarasini bergan. Toza po'lat olish uchun birinchi navbatda, boyitilgan temir xom-ashyosi zarur bo'lgan. Buni Axsikent ustalari G'ovasoy, Pop va Ustrushonadagi Marsmanda tog'-kon sanoati metallurglaridan olganlar. Axsikentga temir bo'laklari vodiyning boshqa qishloqlarida yarim tayyor ishlangan holatda olib kelingan.

Boyitilgan temir mahsuloti Axsikent temirchi ustalari tomonidan maxsus texnologiya yordamida qayta ishlangan va mustahkam po'lat olingan [19, 150]. Tayyor bo'lgan po'latdangina mustahkam qilich va pichoqlar yasalgan. Mustahkam po'latdan mehnat va jang qurollarini yasash ustadan yuksak tajriba va mahoratni talab qilgan. Ma'lumki mustahkam po'latdan qilichga, pichoq, xanjar kabi tig'li mahsulot tayyorlash jarayonida tig' qismida o'ziga xos naqshlar paydo bo'lgan. Ushbu naqshlar orqali po'lat turini aniqlash mumkin bo'lgan. O'zida naqshlarni aks ettirgan po'latdan tayyorlangan tig'li qurollar o'ta keskir bo'lishi bilan birga, mo'jizaviy san'at asari ham hisoblangan. Bunday qilich, xanjar va pichoqlarga dunyo bozorida talab yuqori bo'lgan. Bu kabi pichoq, xanjar va qilichlarning narxi qimmat bo'lganligi sababli, uni amaldorlar, podsho askarlari va boy-badavlat insonlargina egalik qilgan [20].

Har yili savdo karvonlari orqali Sharq va Yevropa qurol bozori sanalgan Damashqqa Axsikent temirchilik ustaxonalaridan o'n tonnagacha po'lat hamda besh mingdan ortiq qilich va pichoqlar olib ketilgan [21, 133]. Bundan ko'rinib turibdiki, Axsikentda metallga ishlov berish va qurol-yarog'lar tayyorlash rivojlangan, bu esa ko'p mamlakatlarda katta qiziqish uyg'otgan.

Axsikentning IX – XII asrlarga oid madaniy qatlamlarida bir nechta hunarmandchilik tarmoqlari nomi bilan ataladigan ko'chalar aniqlangan. Ushbu ko'chalar shaharning shimoliy va sharqiy darvozalari, shuningdek, markaziy bozor, temirchi, misgar, zargar, baqqol kabi kasb egalarining mahallalariga olib brogan [22, 15]. Bundan ko'rinib turibdiki, Axsikent, umuman olganda, Farg'ona vodiysida temirchilik alohida tarmoq sifatida taraqqiy etib borgan.

Arxeologik izlanishlar davomida Axsikentning shahriston hududida temir va mis eritadigan pechlar, hunarmandlarning ustaxonalarida esa metall toblaydigan o'choqlar ham topib o'rganilgan [23, 129]. Axsikent hunarmandchilik ustaxonalarida uy-ro'zg'or ishlarida ishlatiladigan oddiy metall buyumlardan tortib, egiluvchanligi yuqori keskir qilich va xanjarlar yasalgan. Shu kabi qimmatbaho qurollardan biri dastasiga oltin suvi yuritilgan bir parchasi topib

o'rganilgan. Bunday qilich va xanjarlar maxsus egiluvchan po'latdan tayyorlangan. Axsikent temirchi ustalari o'sha paytda po'latning egiluvchanligini oshiruvchi usullarni yaxshi bilganlar, lekin buni o'ta qattiq sir saqlaganlar.

Axsikentning IX – XIII asrlarga oid qatlamlarini o'rganish jarayonida maxsus tigellar topilgan va ushbu tigellar yordamida yuqori sifatli po'lat eritib olingan [24, 171]. Tigel silindrsimon yoki kesik konus shaklidagi maxsus qurilma bo'lib, undan qiyin eriydigan metallar eritib olingan. O'sha davr uchun ushbu qurilma sifatli po'lat olishda temirchilikning katta yutug'i sanalgan [25, 371]. Temir olishdagi ushbu texnologiya sohani rivojlanishiga zamin yaratgan. Tayyor bo'lgan po'lat tigelni sindirish orqali olingan. Bunday qimmatbaho uskunani sindirishga asosiy sabab, metall tayyor bo'lganda tigelni tubida qolgan, uning usti toshqol bilan qoplangan. Axsikentdan topib o'rganilgan tigellar Beruniyning "Mineralogiya" nomli asarida tilga olinganlari bilan bir xil ekanligi aniqlangan [26, 183].

Axsikent tigellarini maxsus o'rganish ularning quyma va damashq po'latini ishlab chiqarish bilan bog'liqligini aniqlashga imkon berdi. Axsikent tigillari bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Abdurazzaqov va M.Bezbarodovlar tigellarni yasashda tog'lardan keltirilgan issiqqa chidamli loylardan foydalanilganini ta'kidlagan. Mustahkam po'lat olishda ishlatiladigan tigellar Navkent va G'ovadan olib kelingan loydan yasalgan. Sifatli po'lat tayyorlash tarixini tadqiq etgan rossiyalik metallurg va tog'-kon sanoati muhandisi P.Anosov o'rta asrlarda tayyorlangan eng sifatli taban, qora taban, xuroson, damashq kabi po'latlarni eng mustahkami, - deb ta'kidlagan edi. P.Anosovning "Damashq po'lati" nomli asarida eng sifatli sanalgan taban va qora taban po'lati Turonda ishlab chiqarilganligi bayon qilingan. XII asr o'rtalariga kelib, bunday mustahkam po'lat tayyorlash usuli yo'qolib ketganligini ta'kidlagan [27, 8].

O'rta asrlarda Turonda salmon po'lati va undan shu nom bilan yasalgan pichoq hamda qilichlar mashhur bo'lgan. Ushbu po'latdan tayyorlangan qilichlar tig'ida o'ziga xos yuqori sifatli naqshlar paydo bo'lgan. Eng muhimi, po'latga ishlov berilganda, hech qanday kimyoviy aralashma qo'shilmagan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Turonda qayd etilgan eng sifatli salmon po'lati Farg'onadagi temirchilik markazlarida tayyorlangan taban va qora taban po'lati bilan bog'liqdir. Aynan ushbu davrda sifatli po'lat olish sirini axsikentlik ustalar bilganlar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Янги нашр, 2010. – Б. 13.
2. Черноусов П.И., Мапельман В. М., Голубев О. В. Металлургия железа в истории цивилизации... – С. 81.
3. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: Университет, 2004. – Б. 41.
4. Массон М. Е. Из истории добычи меди в Средней Азии в связи с прошлым Алмалыка. – М–Л.: АН СССР, 1936. – С. 3; Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. Москва–Ленинг: Наука. – С. 81.
5. Папахристу О. А. Черная металлургия Северной Ферганы (По материалам археологического исследования городища Ахsikent IX – начало XIII вв.): Канд. дисс. – Москва, 1985. – С. 34.

6. Матбобоев Б. Ҳ. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V – VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳли асосида). Тарих фан. докт. дисс. – Самарқанд, 2009. – Б. 160.
7. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими... – Б. 48.
8. Қосимов Ў. Қадимги Фарғона сирлари. – Наманган: Ударник, 1992. – Б. 68.
9. Рузанов В.Д. Кратко об основных итогах изучения металла культур с лепной росписной керамикой эпохи бронзы Ташкентско-Ферганского региона / Ўзбекистон пойтахти Тошкент – 2200 ёшда. – Тошкент, 2009. – С. 28.
10. Сверчков Л.М., Папахристу О.А. Традиции мастеров-ножевщиков Средней Азии // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1990. – №7. – С. 46.
11. Максудов Ф. А. Ўрта асрларда тоғли Уструшона кўчманчи маданияти. Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2020. – Б. 107.
12. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 61, 260, 377.
13. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 432.
14. Ганиев И. Н., Крахмаль К. А., Бондарь О. В. К истокам возникновения и развития горного дела в бассейне реки Ангрен / Археология и история Центральной Азии. – Самарқанд, 2004. – С. 63.
15. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) / Номаи донишгоҳ (Ученые записки). – 2010. – №7. – С. 125.
16. Исмоилов Ю., Рўзинов Б. Ахсикент – қадимги Фарғона пойтахти (илмий-оммабоп рисола). – Наманган, 2013. – Б. 14.
17. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani G'ova qishlog'i. 2023 yil; Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2004. – Б. 82.
18. Карабасов Ю., Черносов П., Коротченко Н., Голубев О. Металлургия и время. Энциклопедия. Т. 1.– Москва: МИСиС, 2011. – С. 171.
19. Папахристу О.А. Маркетинг в железопроизводящей промышленности среднего востока и опыт реконструкции черной тигельной металлургии Ахсикента в IX – начале XIII в. / Записки восточного отделения Российского археологического общества (Зварао). – Санкт-Петербург, 2006. – С. 150.
20. <https://yuz.uz/news/axsikent-qilichbozligi-tarixi-uzoq-tarixga-borib-taqaladi>.
21. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX – XII вв.) // Ученые записки. – 2010. – №7. – С. 133.
22. Анарбаев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 15.
23. Анарбаев А. Ахсикент – столица Древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur, 2013. – С. 129.
24. Карабасов Ю., Черносов П., Коротченко Н., Голубев О. Металлургия и время...– С. 171.
25. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2000. – Б. 371.
26. Анарбаев А. А. Ахсикент – в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // СЭ. – 1988. – №1. – С. 183
27. Папахристу О.А. Черная металлургия Северной Ферганы.... – С. 8.

O‘ZBEK XONLIKLARI AHOLISINING ETNIK TARKIBI

ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКСКИХ ХАНСТВ

ETHNIC COMPOSITION OF THE POPULATION OF THE UZBEK KHANATS

Abdullayev Ulug‘bek Saydanovich
Andijon davlat texnika instituti professori
tarix fanlari doktori, professor.
abdullaev1956u@gmail.com
+998 93 558 56 08

Annotatsiya.

Ushbu maqolada XVI–XIX asrlarda O‘rta Osiyo xonliklarida kechgan etnik jarayonlar, ularning mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga ta’siri, mahalliy o‘troq turkiy tilli etnoslar, nisbatan kamchilikni tashkil qiluvchi forsiyzabon hamda boshqa tillarda so‘zlashuvchi etnik guruhlarining xonliklar hayotida tutgan o‘rniga doir ma’lumotlar yoritib berilgan.

Аннотация.

В статье дается информация об этнических процессах, происходивших в среднеазиатских ханствах в XVI–XIX вв., об их влиянии на общественно-политические события в регионе, о роли местных оседлых тюркоязычных этносов, а также сравнительно немногочисленных персоязычных и иноязычных этносов в жизни ханств

Abstract.

This article provides information on the ethnic processes that took place in the Central Asian khanates in the XVI–XIX centuries, their impact on socio-political events in the region, and the role of local sedentary Turkic-speaking ethnic groups, as well as the relatively small number of Persian-speaking and other language-speaking ethnic groups, in the life of the khanates.

Kalit so‘zlar.

O‘zbek xonliklari, qabila, urug‘, xalq, Buxoro xonligi, “Boburnoma”, Dashti qipchoq, qipchoqlar, barloslar, Qo‘qon xonligi, Xiva xonligi, uyg‘urlar, qoraqalpoqlar, o‘troq aholi, ko‘chmanchilar, Ashtarxoniyalar.

Ключевые слова.

Uzbekские ханства, племена, роды, народы, Бухарское ханство, “Бабурнама”, Дашти Кипчак, Кипчаки, Барлос, Кокандское ханство, Хивинское ханство, уйгуры, каракалпаки, оседлое население, кочевники, Аштарские ханства

Key words

Uzbek khanates, tribes, clans, people, Bukhara khanate, “Baburnama”, Dashti Kipchak, Kipchaks, Barlos, Kokand Khanate, Khiva Khanate, Uyghurs, Karakalpaks, sedentary population, nomads, Ashtar Khanates.

Tarixdan ma’lumki, XVIII asrda O‘rta Osiyoda uchta mustaqil o‘zbek davlati mavjud edi. Bular Buxoro xonligi (amirligi), Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi.

O‘zbek xonliklari aholisining etnik tarkibi asosan mahalliy o‘troq turkiy tilli etnoslardan va nisbatan kamchilikni tashkil qiluvchi forsiyzabon hamda boshqa tillarda so‘zlashuvchi etnik guruhlardan iborat bo‘lgan. O‘troq aholi shaxar va qishloqlarda joylashib hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiq bilan,

ko'chmanchi, yarimko'chmanchi etnik jamoalar esa dexqonchilik vohalari atrofidagi cho'l va dasht hududlarda yashab chorvachilik bilan mashg'ul bo'lganlar.

Buxoro xonligi tarixiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratilgan. Ularda Buxoro xonligi aholisining etnik tarkibi, bu davrda kechgan etnik va etnoslararo jarayonlarga oid ham qimmatli ma'lumotlar bor [6].

Buxoro xonligi aholisi etnik tarkibi yuqorida qayd etilgan umumiy xususiyatlar bilan birga ba'zi o'ziga xos jihatlarga ham ega. Chunonchi, bu hududda ayrim etnik guruhlar boshqa xonliklar (Xiva va Qo'qon xonligi) hududiga nisbatan son jihatdan ko'proq va g'uj joylashganlar.

Ushbu davr manbalarida Movarounnahrning o'troq aholisiga nisbatan "movarounnahrliliklar", "movarounnahr xalqi" iborasi ishlatilgan. Bundan tashqari ayrim asarlarda mahalliy aholi o'zlari yashab turgan shahar nomlari bilan ya'ni "Buxorolik", "Samarqandlik", "Toshkentlik" va h.k. tarzida keltirilgan. Yana ko'p hollarda aholi etnik nomi bilan emas, balki ijtimoiy mavqei yoki kundalik mashg'ulotlari bilan ham atalgan. Masalan, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ilm ahli, diniy ulamolar va h.k.

O'rta asr muarriflarini asarlarida aholini geografik joylashuviga qarab ham "shaxriy", "saxroyi" deb ko'rsatib o'tilgan. Ushbu mualliflarning asarlarida "sart" atamasi ham ishlatilgan bo'lib, bu o'rinda asosan shaharda yashagan mahalliy o'troq aholi nazarda tutilgan.

Oldingi sahifalarda aytib o'tganimizdek, xonliklar aholisining katta bir qismini o'zbek urug'-qabilalari tashkil qilgan. Buxoro xonligi hududida yashagan ko'plab urug'-qabilalarining nomi manba va adabiyotlarda keltirilgan. Chunonchi, aymoq, barlos, baroqiy, baxrin, burqut, do'rmon, jaloyir, qaroyit, kelichi, kenegas, mangit, mekrut (makrut), ming, nayman, olchin, orlot (arlot), saroy, qipchoq, qo'ng'iroq, qovchin kabi etnonimlar o'sha davr yozma manbalarida ko'p uchraydi.

Biz oldingi bo'limlarda yuqorida sanab o'tilgan etnoslarning ayrimlarining etnogenezi va etnik tarixi haqida ma'lumotlarni keltirgan edik. Bu yerda esa Buxoro xonligida yashagan, manbalarda ko'p qayd qilingan ba'zi bir urug'-qabilalar haqidagi ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tamiz, xolos.

Xonlik hududida yashagan shunday qabilalardan biri bu *barloslar*. "Boburnoma" va "Musaxxir al-bilod" nomli asarlarda barlos urug'i tez-tez tilga olingan. Ushbu asarlarda barlos nomi aniq bir shaxs ismiga qo'shib qayd qilingan. Masalan, Shayx Abdulloh barlos, Qora barlos, Shohmuhammad barlos, Sulton Boyazid barlos va boshqalar.

Buxoro tarixiga bag'ishlangan asarlarda Muhammad Raximboy do'rmon, Muxammadyor parvonachi do'rmon, Olloyorbek devonbegi do'rmon, sarkarda Jonibekbiy do'rmon kabi mansabdor shaxslarning ismlari keltirilgan. Demak, Buxoro xonligida katta mavqega ega urug'lardan biri bu *do'rmonlar* bo'lgan. Manbalarning guvoxlik berishicha do'rmonlar asosan Buxoro xonligining Qubadiyon, Balx, Ho'jand, Xisor hududlarida yashaganlar.

1753- yildan e'tiboran Buxoro xonligi *mang'itlar* sulolasi tomonidan boshqarilgan. Aynan shu yilda Chingizxon avlodiga mansub bo'lmagan

Muhammad Raxim o'z nomiga xutba o'qittirib, o'zini amir deb atadi. 1920-yilgacha mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan davr tarixda shuning uchun Buxoro amirligi deb ataladi.

XVII asr va undan keyingi asrlardagi yozma manbalarda mang'itlar haqidagi ma'lumotlar nisbatan ko'proq uchraydi. Ularda nafaqat mang'it etnonimli qabila, balki uning bir qancha urug'lari, chunonchi to'q-mang'it, qora-mang'it, oq mang'itlarning nomlari ham keltirilgan.

Buxoro xonligida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan urug'lardan yana biri *naymanlar* hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, XVI-XIX asrlarda yozilgan asarlarning barchasida ushbu etnonim uchraydi. Naymanlar Shayboniyxon davrida, ayniqsa Abdullaxon II tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlarda faol ishtirok etganlar. Ular xon saroyida ham yuqori lavozimlarni egallaganlar.

Buxoro xonligida Ashtarxoniylar davrida kuchaygan etnoslardan yana biri bu *ming* urug'idir. Bu davrda minglar o'troq va yarimko'chmanchi holda yashab, ularning asosiy qismi Buxoroning Shibirg'on, Kelif, Maymana, Samarqandning Urgut, O'ratepa hududlarida yashaganlar.

Buxoro xonligining Buxoro, Qorako'l, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Sherobod hamda Balxning chegara hududlarida *saroy* urug'i yashagan. Ular ham xonlikning yuqori mansablarida – devonbegi, qushchi, miroxo'r kabi lavozimlarda bo'lganlar.

Xonlik tasarrufidagi Hisor, Xo'jand, Andijon, Toshkent, Sayram, Turkiston, Ulug'tog' etaklari, Zarafshon vodiysi, Jizzax va O'ratepa shaharlari atroflarida *yuzlar* yashaganligi ma'lum. Xonlik hududida yashagan yuzlar o'z o'rnida ko'plab mayda qavmlarga bo'lingan.

Shuningdek, Buxoro xonligining Buxoro, Balx, Kulob hududlarida *qatag'on* urug'i, Termiz, Samarqand, Balx, Amudaryo bo'ylarida, Guzor, Boysun, Kerki, Sherobod tomonlarida *qo'ng'irotlar*, Qoraqurum, Chorjo'y, Toshkent, Shaxrisabz, Isfara, Qoratorov chegarasigacha bo'lgan dasht hududlarda *qalmoqlar*, Amudaryo bo'ylarida va Kasbi, Qorako'l, G'uzor, Nurota hududlarida *turkmanlar* va xonlikning bir qancha hududlarida *qipchoqlar* yashaganligi haqida o'sha davr yozma manbalarida ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoro xonligi hududida *turklar* ((o'g'iz) Usmoniy turklar), *hindlar*, *ruslar* va *eronliklar* ham yashagan. Aslida ular turli davrlarda turli sabablarga binoan xonlik hududiga kelib joylashib qolganlar. Ushbu etnik guruhlar odatda kam sonli bo'lgan.

XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Dashtiqipchoqdan Movoraunnahr va Xorazm vohasiga ko'chib kelgan o'zbek urug'lari mintaqa aholisining etnik tarkibini yanada rang-barang bo'lishiga olib kelgan. Ayniqsa, XVI asr boshlaridan e'tiboran Xorazmga, shu jumladan Xivaga Shayboniy o'zbeklari ko'plab kelib joylashganlar.

1512- yilda Elbarsxon asos solgan Xiva xonligi aholisining etnik tarkibida dastlab *naymanlar*, *uyg'urlar* va *do'rmonlar* ko'pchilikni tashkil etgan.

Abdulg'oziyning o'sha mashxur "Shajarayi turk" asari va boshqa manbalarda qayd etilishicha, XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, mazkur

qabilalardan tashqari shimoli-sharqdan, Sirdaryo quyi oqimi tomonidan Amudaryo havzasiga Dashtiqipchoq o'zbeklarining yangi to'liqini kela boshlaydi va kelayotganlar hisobiga qo'ng'iroq, qipchoq, qang'li va mang'itlar soni ancha ko'paygan.

Ko'chib kelgan Dashtiqipchoq o'zbek urug'-qabilalari orasida doimo yaylov va serunum yerlar uchun urushlar bo'lib turgan. XVII asrga kelib ushbu o'zaro urushlarga barham berish maqsadida Xiva xonligining hukumdori Abdulg'oziy 1646- yili mamlakatda islohot o'tkazib, Amudaryoning quyi havzalarida yashovchi o'zbek qabilalarini to'rt guruhga quyidagi tartibda birlashtiradi:

1) uyg'ur va naymanlar; 2) qo'ng'iroq va qiyotlar 3) nukuz va mang'itlar; 4) qang'li va qipchoqlar. Ushbu guruh (to'p)larga u yana 14 ta mayda urug'larni ham birlashtirdi. Bulardan jaloyir, ali-elilar qiyotlarga, kenegaslar nukuzlarga, xo'ja elilar mang'itlarga, do'rmonlar, yuzlar, minglar uyg'urlarga, saidlar naymanlarga qo'shilgan. Poytaxt Xiva atrofida, barcha asosiy qabilalarning vakillari uchraydi, ayniqsa qo'ng'iroq, do'rmon va naymanlar ko'proq joylashgan edi [3: 170].

Abdulg'ozixon tomonidan amalga oshirilgan ushbu tadbir Xiva xonligiga bag'ishlangan deyarli barcha tadqiqotlarda qo'rsatib o'tilgan va unga davlatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalar yuzasidan baho berilgan.

Tadqiqotchilar yuqorida ko'rsatib o'tilgan urug'-qabilalarni bir guruh(to'p)ga birlashtirilishi va Amudaryo bo'ylab joylashtirish quyidagi tartib asosida amalga oshirilgan deb hisoblaydilar:

a) qabila va urug'larning asosiy mashg'uloti hamda turmush tarzining o'ziga xosligi; b) ularning xon qo'shiniga navkar yetkazib berish majburiyatidan kelib chikib; v) siyosiy -harbiy ittifoqchiligi; g) xonlik hayotida egallagan mavqeiga qarab [6: 47].

Ushbu tadbir natijasida guruh (to'p)larga bo'lingan urug'lar Amudaryo bo'ylab quyidagicha joylashtirilgan: naymanlar Pitnoqdan to Yangi Ariq va Urganchgacha bo'lgan Hazorasp hududlarini egallagan. Amudaryo bo'ylab naymanlardan pastroqda Urganch shahridan to Gurlan tumanigacha va Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda uyg'urlar joylashgan. Mang'itlar esa Gurlandan to Lavzan irmog'igacha o'rnashdilar. Ulardan pastroqda daryo oqimi bo'ylab hamda daryoning Orol dengiziga quyilishi atroflarida nukuzlar va mang'itlarning yana bir qismi o'rnashdilar.

Deltaning butun g'arbiy qismi, ya'ni Quyg'unning g'allachilik qilinadigan boy yerlarini qo'ng'iroq va qiyotlar egalladilar.

Amudaryoning chap qirg'og'idagi hozirgi Qipchoq tumanining bir qismi, Xo'jako'ldan Ko'k O'zakkacha bo'lgan Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi barcha yer va yaylovlar, shuningdek, deltaning sharqiy qismidagi yerlar qang'li-qipchoqlarga qarashli edi [6: 48].

Ko'rinib turibdiki, xonlik xududidagi barcha sug'oriladigan yerlarga daryo bo'ylab o'zbek urug'lari joylashgan edi.

Taniqli arxeolog olim Ya. G'ulomov ham Xorazim vohasining sug'orish tizimida uchraydigan atamalarni etnografik ma'lumotlar bilan solishtirib, ularni bir guruhi etnonimlar asosida tashkil topganligini ta'kidlab, bir qator urug' va

qabilalarning kanal va daryo irmog'i bo'ylab quyidagicha joylanganligini ko'rsatadi: Suvonli qanali u yerda joylashtirilgan urug' nomi bilan Xo'jayli kanali deb atala boshlagan. Omonquli qanali – kenegas, Otaliq kanali – Mang'it ariq va bir qancha kanallar esa birdaniga u yerda joylashgan qangli, qipchoq, uyg'ur, nayman, nukuz, xizr eli, boshqird kabi urug'larni nomi bilan atalgan [6: 49].

Mavjud manba va amalga oshirilgan tadqiqotlarda Xiva xonligi (umuman, O'rta Osiyo) aholisi etnik jihatdan ikki katta guruhga ajratilgan. Bular azaliy o'troq aholi va yuqorida ko'rib chiqilgan ko'chib kelgan urug'-qabilalar.

Xiva xonligining shahar va qishloqlarda yashagan o'troq aholisiga nisbatan manba va adabiyotlarda "sart" atamasi qo'llanilgan. Aholini bu qismi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan. "Sart" atamasi, uning paydo bo'lishi, etnik xususiyat kasb qilish yoki qilmaslik masalasiga doir baxs-munozaralar bugungi kunda o'z yechimini topmagan. Bu haqida keyinroq, batafsil to'xtalib o'tamiz.

XVI – XIX asrlarda Xiva xonligi hududida o'troq, ko'chmanchi, yarimko'chmanchi o'zbek urug'-qabilalardan tashqari turli sabablar bilan qo'shni hududlardan bu joyga ko'chib kelib qolgan bir necha etnik guruhlar ham yashar edilar. Bu o'rinda *turkman* qabilalarini aytib o'tish joiz.

Abdulg'oziyning "Shajarayi turk" asarida Xorazm sultonlariga tobe bo'lgan Kuratog' etaklarida yashab turgan turkmanlarning taka, yovmut, ersari, solut, soriq, ichki solur, xasan eli, igdir, chovuldi (chovdir), arabachi, ko'klan(cho'klan), adoqli kabi etnonimli qabila va urug'lar keltirib o'tilgan [1: 124, 126-127]. Bundan tashqari, manbalarda "toza qo'ng'irotlar" etnonimi uchraydi. Xiva xonligi aholisi etnik tarkibida orolliklar va qoraqalpoqlar alohida o'rin tutadi.

Orolliklar Qo'ng'irot shahri va uning atroflarida joylashgan bo'lib, g'alla yetishtirish, chorvachilik va baliq ovlash bilan shug'ullanganlar.

Qoraqalpoqlar Amudaryoning etaklari, Xo'jayli, Orol dengizi bo'ylarida istqomat qilganlar. Ular ham chorvachilik, qisman g'allachilik bilan shug'ullanganlar. Asosan ko'chmanchi turmush tarzida hayot kechirganlar. Xiva xonligi hududida yashagan qoraqalpoqlarning quyidagi urug'larining nomlari manbalarda keltirilgan: xitoy, qo'yun (qo'yun-xitoy), orolboy (orlboy xitoy), beshsari, qirq (qirq xitoy), anna, oytaka, charuvchi (sharuvchi), qazayoqli, qaychili, shayx beklari, qipchoq, qangli, keze, qiyot, qo'ng'irot, qora-to'yin, xandakli, yabu-qipchoq yoki jobu, yobu. Ushbu urug'lar arxiv xujjatlarida Aris-o'n to'rt urug' deb atalgan urug'-qabila birlashmasi tarkibiga kirganligi qayd qilingan.

Turkmanlar Tashauz, Iloli, Ko'hna Urganch shaharlarida yashaganlar. Yuqoridagilardan tashqari, Xiva xonligi hududida eroniy va rus asirlari ham yashaganliklari tarixiy manba hamda adabiyotlarda aytib o'tiladi.

Tarixdan ayonki, XVIII asr boshlariga kelib Farg'onada yangi o'zbek davlati – Qo'qon xonligi tashkil topdi. Mazkur davlat XIX asrda chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Tarixga Qo'qon xonligi nomi bilan kirgan bu davlat o'zbek davlatchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. Biz bu yerda Qo'qon xonligi aholisining etnik tarkibi haqida ma'lumot berishni joiz deb bildik.

Ma'lumki, Farg'ona vodiysi va unga tutash hududlar aholisi azaldan polietniklik xususiyati bilan O'rta Osiyoning boshqa hududlaridan ajralib turgan. Bunday etnik o'ziga xoslilik Qo'qon xonligi davrida ham saqlanib qolingani edi.

Qo'qon xonligi hududida asosan o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, uyg'urlar va qoraqalpoqlar istiqomat qilganlar. Bundan tashqari xonlik hududida son jihatidan kamroq bo'lsada yevreylar, tatarlar va boshqa shu kabi etnik jamoa vakillari ham yashar edilar.

Qo'qon xonligi aholisining asosiy qismini o'zbeklar tashkil qilgan. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, o'tmishda o'zbeklarning bir qismi o'troq, qolgan qismi esa yarimo'troq (yarimko'chmanchi) holda yashaganlar. XX asr boshlariga kelib, vodiy o'zbeklarining 828 mingdan ziyodrog'i o'troq holda yashab [5: 62], dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lganlar. Rus tilidagi adabiyotlarda aholining ushbu o'troq qismiga nisbatan "sart" etnonimi qo'llanilgan. Biroq o'zbek xalqiga nisbatan ushbu etnonimni qo'llanilishi to'g'ri emas [2: 17-20]. Bu xususida keyinroq batafsil to'xtalib o'tamiz.

Turli urug'-qabilaviy tuzilishga ega bo'lgan yarimo'troq (yarimko'chmanchi) o'zbeklarning Qo'qon xonligidagi umumiy soni o'sha davr ma'lumotlariga ko'ra 215 ming nafardan ko'proqni tashkil etgan. Bular ichida turk, ming, qipchoq, qurama, yuz, nayman kabilar Qo'qon xonligi hududidagi yirik etnografik guruhlar hisoblangan. Ushbu urug'-qabilalar o'zbek xalqini konsolidatsiyalashuvda muhim etnik komponentlar sifatida qatnashganlar. O'z o'rnida ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Qo'qon xonligi hududidagi aholining salmoqli qismini tojiklar tashkil qilganlar. Ular asosan vodiyni g'arbiy va shimoli-g'arbiy qismida joylashganlar. Tojikistonning hozirgi So'g'd viloyati hududida tojiklar aholining asosiy qismini tashkil etganlar. Ayni vaqtda Qo'qon xonligining boshqa bir qator manzilgohlarida ham ular g'uj yashaganlar.

Etnografik adabiyotlarda Farg'ona vodiysida yashagan tojiklar shartli ravishda ikki guruhga – voha tojiklari va tog'lik tojiklarga ajratiladi. Voha tojiklari – bu ushbu o'lkaning azaliy xalqlaridan biri bo'lib, qator etnik xususiyatlari bilan Qo'qon xonligi davrida va undan keyingi davrlarda ham boshqa etnoslardan ajralib turgan.

Tog'lik tojiklar esa Qo'qon xonligi hududiga asosan Tojikistonning tog'lik hududlarida joylashgan Matcho, Qorategin, Darvoz, Kulob, Xisor kabi aholi manzilgohlaridan ko'chib kelganlar.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, ko'plab tog'lik-tojiklar Qo'qon xonligi qo'shinlarida xizmatda ham bo'lganlar. Masalan, Niyoz-Muhammadning "Tarix-i-Shaxruxiya" asarida ko'rsatilishicha XIX asr boshlarida Qo'qon xoni Olimxon tashkil etgan yangi qo'shin tarkibida 6000 dan ziyod tog'lik tojiklar bo'lgan.

Tarixiy manbalarni tahlili shuni ko'rsatadiki, XVII va XVIII asrlarda Tangritog' tog'ining shimolida yashovchi qirg'izlarning katta guruhi Farg'ona yerlariga kelib o'rtnashdilar.

Turli urug'-qabilaviy tuzilishga ega bo'lgan qirg'iz etnosi Qo'qon xonligi hududidagi tog' va tog'oldi manzilgohlarida yashab vodiyning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etganlar.

Tarixdan ma'lumki, XVIII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran, ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmida, Xitoy feodallariga qarshi ko'tarilgan musulmonlar qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragandan keyin Sharqiy Turkistonning ko'plab musulmon aholisi, xususan juda ko'p uyg'ur oilalari Farg'ona vodiysiga qochib o'tdilar.

XIX asrning o'rtalaridayoq Qo'qon xonligida 300 mingga yaqin uyg'urlar yashagan. Tadqiqotchi I.V.Zaxarova ham 1860- yilga qadar Qo'qon xonligi hududida 200-250 ming qashqarliklar yashagan bo'lsa kerak, deb hisoblaydi [4: 223].

XVIII asrdan Buxoro xonligida yuz bergan siyosiy inqiroz ko'plab xalqlarni bu hududni tashlab ketishga majbur etdi. Oqibatda Buxoro va Samarqandda yashagan aholining bir qismi Qo'qon xonligi hududiga ham kelib o'rnamashdilar. Xususan, oldingi sahifalarni birida aytganimizdek qalmoqlar taqibidan qochgan, Sirdaryoning o'rta oqimida yashab turgan qoraqalpoqlar Qo'qon xonligi hududiga kelib qo'nim topdilar. Qo'qon xonligi hududiga ko'chib o'tgan qoraqalpoqlar Sirdaryo va Qoradaryo bo'ylariga o'rnamashib, an'anaviy ho'jaligini yuritishni davom ettirdilar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т., 1992.
2. Алимова Д.А., Рашидова Д.А. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Тошкент, 1999.
3. Жабборов И. М. Антик маданият ва маънавият хазинаси. – Т., 1999.
4. Захарова И.В. Материальная культура уйгуров // СЭС. II. – М., 1959. – С. 223.
5. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенный по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. – СПб., 1911. Ч.1 Отд.1. - С.62.
6. Султонова Г.Н. Аллаева. Н.А. Махмудов Ш.Ю. Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демократик жараёнларнинг манбаларда акс этиши (XVI-XIX аср биринчи ярми). – Т., 2011.

К ИСТОРИОГРАФИИ ТЕМЫ О СУЩНОСТИ ТЕРМИНА “САРТ”

ON THE HISTORIOGRAPHY OF THE TERM ‘SART’ AND ITS MEANING

Лукашова Н.М.

*Кандидат исторических наук, доцент
Наманганский технический университет*

e-mail: Lukashova-nm@mail.ru

Tel: +998 93 941 59 48

Юсупов З.У.

*Кандидат исторических наук, доцент
Наманганский технический университет
e-mail: Zafar01@mail.ru
Tel: +998 90 218 01 80*

Аннотация.

На основе материала русской и советской историографии в статье дается характеристика дефиниции “сарт”, как она представлялась исследователям этнического развития коренного населения регионов Средней Азии в период завоевания Российской империи и более позднее время. Авторы статьи представляют большое разнообразие взглядов на данный термин и отсутствие устоявшейся точки зрения на данную проблему.

Abstract.

Based on the material of Russian and Soviet historiography, the article characterizes the definition of “sart,” as it was presented to researchers of the ethnic development of the indigenous population of the regions of Central Asia during the conquest of the Russian Empire and later. The authors of the article represent a wide variety of views on this term and the lack of an established point of view on this problem.

Ключевые слова.

Сарт, этнология, тюркоязычные, ираноязычные, оседлое население, кочевники, таджики, узбеки.

Abstract.

Based on the material of Russian and Soviet historiography, the article characterizes the definition of “sart,” as it was presented to researchers of the ethnic development of the indigenous population of the regions of Central Asia during the conquest of the Russian Empire and later. The authors of the article represent a wide variety of views on this term and the lack of an established point of view on this problem.

Keywords.

Sart, ethnology, Turkic-speaking, Iranian-speaking, settled population, nomads, Tajiks, Uzbeks.

Проблемы этнической истории народа всегда относились к числу малоисследованных. Но именно историю формирования своего народа, своей нации должен знать каждый образованный человек. Недаром, Первый Президент республики Узбекистан И.А.Каримов в интервью газете “Туркистон” подчеркивал, что “...нацию надо беречь, а для этого нужно изучать ее подлинную историю, хранить и оберегать ее”.(5,с.292)

При обращении к источникам и историографии, посвященным истории Среднеазиатских ханств периода завоевания их Российской империей немаловажное место в них нашли вопросы этнического развития коренного населения. В большинстве работ этого периода часто сталкиваешься с термином “сарт” в обозначении отдельных этнических групп коренного населения Узбекистана. В рамках этой статьи хотелось бы обратить внимание на некоторые взгляды по этому вопросу.

Один из русских исследователей конца XIX века В.В.Вельяминов-Зернов в своей работе, посвященной истории Кокандского ханства сартами называл таджиков.(3,с.109) Исследователь А.Л.Кун к сартам относил все оседлое население Кокандского ханства.(7,с.70) Н.А.Аристов предлагал

считать сартами оседлое тюркское и тюркизированное коренное население Сырдарьинской и Ферганской областей, которое утратило родовой быт и связанное с этим бытом родоплеменное деление.(1,с.431) Известный туркестановед Н.П. Остроумов посвятил этому вопросу свой труд и отмечал, что “сарты” в этнографическом отношении представляли смешанный тип, происшедший от слияния древнего ираноязычного населения Туркестана с позднейшими завоевателями и переселенцами тюрками и монголами.(11,с.51) Смысловая эволюция этнонима “сарт” была прослежена знаменитым востоковедом Бартольдом, который писал, что слово сарт индийского происхождения. Первоначально оно употреблялось тюрками в смысле “купец”. В период монгольского завоевания, сначала в форме “сартактай” и “сартазы”, стало обозначать вообще представителей мусульманской культуры, преимущественно иранцев, то есть употреблялось в том же значении, что и слово таджик. При узбеках, по мере тюркизации туркестанских иранцев, сартами стали называть оседлое население Туркестана, говорившее по- тюркски, в отличие от таджиков, сохранивших иранский язык... “так, сартами были одни персы, потом - персы и тюрки вместе. Потом – одни тюрки”.(2,с.162)

Еще один известный туркестановед - В.П.Наливкин в свою очередь высказывал предположение, что в древности название “сарт” мог носить какой-либо род или племя. Вместе с тем, для периода его наблюдений в Ферганской долине “сартами” называли как таджиков, так и узбеков, но только оседлое население, в противоположность кочевникам.(8,с.32-33) Вместе с тем, занимаясь лингвистическими изысканиями, сартовским языком В.П.Наливкин считал узбекский язык. Тому подтверждением считаются его многочисленные работы.(9) В.П.Наливкин также отмечал, что этноним “сарт” в обозначении оседлого населения употреблялся не только в Ферганской долине, но и по всей Средней Азии.(8,с.33)

Более поздние этнографические исследования локализовали местонахождение сартов долинами рек Чирчика и Ангрена, Ферганской долиной, областями по течению рек Карадарьи и Нарына, Хорезмом. В бассейнах же рек Заравшана, Кашкадарьи и Сурхандарьи термин “сарт” не получил распространение. Здесь оседлое население, в том числе, и тюркоязычное чаще называлось таджиками.(10,с.170) С последним высказыванием, на наш взгляд, трудно согласиться. В.П.Наливкин хронологически разграничил употребление термина “сарт”. Он писал, что в древности термином “сарт” называли всех переходивших к оседлому образу жизни кочевников-тюрков, независимо от их родоплеменной принадлежности. В период же наблюдений самого Наливкина, сартами стали называть узбеков, таджиков и даже переходивших к оседлому образу жизни киргизов.(8,с.32) Таким образом, термин потерял со временем этнический смысл.

Не внесли ясности в этот вопрос и представители советской историографии. Так. С.П. Токарев считал, что в бытовом употреблении

термином “ сарт” до наших дней обозначали не этническую, а социальную группу. “ Сарты, - писал он, - это оседлое, в частности, городское население на каком бы языке оно не говорило – таджикском или узбекском”.(14,с.346-347) В коллективном труде “Народы Средней Азии и Казахстана” этноним “сарт” обозначал, тот первоначальный пласт в этногенезе узбекского народа, который возник в результате тюркизации древних ираноязычных народов Средней Азии и характеризовался отсутствием родоплеменного деления.(10,с.170) Этой же точки зрения придерживались этнографы С.С.Губаева(4,с.18) и Р.Я.Рассудова.(12, с.150) По мнению Б.Х.Кармышевой, этноним “сарт” употреблялся для обозначения исконно оседлого городского и сельского тюркоязычного населения Средней Азии, не имевшего родоплеменного деления(6, с.171. Примечания)

Еще одну точку зрения по данному вопросу высказал в своем исследовании Х. Рахматиллаев, который, исследовав изменения в этнической структуре населения Ферганской долины в советский период, отмечал, что “сарты”, по его мнению, представляли собой группу с недостаточно четким этническим самосознанием. Среди них, наряду с лицами, близкими узбекам, могли быть и лица таджикского происхождения.(13,с.130)

Таким образом, и в советской этнологической литературе не сложилось общепринятой точки зрения на значение дефиниции “сарт”. Данная проблема ждет своего исследователя в современной этнологической науке.

ЛИТЕРАТУРА. (REFERENCES)

- 1.Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. – Живая старина. – СПб., 1896. Вып. I.
- 2.Бартольд В.В. История Туркестана. Соч. М., Наука, 1963. Т. II. Ч. 1.
- 3.Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве. – Вестник РГО. – СПб.,1856. Ч. XVIII. Кн. 5. Отд. 2.
- 4.Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX-начале XX вв.: (по данным топонимии).- Ташкент, 1983.
- 5.Каримов И.А. Свое будущее мы строим своими руками. Соч. Т. 7. –Ташкент. 1999.
- 6.Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы. – Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки.- М., 1986.
- 7.Кун А.А. Очерк Кокандского ханства. – Известия РГО. СПб.,1876. Т. XII.
- 8.Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. - Казань. 1886.
- 9.Наливкин В.П.,Наливкина М.В. Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов, с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда. – Казань. 1884. ; Их же. Грамматика сартовского языка Андижанского наречия. - Казань. 1884.; Наливкин В.П. Сартовско-персидская хрестоматия с приложением примеров для перевода с русского на сартовский и персидский языки. – Ташкент.1887.и другие.
- 10.Народы Средней Азии и Казахстана. Этнографические очерки.- Т. 1 .- М.1962.
- 11.Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. – Ташкент.1908.
- 12.Рассудова Р.Я. Естественные условия и система хозяйственно-социальных отношений в позднефеодальный период в истории народов Средней Азии. – Л.,1984.

13.Рахматиллаев Х. Изменение в этнической структуре населения городов узбекской части Ферганской долины за годы советской власти. – Советская этнография. 1988. № 6.

14.Токарев С.П. Этнография народов СССР. М.,1978.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA BUXORO AMIRLIGIDA YASHAGAN TOJIK, ARAB, O‘ZBEK URUG‘LARI

**ТАДЖИКСКИЕ, АРАБСКИЕ И УЗБЕКСКИЕ ПЛЕМЕНА, ЖИВШИЕ В
БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА**

**TAJIK, ARAB, AND UZBEK CLANS LIVING IN THE BUKHARA
EMIRATE IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY.**

Safarov Tolib Todjievich

*Buxoro davlat texnika universiteti ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti
Safarvtolib407@gmail.com*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi hududida istiqomqt qilgan tojik, arab hamda o‘zbek urug‘larining qisqacha umumiy tavsifi hamda ushbu etnoslar va ular bilan bog‘liq etno-siyosiy jarayonlar haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Аннотация.

В данной статье рассматривается краткая общая характеристика таджикских, арабских и узбекских племен, проживавших на территории Бухарского эмирата во второй половине XIX века, а также этнополитические процессы.

Abstract.

This article provides a brief general description of the Tajik, Arab, and Uzbek tribes that inhabited the territory of the Bukhara Emirate in the second half of the 19th century, as well as reflections on these ethnic groups and related ethno-political processes.

Kalit so‘zlar.

O‘zbek, Tojik, Arab, Mang‘it, to‘q mang‘it, oq mang‘it, qora mang‘it, qo‘sh tamg‘ali, yak tamg‘ali

Ключевые слова.

Узбек, таджик, араб, мангыт, темный мангыт, белый мангыт, черный мангыт, с двойным тамгой, с единым тамго.

Key words.

Uzbek, Tajik, Arab, Mangit, dark Mangit, white Mangit, black Mangit, double tamga, single tamga.

Buxoro xonligi tashkil topgan davrdan boshlab uning aholisi tarkibiga kiruvchi qabilalarning aksariyatini faqat bir din negizida birlashgan eng turli-tuman qabila urug‘lardan iborat ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Aslini olganda, bu boshqacha bo‘lishi ham mumkin emasdek. Rim imperiyasini qulatib, Yevropa qiyofasini butunlay o‘zgartirgan xalqlar ommasi harakat qilgan ulkan yo‘lning boshida joylashgan bu xonlik ular to‘xtab hordiq chiqargan sarzamin hisoblanadi. Shuning uchun ularning har biri bu yerda o‘chmas iz qoldirganiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Xonlikning tub aholisi tojiklar bo‘lib, ularning kelib chiqishi va bu

yerga kelish vaqti noma'lum. Biz faqat Narshaxiyning kitobidan bilamizki, ular G'arbdan Zarafshonga kelganlarida, u yerda hech kim yashamagan. Qalin qamishzorlar hozirgi Buxoro o'rnini qoplab, yovvoyi hayvonlarga makon bo'lgan [1]. Tojiklar birinchi bo'lib uning qirg'oqlarini o'zlashtira boshladilar va o'sha paytda hali ko'p bo'lgan suvlarini dalalar va bog'larni parvarish qilishga ishlatdilar. Agar o'sha paytdagi bu o'lkaning gullab-yashnagan manzarasiga ishonilsa, ularning mehnatsevarligi haqida yuqori darajadagi fikrga bo'lish tabiiy holdir. Biroq, taqdir ularga o'z mehnatlarining samarasidan tinch foydalanishni nasib etmadi. Arablar tomonidan ushbu hududlarning fath qilinishi natijasida VIII asrdan boshlab bu erlarda asta-sekinlik bilan islom dini asosiy e'tiqod manbaiga aylana boshladi [2]. X asrdan boshlab Somoniylar davlatchiligi qaror topdi. Ammo X asr oxirida ularning zaiflashgan hokimiyati o'zbeklar tomonidan butunlay ag'darildi. Biroq, bular ham uzoq turmadi - XII asrda bu hududlarda qaror topgan Xorazmshohlar davlati mo'g'ul qo'shinlari bosqini natijasida emirildi. Chingizxon vayronkor bosqinchilik yurishlari natijasida shahar masjidlarini otxonalarga aylantirdi, uni bezab turgan barcha binolardan faqat qal'anigina qoldirdi.

Mo'g'ullar tomonidan Sirdaryo ortidagi shimoliy cho'llarga siqib chiqarilgan o'zbeklar Buxoro xonligiga da'vo qilishdan to'xtamadilar va sekin-asta unga yaqinlashib, Chingiz vorislarining mulklarini egallay boshladilar. Ularning bu hududlarga ta'siri shunchalik kuchaydiki, XIV asrda Amir Temur ularni u yerdan kuch bilan quvib chiqarishga, ajdodlar merosini qaytarib olishga va zabt etish orqali uni dunyoning eng yirik markazlashgan davlatga aylantirishga muvafaq bo'ldi. XV asr oxiridan boshlab O'zbeklar yana Movarounnahrni egallab, hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, turli tarixiy jarayonlar Buxoro xonligidagi etno-siyosiy holatning o'zgarishiga tabiiyki o'z ta'sirini ko'rsatib turgan. XIX asrning o'rtalarida xonlik aholisi quyidagi qabilalardan iborat ekanligi e'tirof etiladi [3].

Tojiklar. Bu Buxoro xonligining tub aholisidan juda oz qolgan, ular asosan Buxoro shahrining aholisini tashkil etadi, boshqa shaharlarda esa umuman yo'q yoki juda kam uchraydi. Ularning asosiy kasbi savdo-sotiq bo'lib, tinchliksevar tabiatlariga ko'ra, qo'rqqoqlik deb aytmaslik uchun, harbiy jasoratlardan o'zlarini chetga oladilar. Xarakterlarining o'ziga xos xususiyatlari xasislik, yolg'onchilikka moyillik va so'zida turmaslikdir. Ular ko'pincha o'g'irlik, mayda firibgarlik, so'z bilan haqoratlash va kamdan-kam hollarda kaltaklash kabi jinoyatlarga qo'l uradi, ammo hech qachon qotillik qilmaydilar, chunki bunga yuraklari dosh bermaydi. Yuz tuzilishlari chiroyli va kelishgan, bo'ylari ko'pincha baland, terilari oq, sochlari va ko'zlari deyarli doim qora. Kiyinishda Qur'on ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilsalar-da, o'zbeklarnikiga qaraganda ancha nafisroq ko'rinadi. Uy-ro'zg'or turmushlarida ham nafislik ko'proq seziladi. Muomalalari muloyimlikdan ham o'tib, xushomadgo'ylikka aylanadi, ayniqsa suhbatdoshlariga muhtoj bo'lsalar. Boshqalarni maqtab, o'zlarini ham unutmaydilar. Buxoro haqida gap ketsa uni ko'klarga ko'tarib maqtashni yaxshi ko'radilar [4].

Arablar. Bu xalq tojiklarga qaraganda biroz ko'proq, ammo katta qabilani tashkil etmaydi. Ular xonlikning shimoliy hududlarida tarqoq holda yashaydi,

ko'proq Varzondze va Samarqand atroflarida uchraydi. Ular ajdodlarining ko'chmanchilik an'anasini hali ham saqlab qolishgan, faqat bu yerdagi noqulayroq iqlim tufayli chodirlarini o'tovlarga almashtirishga majbur bo'lishgan. Juda oz qismi o'troqlashgan, ular ham savdo ishlari tufayli shunday qilishga majbur. Yuz tuzilishlari kelib chiqishlarini oshkor etadi: ko'zlari ko'pincha katta va sochlari singari qop-qora, terilari quyosh ta'sirida kuchli qorayadi, shuning uchun ko'pchiligi butunlay qoramag'iz. O'zaro arab tilida so'zlashadilar, ammo bu sof arab tili emas. Asosiy mashg'ulotlari qo'ychilik bo'lib, xonlik bozorlariga ko'p miqdorda kulrang va qora qo'zichoq terisi yetkazib beradilar. Manbalarida ularning axloqiy jihatdan tojiklardan ancha yuqori turgishi yozilsada, lekin Buxoroliklar ularni faqat muomalada biroz qo'polliklari va dunyoviy odob-axloq qoidalarini bilmasliklari uchun ayblashadi. Ammo bu kamchiliklar shundan iboratki, ular tojiklar kabi xushomadgo'ylik bilan hech kimni bezovta qilmaydilar.

O'zbeklar. Bu qabila, shubhasiz, Buxoro xonligida son jihatidan emas, balki birlik jihatidan ustunlik qiladi. Ular xuddi qirg'izlarga o'xshab urug'larga bo'linadi, oqsoqollari va biylari bor bo'lib, ular o'z urug'ida ma'lum hurmatga ega. Manbalarda o'zbeklarga tegishl urug'-qabilalar to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib ularni quyidagi guruhlarga bo'linganligiga guvoh bo'lish mumkin: To'q mang'it, Oq mang'it, Qora mang'it [5].

1) Mang'it 2) Ming 3) Yuz 4) Qirq 5) O'ng 6) O'ng'achit 7) Jaloyr 8) Saroy 9) Qo'ng'iro't I.Qanjag'ali 1) O'rus 2) Qoraqursak 3) Cho'llik 4) Quyon 5) Qo'ldovli 6) Miltiq 7) Qurtig'i 8) G'alcha 9) To'ppqora 10) Qora 11) Qorabura 12) No'g'ay 13) Bilkalik 14) Do'stlik II.Oyinli 1) Oqtana 2) Qora 3) Cho'ron 4) Turkman 5) Ko'k 6) Beshbola 7) Qoraqalpoq 8) Qochoy 9) Hojibachcha 6) Miltiq. 7) Qurto'g'i. 8) Galya. 9) Tup-kara. 10) Jazo. 11) Qorabura. 12) No'g'ay. 13) Bilqyalik. 14) Dustnik. II.Oinli 1) Oq-Tana. 2) Kara. 3) Churan. 4) Turkman. 5) Quuk 6) Bishbala 7) Qoraqalpoq 8) Kachay.

III. Qo'sh tamg'ali 1) Qo'labi 2) Barmoq 3) Ko'jaxo'r 4) Ko'l 5) Cho'birsak 6) Qoraqalpoq-qo'shtamg'ali 7) Safarbak 8) Dilbari 9) Chechakli 2) Barmaq 3) Kujaxur 4) Kul 5) Chubursak 6) Qoraqalpoq-Qo'shtamg'ali 7) Syafarbak 8) Dilbari.

IV. Yak tamg'ali 1) Tortuvli 2) Og'amayli 3) Ishqali 4) Qiziljili 5) Uyuvli 6) Bo'qajli 7) Qayg'ali 2) Aga-Mayli. 3) Ishiqali. 4) Qizin-Jili. 5) Uyg'uli. 6) Bukadjili.

V. Qir 1) Jo'zili 2) Ko'savli 3) Tirish 4) Baliqli 5) Quba 2) Kusyauli. 3) Tirz. 4) Baliqli.

10) Olchin 11) Arg'in 12) Nayman 13) Qipchoq 14) Chechak 15) O'yrot 16) Qalmoq 17) Qart 18) Bo'rloq 19) Bo'slak 20) Samarchin 21) Qatag'on 22) G'alachi 23) Kenagaz 24) Bo'tryak 25) O'zoy 26) Qobat 27) Xitoy 28) Qang'li 29) O'z 30) Cho'plikchi 31) To'pchi 32) O'tarchi 33) O'poqchi 34) Jo'lun 35) Jid 36) Juvut 37) Chiljuvut 38) Bo'ymovut 39) Uymovut 40) Arlot 41) Keroit 42) Ung'ut 43) Qang'it 44) Xalovot 45) Masit 46) Murqut 47) Burqut 48) Qo'ralos 49) O'g'lon 50) Qori 51) Arab 52) Elchi 53) Jo'yilg'on 54) Qishlik 55) Gado 56) Turkman 57) Durman 58) Tabin 59) Tama 60) Rindon 61) Mo'min 62) Yushun

63) Beruy 64) Hofiz 65) Qirg'iz 66) Yuruchi 67) Jo'yrat 68) Bo'zachi 69) Sixtiyoq 70) Batosh 71) Yag'rini 72) Sho'ldur 73) To'may 74) Tilav 75) Qirdar 76) Qirqin 77) O'g'lon 78) Go'rlat 79) Ig'lon 80) Jimboy 81) Chilkas 82) Uyg'ur 83) Og'ir 84) Yobu 85) Narg'il 86) Yuzak 87) Qaxit 88) Nochor 89) Qo'jalik 90) Bo'zon 91) Shirin 92) Bahrin 93) To'ma 94) Niko'z 13) Qipchoq 14) Chichak 15) Uyrot 16) Qalmoq 17) Qart-u 18) Burloq. 19) Buslak 20) Samarchin 21) Qatag'on 22) Galachi 23) Kinyagaz. 24) Butryak. 25) Uzoy. 26) Qabat. 27) Xitoy. 28) Qang'li. 29) Uz. 30) Chuplyachilar. 31) Tupchi. 32) O'tarchi. 33) Pufakchilar. 34) Julun. 35) Jid. 36) Juut. 37) Chil-juyt. 38) Buy-maut. 39) Uy maut. 40) Aralat 41) Kireit, 42) Ungut. 43) Qangit. 44) Halovat. 45) Masad. 46) Murkut. 47) Berkuut. 48) Kuralas. 49) Uglyan. 50) Qarilar. 51) Arab. 52) Ilovchi. 53) Julagan. 54) Qishloq. 55) Geda. 56) Turkman. 57) Do'rmon. 58) Tabin. 59) Tama. 60) Rindon. 61) Mo'min. 62) Yuyshun. 63) Ol. 64) Hofiz. 65) Qirg'iz. 66) Yuruchi. 67) Jo'yrat. 68) Bo'zachi. 69) Sixtian. 70) Byatash. 71) Yag'rinar. 72) Shuldur. 73) Tumay. 74) Tleu. 75) Qir-dar. 76) Qirqin. 77) Uglan. 78) Gurlat. 79) Iglan. 80) Jimebay. 81) Chilqos, 82) Uyg'ur. 83) Ag'ir. 84) Yabu. 85) Narg'il. 86) Yuzak. 87) Kaxeta. 88) Nachar. 89) Kujalik. 90) Buzan. 91) Shirin. 92) Yashirin. 93) Tyumya. 94) Nikuz. 95) Mug'ul. 96) Kayaan. 97) Tatar [6].

Yuqorida sanab sanab o'tilgan urug'-qabilalardan Buxoro xonligida quyidagi 28 ta qabila mavjud bo'lib ularni ma'lum bir hududlar bo'ylab joylashganligiga guvoh bo'lish mumkin. Mang'itlar, ularning bir qismi Qarshi atrofida, boshqa qismi Buxoro atrofida alohida-alohida ko'chmanchilik qiladi. Ko'pchiligi, ayniqsa urug' oqsoqollari, yuqorida tilga olingan ikki shaharda o'troqlashib qolgan. Xitoylar Buxoro va Karmana oralig'ida ko'chib yuradi. Naymanlar Ziyovuddin atrofida ko'chmanchilik qilib, uning hokimiga birinchi navbatda bo'ysunadi. Qipchoqlar Katta Qo'rg'on va Samarqand oralig'ida ko'chib yuradi. Saroylar Samarqanddan Qarshiga boradigan yo'l yaqinida ko'chmanchilik qiladi. Qo'ng'irotlarning bir qismi Qarshi shahrida o'troq yashasa, boshqa qismi Qarshi va Shahrisabz tog'lari oralig'ida ko'chib yuradi. Turkmanlar Amudaryo bo'ylab ko'chib yuradi va qisman uning qirg'oqlaridagi qishloqlarda o'troq yashaydi. Avralatlar Qarshi va Buxoro oralig'ida ko'chmanchilik qiladi. Bo'zachilar Qarshi yo'lidagi Bo'zachi mavzei bilan Buxoro oralig'ida ko'chib yuradi. Do'rmonlar G'ijduvon va uning atroflarida o'troq yashaydi. Yabuning bir qismi Buxoro tumanining janubiy qismida o'troq yashasa, boshqa qismi Miyonqolda xitoy va nayman urug'lari bilan birga ko'chib yuradi. Juutlarning bir qismi Amudaryo bo'yida o'troq yashasa, boshqa qismi turkmanlar bilan birga ko'chmanchilik qiladi. Byatashlar umuman ko'chib yurmaydi; ular Buxoro tumanida o'troq yashaydi. Byagrinlar Miyonqolda boshqa qabilalar bilan aralashib ko'chib yuradi. Qirq, O'ng, Ungait, Qalmoq, Qatag'on, Galcha, O'zoy, Chiljuut, Kireit, Go'rlat, Yunxun, Uyg'ur, Tatar singari urug'larning manbalarda yashash joylari haqida ma'lumotlar berilmagan. Buning sababi esa ma'lumot yo'qligi, qisman esa ayrim urug'larning alohida ko'chib yurmasligi, yoki yuqorida tilga olingan urug'lardan biriga qo'shilishi jumladan xonlikning shaharlarida o'troq yashashlari qayd qilingan [7].

Yuqorida aytib o'tilgan urug'lardan tashqari, quyidagi nomlarni ham tez-tez eshitish mumkin: Boshqa urug'lar bilan tarqoq holda ko'chib yuruvchi chig'atoylar. Buxoroda o'troq yashovchi aymoqlar. Qarshida o'troq yashaydigan qarluqlar. Qarshi atrofida ko'chib yuruvchi qavchinlar va nihoyat, qurama, ularning ko'chib yurish joylari to'g'risidagi ma'lumotlar aniq emas [8].

O'zbeklar tashqi ko'rinishi bilan mo'g'ul qabilalariga juda o'xshab ketadi. ammo umuman olganda, ko'zlari kattaroq va yuz tuzilishi biroz chiroyliroq, bo'ylari asosan o'rtacha, soch-soqollarining rangi sariqdan to qoramag'izgacha o'zgarib turadi, qora sochlilari esa juda kam uchraydi. Ularning kiyimlari juda oddiy bo'lib, ko'pincha olacha yoki armyak choponlardan iborat, boshlariga o'zlari tayyorlagan va odatda qizil bo'yoq bilan bo'yalgan dag'al shol ro'mol o'rashadi. Ko'pchilik ularni umuman bo'yamaydi va shu bois kir oqish rangda qoladi. Turmush tarziga ko'ra ularni o'troq, ko'chmanchi dehqonlar va ko'chmanchilarga bo'lish mumkin. Qaysi urug'lar asosan yuqorida aytib o'tilgan toifalarga mansub ekanligini aniq aytish qiyin, chunki barcha urug'lardan ham shahar aholisi, ham ko'chmanchilar mavjud. Ularning o'troq hayoti tojiklar bilan o'xshash, garchi o'zbeklarning uy-ro'zg'orida ko'proq nafislik seziladi. Buni ular savdo-sotiq ishlari bilan boradigan rivojlangan davlatlardan beixtiyor o'zlashtirib olganlar [9].

Xulosa qilib aytganda, turli manbalarda bayon qilingan ma'lumotlarga asoslanilsa, Buxoro amirligi hududida turli urug'larga mansub xalqlar azaldan o'zaro iliq munosabatlarga asoslangan, ijtimoiy hamkorlik, manfaatli savdo-sotiq va tabiiyki madaniy qadriyatlar uyg'unligida istiqomat qilib kelganlar. Shuningdek, tarixiy manbalarda shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, mazkur urug'larning ba'zilar ko'chmanchi hayot tarzida yashganligiga e'tibor qaratilsa, ular o'troq hayot kechirgan xalqlar bilan o'zaro munosabatlarda ishonch, yaxshi va samimiy qo'shnichilik ruhi ustuvorlik qilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. XIX asr ikkinch yarmi va undan keyingi davrlarda Buxoroda juda ko'plab urug'lar istiqomat qilgan bo'lib, bu urug' va qabilalar amirlik hududida kechgan etnik o'zgarishlar natijasining mahsuli bo'lib, tarixning turli davrlarida kelib o'rnashganlar hamda umrguzaronlik qilib ijtimoiy-iqtisodiy, etno-siyosiy jarayonlarda ma'lum ma'noda ahamiyat kasb etganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб. 1843. – С. 183; Сборник сведений о Средней Азии и русском Туркестане.
2. Шаниязов К. Ш., Исмаилов Х. И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX- начало XX в. Издательство “Фан”. – Ташкент. 1981. – 64 с.
3. Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX в.(Позднефеодальный город и его население) Издательство “НАУКА” Главная редакция восточной литературы. – Москва.1966 – 182 с.
4. Аристов Н.А. Труды по истории и этническому составу тюркских племен / отв. Ред.акад. В.М.Плоских – Бишкек: Илим, 2003. – 460 с.
5. Кисляков Н.А. Патриархально-феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX в. Издательство Академии наук СССР. – Москва. 1962 – 168 с.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ОДЕЖДА – ЗЕРКАЛО ДУХОВНОСТИ

NATIONAL CLOTHING – A MIRROR OF SPIRITUALITY

Юсупов Аъзамжон Абдулладжанович

ФерМИОЗ, старший преподаватель кафедры “Общественные науки”, PhD.

e:mail: azam_1204@mail.ru,

тел.: +998 91 668 05 84.

Алиева Мухлисабону Баходиржон кизи

студентка группы 4024 Лечебного факультета ФМИОЗ,

e.mail: alievamukhlisabonu78@gmail.com

тел.: +998 99 986 80 01

Abstract.

The article is devoted to the Uzbek national dress which is considered to be very rich in cultural traditions and represents the way of life of our people. Nowadays, in our time, it is no longer uncommon to meet people in national dress in cities, today it is worn for traditional festive events, but in rural areas it still serves as part of everyday and weekend clothing.

Аннотация.

Статья посвящена узбекской национальной одежде которая считается очень богатой культурными традициями и представляет образ жизни нашего народа. Ныне в наше время в городах уже не редкость встретить людей в национальной одежде, сегодня ее надевают на традиционные праздничные мероприятия, но в сельской местности она по-прежнему служит частью повседневной одежды и одежды выходного дня.

Keywords.

Lifestyle, cultural traditions, Uzbek national clothing, cities, traditional holidays, countryside, casual and home clothing, chapan, doppi, trousers, shirt.

Ключевые слова.

Образ жизни, культурные традиции, узбекская национальная одежда, города, традиционные праздники, сельская местность, повседневная и домашняя одежда, чапан, доппи, брюки, рубашка.

Узбекские национальные костюмы очень яркие, красивые, удобные и являются частью богатых культурных традиций и образа жизни народа. В городах уже не редкость встретить людей в национальной одежде, сегодня ее надевают на традиционные праздничные мероприятия, но в сельской местности она по-прежнему служит частью повседневной одежды и одежды выходного дня.

Основой национального мужского костюма является чапан - стеганный халат, который повязывается поясным платком - киикча. Традиционным головным убором является тюбетейка. На тело надевается куйлак - мужская нижняя рубашка прямого покроя, и иштон - широкие брюки, сужающиеся к низу. Ноги обуты в сапоги из тонкой кожи. Парадные пояса часто бывают очень элегантными - бархатными или вышитыми, с серебряными узорными бляшками и пряжками. Повседневный куйлак подпоясывался длинным поясом, похожим на шарф.

Традиционный узбекский женский костюм состоит из платья простого покроя, похожего на тунику, из хан-атласа, а также шаровар. В праздничной одежде используется атласная ткань и богатая золотая вышивка. Женский головной убор включает в себя сразу три элемента: тюбетейку, шарф и тюрбан. Украшения из золота или серебра всегда были незаменимым дополнением к костюму узбекских женщин всех возрастов [1].

Узбекская одежда представляет собой традиционный стиль одежды, который носят узбеки. Она демонстрирует традиционную моду, присущую узбекским культурным традициям, и формирует один из основных культурных аспектов узбекской цивилизации. Узбеки носят два основных типа одежды: традиционную одежду, известную как традиционная узбекская одежда (по-узбекски - узбек миллий либослари) и западную одежду, которая включает в себя все остальное, что не признается ни национальной одеждой, ни одеждой другой страны.

Традиционная одежда мужчин включает в себя различные головные уборы, чаще всего тюбетейку, известную как доппи, длинное пальто, называемое чопон, рубашку, известную как яктак, традиционный пояс и свободные штаны. Головным убором мужчин служила чалма (салла), навернутая на тюбетейку или шапку (кулох). Чалму носили при выходах из дома как в торжественных случаях, так и во время работы, а также нередко и дома – в одной тюбетейке оставались редко. Зимой чалму могли заменить меховой шапкой, поверх которой чалма не наворачивалась.

Наиболее распространенной обувью были мягкие сапоги (махси), которые носили с галошами, кожаными или резиновыми, особого, “азиатского” фасона, широко распространившимися после присоединения Средней Азии к России. Летом ходили в одних галошах “на босу ногу”. Изредка носили сапоги на твердой подошве (муза), а зимой - сапоги особого вида (мукки) с мягкой, но толстой подошвой, загигавшейся наверх и пришитой к головкам сапогов. Эту обувь употребляли мужчины, которым приходилось долго находиться на холоде, например возики [2].

Женщины обычно носят одежду, закрывающую все тело, при этом наиболее распространенным нарядом являются яркие платья длиной до колен и свободные брюки, известные как лозим. По особым случаям мужчины надевают богато расшитые чопоны [3]. Обычно женщины одежду не подпоясывали. Опоясывание было обязательно лишь при совершении похоронных обрядов, причем в Самарканде подпоясывались не только женщины из семьи умершего, как, например, в Ташкенте, но и все женщины, пришедшие принять участие в похоронном обряде.

Мусульманский закон женского затворничества породил еще один вид верхней женской одежды, которую женщины надевали, выходя из дома, - паранджу с чачваном. Ее ношение являлось обязательным для каждой женщины и девушки начиная с того времени, когда ее можно было уже выдавать замуж [4].

В Бухаре, Самарканде, Хиве продаются чапаны, тюрбетейки, платья из адраса, которые пользуются огромной популярностью у туристов. Многие зарубежные дизайнеры вдохновляются узбекскими орнаментами и включают их в свои коллекции.

Узбекистан участвует в международных выставках моды, представляя национальные костюмы на мировом уровне. Это делает узбекскую национальную одежду известной за пределами страны и повышает ее ценность. Современные тенденции в моде делают акцент на экологичность и натуральность, а узбекская национальная одежда всегда была экологически чистой. Хлопок, из которого изготавливают ткани, выращивается в Узбекистане. Одежда шьется вручную, без использования синтетики.

Ручная вышивка и натуральные красители делают каждый наряд уникальным. В условиях глобального движения за устойчивую моду узбекская одежда становится особенно ценной. Узбекская национальная одежда не теряет своей ценности благодаря глубокой исторической значимости, сохранению семейных традиций, участию в обрядах и праздниках, поддержке со стороны государства, адаптации к современной моде, туристической популярности и экологичности. Она не просто продолжает существовать, но и становится важным элементом национальной идентичности, гордости и культурного наследия. Узбекистан успешно сочетает традиции и современность, делая свою национальную одежду востребованной и в будущем [5].

На лобное украшение бодомой (бодом - миндаль, ой - луна) состоит из лунообразного основания с тремя миндалинами, как бы поддерживаемыми изображениями луны, в центре расположена выпуклая деталь со вставками красных стекол или бирюзы каш. Нижний край бодом-ой завершался каскадом подвесок, состоящих из звеньев цепочек, трубочек-спиралей, кораллов, металлических листьев, бутонов и зерен, как и в других украшениях. О способе ношения бодом-ой существуют разные мнения: одни считают его налобным украшением, другие – парной височной подвеской. Действительно, в XIX в., его носили и как одиночное налобное украшение и как парное височное. Но на определенном этапе, когда сложился завершённый ансамбль оптимальной выразительности, он представлял трехчастную, а возможно, и четырехчастную композицию [6].

Хорезмское украшение “зулфитилло”, “заркокил” (золотые локоны, завиток) состояло из центральной золоченой фигурной бляхи в виде овала с тремя выступающими завитками, по бокам которых отходят два черных шнура, сплетенных из шелковых нитей. К шнурам прикрепляются многочисленные золоченые куполки с кистями и подвесками. Украшение в завершённом виде было четырехчастным. Центральную бляху помещали надо лбом, шнурки с двух сторон шли вокруг головы до затылка, где их соединяла еще одна бляха, затем шнуры возвращались к вискам, и здесь свисали до плеч куполки с пышными кистями [7].

XX asr boshlarida jadidlar xalq ommasining milliy urf-odatlarini asrab-avaylash va ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga chorlab, hashamdor to'ylar, serxarajatli motam, to'y hamda aza marosimlarini riyokorlik va dabdababozlik bilan o'tkazishga jiddiy ravishda qarshi chiqib, ularni milliy illatlar sifatida baholagan edi. Jumladan, Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyna" jurnalida ushbu illat haqida shunday yozgan edi: *"Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxmu maraznimi gumon etarsiz? Yoyinki, sil, sil-ar-iya (o'pka sili) va maxovliknimi dersiz? Yo'q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh (jon azobi), bevoya, xonavayron va g'arib etguvchi bir dard, biz – turkistoniylarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizg'a sorilgan va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalaturg'on to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman"* [26: 338–342]. Umuman olganda, jadidlar to'y va marosimlardagi xarajatlarga doir tanqidiy chiqishlar qilishganiga qaramay keyingi davrlarda ham bu odatlar davom etgan.

Sovet davrida kommunistik mafkura g'oyalarida yashagan o'zbeklar hayotiga yangicha to'y-tantanalar – *"qizil to'y"*, *"komsomol to'y"*, *"baynalmilal nikoh"* kabi marosimlar kirib keldi. Ushbu davrda shaklan sovet davri g'oyalariga asoslangan an'analar keng tarqalganiga qaramasdan, milliy va diniy an'analar marosimiy hayot simbiozi tarzida saqlanib qoldi. Xususan, o'g'il farzand uchun sunnat to'yi o'tkazish, nikoh o'qish orqali yangi oila tuzilishi, janoza namozini ado etish bilan marhumlarni dafn qilish an'analari davom etdi.

XX asr 90- yillarida SSSRning parchalanishi tufayli sovet Respublikalari kabi O'zbekiston ham mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda milliy va diniy o'zlikni anglash hissi kuchaydi. Mafkuraviy tutqunlikdan ozod bo'lgan yurt o'zining o'tmish tarixi, o'zligi (identiklik), milliy va diniy qadriyatlarini qayta tiklashga harakat qildi. Mazkur jarayonda iqtisodiy jihatdan ko'p xarajatli yangicha urf-odat va marosimlar paydo bo'ldi. Natijada, marosimlar oila byudjetining asosiga aylandi va odamlar yillar davomida farzandlarini to'ylari uchun "orzu havas" yo'lida mablag' hamda qimmatbaho buyumlar to'plash odat tusiga kirib bordi. Boshqa tomondan, aynan "orzu havas" va "o'zbekchilik" deb marosimlarda kim ko'p xarajatli marosimni o'tkazish, isrofgarchiliklarga qaramasdan, jamiyat oldida nomini chiqarish odati ham ayrim qatlamlar orasida ommalashdi.

Umuman olganda, sovet davri hamda mustaqillik yillarida O'zbekistonda to'ylar va oilaviy marosimlar bilan bog'liq qator qaror, farmon, buyruq hamda yo'riqnomalar e'lon qilingan. Jumladan, so'nggi yillarda, aniqrog'i, 2019- yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining "To'ylar, oilaviy tantanalar ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda Respublika, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, shuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlarida to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka hamda marosimlar o'tkazilishini tartibga solish masalalari bo'yicha komissiyalar tuzish belgilandi [36]. Yaqinda O'zbekiston Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida O'zbekistonda to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish bo'yicha Oliy Majlis palatalari kengashlarining qo'shma qarori loyihasi ishlab chiqish ta'kidlandi [37].

Loyihada to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish, yoshlarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha yangi mexanizmlar nazarda tutiladi. Loyihani 2025- yil avgust oyiga qadar ishlab chiqish belgilab berilgan.

Biz ham mazkur maqolada yuqoridagi muammoning ayrim qirralarini xususan, nikoh to'yi va boshqa oilaviy marosimlardagi xarajatlar borasida islomiy ulamolar hamda imomlarning qarashlari, diniy makonda ushbu mavzu borasida bo'layotgan bahs-munozaralarni ilmiy asosda tahlil qilishga harakat qildik.

Mavzu tarixshunosligi. O'tgan yuz yillikda to'ylar va oilaviy tantanalar mavzusi bir qator tadqiqotchilar tomonidan qiziqish bilan o'rganilgan bo'lib [18: 239–244; 19: 291–300; 21; 33: 192–200], Markaziy Osiyodagi qozoqlar [6: 69–76; 7], qirg'izlar [12; 5: 280–286; 4], turkmanlar [10: 172–188; 11: 152–153], tojiklar [31: 72–79; 17; 16; 30]. hamda qoraqalpoqlar [8]. misolida sovetlar davrida ayrim ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, mazkur davrda O'zbekistonning turli hududlari, xususan, Xorazm vohasi [22: 43–45; 24: 43], Zarafshon [32: 173–176; 20: 119–127]. va Farg'ona [34; 9; 3]. vodiylarida istiqomat qilgan etnoslarning oila-nikoh marosimlariga bag'ishlangan monografiya, maqola hamda ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Ushbu ilmiy izlanishlarda ko'proq Markaziy Osiyoning turli mintaqalarida yashovchi aholi nikoh to'y marosimlari hamda ularning mintaqaviy xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratildi.

Sovet davrida nikoh to'y marosimlariga oid bajarilgan tadqiqotlarda o'sha davrga xos odatlar targ'ibotiga keng o'rin berildi. Jumladan, N. P. Lobachevaning 1975- yilda nashr qilingan "Formirovaniye novoy obryadnosti uzbekov" nomli monografiyasida o'zbek xalqi madaniyatidagi turli an'analar bilan bog'liq etnomadaniy jarayonlarni yoritishni maqsad qilib olingan bo'lsa-da, unda "yangi nikoh to'ylari" – "qizil to'y", "komsomol to'y", "baynalminal to'y"larga alohida urg'u berib targ'ib qilingan va milliy nikoh to'ylari bilan bog'liq marosimlar "eskilik sarqiti" deb qoralangan [23: 45–68]. Bu kabi fikrlar O'. Otamirzayeva, T. Toshboyeva va M. Savurovlarning asarlari hamda Respublika seminar kengashining materiallari asosida nashr qilingan "Yangi turmush – yangi an'analar" to'plamida ham ma'qullangan [27; 35; 38].

O'zbekistonlik etnograf H. Ismoilovning "O'zbek to'ylari" [15: 96–162]. nomli kitobida milliy to'ylar bilan bog'liq marosimlar, urf-odatlar va rasm-rusumlarni o'rganish jarayonida nikoh to'ylari bilan bog'liq so'vchilik, fотиha to'yi, to'ydan so'nggi udumlar tadqiq etilgan [25: 106–116]. Adabiyotshunos Mahmud

Sattorning “O‘zbek udumlari” risolasida nikoh-to‘y marosimining ba’zi tomonlari yoritib berilgan.

Elshunos Ico Jabborovning “O‘zbek xalqi etnografiyasi” asarida xalqimizning etnogenezi, etnik tarixi, moddiy va ma’naviy madaniyati, oilaviy turmush hamda hayot tarzini yoritish bilan birga, nikoh, qalin berish, nikoh to‘yidagi iqtisodiy munosabatlar etnografik materiallar asosida tadqiq qilingan [13].

Sabohat Soatovanning nomzodlik dissertatsiyasida esa Zarafshon vodiysi aholisi o‘rtasidagi nikoh shakllari, sovchilik, fотиha to‘yi rasm-rusumlari hamda to‘ydan keyin bajariladigan marosimiy xarajatlar o‘rganilgan [29].

Rossiyalik etnolog S. N. Abashinning bir qator maqolalarida o‘zbek xalqi oila-nikoh marosimlariga oid ma’lumotlarda qizlar uchun beriladigan qalin va mahrning o‘zaro farqli jihatlari hamda mintaqa xalqlaridagi marosimiy xarajatlarning ratsionalligi yoki aksincha ekanligi tahlil qilingan [14: 50–53; 2: 158–164; 1]. Shuningdek, ushbu antropolog olim tomonidan marosim iqtisodiyoti bilan bog‘liq ko‘plab diqqatga sazovor fikrlar ham bildirilgan. Lekin, muallif diniy makonda marosim iqtisodiyoti borasida bo‘lgan bahs-munozaralarni yoritishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan.

Yaponiyalik tadqiqotchi Seyko Vazaking bir qator tadqiqotlarida o‘zbeklarda oila, nikoh va ajralish masalasi etnografik materiallar asosida tahlil qilingan [28: 83–107].

Xullas, nikoh va oila bilan bog‘liq adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, hozirgi kunga qadar diniy makon, xususan, mahalliy ulamolar hamda imomlarning oilaviy marosimlarni o‘tkazish hamda ulardagi xarajatlarni qisqartirish borasidagi bahs-munozaralari maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Marosim va an‘ana: ta’rif hamda tavsif. Marosim – inson hayotining ma’naviy turmushini talab va ehtiyoji bilan yuzaga keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu jamoaning ma’lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilarni mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Boshqacha qilib ifodalaganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir.

O‘zbek marosimlari 3 ta katta turkumga bo‘linadi:

1. Oilaviy marosimlar.
2. Yil fasllari bilan bog‘liq taqvimiy marosimlar.
3. Diniy marosimlar.

Marosimlar tasnifida oilaviy marosimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tug‘ilish, nikoh va motam bilan bog‘liq marosimlar hayotning muhim burilish bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lgan turfa xil an‘analalar hamda urf-odatlardan tashkil topgan. Shu sababdan ham ko‘plab xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbek jamiyatida ham oilaviy marosimlarga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday turdagi marosimlar boshqalariga qaraganda oila uchun ko‘p sarf-xarajat olib kelishi hamda iqtisodiy jihatdan ko‘plab muammolarga sabab bo‘lishi bilan ham ajralib turadi.

Qolaversa, bunday marosimlar garchi, oila nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, asosan, mahalla va qo‘ni-qo‘shnilar ishtirokida, jamoaviy tarzda nishonlanadi.

Ma'lumki, islom dinida isrofgarchilikka yo‘l qattiq qoralangan va harom qilingan amallar sirasiga kiradi. Jumladan, Qur‘oni Karimda yozilishicha, Alloh isrof qiluvchi bandalarini yoqtirmaydi. Chunki, Allox bergan ne‘matlar ezgu amallarga sarf etilishi kerak.

Ulamolar nikoh to‘y marosimlardagi dabdaba, isrofgarchilik va manmanlikka berilishni “milliy nuqson”larimiz deb tanqid qildi. Bu o‘rinda “nima uchun milliy nuqsonlar?” degan savol paydo bo‘ladi. Bizningcha, buning qator sabablari bo‘lib, ularni milliy nuqson tarzda baholash xato bo‘lsa kerak. Aynan jamiyat hayotida “o‘zbekchilik” va “odat” institutining yuqori ekanligi, qo‘ni-qo‘shnilar va turli ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro bellashuvi, ota-onalarning farzandlari uchun ko‘p mas‘uliyatni zimmasiga olishi, ayrim shaxslarning manmanligi hamda bilimsizligi sabab bo‘lsa kerak.

2019- yilda O‘zbekiston musulmonlar idorasining fatvosida to‘y va marosimlarni ixchamlashtirish bo‘yicha taklif hamda mulohazalar bayon qilindi. Jumladan, idora tomonidan “Respublikadagi imom-xatiblari juma ma’ruzalari hamda turli tadbirlarda to‘y, ma’raka va marosimlardagi isrofgarchilik, shuhratparastlik, manmanlik hamda riyokorlik kabi illatlarning moddiy va ma’naviy zararlari, tejamkorlik hamda o‘rtahollikning foydalari to‘g‘risida asosli dalillar va hayotiy misollar bilan keng tashviqot ishlarini olib borishi kerakligi” haqida ko‘rsatma berildi. Mazkur fatvoda o‘zbeklarning nikoh to‘yi va turli tuman voqeliklar bilan bog‘liq tarzda o‘tkazadigan “kelin navkari”, “chorlar”, “ota ko‘rdi”, “sep yoydi”, “quda chaqirdi”, “kuyov chaqirdi”, “kelin chaqirdi”, “tog‘ora yuborish”, “yuz ochdi”, “safar qaytarma”, “supra ochdi”, “ko‘rpa yig‘di”, “qiz bazmi”, “salomnoma”, “hoji oshi”, “oqlik oldi”, “paxta berdi”, “kelin ko‘rdi”, “xina qo‘yish”, “shukronalik”, “payg‘ambar oshi” va “ashurlik” kabi marosimlarni islom dinida mavjud emasligiga urg‘u bergan. Qolaversa, fatvoda mazkur marosimlar xalqqa mashaqqat, ortiqcha xarajat va isrofgarchilik manbasiga aylanganligi ta’kidlandi.

Bizningcha, fatvoda qayd qilingan marosimlar garchi, shariat qoidalarida aks etmagan bo‘lsa-da, o‘zbeklar tomonidan milliy qadriyat maqomida o‘tkazish an’anaga aylangan. Lekin, ularning ayrimlari bugungi kunda ixchamlashtirilgan yoki marosimiy hayotdan chiqib ketgan.

So‘nggi yillarda Respublika miqyosida imomlar jamiyat hayoti, xususan, mahalla, mediamakon va ijtimoiy tarmoqlarda faol faoliyat olib bormoqda. Ular o‘z chiqishlarida turli diniy masalalar yechimlari bilan birga nikoh va motam marosimlaridagi xarajatlarni tanqid qilmoqda. Umuman olganda so‘nggi yillarda O‘zbekistonda islom jamoatchiligi orasida marosimiy iqtisodiyot borasida bo‘layotgan munozaralarda muhim ikki jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi rakurs – bu avvalo, davlat tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni Qur‘on, hadis asosida talqin qilish bo‘lsa, ikkinchisi, aholi orasida, boshqacha aytganda, jamiyat hayotida bo‘layotgan milliy madaniyatga begona bo‘lgan marosimlardagi salbiy jihatdan tanqid qilish bilan bog‘liq qarashlar tarzida tahlil qilish mumkin.

Xullas, islomiy liderlar bo'lgan imomlar o'rtasidagi diskurlarni jamiyat va davlat o'rtasidagi ko'prik sifatida talqin qilish mumkin.

Musulmonlar orasida to'y va marosmlar borasida juma namozlarida ham ko'plab ma'ruzalar o'qildi. Chunonchi, 2020- yil 12-dekabrda "Nikoh rishtasi uzilmasin!", 2022- yil 7-yanvarda "Oila mustahkamligi – jamiyat farovonligi", 2021- yil 4-iyulda "Farzand tarbiyasi, yoshlarning ilm-ma'rifatga e'tiborini qaratish", 2022- yil 10-iyunda "Oilaviy ajrimlar jamiyat zavoli" va 2025- yil 17-yanvarda "Jamiyatdagi salbiy illatlar – dabdababozlik va isrofgarchilik" mavzularida juma ma'ruzalari bo'ldi.

2022- yil 7-yanvarda "Oilaviy ajrimlar – jamiyat zavoli" mavzusida o'qilgan juma ma'ruzasi boshlanishida islomda oila qurish shart ekanligi haqida ma'lumot berildi. Imom diniy manbalar asoslangan holda har bir voyaga yetgan musulmon o'g'il-qiz juftlashib, oila bo'lib yashashi nikoh orqali amalga oshadi, deb ta'kidladi. Imomlarning fikricha, nikoh marosimi uchun qilinadigan xarajatlar bilan birga keyingi oilaviy byudjetni erkak kishi zimmasiga olishi kerak. Xususan, musulmon er kishi ayoli uchun nafaqa, mahr berishi, oziq ovqat, kiyim va turar-joy bilan ta'minlashi kerak. Qolaversa, ular nikoh va boshqa turkum oilaviy marosimlardagi xarajatlarning aksariyati islom dini bilan bog'liq emasligiga urg'u beradilar hamda ular milliy nuqsonlar deb, tanqid qilinadi.

O'zbekistondagi islom ulamolari o'zlaring oila erkakning barcha xarajatlar uchun mas'ul ekanligi va oila boshlig'i sifatida butun mas'uliyat unda bo'lishi haqidagi fikrlarga isbot sifatida Qur'oni Karimning "Niso" surasi "Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig'i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularni ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilganligi va (erkaklar o'z oilasiga) o'z mol-mulkularidan sarf qilib turishlaridir" degan 34-oyatni dalil sifatida keltiradilar.

Xullas, aynan so'nggi besh yilda juma oilaviy marosimlar xarajatlari borasida ko'plab ma'ruzalar qilingani bois ham oilaviy marosimlar, xususan, nikoh to'ylarida o'zgarishlar yuz berib, so'nggi yillarda qiz tomonning xarajatlari birmuncha qisqarganligini kuzatish mumkin. Kuzatishlarga ko'ra, aynan imomlar tomonidan qilingan ma'ruzalar tufayli keyingi yillarda yosh oilalar uchun yotoqxon va uy mebellari hamda maishiy texnika buyumlarini asosan, kuyov tomon qilmoqda, shuningdek, nikoh to'ylarida sep qilish ixchamlashdi. Qolaversa, juma ma'ruzalari va yoshlarning islomiy bilimlarni egallashlari sababli nikohdan so'ng farzand tug'ilganda "Aqiqat to'yi"ni o'tkazish va nikohda kelin uchun mahr berish odatlari ommalashmoqda. Lekin, bu o'rinda shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda mahr sifatida bo'lg'usi kelin uchun qimmatbaho taqinchoqlar, mashina va uy berish, "Aqiqat to'yi"ni ham ortiqcha xarajatlar qilgan holda o'tkazish holatlari ham kuzatilmoqda.

Asrlar davomida o'zbek jamiyati an'anaviy jamiyat bo'lganligi bois islom dini va marosimlar doim xalqning kundalik va marosimiy hayotining ajralmas bir qismi bo'lib kelgan.

So'nggi yillarda o'zbeklarning yangi oilani qurish, nikoh haqidagi tushunchalari, nikoh yoshi, oiladagi vazifalar, marosim xarajatlarini borasidagi

qarashlar jiddiy evrilishlarga uchradi. Hozirda yangi oila qurishdan avval yoshlarning bilim olish, kasb egallashiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday holat esa millat genofondi va yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. Абашин С. Н. Вопросы “здоровому смыслу”? (К вопросу о “рациональности/иррациональности” ритуальных расходов в Средней Азии) // Вестник Евразии. – 1999. – № 1–2.
2. Абашин С. Н. “Калым” и “махр” в Средней Азии о “границах” в социальных отношениях. Человек и право / Книга о летней школе по юридической антропологии. – М.: Стратегия, 1999. – С. 158–164.
3. Абдуллаев У. С. Традиционное и новое, общее и особенное в современной свадебной обрядности народов Ферганской долины / Узбекистан: страницы истории. – Ташкент, 1991.
4. Абрамзон С. М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л.: Наука, 1971.
5. Аргынбаев Х. А. Свадьба и свадебные обряды казахов в прошлом и настоящем / СЭ. – 1974. – №6. – С. 69–76.
6. Аргынбаев Х. А. Семья и брак у казахов. – Алма-Ата: Казахстан, 1993.
7. Бекмуротова А. Т. Семейно бытовой уклад каракалпаков в прошлом и задача проедаления и его вредных пережитков: Автреф. дисс... канд. ист. наук. – М., 1967.
8. Бикжанова М. А. Семья в колхозах Узбекистана. (На материалах колхозов Наманганской области). – Ташкент: Фан, 1959.
9. Васильева Г. П. Туркмены-нохурли // СЭС. – М., 1954. Т. 1. – С. 172–188.
10. Джикиев А. Свадебные обряды у туркмен-сарыков в конце XIX – начале XX века. / ТИИАЭ АН ТССР. – Ашхабад, 1963. Т. 7. – С. 152–153.
11. Джумагулов А. Семья и брак киргизов Чуйской долины. – Фрунзе, 1960. Абрамзон С. М. О пережитках ранних форм брака у киргизов / История, археология и этнография Средней Азии. – М., 1968. – С. 280–286.
12. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
13. Жуманазаров Э. Қирғиз ва ўзбекларнинг никоҳ удумлари тарихидан (XIX аср охири – XX аср) // Ўзбекистон тарихи. – 1999. – Б. 50–53.
14. Исмоилов Ҳ. Ўзбек тўйлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 96–162.
15. Ишанкулов Х. Г. Брак и свадьба у населения Ходжента в новое время. (конец XIX – начале XX вв.). – Душанбе: Дониш, 1972.
16. Кисляков Н. А. Семья и брак у таджиков. – М.-Л.: Наука, 1959.
17. Кисляков Н. Некоторые брачные церемонии у народов Средней Азии и проблемы материнского рода // МКАЭН. – М., 1967. Вып. VII; Т. 4. – С. 239–244.
18. Кисляков Н. Сохранения экзогамных норм у народов Средней Азии и Казахстана в конце XIX – в начале XX вв. / История, археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 291–300.
19. Кубаков К. К истории развития узбекской семьи / Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент, 1972. – С. 119–127.
20. Лобачева Н. П. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1971.
21. Лобачева Н. П. Свадебный обряд Хорезмских узбеков / Крат. сообщ. ин -та. Этногр. – М., 1960. Вып. 34. – С. 43–45.
22. Лобачева Н. П. Формирования новой обрядности узбеков. – М., 1975. – С. 45–68.
23. Лобачева Н. П. Хивинская свадьба / Этнография Таджикистана. – Душанбе, 1985. – С. 43.

24. Маҳмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 106–116.
25. Маҳмудхўжа Бехбудий. Бизни кемиргувчи иллатлар // “Ойна” журнали. 1915. 1915 йил, 13- сон, 338-342- бетлар. Маҳмудхўжа Бехбудий. Бизни кемиргувчи иллатлар (1915) – ziyouz.uz
26. Отамирзаева У. Янги урф-одатлар. – Тошкент: Фан, 1988.
27. Сейка Вазаки. Брак и развод среди мусульман бывшего Советского Союза: пример Узбекистана / Под руководством Eiji Nagasawa, под редакцией Toyoko Morita и Хитоми Оно, “Исламские гендерные исследования 1 Брак и развод. – Токио; Акаси Шотен, 2019. – С. 83–107.
28. Соатова С. Зарафшон водийси ўзбекларининг никоҳ-тўй маросимлари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 1999.
29. Суфиев У. Традиции и инновации в свадебных обычаях и обрядов таджиков долины р. Сох. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Л., 1991.
30. Сухарева О.А. Некоторые вопросы брака и свадебные обряды у таджиков кишлака Шахристана / Сб. науч. кружка при вост. фак. СаГУ. – Ташкент, 1928. Вып. 1. – С. 72–79.
31. Сухарева О.А. Свадебные обряды таджиков г. Самарканда и некоторых других районов Средней Азии // СЭ. – 1940. – №3. – С. 173–176.
32. Сухарева О.А. Традиции семейно-родственных браков у народов Средней Азии и Казахстана / Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1978. – С. 192–200.
33. Сухарева О.А., Бикжанова М.А. Прошлое и настоящее селения Айкыран. – Ташкент: Фан, 1955.
34. Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое традиционное быту сельской семьи узбеков. – Ташкент: Фан, 1989.
35. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси кенгаши ва Республика Олий Мажлиси Сенати кенгашининг кўшма қарори // <https://lex.uz/uz/docs/5153833>.
36. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш бўйича белгиланган устувор вазифалар ижросини самарали ташкил этишга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/pdfs/7486412>
37. Янги турмуш – янги анъаналар. Тўплам. – Тошкент: Ўзбекистон, 1973.

ISLOMDA EKOLOGIIYA MASALALARI TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ В ИСЛАМЕ

INTERPRETATION OF ECOLOGICAL ISSUES IN ISLAM

To‘lanboyev Shavkatjon Abdumutalovich,
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi
e-mail: shavkatjon1972@mail.ru
Tel: +998 97 251 03 74

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan atrof-muhit muhofazasi va unga islom dinida bo‘lgan yondashuvlar aks etgan. Maqolada asosiy e’tibor Qur’oni Karimda keltirilgan tabiatni asrab-avaylashga doir ekologik qarashlar, ularning oyatlardagi talqini va o‘zbek xalqining tabiat unsurlariga bo‘lgan munosabati masalasiga

qaratilgan. Tabiiyki, tabiatni muhofaza qilish muammosi butun olamdagi yuz millionlab musulmonlar va islom ulamolarini ham tashvishga solmoqda hamda ular ushbu muammolarni hal qilishda Qur'oni Karim oyatlari va Hadisi shariflarning o'rni kattadir.

Аннотация

В данной статье отражены охрана окружающей среды, которая является одной из наиболее актуальных проблем современности, и подходы к ней в исламской религии. Основное внимание в статье уделяется экологическим взглядам на охрану природы, упомянутым в Священном Коране, их трактовке в аятах и отношению узбекского народа к стихиям природы. Естественно, проблема охраны природы волнует сотни миллионов мусульман и исламских ученых во всем мире, и аяты Священного Корана и хадисы играют огромную роль в решении этих проблем.

Annotation

This article reflects one of the most pressing problems of our time, environmental protection, and the approaches to it in Islam. The article focuses on the ecological views on the preservation of nature contained in the Holy Quran, their interpretation in the verses, and the attitude of the Uzbek people to the elements of nature. Naturally, the problem of nature protection also worries hundreds of millions of Muslims and Islamic scholars around the world, and they consider the verses of the Holy Quran and Hadiths to be of great importance in solving these problems.

Kalit so'z va iboralar:

Qur'oni Karim, oyatlar, ekologiya, tabiat, o'simlik dunyosi, hayvonot olami, yer, suv, havo, olov, ekologik madaniyat, gunoh, savob, osmon.

Ключевые слова и фразы:

Коран, аяты, экология, природа, флора, фауна, земля, вода, воздух, огонь, экологическая культура, грех, награда, небо.

Keywords and phrases:

Quran, verses, ecology, nature, plant world, animal world, earth, water, air, fire, ecological culture, sin, reward, sky.

O'zbek xalqining yer, suv, havo, olov va tabiatga ongli ravishdagi munosabati, ularni e'zozlash bilan bog'liq qadimiy urf-odatlarini hamda marosimlarining genezisi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ularni jiddiy o'rganishni ekologik muammolar global xavfsizlikka tahdid solayotgan hozirgi davrning o'zi ham taqozo etmoqda.

Hech shak-shubha yo'qki, hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi asrimizning eng muhim muammolaridan biri bo'lib turibdi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirishi mumkin bo'lgan yomon oqibatlari bo'yicha yadro halokatidan kam emas.

Albatta, texnologiya sohasidagi taraqqiyot, yangi energiya manbalarining kashf etilishi, yangi ma'danlar va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, oqibatini o'ylamay, tabiatdagi jarayonlarga aralashuv kabi holatlarning barchasi atrof-muhitni muhofaza qilish borasida nihoyatda tashvishli vaziyatni vujudga keltirdi.

Tabiiyki, mazkur muammo butun olamdagi yuz millionlab musulmonlarni ham, Islom ulamolarini ham tashvishga solmoqda va ular bu muammolarni hal qilishda Qur'oni karim oyatlariga hamda Islom ta'limotlariga murojaat qilishmoqda.

Barchamizga ma'lumki, atrof-muhitning ifloslanishiga kishilar tarbiyasida tabiatni muhofaza qilish haqida tarbiyaviy ishlar yetarli darajada yo'lga

qo'yilmaganligi ham sababdir. Ma'lumki, Islom ushbu muammo, xususan, tabiat muhofazasi tarbiyasiga alohida e'tibor bilan karaydi. Islom dini inson kamolotida tabiatni muhofaza qilish tarbiyasini asosiy o'rinlardan biriga ko'yadi. Shu narsani har bir musulmon yaxshi bilmog'i va umr bo'yi amal qilmog'i kerakki, Islom nukta nazarida tabiatni muhofaza qilish tarbiyasi hamma joyda va hamisha amaldadir. Har bir musulmon o'z dinining ta'limotlariga sodiq bo'lmoqligi kerak va ularni hayotga tadbiq etmoqligi darkor.

Xalq madaniyatining asosi hisoblangan islomiy an'analar asrlar davomida xalqni ozodalik, poklik, yer, suv va havoni bulg'amaslikka da'vat etgan. Alloh yaratgan har bir jonli maxluqotlar – o'simliklar, hayvonot dunyosi va hokazolarga mehr-shafqat nazari bilan qarash talab etilgan. Umuman, islom ta'limotida jonli, jonsiz tabiatni asrash, umuman borliqqa ijobiy munosabat keng o'rin olgan.

“Gunoh” va “savob” tushunchalari islom dinida ma'lum bir kategoriya darajasiga ko'tarilgan. Islom dini sababsiz biror jonzot yoki o'simlik kabi tabiat unsurlariga zarar yetkazishni taqiqlaydi. Bu taqiq ko'pincha diniy taqiq mohiyatini ifodalovchi “uvol” kategoriyasi orqali izohlanadi. Uvol asosida ham kishilarning ma'lum bir narsalarga bo'lgan ishonch-e'tiqodlari yotadi. Deylik, yerni tepish gunoh sanaladi. Islomiy rivoyatlarga ko'ra, Alloh insonni tuproqdan yaratgan, u yana tuproqqa qaytadi. yerni tepish esa kishilarning o'zligini oyoq osti qilish bilan barobardir. Shuning uchun ham bunday taqiq shakllangan. Ayni paytda uvol ma'lum bir ishni qilish e'tiqodga zidligini, shuning uchun uni bajarmaslik kerakligini, bordi-yu amal qilinmasa, biror halokatga sabab bo'lishi mumkin, degan tushuncha mavjud.

Ma'lumki, yer yuzining 3/4 qismi suv bilan o'ralgan. Suvning xususiyatlaridan biri, yer yuzidagi haroratning bir xil saqlanib turishidagi ahamiyati kattadir. Agar shunday bo'lmaganda, yer yuzida hayot bo'lishi qiyinlashib qolardi. Suvning xususiyatlari juda ko'p bo'lib, ularning har biri Alloh taolo suvni o'zining mahluqlariga zarur narsa qilib yaratganligiga dalildir [1, 347].

Islom dini insonlarni jonivorlarga zarar keltirmaslikka, hayvonot olamiga mehribon bo'lishga chaqiradi. Alloh taolo Qur'oni Karimda yer yuzidagi barcha narsalar, shu jumladan, hayvonot dunyosiga qanday munosabatda bo'lish kerakligini bizlarga mufassal bayon qilib bergan [2, 45].

Islom dini asosi bo'lgan Qur'on Karim kitobida Alloh barcha jonivorlarni suvdan yaratdi. Ulardan qorni bilan (sudralib) yuradiganlari ham, ikki oyoqda yuradiganlari ham, to'rt oyoqda yuradiganlari ham bordir. Alloh o'zi xohlagan narsani yaratur. Albatta, Alloh barcha narsaga qodirdirb, deya qayd etilgan [3, 24–32].

Shuningdek, Qur'oni Karimda koinot, yer-suv, quyosh, oy, tabiat, hayvonot, o'simlik, tabiiy ofatlar haqidagi oyatlar bor. Qur'oni Karimning 6-sura 72-oyatda yozilishicha, Alloh olamni yaratish niyatida “Kun”, ya'ni “Bo'l” deb amri-farmon bergan ekan. 6 kun davomida birin-ketin hamma narsa muhayyo bo'libdi. 2-kuni Quyosh, Oy, yulduzlar yaratilib, shamol hosil bo'libdi. 3-sida yer va dengizlarda yashaydigan maxluqlar; 7 qavat osmonda yashaydigan farishtalar va havo vujudga kelibdi; 4-kuni xudo suvni yaratibdi; hamma mahluqlarga o'z nasibasini

tayyorlabdi; 5-kuni jannatni yaratibdi; faqat 6-kunigina Odam ato va Momo Havo dunyoga kelishibdi. Ulardan barcha odamlar tarqaldi. Shu tariqa dunyoda tartib yuzaga kelib, hech kim putr yetkaza olmaydigan uyg'unlik hosil bo'ldi.

Islom ta'limotiga binoan, odamlar hayvonot va nabotot olamiga ham odob bilan muomalada bo'lishga majburdirlar. Hayvonot va nabotot olamiga munosabat masalalari ham Qur'oni Karim oyatlarida batafsil bayon etilgan. Ulardan biri insonning nabotot olamida haqqi bo'lganidek, nabotot olamining ham insonlarda haqqi bor. Masalan, Qur'oni Karimning "Abasa" surasida Alloh taolo bunday deb marhamat qiladi: "Inson o'z taomiga bir nazar solsin. Albatta, Biz suvni rosa quyib qo'yibmiz. So'ngra yerni o'ziga xos yordik. Biz unda donni. Va uzum va ko'klarni. Va zaytun va xurmolarni. Va mevalaru o't-o'lanlarni yerni o'stirib qo'ydik. Sizlarga va chorvalaringizga manfaat va lazzat bo'lsin" [4, 38].

Yuqorida keltirilgan dalillardan tashqari, nabotot va hayvonot olamini nobud qilishdan qaytaruvchi yana ko'plab oyatlar mavjud: "yerdagi biror jonivor va biror ikki qanoti bilan uchadigan parranda yo'qki, (ular ham) sizlar kabi ummatlar bo'lmasalar. Kitobda (Lavhul-Mahfuzda) biror narsani (yozmasdan) qoldirmaganmiz. So'ngra (hamma ummatlar) Parvardigorlari (huzuriga) jamlanurlar" [5, 66].

Aksariyat olimlar jonivorlarning bunday aqlli xatti-harakatlarini sof instinktiv hodisa deb hisoblaydilar. Ammo, unga chuqurroq yondashilsa, o'sha instinkt ichki mayl, intilish, mavjud yashash sharoitiga moslashish jarayonida ayrim odamlar uchun katta ibrat o'rnak bordek tuyuladi.

Qur'oni Karimda kishilarni yer yuzidagi barcha narsalar, shu jumladan, hayvonot dunyosiga qanday munosabatda bo'lish kerakligi batafsil bayon etilgan. Aksariyat oyatlarda musulmonlarga Alloh taoloning hayvonot olamini yaratish maqsadini tushuntirib berilgan. Xalqni hayvonot va nabotot olamini muhofaza etishga da'vat berilgan. Qur'oni Karimning "Baqara" surasi 29-oyatida "U shunday zotki, siz uchun yerdagi barcha narsalarni yaratdi", ya'ni Alloh taolo o'zining yerdagi xalifasi bo'lgan insonni hayot kechirishi uchun yerni makon qilib yaratgan. Demak, yer yuzidagi barcha narsalar inson uchun yaratilgan ekan, o'z navbatida, har bir inson ham ularga nisbatan oqilona munosabatda bo'lib, ularni asrab-avaylashi kerak bo'ladi. Tuproq, suv, havo va boshqa narsalarni toza tutish va ularni ifloslantiruvchi va zarar beruvchi narsalardan saqlash islom dinining amridir" [6, 29].

Alloh taolo insonni tuproqdan yaratganligini hozirgi zamon ilmi ham ta'kidlaydi. Agar inson jismidan bir bo'lagini olib, unda qanday modda borligi tekshirilib ko'rilsa, tuproqdagi moddalardan hech farq qilmas ekan. Shuning o'zi ham inson tuproqdan yaratilganligiga yorqin dalildir" [7, 56].

Qur'oni karimda "yerni (Alloh xayrli ishlarga) yaroqli qilib qo'ygandan keyin (unda) buzg'unchilik qilmangiz!..." deyilgan. Ushbu oyat insonning tabiatga nisbatan bildirishi kerak bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. "(Oldingizdan) ketganida yerda fitna-fasod, ekin va naslni halok qilish ishlari bilan yuradi, Alloh esa, fasodni (buzg'unchilikni) yoqtirmaydi". Oyatda "ekin" deb nabotot olami, "nasl" deb hayvonot olami e'tiborga olinyapti. Tabiatning katta vakillari bo'lgan

hayvonot va nabotot olamiga yetkazilgan zararni ushbu oyatda buzg'unchilik va fasod ekanligi uqtiriladi. Islom dini maqsadsiz daraxtlarni kesish va hayvonlarni o'ldirishlikni buzg'unchi va fasod ish ekanligini dunyo olamiga e'lon qilganida, tabiat u yoqda tursin, insonning o'zi e'tibor va muhofazaga muhtoj edi. yer yuzi uzra qullik va zulm hukm surgan vaqtda islom dini nafaqat insonning huquqini himoya qilishlik bilan, balki ozod va erkin insonni tabiat muhofazasiga chaqirishlik bilan ham maydonga birinchilardan bo'lib chiqdi.

Qur'oni Karimda nabotot va hayvonot dunyosidan inson qay tarzda foydalanishi mumkinligi, uy hayvonlariga qanday munosabatda bo'lish zarurligi qayd etilgan. Islomda najosatni ketkazish ibodat talabi bo'lishi bilan birga, ayni ibodatdir. Nopok narsalarning insonning ma'naviyatiga, sog'lik-salomatligiga, tabiati sofligiga salbiy ta'siri juda ham ko'p. Ushbu oddiy haqiqatni hozirgi ilm-fan ham tasdiqlab turibdi.

Islomda suvning paydo bo'lishi va tozaligi borasida ko'p qayg'urilgan. Alloh Taolo "Kof" surasida: "Va osmondan Baraka suvini tushirdik, hamda u bilan bog'-rog'larni va don hosilini o'stirdik. Va zich mevali shingillari bor xurmolarni ham. Bandalarga rizk qilib. Va u (yong'ir) bilan o'lgan shaharni tiriltirdik", deydi [8, 11–13].

Qur'oni Karimning ushbu oyatlaridan ma'lumki, nabotot olami bandalar uchun rizkdir, bandalarning esa o'z rizklarini extirom qilishlari hamda ular uchun shukr keltirishlari kerak. Ularning rizk beruvchiga shukrlari hamdu sano ila va rizkni o'sha rizk beruvchi zotni rozi qiluvchi narsalarga sarflash bilan bo'ladi. Bu borada, Allohning roziligiga erishish uchun, inson nabotot olamiga nisbatan to'g'ri muomalada bo'lmog'i kerak, aks xolda, nabotot olamiga nisbatan yomon muomala Allohning g'azabi va ikobiga olib keladi.

Qur'oni Karimda Alloh suvni hayotning asosiy unsuri sifatida yaratgani alohida qaydlanadi. Darhaqiqat, bugun yer yuzida suvsiz hayotni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Alloh Taolo Qur'oni Karimda shunday marhamat qiladi: "...va suvdan har bir tirik narsani qilganmiz" [9, 45].

Islom dini nazarida, suv Allohning ulkan ne'mati bo'lib, uni zoe va iflos qilmaslik kerak. Islom ummatinig o'tgan avlodlarining suvga bo'lgan e'tiborlari shu darajaga yetganki, hatto ulamolarimiz fiqh kitoblarida "Dengizdan olganda ham suvni isrof qilmaslik" haqida mavzular ochganlar. Bu hukmga esa Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadislarini dalil qilib olishganlar: Imom Buxoriy va imom Muslimlar rivoyat qilgan hadisda anas roziyallohu anxu aytadilar: "Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam bir so'dan besh muddagacha (bo'lgan suv) bilan g'usl qilar edilar va bir mudd bilan tahorat qilar edilar".

Hadislarda o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish, insoniyatga zarur bo'lgan turlarning miqdorini ko'paytirish haqidagi fikrlar ifoda topgan. Yashash muhiti tozaligi va tanani toza ozoda saqlash masalalariga alohida ahamiyat berilgan.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, hozirgi davrda ekologik muammolar umumbashariy muammoga aylandi. Ajdodlarimiz ming yillar

mobaynida yer, suv, havo, olov va boshqa tabiat in'omlarini munosib ravishda e'zozlaganlar. Afsuski, ajdodlarimizning tabiatni asrash borasidagi qadimiy an'analari texnologik taraqqiyot tufayli ma'lum darajada unutilib yuborildi. Shu sababli xalqimizning qadimiy madaniyati, tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan an'ana va marosimlarini bugungi kunda chuqurroq o'rganish, uning mohiyatini keng ommaga tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir. Bunda xalqimizning tabiatni asrab-avaylash haqidagi qarashlari, inson va tabiatning uyg'un munosabatlarini o'zida aks ettirgan milliy qadriyatlarni yangi bosqichga ko'tarish zarur.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Шайх Муҳаммадсодиқ Муҳаммадюсуф. Мукаммал саодат йўли. – Тошкент: Шарк, 2012. – Б. 347.
2. Qur'oni Karim. "Nur" surasi, 45-oyat.
3. Qur'oni Karim. "Abasa" surasi. 24–32-oyatlar.
4. Qur'oni Karim. "An'om" surasi. 38-oyat.
5. Отабоев Ш. Экология, дин ва саломатлик. – Тошкент, 2007. – Б. 66.
6. Qur'oni Karim. "Baqara" surasi, 29-oyat.
7. Qur'oni Karim. "An'om" surasi. 56-oyat.
8. Qur'oni Karim. "Kof" surasi, 11–13-oyatlar.
9. Qur'oni Karim. "Nur" surasi. 45-oyat.

ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИДА АТРОФ-МУҲИТНИ АСРАШ МУАММОЛАРИ ТАҲЛИЛИ

ANALYSIS OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN ZOROASTRIANISM

АНАЛИЗ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В ЗОРОАСТРИЗМЕ

Behzod Barkamalovich Isxakov

Namangan davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti.

behzodisxakov2782886@gmail.com

Tel: +998 90 278 28 86

Salomat Isaboyevna Karimboyeva

Namangan davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti.

Аннотация.

В статье проанализированы первые понятия в "Авеста", связанные с защитой окружающей среды, и формированием позитивных соотношений между человеком и природы.

Summary.

In the article is analyzed first ideas in "Avesta", connected with protection of the environment and formation of relations between person and nature.

Ключевые слова.

"Авеста", экологически религиозные взгляды, ранние религиозные верования.

Keywords.

"Avesta", ecological-religious notion, first religious viewpoints.

Spiritual growth is one of the highest peaks in the society of harmony, nature and human life, and while realizing it there is a balance. Night after coming down, the rivers flow, issue with the cold, bitter sweet and discern between good and evil plays an important role in the development of the human. This is a history of our ancestors who lived in ancient times, their religion, arts, and medicine, everything was spirituality full confirmed.

It is not chance that teachings of Zoroastrianism people to the water promote soil fertility and purity in our Father country. It was in Central Asia in the early period, the natural forces divining totemic, animism, fetishism such beliefs were less than perfection, monotheism doctrine. In Zoroastrianism affect bloodshed in vain offerings spots, those who live sedentary, physical labor, fertile are encouraged to engage in animal husbandry.

During the development of the consistent traditions of Zoroastrianism, the ancient began seven "living saints" and their mythological nature of seven things were symbolized - air, soil, water, plants, cows, and seven ceremonies and celebrations in honor of the fire ceremony were existed. Two of these celebrations happiness, kindness, heavenly order and a true representative of the exalted name of Asha, a centuries old customs of certain mutated forms of our beginning of the year associated with Navruz preserved in the system of traditional ceremonies.

The duration of human life, of course are closely related to the sun, water, land and air. Realize that common ranges of regulatory areas of these four elements of nature for submitting the request were appeared according to the worship life of the furnace cycle. In these regions two economic areas, namely agriculture and livestock from natural elements were divined. Our ancestors could not imagine their lives without them. In all areas of Uzbekistan there was great need for them. For this reason, the ancestors of the Uzbek people for the first time in all areas of both agricultural embassies affect the role played important role in the spiritual world. Therefore, affect the environment concerns all aspects of the study of ecological culture, history, history lessons, life is must be comfortable whenever for all people. Especially, people's home household cleanliness, environment, clean, conservation opinions, ideas are still actual in practice.

Ancestors known that a fire was burning fiery furnace pepper, bread, food scraps to remove ashes from the hearth rubbish, waste furnace burning in abundance in the valley settled population lived in rural areas for the gray wire gathered in a corner of the courtyard or gray as the edification in the fall or in the spring of mineral crops. Together with the ashes of the fire garbage out, this house was going to join one of the wedding and mourning ceremonies, - they thought. During the three days of mourning ritual for the fire infected apartment fire cooking source. It is now common in all regions of the country. Neighbors that provide hot meals for three days of mourning neighbors [1].

Zoroaster's religion on the ecological system of the concept is not only stopped in environment and a bribe as well as the purity of his own sorrow. Thus, in the "Avesta" recommended that regular exercises every day to deal with a few

hundred hand-washing, hands-suckle up and keep the other parts of the body, hair, and nails counsel. 17-of this part of “Vendidod” were collected and shun the devil and cut off the nail and hair was given instructions about what to do for people in “Avesta”.

Water sources - rivers, lakes, wells or maintained in spite of all kinds of pollution. If you need to wash something impure ceremony, the water collected in a special place, but even then bad things directly into the water. The bad thing is erased before the cows are washed and dried in the sun or in the sand and then washed with water in order to purify the final. In addition, burning of the rain outside the home is prohibited, because such a move is due to the water and the earth “disliked” they thought they could handle it. Waste water and blacken the sin. “Avesta” invited to clarity “pure water, and the fire burning in front of the world social punishment in hell Who soil grief and suffering was so bad condition” [2]. the wakeup call.

Seriously studied by scientists around the world of our ancestors, “Avesta” the pastures, not to destroy the bushes, crops, gardens rag, fruit trees, harm, environmental protection purity, springs, wells, pools, ditches groove enough attention should be paid to signs comments could be found at this complex time. For example, looking at a pond or a stream on the property, or any person who has tied his horse to the ground, broke a trunk of a neuron founded 25 lash and punished with beatings. If the environment, road, bushes, meadows land, in violation of the provisions of the protection of the water dirty and it has been sentenced 400 lashes pulse [3].

Still preserved traditions of our holy doctrines: “Water pollution”, “Do not spit”, “Animal scold,” “night sleep with pressure, playing with fire” and “desolate cabin fever clean” as gentle and wisdom are remained us from the ancient legacy of “Avesta”.

Thus, air, earth, water, fire, clean, environmental cleanliness and wildlife preservation ideas are still important for people. Thus, the “Avesta” forward views on all aspects related to the environment, the positive aspects of life development of the ecological, mind and culture.

Preserved in environmental cleanliness and diseases “Avesta” can be divided into the following groups:

1. Hide garbage, dirty soil, stone, sand disposal. Killed in the same way microbes or less.

2. Flame, heat and cold loss. “Avesta” fire away and the sprinkling of rare tool. Even may be cleaned clothes from microbes and disposal with it.

3. Chemicals: slave, vinegar, wine, a variety of herbs (There – in cense, onions, God, sandals) by way of incense. Herbs are also eliminates germs thrive. “Vendidod”s Chapter 6 looks for wind, animals, and birds fly through a variety of ways to let you highlight the spread of diseases prevention.

It was perceived as an enemy of the opposite of life and death that death was due to complications of the evil days for his reactions were different. Close to dead people who died of possible dead washers tried to go to a special place day alone

the body. Body separate towers, ancient, long time ago, the count of hills, desert, rocky places, worms and amphibians, birds, wild animals could ate them as food. Which is abnormal for this time of such actions do not target the bodies dirty there, the water might contaminate the weeds. At that time, the body meat, bones buried together spool plate.

According to Zoroastrian cosmogony, the earth is in the form of a flange, moisture, water is the basis of everything, the earth is surrounded by the ocean, it is like a board in water. According to this belief, Zoroastrians revered water even more than fire. According to them, the first of the six substances (six gods) surrounding the earth is water (Apam-Napat), which contains the power of life, and the power of life in the water should be enriched with the juices of death [4].

In the system of ecological concepts related to Zoroastrianism, not only the environment, but also the purity of the person was concerned. For example, in “Avesta” it is advised to engage in regular physical education, to wash the face and hands several times a day, not to touch other parts of the body without washing hands, to keep the hair clean and clean the nails. The 17th chapter of “Vendidot” gives instructions on what to do with the nails and hair in which the devil’s excrement is collected and is cut [5].

Traces of Zoroastrian views about the magical properties of hair and nails have survived in the life of our people even in the present days. According to the researchers, nails should be thrown on the edge of the ground when they are taken [6]. If it is not thrown to a distant place, it will pierce under the feet of that person in the doomsday. Therefore, when people cut their nails away, they wrap them in paper like a shroud and say: “I give it to you, the black earth.” They bury it in a distant place, saying, “The wind, you are a witness [7]. “ At the heart of this custom, a positive relationship between man and nature began to be formed on th basis of the preservation of hair and nails, which are considered remains of the human body.

In the teachings of Zoroastrianism, water was considered a sacred element, and first of all, its purity was concerned about. For this, water sources – rivers, lakes or wells were strictly protected from any impurities. If something ceremonially impure had to be washed, the water was collected in a special place, but even then the impure object was not washed directly with water. The impure object was first washed with cow urine, dried in the sun or sand, and then washed with water for final purification. It was also forbidden to go outside when it was raining, because it was thought that it would make the water and the land “unpleasant”. Wasting and polluting water was considered a grave sin. In this regard, it is said in “Avesta” that “the punishment in hell for those who are impudent in front of pure water and burning fire is worse than all the pains of this world” [8].

Among Zoroastrians, keeping the surroundings clean and not interfering with the process of nature was a part of Zoroastrian virtue. Members of the team, particularly, young people, were brought up in the spirit of preserving and

beautifying nature. From a young age, they were taught to plant trees, take care of them, create greenery, build gardens, and not to pollute streams and ponds.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Исхаков Б.Б. “Авесто” да атроф-муҳит билан боғлиқ қарашлар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. 2010 – Баркамол авлод йилига бағишлаб Археология институтида 25–26 ноябрда ўтказилган ёш олимлар конференцияси материаллари. – Самарқанд. 2010 йил.
2. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: “Шарқ”, 2001.
3. Авесто: “Видевдот” китоби. М.Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: “Тош ДШИ” нашриёти, 2007.
4. Сулаймонова Ф. Нур шарқдан таралади // Фан ва турмуш. – Т., 1992. – №11–12.
5. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: “Шарқ”, 2001.
6. Троицкая А. Л. Рождения и первые годы жизни ребенка у таджиков долины Зерафшана // СЭ. – М., 1935. – № 6.
7. Аширов А. А. Ўзбек ҳалқининг қадимий диний эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашр, 2007. – Б. 200.
8. Isxakov B. The ecologic conception of zoroastrism connected with environment. Monografiya pokonferencyjna. “Science, research, development”. № 13. V.02. Berlin.
9. Isxakov B. Karimboyeva S. Interpretation of environmental protection in islam. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 6, June 2021:4610-4613.

NAMANGAN VILOYATI QORAQALPOQLARIDA HUNARMANDCHILIK AN‘ANALARI

РЕМЕСЛЕННЫЕ ТРАДИЦИИ КАРАКАЛПАКОВ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

TRADITIONS OF HANDICRAFTS IN KARAKALPAKS OF NAMANGAN

Sarimsokov Abdilatip Abdiraximovich

*University of Business and Science Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi.*

e-mail: abdulzarimsokov@gmail.com

Tel: +998 93 926 01 18

Nosirjonova Yulduz Toxirjon qizi

University of Business and Science Tarix mutaxassisligi magistranti.

e-mail: nosirjonovayulduz@gmail.com

Tel: +998 93 402 33 11

Annotasiya

Ushbu maqolada Namangan viloyatida yashovchi qoraqalpolarga xos hunarmandchilik an‘analari tahlil qilingan. Muallif bunda asosiy e‘tiborni viloyatda yashovchi

qoraqalpoqlarning geografik joylashuvi, kundalik hayoti, aynan mazkur etnosga xos hunarmandchilik turlari, uning bugungi kundagi ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan bo‘yrado‘zlikka qaratgan.

Аннотация

В данной статье анализируются ремесленные традиции каракалпаков, проживающих в Наманганской области. Автор сосредоточил внимание на географическом положении каракалпаков, проживающих в регионе, их повседневной жизни, ремеслах, характерных для этой этнической группы, и одном из его проявлений в наши дни – буйрадузлик.

Annotation

This article analyzes the craft traditions of Karakalpaks living in Namangan region. The author focused on the geographical location of the Karakalpaks living in the region, their daily life, handicrafts specific to this ethnic group, and one of its manifestations today, that is, weaving.

Kalit so‘z va iboralar.

Namangan viloyati, qoraqalpoqlar, Farg‘ona vodiysi qoraqalpoqlari milliy qadriyatlar, marosimlar, hunarmandchilik, baliqchilik, bo‘yrado‘zlik, qamish, chiy to‘qish.

Ключевые слова и фразы.

Наманганская область, каракалпаки, каракалпаки Ферганской долины, национальные ценности, обряды, ремесла, рыболовство, циновка, плетение из камыша

Key words and phrases.

Namangan region, Karakalpaks, Fergana Valley Karakalpaks, national values, rituals, handicrafts, fishing, mat weaving, reed weaving.

Mustaqillik sharofati ila o‘zbek xalqining tarixiy turmush tarzi, urf-odatlari, qadimiy an‘analari, boy milliy va ma‘naviy qadriyatlari, asrlar davomida yaratilib, bizning davrimizgacha yetib kelgan moddiy madaniyat durdonalari, amaliy san‘at asarlari, nodir yozma manbalar, shuningdek xalqimizning aql-idroki va tafakkuri yutug‘i hisoblanmish hunarmandchilik turlarini ilmiy tadqiq etish uchun imkoniyat tug‘ildi. Qolaversa, hunarmandchilik turlari tarixi, ishlab chiqarish jarayonlari, buyumlar shakllari, bezaklari, ranglarini bilish, usta-shogird munosabatlari, urf-odat, an‘ana va marosimlarini o‘rganish yanada dolzarbdir.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, qadimda xo‘jalikning barcha turlari xususan, chorvachilik va dehqonchilik kabi hunarmandchilik ham rivoj topgan edi. Bugungi kungacha yaratilib kelgan, xalqimiz hayotini barcha jabhalarini qamrab olgan hunarmandchilik namunalari oddiy buyumgina hisoblanmay, unda mahalliy xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkurining chuqur qatlamlari, xo‘jalik faoliyati, falsafasi, axloqiy qarashlari, turmush tarzining taraqqiyot darajasi ham namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy etnologiya fanida tadqiqot mavzusi xalqlarni ham izchil o‘rganishga va ular bilan bog‘liq marosim, urf-odatlarni ularning turmush tarzidagi o‘rnini bilishga e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari etnik xususiyatlarni saqlab qolish omillari va milliy marosimlarni tadqiq etish masalasining dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo‘yildashiga sabab bo‘lmoqda [1: 19].

Ma‘lumki, o‘zbek xalqining kundalik turmush tarzida o‘ziga xos o‘rinni egallovchi ayollar hunarmandchiligi hamda u bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar ayni paytda insoniyat moddiy madaniyatining muhim komponentlaridan biridir.

An'anaviy ayollar hunarmandchiligi o'zbeklarning oilaviy, xo'jalik, jamoaviy hayotida muhim o'rin egallagan bo'lib, asrlar mobaynida xalqimiz turli xil kasb-hunarlar bilan mashg'ul bo'lib kelgan. Ana shunday ayollar hunarmandchiligi turlaridan biri bo'yrachilikdir. Ma'lumki, Farg'ona vodiysi qoraqalpoqlari XVIII asrda Sirdaryoning o'rta oqimidan vodiya kelib joylashar ekanlar, asosan ular daryo yoqasiga o'rnatishga harakat qilganlar [2: 17]. Chunki, bunday joylarda ularda an'anaviy qamish buyumlar tayyorlashni davom ettira olar edilar. Demak, hunarmandchilik qoraqalpoqlar yashab kelgan tabiiy-geografik muhitdagi xom-ashyodan unumli foydalanish natijasida asrlar davomida vujudga kelgan va an'anaaviy mashg'ulot sifatida xo'jalikda mustahkam o'rin egallagan. Bunday xususiyat qoraqalpoqlarda qamish to'qish borasida boy tajribani to'planishiga sabab bo'lib, ular tayyorlagan mahsulotni boshqa etnoslar buyumlaridan yuqori sifati bilan ajralib turishga olib kelgan. Qoraqalpoqlar o'rnatish joylarning deyarli barchasida qamish o'suvchi ko'llar mavjud bo'lgan. Masalan, Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Oqtepa qishlog'i yonida Joymishko'l, Uymovut qishlog'i yonida Sirdaryo o'zani ko'llari, Quduq qishlog'i yonida Hobbuva ziyoratgohi ko'li, Namangan viloyati Pop tumani Kenagas qishlog'i yonida G'aznoq ko'li va boshqalar [3: 60].

Qoraqalpoqlar bu kabi hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash an'anasini yaxshi saqlab qolinishiga ularning xo'jalik-madaniy an'analari va tabiiy-geografik omil o'z ta'sirini ko'rsatgan. Natijada, ushbu hunar turi vodiy qoraqalpoqlari xo'jaligida alohida ahamiyat kasb etgan va tovar xarakterini olgan.

Dala tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qamishdan bo'ya tayyorlash vodiya Sirdaryo bo'yida joylashgan deyarli barcha qoraqalpoq qishloqlarida rivojlangan. Ayniqsa, hunarmandchilikning ushbu turi Qo'qon uyezdining Quduq va Shopo'lat, Namangan uyezdining G'aznoq, Nayman, Beshsari, Qozoqovul va Momoxon qishloqlarida rivojlangan. Mazkur qishloqlarda yashovchi qoraqalpoqlar sohaning mohir ustalari hisoblanib, hozirgi kunga qadar ushbu an'anani davom ettirib kelmoqda [4: 61]. Shuningdek, bo'ya to'qishda kam turdagi asboblardan foydalanilgan. Jumladan, sherdam o'roq deb ataluvchi uzun bo'yinli o'roq, kaltakcho'p, kichik kaltak cho'p, yorg'u, bo'ya tosh va bo'ya pichoqdan iborat.

Axborotchilarning fikriga ko'ra, XX asrning 50- yillaridagi qo'riq, zaxkash yerlarni o'zlashtirish davrida bu ko'llar quritilib o'zlashtirilgan. Xom-ashyo kamayishi bilan hunarmandchilik tugay boshlagan. Shunga qaramay, hunarmandchilik ayrim qoraqalpoq qishloqlarida bugungi kunga qadar saqlanib qolmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, vodiy qoraqalpoqlari qamishdan turli buyumlar to'qiganlar. Masalan, Momoxon qoraqalpoqlari don solinadigan maxsus idish bardon bo'yradir to'qiganlar. U silindr shaklida bo'lib, saqlanayotgan don uchun havoni yaxshi o'tkazgan, donga mita tushmagan, kemiruvchilar ziyon yetkaza olmaganlar. Ular o'choq yoniga "P" shaklida o'choqbardon to'shab o'tirganlar [5]. Bo'yрани o'lchami 170x200 sm. qilib to'qilgan. Qamishdan baliq ovlash uchun g'azo ham to'qilgan. Qamishdan tom tepasiga solish uchun chiy ham tayyorlangan. Qolgan qoraqalpoq qishloqlarida yana shu kabi mahsulotlar va tom yopishda

foydalaniladigan bordon-bo'yraning bir turi (qamishning bargi tozalanmasdan to'qiladi), qazo bo'yra to'qilgan. Qazo bo'yra o'lchamiga ko'ra "chor gaz" 5–6 m² va 1.6 m² lisi (se gaz) bo'lgan. Qozon ustiga yopishda ishlatiladigan qozon bo'yra ham to'qilgan [6: 62].

Bo'yra to'qish texnologiyasi barcha qoraqalpoqlar uchun umumiy xususiyatga ega bo'lgan. Qamish o'rib kelingach, salqinda quritilgan. So'ng 5–6 dona qamish poyasi bir qo'lgan olinib, 2 ta "kaltakcho'p"ni ayri qilib olib ularga urib poyalar barglardan tozalangan. Kaltakcho'p yulg'un butasidan 50–60 sm uzunlikda kesib olingan cho'pdir. Tozalangan qamish "yorg'u" (uzunligi 10–15 sm uzunlikdagi ichi kavak yog'och bo'lgan bo'lib, o'rtasiga 3–4 sm.li metall tig' o'rnatilgan) bilan tozalangan. Qamish poyasi sirtidan u yurgizilganda u poyani bir tomondan bir marta yorib ketadi. Yorilgan qamish ustidan eniga og'ir tosh bostirilib endi poya bir necha qismlarga ajratilib eziladi. Ezilgan qamishdan bo'g'im pardalari, barglari "kichik kaltakcho'p" (30 sm) bilan ikkinchi marta yuqoridagi usul kabi tozalanadi. Qamish orasi ochilib oyoq bilan yozib turilib yorilmay qolgan bo'g'imlar bo'yra tosh bilan urib ezib chiqiladi. Bo'lajak bo'yra bichmini chiqarish uchun to'quvchi dastlab 11 dona qamish poyasini sirtini yuqoriga qilib poyalar yoyilgan holda yerga yonma-yon joylashtiradi. Bunda 5 ta qamish poyasi uchi bir tarafga, 6 tasini qarama-qarshi tarafga yo'nalgan bo'ladi. So'ng shu qamish poyalari o'rtasidan arqov qamish poyasi o'tkazish boshlanadi. Arqov qamish asos qamish poyalari dastlab 2 ta poya tepasidan, so'ng 2 ta poya quyidan qilib o'tkazib boriladi.

Keyingi arqov qamish birinchi arqov qamishga qarama-qarshi tarzda o'tkazib bo'yra to'qiladi. Bo'yra to'quvchilarning fikricha, arqov qamish bir marta "4 bosar" 4 ta qamishdan so'ng tarzida, keyin "2 bosar", ya'ni 2 ta poyadan so'ng o'tkazish shaklida to'qib boriladi. 4 bosar arqov qamish o'tkazishda poya uchi bilan o'tkazilsa, 2 bosar arqov qamish poya ildiz tomon bilan o'tkaziladi. Umuman olganda, 13 ta arqov qamish o'tkazib olingach, bo'yra bichimi chiqadi. So'ng bo'yraga suv sepiladi. Pichoq uchiga qamishni tirab turib qayirib, bo'yratosh bilan urilib bo'yra cheti chiqariladi. Bo'yraning shu qismi bo'ylab to'qish davom ettirilib, u 3 metrga yetgach, oxiri cheti qayirilib to'qish yakunlanadi [7].

Bo'yrado'zlik hunarmandchiligi oila-jamoachilik xarakteridagi ishlab chiqarish usuliga ega. To'qish oilada erkaklar va ayollar tomonidan bajariladi. Oiladagi bolalar ham hunarmandchilikka erta yoshligidan ota-onalari tomonidan o'rgatiladi. Hunarmandchilik oilalarda individual xarakterda bo'lsada, xom-ashyoni keltirish jamoachilik xarakteriga ega bo'lgan. Masalan, xom-ashyo qamish uchun mahalladagi barcha erkaklar birgalikda qamish ko'p bo'lgan ko'llar bo'yiga borib, u yerdan qamish jamg'arganlar va o'z qishloqlariga keltirganlar [8: 62].

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Farg'ona vodiysi qoraqalpoqlarida bo'yrado'zlik, hunarmandchiligi azaldan rivoj topgan an'anaviy mashg'ulotlardan biri bo'lgan. Hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat qoraqalpoqlar, balki vodiyning boshqa etnoslari tomonidan ham juda qadrlangan. Hunarmandchilik qoraqalpoqlar hayotidagi muhim o'rnini keyingi davrlarda ham saqlab qolib, bugungi kunda ham an'analar davom ettirilmoqda. Zero, bugungi zamonaviy turmush tarzimizda ota-

bobolarimizning milliy an'analaridan foydalanishimiz mustahkam kelajagimiz poydevoriga zamin yaratishdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Аширов А. А. Ўзбек халқи этнологиясида терминология муаммосига доир айрим мулоҳазалар / Этнос ва маданият: анъанавийлик ва замонавийлик. – Тошкент, 2010.
2. Толстова Я. С. Каракалпаки Ферганский долины. – Нукус, 1959.
3. Эсонов З. Ю. Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг ҳунармандчилик анъаналари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. – Тошкент, 2021.
4. Эсонов З. Ю. Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг ҳунармандчилик анъаналари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. – Тошкент, 2021.
5. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Momoxon qishlog'i. 2025 yil.
6. Буланов С. Бўйранинг хосиятлари // Гулистон. – 1998. – №2
7. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Momoxon qishlog'i. 2025 yil.
8. Эсонов З. Ю. Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг ҳунармандчилик анъаналари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. – Тошкент, 2021.

XALQ O'YINLARI IJTIMOYILASHUVNING SAMARALI VOSITASI VA OMILI

FOLK GAMES AS AN EFFECTIVE MEANS AND FACTOR OF SOCIALIZATION

НАРОДНЫЕ ИГРЫ КАК ЭФФЕКТИВНОЕ СРЕДСТВО И ФАКТОР СОЦИАЛИЗАЦИИ

Salimjon Valiyevich Yo'ldoshev

*Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: salimjonyoldoshev4@gmail.com
Tel: +998 99 608 68 56*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bolalar o'yinlari tarixi, yoshlarning ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bir-birini tushunishga va o'zaro yaqinlashishga, hamma uchun tushunarli umumiy tili bir-birlarini anglab olishlarida hamda ijtimoiylashuvda tarbiya vositasi, omili ekanligi ochib berilgan. Xalq o'yinlari xo'jalik hayoti bilan bog'liqligi manbalar asosida etnografik aspektda yoritilgan.

Аннотация.

В статье рассматривается история детских игр, то, как они являются средством воспитания и фактором социализации и понимания молодых людей во всех сферах их общественной жизни, а также то, как они используют общий язык, понятный всем. С этнографической точки зрения на основе источников рассматривается связь народных игр с хозяйственной жизнью.

Abstract

The article examines the history of children's games, how they are a means of education and a factor in the socialization and understanding of young people in all areas of their social life, as well as how they use a common language that is understandable to everyone. From an ethnographic point of view, based on sources, the connection of folk games with economic life is considered.

Kalit so'zlar.

Etnografiya, ibtidoiy jamiyat, urf-odat, udum, marosimlar, kundalik turmush, milliy-etnografik qiyofa, hayotiy taassurotlar, kuzatishlar, tajriba, hissiyotlar, musiqa, raqs shakllari.

Ключевые слова.

Этнография, первобытное общество, обычаи, традиции, обряды, быт, национально-этнографический образ, жизненные впечатления, наблюдения, опыт, эмоции, музыка, танцевальные формы.

Key words.

Ethnography, primitive society, customs, traditions, rituals, everyday life, national-ethnographic image, life impressions, observations, experience, emotions, music, dance forms.

Xalq o'yinlari xalq ijodiyotining o'ziga xos janri bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Ularda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos ijtimoiy voqealar aniq aks etadi.

Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo mintaqasida eng qadimgi tarixiy-etnografik va muhim ijtimoiy-iqtisodiy hududlardan hisoblanadi. Ham o'troq, ham ko'chmanchi sivilizatsiyaning eng ilg'or tajribalarini o'ziga singdirib va sintezlab olgan vodiy aholisi o'ziga xos original madaniyatga asos solgan.

Mintaqada o'zbek, tojik, qirg'iz millati vakillari yonma-yon yashaganligi, bir-biriga yaqin xo'jalik turlari bilan shug'ullanganliklari tufayli uzoq asrlar davomida etnomadaniy jarayonlarda uyg'unlik mavjud. Ushbu xalqlarning urf-odati va an'alarida, kundalik turmush tarzida, udum va marosimlarida umumiylik komponentlari ko'zga yaqqol tashlanadi. Shuningdek, yozma manbalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu xalqlarda urf-odat va marosimlarning o'ziga xos jihatlarida chegaraviy masofaning ham o'rni mavjud. Tadqiqotda asrlar davomida tabiiy shart-sharoit va xo'jalik an'alaridan kelib chiqqan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida sayqallanib borgan xalq o'yinlari haqida mushohada yuritilishi etnotarixiy jarayonlarni chuqurroq idrok etishga imkon beradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq o'yinlarining tadrijiy rivojlanishini va shu o'yinlardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda xalq o'yinlarining har bir turiga xos jihatlariga alohida e'tibor berish kerak. O'yinlar xalq tomonidan yaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni obrazli aks ettirgan. Ularning hayotiy taassurotlarini, kuzatishlarini, tajriba va hissiyotlarini gavdalantirib, o'zida musiqa, raqs shakllarini ham mujassamlashtirgan.

Ibtidoiy jamiyatda yoshlarni kattalar safiga qo'shish, deb ataladigan bayramlar, diniy ma'rosimlar keng tarqalgan. Bular o'ziga xos o'yin, musobaqalardan iborat bo'lib, ularning mazmunini mehnat faoliyati, qabilalarning urf-odatlari, udumlari, xalq og'zaki ijodi tashkil qilgan. Mana shunday o'yin musobaqalarda yigitlar qurollardan foydalana olishlarini, diniy odatlarni, qo'shiqlarni, qabila rivoyatlarini bilishlarini namoyish etishlari lozim bo'lgan. Marosimlarda raqslar ham ijro qilinib, ularda ibtidoiy odamlar o'z hayotlaridagi

voqealarni, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklarini, shodliklari va qayg'ularini ifodalaganlar.

Ibtidoiy odamlarning yovvoyi hayvonlarni ovlashlari, ularni o'zlariga bo'ysundirishga intilishlari ov o'yinlarini ijod qilishga va namoyish etishga sabab bo'ldi. D.U.Elkonin o'yin va san'atning kelib chiqishini tadqiq qilib, "ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o'yinlarda ifodalaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o'ynash ularga yo'l qo'yilgan xatolarni hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan", degan xulosaga keldi [12: 23].

Tadqiqot tarixshunosligining tahlili shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysi aholisining tarixi etnohududiy xususiyatlari ushbu mintaqaga kelgan turli toifadagi kishilarni qiziqtirgan.

XIX – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan, Farg'ona vodiysiga Rossiya imperiyasi va xorijiy davlatlardan yuzlab geograf-sayyohlar, harbiy xizmatchilar, savdogar va ayg'oqchilar tashrif buyurib, bu hududdagi aholining etnomadaniy va xo'jalik hayoti bilan bog'liq jihatlarga qiziqqanlar. Mahalliy xalqning urf-odat, udum, marosimlari, kundalik turmushi haqida xotira, esdaliklarni yozib qoldirganlar yohud, asar va maqolalarida qiziqarli ma'lumotlarni keltirganlar.

O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, rus tadqiqotchilari Farg'ona vodiysini etnosotsial xususiyatlarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratib, ilmiy asoslangan ma'lumotlar to'plashga erishganlar. Tadqiqotlari ularning ko'zlangan asosiy manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lsa-da, vodiy xalqlari etnografiyasiga oid boy ma'lumotlar olish mumkin. Bu o'rinda X. Potanin, A. Middendorf, V. V. Velyaminov-Zernov, A. Shishov, A. P. Xoroshkin, V. Firsov, N. F. Sitnyakovskiy, A. I. Bryanov, A. Divayev, A. Kasatkin, A. Ye. Kushakevich, P. Ye. Kuznetsovlar olib borgan ilmiy tekshirishlarni qayd etish mumkin [23: 173-178; 19: 10-329; 26; 5; 34; 35: 225-226; 30: 218; 31; 25: 28-39; 3: 31; 9; 10; 13; 16; 14: 23-24; 15: 349]. Ularning tadqiqotlarida Farg'ona vodiysi aholisi kundalik turmushi va urf odatlarida xalq o'yinlari bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Ayniqsa, A. Divayev va A. Firsovlarning maqolalarida Turkistonda bolalar o'yinlari va yilqichilikka oid anchagina ma'lumotlar keltirilganligi e'tiborga loyiq. Xalq o'yinlari, ularning hududiy va umumiy xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan e'tibor keyingi yillarda ayniqsa yanada kuchayib, tarixiy, etnografik, arxeologik, pedagogik, folklorshunoslik, o'lkashunoslik hamda etnologik jihatdan ham qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, M. Jo'rayev, T. S. Usmonxo'jayev, F. Xo'jayev, R. Yo'ldosheva, Habibulla G'ofur, F. Nasriddinov, A. Qosimov, M. Daminova, G. Adambekova, E. G'. G'oziyev, Sh. Anarmetova, V. Mirzayev, Sh. Galiyev, T. Abduraximov, K. X. Rahimova, Sh. Norqulov, Sh. Sultonov, B. Buzrukov, A. Abdullayev, T. S. Usmonxo'jayev, Sh. Xonkeldiyev, R. Rasulov, G'. Qurbonov, A. H. Nosirov, P. A. Usmonov, D. B. Alimbekov, A. Mullayev, N. Abdulhatov, S. N. Tursunov, G. Valixonovalar [11; 29; 17; 12; 33: 15; 21; 8; 7; 20; 32; 6; 2; 24; 28; 1; 27; 22; 4]. bolalar o'yinlarining tarixi, ularning turlari, ma'naviy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashdagi hamda tarbiyaviy ahamiyati borasida tadqiqot

olib bordilar. Lekin yuqoridagi tadqiqotchilar o'z ixtisosliklari doirasida tadqiq qilganlar.

Xalqlarning uzoq davrlardan buyon saqlanib kelayotgan o'yinlari ular hayotining bir bo'lagiga aylangan. O'yinlarda xalqning xoxish-istaklari, o'tmishi, turmush tarzi namoyon bo'ladi. Xalq o'yinlari boshqa urf-odat va an'analar singari uzoq tarixga ega. Bu o'yinlar, musobaqalarning ayrimlari turli ta'sirlar natijasida modernizatsiyalashgan, ayrimlari lokal xususiyatlarini saqlab qolgan. Bu esa xalqning ijtimoiy-psixologik holatidan kelib chiqib, quvnoqlik, xushchaqchaqlik, to'y va bayramlarga ishtiyoqning kuchliligi, tadbir o'tkazishga moyillik kabi komponentlarning yetakchiligidan dalolat beradi.

Yer yuzida biror bir o'yini shakllanmagan xalqni uchratmaysiz. Inson go'dakligidanoq tashqi olamni anglay boshlaydi. Bu jarayonda o'yinchoqlar vositasida atrof haqida tasavvurga ega bo'ladi. Go'daklik, bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlaridagi turli o'yinlar o'ziga xos tarzda ixtiyoriy faoliyat turlari hisoblanib, obyektiv ravishda tarbiyaviy, axloqiy, ijtimoiy-estetik funksiyani bajaradi [12: 28]. Jumladan, "Xola-xola" o'yini bolalarni yoshlik chog'idanoq, mehmon kutish va kuzatish, dasturxon tuzash odobiga oid ko'nikmalar, ijobiy xislatlar shaklanishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida qizlarni oilaga tayyorlashda bir bosqich vazifasini o'taydi. Shuningdek, u bolaning jamoa ichida o'zini tutishi, boshqarishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Xalqlarimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bir-birini tushunishga va o'zaro yaqinlashishga intilayotgan hozirgi davrda o'yinlarning hamma uchun tushunarli umumiy tili bolalar ham bir-birlarini anglab olishlarida katta yordam beradi. Ularning boshqa millatlarning o'yinlarida ishtirok etishlari ularda baynalmilallik his-tuyg'ularni, turli millat kishilariga hurmat va muhabbatni, boshqa millatlarning turmushi, madaniyati, an'analari, odatlari va hokazolariga doir bilimlarni tarkib toptiradi. Mazkur o'yinlar o'zbek xalqi hayotini va madaniyatini boshqa millatlarning hayoti va madaniyati bilan taqqoslashda yordam beradi. Bu esa yoshlarni o'z xalqining xususiyatlarini, o'ziga xosligini, hissiy jihatlarini chuqurroq bilib olishiga xizmat qiladi. O'yin mazmunining rivojlanishi bolaning kattalar hayoti va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishida, atrofda voqealarga munosabati o'zgarishida, shuningdek, o'yin mazmuni hamda syujeti ijtimoiy shart-sharoit va jamiyat a'zolari turmushining tobora to'g'ri aks ettirishda ko'zga tashlanadi. Shuning uchun bolalarni o'yin qobiliyatini o'sishi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki kattalarning ta'siri natijasida atrof-muhit bilan tanishish, sayrlar uyushtirish, shaxslararo munosabatlarning mohiyatini tushunish, kabilarda amalga oshadi.

Yuzaki qaraganda, xalq o'yinlari bo'sh vaqtni shunchaki ko'ngilli o'tkazishdek ko'rinadi. Lekin uning zamirida jismoniy va ma'naviy barkamollikni tarbiyalashning samarali usullari jamlangan. Shunday tarbiya usuliga asoslangan O'zbek bolalar o'yinlari talaygina. Masalan, lappak, tosh ko'tarish, kabi arqon, koptok, tosh predmetlar bilan o'ynaladigan qator o'yinlar mazmuni bolalarni jismoniy va ma'naviy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. O'yinlardagi milliy qadriyatlar, insoniy tuyg'ular, tabiat va insonga muhabbat, ajdodlar an'anasiga

sadoqat ularning ma'naviy qudratga ega ekanligini ko'rsatadi. O'yinlar o'z-o'zidan paydo bo'lavermaydi. Ular xalq ijodining mahsuli bo'lib, insonlarning olamda o'z mavqe va o'rnini bilishi, go'zal hayot barpo eta olishi xalq o'yinlarining etnografik elementlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. O'yinlar jarayonida bolalardan aql-zakovat, mohirlik, tadbirkorlik, epchillik va chaqqonlik, jasurlik va shijoat, hushyorlik va favqulodda qa'iy qarorga kela olish kabi sifatlar talab qilinadi. Bunday sifatlar talab etiladigan o'yinlar sirasiga yashirin topaloq, ko'z boylash, qorovul bola, Zim-ziyo, ushla-ushla, bog'bon qorovul kabilarni kiritish mumkin. Bu sifatlar esa tarbiyaning jismoniy, axloqiy, estetik, ruhiy komponentlarni o'yinlar orqali bolalarga singdirish imkoniyati kengligidan dalolat beradi. O'yinlar orqali komil insonni tarbiyalashning qulayligi shundaki, bolalarni bu jarayon (o'yin)ga olib kirishda qiyinchilik tug'dirmaydi, tarbiyaning majburiy usul va vositalari qo'llanilmaydi. Bolalarda u yoki bu o'yinda ishtirok etishda ixtiyoriylik prinsipiga amal qilinadi. Tarbiya berishning sinf, auditoriya kabi an'anaviy metodlaridan o'yin maydoniga olib chiqiladi. O'yin orqali o'quvchilarda ma'naviy va jismoniy sifatlar shakllanadi. Shuningdek, bosqichma-bosqich komil inson tarbiyalanadi.

Tashqi olamga taqlid va ularni hayotga tatbiq qilishga intilayotgan bolani ko'rsangiz, bilingki, u zavqlanyapti, murakkab olamning eng sodda vakili nimagadir talpinayapti [18].

Aslida bolalarni tetapoya qilishlaridagi mohiyat bioasosga tayanadi, ya'ni ulg'ayish, voyaga yetish, o'sib-unish jarayonida bir millatning yosh avlodi bu yo'lni o'ziga xos, boshqalardan farqli ravishda bosib o'tadi. Xalq o'yinlari odamlarga ham jismonan bardamlik, ham intellektual ozuqa beradi. Jumladan, asosan qizlar o'ynaydigan, hunarmandchilik xo'jaligi rivojlangan hududlarda eng ko'p tarqalgan rang top, lappak, to'p tosh, topishmoq (buyumlar bilan bog'liq topishmoqlar) kabi o'yinlar bolalar va qizlarda intellektual salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Asosan bolalarning barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun xizmat qiladigan o'yinlar yosh avlodda, avvalo, millatga bo'lgan hurmatni, ota-bobolardan qolgan boy merosga nisbatan sadoqatni oshiradi.

Bundan tashqari, milliy sport turlari bilan doim hamnafas bo'lgan o'g'il-qizda jamoa bo'lib ishlash malakasi, halollik, mehnatsevarlik, burch va ma'suliyatni his qilish, chaqqonlik, shiddat, tezlik, o'z o'rnida aql bilan ish tutish, aniqlik kabi xususiyatlar shakllanadi. Bolalarcha beg'ubor raqobatga bardosh berishga intilgan o'g'il yoki qiz kelajakda hayot qiyinchiliklarini, albatta, yengib o'tadi. Xalq o'yinlarida bu kabi olijanob va taraqqiyotga chorlovchi fazilatlarini o'zida jamlangan o'yinlar ko'p. Oddiygina berkinmachoq o'yini bolalarda harbiy sohaga ishtiyoq, sezgirlik va chaqqonlik, harakatlarda uyg'unlik va o'yinga xos mutanosiblik jihatlarini shakllantiradi. Mazkur o'yinning, umuman harbiy o'yinlarning (mo'ng'uz-mo'ng'uz, oq so'ngak, oq terakmi-ko'k terak, botir bola, dasta, danak yashirish, yashirin-topaloq, topil-topil, quloq cho'zma, kurash va hokazo) Vatanning botir va jasur himoyachilari, vatanparvar, yurtparvar, elparvar yurtdoshlarimizni tarbiyalashdagi roli beqiyos. Tarixga nazar solsak,

Mustaqillik sharoitida bunday an'anaviy o'yinlarning qayta tiklanishi bolalarni yoshlikdan vatan himoyachisi bo'lishdek ko'nikma-malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirib bormoqda. Mustaqillik yillarida o'quvchi yoshlar o'rtasida "Umid nihollari", "Barkamol avlod", oliy o'quv yurti talabalari o'rtasida "Universiada" kabi sport o'yinlari ommaviylashib, an'anaviy tus olib bormoqda. Bu sport o'yinlari rivojlanishi natijasida xalq o'yinlarining tarkibi, turlari ko'paydi, ijtimoiy qatlami kengaydi. Shuningdek, ular ommabop tadbirlarga aylandi. Tarixan tarkib topgan o'yin va musobaqalarning bu tadbirlarga olib kirilishi an'anaviy hamda zamonaviy xalq o'yinlarining transformatsiyalashuvi jarayonini kuchaytirdi. Jumladan, to'p, arqon predmeti bilan bog'liq o'yinlar, uzunlikka sakrash, kurash kabilar guruh-jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlar sirasiga kirib, bolalarda jamoaviy hisni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har qanday xalq o'yinlari yakka tartibda o'ynalmaydi. Unda guruh va jamoa ishtirok etadi. O'yin jarayonida jamoaviy harakat va muloqot, qoidalari, axloq normalari, o'zaro yordam ko'nikmalari, umuminsoniy qadriyat tamoyillari, ma'naviyat va ruhiyatning tarkibiy qismlari shakllanadi. O'yinlarda shaxslararo munosabat me'yorlari, kattalar tajribasini o'zlashtirish va uni shaxsiy faoliyatda sinab ko'rishning ko'nikmalari vujudga keladi. Xalq o'yinlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib borish bilan birga milliy o'zlikni anglash, urf-odat va an'analarga sodiq qolish jihatlarini namoyon qilib boraveradi.

Xalq orasida tarqalgan o'yinlar, asosan, ochiq havoda o'ynaladi. Tabiat qo'ynida, ochiq havoda yilning barcha fasllariga xos o'yinlar kishini ruhan tetik, hayotga va yashashga intiluvchan bo'lishga xizmat qilibgina qolmay, balki ishtirokchilarning tanasida har qanday kasallikka nisbatan immunitetni shakllantiradi.

O'yinlar ham xalq ommasining ijodiy salohiyati natijasida yuzaga kelganligi, asrdan-asrga o'tib an'ana tarzida yashab kelayotganligi, turli-tuman variantlarda ommalashganligi mohiyatan xalq ijodiyotining mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham ananaviy xalq o'yinlarining kelib chiqish tarixi, yosh avlod tarbiyasidagi ijtimoiy-estetik ahamiyatini tadqiq va targ'ib etish-ajdodlarimizning yosh avlodni komil insonni voyaga yetkazish borasidagi qadimiy analarini tiklash yo'lidagi muhim bir qadamdir.

Sog'lom va ma'nan barkamol avlod tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik ish deb qaralayotgan shu kunlarda ananaviy xalq o'yinlarini tadqiq etish xalqimiz milliy-etnografik qiyofasini aks ettiruvchi o'yinlarning shaxs dunyoqarashi va ruhiy olamida tutgan o'rnini belgilash imkonini beradi.

S. A. Shmakov o'yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ifodalab shunday yozgan edi: "O'yin go'yo soyadek, bola bilan birga tug'ilgan, uning hamrohi, ishonchli do'stiga aylangan. Lekin biz uni uzoq yil davom etishi uncha yaxshi deb hisoblamaymiz. O'yin juda katta, ba'zan ko'z ilg'amas tarbiyaviy rezervlari, g'oyat keng pedagogik imkoniyatlari tufayli insonlar e'tiborini qozonadi" [12: 26].

Musobaqa shaklidagi o'yinlar g'olib va mag'lub tomonning bo'lishini taqozo etadi. Lekin o'yin yakunidagi mag'lublik nisbiy tushuncha bo'lib, mag'lub tomonning kelgusidagi g'alabaga bo'lgan intilishini kuchaytiradi, g'olib

tomonning esa o'z mavqeini saqlab qolish uchun harakatini yanada oshiradi. Bu esa bolalar o'rtasidagi do'stona raqobat muhitini yaratish bilan birga, ulardagi jismoniy va ma'naviy tayyorgarlikni rivojlantiradi. Xalq o'yinlari tarbiya jarayonida faoliyatning bir turi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotdan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

-globallashtirish sharoitida xalq o'yinlari milliy mazmuni va shaklini saqlab qolgan holda millatlararo munosabatlarning shakllanishi va mustahkamlanishida xizmati katta ekanligini isbotladi;

-jamiyat hayotida ijtimoiy mazmun kasb etib, qadriyatga aylanib borayotgan sport o'yinlarimiz etnik madaniyat, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarimizni saqlash va rivojlantirishning muhim vosita sifatida qarash lozim;

-shuningdek, bolalar o'yinlaridagi uyg'unligi, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish tarbiyaning muhim omili ekanligini ta'kidlash o'rinlidir;

-o'yinlarning ommalashib borishi dunyo xalqlari o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlashga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashda xizmat qiladi;

-xalq o'yinlari ochiq havoda, asosan, jamoa bo'lib o'ynalganligi tufayli bu o'yinlar asosida bugungi avlodni aqliy, jismoniy, ruhiy, axloqiy, estetik ruhda tarbiyalashning eng qulay va ixtiyoriy manbalaridan biridir.

-sog'lom avlod tarbiyasida ko'llanilayotgan turli xil jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar, zamonaviy sport turlari beradigan jismoniy sifatlar hamda insoniy fazilatlar majmuasi xalq o'yinlari mazmunida yetarlicha mujasamlashganligi bilan ham umuminsoniylik kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. Абдулахатов Н., Ғозиев Т. Бурхониддин Марғиноний: Тарихий ҳақиқат ва асотирлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2010.
2. Адурахимов Т. Ўзбек халқ ўйинлари ва томошалари. – Тошкент, 1997.
3. Брянов А.И. На память о Фергане 1876-1901 гг. – Новый Маргелан, 1901.
4. Валихонова Г. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Т.: Янги нашр, 2013.
5. Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве // ВРГО ч.XVIII КН. 5. – СПб. 1886.
6. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Т.: Фан, 1998.
7. Ғозиев Э.Ғ., Анарметова Ш. Ўйин назарияси. – Тошкент: 1995.
8. Даминова М., Адамбекова Г. Ўйин машғулоти. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
9. Диваев А. Древние игры киргизской молодёжи // Туркестанская ведомость. 1907. № 54.
10. Диваев А. Коневодства Туркестана // Туркестанский сборник. 1909. Т. 510.
11. Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида сеҳрли рақамлар. – Т.: Фан, 1991.
12. Йўлдошева Р. Ўзбек халқ ўйинларининг тарбиявий аҳамияти. – Т., 1992.
13. Касаткин А. Переселенческое дело в Ферганской области. К истории возникновения русских поселков в Фергане // Ферганские областные ведомости. – Скобелев, 1907. № 92.
14. Кузнецов П.Е. О таджиках Наманганского уезда // ИТОРГО. – Ташкент, 1915. Т.XI.21.
15. Кузнецов П.Е. О таджиках Кокандского уезда // ИТОРГО. – Ташкент, 1916. Т.XII. Вып. II.
16. Кушакевич А.Е. Сведения о Ходжентском уезде // ЗИРГО. – Ташкент, 1915.

17. Қорабоев У.Х. Ўзбеккона ўйинлар // Гулистон. – Т.: 1991.- №9.
18. Маҳсумов С. Миллий ўйинлар-тарбия воситаси // Маърифат. 2007.- №20. 10 март
19. Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. – Спб., 1882.
20. Мирзаев В. Тўптош ўйини. – Т.: Чўлпон, 1996.
21. Насриддинов Ф., Қосимов А. Ўзбек халқ – миллий ўйинлари. – Тошкент, 1993.
22. Носиров А.Х., Усмонов П.А. ва б. Ўзбек жанг санъатининг матонатли спортчилари. А.Х. Носиров, таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.
23. Потанин Х. Записки о Кокандском ханстве / Вестник Исследования и материалы в 1830 годах. – Спб., 1857. Т.8.
24. Раҳимова К.Х. Болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш учун ўйинлар. – Фарғона, 2006.
25. Ситняковский Н.Ф. Перечисление некоторых родов киргиз, обитающих в восточной отдела русского географического общества. Вып.1. – Ташкент, 1900. Т.2.
26. Туркестанский сборник. 1882. Т.431.
27. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р., Турсунов А.С., Тоғаева М.Р. Ўзбекистоннинг жанубий худудларида номоддий маданият тарихи. – Т.: “Муҳаррир”, 2012.
28. Усмонхўжаев Т.С. Кичкинтойлар учун 200 ҳаракатли ўйинлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.
29. Усмонхўжаев Т.С., Хўжаева.Ф. Минг бир ўйин. – Т.: Ибн Сино, 1990.
30. Фирсов В. Сарты / Этнографическое и антропологическое исследование. Ч.1. Этнография. – Ташкент, 1904.
31. Фирсов В. Туркестан и Туркестанские породы лошадей. Туркестанский сборник. 1895. Т. 479.
32. Хоразм хазинаси. – Ургенч. 1996.
33. Ҳабибулла Ғофур. Халқ ўйинлари, кўшиқлари ва анъаналарига бир назар. – Тошкент: 1992.
34. Шишов А., Хорошкин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – Спб., 1876.
35. Шишов. А. Сарты / Этнографическое и антропологическое исследование. Ч.1. Этнография. – Ташкент, 1904.

О‘ҚЧИЛИК О‘ЙINLARI JIHOZLARIGA OID AYRIM MA’LUMOTLAR

НЕКОТОРИИ ИНФОРМАЦИИ ПО ИНСТРУМЕНТОВ ИГРЫ СТРЕЛЬБЫ ИЗ ЛУКА

SOME INFORMATION ABOUT ARCHERY TOOLS

Ahrorbek A'zamjonovich Azizov

O‘zR FA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi, t.f.f.d. (PhD)

e-mail: aahazizov@gmail.com

tel: +998 97 429 02 42

Annotatsiya

Eng qadimgi qurollardan biri hisoblangan yoy va o‘q hamda u bilan bog‘liq turli xil jihozlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ovchilik va keyinchalik harbiy ahamiyat kasb etgan o‘qchilik faoliyatini takomillashtirish uchun shakllantirilgan o‘yinlarda qo‘llash maqsadida maxsus jihozlar yaratilgan. Ushbu maqolada Turonning o‘qchilik o‘yinlarida qo‘llangan jihozlar va ularning qo‘llanish maqsad hamda vazifalari ko‘rsatilgan. Bundan tashqari,

o'qchilik jihozlari hisoblangan yoy, o'q, maxsus nishonlar, yuksak va boshqa vositalarning ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация

Лук и стрелы, считающиеся одним из древнейших видов оружия, а также различное связанное с ними снаряжение приобрели важное значение. Для игр было создано специальное снаряжение, направленное на совершенствование навыков охоты и стрельбы, что впоследствии приобрело военное значение. В статье описывается снаряжение, используемое в стрельбе из лука Турана, его назначение и функции. Кроме того, раскрывается значение лука, стрел, специальных мишеней, специальные кольца и других инструментов, которые считаются снаряжением для стрельбы из лука.

Abstract

The bow and arrow, considered one of the most ancient weapons, as well as various equipment associated with them, have acquired great importance. Special equipment was created for the games, aimed at improving hunting and shooting skills, which later acquired military significance. The article describes the equipment used in Turan archery, its purpose and functions. In addition, the meaning of the bow, arrows, special targets, special rings and other tools that are considered archery equipment is revealed.

Kalit so'zlar:

yoy, karak, Xorazm, Choch, So'noh, kurt, yatan, il ko'kan, amach, amachliq yer, yuksak, oltin qabaq, oltin o'rdak, soqim.

Ключевые слова:

лук, карак, Хорезм, Чач, Сунах, курт, ятан, ыл кукан, амач, амачлик ер, юксак, золотая тыква, золотая утка, сокым.

Key words:

bow, karak, Kharezm, Chach, Cunakh, kurt, yatan, il kukan, amach, amachlik yer, yuksak, golden pumkin, golden duck, sokim.

Миллий о'yinlar tarixi bir necha ming yillarga borib taqalib, ular bilan bog'liq ma'lumotlar qadimshunoslik topilmalarida, tarixiy manbalarda, mo'jaz suratlarda qisman bo'lsada saqlanib qolgan. Xususan, tarixiy manbalarda tilga olingan ma'lumotlar Turon qadimdan o'qchilikning eng muhim markazlaridan biri bo'lganligini va milliy aholi hamisha o'qchilik ko'nikmalarini yuksak darajada bo'lishi uchun tinimsiz mashq qilib kelganligi anglashiladi. O'qchilikda mohir bo'lish uchun esa, albatta, yoshlikdan tizimli yo'lga qo'yilgan o'yinlar asosidagi bellashuvlar katta ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, o'qchilik uchun yaratilgan vositalar havfsizlik, qulaylik, foydalanishdagi yengillikni ta'minlashi shart hisoblangan.

Turonda paydo bo'lgan o'yinlar bilan birgalikda uning vositalari ham o'ziga xos hisoblanadi. Aholi tomonidan yaratilgan o'ynlarning aksariyati turli jihozlar va vositalar yordamida tashkillashtirilgan hamda o'ynalgan. Bunday vositalar turonliklarning mashg'ulotlari, xo'jaligi va ishlab chiqariluvchi mahsulotlaridan kelib chiqib shakllantirilgan. Bu mahsulotlar Turon hunarmandchilik na'munalaridan bo'lib, ayrimlari ko'plab qo'shni xalqlar orasida mashhur bo'lgan yoki tovar sifatida ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan.

Qadimdan mavjud bo'lgan o'ynlardan biri o'qchilik bo'lib, turonliklarda ushbu o'yin vositalari bo'lgan kamon va o'qlar tayyorlovchi bir qancha yirik markazlar mavjud bo'lgan. Ushbu markazlar ibtidoiy davrdan mavjud bo'lib, dastlab turli toshdan qilingan maxsus vositalar urf bo'lgan bo'lsa, keyinchalik

ma'danlar taraqqiyoti natijasida o'qchilik jihozlari tarkibi hamda tuzilishida ham o'zgarishlar ro'y bergan. Qadimshunoslik manbalari va yozma asarlar to'la ma'lumot beruvchi davr Turon tarixida o'rta chog'lar davri hisoblanadi. Aynan shu davrda Turon o'qchiligi dunyoga yana bir bor mashhur bo'ldi va ushbu faoliyatda qo'llanuvchi jihozlar boshqa hududlarga kirib bordi.

Turon yoyi va o'qlari boshqa mamlakatlarda ham mashhur bo'lgan. Xususan, kamon va kamon o'qi ishlab chiqarishda 8 – 9-yuzyilliklarda Turonning Xorazm [1, 76], Choch, So'noh kabi hududlar juda ham mashhur bo'lgan [17, 18 – 19]. Aholi istiqomat qiluvchi hududlardan ayrimlari mazmuni ham ayrim jihozlarning nomiga nisbat berib qo'yilgan. Masalan, milodning 8-yuzyilliklarida Hirot shahri yaqinidagi rustoqlardan biri Karak deb atalgan. Bu so'zning mazmuni "yoy" degan ma'nosi anglatgan [8, 76]. Nafaqat joy nomlari, balki, ayrim kishilarning ismlari mazmuni ham yoy ma'nosini anglatgan. Ulardan biri saljuqiylar asoschisi – Saljuq hisoblanadi [14, 171]. O'z davrida Saljuqni – Temir yanglig' o'qchi sifatida talqin etganlar. Shuningdek, yoy o'rta chog'larda ham ilohiy ahamiyat kasb etgan vosita sifatida qadrlangan. Xususan, tasavvufda yoy "taqdir" sifatida talqin etilgan va insonlarni esa "o'q" tarzida ifodalangan. Ushbu jihatlar ham o'qchilik jihozlariga oid bilimlarning naqadar chuqur ildiz otganini tasdiqlaydi.

O'qchilikda qo'llangan yoyning bir necha turlari mavjud bo'lgan. Uning turi va sifati qanday hom-ashyodan yasalganiga bog'liq bo'lgan. Albatta, yoyning turlari uning foydalanilish maqsadlariga ko'ra ham shakllangan. Yuqori natijani ko'rsatuvchi yoyni tayyorlash riyoziyot, handasa va tabiat ilmiga oid bilimlarni talab etgan. Shu sababli Turon yoylari uzoq masofalarga borib yetuvchi, yuqori tortilish kuchiga ega hamda katta bosimni yaratuvsi vositaga aylangan.

Eng qadimgi yozma yunon manbalaridan birida boxtarliklarning yoylari qamishdan [12, 71]. yasalgani to'g'risida axborot berilgan. Balki, yunonlar massagetlar hududidagi ayrim butasimon o'simliklarni qamishga adashtirib tasvirlagan bo'lishlari mumkin. Yoki ushbu tushuncha ularning o'qlariga nisbatan qo'llangan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, o'qlar uzoq masofaga borib yetishi uchun ular ancha yengil bo'lishi talab etilgan.

Turkiy xalqlar tomonidan yoyni turli xil tuzilishi juda ham pishiq bo'lgan daraxtlardan tayyorlaganlar. Bunday pishiq daraxtlardan biri tog' daraxti bo'lib, u "kurt" [9, 329]. deb atalgan. Ushbu daraxtning tanasi qizil bo'lganligi sababli hozirgi kunda "qizilqurt" deb ataladi va ushbu daraxt pishiqligi bois undan cho'ponlar o'z tayoqlarini yasaydilar [4]. Ushbu daraxt o'zining pishiqligi va zichligi ortiqligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, turkiylar qadimdan o'qning mustahkamligini ta'minlash maqsadida ana shunday xom-ashyolardan foydalanganlar.

Ba'zan, yoy oddiy yog'ochdan ham yasalgan. Bu turkiylar orasida "yatan" [11, 28]. deb atalgan. Yana turkiylarda o'q va yoy umumiy bir nom bilan ham atalgan. Masalan, 9 – 13-yuzyilliklarda o'q va yoy – "il ko'kan" [9, 393]. deb atalgan. Ushbu kamalak sifat jihatidan quyiroqda bo'lib, odatiy qurol sifatida talqin etilgan. Yoy turonliklar turmush tarzidagi eng muhim va zaruriy qurollardan biri

hisoblanib, deyarli barcha merganlik ilmini yaxshi egallashi shart bo'lgan. Ular piyoda tarzida ham otliq tarzida ham yoydan o'q uza olish qobiliyatiga ega bo'lishi jamiyatning muhim talablaridan biri bo'lgan. Shu sababli qaysi mintaqada istiqomat qilishidan qat'iy nazar turonliklar turli hom-ashyolardan yoy yasay olganlar.

Yoyning shakli va kattaligi ham eng asosiy jihatlardan biri sanalgan. Turon qo'shini asosini otliqlar tashkil etgani bois yoyning shakli otda harakat qilishga halal bermaydigan, quvish uchun ham yoki chekinish vaqtida ham bemalol otish imkonini berishi shart bo'lgan. Biz Turon otliqlari yoyi suratlarini ko'plab qadimshunoslik topilmalaridan, xususan, Orlot topilmasidagi yoy shaklidan, yoki Afrosiyob hamda Panjikentdagi devoriy suratlardan ko'rib anglab olishimiz mumkin. ular uncha katta bo'lmagan va olib yurishga juda qulay etib ishlangan [7, 480]. Huddi shu shakldagi yoylarni ham aynan devoriy suratlarda aks ettirganlar.

O'qchilik o'yini uchun tayyorlangan maxsus nishonlar bo'lib, ular ma'lum masofaga joylashtirilib, kamondan o'q uzish musobaqalari o'tkazilgan yoki mashq qilingan. 6-yuzyilliklarda o'qchilik o'yini ancha ommaviy bo'lib, ularda foydalanilgan jihozlar va vositalar xilma-xil bo'lgan. O'zbekiston janubidagi Haydorbodtepedan shu davrga oid o'q teshiklari mavjud sopol idishlar ochib o'rganilgan [2, 74 – 75]. Ushbu idishlar o'qchilik uchun tayyorlangan maxsus nishon vazifasini o'tagan buyumlar bo'lishi mumkin.

O'q otish mashqi uchun tayyorlangan maxsus nishon 9 – 12 yuzyilliklarda “amach” [11, 117]. deb atalgan. Nishon o'rnatilgan maxsus maydon – “amachliq yer” [9, 166]. deb atalgan. Bunday maydon ancha keng bo'lib, ot bilan harakatlanishga qulay va oson etib tayyorlangan. Turonliklarning sevimli sport turi hisoblangan o'qchilik asosan, keng maydonlarda ot bilan o'ynalgan. Shuning uchun ham “amachliq yer” ancha katta maxsus maydonga o'rnatilgan. Ayrim hollarda bunday maydon sifatida hukmdorlar uchun ajratilgan maxsus qo'riq yerlar tanlangan [15, 114]. Nishon sifatida turli narsalardan foydalanilgan. Masalan, 16-yuzyillikda saroyda uyushtirilgan o'yinlarda nishon vazifasini bajarishi uchun maxsus o'rdak yasalgan. Bunday jihozlar oltin yoki kumushdan yasalgan bo'lib, “oltin o'rdak” [16, 52]. deb atalgan. Nishon sifatida qovoqdan ham foydalanilgan [6, 135]. 19 – yuzyillikda ham ushbu o'yin vositasi qo'llab kelingan va nishonga oltin tanga yoki tugma qo'yib merganlikda bahslashilgan.

O'qchilikda turkiy xalqlar ixtiro etgan yana bir jihoz borki, bu jihoz o'qchilikda inqilobiy burilish yasay olgan. Ma'lumki, otliq yoki piyoda holatda yoydan ko'plab o'q uzishda yoyning ipi barmoqlarga jarohat yetkazishi mumkin. bundan saqlanish va o'qni kerakli vaqtda qo'yib yuborish uchun barmoqqa kiyiluvchi “yuksak” [11, 53]. – angishvona yaratilgan. Bu o'q otish jarayonida barmoqqa kiyiluvchi qopcha bo'lib, turli hom-ashyo yoki madanlardan yasalgan. Turkiylardan bu jihoz teri yoki misdan yasalgan. Bunday angishvona qattiq hom-ashyolardan ham tayyorlangan. Xususan, barmoqqa kiyiladigan angishvonaning suyak [3, 51]. dan yasalgan turlari ham mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham ba'zan yoydan o'q otish “zixgirtaroshlik” deb atalgan.

Yoy o‘qlari turkiylar tomonidan turli shaklda va ko‘rinishlarda yasab foydalanilgan. O‘qlarning qisqa masofaga otiluvchi og‘ir, uzoq masofaga yetib boruvchi yengil va ingichka o‘qlari turlari bo‘lgan. Eng ingichga o‘qlar barmoqqa taqiluvchi angishvonadan o‘tadigan darajada nozik qilib ishlangan [6, 135].

Yosh bolalarni ov mashg‘ulotiga yoki o‘zini mudofaa qilishi uchun yoydan o‘q uzishni o‘rgatish maqsadida maxsus o‘qlar yasalgan. Bunday o‘qlar odatda “boshq” [9, 359]. siz tarzda yasalgan. Tig‘siz bo‘lgan o‘qlar “qalva” deb atalib, temirsiz, uchi dumaloq tarzda yog‘ochdan qilingan [9, 402]. Shu orqali o‘q otishni mashq qilayotgan yoshlar bir-biriga yoki birovga zarar berishi oldi olingan.

Ovchilik jarayoni usullari va ovlanuvchi hayvonlar turlari xilma-xilligi sabab ayrim o‘q turlari ixtiro etilgan. Yirik, qo‘lga tushurish mushkul bo‘lgan tezlikka ega yoki qushlarni ovlash uchun zaxarlangan o‘qlardan foydalanilgan. Qadimdan turkiylarda bunday o‘qlar keng iste‘molda mavjud bo‘lib, ular “qatutlug‘ oq” ya’ni tig‘i zaharga qotishtirilgan o‘q deb atalgan [10, 328]. Bunday o‘qlar bevosita kuchli zaxar bilan emas, balki, falajlantiruvchi moddalarga surtib, qayta ishlangan. Shunday o‘qlar orqali ov jarayoni kam kuch hamda ishtirokchilarsiz amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan.

O‘q yasash va uni yetkazib berish Turon hududida ayrim qishloqlar yoki shaharning ma’lum mahallari asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgan. Bunday mahallalar “O‘qchi” nomi bilan bugungi kunga qadar atalib keladi [5]. Bugungi kunda bunday qishloqlar Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani va Andijon viloyati Marhamat tumanlarida mavjud. O‘q yasashda qo‘llangan turli asbob-anjomlar uning sifatli chiqishi va to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlagan. Shunday asboblardan biri o‘q yasovchilarning o‘q o‘rnatadigan yog‘ochi bo‘lib, bu asbob “qug‘ush” [9, 350]. deb atalgan.

O‘qlar turli maqsadlarda qo‘llangan va turli vazifalarni bajargan. Turkiylarda o‘qlarning maxsus vazifalar uchun mo‘ljallab yasalgan turlari bir necha bo‘lib, bulardan biri “soqim” [9, 378]. o‘qi hisoblanadi. Soqim o‘qidan yaqinlashayotgan havfdan ogohlantirish yoki muayyan vaziyatda xabar berish maqsadida foydalanilgan. Bu o‘q yog‘ochni archa bujuri shaklida qirqib olib, ichini o‘yib ishlangan va uch tomoni teshib o‘qlarning ustiga kiygizilgan. Natijada, o‘q uchgan vaqtda hushtak chalib tovush chiqargan. Shunday o‘qlar orqali ma’lum belgi berilgan va keyingi harakat amalga oshirilgan. Bunday o‘qlar yana “kudali” [13, 41]. deb ham atalgan. Kudali o‘qini yasashda boshqa hom-ashyo – suyakdan foydalanilgan. Ichi g‘ovak suyakning ikki cheti maxsus teshib qo‘yilgan va bu o‘q ham otilganda o‘zidan tovush chiqargan.

O‘qchilikda o‘q turlari ba’zan otilish maqsadi bilan birgalikda otilish usuliga ko‘ra ham nomlangan. Xususan, unga ko‘ra, o‘q uzoq borishi maqsadida yoy chalqancha yotgan holda otilgan. Bunday otilgan o‘q “churam o‘qi” deb atalgan va odatdagi otilgan o‘q ancha uzoqqa borib tushgan [9, 391]. Turonliklar o‘rtasida o‘qchilik o‘yinlari, asosan, aniq mo‘ljalga olish maqsadida uyushtirilishdan tashqari, yana uzoqlikka hamda balandlikka otilishi bo‘yicha ham bellashilgan. Natijada, ushbu bellashuv shartlariga mos o‘qlar yasalgan.

Yoydan o‘q otish o‘yinlari Turon xalqlarining kundalik turmush tarzi va xo‘jaligi hamda harbiy mashqlari ta’sirida ayrim farqli jihatlarga ega bo‘ldi. Xususan, hududiy tafovutlar yoydan o‘q otish o‘yini nomlari, qoidalari va talablariga ko‘ra shakllangan. Keyinchalik yoydan o‘q otish o‘yini o‘tkazilishi muddati va maqsadlariga ko‘ra ayrim tafovutlarni o‘zida mujassam etdi. Dastlab ovchilik mashg‘uloti o‘z ahamiyatini saqlab qolgan hududlarda yoydan o‘q otishning uzoqlikka, balandlikka turlari vujudga keldi. Yilqichilik rivojlangan hududlarda esa, yoydan o‘q otishning otda o‘ynaladigan turlari asosiy ahamiyat kasb etdi. Yoyning harbiy ahamiyat kasb etishi natijasida, piyoda va otliq holatda o‘ynaladigan yoydan o‘q otish bellashuvlari ancha ommalashdi.

Keyingi yuzyillarda ham ayrim jihozlar boshqa mamlakatlar yoki hududlarda qo‘llana boshladi yoki ularning lug‘atlarida Turon o‘qchilik anjomlari hamda vositalarining nomlari kirib bordi. Bir necha ming yillik tajriba o‘laroq qo‘llanib kelgan vositalar kirib borgan hududlarida ham uzoq yillar davomida o‘qchilik vositasi sifatida xizmat qildi va tarixiy manbalaridan joy oldi. Bundan tashqari, Turon o‘qchiligi mohir ustalari dovrug‘i qadimdan forslar, hindlar, xitoyliklar, yunonlar, rumliklarga ma’lum bo‘lgan bo‘lsa, ilk o‘rta chog‘lardayoq arablar, vizantiyaliklar va boshqa yevropaliklarga tanildi. Ular haqida turli afsonalar shakllandi, ularning mashq jarayonlari to‘g‘risida esa turli xabarlar boshqa mamlakatlarga har xil shaklda kirib bordi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Абу Мансур ас-Саолибий. Китоб латоиф ал-маориф. Ажойиб маълумотлар ҳақида китоб. / Тар. И.Абдуллаев. Тошкент. 1987.
2. Альбаум Л.И. Балалык-тепе. Ташкент. 1960.
3. Гулбаданбегим Заҳириддин Бобур кизи. Ҳумоюннома. Тошкент. 1998.
4. Дала ёзувлари. Андижон вилояти, Булокбоши тумани. Ширмонбулок қишлоғи. 2018 йил.
5. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти, Ўзбекистон тумани. Ўқчи қишлоғи. 2017 йил.
6. Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. 2008.
7. Илясов Д.Я. Кочевники в Согдиане. Историко-культурный контекст орлатских находок. Санкт-Петербург. 2025.
8. Истахрий. Хуросон ва Мовароуннаҳр. Тошкент. 2019.
9. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент. 1960. 1-жилд.
10. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент. 1963. 2-жилд.
11. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент. 1963. 3-жилд.
12. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. Тошкент. 2008.
13. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Том I. книга первая. Москва. 1952.
14. Садр ад-Дин Али ал-Хусайни. Ахбар ад-даулат ас-селджукийя. Москва. 1980.
15. Фазлаллах ибн Рузбихан Исфохани. Михман-наме-йи Бухара. Москва. 1976.
16. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. 2-жилд. Тошкент. 2000.
17. Худуд ул-олам (Мовароуннаҳр тавсифи). Тошкент. 2008.

O‘ZBEKLARNING TAQVIMIY MAROSIMLARI: BAHORIY SAYILLAR

КАЛЕНДАРНЫЕ ОБРЯДЫ УЗБЕКОВ: ВЕСЕННИЕ ГУЛЯНИЕ

UZBEK CALENDAR RITUALS: SPRING CELEBRATIONS

Sarimsokov Abdilatip Abdiraximovich

*University of Business and Science Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti,
tarix fanlari nomzodi.*

e-mail: abdulzarimsokov@gmail.com

Tel: +998 93 926 01 18

Annotasiya.

Ushbu maqolada o‘zbeklarning yil taqvimi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlari tarkibidagi bahor faslida o‘tkaziluvchi sayillar xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bahoriy sayillarning turlari, kelib chiqish tarixi, o‘tkazilish muddatlari, tartibi, ishtirokchilari, sayil jarayoni, sayildan ko‘zlangan maqsad kabi masalalar yoritilgan.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются весенние праздники, являющиеся частью узбекских обычаев и ритуалов, связанных с годовым календарем. Также освещаются такие вопросы, как виды весенних парадов, история их возникновения, продолжительность, порядок, участники, ход проведения парада, цель парада.

Abstract.

This article discusses the Uzbek spring festivals, which are part of the customs and rituals associated with the annual calendar. It also covers the types of spring festivals, their history, dates, order, participants, the process of the festival, and the goals of the festival.

Kalit so‘zlar.

O‘zbeklar, taqvim, urf-odat, marosim, bahor, sayil, gul, boychechak, lola, sunbul, qizil gul, guli armug‘on.

Ключевые слова.

Узбеки, календарь, обычаи, обряды, весна, гуляние, цветок, цветок оспы, тюльпан, сунбул, красный цветок, гули армугон.

Key words.

Uzbeks, calendar, customs, rites, spring, festivities, flower, pox flower, tulip, sunbul, red flower, guli armugon.

Bahor faslida o‘tkaziluvchi marosimlar, tabiatni ulug‘lash va o‘simliklar kulti bilan bog‘liq an‘analar zahirida “hayot daraxti”, “tabiatning o‘lishi va qayta jonlanishi”ga doir qarashlar mavjud bo‘lib, ular tabiatning uyg‘onishi, tog‘ va qiradirlarda turli gullarning ochilishi munosabati bilan o‘ziga xos fenologik taqvim shaklida o‘tadigan sayillarda namoyon bo‘ladi. Farg‘ona vodiysining tog‘li, qir va adirli qator hududlarida bahor faslida “boychechak sayli”, “lola sayli”, “sunbula sayli” singari sayillar qadimdan o‘tkazilib kelingan.

“Boychechak sayli” Surxondaryoning Boysun, Farg‘ona vodiysining Chust, Yangiqo‘rg‘on, Kosonsoy va To‘raqo‘rg‘on tumanlarida hozirga qadar o‘tkaziladi. Bolalar boychechakni avval keksa yoshdagi qariyalarga beradilar. Chunki, bu gul ular uchun ham qadrlil bo‘lib, qishdan eson-omon chiqqanligidan, yana bahor kelganidan, yangi hayot boshlanganidan darak bergan [2: 12-13]. Namangan shahri

va uning atroflaridagi qishloqlarda ham bolalar qir, adirlardan boychechak terishib, belbog‘ yoki ro‘molga solishib qishloq xonadonlarini aylanib:

*Boka-boka boy, boy tilla,
Uyingizga tosh tilla,
Xudoyim o‘g‘il bersin,
Kattasining oti Rahmatilla,*

Kichigining oti Ismatilla,– deb qo‘shiq aytganlar [11: 62].

Qaysi xonadonga borilsa, uy egalari boychechakni yuz-ko‘zlariga surtib, “Omonlik-omonlik, hech ko‘rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik”,– deb niyat qilganlar va bolalarga meva-cheva hamda turli shirinliklar hadya qilganlar.

Folklorshunos olim M. Alaviya tomonidan yozib olingan ma‘lumotga ko‘ra, XX asrning boshlarida Toshkent viloyatining Sijjak qishlog‘ida har yili erta bahorda “Navro‘zgul sayli” o‘tkazilgan. Navro‘zguli chiqqanda sijjakliklar tog‘larga, bog‘-rog‘larga Navro‘z qilib chiqishgan. Bu sayilda o‘yin-kulgi qilib, qo‘shiq aytishib, yigit-qizlar lapar, o‘lan aytishganlar. Qiz-juvonlar, yosh kelinchaklar daladan qizil, sariq, targ‘il lolalarni, boyg‘alcha, navro‘zgullardan terib sochlariga quloqlariga taqib olishgan. Ajdodlarimiz soch, chakkaga taqilgan gullar kishining serfarzand bo‘lishiga magik ta‘sir qilishiga ishonganlar [5: 135].

An‘anaviy xalq sayllaridan biri bo‘lgan “lola sayli” Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarining lola va qizg‘aldoqlar ochiladigan tog‘li hududlarida o‘tkazilgan. Asrlar davomida xalqimiz orasida bahorda lola sayliga chiqish o‘ziga xos an‘ana hisoblangan.

Navro‘z bilan aloqador an‘anaviy sayillaridan biri bo‘lgan “lola sayli” kishilarda tabiatga muhabbat hissini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Etnograf olim Ye. M. Peshcherevaning ma‘lumotlariga ko‘ra XX asrning 20-yillarida Qo‘qon uyezdining Isfara qishlog‘ida “lola sayli” o‘ziga xos tarzda o‘tkazilgan. An‘anaga ko‘ra, tog‘ yonbag‘irlarida o‘tkazilgan “lola sayli”ni dastavval “lolachilar” boshlab berishgan. “Lolachi” bolalar kesib olingan tol yoki terak shoxini lola bilan bezatishgan. So‘ngra “gulchaman”ni ko‘tarib, qishloq ko‘chalarida aylanib yurganlar. “Lolachi”larni ko‘rgan mahalliy aholi “gulchaman” shoxiga ro‘molcha yoki mato bo‘lagini bog‘lab, dillaridagi orzularini aytganlar. “Lolachi”lar tog‘ yonbag‘ridagi lolazorning o‘rtasiga “gulchaman”ni o‘rnatib qo‘yishgan. Qishloq oqsoqollaridan oq fotiha olgan isfaraliklar Abdulloyi surxi, ya‘ni “Qizil Abdulla” degan avliyo mozoriga ziyoratga borganlar [8: 374-384].

1948- yilda K. A. Bogomolovanning yozib olgan ma‘lumotiga ko‘ra, bahorda ilk lola ochilgan kunlarda Xo‘jand viloyatining Ovchi-qal‘achi qishlog‘i yaqinidagi Xo‘ja Boqirg‘on shox mozoridagi muqaddas buloq bo‘yida ham mahalliy aholi “lola sayli”ni o‘tkazganlar. Qadimgi farg‘onaliklarning tasavvuriga ko‘ra lolani Xo‘ja Takraut degan avliyoning qonidan paydo bo‘lgan ekan [3: 111].

Toshkent viloyatining tog‘li hududlarida ham “lola sayli” o‘tkazib kelingan. Qizg‘aldoqlar qiyg‘oc gullagan vaqtda, mahalliy aholi tepaliklarda “lola sayli”ni o‘tkazganlar. Sayilda asosan yosh yigit va qizlar ishtirok etishgan. Sayil

ishtirokchilari doira chalib, ashula aytganlar, lapar va o‘lan ijrochilarining o‘zaro bellashuvlari bo‘lib o‘tgan. Bunday bellashuvlarda yigitlar qizlar bilan o‘lan aytib tanishganlar, savol-javob qilganlar, bahslashganlar. Oxirida aytishuvda mag‘lub bo‘lgan g‘olibning aytganini qilgan yoki moddiy to‘lov qilgan.

Parkent kanali bo‘yidagi tepaliklar azaldan sayilgoh vazifasini o‘tab kelgan. An’anaviy dunyoqarashda qizil rang qon, hayot ramzi bo‘lgani uchun qiz-juvonlar “Lola sayli”ga atab qizil rangli matodan yangi ko‘ylaklar tikib kiyishgan [5: 137].

Samarqand yaqinidagi Cho‘pon ota tepaligida ham lolalar ochilgan vaqtda “guli surx” bayrami o‘tkazilgan. N. P. Lobachevaning ma‘lumotlariga ko‘ra yosh yigit va qizlar to‘p-to‘p bo‘lishib, lolaqizg‘aldoqlarni terish uchun shahar tashqarisiga chiqqanlar [7: 121]. Samarqandliklarning an’anaviy “lola sayli” haqidagi qadimgi Xitoy manbalarida qayd qilingan ma‘lumot esa bu mavsumiy marosim o‘lib-tiriluvchi ma‘budlar to‘g‘risidagi mifologik qarashlar asosida kelib chiqqanligini ko‘rsatadi [13: 204].

“Lola sayli”ning qadimiy ekanligini isbotlovchi arxeologik ma‘lumotlar ham mavjud. Masalan, qadimgi So‘g‘d hunarmandlari tomonidan yasalgan deb e‘tirof etilgan kumush idishning dyevorida tasvirlangan ikki nafar ayolning biri ikki qo‘lida lola ko‘tarib turgan bo‘lsa, ikkinchisi bir qo‘lida lola, ikkinchisida bola bilan tasvirlangan. G. A. Pugachenkovaning fikriga ko‘ra, mazkur tasvirlarda qadimgi So‘g‘dda o‘tkazilgan “lola sayli” hamda ayol koinlar aks ettirilgan [10: 57].

Tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘liq bahoriy sayillar xorazmliklar orasida ham qadimdan urf bo‘lib kelgan. Xorazmliklarning qadimiy “qizil gul” sayli haqida Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ta‘kidlagan: “Ayyar... Bu oyning to‘rtinchi kuni Xorazmda eski odat bo‘yicha qizil gul bayrami o‘tkaziladi. Shu kuni ibodatxonaga qizil gul keltiriladi” [1: 339]. Bavoris bobo mozorida o‘tkaziladigan ushbu bayramda aholining barcha qatlami ishtirok etgan. Qizil gul sevgi va oila timsoli sifatida talqin qilinishiga asoslangan mazkur bahoriy marosim zahirida o‘lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi qadimiy mifologik qarashlar yotgan [12: 206].

Xorazmliklarning ushbu sayili “bahoriy tantanalar yakunlanib, yoz faslida o‘tkaziladigan udumlarni boshlab beradigan bayram” sifatida baholangan.

G. Qayumova ma‘lumotlariga ko‘ra Buxoroda bir haftadan bir oygacha davom etgan “Guli surx” saylida ishtirokchilar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurganlar. Joylarda ashula aytish, raqs tushish, lapar aytishuvlar; masxaraboz va dorbozlarning tomoshalari; tuya, qo‘chqor, xo‘roz urishtirishlar; polvonlar kurashi; lazzatli taomlar, buxorochoa obaki dandon, nisholda va boshqa sharq shirinliklari rastalari hamda bozor faoliyat yuritganligini kuzatish mumkin [6: 6]. Tadqiqotchi A. X. Hamroyev esa dehqonlarning bahorgi ekish mavsumi bilan bog‘liq bo‘lgan “Guli surx” hamal oyida tantana qilinganligini ta‘kidlagan. Uning ma‘lumotlariga ko‘ra ushbu bayram atirgulga emas, balki ko‘klamda ochiladigan qizil gulga bag‘ishlangan bo‘lib, bir oy mobaynida qishloqlarda bozorlar gavjum bo‘lgan, sayillar uyushtirilgan [14: 72-73].

Isfara daryosi bo'yidagi ayrim qishloqlarda o'tkaziluvchi gul sayillari "lola sayli" deb emas, balki "sayli guli surx" deb atalgan [9: 214]. N. P. Lobachevaning yozishicha yosh yigit va qizlar ishtirokidagi "guli surx" deb nomlanuvchi sayil Samarqand yaqinidagi Cho'pon ota mozori atroflarida ham o'tkazilgan [7: 120-121].

Farg'ona viloyatida har yili o'rik gullagan vaqtda o'ziga xos sayil o'tkazish keng udum bo'lgan edi. 2024- yil o'tkazilgan "O'rik gullaganda" festivali umumxalq sayliga aylanib ketdi. 2025- yil mart oyida ham Oltiariq tumani Qopchig'ay va O'zbekiston tumani O'qchi qishloqlarida o'rik daraxtlari qiyg'os gullaganda o'tkazilgan ushbu sayilda milliy o'yinlar, o'zbekona urf-odat va qadriyatlar namoyishi, folklor jamoalarning chiqishlari, milliy taomlar tayyorlash musobaqalari o'tkazilganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, varraklar uchirish, yosh polvonlar o'rtasidagi kurash musobaqalari, qo'shiqchi va shoirlar, rassom va hunarmandlarning namoyish qilingan asarlari mahalliy va xorijiy sayil ishtirokchilarida yaxshi taassurot qoldirdi.

Farg'ona vodiysining Oltiariq tumani Burbonliq qishlog'i aholisi o'rtasida o'tkaziluvchi "*Guli armug'on*" marosimi ham diqqatga sazovordir. Mazkur marosim har yili shu qishloqdagi Do'sti Xudo pirim mozorida aprelning birinchi haftasida ziyoratgohdagi armug'ongul gullagan vaqtda o'tkaziladi. Armug'ongul qizil pushti rangda gullaydigan butasimon o'simlik bo'lib, mahalliy aholi tasavvuriga ko'ra u jannat eshigida ochilar ekan. Shu bois u xalq orasida ilohiylashtirilgan. Qo'qon shahridagi qabristonlardan birida ham shunday o'simlik mavjud bo'lib, mahalliy aholi vafot etgan qarindoshlarini iloji boricha shu yerga dafn etishga harakat qiladilar. Shuning uchun bo'lsa kyerak boshqa qabristonlarga nisbatan bu yerdagi qabrlar zichroq joylashgan.

Unda asosan ayollar ishtirok etadilar va hamqishloqlardan ehson tariqasida to'plangan mahsulotlardan marosimiy taom tayyorlanib, mavlud o'qiladi, zikr tushiladi va "*Alloh yo'lida*", deb ehson qilinadi. Mahalliy aholi tasavvuriga ko'ra marosimiy ne'matlar xosiyatli bo'lib, ixlos bilan iste'mol qilganlarning ishlari rivoj topar, mushkullari oson bo'lar ekan [4].

Bahor faslida o'tkaziluvchi gul sayillari to'g'risida gap ketganda Namangandagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi istirohat bog'ida o'tkaziluvchi "Gul bayrami" O'zbekistonda anchagina mashhur. Mazkur bayram ilk marta XX asrning 60- yillarida o'tkazilgan bo'lib, unda havaskor gulchilar mahalliy nashrlar, radio, madaniy-ma'rifiy uchrashuvlar orqali shahar aholisini hovli va ko'chalarni chiroyli gullar bilan bezatishga chaqirganlar.

"*Namanganni gullar shahriga aylantiramiz*" shiori ostida o'tkazilgan tadbirlar jarayonida eng yaxshi gul yetishtirish musobaqasi o'tkazilgan. 1961- yilda o'tkazilgan bayramda 16 nafar gulchi ishtirok etgan [7: 130-131]. Yaqin vaqtlargacha ushbu bayram avgust oyining ikkinchi yarmida o'tkazilib kelingan bo'lsa, bugungi kunga kelib may-iyun oylari mobaynida o'tkazilmoqda.

Hozirda yaxshi bir an'anaga aylangan mazkur bayram kunlari istirohat bog'ida gulchilarning fotoko'rgazmalari, tashkil etiladi, havaskor gulchilarga maslahat beruvchi navbatchi mutaxassis gulchilar taklif qilinadi. 2024- yil

o'tkazilgan gul bayrami 19- maydan 23- iyunga qadar davom etgan bo'lib, bu vaqt mobaynida istirohat bog'ida attraksion o'yinlar faoliyat ko'rsatdi, mashhur qo'shiqchi va shoirlar chiqish qildilar. Gulchilarning ko'rgazmalari namoyish etilib, musobaqa so'nggida ular hakamlar tomonidan baholanadi. Bayram bozorlari tashkil etiladi. Hozirgi vaqtda mazkur bayram nafaqat viloyat, balki xalqaro miqyosda o'tkaziluvchi bayramga aylanib, qo'shni respublikalardan ham mehmonlar tashrif buyurishmoqda.

Gul bayramlari va sayillari aholining estetik ehtiyojini qondirish bilan birga shaharni yashillikka burkashi bilan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, mazkur bayram bahoriy marosimlar singari o'zining ekologik jihatlari bilan ham ajralib turadi. Chunki, bayramga tayyorgarlik bir-ikki oy oldin boshlanib, unda shahar ko'chalari tozalanadi, hiyobonlar, yo'laklar chetlari gullarga burkanadi. Bular esa tabiatni asrash bilan bog'liq an'anaviy qadriyatlarning hamon davom etayotganligini ko'rsatishi bilan birga ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishida odamlar tomonidan unga quvvat berish kabi ramziy ma'nolarga ham egadir.

Bunday bahoriy marosimlar hayotning davomiyligi, zamon charxpalagining aylanishi ramzi, tabiatning o'lishi va qayta jonlanishi kulti bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'zida qadimgi ajdodlarimizning dunyo to'g'risidagi falsafiy qarashlarini mujassamlashtirgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. – Т.: Фан, 1968. Т.1.
2. Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Т.: Мерос, 2001.
3. Богомолова А. Следы древнего культа воды у таджиков // ИООН АН ТаджССР. – Сталинабад, 1952. Вып. 2.
4. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Бурбонлик қишлоғи. 2008 йил.
5. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008.
6. Қаюмова Г. Унутилган қадриятлар. – Бухоро, 1993.
7. Лобачева Н.П. Формирование новой обрядности узбеков. – М.: Наука, 1975.
8. Пещерова М.Е. Некоторые дополнения к описанию праздника тюльпана в Ферганской долине // Иранский сборник. К семидесятилетию профессора И.И. Зарубина. – М.: Наука, 1963.
9. Пещерова М.Е. Праздник тюльпана (лола) в село Исфара Кокандского уезда. Ташкент, 1927.
10. Пугаченкова Г.А. Некоторые изобразительные сюжеты на памятниках искусства древнего Согда // Известия Отделения общественных наук АН Таджикистана. 1952. №2.
11. Саримсоқов. Ўзбекларнинг тақвимий маросимлари (Фарғона водийси материаллари асосида). – Тошкент: “Yangi nashr”, 2014.
12. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.
13. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1947.
14. Хамраев А.Х. Праздник “красной розы”// ОНУ. – Ташкент, 1958. – № 6.

**RAMZLAR BILAN BOG‘LIQ QARASHLAR – TARIXIY VA
ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA**

**СООБРАЖЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С СИМВОЛАМИ – В ИСТОРИКО-
ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ**

**VIEWS ON SYMBOLS – IN HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC
RESEARCH**

Raximova Shaxnoza Xusanboyevna

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E:mail. mirzohidmamajonov26@gmail.com

Tel: +998 94 116 01 04

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo xalqlarida “ramz” tushunchasi, uning diniy va dunyoviy talqinlariga oid tadqiqotlar tahlil qilingan. Maqolada muallif asosiy e’tiborni jahon va o‘zbek olimlarining turli xil ramzlar (asosan, ranglar)ga oid ilmiy izlanishlarini tahlil qilish, unga doir tegishli xulosalarga qaratgan.

Kalit so‘zlar

Ramzlar, timsollar, oq rang, qora rang, marosimlar, urf-odatlar, dinlar, e’tiqodlar, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, jahon xalqlari, Farg‘ona vodiysi, o‘zbeklar.

Аннотация

В данной статье анализируются исследования понятия “символ” у народов мира, его религиозные и светские интерпретации. В статье автор остановился на анализе научных исследований мировых и узбекских учёных по различным символам (в основном, цветам) и соответствующих выводах.

Ключевые слова

Символы, тimsollar, белый цвет, черный цвет, ритуалы, обычаи, религии, верования, Средняя Азия, Узбекистан, народы мира, Ферганская долина, узбеки.

Annotation

This article analyzes the research on the concept of “symbol” among the peoples of the world, its religious and secular interpretations. In the article, the author focuses on the analysis of scientific research by world and Uzbek scientists on various symbols (mainly colors), and the relevant conclusions.

Keywords

Symbols, emblems, white color, black color, rituals, traditions, religions, beliefs, Central Asia, Uzbekistan, peoples of the world, Fergana Valley, Uzbeks.

Dunyo miqyosida kechayotgan globalashuv jarayonlari etnomadaniy xususiyatlar va milliy marosimlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish masalasini nihoyatda dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, XX asr so‘nggi choragidan boshlab jahonda milliy va diniy marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilib, mazkur yo‘nalishda bajarilgan ilmiy tadqiqotlar fandagi muhim mavzulardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Qadim davrlardan boshlab Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekistonda turli dinlar, e’tiqodlar va kultlar keng tarqalgan bo‘lib, mazkur diniy dunyoqarashlarning negizida o‘ziga xos oilaviy marosimlar shakllangan Shu bois

o‘zbek xalqi an‘anaviy turmush tarzidagi ma‘naviy madaniyatning tarkibiy qismlarini tadqiq qilish asnosida ruhiy olam, koinot, tabiat va inson to‘g‘risidagi qadimiy tasavvurlarga oid yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, mavzuni etnologik materiallar asosida o‘rganish o‘zbek xalqining etnomadaniyati borasidagi bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, ramz va u bilan bog‘liq an‘analar dunyo xalqlari misolida yaxshi o‘rganilgan [1, 128–132]. Lekin, hozirga qadar Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining ramzlar bilan bog‘liq madaniyati va an‘analari alohida tadqiqot ob‘yekt sifatida o‘rganilmagan. Lekin, shunga qaramay, muammoning ayrim jihatlari va Respublikaning turli mintaqalari misolida D. Mingboyeva, A. Ashirov, U. Abdullayev, M. Fayzullayeva va M. Qurbonova kabi tadqiqotchilar [2, 160]. tomonidan tadqiq etilganligini alohida qayd etish joiz.

Odatda, ramzlar bilan bog‘liq qarashlar o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, ular ibtidoiy odamlarning tabiatni kuzatish, xo‘jalik mashg‘ulotlari va diniy tasavvurlarining rivojlanib borishi natijasida shakllangan. Asta-sekinlik bilan ramzlar insonlar ma‘naviy va madaniy hayotining ajralmas qismiga aylana borgan.

Tarixiy, filologik va etnografik tadqiqotlarda ramzlar bir nechta qismlarga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Ranglar bilan bog‘liq timsollar.
2. Diniy amallar va marosimlar bilan bog‘liq ramzlar.
3. Moddiy madaniyatning tarkibiy qismlari (turar-joylar, an‘anaviy kiyimlar va milliy taomlar)ga oid timsollar.
4. Ma‘lum bir tabiat unsurlari bilan bog‘liq ramzlar.
5. Oilaviy marosim va an‘analar bilan bog‘liq timsollar.
6. Xo‘jalik mashg‘ulotlariga oid ramzlar.

1. Ranglar bilan bog‘liq timsollar.

Ushbu maqolada mavzu ko‘lamining kengligi hisobga olinib, bunda faqat ranglar ramzi bilan bog‘liq tadqiqotlarga to‘xtalishni joiz deb bildik.

Ma‘lumki, rang timsolining tub ma‘nosi muayyan matnda ramziy “qo‘shimcha”lar vositasida o‘z ma‘no ko‘lamini u yoki bu darajada kengaytiradi. Ba‘zi holatlarda o‘zak ma‘noga bevosita bog‘liq yangi poetik ma‘nolar hosil bo‘ladi. Bunday holat xalq etnografiyasi va lirikasiga tegishli namunalarda yaqqol kuzatiladi. Shuning uchun mazkur qismga oid ma‘lumotlarni I. Haqqul, D. Mingboyeva, M. Ro‘ziyeva, A. Ashirov, B. Xalmuratov va boshqa mualliflarning maqola, dissertatsiya va monografiyalari [3, 36–45]. da ko‘rish mumkin.

Jumladan, taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o‘zining maqolalaridan birida shunday yozadi: “Ayrim maqola va fikr-mulohazalar hisobga olinmaganda, o‘zbek mumtoz she‘riyatida rang ramzlari va ma‘nolari muammosi hali maxsus tadqiq qilingani yo‘q. Ranglar va ularning ramziy ma‘no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Chunki ranglar u yoki bu xalqning uni qurshab olgan olam, ijtimoiy-madaniy hayot, urf-odat, marosim, adabiyot va san‘atga doir qadimiy qarashlari bilangina emas, balki, kosmogonik, mifologik, diniy-ilohiy tushuncha va tasavvurlari bilan ham bog‘lanib ketgan. Shuningdek, odamlarning dunyoqarashi, yashash sharoitlari, diniy hayot yo‘llarining o‘zgarishi bilan

ranglarga munosabat, ko‘zlangan maqsadlar ham o‘zgarib, ba‘zan butunlay yangilanib borgan. Masalan, qora rang va qorong‘ulik “Avesto”da oq – yorug‘likning ziddi o‘laroq, ta‘rif va tavsif etilgani yaxshi ma‘lum. Unda qorong‘ulikning yomonlik, yovuzlik sifatida boshlang‘ich quvvati – ilk manbai Axrimandir. Lekin, olis o‘tmishda oq rangga nisbatan ham shunga yaqin munosabatlar hokimlik qilgan. Ba‘zi xalqlar, jumladan, turkiy qavmlarda ham oq rang motam, musibat, hatto qurg‘oqchilik alomati hisoblangan.

Ozarboyjonlik olim M. Saidovning yozishicha: “Oltoylıklarda oq rang – motam ramzidir. Manbalar Chinda yashagan turk tilli solorlar uchun oq rangning boshqa ma‘nolar bilan bir qatorda, motam timsoli bo‘lganligidan ham xabar beradilar. Faqat turkiylarda emas, boshqa ayrim xalqlarda ham ko‘k va oq motam, qayg‘u ramzi sanalgan [4, 36–45]. “.

Bundan tashqari, taniqli olim Dilrabo Mingboyeva o‘zining “Timsollar tilsimi” kitobida suv va uning rangi mavzusiga alohida to‘xtalib, ularning jahon dinlari taraqqiyotida tutgan o‘rniga yuksak baho bergan. Uning yozishicha, dunyoning ko‘pgina xalqlarida suv ma‘budlar irodasini o‘tkazuvchi, osmon bilan muloqotda vositachi, taqdir jarchisi hisoblanadi. Shu bois turli fol ochish tizimlarida suvda namoyon bo‘ladigan timsollarni talqin etish keng tarqalgan. Folbinlar suv yuzasiga qarab, kelajakni, o‘tmishni ko‘ra oladi deb hisoblangan. Bunday qadimiy holat shomonlarning billur sharlar, ya‘ni jodu kristallaridan foydalanganini asoslab beradi. Suv yordamida fol ochish va kelajak haqida xabar berish amaliyoti qadimgi yevropa, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Sharqiy va Shimoliy Osiyo, Polineziyada tarqalgan. Skandinaviya xalqlarida suv taqdir ramzi sifatida qadrlangan [5, 56].

Folklorshunos M. Ro‘ziyeva ham ranglar mavzusini alohida dissertatsion tadqiqot sifatida o‘rgangan. Ushbu olim a‘naviy dunyoqarashlar tizimida ranglar bilan bog‘liq tasavvurlarning diniy va magik marosimlar jarayonidagi ko‘rinishlariga alohida e‘tibor bergan. Tadqiqotchining qayd etishicha, marosimlarga rahbarlik qiladigan afsungarlar hamda tabiblar marosimni o‘tkazish uchun qo‘llanadigan narsalarni rangiga qarab tanlaganlar. Shomon marosimlaridan biri bo‘lgan badikxonlikda oq rang magik qudrat belgisi sifatida ifodalanadi. Badikda ranglar uyg‘unligi asosida kasalning darddan forig‘ bo‘lishi darajasiga ko‘tarilgan [6, 48–50].

Etnolog B. Xalmuratovning bir qator ilmiy izlanishlarida ranglar bilan bog‘liq timsollar keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Muallif o‘zining dissertatsiyasida “pari” kulti, uning ranglar ramzi bilan bog‘liqligi haqida alohida to‘xtalib, shunday yozadi: “Farg‘ona vodiysi aholisi orasida parilarning kiyinishiga doir o‘ziga xos tasavvurlar saqlanib qolgan. Jumladan, izboskanlik Mavluda baxshi: “Parilar juda chiroyli va uzun libos kiyadilar. Ertalab oppoq rangda, shom va tun mobaynida qora rangda. Ulardagi beg‘ubor ranglarni ta‘riflash oson emas. Ularning chiroyiga til ojiz”, – deydi. Yoki dang‘aralik Dilorom folchining fikricha, parilar asosan, yosh qizlar kabi kiyinadi va buning natijasida odamlarga ilashishi oson bo‘ladi. Chunki, har qanday chiroyli kiyingan qiz parilarning diqqat markazida turadi. Axborotchi pari tekkan qizning satang, tinmay sochini yoyib, o‘z-o‘zidan

o'ynaydigan bo'lib qolishini ta'kidladi. Bunday bemorlarning jinsiy xastaliklarga moyilligi kuchli bo'ladi. Ushbu kasallikni davolash uchun o'sha bemorni biror-bir hayvonni qurbonlik qilib, qonlash kerak bo'ladi" [7, 54].

Mazkur tadqiqotchi o'zining shomonlik e'tiqodiga oid tadqiqotida ranglarning ramziy funksiyalarini batafsil yoritib bergan: "Farg'ona vodiysida momo ruhlari ranglar bilan ham bog'lanadi. Bunda momo ruhlarga bag'ishlangan marosimlarda yoqiladigan chiroqdan chiqqan olov va uning tutuni rangi e'tiborga olingan. Ya'ni, olov va tutunning oq, qora, qizil, sariq tusga kirishiga qarab momo ruhlar miqdori, xarakteri, xususiyati, nomi belgilangan. Ko'k momo, Qora momo va Sariq momo yovuz ruhlar qatoriga kiritilgan. Ular ko'proq odamlarni kasallikka chalintirib, ozor yetkazishga uringan. Sariq momo sariq sochli qiz yoki sariq tusli parranda ko'rinishida ayollarga ilashishi to'g'risidagi qarashlar keng tarqalgan. Oq momo esa insonga homiy ruhlardan biri sanalib, u juda rahmdil va mehr-shafqatli hamda saxovatpesha ruh sifatida talqin qilingan. O'z navbatida shuni qayd etish kerakki, Oq momo kulti vodiyning ba'zi bir hududlarida kindik kesuvchi doylalar piri sifatida e'zozlanadi" [8, 59].

Tarix fanlari doktori, professor Adhamjon Ashirov ham o'zining bir qator tadqiqot va maqolalarida ranglar timsoli bilan bog'liq xalq qarashlariga to'xtalgan. Jumladan, mazkur muallif o'z tadqiqotlaridan birida "qurbonlik" marosimi haqida so'z yuritib, u bilan bog'liq ramzlarga alohida to'xtalgan. Uning yozishicha, qurbon qilinadigan hayvon yoki qush rangi yomonlik keltirgan ruh xususiyatiga bog'liq bo'lgan. Agar kasallik sababchisi oq dev yoki oq pari bo'lsa, oq qo'y yoki echki, qora dev yoki momolar bo'lsa, qora qo'y, echki, agar sariq pari bo'lsa, sariq qo'y yoki parranda qurbon qilinishi kerak bo'lgan. Odatda, qurbonlikka atalgan hayvon erkak kishi tomonidan ziyon yetkazgan momolar va ruhlarning nomi aytib so'yiladi. Farg'ona vodiysining aksariyat hududlarida asosan qora va sariq rangli qo'y so'yiladi. Qurbonlik sifatida so'yilgan jonivorning qonidan bemorning tanasiga surtilgan va bu ruhlar uchun go'yo oziq hisoblangan" [9, 44].

Jabbor Eshonqulning tadqiqotida shomon-baxshilarning ranglarga bo'lgan munosabati, mifologik jihatlari, xalq og'zaki ijodidagi talqini yoritib berilgan. Ushbu tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, unda "baxshi" atamasi va shaxsiga keng o'rin berilgan. Muallif baxshi nafaqat doston aytuvchi oqin, balki o'z navbatida davolovchi tabib sifatida ham ahamiyatli ekanligiga alohida urg'u bergan [10, 170].

Ranglar ramzi bilan bog'liq qarashlar o'zbek xalqi an'anaviy hunarmandchiligida ham muhim rol o'ynaydi. Jumladan, H. Ismoilovning qayd etishicha, XIX asr oxirlariga kelib kiyimlar qadimgi xususiyatlarini saqlab qolgan. O'zbekistonning janubiy viloyatlari va Farg'ona vodiysidagi aholi kiyadigan kiyimlarda umumiy o'zbek kiyimlari shakliga yaqinlashish jarayoni kuchliligini kuzatish mumkin. Farg'onada ko'plab, xilma-xil gulli matolar to'qilgan. Bunday matolarning rang-barang gulli bo'lishi, gullarning bir-biriga mos-uyg'un kelishi, shuningdek, yo'l-yo'llarining orasi kengroq bo'yalishga ham ahamiyat berilgan. Yashil tusli yo'l-yo'l gullar, sariq, gulgun va siyohrang gullar bilan uyg'un ravishda almashinib keladigan beqasam, ipak va nimshoyi gazmollar juda

qadrlangan. Bunday jarayonlar yirik shaharlarga yaqin joylarda hamda savdo, hunarmandchilik taraqqiy qilgan qishloqlarda tezroq, uzoq chekka qishloqlarda sust brogan [11, 17]. Surxondaryoda erkaklarning olacha, yo‘l-yo‘l, beqasam choponlari keng tarqalgan bo‘lsa, Farg‘ona, Toshkentda sip mato, ya‘ni qora, yashil, pushti, ko‘k rangli matolardan, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Zarafshon vodiysida yo‘l-yo‘l matolardan “olacha” choponlar keng tarqalgan edi [11, 20].

Umuman olganda, ranglar inson hayotida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida ko‘p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va izlanishlar davom etmoqda. Rang ramzlar asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiy mif, turli e‘tiqodiy dunyoqarashlariga borib bog‘lanadi. Barcha turdagi ranglarning tub ildizi xalqning u yoki bu mifologik tasavvur, e‘tiqodiy qarashlarga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Абашин С. Н. Ислам и культ святых в Средней Азии // Этнографические обозрение. – 2001. – № 3; Басилов В. Н. Культ святых в исламе. – М.: Мысль, 1970; O‘sha muallif: Басилов В. Н. Следы культа умирающего и воскресающего божества в христианской и мусульманской агиологии / Фольклор и историческая этнография. – М.: Наука, 1983; Горшунова О. В. Узбекская женщина: Социальный статус, семья, религия (по материалам Ферганской долины). – М.: Наука, 2006; Джаббаров И., Дресвянская Г. Духи, святые, боги Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1993; Литвинский Б. А. Зеркало в верованиях древних ферганцев // Советская этнография. – 1964. – № 3.

2. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент, 2007; Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007; Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005; Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар (Сурхон воҳаси мисолида). – Тошкент: Янги нашр, 2010.; Қурбонова М. Б. Табаррук удумлар: бола ва кулча-нон / Бухоро Университети илмий ахборотлари. – 2002. – №3–4; Ўша муаллиф: Ритуальный хлеб бухарских иранцев / Этнографический источник / Материалы третьих Санкт-Петербургских этнографических чтений. – СПб., 2004.

3. Ҳаққул И. Қора ранг – муборак ранг / Занжирбанд шер қошида. – Тошкент, 1998. – Б. 36–45; O‘sha muallif: Яна қора ранг талқини ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2008. – №4. – Б. 18–24.

4. Ҳаққул И. Қора ранг – муборак ранг.... – Б. 36–45.

5. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент, 2007.

6. Рўзиева М. Ранглар ҳақидаги халқ қарашлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2008. – №5.

7. Халмуратов Б. Р. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида шомонлик эътиқоди. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018.

8. Халмуратов Б. Р. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида шомонлик эътиқоди... – Б. 59.

9. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари....

10. Жаббор Эшонқул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999.

11. Исмоилов Ҳ. Анъанавий ўзбек кийимлари. – Тошкент, 1978.

O‘Z DAVRIDA XONDAN KEYIN TURGAN SHAXS

ЧЕЛОВЕК, КОТОРЫЙ СТОЯЛ ПОСЛЕ ХОНА В СВОЮ ЭПОХУ

THE PERSON WHO RANKED AFTER THE KHAN IN HIS TIME

Xalmuratov Baxtiyor Rejavalievich
Namangan davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
+998 97 255 01 24
E:mail: baxtiyor.m@mail.ru

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O‘rta Osiyo xonliklari, sovet davri va mustaqillik yillarida muhim kasblardan biri bo‘lgan miroblik haqida so‘z boradi. Maqolada muallif asosiy e‘tiborni “mirob” so‘zi, uning etimologiyasi, ushbu kasbga oid sir-asrorlar, XIX–XXI asrlarda O‘zbekistonda miroblar faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlarga qaratgan.

Kalit so‘z va iboralar.

O‘rta Osiyo, Farg‘ona vodiysi, sug‘orish tizimi, o‘zbek xalqi, mirob, suv resurslari, xonliklar davri, sovet davri, mustaqillik yillari, dehqonchilik, ekologik muammolar.

Аннотация.

В данной статье рассказывается о мираб, который был одной из важных профессий в среднеазиатских ханствах, в советское время и в годы независимости. В статье автор остановился на слове “мироб”, его этимологии, тайнах, связанных с этой профессией, изменениях, произошедших в деятельности мирабов в Узбекистане в XIX–XXI веках.

Ключевые слова и фразы.

Средняя Азия, Ферганская долина, ирригационная система, узбекский народ, мираб, водные ресурсы, ханский период, советский период, годы независимости, земледелие, экологические проблемы.

Annotation.

This article discusses the mirab profession, one of the important professions in the Central Asian khanates, the Soviet era, and the years of independence. In the article, the author focuses on the word “mirab”, its etymology, the secrets of this profession, and the changes that occurred in the activities of mirabs in Uzbekistan in the 19th-21st centuries.

Keywords and phrases.

Central Asia, Fergana Valley, irrigation system, Uzbek people, mirab, water resources, khanate period, Soviet period, years of independence, agriculture, environmental problems.

Ma‘lumi, kishilik jamiyati rivojlanishida suv eng zaruriy ehtiyoj manbai sifatida qadrlanib kelingan. Xalqimizda “Suv yo‘q joyda – hayot bo‘lmaydi” degan fikr bejizga aytilmagan. Bu ayniqsa, O‘rta Osiyo, xususan, Farg‘ona vodiysining lalmikor sug‘orishga asoslangan hududlarida eng asosiy o‘rinlardan birini egallab kelgan. Ota-bobolarimiz qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelganligi uchun butun yil davomida yomg‘ir yog‘ishini intiqlik bilan kutganlar. Ushbu hududlarda yashagan xalqlar bahorning dastlabki kunlaridan boshlab yomg‘ir yog‘ishini orziqib kutganlar, suvga sig‘inib, uni muqaddaslashtirganlar va uni isrof qilmaslik uchun harakat qilganlar.

Tarixdan ma'lumki, asosan, dehqonchilik zaminida insoniyat sivilizatsiyasi-ning qadimgi markazlari paydo bo'lgan va rivojlangan. Bu borada qadimgi Sharqda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi sug'orma dehqonchilikka asoslangan. Shuning uchun mintaqada qadim davrlardan sug'orma dehqonchilik asosiy xo'jalik mashg'ulotlaridan biri hisoblangan. Buni yurtimiz tarixiga oid ilk yozma manbalar va arxeologik materiallar ham tasdiqlaydi [1, 26].

O'rta Osiyo zaminida an'anaviy sug'orma dehqonchilikning rivojlanish jarayonida boy tajriba jamg'arilishi bilan birga ayrim vaziyatlarda qator muammolar va qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirgan. O'z navbatida, ushbu muammolarning aksariyati huquqiy masalalarga borib taqalgan. Chunki, ekinzorlari va dalalari yonma-yon bo'lgan va bir ariq yoki daryodan suv ichadigan dehqonlar vaqti kelib o'zaro munosabatlar doirasiga kirishi aniq bo'lgan holatdir. Ana shunda ular ko'pchilikning manfaatlariga taalluqli masalalarni birgalashib hal etganlar. Tarixdan ma'lumki, mazkur masalalar bilan bog'liq turli tortishuvlar va bahslar ayrim hollarda ko'ngilsiz voqealarga ham olib kelgan [2, 14–15].

Suvni to'g'ri taqsimlash hamisha dolzarb vazifa bo'lib kelgan. Ushbu jarayonda miroblarning o'rni katta bo'lib, ular o'zlariga tegishli bo'lgan hududlardagi suv obyektlari nazoratini olib borganlar. Masalan, Buxoro va Qo'qon xonliklarida ariqlarni tozalash hamda suvdan foydalanish tartiblarini nazorat qilib turuvchi miroblar, ariqaminlar va bosh miroblar mavjud bo'lgan bo'lsa, Xiva xonligida esa mirob eng yuqori lavozimlardan biri bo'lib, obro' bo'yicha xondan keyingi o'rinda turganligi uchun xalq orasida alohida hurmat-e'tiborga ega bo'lgan [3, 17].

Bizning maqolamiz obyekti bo'lgan mirob atamasi forscha so'zdan olingan bo'lib, "amir" – hukmron, boshqaruvchi degan ma'noni anglatadi. Ba'zi bir manbalarda sug'orish va suv ta'minoti bo'yicha nozir, sug'orish ishlarini yurituvchi, sug'orish tarmoqlarini nazorat qiluvchi shaxs sifatida qayd etilgan [4, 600].

Hozirgi vaqtda "mirob" sug'orish uchun suvni boshqaruvchi (nazoratchi) hisoblanadi. Mirob joylardagi qishloqlarni suv bilan ta'minlaydigan alohida kanallarga egalik qilgan. O'z navbatida, o'sha qishloqlarda mirobcha (kichik mirob) va palmirob (chegaralovchi mirob) kabi mirobdan keyingi o'rinda turuvchi lavozimlar ham bo'lgan.

Qadimda O'rta Osiyo hududlarida miroblarga juda katta vakolatlar berilib, ular hukmdorning ishongan shaxslaridan biri bo'lgan. Mirolarning ruxsatisiz daryolar o'zanini yoki suv oqimini, jamoatchilik fikrini inobatga olmay o'zgartirish mumkin bo'lmagan. Mashhur tarixchi Yusuf Tavasiyning XII asrda yozilgan "Dono fikrlar xazinasi" kitobida yozilishicha, mashhur so'fiy Ahmad Yassaviyning tarjimayi holi bilan bog'liq ayanchli voqea yuz bergan. Suv nozirlari Ahmad Yassaviyning 15 yoshli o'g'lini to'g'onni beruxsat ochib, o'z yeriga ariqdan suv olib kelganligi uchun boshini tanasidan judo qiladilar. Ushbu holni so'fizm yo'nalishlaridan birining asoschisi matonat bilan qabul qilgan va suv buyuk kishining avlodi bo'ladimi yoki boshqa odam bo'ladimi bir kishining mulki

bo‘lib qolmay, balki butun xalqning boyligi ekanligidan kelib chiqib, jamoatchilikning bunday qattiq qaroriga qarshilik qilmagan [5, 138].

Axborotchilarning fikricha, suv odamlarni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Ilgari mahallalarda ariqqa suv kelsa, hech kim beso‘roq o‘z uyiga ochmagan. Har bir mirobning qo‘lida kaltak bo‘lib, u bilan suvning sathi o‘lchangan, ba’zi paytlarda esa kaltak suvni to‘sovchi vosita sifatida ham ishlatilgan.

Ilgari, aniqrog‘i XX asrning 50–70 yillarida agar suv kam bo‘lib, qurg‘oqchilik bo‘lsa, odamlar bunga qarshi turli xil urf-odat va marosimlarni o‘tkazganlar. Masalan, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Kuymozor qishlog‘iga chiqib, o‘sha yerdagi qabriston atrofiga to‘planib, qurbonlik qilishgan. Qurbonlik uchun asosan, mol so‘yilgan [6, 1].

O‘zbekistonda tabiiy-geografik sharoit turlicha bo‘lishi tufayli xilma-xil sun‘iy sug‘orish usullaridan foydalanilgan. Soy oqavasi, havza va hovuzlarda suv to‘plash, chig‘iriqlar yordamida chuqurdan suv chiqarish, kanal va ariqlar qazish orqali suv chiqarish qadimdan saqlanib qolgan. Masalan, Farg‘ona vodiysida qadimdan murakkab sun‘iy sug‘orish usullari keng tarqalganligi, irrigatsiya ishlarining taraqqiy etganligi hamda miroblar mahoratiga Rossiya imperiyasi tadqiqotchilari A. Middendorf hamda V. I. Kushelevskiylar yuqori baho berganlar [7, 102].

Mahalliy aholi suv taqsimlovchi inshootni “shovva” deb atalib, uning bunday nomlanishiga suvning yuqoridan pastga shovullab tushishi sabab bo‘lgan.

Axborotchilarning ta’kidlashicha, miroblik eng savobli kasblardan biri bo‘lib, u doimo diqqat e’tiborni talab qilgan. Uning ustiga kasbning aniq bir ish vaqti bo‘lmagan. Mirob uchun eng qiyin vaziyat – bu suvning yo‘qligi yoki kamligidir [8, 2]. Axborotchilarning qayd etishicha, miroblik kasbining eng muhim jihati suvni qaysi tarafga yurishini bilish muhim. Bundan tashqari, har bir mirob hududning relyefi va uklonni yaxshi bilishi kerak. Miroblikka tanlashda shaxsning yurish, turishi, odamlarni eshitish qobiliyati, sabrli bo‘lishi va muomalasiga katta e’tibor berilgan. Shuningdek, har bir mirob suvni isrof qilmasligi shart bo‘lgan. Agar shunday holat sodir bo‘ladigan bo‘lsa, miroblar o‘z ustozlari va mahalliy rahbarlar tomonidan qattiq jazolangan. O‘z o‘rnida boboning ma’lumotlariga ko‘ra, miroblarning piri Hazrat Ali bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Hazrat Ali besh panjasi bilan yer yuziga suv chiqargan [9, 3].

Boshqa kasblarda bo‘lgani kabi miroblikning o‘ziga xos sirlari bo‘lib, ular quyidagilardan iborat bo‘lgan: ishni puxta qilish, suvni to‘g‘ri taqsimlash, ya’ni ariq hajmiga qarab, kanal yoki ariqlar tepasida hech qachon spirtli ichimliklar ichmaslik, ish qurollarini va o‘ziga tegishli suv obyekti bo‘ylarini doimo toza saqlash, suvning tezligi va hajmini to‘g‘ri baholay bilish [10, 4].

Miroblarga sovet davrida katta vakolatlar berilgan. Masalan, suv tanqis bo‘lgan paytlarda ularga suvni to‘g‘ri taqsimlashda yuqoridan bosim o‘tkazilmagan. Agar shunday holat ro‘y bersa, suv hech kimga berilmagan. Chora sifatida suvni qurib qolgan ariqlarga baliqlar va boshqa suv organizmlari yashab qolishlari uchun ochib yuborilgan [11, 5].

Axborotchilarning ta'kidlashicha, sovet davrida miroblarni ish haqi yuqori bo'lmagan. Shuning uchun miroblar orasida ishdan bo'yin tovlash holatlari tez-tez sodir bo'lib turgan. Sovet davrida har bir mirobning alohida sumkasi bo'lib, u "korzinka" deb atalgan. Korzinkada doimo pichoq, non, tuz, qalampir, piyoz, termosda choy bo'lgan. Chunki, u davrda miroblar uchun alohida ovqatlanish punktlari bo'lmaganligi uchun miroblar shunday qilishga majbur bo'lgan. Kanallarga qaraydigan miroblar "tuman miroblari", ariqlarga qaraydiganlarni esa "gidrotexniklar" deb atalgan [12, 9].

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida miroblik sohasida ham quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi: 1992- yildan boshlab Prezident Qarori bilan mustaqillik bayrami va Navro'z bayramlari arafasida 1 oklad, ya'ni eng kam ish haqi miqdorida ustama belgilandi. Hozirgi kunda miroblarning oyligi 1.200.000 – 1.400.000 so'mni tashkil etmoqda, Har bir kanal yoki ariqqa suv o'lchagich qurildi, har bir kanal yoki ariqlar bo'yida "Miroblar uyi" qurildi, Ish o'rinlari ko'paydi. Bunga sovet davridagi kolxoz yoki sovxozlarning tugatilib, ularning o'rnida fermer xo'jaliklar tashkil etilganligi sabab bo'ldi. Ovqatlanish punktlari tashkil etildi. Hozir mirob degan atama muomaladan chiqib ketmoqda. U "suv nazoratchisi" deb atalmoqda [13. 19].

Namangan viloyati To'raqo'rg'on va Farg'ona viloyati Dang'ara tumanlari hududlarida olib borilgan etnografik ekspeditsiyalar davomida keksa va tajribali miroblar mazkur kasbni yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o'tishdi: kasb-hunar kollejlari va universitetlarida miroblik bo'yicha mutaxassislik yo'nalishlarini ochish, miroblarning ish haqini yanada oshirish, yoshlarni suvga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, rahbarlarning miroblarga bo'lgan munosabatini o'zgartirish [14, 21].

Miroblikka doir maqollar:

1. Hosilning onasi yer bo'lsa, otasi suvdir.
2. Suv ilmini bilgan yer ilmini biladi.
3. Otang mirob bo'lguncha, o'zing suvboshi bo'l.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, barcha unsurlar singari suv ham doimo muqaddas bo'lib kelgan. Suv nafaqat chanqoqni qondiruvchi vosita, balki o'z navbatida davolovchi vosita sifatida ham qadrlanib kelingan. Suvning poklik ramzi bo'lgani uchun insoniyat qadimdan tozalikka katta e'tibor berib keladi. Suvning poklik va tiriklik ramzi ekanligi unga bo'lgan munosabatning yanada ijobiy tomonga o'zgarishiga, yoshlar ongida ekologik madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, qachonki biz suvga, o'zligimizni namoyon etuvchi ko'zgu sifatida qarasaq, unda ma'lumot bir zumda zohir bo'ladi va bizga ko'p narsalar borasida o'ylab ko'rishimiz, uning qadriga yetishimiz kerakligini uqtiradi. Ajdodlarimizning "suvga tupurma", "suvni bulg'ama", "suvni isrof qilma" kabi purma'no o'gitlarini hech qachon esdan chiqarmaslik kerak. Ana shundagina hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan ekologik fojialarni oldini olishga o'z hissasimizni qo'shgan bo'lar edik.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, o'lkamizda sug'orma dehqonchilikni tashkil etishda va uni rivojlantirishda, yer va suv munosabatlarida, ulardan

oqilona foydalanish sohasida muayyan huquqlar tizimi ancha ilgariyanoq tashkil topgan. Ushbu shariat va odat ko'rsatmalari qonun-qoidalari ko'rinishida yozma va og'zaki holda xalq orasida ma'lum bo'lgan va amalda qo'llanib kelingan. Mana shu jarayonda miroblarning o'rnini beqiyos bo'lganligi tarixiy manbalarda o'z ifodasini topganligi ayni haqiqat.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Бичурин Н. Я. Собрания сведения, о народах обитавших в Средней Азии в древний времена. Т. I–II. – М–Л., 1950 // Труды САГУ. – Вып VI. Археология Средней Азии. Т. IV. 1957. – С. 26.; Заднепровский Ю. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М–Л., 1962.
2. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1998.
3. Юқоридаги асар...
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд (Е–М). – Тошкент: ЎзМЭ, 2006.
5. Саидов А. Жаҳонда сув етишмовчилиги билан боғлиқ инқирозлар // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – 2010. – №2.
6. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Куймозор қишлоғи. 2021 йил.
7. Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882; Кушелевский В. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. – Новый Маргелан, 1890.
8. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Тумор қишлоғи. 2022 йил.
9. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Туркистон МФЙ. 2021 йил.
10. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Тумор қишлоғи. 2022 йил.
11. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исвахон МФЙ. 2021 йил.
12. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Бойбучча қишлоғи. 2022 йил.
13. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Урганжи қишлоғи. 2022 йил.
14. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Туркистон МФЙ. 2021 йил.

EKOLOGIK MADANIYATGA OID XORIJIY MANBA VA ADABIYOTLAR TAHLILI.

ANALYSIS OF FOREIGN SOURCES AND LITERATURE ON ECOLOGICAL CULTURE.

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ ПО ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ.

Isxakov Bexzod Barkamalovich

Namangan davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti.

behzodisxakov2782886@gmail.com

Tel: +998 90 278 28 86

Annotatsiya.

Maqolada Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy ekologik tarixi, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiatni asrash bilan bog'liq an'analari, shuningdek, tabiatni muhofaza qilishga oid xorijiy tadqiqotlar ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan.

Abstract.

The article analyzes the traditional ecological history of the Uzbek of the Fergana Valley, their traditions related to the rational use of nature conservation, as well as foreign studies on nature protection based on scientific sources.

Аннотация.

В статье анализируется традиционная экологическая история узбеков Ферганской долины, рациональное использование природы, традиции, связанные с охраной природы, а также зарубежные исследования по охране природы на основе научных источников.

Kalit so'zlar.

Ekologik madaniyat, atrof-muhit, ekologik qarashlar, tarixiy-etnografik matetiriallar.

Key words.

Ecological culture, environment, ecological views, historical ethnographic materials.

Ключевые слова.

Экологическая культура, окружающая среда, экологические взгляды, историко-этнографические материалы.

Odam biosotsial mavjudot sifatida o'zining ham jismoniy, ham ma'naviy ehtiyojlarini doimiy holda qondirishga urinadi. Odam tabiat bilan munosabatda yakka o'zi emas, balki o'z xalqi, ya'ni o'zi mansub bo'lgan etnos tarkibida munosabatga kirishadi. Bundan kelib chiqadiki, ekologik madaniyat – xalqning tabiiy muhitga moslashishi hamda hayot faoliyatining asosiy mexanizmi hisoblanadi. Modomiki shunday ekan, tabiiy ravishda ekologik madaniyat ham etnik jihatdan o'ziga xoslikka ega.

Bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar tarixiy davrlarda yuz bergan ekologik inqirozlar sabablarini o'rganish bilan bir qatorda, insoniyat hamda tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilikning eng asosiy negizlari hamda evolyutsiyasi haqidagi tarixiy bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini ham berdi. Global ekologik muammolar yuzasidan olib borilgan tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar izlanishlar orasida, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, tarixiy bilimlar muhim rol o'ynay boshladi. Bu holat esa, birinchi navbatda, "Tabiat–jamiyat" tizimidagi munosabatlarning (xususan, qarama-qarshiliklarning) negizi va evolyutsiyasi tarixiy tadqiqotlar obyektiga aylanib ketganligi bilan ham izohlanadi.

Buyuk ingliz tarixchisi A. Toynbi o'z tadqiqotlarida insonning tabiatga ta'siri haqida fikr yuritir ekan, Britaniya Fan taraqqiyoti assotsiatsiyasi prezidenti A. Eving tomonidan ilgari surilgan quyidagi fikrlarni keltirib, sanoat bergan ne'matlar insonning hayotini qiziqarli, to'liqroq, yanada boyroq hamda qulayroq qilishi bilan birga, salbiy holatlarning ham manbasiga aylanganligi, xususan, sanoat orqali insoniyat tabiat ustidan hukmronlikni egallagan bir davrning o'zida odob-axloq masalasida hali ham barkamollikka yetishmaganligini, ma'naviy yuksalishda orqada qolib ketganligi tufayli o'zini boshqarish san'atini tuzukroq egallamasdan turib, Ona tabiatning ustidan hukmronlikka ega bo'lib olganligini ta'kidlaydi [1].

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib sayyoramizdagi ekologik muammolarning haddan tashqari keskinlashishi, 60- yillardan boshlab tarix fanining bir qator tabiiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligining faollashib ketishiga katta turtki berdi.

XXI asr bo'sag'asida xorijlik atrof-muhit tarixini jiddiy o'rgangan tadqiqotchilardan A. Meyn, M. Rangarajan, S. Ravvi Rajan, M. Redklif, D. Vorster, V. Kronon, A. Krosbi, D. Xades va boshqalarning ilmiy ishlarida tarixiy tadqiqotlar yangicha yo'nalishining metodologik asoslari yanada rivojlantirildi [2].

Umuman olganda, XXI asr bo'sag'asida g'arblik tadqiqotchilar sa'y-harakatlari tufayli ekologiya tarixi bo'yicha katta xorijiy tarixshunoslik ilmiy manbalar shakllangan edi. Bundan farqli ravishda sobiq Ittifoqda ekologiya tarixi bo'yicha izlanishlar ancha orqada qolib ketgan edi. Hattoki, atrof-muhit muammosi sovet jamoatchiligi hayotining ajralmas bir qismiga aylangan sharoitlarda ham tarixiy fanlar sohasida ekologiya tarixining istiqboli noaniq tarzda qolgandi. Buning asosiy sabablaridan biri bo'lsa iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlar tabiatni asrash masalalaridan hamon anchagina ustun tarzda turishida edi.

Masalaning yana bir e'tiborli jihati esa, ko'pgina tarixiy tadqiqotlarda ekologik jihatlaram ancha-muncha namoyon bo'lsa-da, ularga ikkinchi darajali masala sifatida, go'yoki tabiat tarixiy tadqiqotlar obyektidan tashqaridagi bir voqelik, deb qaraldi.

Global ekologik inqiroz orqali insoniyat kelajagiga tahdid solinishi zamonaviy tarixiy bilimlarga o'ziga xos talablarni qo'ymoqda. Aynan ekologik muammolarning kelib chiqishi asosi va negizlarini o'rganish – tarixchilardan ilgari turli ilmiy yo'nalishlarning o'rganish obyekti bo'lgan har qanday faktlar va hodisalarni har tomonlama tahlil qilishni talab qilmoqda. Bu borada atrof-muhit muammosiga turli-tuman yondashuvlar yuzaga keldi va ekologiya tarixining predmeti, metodi va vazifalari xususida bir qator masalalar ham o'rtaga tashlandi.

Xorijlik olim D. Vorster bo'lsa ekologiya tarixining asosiy maqsadi biofizik dunyo tomonidan insoniyatning tarixi va g'oyalariga ta'sir qiluvchi bir qator asosiy omillarni jiddiy tadqiq qilishdan iborat, deya qayd etgan edi [3].

Rossiyalik tadqiqotchilar V. Alekseyev, D. Gavrilovlar ekologiya tarixining eng asosiy maqsadi qadim zamonlardan to hozirgi davrgacha inson hamda atrof-muhitning o'zaro ta'sirini o'rganish, ekologik inqiroz va tanglik, tabiiy ekosistemalar muvozanatini aynan inson tomonidan buzilishining ijtimoiy sabablarini aniqlash, va umuman olganda, tabiatga antropogen ta'sir jarayonlari va uning oqibatlari tarixini ilmiy tadqiq qilishdan iborat ekanligini ta'kidlaganlar [4].

Tabiiy fanlarga doir bilimlarni tarixiy tadqiqotlarga jalb qilinishi, tarixchilar uchun o'tmishni boshqacha pozitsiyadan turib ham kuzatish imkoniyatini yaratib berdi. Shundan xulosa qilish mumkinki, ekologiyaning tarixga ta'siri muqarrar holat, ammo tarix fani ham tabiatshunoslikka kam ta'sir qilmaydi. Chunki, aynan ekologik muammolarning kelib chiqishining asosiy manbasi insoniy madaniyatning darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini esa faqatgina gumanitar fanlar asoslab tushuntira oladi. Mavjud ekologik muammolar insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti bilan bog'liq bo'lganligi uchun tabiiy

fanlar mustaqil ravishda mana shu muammoning negizini unchalik darajada ham chuqurroq va teranroq anglay olmaydi.

Etnik ekologiyaga daxldor xorijiy adabiyotlar qatorida R. Balliyeva [5], Yu. Odum [6], V. Ogudin [7], V. Kozlov [8], A. N. Yamskov [9], V. Tishkov [10]. va boshqalarning tadqiqotlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiyalik tadqiqotchi V. Ogudin "Strana Fergana" nomli asarida ekologik madaniyat muammolarini bartaraf etishda ziyoratgohlarning o'ziga xos vazifalariga e'tiborini qaratgan. Olimning bu boradagi izlanishlari ziyoratgohlarni o'rganishda yangi bir yo'nalish ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda. V. Ogudin mazkur tadqiqotida Farg'ona vodiysida yashovchi etnoslar turmush tarzida ziyoratgohlarning o'ziga xos o'rni va uning xalq diniy-ekologik qarashlariga ta'siri masalalariga atroflicha e'tiborini qaratgan. Muallif Farg'ona vodiysi aholisi diniy-ekologik madaniyatini yanada jiddiy o'rganish jarayonida o'ziga xos metodlardan unumli foydalanganligi bilan ilmiy tadqiqotga ham bevosita aloqadordir [11].

Kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan to hozirga qadar inson o'z tabiiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatga keskin ta'sir qilib, uni butkul o'zgartirib yubordi. Keyingi ming yillar davomida esa inson mehnat faoliyati natijasida Yer shari yuzasi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosining keskin o'zgarib ketganligi ham bunga misol bo'la oladi. E'tirof etish kerakki, insonning istiqbolni sira o'ylamasdan qilgan xatti-harakatlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko'p narsalardan esa abadiy judo bo'ldi.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilsak, hozirgi davrda ekologiya masalasi juda ham dolzarbligi bilan ajralib turadi. Buning asosiy sababi esa ham iqtisodiy, ham siyosiy hayotdagi barqarorlik, umuman olganda, barcha davlatlar ekologik muammolarni tizimli hal qilish bilan bevosita chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Тойнби А. Постигжение истории. Сборник. / Пер. с англ. Е. Д. Жаркова. 2-е изд. – М, 2002.
2. Main A. R. Ghosts of the Past: Where does Environmental History Begin? // Environment and History, February 1996. Vol. 2. number 1. – P. 97 – 114; Rangarajan M. Environmental History of South Asia: A Review Essay // Environment and History, June 1996. Vol. 2. Number 2. – P. 129 – 144; Ravi Rajan S. The Endes of Environmental History: Some Questions // Environment and History, June. – 1997. Vol. 3. N. 2. – P. 245 – 254; Redclift M. In Our Own Image: The Environment and History Society as Global Discourse // Environment and History, February 1995. Vol. 1. N. 1, – P. 111 – 124; Worster D. The Two Cultures Revisited: Environmental History and the Environmental Sciences // Environment and History, February 1996. Vol. 2. N.1. – P. 3 – 14;
3. Worster D. The Two Cultures Revisited: Environmental History and the Environmental Sciences // Environment and History, 1996. Vol. 2. № 1.
4. Алексеев В. В, Гаврилов Д. В. Историческая экология на Урале // Урал: наука, экология / Инст. пром. экол. УрО РАН. – Екатеринбург, 1999.
5. Баллиева Р. Этнические особенности природопользования каракалпаков / VI конгресс этнографов и антропологов России. – СПб, 2005.
6. Одум Ю. Экология: В 2-х т. Т. 1. Пер. с англ. – М: Мир, 1986.

7. Огудин В. Страна Фергана (эколого-религиоведческое исследование). – М. 2002. – 197 с.; Ўша муаллиф: Экологическая функция религии // Этнографическое обозрение. 2001. – № 1.
8. Козлов В. Многоаспектность этнической экологии // Этноэкологические исследования. Сборник статей к 80- летию со дня рождения В. И. Козлова. – М: Старый Сад, 2004.
9. Ямсков А. Н. Экологические функции основных компонентов традиционной культуры // Этноэкологические исследования: Сб. статей к 80- летию со дня рождения В. И. Козлова. – М: Института этнологии и антропологии РАН, 2004.
10. Тишков В. Системы жизнеобеспечения и историческая типология обществ // Реквием по этносу: Исследования по социально-культурной антропологии. – М, 2003.
11. Огудин В. Страна Фергана (эколого-религиоведческое исследование). – М. 2002.
12. Isxakov B. B. Environmental Culture in Family Rituals and Traditions. A Journal for New Zealand Herpetology Volume 12, Issue 03, 2023 ISSN NO 2230-5807.
13. Isxakov B. B. Fargona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy ekologik madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot). Tarix. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Fargona, 2023.
14. Isxakov B. B. The ecologic conception of zoroastrizm connected with environment. Monografia pokonferencyjna. "Science, research, development". № 13. V.02. Berlin.

OILA VA NIKOH TUSHUNCHALARINING ILMIY-FALSAFIY, IJTIMOIY-HUQUQIY, TARIXIY TALQINI.

НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОЕ, СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЕ И ИСТОРИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ПОНЯТИЙ СЕМЬИ И БРАКА.

SCIENTIFIC-PHILOSOPHICAL, SOCIO-LEGAL, AND HISTORICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF FAMILY AND MARRIAGE.

Isaqov Abdulvohid Qobilovich

Namangan Davlat Universiteti ijtimoiy falsafa kafedراسi erkin tadqiqotchisi.

e-mail: isaqovabdulvohidisaqov@gamil.com

Tel: +998 90 596 02 52

Annotatsiya.

Maqolada oila va nikoh tushunchalariga falsafiy, ijtimoiy-huquqiy va tarixiy nuqtai nazardan yondashiladi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi va Oila kodeksi asosida oilaning jamiyatdagi o'rni, nikohning huquqiy asoslari, uning ixtiyoriyligi, yoshga oid talablar hamda nikohga oid turli huquqiy cheklovlar tahlil qilinadi. Muallif o'zbek oilasining urf-odatlarini, axloqiy qadriyatlarini, oiladagi o'zaro munosabatlar va shaxsiy erkinliklar masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, islomiy fiqh manbalariga tayanilgan holda nikoh va oilaga oid an'anaviy qarashlar ilmiy asosda yoritiladi. Xulosa sifatida, nikoh va oila jamiyatning barqarorligi va ma'naviy taraqqiyotining asosiy instituti sifatida talqin etiladi.

Аннотация.

В статье рассматриваются понятия семьи и брака с философской, социально-правовой и исторической точек зрения. На основе Конституции Нового Узбекистана и Семейного кодекса анализируются место семьи в обществе, правовые основы брака, его

добровольность, возрастные требования, а также различные правовые ограничения, связанные с браком. Автор уделяет особое внимание узбекским семейным традициям, моральным ценностям, взаимным отношениям в семье и вопросам личной свободы. Кроме того, на научной основе освещаются традиционные взгляды на брак и семью, основанные на исламских фикхистских источниках. В заключение брак и семья рассматриваются как важнейший институт устойчивости и духовного развития общества.

Annotation.

The article examines the concepts of family and marriage from philosophical, socio-legal, and historical perspectives. Based on the Constitution of New Uzbekistan and the Family Code, the article analyzes the role of the family in society, the legal foundations of marriage, its voluntariness, age requirements, as well as various legal restrictions related to marriage. The author pays special attention to Uzbek family traditions, moral values, mutual relationships within the family, and issues of personal freedom. Additionally, traditional views on marriage and family, based on Islamic fiqh sources, are presented on a scientific basis. In conclusion, marriage and family are considered as essential institutions for the stability and spiritual development of society.

Kalit soʻzlar.

Oila instituti, Nikoh huquqiy asoslari, Yangi Oʻzbekiston Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, Urf-odat va anʼanalar, Axloqiy mezonlar, Islom huquqshunosligi, Shaxsiy va oilaviy huquqlar, Nikoh yoshi, Soxta nikoh, Qonunchilik va oilaviy munosabatlar, Oilada tenglik tamoyili, Oʻzbek oilasining milliy qadriyatlari, Demografik rivojlanish.

Ключевые слова.

Институт семьи, правовые основы брака, Конституция Нового Узбекистана, Семейный кодекс, социально-правовые отношения, обычаи и традиции, моральные нормы, исламская юриспруденция, личные и семейные права, брачный возраст, фиктивный брак, законодательство и семейные отношения, принцип равенства в семье, национальные ценности узбекской семьи, демографическое развитие.

Keywords.

Family institution, legal foundations of marriage, Constitution of New Uzbekistan, Family Code, socio-legal relations, customs and traditions, moral norms, Islamic jurisprudence, personal and family rights, marriage age, fictitious marriage, legislation and family relations, principle of equality in the family, national values of the Uzbek family, demographic development.

Yangi Oʻzbekiston Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan 76-moddasida ifodalanishicha: “Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir” [1]. Ushbu norma mazmun-mohiyatidan anglashiladiki, oila institute falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-biologik va maʼnaviy-axloqiy kategoriyadir. Bu degani, xalqimizning oilaga taalluqli milliy anʼana va qadriyatlari hamda oilaning toʻlaqonli rivojlanishi uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Oila bilan bogʻliq qoidalarga qiyosiy-tahliliy nazar shundan dalolat beradiki, Yangi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik va Oila kodekslari, shuningdek, boshqa tegishli normative hujjatlarimizning xalqparvarligiga, ularning milliy, diniy qadriyatlarimiz va anʼanalarimiz bilan uygʻunligiga amin boʻlamiz.

Oila serqirra va mazmuniga koʻra keng qamrovli institute hisoblanib, yosh avlod taʼlim-tarbiyasida, ularni sogʻlom, toʻlaqonli va hartomonlama kamol toptirish borasida olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar jarayonida muhim

o‘rintutadi. Shu bois, oila azaldan jamiyat ijtimoiy-ma’naviy, qolaversa iqtisodiy, ma’rifiy, axloqiy, diniy, hattoki, siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan muqaddas maskan sifatida e’tirof etiladi.

Tarixdan ma’lumki, davlat bilan oila, ularning vujudga kelishi va boshqarish mexanizmi ijtimoiy-huquqiy tusga ega. Oilaning yuzaga kelish asosi sifatida nikoh – nikohlanuvchi taraflarga er va xotin maqomini berish orqali ular zimmasiga huquq va majburiyatlar, javobgarlik (burch, vazifa, mas’uliyat) yuklashni yuridik jihatdan rasmiylashtirish jarayoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-bobida nikoh, nikoh tuzish tartibi, uning ixtiyoriyligi, nikohyoshi kabi huquqiy jihatlari to‘la-to‘kis yoritib berilgan [2]. Aynan nikoh qayd etilganidan e’tiboran oilaviy munosabatlarni nazorat qilish, muammolarni hal qilish, nazoratga olish huquqiy jihatdan boshqarish davlat zimmasida bo‘ladi. Zero, har qanday jamiyat, davlatning ijtimoiy tanazzuli oilaning buzilishi, barbod bo‘lishi kabi illatlar bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun nikoh munosabatlari, yolg‘iz yashovchilar va oilaviy muammolarni o‘rganish jamiyat ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Barcha dinlarda ham nikoh muqaddas rishta hisoblangan, xususan, islom dinimizda nikoh va oilaning falsafiy qarashlari bo‘yicha juda ko‘p olimlar ilmiy asar yozishgan shular qatorida yurtimiz allomalari qatorida Tojiddin Abubakr Al-Axsikatiy “al-fatavo al-Ho‘jandiy” asarida ham oilada er-xotin huquq va majburiyatlari haqida ma’lumot berilgan.

Ta’kidlash kerakki, har bir oila o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lib, turmush oilaning kundalik hayoti hisoblanadi. Oila g‘oyat serqirra va murakkab ijtimoiy-huquqiy ittifoq yoki aniqroq qilib aytganda uyushmadir. Unda quvonchlar ham, tashvishlar ham mujassam. Agar oila a’zolari ahil, hamjihad, odob-axloqli, nomusli, o‘z qadr-qimmatini saqlaydigan, saranjom-sarishta, tejamkor bo‘lsa, bunday xonadonda turmush shirin va maroqli o‘tadi.

O‘zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o‘ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy me’zonlari borki, bunda urf-odatlar va an’analar alohida o‘rin tutadi. Jumladan, “urf-odatlar va an’analar – tarixan shakllangan va avloddan-avlodga o‘tib boradigan, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan va doimo takrorlanib turadigan hatti-harakat, xulq-atvor normalari va ko‘nikmalaridir” [3]. Masalan, tongda barvaqt turish, yuz-qo‘l yuvilmasdan salomlashmaslik, ayollarning nonushta hozirlashlari, qizlar va kelinlarning hovli va ko‘cha supurishlari kabi bir qator fazilatlar bisyor. Buni ustiga o‘zbek oilalari bolajon.

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Uylaninglar, ko‘payinglar chunki men qiyomatda payg‘ambarlar o‘rtasida ummatimning ko‘pligi bilan faxrlanaman” deb, marhamat qilganlar.

Vaholanki, oilaviy munosabatlar mustaqil hodisa bo‘lib, uning ichki ishlariga hech kim behuda aralashishga haqli emas. Shu sababli oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Ilmiy-nazariy tilda aytganda, oila o‘ziga xos muhitni shakllantirgan kichik bir davlatdir. Chunonchi, oila jamiyat ichida, uning tashqarisida emas, uning tarkibidadir. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-axloqiy munosabatlar bilan belgilanadi va uning bevosita yoxud bilvosita ta’siri ostida shakllanib rivojlanib boradi.

Demoqchimizki, aynan jamiyat hayoti, ruhiyati oilaning ijobiy yoki salbiy jihatlariga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra har bir jamiyat o'ziga xos va mos oila turini tanlaydi va bag'rida yetishtiradi.

Jamiyatning tashkil topishida, uning davomiyligini ta'minlashda oila ijtimoiy-demografik manba hisoblanadi. Insonning dunyoga kelishi, yangi avlodning paydo bo'lishi, avlodlar almashinuvi asosan oilada sodir bo'ladi. Farzand tug'ilib, kamolga yetib shaxs sifatida shakllanishiga qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim-tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-onasi, qarindoshlari, qariyalar, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada boshlanadi. Shu bilan birga, oila urf-odatlarini avlodlardan avlodga yetkazish vositasi ham hisoblanadi [4].

Oilaning vujudga kelishida uning yuridik fakt sifatida e'tirof etilganligi va jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati nuqtai-nazaridan nikohning huquqiy jihatlariga alohida e'tibor beriladi. Qonunda belgilanishicha, nikoh tuzish ixtiyoriy bo'lib, bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Demak, zo'rqlash, aldash, adashish, po'pisa qilish va boshqa noqonuniy harakatlarga yo'l qo'yilmaydi. Aks holda, nikohning haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin. Nikoh munosabatlarini o'rnatishga doir asl ichki xohishga tayanmagan irodaning tashqi ifodasi o'zi hech qanday vaziyatda nikohdan o'tishga huquqiy jihatdan rozilik sifatida qabul qilinmaydi.

Nikoh faqat nikoh yoshiga yetgan, balog'at yoshiga yetgan shaxslar o'rtasida tuzilishi mumkin. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin. Nikoh yoshini kamaytirish uchun uzrli sabablarning ro'yhati kodeksda keltirilmagan bo'lsada, aksariyat hollarda, bu homiladorlik yoki farzandning tug'ilishi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 15-moddasiga muvofiq O'zbekistonda nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan. Nikohdan o'tish uchun ariza topshirilayotganda, nikohdan o'tmoqchi bo'lgan shaxslarning yoshi belgilangan, ularning shaxsini tasdiqlaydigan hujjati talab etiladi. Ammo, ayrim joylarda mazkur shartni buzib, nikohlarning qayd qilinishi achinarli holdir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikoxda turgan shaxslar o'rtasida nikohning tuzilishiga ham yo'l qo'yilmaydi. Ko'pgina mamlakatlarning qonunchiligi bir nikohlik qoidasidan kelib chiqadi. Bunday ta'qiqning kelib chiqishi hududdagi mavjud diniy an'analar va madaniyat bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda islom diniga e'tiqod etgan va milliy tarixiy an'analarga ega, avvallari ko'p xotinlilikka yo'l qo'yadigan mamlakatimiz aholisi ham bir nikohlik qoidasiga bo'ysungan. Ommaviy axborot vositalarida bir necha marta mazkur muammo muhokama qilindi, qonunchiligiga zid bo'lgan ko'pxotinlik haqida me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilish haqida so'z bordi, ko'p xotinlilikni qonuniylashtirish tarafdorlari paydo bo'ldi. Ayrimlar, hattoki, mazkur ta'qiqni juda favqulodda vaziyatlarda, masalan, oilada xotinning kasalligi yoki farzandning

bo'lmashligi, yani farzand ko'rmagan hollarda bekor qilish mumkin deb hisoblaydi. Mamlakatimizda ko'pxotinlilikka oid masala bir paytlar darhaqiqat mavjud bo'lganligi va u milliy urf-odatlar hamda turli dinlar bilan bog'liq bo'lgani bois unga juda mulohazali yondashish lozim.

Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida ham nikohning tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Biroq, bunda farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh biologik mulohazalar emas, balki ijtimoiy aloqalar tufayli ta'qiqlanadi. Farzandlikka olish ota-onalik kabi munosabatlarni yuzaga keltirishni maqsad qilib qo'ygan. Shuning uchun farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasidagi nikoh axloqiy va huquqiy ta'qiq ostida hisoblanadi.

Loaqa bittasining ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqasiz deb topilgan shaxslar o'rtasida ham nikohning tuzilishiga ruxsat etilmaydi. Mazkur ta'qiq tasodifiy emas. Albatta, u bir necha shartlar bilan asoslangan, ulardan biri bunday nikohda tug'ilgan farzandlar haqida g'amxo'rlikni nazarda tutadi. Chunki ruhiy kasallikning nasl bo'yicha o'tish ehtimoli juda kattadir.

Soxta nikohning tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Soxta nikoh deb shaxsning oila qurish niyatisiz, biror bir manfaatni yoki g'arazli maqsadni ko'zlab tuzgan nikohigi aytiladi. Soxta nikoh tuzuvchi er-xotin doimo ma'lum bir maqsadni ko'zlaydilar. Soxtalik har ikki tomonlama yoki faqat bir tomonlama bo'lishi mumkin. Agar er ham xotin ham soxta nikoh tuzish niyatida bo'lsa, nikohni soxtaligini isbotlab berish juda qiyin. Soxta nikohni hisobli nikohdan farqlash zarur, bunday nikohni haqiqiy emas deb topish mumkin emas, uni faqat tugatish mumkin.

Nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda bunday nikoh ham haqiqiy hisoblanmaydi. Qonun chiqaruvchi qayd etilgan kasalliklar mavjudligi haqida ma'lum qilishga alohida ahamiyat beradi. Agar nikohlanuvchi shaxslardan biri boshqasining kasalligi haqida oldindan xabardor bo'lsa, bunday nikohni haqiqiy emas deb topish mumkin emas.

Er-xotinning kundalik hayoti mohiyatini tashkil qiluvchi aksariyat munosabatlar huquq doirasidan tashqarida yotadi. Agar so'zsiz nikoh-oilaviy munosabatlarga huquq vositasida ta'sir etish mumkin bo'lmasa, ularga nafaqat oilaviy, balki boshqa ixtiyoriy huquq sohasi yordamida ta'sir o'tkazish mumkin emasligini tan olish kerak. Shaxsiy oilaviy munosabatlarga faqat ixtilof yuzaga kelgandagina aralashish huquqi mavjud.

Oilada er va xotinning teng huquqligi shaxsning huquqiy mavqeini belgilovchi konstitusiyaviy qoidalardan kelib chiqadi. Bunga ko'ra har bir erkak va ayol fuqarolarning bir xil huquq va erkinlikka egaligi hamda qonun oldida tengligi; yashash va turar joylarini erkin tanlashga egaligi; o'z faoliyatining turini va kasbini tanlashdagi erkinliklari ifodalangan. Er va xotin teng huquq va majburiyatlarga

hamda o‘zaro munosabatlarda va farzandlari bilan bo‘lgan munosabatlarida, nikoh tuzish, nikohda bo‘lish va nikohni bekor qilinishi kabi munosabatlarda bir xil javobgarlikka egadirlar.

Er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlar maxsus ahamiyatga ega, ular o‘z egalari bilan chambarchas bog‘liq va ulardan ajratilmaydi. Aynan shaxsiy munosabatlar nikoh asosini tashkil qiladi va er-xotin o‘rtasidagi boshqa munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ular er-xotin munosabatlari tarzini va xususiyatini belgilaydi.

Er-xotin oilaviy turmush masalalarini birgalikda hal qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 19-moddasida “Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar” [5]. deb belgilangan. Ya’ni, bundan er va xotin bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini birgalikda hal qiladilar, degan mazmun-ma’no kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, nikoh, oila va oilaviy munosabatlar jamiyat kesimida qaralganda muqaddas hisoblanib, juda murakkab va nozik ijtimoiy-huquqiy masalalar qatoridan haqli ravishda joy oladi. Xususan, bizni yurtlarda oila muqaddas rishta hisoblangan va juda ko‘p ijod qilib o‘tgan olimlar asarlarida o‘z aksini topgan shular jumlasidan yurtimiz allomalari qatorida Tojiddin Abubakr Alaxsikatiy “Al-fatavoi al-Ho‘jandiy” qo‘lyozma asarida xat alohida nikoh va oilaning falsafiy qarashlari bor.

FOYDALANILGAN MANBA ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr – Toshkent.: “Adolat”, 2021.
3. Milliy istitqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli lug‘at). Toshkent: Yangi asr avlodi. 2002.
4. Ro‘ziyeva N. Yoshlar tarbiyasida o‘zbek oilalari urf-odatlarining o‘rni // “Barkamol avlod tarbiyasining manaviy-ahloqiy, huquqiy, ekologik, valeologik, akmeologik va iqtisodiy masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent: Falsafa va huquq instituti. 2010.
5. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr – Toshkent.: “Adolat”, 2021.
6. Tojiddin Abubakr Al-Axsikatiy “Al-fatavoi al-Ho‘jandiy” O‘zbekiston fanlar akademiyasi sharqshunoslik inustuti qo‘lyozmalar fondi 2339 sonli fonida saqlanadi. 1112- yil.

ТРАДИЦИОННОЕ КОВРОТКАЧЕСТВО КЫРГЫЗОВ – ОДИН ИЗ ВАЖНЕЙШИХ ЭЛЕМЕНТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.

TRADITIONAL KYRGYZ CARPETING IS ONE OF THE MOST IMPORTANT ELEMENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF CENTRAL ASIA.

Сатыбалдиева Чыныхан Топчубаевна.
Ошский государственный университет. Кыргызстан, г.Ош.
satybaldieva@ohsu.kg

Акжол кызы Жамилакан
Магистрант. Ошский государственный университет. Кыргызстан, г.Ош.

Аннотация

В статье описывается, как кыргызское ковроткачество, возникшее в традиционном обществе, является неотъемлемой частью истории и культуры ковроткачества народов Средней Азии. Культура народов, проживающих в этом регионе, формировалась в результате взаимовлияний, единства общих этнических корней, художественно-эстетических проявлений и традиций, которые развивались в этом регионе на протяжении веков.

Abstract

This article describes how the Kyrgyz carpet weaving craft, which emerged in a traditional society, is an integral part of the history and culture of carpet weaving among the peoples of Central Asia. The culture of the peoples living in this region was formed as a result of mutual influences, the unity of common ethnic roots, and the artistic and aesthetic manifestations and traditions that have developed in this region over the centuries.

Ключевые слова.

Ковер, ковроткачество, этнокультура, Средняя Азия, культура народов, этнические корни.

Key words.

Carpet, carpet weaving, ethnoculture, Central Asia, culture of nations, ethnic roots.

Традиционное кыргызское ковроткачество, традиционные ковры и ковровые изделия, традиции их украшения сохранились до наших дней, не утратив общих черт, с изменениями лишь в некоторых деталях узора.

Если в Кыргызстане производство предметов домашнего обихода из шерсти было высоко развито во II в. до н. э. [1, с. 190-198], то начало производства шерстяных изделий со сложной техникой ткачества в южной и средней Амударье Туркменистана относится ко II в. до н. э. [2, с. 165-174].

А наличие ковров, найденных в могильниках Башадыр (VI в. до н. э.) и Пазырык (V в. до н. э.) на Алтае, стало началом ковроткачества, возникшего у всех тюркских народов [3, с. 106-116]. Возникшее в то время ковроткачество постепенно распространилось среди тюркских народов в течение последующей тысячи лет. По нашему мнению, кыргызы начали осваивать искусство ковроткачества с I тысячелетия до н. э. А начало традиционного искусства ковроткачества народов Средней Азии относится к середине I тысячелетия н. э. По данным ученого Э. Шефера, в 726 году бухарский царь обратился к империи Тан с просьбой о спасении от арабских захватчиков, и через своих посланников отправил императору шафран, “каменный мед” и “римский вышитый ковер”, а также два одеяла и вышитый ковер его жене, китайской царице “Хатун”. В свою очередь, говорится, что жена Танского императора в ответ подарила жене бухарского царя косметику и одежду [4, с. 264]. В то же время сообщается, что шерстяные ковры и “танцевальные ковры” были отправлены в область Чанъань Китая в VIII веке

от Тюргашей и вождей княжеств Капиши, Маймург, Чач и Кеш [4, с. 264; 373, с. 42-46]. Таким образом, исходя из вышеизложенных сведений, мы можем видеть, что ремесло ковроткачества велось на высоком уровне в Средней Азии с середины первого тысячелетия.

При изучении традиции ковроткачества у кыргызов необходимо было изучить изменения, которые претерпевало это ремесло в исторические периоды. Как было отмечено, производство тканых ковров у кыргызов было приспособлено к условиям жизни кочевого быта, в то же время удовлетворяя материальные и духовные потребности кыргызов. Традиционное художественное творчество кочевых и полукочевых народов Средней Азии – кыргызов, казахов, каракалпаков, туркмен – отличается от искусства других оседлых народов практически по всем видам.

Жизнь кочевников, суровые климатические условия их обитания предопределили их занятие особым видом хозяйственной деятельности и связанные с этим социокультурные особенности, где большинство населения занимается кочевым животноводством. Однако в то же время кочевники никогда не были изолированы от мира земледелия, так как им также требовались сельскохозяйственные продукты и ремесла.

Круг вопросов, связанных с изучением тканых ковров, широк. Характеризуя значение ковра как продукта народного искусства, исследователи выделяют два направления его изучения. Ковер является историческим памятником, источником знаний об истории народа, его характере, быте, взаимоотношениях с другими людьми. В культурной сфере ковер отмечается как произведение народного искусства, стремящееся к дальнейшему развитию. Ковроткачество – вид народного декоративно-прикладного искусства кыргызов с глубокими народными традициями. В отличие от других предметов быта, изготавливавшихся различными способами в кочевой период, ковры сохранили свое практическое значение и по сей день. Приоритетными вопросами для исследования стали технологические аспекты производства ковров, смысловое значение и параллели набора орнаментов.

В 1909 году начальник Закаспийской области А.А. Боголюбов представил лучшие образцы своей коллекции, собранные во время многочисленных поездок по региону. Он предложил первую научную классификацию ковров. В этой классификации особое внимание уделялось коврам туркменского народа. Особенности коврового производства народов Средней Азии были разделены на три группы: ковры киргизов Ферганской долины, полукочевых узбеков и арабов [5, с. 74-25]. Видный востоковед проф. А.А. Семенов в 1911 г. написал критический отзыв на альбом А.А. Боголюбова, в котором уточнил список узбекских племен и выявил районы коврового производства арабов и каракалпаков в Самаркандской области [6, с. 137-176]. Ученый и художник С.М. Дудин работал сотрудником Российского этнографического музея, уделяя особое внимание сбору и изучению образцов ковров и ковровых изделий. В своей научной работе,

опубликованной в 1928 г., ученый разделил все среднеазиатские ковры на основные группы - туркменские, узбекские, киргизские, показав их художественные особенности и выделив их этнические различия. При этом он отмечал, что в основе упорядоченного рисунка ковра лежат реальные предметы окружающего мира [7]. Ученый С.М. Дудин восхищался среднеазиатскими коврами, считая их превосходящими персидские и кавказские образцы, выполненные “лучшей техникой шерстяного ткачества” [7, с. 74]. Он высоко ценил ковры и ковровые изделия родоплеменных групп, проживающих в Самаркандской области, а также каракалпаков Самарканда и арабов степей Кашка-Дарьи (Карши), Башира и Кызыл-Аяка, киргизов Ферганской долины и некоторых районов Восточного Туркестана [5, с. 25].

Кочевники отличались особым духовным внутренним миром и специфическим восприятием пространства и времени, традицией гостеприимства, простоты и терпения. Они стремились осваивать пригодные для проживания территории, и благодаря их посреднической деятельности устанавливались экономические и торговые связи между цивилизациями, распространялись технологические, культурные и другие новые явления. Многие кочевые общества внесли свой вклад в мировую культуру и историю этносов. Изучение традиции ковроткачества, процесса ткачества и сопутствующих ему обычаев, традиций, узоров и семантики ковровых изделий можно считать одним из источников, позволяющих глубже понять общие проблемы этнической истории, этнокультурного развития и преемственности культуры. Изучение процесса ковроткачества киргизов способствует пониманию этногенетических и этнокультурных связей киргизов с другими родственными и соседними этносами.

Ученый К. Усенбаев писал о том, что ханы Кокона заказывали ковры самого лучшего качества искусным женщинам из племени Ихлик, а это значит, что киргизы владели этим ремеслом на высоком уровне и киргизские женщины имели большой опыт в ковроткачестве, поэтому они ткали ковры высокого качества [8, с. 75]. Значительный вклад в развитие направления научных исследований среднеазиатских ковров внес барон А. Э. Фелькерзам – коллекционер, художник и искусствовед, хранитель Казенной галереи Императорского Эрмитажа, впоследствии директор Эрмитажа, автор труда “Ковровые изделия Средней Азии”. Он не имел возможности посетить Среднюю Азию, поэтому в своей работе опирался на случайно взятые образцы среднеазиатских ковров, а также на сведения, полученные от Н. Ф. Бурдукова и С. М. Дудина, которые неоднократно путешествовали в Туркестан. А. Э. Фелькерзам в своем исследовании отметил, что ковровое производство в Средней Азии находилось исключительно в руках кочевых народов – туркмен, киргизов и узбеков [9, с. 61].

Фактически он разделил узбеков на кочевых и оседлых, отметив, что и те, и другие изготавливали ковры. Кипчаков, конуратов, каракалпаков и лакаев долины Зарафшана он включил в кочевые узбекские племенные группы. А о конуратах он замечает: “Они отличаются изготовлением

красивых ковров с цветочным узором, тогда как ворсовые ковры не возвышаются над простыми изделиями других узбекских племен” [9, с. 74-76].

Поэтому ученые рассматривают шерстяные изделия, особенно ковры и ковровые изделия, как этнографические и исторические источники прикладного искусства. Между орнаментальным искусством кочевых народов Средней Азии и соседних народов и художественным творчеством кыргызов существовала определенная общность.

В итоге можно отметить исследования в этой области еще не завершены. Традиционные ковры и ковровые изделия могут быть источниковой базой для историков, этнографов, исследователей культуры. Изучение традиций ковроткачества способствует пониманию этногенетических и этнокультурных связей с другими родственными и соседними этносами, которые тесно связаны с их этнической историей, производственной деятельностью, духовной культурой и образом жизни.

ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. Кюннер, И. В. Китайские известия о народах Южной сибирю, Центральной Азии и Дальнего Востока. Глава II. Усунь. “Собрание сведений...” [Текст]. / И. В. Кюннер. – М.: Изд-во вост. лит., 1961. – Т. 2.
2. Царева, Е. Г. Ковер как исторический источник: к истории формирования художественного облика и структурных особенностей туркменского ковра конца XVI - начало XX в [Текст]. / Е. Г. Царева // Вестн. археологии, антропологии и этнографии. – 2013. – № 3 (22).
3. Руденко, С. И. Пятый Пазырыкский курган [Текст]. / С. И. Руденко // Краткие сообщ. о докл. и полевых исслед. ин-та истории и материальной культуры (КСИИМК). – М.; Л., 1995. – Вып. 37.
4. Шефер, Э. Ткани [Текст]. / Э. Шефер // Культура народов Востока. Золотые персики Самарканда. – М., 1981.
5. Мошкова, В. Г. Джульхирсы (Два уникальных узбекских ковра XIX в. из собрания Музея истории АН УзССР) [Текст]. / В. Г. Мошкова // Труды Музея истории народов Узбекистана. – Ташкент, 1951. – Вып. 1: Материалы к истории народов Узбекистана из фондов музея.
6. Семенов, А. А. Ковры Русского Туркестана. По поводу издания “Ковровые изделия Средней Азии из собрания, составленного А. А. Боголюбовым [Текст]. / А. А. Семенов // Этнограф. обзор. – 1911. – № 1/2.
7. Дудин, С. М. Киргизский орнамент [Текст]. / С. М. Дудин // Восток: журн. лит., науки и искусства. – Л., 1925. – Кн. 5.
8. Усенбаев, К. Общественно-экономические отношения киргизов в период господства Кокандского ханства [Текст]. / К. Усенбаев // Некоторые аспекты изучения кыргызского искусства. – Фрунзе, 1961.
9. Фелькерзам, А. Старинные ковры Средней Азии [Текст]. / А. Фелькерзам // Старые годы. – 1915.

**ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ВА МАРКАЗИЙ ТЯНШАН ЎЛКАЛАРИ
ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИ
ФЕРГАНСКАЯ ДОЛИНА И КРАЯ ЦЕНТРАЛЬНОГО ТЯНЬШАНА
ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ СВЯЗИ**

**THE FERGANA VALLEY AND THE EDGES OF THE CENTRAL
TYANSHAN
ETHNOCULTURAL RELATIONS**

Nurmatov Akramjon

University of Business and Science Ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, t.f.f.d. (PhD)

Tel: +998 93 400 09 06

Аннотация

Ушбу мақолада Фарғона водийси ва Марказий Тяньшань ўлкалари ўртасидаги этномаданий алоқаларни ўрганишга бағишланиб, ушбу алоқаларнинг шаклланиш жараёнлари, этнография, турмуш тарзи, урф-одатлар, тил ва диний анъаналардаги ўхшашлик ва фарқлар таҳлил қилинган. Шунингдек, қўшни халқлар ўртасидаги маданий таъсирлашув, миграция жараёнлари ва турли даврлардаги сиёсий воқеаларнинг этномаданий муносабатларга таъсири кўриб чиқилган.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению этнокультурных связей между Ферганской долиной и регионами Центрального Тянь-Шаня, анализируя процессы формирования этих связей, сходства и различия в этнографии, образе жизни, обычаях, языке и религиозных традициях. Также рассматривается влияние культурного взаимодействия между соседними народами, миграционных процессов и политических событий разных эпох на этнокультурные отношения.

Abstract

This article is dedicated to the study of ethnocultural ties between the Fergana Valley and the regions of Central Tian Shan, analyzing the processes of their formation, as well as the similarities and differences in ethnography, lifestyle, customs, language, and religious traditions. The influence of cultural interaction between neighboring peoples, migration processes, and political events of different eras on ethnocultural relations is also examined.

Калим сўзлар

Талас водийси, Марказий Тяншандаги Арпа, Отбош, Қиз-арт, Қирчин, Оламышик мавзелари, Фарғона водийсининг Сух, Исфара ва Ширинсой туманлари, Тошкент воҳаси, Чотқол водийси ва Келес

Ключевые слова

Таласская долина, массивы Арпа, Отбаш, Кыз-арт, Кирчин, Аламышик Центрального Тянь-Шаня, Сухский, Исфаринский и Ширинсайский районы Ферганской долины, Ташкентский оазис, Чаткальская долина и Келес

Keywords

Talas Valley, Arpa, Otbash, Kizart, Kirchin, Alamyshik massifs of the Central Tien Shan, Sukh, Isfara, and Shirinsai districts of the Fergana Valley, Tashkent oasis, Chatkal Valley, and Keles

Қадим ва илк ўрта асрларда Ўрта Осиё, хусусан, унинг таркибий бир қисми бўлмиш Етгисув ва Шарқий Туркистон каби тарихий-географик ўлкаларни ўз ичига олган Марказий Тяньшан, яъни Тяньшан тоғларининг марказий қисмида жойлашган ҳудудларда кечган этномаданий жараёнлар

Фарғона водийси тарихида ҳам ўз аксини топган. Гарчи бу масалада ёзма манбаларда кенг маълумот етиб келмаган бўлса-да, айрим маълумотларга суянган ҳолда бу жараёнлар бўйича муайян тарихий тасаввур ҳосил қилиш мумкин. Шу ўринда айтиб ўтиш керакки, юқоридаги параграфларда асосан Фарғона водийсининг қадимги аҳоли масканларида ўтказилган археологик қазилмалар чоғида аниқланган материаллар ва хитой манбаларидаги маълумотлар асосида водийнинг энг қадимги маҳаллий аҳолиси тўғрисида сўз юритилди. Жумладан, қадимги фарғоналикларнинг тили, маданияти минтақада кечган этномаданий жараёнлар кесимида кўриб чиқилиб, масалани фарғоналиклар ва унинг яқин қўшнилари бўлган ўтроқ халқлар мисолида ёритишга ҳаракат қилинди.

Энди эътибор берилиши лозим бўлган масала шундаки, Ўрта Осиёнинг қадимги этномаданий жараёнларида нафақат қадимги ўтроқ деҳқон элатлар, балки кўчманчи чорвадор элатларнинг ҳам ўзига хос ўрни бўлиб, улар қадимдан то илк ўрта асрлар оралиғида бирин-кетин сак – скиф, хун (сюнну) ва Турк хоқонлиги ҳукмронлиги даврида Фарғона водийсидаги сиёсий ва этномаданий жараёнларда фаол иштирок этганлар.

Милоддан олдинги I мингйилликнинг ўрталарига тегишли қадимги юнон ва форсий тилли ёзма манбаларда кўчманчи скиф – саклар ҳақида сўз борганда Ўрта Осиёнинг шимол ва шимоли-шарқида, яъни Сирдарёнинг ўрта ва юқори ҳавзалари – Еттисув – Шарқий Туркистон томонларида яшовчи кўчманчиларга нисбатан “ортокорибант” (юнон) ва “сака тиграхауда” (“чўққи қалпоқли саклар”) атамаси қўлланилади. Ушбу атама Ўрта Осиёда яшаган уч скиф қабилаларидан бирининг номи бўлиб, қолган иккитасидан бири *сака-тарадаря* “дарёнинг нариёғидаги саклар”, яна бири эса *сака-хаомаварга* ёки *амюрги* деб аталар эди. Улар ҳам Яксарт – Сирдарёнинг нариги томонида, яъни бироз юқорида айтиб ўтилган ҳудудлардан бирида яшар эдилар [1. 6].

Геродот (мил.авв.V аср) ёзиб қолдирган маълумотларга кўра, “ортокорибант” саклари “париканлар” билан қўшни бўлиб, улар иккаласи ҳам Аҳамонийларга қарашли битта сатрапликда яшар эдилар. Ушбу номдаги қабилалар тўғрисида милодий I асрда яшаган римлик тарихчи Плиний ҳам эслатиб ўтади. Ушбу маълумотларга таянган бир қатор изланувчилар “Фарғона” атамасининг келиб чиқишини скиф – сак қабилалари гуруҳига кирган “парикан”лар билан боғлаб, унинг маҳаллий кўриниши “Паргона” бўлганини илгари суришади. “Паргона” сўзи эса эроний тилларда “тоғ орасидаги водий” маъносини билдириб, Фарғона водийсининг табиий-географик ҳолатига жуда мос тушади. Фарғонада яшаган сак қабилаларидан бири қадимда бу ерда яшаб, шу ном билан атала бошланган кўринади. Бу ҳолат Сирдарё дарёси ва кўл орасида яшаган сак-скифларнинг “сувлик” скифлар (“скиф-аб”лар, “апасиак”лар ва б.) деб атала бошлаганига ўхшаб кетади. А.Н.Бернштамнинг ёзишича, кўринишидан “парикан”лар Марказий Фарғонадаги энг кўпсонли қабилалардан бири бўлган [2. 6-7]. Грек манбаларида тилга олинган сатрапликнинг маркази чамаси, Киропол шаҳри

бўлиб, у аҳомонийлар шоҳи Кир (мил.авв. VI аср) томонидан қурилган эди. Тадқиқотчилар ушбу қадимий шаҳарни Ўратепада жойлашган, деб қарайдилар [3.7].

Скифлардан кейин Ўрта Осиёдаги трансминтақавий жараёнлар Хун салтанати (мил.авв. III – мил. III асрлар) билан узвий боғлиқ ҳолда кечади. Масалага батафсилроқ тўхталишдан олдин шуни айтиб ўтиш керакки, бошқа бир қатор кўчманчи элатлар каби хунлар ҳам Фарғона водийсининг асосан тоғлиқ қисмларида, чорвачилик учун қулай бўлган тоғ этакларидаги яйловларни эгаллашга ҳаракат қилиб, водийнинг марказий қисмларидаги этномаданий ҳолатга унча катта таъсир кўрсатмайдилар. Буни ўша кезларда ҳам, кейинчалик ҳам Фарғонада ўзига хос маҳаллий тил ва антропологик қиёфа сақланиб қолгани тасдиқлайди. Юқорида бир неча бор келтириб ўтилганидек, VII–VIII асрларда Фарғона водийси аҳолисининг Ўрта Осиёдаги бошқа тилларга ўхшамайдиган ўзига хос маҳаллий сўзлашув тили мавжуд эди. Буни 630- йилларда хитой роҳиб Суюан Цзан ва 726 йилда сайёх Чой Чао томонидан ёзиб қолдирилган маълумотлар тасдиқлайди [4.194].

Бу давр минтақада Турк хоқонлиги ҳукмронлиги йилларига тўғри келиши кўзда тутилса, фарғоналикларнинг сўзлашув тили туркий ва шарқий эроний тиллардан, хусусан, суғдийчадан бутунлай фарқ қилувчи тил бўлган. Гарчи А.Хўжаевнинг бир қатор изланишларида фарғоналикларнинг тили қадимги туркий тилга, хусусан, Юечжи –Ғуз-ерликлар ва хунлар тилига яқин бўлган деган фикрлар учраса-да [5.29,31,54], бироқ бир қатор омиллардан келиб чиқилса бу қараш ўз тасдиғини топмаганлигини айтиб ўтиш зарур. Шу ўринда қадимда Фарғона аҳолисининг бир қисмини туркий тилли аҳоли, яъни хун (сюнну) ва унга яқин прототурк элатлар ташкил этгани тўғрисидаги фикрларга қўшилган ҳолда водийдаги туркий қатлам масаласига бирмунча тўхталиб ўтмоқчимиз.

Милоддан аввалги I мингйилликнинг сўнгги асрлари – милодий I йилликнинг II–III асрларигача қарийб беш юз йиллик вақт кесимида Марказий Осиёнинг шимоли-шарқий ҳудудлари – Мўғулистон, Жанубий Сибир, Олтой, Шарқий Туркистон ва Еттисувда етакчи элат сифатида бўлган хун (сюнну) ларнинг Фарғонадаги этномаданий жараёнларда қанчалик иштирок этгани масаласи етарлича ўрганилмаган. “Ханшу”, “Ши жи” каби қадимги хитой манбаларида Еттисувдаги Усун давлатидан Анси (Парфия) гача чўзилган ўлкаларнинг хунлар билан яқин алоқада экани, Юечжи давлати эса хунларга қарам бўлгани тилга олиниб, агар *“Хунлар юборган элчилар Тангриқут номидан битилган бир парча хатни кўрсатса, ҳамма давлатлар уларга озиқ-овқат бермасликка ва қийин аҳволга тушириб қўйишига журъат этолмас эди”* деб урғу берилиши [6.54]. Ўрта Осиёдаги бир қатор ўтроқ давлатлар қаторида Фарғонанинг ҳам сиёсий устунлигини тан олганидан дарак беради.

Хунларнинг Фарғона водийси ва унга яқин ҳудудлар аҳолиси билан яқин алоқада бўлгани ёки бу ҳудудларда тарқалгани археологик топилмалар орқали янада ойдинлашади. А.Н.Бернштамнинг ёзишича, Г.Гейкел

томонидан Талас водийси, Марказий Тяншандаги Арпа, Отбош, Қиз-арт, Қирчин, Оламишиқ мавзелари, Фарғона водийсининг Сух, Исфара ва Ширинсой туманлари, Тошкент воҳаси, Чотқол водийси ва Келес даштларида, шунингдек, Чўнг-Олойда топилган катакомбалар Ўрта Осиёнинг шимолий ва шарқий ҳудудларида хунлар тарқалган ҳудудлар анча кенг бўлганини кўрсатади [7.194].

Б.А.Литвинский қадимги муаллифлар томонидан қайд этилган муҳим маълумотларга эътибор қаратган ҳолда Фарғона водийсида қадимда бўлганидек, илк ўрта асрларда ҳам туркий тил кенг тарқалмаганига урғу беради [8.56]. Ундан фарқли ўлароқ Г.А.Брыкина милодий I мингйилликнинг ўрталарида Ўрта Осиёнинг ҳозирги халқлари тарихида муҳим аҳамиятга эга бўлган жараёнлар юз бериб, айнан шу даврда эроний тилли европоид аҳолининг ташқи қиёфасида мўғуллашув ва тил томондан турклашув кучаяди, деб ёзади [9.129]. С.Г.Кляшторныйга кўра, милодий I мингйилликнинг ўрталарида шарқий ҳудудлардаги туркий тилли элатлар таъсирида Ўрта Осиёнинг европоид аҳолиси этник қиёфасида ўзгаришлар юз бера бошлайди [10.174].

А.Н.Бернштамнинг фикрича эса Ўрта Осиёнинг ўтроқ деҳқон аҳолисининг турклашувида Ғарбий Турк хоқонлиги асосий ўрин эгаллайди. Хоқонлик даврида минтақанинг катта қисми туркийлар қўл остида бўлиб, улар бир қатор шаҳарларда аҳолининг сезиларли бир қисмини ташкил эта бошлайдилар [11.158-159]. Унга кўра, туркий элатлар илк тарқала бошлаган ҳудудлар Ўрта Осиёнинг Етгисув ва Тяньшан ҳудудларига тўғри келиб, ижтимоий ва иқтисодий хўжалик тарзидаги умумийлик тез орада маҳаллий ва келгинди аҳоли орасида ўзаро ассимиляция жараёнларининг кучайишига олиб келади [12.22-23]. Ўрта Осиёнинг деҳқончилик ва ҳунармандчиликка бой ҳудудлари Турк хоқонлигининг диққатини тортади ва VI асрнинг иккинчи ярмида хоқонлик минтақада ҳукмронлик қилаётган Эфталийлар давлатини тор-мор қилиб, ғарбий чегараларини Амударёгача кенгайтиради.

Турк хоқонлигининг ташкил топиши арафасида Марказий Осиё аҳолисининг бир қисмини, асосан, воҳаларда истиқомат қилувчи ўтроқ зироаткорлар ҳамда дашт ва чўлларда эса чорвачилик билан шуғулланувчи кўчманчи ва ярим кўчманчилар ташкил этган. Шунингдек, ушбу минтақанинг деярли ҳамма жойида ҳар иккала хўжалик шакли, яъни ҳам деҳқончиликнинг, ҳам чорвачиликнинг муайян даражада мавжуд бўлгани кўзга ташланади. Хусусан, минтақанинг шимоли-шарқий қисмлари – Еврооё даштларининг катта бир қисми (ҳозирги Қозоғистон), Олтой ва Тангритоғ этаклари, Мўғулистон ва Шимолий Хитойда кўпроқ кўчманчи ҳаёт тарзи устувор бўлса, минтақанинг жануби-ғарбий қисмларида, асосан, Шарқий Туркистон, Амударё–Сирдарё оралиғи, Шимолий Ҳиндистон (Покистон), Афғонистон, Хуросон каби ҳудудларида ўтроқ воҳалар мавжуд бўлиб, ушбу ҳудудлар аҳолисининг аксарияти шаҳар ва қишлоқларда истиқомат қилишиб, хўжалик ҳаётида деҳқончилик, ҳунармандчилик ва тижорат катта ўрин тутган.

Шу билан биргаликда, Марказий Осиёнинг ҳар иккала қисмида ҳам серсув дарё ҳавзалари, ҳам дашт ва чўллар бўлиб, улардан бири доимий равишда ўтроқ аҳолини ўзига жалб қилса, иккинчисидан эса қадимдан кўчманчи аҳоли ўз чорвалари билан кўчиб юрадиган масканлар эди. Хусусан, мазкур минтақанинг кўчманчи муҳит ҳукмрон қисми бўлмиш шимоли-шарқий ҳудудларда Или, Иртиш, Чу, Талас каби дарёларнинг мавжудлиги бу ерларда кўчманчилар билан биргаликда қадимдан ўтроқ аҳолининг ҳам истиқомат қилиб келишига шароит яратган. Шарқий Туркистон, Амударё–Сирдарё оралиги ва Хуросонда бирмунча йирик даштлар билан бирга чўлларнинг мавжудлиги, Ҳиндикуш тоғи этакларида эса яйловларнинг борлиги бу ерлар аҳолисининг бир қисмини кўчманчи чорвадорлар ташкил қилишига замин яратар эди.

Хулоса қилиб айтганда, бу даврда Марказий Осиёнинг шимоли-шарқий қисмларида, асосан, олтой тил оиласига мансуб халқлар: аксарияти туркий этнослар ва қисман мўғулларнинг аجدодларидан иборат бўлса, мазкур минтақанинг жанубий-ғарбий қисмидаги аҳолининг катта бир қисмини шарқий эроний тилли халқлар: суғдийлар, хоразмликлар, бақтрийлар, хўтан-саклар (?) ташкил қилар, Шарқий Туркистон аҳолисининг катта бир қисмини қадим ҳинд-европа халқларидан бири бўлмиш тохарлар кўпчиликти ташкил қилиб, яқин кўшнилари бўлмиш туркий этнослар билан узвий этно-маданий алоқада эдилар.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). –Т.: ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК УзССР.
2. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). –Т.: ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК УзССР.
3. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). –Т.: ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК УзССР.
4. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. –Фарғона. 2013.
5. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. –Фарғона. 2013.
6. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. –Фарғона. 2013.
7. Бернштам А. Н. Тюрки и Средняя Азия в описании Хой Чао. –Т.: АКАДЕМИИ НАУК УзССР. 1952.
8. Литвинский Б.А. Проблема этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы / История и культура народов Средней Азии. – Т., 1976.
9. Брыкина Г.А. Юго-Западная Фергана в первой половине I тысячелетия нашей эры. –М., 1982.
10. Кляшторный С. Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
11. Бернштам А. Н. Древнейшие тюркские элементы в этногенезе Средней Азии // СЭ, 1947, т. 6/7.
12. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). –Т.: ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК УзССР.

**CHUST TUMANI ETNOTURISTIK SALOHİYATINI OSHIRISHDA
PICHQCHILIK VA DO'PPICHILIKNING O'RNI**

**THE ROLE OF KNIFE-MAKING AND SKULLCAP EMBROIDERY IN
ENHANCING THE ETHNO-TOURISM POTENTIAL OF CHUST
DISTRICT**

**РОЛЬ НОЖЕВОГО РЕМЕСЛА И ИЗГОТОВЛЕНИЯ ТЮБЕТЕЕК В
ПОВЫШЕНИИ ЭТНОТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА
ЧУСТСКОГО РАЙОНА**

To'ychiyev Ismoil Mahmudjon o'g'li
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
ismoiltoychiyev08@gmail.com
+ 998 91 760 86 06

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Chust tumani etnoturistik salohiyatini oshirishga turtki bo'luvchi pichoqchilik va do'ppichilik hunarlari tahlil qilingan. Bu hunarmandchilik turlari orqali tumanda etnoturizmni rivojlantirish mumkinligi ham aytib o'tilgan.

Аннотация.

В статье анализируются промыслы по изготовлению ножей и тюбетеек, способствующие повышению этнотуристического потенциала Чустского района. Также было отмечено, что посредством этих видов ремесел в районе можно развивать этнотуризм.

Abstract.

This article analyzes the crafts of knife-making and skull-making, which are an incentive to increase the ethno-tourism potential of the Chust district. It is also noted that these crafts can be used to develop ethno-tourism in the district.

Kalit so'zlar.

Turizm, etnoturizm, Namangan viloyati, Chust tumani, pichoqchilik, do'ppichilik.

Keywords.

Tourism, ethnotourism, Namangan region, Chust district, knife making, skull making.

Ключевые слова.

Туризм, этнотуризм, Наманганская область, Чустский район, изготовление ножей, изготовление черепов.

Ko'rib turibmizki mamlakatimizda tobora turizm rivojlanib bormoqda va yangi turlari paydo bo'lmoqda. Mamlakatimizda etnoturizmni rivojlantirish uchun yaxshigina sharoitlar mavjud. Biz bu orqali jahon turistik oqimini o'zimizga jalb qilishimiz ham mumkin.

Hozirgi kunda turizmga konseptual ta'rif jahon turizm tashkiloti reglamentida berilgan bo'lib, unda turizm deganda: "Odamlarning doimiy yashash joylaridan va ishlaydigan joydan vaqtincha, qisqa muddatda vaqtinchalik ko'chishi, jumladan, kunduzgi safarlar va ekskursiyalarga chiqishi" tushuniladi. Texnik ta'rif esa, Holoueynning asarida berilgan: "Odamlarning sayohat paytidagi faoliyat turi yoki ularning odatdagi yashash joyidan tashqaridagi joyda dam olish,

ishbilarmonlik yoki boshqa maqsadlarda bir yildan kam bo'lgan vaqt davomida to'xtashi" [7].

Kamolov B.X Namangan viloyatining istiqbolida turizm va uning tarmoqlarini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bosh maqsad qilib olish zarurligini yozadi:

- Xorijiy kredit va investitsiyalarni jalb qilish;
- Hunarmandlar uylarini barpo etish;
- Kadrlarnig malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- Transport logistikasi yo'lga qo'yish kabi chora-tadbirlar rejalari amalga oshirilishi [1, 98].

Yurtimizda turistik infratuzilmaning imkoniyatlarini kengaytirish uchun, albatta, sayyohlik ob'ekting mavjud holatini o'rganish, uni baholash va istiqbol rejalari tuzish lozim. Namangan viloyati ham bundan mustasno emas, turizm sohasida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida xalqaro sayyohlarning qiziqishlari va talablari darajasida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish tizimini yaratish hamda yangi turistik xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha xorij investitsiyalari uchun loyihalar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bir qator ilmiy tadqiqotlar tahlili, jumladan R. Davidov, A.V. Drozdov, S.R. Erdavletov kabi olimlarning fikricha davlat miqyosida turizmni rivojlantirish uchun avvalambor muayyan bir ma'muriy yoki tabiiy birliklar doirasida ularning turistik imkoniyatlarini o'rganish, baholash va rivojlantirish lozim [1, 10]. Ayni Namangan viloyati bugungi kunda etnoturizm rivojida asosiy o'ringa ega viloyatlardan hisoblanadi. Ayniqsa mintaqaning do'ppi va pichoqlari bugungi kunda brend darajasiga erishdi. Ular etnoturizm rivojida asosiy atribut vazifasini bajaradi.

Etnoturizmni rivojlanishida va uning istiqbolida hunarmandchilik qadimiyligi bilan xarakterlanadi. Hunarmandchilik insonning dastlabki ishlab chiqarish faoliyati bilan bir vaqtda vujudga kelib, kishilik jamiyati rivojlanishida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqqan, turli ijtimoiy munosabatlar davrida texnika rivoji bilan bog'liq holda takomillasha borgan sanoat ishlab chiqarish yo'rig'idir. Biroq, turizm taraqqiyotini viloyatning boshqa tumanlari kabi Chust tumanida ham rivojlantirish va yangi zamonaviy turlarini joriy etish zaruriyati mavjud [1, 104].

Bu borada tumanda yetarli atributlarning borligi, ayniqsa etnoturizmni rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlarning mavjudligi bu yerda turizmni rivojlantirishga imkon beradi.

Tumanda saqlanib qolgan hunarmandchilikning pichoqchilik va do'pichilik turlari hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, yerlik aholining moddiy ehtiyojlarini to'ldirib kelmoqda. Bundan tashqari aholi bu hunar orqali badiiy hunarmanchilik namunalari saqlab kelmoqda.

Yana, e'tiborli jihati shundaki pichoqchilik va do'pichilik namunalari chet el sayyohlarini o'ziga jalb qilmoqda. Ular tumanga tashrif buyurib bevosita masulotlarni yasash jarayonida qatnashmoqda.

Quyida pichoq va do'ppini yasalishiga alohida to'xtalib o'tamiz;

Tarixan miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladigan Chust pichoqlarini yasashda turli usullar qoʻllanadi, xususan sopini yasashda kiyik shoxlaridan ham foydalaniladi. Bu pichoqlar murakkab oʻymakorlik naqshlari va turli xil ranglar bilan bezatilgan. Eng keng tarqalgan anʼanaviy bezak naqshlari “bahor lolalari” va “paxta gullari” hisoblanadi. Pichoqlarning kengligi koʻp hollarda 4-6 sm, uzunligi 18-25 sm orasida boʻladi. Sayyohlar yildan- yilga Oʻzbekistonning Chust pichoqlariga katta qiziqish koʻrsatishi bejiz emas, sababi, Chust pichogʻi – Namangan viloyatida vodiyning eng qadimiy shaharlaridan biri boʻlgan Chust shahrida usta hunarmandlar tomonidan tayyorlangan pichoq turi hisoblanadi.

Chust pichogʻi nafaqat chiroyli, balki gʻayrioddiy vazifalarni ham bajara oladi. Tigʻini toʻgʻri oʻtkirlasa, juda uzoq yillar xizmat qiladi [2]. Oʻrta Osiyoda mil. avv. VIII asrda Bibiona qadamjosida mahalliy aholi pichoqchilik bilan shugʻullanishgan. Mil. avv. VIII asrdan to XV asrga qadar Chustda asosiy ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik mahsuloti pichoq boʻlgan. Shu sababli butun dunyoda Chust pichogʻi mashhur boʻlgan. Chust milliy pichoqlari koʻhna va qadimiy boʻlib, qoʻl mehnati bilan tayyorlanganligi sababli dunyoning barcha mamlakatlarida xaridorgir mahsulot hisoblanadi. Oʻrta asrlarda sayqallangan pichoq harbiy zodagonlarning jasorat va zodagonlik belgisi hisoblangan. Fargʻona vodiysi eng qadimiy metallni qayta ishlash va temir qurol ishlab chiqarish markazlaridan biri boʻlgan. Qoʻqon, Andijon va vodiyning boshqa shaharlaridan metall buyumlar Xurosondan Bogʻdodgacha keng foydalanilgan. Keyinchalik qurolsozlar pichoq ishlab chiqarishga katta eʼtibor berishni boshlaganlar. Bugungi kunda Chust mahsulotlarining jozibadorligi ularning qulayligida, goʻzalligi esa soddaligida. Chust pichoqlari shu qadar mashhur va eng yuqori sifatli hisoblanadi. Bu haqida turli afsosonalar ham mavjud.

Etnoturizm rivojida tashrif buyuruvchilarga *oral history* metodiddan foydalangan holda etnos bilan bogʻliq boʻlgan afsonalarni albatta aytish lozim. Masalan, afsonalarga koʻra mahalliy hunarmandlar eng kuchli jangchilarning qonidan tomchilarni metallga qoʻshib qoʻyishgan. Ular pichoq jangchi kabi kuchli boʻlishiga ishonishgan. Darhaqiqat, qazish ishlari paytida juda koʻp pichoqlar, oʻq uchlari va qilichlar, aslida mukammal holda topilgan. Haqiqiy Chust pichogʻi doim sifatni goʻzallik bilan birlashtirishi mumkin boʻlgan, zamonaviy dizaynerlar ham tashqi koʻrinish va funktsionallikning yuqori estetik afzalliklariga etibor berishga intilishadi.

Faqatgina “tolbargi pichogʻi” oʻtkir tigʻga ega, u asosan hayvonlarni soʻyishda ishlatiladi. “Toʻgʻri pichoq” qadimdan ishlatilib kelinayotgan pichoq turi boʻlib, pichoqchilikda pichoq tigʻining uchi qayrilmay toʻgʻri chiqqan boʻladi. “Hisor pichoq”, “echki pichoq” va “bodomcha pichoq” biroz bodom shaklidagi bukilish bilan tugaydi.

Pichoqlarni Rossiyaga muntazam ravishda yetkazib berish oʻtgan asrning 70- yillarida, Chustda butun taniqli mahalliy hunarmandlar yigʻilgan Oʻzbekistondagi katta, pichoq ishlab chiqaradigan yagona zavod qurilishi bilan boshlangan. Shu bilan birga, Chust fabrikasining pichoqlari deyarli barcha yodgorlik doʻkonlarida paydo boʻldi. Shunday qilib, ommaviy shuhrat qozongan

Chust pichog‘i haqida faqat hunarmandlar va kolleksionerlar biladigan va bundan tashqari mahalliy aholi ham keng foydalanadigan hunarmandchilik mahsulotiga aylandi.

Chust shahrida pichoqchilik an‘analari hali ham davom etib kelmoqda. Farg‘ona vodiysida Chust asosiy pichoq tayyorlash joylaridan bo‘lib, u boshqa pichoqchilik maktablaridan mutlaqo farq qiladi. 1932- yilda Chustda “Qizil kuch” nomli artel ochilib, unda pichoqlar ishlab chiqarila boshlanadi. Ba‘zi og‘ir qo‘l mehnatlari stanoklarda bajarilgan. Ustalar pichoq tig‘larini yasash uchun eski arralar va podshipniklardan foydalanganlar. Pichoq dastalari esa hayvon shoxlaridan va yog‘ochlardan yasalgan. 1949- yildan boshlab artel tuman maishiy xizmat ko‘rsatish kombinati deb yuritildi. Keyinchalik, 1970- yilda Chust shahrida pichoq ishlab chiqarish zavodi qurildi. Chust pichoqlarining dovrug‘i butun mamlakatga taraldi. Chust pichoqlari sobiq Ittifoq ko‘rgazmalaridagina emas, balki Hindiston, Suriya, Polsha, Turkiya, Bolgariya, Vengriya, Belgiya, Shvetsiya va boshqa chet mamlakatlardagi ko‘rgazmalarda ham munosib o‘rinlarni egalladi. 1980- yili Nyu-Delida ochilgan III-Xalqaro Osiyo yarmarkasiga 10 xil Chust pichog‘i yuborilgan edi, bu yerda ham Chust pichoqlari boshqa hunarmandchilik mahsulotlari kabi yuqori baholangan.

Chust pichog‘i ham boshqa milliy pichoqlar kabi uchta qismdan iborat: tig‘, dasta, qin. Tig‘- pichoq tig‘i, pichoqning gulbanddan yuqorigi, ya‘ni kesadigan qismi. Qadimdan tig‘ni o‘tkirlash va silliqlashga katta e‘tibor berilgan. U bigiz, qalam, naqsh, naycha qalam kabi o‘yg‘ich qalamlar bilan bezatiladi.

Milliy hunarmandchilikning noyob turi hisoblangan pichoq va uning turlari hozirgi kunda ham xaridorligi bilan ajralib turadi. Bu hunarmandlar tayyorlayotgan pichoq turlarini nafaqat tuman, viloyat, balki respublikamizning turli hududlaridan kelgan mehmonlar ham sovg‘a va uy-ro‘zg‘or buyumlari sifatida xarid qilishmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlar ham Chust pichog‘ini O‘zbekistonning milliy ramzlaridan biri sifatida sovg‘a uchun sotib oladilar [1, 87]. Mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri bizda sharqona bozorning rivojlanganligidir. Bu ob‘ektlar ham ko‘p jihatdan milliyligimizga xos bo‘lib, boshqa hududlardan kelgan turistlarni qiziqtirishi tabiiydir, bunday joylarni turistlar tomosha qilishiga tayyorlash kerak, ularni turistlik marshrutga kiritishni ham tashkil qilish zarur. Bozorlarning turistlik ob‘ektlarga kiritilishi ikki jihatdan foydali [3, 21]. Birinchidan Chust pichoq bozori etnoturistik maskanga aylansa, ikkinchidan hunarmandlar daromad topadigan joyga aylanadi, bu esa har tomonlama qulay va foydali bo‘lishi aniq.

Endi tumanning do‘ppichiligi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu hunar yerlik ayollarning asosiy yumushlaridan biridir. Necha yillarkim tuman ayollari do‘ppichilik bilan shug‘llanib kelmoqda.

Chustda qadimdan do‘ppichilik hunari kengaytirilgan bo‘lib, hozirgi vaqtga qadar o‘z o‘rniga ega. Ushbu shaharning do‘ppilari naqshlari va balandligi bilan boshqalarnikidan farq qiladi. Ular o‘ziga xos ma‘noga ega bo‘lgan turli xil naqshlarga ega. Chust do‘ppisi to‘q yashil shoyi yoki satindan karjli qilib tayyorlanadi: tepasining har bir karjida 4 ta qalampirsimon nusxa yoki bodom

shakli, kizagining har bir karjida 4 tadan mehrob (yarim doira) shakli kashta bilan sidirg'a qoplab oq (ip yoki ipak) ipda tikiladi. Tayyor do'ppining tepasi kizagidan murabba shaklida bo'rtib chiqadi (boshqa do'ppilarning tepasi yarim doira shaklida bo'ladi). Shakli ko'p jihatdan chust do'ppisiga o'xshash bo'lgan marg'ilon do'ppisi gullarining (nisbatan ingichka va uzun qalampir shaklining) sidirg'a qoplanmasligi bilan farqlanadi [4, 53-57].

Namangan viloyat chevarlari tikkan Chust do'ppilari naqshining keskinligi, graxlit bodom shakli va keskin qayrilgan uchlari bilan farqlanadi. Chustda "To'y" do'ppilari O'zbekistonda keng tarqalgan turlaridan biridir. Kizakning naqshi ichidagi ostki naqsh bilan bog'lanmagan, tavog' musulmon mehroblaridan olingan naqsh bezagi bilan bezatilgan. Uning ma'nosi tahminan shunday: insonga osmondan ilohiy kuchlar yordam berishi, kayfiyatni o'zgartirishi mumkin [5, 82-86].

Chust do'ppisi to'rtburchak shaklga ega, lekin agar siz uni qatlasangiz, u tekis va juda qulay bo'lib qoladi, uni cho'ntagingizga solib olish ham mumkin. Naqshlar har ikki tomonining ustiga tikilgan bo'lib, qalampir nusxalisi hayot, oilaviy farovonlik ramzi hisoblanadi va yomon ko'zdan saqlaydi deb ba'zilar ishonishadi. Bosh do'ppining pastki qismida har ikki tomondan to'rttadan, o'n oltita element kamar shaklida naqshlangan bo'lib, boshning pastki qismiga qo'llaniladi, bu hayot va o'limning xususiyatini anglatadi. Afsonalarga ko'ra, bu elementlar boylikni o'ziga jalb qiladi va hayotiy energiya zahirasini beradi, ammo ularni oq vaznsiz bulutlar kabi tasavvur qilish ham mumkin. Ular qora yoki to'q yashil matoga oq ipak ipda naqshlanadi. Ushbu komponentlar o'zgarmaydi, ammo, kizak va jiyaklar ichidagi naqshlarga diqqat bilan qarasangiz, takrorlashni deyarli topolmaysiz. Har safar tikuvchilar hunarmandning moyilligiga mos keladigan va o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lgan yangi naqsh hosil qiladi.

Ko'rib turibmizki do'ppichilik tuman aholisi hayotining ajralmas qismi bo'lib qolgan. Yerlik aholining jamiyki erkaklari do'ppini faxr bilan kiyishadi. Bu orqali o'zligini, milliy qadriyatlarini namoyon qiladi.

Yoshlar o'rtasida do'ppi kiyishni targ'ib qilish maqsadida 2021- yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri O.A. Nazarbekov tashabbusi bilan madaniyat hodimlari odatiy ish kunida do'ppida yurishlari belgilandi [8]. Xalqimizda aytilganidek "bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi". Ushbu tashabbuslar etnoturizmning odimlashuviga xususan, sayyohlarda xalqimizning etnografik holatini ochib beruvchi do'ppi haqida atroflicha qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi. Bundan tashqari Chust do'ppilaridan etnoturizmni rivojlantirishda foydalanish va turli ko'ngilochar bog'larda "Do'ppi party" ("Do'ppi kechasi") larni o'tkazib, sayyohlarga ham do'ppilarimizdan ulashishimiz muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda yurtimizda boy tarixga ega an'anaviy badiiy hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 28.11.2019 yildagi PQ-4539-sonli O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori qabul qilindi. Bu

qarorda mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida bir qator vazifalar belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi, Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining respublika hududlarini hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirish va ularga hunarmandchilik mahsulotlarini chet el bozorlarida namoyish etish va sotish uchun ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini birlashtirish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi. O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari "Hunarmand" uyushmasi, Savdo-sanoat palatasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari murojaatiga asosan o'ziga birlashtirilgan hududlardan boshqa hududlarda faoliyat yurituvchi hunarmandlar mahsulotlarini chet elda namoyish etish va sotishda ham har tomonlama amaliy yordam ko'rsatishi belgilab qo'yildi [6, 246-252].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Chust tumannida bunday hunarmandchilik turlarining mavjudligi avvalo yerlik aholini, keyin esa tuman iqtisodiy yuksalishiga ma'lum manoda turtki bo'ladi. Ayniqsa tumanda etnoturizmning rivojlanishi mamlakatdagi ichki va tashqi sayohlar oqimini o'ziga jalb qiladi. Bu esa mavjud turistik atributlarni rivojlantirishga asos bo'ladi.

Yana muhim jihati shundagi hozirgi vaqtda mamlakatdagi sayyohlik oqimi milliy an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar saqlanib qolingan hududlarga yo'nalgan, bundan ko'rinadiki Chust tumaniga ham bu oqimni jalb qilishga katagina imkoniyatlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Камолов Б. Х. Наманган вилоятида экотуризмнинг ҳудудийлик, даврийлик ва комплекслик хусусиятлари. Тарих фан. док. дисс. Наманган, 2018.
2. O'zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san'ati ensiklopediyasi. 1- qism. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2016.
3. Рузиев Ш.П. Узбекистонда тарихий-маданий туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизми такомиллаштириш. – Тошкент, 2019.
4. Ikromova F.Y. Boshimda tursa o'zbekim do'ppisi // Science and innovation, 2022 № 4.
5. Sattarova A. O'zbek milliy do'ppido'zlik san'atining o'ziga xos jihatlari va yoshlar ma'naviyatida tutgan o'rni // O'zMU xabarlar 2023, № 1.
6. Olimjonova M.F. Chust hunarmandchiligi // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2023.
7. World Tourism Organization (1993) Recommendations on Tourism Statics. WTO, Madrid Holloway, J.C. (1985) The Business of Tourism. MacDonald and Evans, Plymouth.
8. <https://daryo.uz/2021/12/08/ozbekistonda-madaniyat-vazirligi-xodimlari-doppi-kiyib-ishlay-boshladi-foto-va-video>

NAMANGAN TUMANI VA MIRISHKOR QISHLOG‘I TARIXI

ИСТОРИЯ НАМАНГАНСКОГО РАЙОНА И СЕЛА МИРИШКОР

HISTORY OF NAMANGAN DISTRICT AND MIRISHKOR VILLAGE

Rustamjon Qobuljonov

UBS universiteti “Tarix” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Namangan tumani hamda Mirishkor qishlog‘i tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, toponimikasi va bugungi kundagi taraqqiyoti haqida fikr- mulohazalar keltirilgan.

Аннотация.

В статье представлены мнения об истории Наманганского района и села Миришкор, этапах его развития, топонимике и современном развитии.

Abstract.

The article presents opinions on the history of Namangan district and Mirishkor village, stages of its development, toponymy and modern development.

Kalit so‘z iboralar.

Namangan, Mirishkor, tuman, Toshbuloq, xo‘jalik, Norin, qishloq, Amiri shikor.

Ключевые слова.

Наманган, Миришкор, район, Тошбулок, хутор, Нарын, село, Амири Шикор.

Keywords.

Namangan, Mirishkor, district, Toshbulok, farmstead, Naryn, village, Amiri Shikor.

Namangan viloyati o‘zining sertarmoq xo‘jaligi, aholisi, hunarmandchiligi va tarixi bilan ajralib turadi. Ma‘lumki, Namangan viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi ma‘muriy birlik hisoblanib, 1941-yil 11-martda tashkil etilgan. U 1960-yil 25-yanvarda Andijon va Farg‘ona viloyatlari tarkibiga qo‘shib yuborilgan hamda 1967-yil 18-dekabrda yana qaytatdan tashkil etilgan.

Yangi o‘zlashtirgan yerlar hisobiga Namangan viloyati hududi XX asr 50–80-yillarida yana kengaygan. Hozirgi kunda Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 7.44 ming km tashkil etadi, aholisi soni 3 milliondan ortiq. Viloyat tarkibida 11 ta tuman mavjud (Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust va Yangiqo‘rg‘on) tumanlaridan iborat.

Ushbu maqolada viloyat tarkibidagi Namangan tumani tarixiga alohida to‘xtalamiz. Mazkur tuman 1926-yil 29-sentabrda Namangan uyezdi tarkibida tashkil etilgan va 1941-yilga kelganda Namangan viloyati tarkibiga kiritilgan [1; B. 13.].

Dastlabki paytda tumanga shaharning Degrezlik, Chuqurko‘cha, Labbaytog‘a va Isfarxon hududlarining bir qismi, shuningdek, hozirgi temiryo‘l stansiyasidan to Paxtalikko‘l, Qizilko‘prik hamda Qorapolvongacha bo‘lgan hududlar kirgan. Tuman hududining sharqiy tomoni hozirgi Uychi tumanining Qizilravot qishlog‘idan boshlanib, g‘arbiy tarafi Qurama va Shahandgacha bo‘lgan hududlar kirgan. Namangan tumani tashkil etilgan yilda hattoki Yo‘ldosh Oxunboboyev ham ishtirok etib, nutq so‘zlagan edi. Tumangan rahbarlik qilish

uchun sessiya tashkil etilib, ijro kengashi tuzilgan va sho‘rqo‘rg‘onlik batrak (dehqon) Hojimirza Bobonazarov rahbar etib saylangan.

Namangan tumani markazi ko‘p martaba o‘zgarigan, bunga sabab, hududiy bo‘linishlar va tarixiy siyosiy jarayonlarning tez-tez o‘zgarishidir. Chunonchi, 1953-yil 28-iyulda tuman markazi – G‘alcha, 1957-yilda – Qumqo‘g‘on, 1962-yilda esa To‘raqo‘rg‘on va Zadaryo (hozirgi Mingbuloq) tumanlari birlashtirilishi natijasida Jomashuyga ko‘chirilgan. 1964-yilda Zadaryo (hozirgi Mingbuloq) tumani ajralib chiqqanidan so‘ng Namangan tumani markazi To‘raqo‘rg‘onga ko‘chirilgan. Shuningdek, 1970-yil 7-dekabrda tuman markazi Olvalizor, 1975-yildan e‘tiboran Toshbuloq qishlog‘iga ko‘chirilgan.

Hozirgi kunda tuman hududi sharqdan Uychi, Baliqchi, shimoldan Yangiqo‘rg‘on, g‘arbdan To‘raqo‘rg‘on, janubdan Mingbuloq tumanlari bilan chegaradoshdir. Shimoldan shimoliy Farg‘ona kanali, janubdan esa Sirdaryo oqib o‘tadi.

Hozirda tumanning umumiy maydoni 249 kv.kmni tashkil etadi, chegarasining umumiy uzunligi esa 98,1 kmga teng. Aholi soni 2024-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, 192,7 ming kishini tashkil etadi [5]. Tumanda 1 ta shaharcha (Toshbuloq), 69 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Tuman markazi Toshbuloq shaharchasi.

Tuman aholisining 48,7 foizini erkaklar, 51,3 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Tumanda 15 yaqin turdagi millat vakillari istiqomat qiladi. Ularning 98,6 foizini o‘zbeklar, qolganlarini esa tojik, qizg‘iz, rus, tatar va boshqa millatlar tashkil etadi. Tuman aholisining o‘rtacha zichligi 1 kv.kmda 849 kishiga teng.

Namangan tumanining geografik holatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, yer yuzasi tekislik, adir va do‘ngliklardan iborat ekanligi va asosan o‘zlashtirilgan dasht hududlari kiradi. Iqlimi esa asosan, quruq subtropik bo‘lib, yozda issiq, yog‘in kam (300–350 mm), qishda esa kun qisqa va sovuq bo‘ladi. Vegetatsiya davri 236 kunni tashkil etadi. Yanvarning o‘rtacha holati - 1 C, iyulniki esa + 27 C ga teng.

Aholi asosan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va tadbirkorlik bilan shug‘ullanadi. Ushbu hudud dehqonchilik bilan shug‘ullanish yetarli darajada suv bilan ta‘minlangan. Tuman hududidan G‘irvonsoy, Namangansoy va Kosonsoy soylari, Shimoliy Farg‘ona, Katta Namangan hamda Yangiariq kanallari, sharqiy tomondan Norin daryosi, janubdan esa Sirdaryo oqib o‘tadi.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i paxtachilik bo‘lib, jami ekin maydonlarining 50 foiziga g‘o‘za ekiladi. Yetishtirilgan paxta xomashyosi Namangan 3-sonli paxta tozalash va “Mirishkor” MCHJ qo‘shma korxonalarida qayta ishlanadi. Tumanda 13 ta xo‘jalikda paxta yetishtiriladi, 315 ta fermer xo‘jaligi 3730 gektar maydonda faoliyat olib boradi. Bundan tashqari, aholi bog‘dorchilik, g‘allachilik, sabzavotchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

Tumanda 5 ta xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular – “Mirishkor”, “Mirt textile”, “Toshbuloq teks” O‘zbekiston va Rossiya hamkorligidagi “Golden silk”, V‘yetnam hamda

“MerryMed farm” ma’suliyati cheklangan jamiyatiga qarashli qo’shma korxonalaridir.

Qadimdan tumanda madaniy hayot ham ancha rivojlangan va ushbu jarayon mustaqillik yillarida yanada taraqqiy etib bordi. Jumladan, tumanda hozirgi kunda Bolalar musiqa maktabi, Barkamol avlod spot to‘garaklari, markaziy kutubxona hamda uning 35 ta filiali va 12 ta madaniyat uylari mavjud. Shuningdek, 3 ta qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot texnikumlari mavjud bo‘lib, ularda 1700 nafar, 38 ta umumiy o‘rta, 1 ta ixtisoslashtirilgan va 1 ta xususiy maktabda o‘quvchilar ta’lim olib kelmoqda.

Namangan tumani qishloqlari boshqa hududlari kabi o‘zining qadimiy tarixiga ega bo‘lib, ushbu aholi manzillari orasida Mirishkor qishlog‘i ham alohida o‘ringa ega. Ma’lumki, “Mirishkor” nomi faqatgina Namangan tumanida emas, balki boshqa hududlarda ham uchraydi. Xususan, Buxoro viloyatining Qorako‘l va Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanlarida ham shunday nomdagi qishloqlar, Qashqadaryo viloyatida esa shunday nomdagi alohida tuman ham mavjud.

“Mirishkor” atamasi to‘g‘risida turli fikrlar aholi orasida saqlanib qolgan. Ba’zilar o‘z ishini puxta bilgan, mehnatkash dehqonlarga nisbat shunday istilohni qo‘llaydilar. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, xonlar va amirlarning saroyida ularga xizmat qiladigan lavozimdagi insonlar mavjud bo‘lgan. Ana shunday mansablardan biri Amiri shikor bo‘lib, uning asosiy vazifasi hukmdorlarning ovga chiqishlarini tashkil etish, kerakli anjomlar bilan ta’minlash, ov vaqtiga qarab, unga yetarli oziq-ovqat, hayvonlar uchun esa yem-xashak jamg‘arishdan iborat bo‘lgan.

O‘z navbatida, ushbu atama turli tillardan olingan bo‘lib, arabchada “boshliq, rahbar va farmon beruvchi”, “Shikor” so‘zi esa forschada “ov” degan ma’noni bildiradi [7. B. 26.]. Ushbu lavozim egasining qo‘l ostida o‘nlab kishilar bo‘lib, ular hukmdor ov qilishidan oldin maxsus joylarni nazorat ostiga olgan, chetdan hech kimni kiritmagan. Shuning uchun bunday joylarni doimiy ravishda nazorat qilish uchun Amiri shikor o‘z odamlarini bunday yerlarga joylashtirgan, ular esa o‘z oilalari bilan bu joylarga ko‘chib kelgan. Ular yashaydigan joylar Amiri shikor joyi deb deb atalgan [3]. Keyinchalik ushbu so‘z o‘zgartirilib, qisqacha Amirning o‘rniga “mir” tariqasida talaffuz etilgan va “Mirishkor”ga aylangan.

Qolaversa, XVIII–XIX asrlarda hozirgi Farg‘ona vodiysi hududida Qo‘qon xonligi (1709–1876) hukmronlik qilgan. Aynan manbalarda Qo‘qon xonlari, To‘raqo‘rg‘on to‘ra (hokim) va Axsikent podshohlari bu yerga kelib, ov qilganliklari haqida ma’lumotlar uchraydi, Shu tariqa, qishloq Mirishkor deb ataladigan bo‘lgan [2].

Ushbu atamaning ba’zi manbalarda dehqonlarga nisbatan qo‘llanilishining asosiy sababi, Amiri shikor ovga zo‘r tayyorgarlik ko‘rgan. Bundan hukmdorning ko‘ngli to‘lib, uni hammaning oldida uni maqtagan hamda taqdirlagan. Amiri shikor bilan borgan o‘nlab xizmatchilar u yerlarda dehqonchilik bilan shug‘ullangan, shu ma’noda ham oldin ekin o‘smagan yerlarda hosil olgani uchun bunday kishilarga nisbatan “Mirishkor” atamasi ishlatilgan.

Rossiya bosqinidan so‘ng Qo‘qon xonligi tugatilgan va endi bunday hududlarga hukmdorlarning kelishi ham to‘xtab qolgan. Natijada, bunday yerlarda yashayotgan amirishikorlar va ularning xizmatkorlari ham ba’zilari ushbu hududni tark etgan. Manbalarda bayon etilishicha, 1930-yil 17-fevralda sobiq Sovet hukumati tomonidan “Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaligini tugatish to‘g‘risida” qaror qabul qilingan. Mazkur jarayonlardan so‘ng ko‘plab quloq qilingan aholi o‘z hududini tark etishga majbur bo‘lgan. Aynan shu paytdan boshlab Mirishkor hududiga aholi turli hududlar, xususan, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Chortoq va Namangan shahridan ko‘chib kela boshlagan hamda yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayoni boshlangan [4]. Xususan, ma’lumotlarni to‘plash davomida o‘zimizning bobom – Qobiljon ota Nishanovning aytishicha, ularning bobolari Nishonboy hoji Mo‘minov bo‘lganligi, hozirgi Namangan shahrida karvonsaroylarga egalik qilganligi, 1930–1940-yillarda quloq qilinib, ushbu hududga ko‘chib kelganliklari to‘g‘risida ma’lumot berildi. Mazkur suhbat jarayonida shunday ma’lumotga ega bo‘lindiki, qishloqdan Shimoliy Farg‘ona kanalining o‘tganligi aholining tez fursatda yerlarni o‘zlashtirishiga yordam berganligi to‘g‘risida fikr bildirildi.

Hozirgi kunda Mirishkor qishlog‘ida 6 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi [6]. Aholi asosan, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadi. Qishloqda Mulla Sayfiddin Jome masjidi, “Musaffo iqlim” MCHJ, paxtani qayta ishlash zavodi, 25-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 25-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi, ko‘plab xususiy bog‘chalar, kardiologiya shifoxonasi, ko‘plab savdo do‘konlari mavjud. Qishloq yoshlari oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlari va oliy ma’lumotlilarni soni bo‘yicha tumanda oldingi o‘rinlarda turadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, har bir hududning tarixi mavjud hisoblanadi, faqat shu tarixni oshkora, haqqoniy aniqlash va insonlarga tushuntirish tarixchilarning vazifasi hisoblanadi. Chunki, aynan tarixni o‘rganish orqali undan xulosa chiqara olish metodikasi shakllanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Jabbor. Namangan viloyati tarixi. – Namangan, 2011.
2. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Namangan tumani Mirishkor qishlog‘i. 2025-yil.
3. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Namangan tumani Mirishkor qishlog‘i. 2025-yil.
4. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Namangan tumani Mirishkor qishlog‘i. 2025-yil.
5. Namangan viloyati hokimligi rasmiy sayti // namangan.uz. 2023-yil 9-iyun.
6. Namangan viloyati hokimligi rasmiy sayti // namangan.uz. 2023-yil 9-iyun.
7. Хайдаров М. Наманган вилояти. Қисқача тарихий-географик маълумотнома. – Тошкент, 2000.

FARG'ONA VODIYSIDA BIRINCHI JAHON URUSHI HARBIY ASIRLARI

WORLD WAR 1 PRISONERS OF WAR IN FERGANA VALLEY

ВОЕННОПЛЕННЫЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Jaxongir Ixomovich Tojiboyev

Namangan davlat universiteti doktoranti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

e-mail: j.i.tojiboev@gmail.com

Tel.: +99894 500 01 09

Annotatsiya

Mazkur maqolada Birinchi jahon urushi yillarida Farg'onada vodiysi shaharlaridagi harbiy lagerlariga avstro-venger va nemis zobitlari va askarlarining olib kelinishi bayon etilgan, Shuningdek, tadqiqotda harbiy asirlarning Farg'ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotidagi ishtiroki masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Abstract

The article describes the placement of Austro-Hungarian and German officers and soldiers in POW camps in the cities of Fergana Valley during World War I. The study also provides a detailed analysis of the participation of prisoners of war in the socio-economic, political, cultural and educational life of Fergana Valley.

Аннотация

В статье описывается размещение австро-венгерских и немецких офицеров и солдат в военных лагерях в городах Ферганской долины в годы Первой мировой войны. В исследовании также дается подробный анализ участия военнопленных в социально-экономической, политической, культурной и образовательной жизни Ферганской долины.

Kalit so'zlar

Harbiy asir, harbiy lager, filtratsion harbiy lager, aralash harbiy lager, avstro-venger harbiy asirlari, nemis harbiy asirlari, qarshilik harakati, diviziya, reevakuatsiya.

Keywords

Prisoner of war, POW camp, filtration POW camp, mixed POW camp, Austro-Hungarian prisoners of war, German prisoners of war, resistance movement, division, re-evacuation.

Ключевые слова

Военнопленный, лагерь для военнопленных, фильтрационный лагерь для военнопленных, смешанный лагерь для военнопленных, австро-венгерские военнопленные, немецкие военнопленные, движение Сопротивления, разделение, реэвакуация.

Jahon hamjamiyati tarixida XX asrning birinchi yarmi o'ziga xos tarixiy davr sifatida keskin o'zgarishlarni boshlab bergan edi, xususan, mazkur davr o'zining mazmun-mohiyati hamda voqea-hodisalarning shiddati bilan alohida ajralib turadi. Buning boisi ushbu yarim asr mobaynida bo'lib o'tgan jahon urushlari butun dunyoni larzaga soldi hamda dunyo xalqlari hayotida keskin burilishlarni yuzaga keltirdi. Bu yirik harbiy-siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismlari bo'lgan har qanday voqealik, jumladan, harbiy asirlar masalasi insoniyat tarixining dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Rossiya imperiyasi tomonidan asirlikka olingan harbiylar Turkistonning turli hududlariga ham yuborildi.

Turkiston o'lkasida harbiy asirlar eng ko'p olib kelingan hududlardan biri Farg'ona vodiysi edi. Birinchi jahon urushi davrida vodiy hududi harbiy asirlikka tushganlar joylashtirilgan Turkiston o'lkasining harbiy-strategik nuqtalaridan biriga aylanib qoldi. Farg'ona vodiysiga harbiy asirlarning jo'natilishi 1914-yilning sentyabr-oktyabr oylariga to'g'ri keladi. Ular vodiyning barcha uyezdlaridagi harbiy lagerlarga joylashtirilgan. Ularning umumiy miqdori 40 mingdan oshgan. Ayniqsa, Qo'qon shahri vodiyning boshqa shaharlaridan lagerlaridagi harbiy asirlar salmog'i jihatidan yetakchi o'rinni egallagan. Qo'qon harbiy lagerlarida 2500 nafardan ortiq avstro-venger va nemis harbiy asirlari bor edi [9]. Birinchi jahon urushi davrida Qo'qon shahridagi lager filtratsion turdagisi bo'lib, Farg'ona vodiysining boshqa hududlarida joylashgan harbiy lagerlarga harbiy asirlarni tarqatish punkti vazifasini bajargan. Bu yerdan vodiyning Andijon, Skobelev (Farg'ona), O'sh, Namangan, Jalolobod va Xo'jand shaharlariga harbiy asirlar jo'natilgan [9]. Lagerlardan panoh topgan harbiy asirlar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlangan. Harbiy lagerlardagi asirlar oldingi kasb-korlaridan kelib chiqqan holda turli xil ishlarga jalb qilinganlar.

Asirlikka tushgan harbiylarning mehnatidan sanoat va qishloq xo'jaligining turli sohalarida foydalanildi. Jumladan, 1914-yilning noyabr-dekabr oylarida Farg'ona vodiysining barcha ko'mir va neft shaxtalarida harbiy asirlar ishlatildi. Asirlar orasida yuqori malakali konchilar, konlarni portlatuvchi ishchilar, uy quruvchilar, yo'l quruvchilari, muhandis va boshqa sohalarning mutaxassislari bor edi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining tez sur'atlarda rivojlanishiga yordam berdi. Konchi harbiy asirlarning kelishi bilan ko'mir korxonolari yangi texnika va uskunalar bilan jihozlandi, maxsus mexanik ustaxonalar yaratildi. Hozirgi Farg'ona viloyati o'lkashunoslik muzeyi uchun 1919-yilda qishloq xo'jalik mashinalari sobiq ombori hovlisidagi bino muzey uchun ajratilgach, muzeyda faoliyat yurituvchi ishchilar va ilmiy xodim Farg'ona shahridagi harbiy lagerdagi asirlardan ixtisosligiga ko'ra tanlab olingan. Ular Farg'onada muzeyshunoslik rivoji uchun ulkan hissa qo'shganlar [7].

Filtratsion harbiy lagerlarga olib kelingan asirga tsuhgan harbiylarni milliy va fuqarolik asosida joylashtirish tamoyili urushning boshida yaratilgan va katta milliy ahamiyatga ega bo'lgan. 1914-1915-yillarda Turkistondagi lagerlar "aralash" ko'rinishda edi, ya'ni ularda turli millat vakillari bor edi. Tadqiqotchilarning asoslashicha, 1916-yildan boshlab milliy lagerlarda bo'linish amaliyoti yuz bera boshlagan[11]. Shunday qilib, Toshkent harbiy lagerlarida asosan slavyanlar (xorvatlar, slovenlar, chexlar va boshqalar) istiqomat qilgan bo'lsalar, nemislar, avstriyaliklar va vengerlar esa Skobelev (Farg'ona)ga joylashtirildilar [11]. Farg'ona viloyatining G'ulcha va O'sh harbiy lagerlarida kam bo'lsa-da nemis millatiga mansub, harbiy asirlarga aylangan zobitlar va askarlar mavjud bo'lgan.

Turli xil siyosiy voqealar tufayli harbiy asirlar bir hududdan boshqa hududga ko'chirib keltirilgan holatlar ham bo'lgan. Xususan, Turkistonda 1916-yil o'rtalaridagi mahalliy aholining "mardikorlikka qarshi qo'zg'oloni" natijasida oziq-ovqat ta'minoti va yashash sharoitlari nisbatan salbiy tomonga o'zgargan.

Qo'zg'olon ayniqsa Jizzax uyezdida keskin tus olgan. Shu tufayli harbiy asirlar xavfli hududdan olib ketilib, Farg'ona viloyatining markazi Skobelev (Farg'ona) shahriga joylashtirilgan. 1916-yilning 21-avgustida mahbuslar Skobelev shahri qal'asidagi polyak qochoqlari yashaydigan pavil'onlar va baraklarga taqsimlangan. Bu yerdagilarning ko'pchiligi tif kasalligiga chalinganligi bois barakdagi predmetlar dizinfeksiya qilingan edi. Evakuatsiya qilingan harbiy asirlardan biri Villfortning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu lagerda suv ta'minoti Jizzaxdagidanga yomonroq edi: "Xususan, "Jizzax guruhi" 1-pavilionda bir xonada 16 kishi yashardik. Har birimiz uchun alohida tumbalar bor edi. Xonada bir dona katta stol bo'lardi. U asosan qarta o'ynash uchun xizmat qilardi. Apollinarev familiyali lager komendanti ko'rinishidan ichkilikka ruju' qo'ygan insondek ko'rinsa-da, spirtli ichimliklarni unchalik xush ko'rmasdi. Lekin qimor o'yinlarini qo'llab quvvatlagan. Lager tartibi ancha erkin edi [8]". Villfortning ta'kidlashicha, Skobelev unga juda yoqqan: "Skobelev ulkan tog' tizmalari orasidagi shinamgina hudud edi. U yerda 2 ta katta mehmonxona, provaslav sobori, kafe va choyxona mavjud edi. Hattoki, bu yerdagi rus bug' xonali hammomi Namangandagidan ko'ra yaxshiroq edi [8]".

Farg'onadagi harbiy lagerlarda harbiy asirlarning diniy e'tiqodi va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lingan. Harbiy asir F.Villfortning ta'kidlashicha, Farg'onadagi harbiy asirlar qabristonida 1916-yilning 2-noyabrida vafot etganlar sharafiga panixida o'tkazilgan. Unda 800 dan ortiq odamlar (300 ga yaqini harbiy asirlar) qatnashgan. Diviziya pastori Frantning hamdardlik nutqida begona yurtdagida ushbu qabristonda 2000 dan ortiq askar va zobit asirlarning qabrlari borligi aytib o'tilganligi F.Villfortning kundaligidan o'rin olgan [5, 101]. U yerda vafot etganlar uchun yodgorlik ramzi ham bo'lib, unda lotin tilida yozilgan "Non omnes moriuntur, qui patriae omnia dedere" so'zlari bitilgan edi. Bu yodgorikdagi yozuvlar "O'z vatani uchun borini berganlar hech qachon o'lmaydi", degan ma'noni anglatgan.

Harbiy asirlar boshqa hududlarga xizmat bilan jo'natilganda ularga konvoir hamrohlik qilgan. Vilfort Andijonga konvoir bilan birga borganligini quyidagicha tasvirlagan: "1917-yilning aprelida menda xo'jalik ishlari bo'yicha Farg'ona vodiysidagi qo'shni Andijon shahriga tashrif buyurish imkoniyati tug'ildi. Andijonga xizmat safariga jo'natilganlar konvoir bilan birgalikda shaharda mehmonxona vazifasini bajargan, yaxshi jihozlangan karvonsaroyda yashadik. Umrimda birinchi bor Andijon bozorida ipak mato sotib yurgan Xitoy savdogarlarini uchratdim [8].

Harbiy asirlar ruslar tomonidan "bosmachilik" harakati sifatida talqin etilgan, aslida esa qarshilik harakati hisoblangan jarayonga qarshi kurashda ham faol ishtirok etganlar. Ular qarshilik harakati qo'rboshilaridan hisoblangan Katta Ergash, Omon Polvon va Madaminbekka qarshi Farg'ona vodiysidagi kurashda qatnashganlar [10]. Ushbu toifadagi shaxslarning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri 1918-1924-yillarda Farg'ona viloyatida militsiya boshlig'i bo'lib ishlagan Yuray Smeyrek edi[6].

Harbiy asirlarning iqtidori va san'ati qadrlangan. Hattoki, asl kasbi musiqachi bo'lgan harbiy asirlarni jazodan qutqarib qolish holatlari ham kuzatilgan. 1916-yilning kuzida Skobelev orqali Xitoy chegarasigadagi G'ulja hududiga qonunbuzar harbiy asirlar olib kelindi. Ular orasida mohir skripkachi Rimer ismli harbiy ham bor edi. Uning improvizatsiyaga boy chiqishlaridan so'ng rus harbiylarining turmush o'rtoqlari ulardan musiqachining "ayblarini" kechirib, uni Skobelev lagerida qolishiga ruxsat berishlarini so'raydilar. Rimer Skobelevda harbiy asirlarning musiqiy guruhiga rahbarlik qildi. Mahbuslar oldida tez-tez muvaffaqiyatli musiqiy namoyishlarni o'tkazib turdi. Bundan tashqari Farg'ona viloyati lagerida vengerlarning milliy xor guruhi ham faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, vengerlarning kabare teatr truppasi mavjud edi. Bu musiqiy guruh tomonidan "Yoqimtoy Mishel" nomli operetta sahnalashtirilgan [5, 101].

Farg'ona vodiysi, deyarli harbiy asirlarning ikkinchi vataniga aylanib bo'lgandi. Masalan, 1922-yil aprel oyida harbiy asir F.Raday reevakuatsiya qilinmasligini so'rab murojaatida: "Men, vengriyalik sobiq harbiy asir, Fyuzef Raday Farg'ona viloyati evakuatsiya boshqarmasi boshlig'iga shuni ma'lum qilamanki, hozirda o'z xohishimga binoan vatanimga qaytishni istamayman", – degan[1]. Shuningdek, 1922-yil 28-mart kuni vengriyalik harbiy asir Chapo Petrovich Farg'ona evakuatsiya boshqarmasining Qo'qon bo'limiga quyidagi mazmunda ariza xatini yozgan: "Meni chet el fuqarosi sifatida reevakuatsiya bo'yicha ro'yxatga kiritmasligingizni so'rayman. Qo'qonda qolmoqchiman. Bu yerda oila quraman, chunki Vengriyada meni hech kimim yo'q"[2]. Nemis harbiy asiri Vilfort buni quyidagicha xotirlaydi: "Faqatgina 1922-yilning fevraliga kelibgina Petrograd va Germaniya orqali o'z yurtimga qaytishga musharraf bo'ldim. Asirlikda o'tgan yillarim davrida otam vafot etgandi. Urushga ketishimdan oldin juda yosh bo'lgan o'g'lim urushdan qaytganimdan so'ng meni eslolmasdi. Ona shahrim Vena imperiya poytaxtidan respublika poytaxtiga aylangandi"[6].

Ba'zi bir harbiy asirlar Turkiston o'lkasida oila qurib bo'lganliklari va farzandlari ham borliklari kabi asoslarni keltirib, bu diyorda qolishni istaganlar. Xususan, 1922-yil 1-aprelda Farg'ona viloyati evakuatsiya boshqarmasi Qo'qon bo'limi boshlig'iga yozilgan ariza xatida quyidagilar keltiriladi: "324-sonli aholini evakuatsiya qilish bo'yicha Markaziy Boshqarma buyrug'iga bo'ysungan holda shuni ma'lum qilmoqchimanki, ayni vaqda o'z vatanimga ketishga imkonim yo'q. Bunga sabab turmush o'rtog'im betob, shuningdek, atigi 7 oylik chaqalog'imiz jismoniy jihatdan zaif. Men o'zim ularni tashlab keta olmayman. Agar iloji bo'lsa, reevakuatsiya muddatini cho'zib berishingizni so'rayman. Xotinim sog'ayganidan so'ng farzandimizni olib ketish imkoniyati bo'lsa, o'z yurtimga ketishim mumkin bo'ladi"[3]. Shuningdek, Farg'ona viloyati Evakuatsiya bo'limi tomonidan Qo'qon harbiy lageridagi avstriyalik harbiy asir Solomon Zalserga turmush o'rtog'i Antonina hamda qizlari 18 yoshli Patalka va 13 yoshli Tatyana bilan Qo'qonda qolishga ruxsat berilgan[4].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Birinchi jahon urushi boshlangandan so'ng Rossiya hukumati uchun kutilmagan darajadagi harbiy asirlar

miqdorining oshib ketishi ularni joylashtirishda muammolarni yuzaga keltirdi. Albatta, bunday muammoni hal qilishda imperiyaning qaram o'lkalari yechim vazifasini o'tab berdi. Xususan, Turkistondagi aksariyat katta shaharlarda harbiy lagerlar tashkil qilindi. Avstro-venger, nemis, turk, chex, polyak, slovak xalqlariga mansub harbiylar hayotining 5-10 yilini Turkistonda asirlikda o'tkazishga mahkum etildilar. Harbiy asirlar katta ishchi kuchi edi. Ularning mehnat faoliyatlari tufayli temiryo'l liniyalari qurildi, konlarda qazuv ishlari orib borildi, zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish ishlari ham bir maromda davom etib turdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Фарғона вилояти давлат архиви, 435-фонд, 1-рўйхат, 159-йиғма жилд, 8-варақ орқаси.
2. Фарғона вилояти давлат архиви, 435-фонд, 1-рўйхат, 159-йиғма жилд, 10-варақ.
3. Фарғона вилоят давлат архиви, 435-фонд, 1-рўйхат, 159-йиғма жилд, 17-варақ.
4. Фарғона вилоят давлат архиви, 435-фонд, 1-рўйхат, 94-йиғма жилд, 36-варақ
5. Голендер Б.А. Немецкий след в Узбекистане XV-XX веков. – Ташкент: Издательство “Navro‘z”, 2019. – С.101.
6. Горак С. Из истории чешско-узбекских отношений // O‘zbekiston tarixi. – №3. – 2014. – В.54.
7. Гулиянц. Л.И. Фарғона вилояти ўлкашунослик музейи тарихидан / Фарғона ўлкашунослиги. – Фарғона, 1996. – Б.9-21.
8. Fritz Willfort. Turkestanisches Tagebuch: Sechs Jahre in Russisch Zentral Asien. – Vienna and Leipzig: Wilhelm Braumüller, 1930. – S.69-81.
9. Коканд и военнопленные первой мировой войны // <https://fkr.uz/blog/fdu/kokand-i-voennoplennye-pervoi-mirovoi-voiny.html>. 05.12.2023
10. Хамидхожаев А., Аренберг Р. Пролетарские интернационалисты в Туркестане // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1962. – №10. – Б.70.
11. Шлейхер И.И. Пленные стран Четверного союза в Сибири: Некоторые вопросы транспортировки и содержания в лагерях / Военно-исторические исследования в Поволжье: Сб. науч. трудов. Саратов: Научная книга, 2005. – Вып. 6. – С.134-135.

FARG‘ONA VODIYSI DIZAYN TARIXI AN‘ANALARI

ТРАДИЦИИ ИСТОРИИ ДИЗАЙНА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

TRADITIONS OF THE HISTORY OF DESIGN OF THE FERGANA VALLEY

Ruzinov Baxtiyor Asqarovich

Namangan davlat universiteti, “San‘atshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: abruz@mail.ru

Tel: +998996391967

Asqarov Behzodbek Baxtiyor o‘g‘li

University of Business and Science O‘quv bo‘lim mutaxassisi

Tel: +998930567001.

Annotatsiya.

O'zbekistonning gavhari deb atalmish Farg'ona vodiysi hududi o'zining qadimiy shaharlari, bepoyon dalalari, me'moriy obidalari, go'zal bog'lardagi shirin - shakar mevalari, Chust pichoq va do'ppilari, Marg'ilon do'ppilari, Shahrixon pichoqlari, ipakli matolari atlas, adrasi, shoyi, beqasamlari kabi hunarmandchilik mahsulotlari bilan mashhurdir. Qadimgi arxeologik yodgorliklardan topilgan turli hunarmandchilik namunalari an'alarini davom ettirayotgan kulolchilik maktablari, me'moriy bezaklar uchun koshinlar, mozaika va boshqa kulolchilik mahsulotlarini yaratilmoqda. Ushbu yaratilayotgan uy-ro'zg'or anjomlari qadimiy ashyolarni dizaynini o'sha qadimgi davridayoq o'ta kuchli insoniyat o'zi uchun qulay sharoitlar yaratishiga bog'liqdir.

Kalit so'zlar.

Uy-ro'zg'or buyumlari, yog'och buyumlar, kulol, me'moriy bezak, naqsh, ganchkorlik, yog'och o'yamakligi, pargori, timpan, unsur, koshin, kitoba, terrakota, amaliy bezak, dastgox, angob, sir, xal, simobdon, usta-shogird, simmetriya.

Аннотация.

Ферганская долина, известная как жемчужина Узбекистана, славится своими древними городами, обширными полями, архитектурными памятниками, сладкими фруктами в прекрасных садах, чувскими ножами и тюбетейками, маргиланскими тюбетейками, шахриханскими ножами, шелковыми тканями, такими как атлас, адраси, шойи и бекасам. Гончарные школы, продолжая традиции различных ремесел, найденных в древних археологических памятниках, создают плитку, мозаику и другие керамические изделия для архитектурного декора. Дизайн этих предметов домашнего обихода основан на древней конструкции предметов, которые в древние времена обладали огромной силой и создавали комфортные условия для человека.

Ключевые слова.

Предметы домашнего обихода, изделия из дерева, керамика, архитектурный декор, узор, ганчкарлик, резьба по дереву, пargори, тимпан, элемент, плитка, книжный шкаф, terrakota, практичный декор, дастгох, ангob, секрет, хал, ртуть, мастер-ученик, симметрия.

Annotation.

Fergana Valley, known as the pearl of Uzbekistan, is famous for its ancient cities, vast fields, architectural monuments, sweet fruits in beautiful gardens, Chust knives and skullcaps, Margilan skullcaps, Shakhrikhan knives, silk fabrics such as satin, adrasi, shoyi and bekasam. Pottery schools, continuing the traditions of various crafts found in ancient archaeological sites, create tiles, mosaics and other ceramic products for architectural decoration. The design of these household items is based on the ancient design of objects that in ancient times possessed great strength and created comfortable conditions for humans.

Keywords.

Household items, wood products, ceramics, architectural decor, pattern, ganchkarlik, wood carving, pargori, tympanum, element, tile, bookcase, terracotta, practical decor, dastgokh, engobe, secret, khal, mercury, master-apprentice, symmetry.

O'zbekistonning eng qadimgi va yaxshi o'rganilgani bu Sopollitepa yodgorligidir. Ikkinchi eng yirik arxeologik ob'ekt bu Jarqo'ton shaharchasi bo'lib, u yerda ko'p yillik qazilma ishlarini olib borgan A. Asqarov, T. Shirinov va ularning shogirdlari ulkan jahonshumul kashfiyot qilishga muvaffaq bo'lishgan[1].

1950- yilda arxeolog M. E. Vorones, 1951–61- yillarda arxeolog V.I. Sprishevskiy, 1974–82 yillarda Yu.A. Zadneprovskiy hamda 1982-84 yillarda Akademik Ahmadali Asqarov boshchiligida o'zbekistonlik va petrogradlik olimlar tomonidan tomonidan o'rganildi. Albatta, buning uchun quyidagi adabiyotlarni ilmiy asosda o'rganilganligini eslatib o'tish joizdir. S. Aliyeva “Художественная

поливная керамика”, G. V. Shishkina “Глазурованная керамика Согда”, N. S. Grajdankina, M. K. Raximov, I. E. Pletnev “Архитектурная керамика Узбекистана”, S. P. Tolstov “Xorazm sirlangan kulolchiligi”, D. A. Nozilov “Markaziy Osiyo me’morchiligida in’teryer”, A. Pugachenkova, L. I. Rempel “Очерки Средней Азии: древность и средневековье”, A. A. Hakimov “Изобразительно орнаментальные образы мотивы прикладного искусства”, Sh. S. Toshxodjaev “Художественная поливная керамика Самарканда”, M. Jo‘raqulov M. Isomiddinov “O‘rta Osiyo kulolchiligi tarixidan”, M. Issomiddinov “Sopolga bitilgan tarix”, L. F. Akunova, V. A. Krapivinlar tomonidan ma’lum darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O‘rta Osiyo xalqlarining eng yaxshi fazilatlaridan biri mehmondo‘stlikdir. O‘tmish manbalarini varaqlaganimizda shoir, donishmand, olim va mutafakkirlarning mehmondo‘stlik to‘g‘risida aytgan hikmatli so‘zlari, maqol, rivoyat, masal va hikoyalari juda ko‘p uchramiz. Bular hozirgi kunda kunda ham xalq orasida keng ishlatilmoqda. Manbalar mehmondo‘stlikning qadim zamonlarda ham naqadar yuksak, olijanob an’ana bo‘lganligini ko‘rsatadi. Basharti shunday ekan, mehmondo‘stlikning xalq me’morchiligiga ham ta’siri bo‘lganmikin, degan fikr tug‘iladi, albatta. Mehmondo‘stlik xalq me’morchiligida alohida o‘rin olgan, degan xulosaga kelishimizga olimlarimizning qadimiy arxitektura obidalarini o‘rganish borasida olib borgan ko‘p yillik tadqiqotlari davomida aniqlangan saroy, karvonsaroy, mehmonxona va boshqalar asos bo‘ladi. O‘tmishda ham xalqimiz mehmondo‘stlikka zo‘r e’tibor bergan. O‘rta Osiyo tarixini o‘rganuvchi olimlarning yozishicha, o‘tmishda mehmonning kelishi ma’murchilikka, hosilning ko‘payishiga sabab bo‘ladi, degan tushunchalar mavjud bo‘lgan. Mehmon kutish xushfe‘l, xushchaqchaq, odamshavanda kishilarga xos xususiyat hisoblangan.

Shuning uchun mehmon kutish bizga avlod-ajdodlarimizdan yaxshi an’ana sifatida meros bo‘lib keldi. Mehmondo‘stlik san’ati ayniqsa har bir viloyatda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganidek, mehmonxonalar, ham har bir viloyatda o‘sha xalqning qadim zamonlardan meros bo‘lib kelgan arxitektura tuzilishiga ega. Mehmonxonalarning har biri o‘ziga xos reja, kompozitsiyada hamda boshqa-boshqa materiallardan qurilgan bo‘lishiga qaramasdan hammasi bir prinsipga, ya’ni mehmonning zerikmasligi, siqilmasligiga xizmat qilgan. Shuning uchun ham mehmonxonalarning devor va shiftiga rangdor bezaklar solinib, eshik va ustunlariga jimjimador gullar o‘yilgan. Bunday mehmonxona arxitekturasi san’atining o‘ziyoq kishi qalbiga farax bag‘ishlaydi, estetik zavq beradi. Farg‘ona vodiysida turar joylar ikki-uch hovlidan tashkil topgan bo‘lib, ularda mehmonxona alohida tashqi hovlida joylashgan [2].

Hozirgi kunda mamlakatimizning qaysi burchagiga bormang, zamonaviy mehmonxonalarda tunaysiz. Davlat tomonidan qurilayotgan ko‘p qavatli uylarda ham mehmon kutish uchun katta xonalar nazarda tutilib xalqaro talab darajasida sharoitlar yaratilmoqda.

Albatta bunday sharoitlarni zamonaviy mebellar, televizor, radio va boshqa zarur narsalar bilan jihozlangan bo'lib, xalqqa mehmonlar uchun xizmat qilib kelmoqda.

Jumladan, sharoitlarni yaratilishining dizayn tarixiga, ya'ni o'tmishga ham bir nazar tashlasak ajdodlarmiz tomonidan bundan ming yillar avvallari ham bundanda qulayroq tartibda aziz bo'lgan mehmonlarni kutib olish uchun ko'p mehnat qilishganligini guvohi bo'lamiz. Albatta, bu kabi sharoitlarni tarixiy manbalar orqali o'qib o'rganishdan tashqari hozirgi kunda arxeologik qazuv tadqiqot ishlarini olib borilgan topilmalarga ilmiy yondoshuv orqali mulohaza qiladigan bo'lsak, juda ko'plab arxeologik topilmalar badiiy kulolchilik ashyolari, uy-ro'zg'or buyumlaridan iboratligini bilamiz. Mana hozirgi kundagi, 1989 yilda Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan Mo'nchoqtepa arxeologik yodgorligidan topilgan uy-ro'zg'or buyumlarini e'tiborga oladigan bo'lsak, nafaqat kulolchilik buyumlari topilgan. Balkim, insoniyat uchun zarur bo'lgan barcha uy-ro'zg'or buyumlaridan tashqari ayollar va erkaklar ishlatadigan barcha hunarmandchilik maxsulotlarini ko'rishimiz mumkin.

Ya'ni, ko'plab qadimgi xalqimiz ham albatta mehmonni yaxshi kutib olish maqsadida mehmonxonalarni milliy me'moriy bezak turlarining naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi kabi milliy xalq amaliy san'ati namunalaridan deyarli barchasidan unumli foydalanganligini qadimiy moddiy madaniy meros ob'ektlaridagi saqlanib qolgan namunalarida uchratishimiz mumkin. Nafaqat me'moriy bezak namunalari, balkim ayniqsa mana guvohi bo'lib turgan arxeologik topilmalarning insoniyat o'zi uchun qulay uy-ro'zg'or buyumlarini ham o'ta kuchli ong va amalda yasagan jihozlariga baho bersak bo'ladi.

1987-89 yillarda Munchoqtepadan topilgan nodir ashyolar jahonshumul tarixiy va arxeologik ahamiyatga ega bo'lib, Munchoqtepa "Buyuk ipak yo'li" xalqaro ekspeditsiyasi xaritasiga kiritildi. Munchoqtepa yoxud Pop sag'anasi(ba'zan Danu dafinasi deb nomlangan xazina) o'chog'ini topish shunday ro'y berdi [3].

Bu yerda 1987 yilda akademik Ahmadali Asqarovning umumiy rahbarligida ish boshlangan. 1989 yil may oyi oxirlarida Respublika Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti ilmiy xodimi Boqijon Matboboev boshliq Namangan arxeologiya ekspeditsiyasining Pop otryadi xodimlari shu tepalikning shimolida joylashgan ikkinchi tepalikdagi V-VII asrlarga oid qabristonda qazish ishlarini olib borayotgan paytda tasodifan tashlama suvlar ta'sirida paydo bo'lgan yonbag'irdagi jarlikda xom g'ishtdan tiklangan devorlar iziga duch keladilar. So'ngra bu tepalikda ham qazish ishlari boshlanadi. Ichki devorida na g'isht, na boshqa biron qurilish ashyosi ishlatilmagan bu sag'analar lahm qilib o'yilgan. Bir yarim ming yil muqaddam dafn etilgan murdalar ehtiyotkorlik bilan olib chiqildi. Ma'lum bo'lishicha, sag'anada jami 47 ta tobut qo'yilgan ekan, Tobutlar qamishdan har bir murdaga mos qilib yasalgan. Ushbu sag'ananing o'zi yer ostida qurilgan bo'lib, balandligi 2 metr, maydoni 15 kvadrat metrni tashkil qiladi.

Qamish tobutlar topilishining o'zi noyob hodisa bo'lib, shu kungacha bunday tobutlar topilmagandi. Tobutlarning o'lchamlari esa har bir marhumning bo'yiga qarab tayyorlangan-ligini ko'ramiz. Qamish tobutlar ichida eng uzun tobut

2,20 sm ga teng bo‘lib, sag‘ana ichiga yonma-yon qilib terib chiqilgan. Joy qolmagan taqdirda qavat-qavat qilib terilgan. Marhumni qamish tobutga egnidagi libosi bilan chalqancha qo‘yilgan, ba‘zilarining yuziga ipak parda yopilgan. Bunday rasm-rusumlar ham noyob bo‘lib, Xitoyning Sinszyan tumanida uchragani ma‘lum. Shu bilan birga, qamish tobutlar yoniga marhumning u dunyoda yashashi uchun kerakli bo‘lgan barcha narsalari va kasbi-koriga tegishli buyumlari bilan dafn etilganligining guvohi bo‘ldik. Sag‘ana ichidan topilgan buyumlar orasida asosan yog‘och, sopol idishlar, savatlar va boshqa ro‘zg‘or buyumlari olindi.

Bundan tashqari, sag‘anaga aloqasi bo‘lmagan ikkita qabr ochilganda, ularning birida odam suyaklari katta xum shaklidagi qozonga solib ko‘milgan bo‘lsa, ikkinchisi to‘rt burchakli maxsus sopol idish–ostodonga solib dafn etilganligi aniqlandi. Bunday odat zardushtiylik diniga xos bo‘lib, Farg‘ona vodiysida uning izlari VII asrdan boshlab uchraydi. Bu topilmalar esa VIII – IX asrlarga oid edi. Zardushtiylarning urf-odatlariga ko‘ra, murda maxsus joylarga qo‘yilib yirtqich qushlarga yedirilgan. Etdan tozalangandan keyin esa suyaklar ostodonlarga solinib dafn etilgan.

Topilmalar bu yerda odamlarning kulolchilik, to‘qimachilik, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik, poyabzal tikish bilan shug‘ullanganlaridan ham dalolat beradi. Shuningdek, topilmalar orasida uchragan to‘qimachilik usulida to‘qilgan va ishlov berib bo‘yalgan mato VII asrga oid emas, balki II–III asrlarga taalluqli ekanligini xitoylik arxeolog mutaxassis olimlar tomonidan aniqlanib, dunyo olimlari tomonidan tan olindi. Buni O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti ilmiy xodimi B.Matboboev Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib o‘tgan Xalqaro anjumanda namoyish etdi. Ushbu noyob matoning nomi hozirgi tilda parcha atalib, uning vatani O‘zbekiston, ya‘ni Pop hunarmandlarining mahsuloti ekanligi fanda o‘z isbotini topdi.

Yer ostiga qurilgan sag‘analar noyob muhadislik–quruvchilik inshooti namunasidir. Bu yerdan topilgan noyob topilmalarning xalqimiz tarixini o‘rganishdagi ulkan ahamiyatini hisobga olib, ularni saqlash uchun Pop shahrida arxeologiya muzeyi tashkil etilgan, xozirgi kunda esa Namangan viloyati tarixi va madaniyati muzeyiga keltirilgan. Ushbu topilmalar har tomonlama uy-ro‘zg‘or buyumlarining tarixiy ahamiyati va dizayn san’atining yuksak namunasi sifatida ishlangan maxsulotlardani iboratdir. Abatta kamishdan yasalgan savatchalarni esa xozirgi kunda ham to‘qib xalq xizmati uchun chiqarilmoqda, lekin 1500-2000 yil oldin ajdodlarimiz tomonidan yasalgan kamish buyumlar o‘ta go‘zal va mustahkam qilib san’atkorona darajada ishlanganligini guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, xozirgi kunlarda katta – katta restoran va oshxonalarda urf bo‘layotgan yog‘ochdan ishlangan patnus, yog‘och lagan, kosa buyumlari ajdodlarmiz tomonidan go‘zal va nafis holda yaratib ishlatishganligini ko‘ramiz. Bundan tashqari ayollar uchun taqinchoqlar turli ashyolardan ishlangan mo‘nchoqlar jamlanmasi ham diqqatga sazovordir. Hattoki qamish tobutlardan tashqari sopoldan ishlangan ostodonlar ham o‘z davrining buyuk ixtiro va dizayn yo‘nalishi xalq amaliy san’ati va tasviriy san’at maxsuli ekanligini isbotidir.

Shuningdek, Qadimiy Koson shahri eramizdan oldingi II asr o'rtalarida tog'oldi hamda vodiya dexqonlari o'rtasidagi aloqa markazi, Farg'ona vodiysida hukmronlik qilgan Davan podsholigi, buyuk Kushonlar saltanati, turk xoqonligi, Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar saltanatida poytaxt, harbiy-siyosiy markaz, ilm-fan, hunarmandchilik, savdo, tijorat ishlari taraqqiy etgan iqtisodiy shahar maqomiga ega bo'lgan.

Shuningdek, Kosonsoy shahrida ham aynan shu kabi arxeologik buyumlarni yog'ochdan yasalgan lagan, kosa, to'qimachilik buyumlari va boshqa dizayn sohasiga oid buyumlarni uchratishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, milodiy eradan avvalgi II-I asrlarda Kosonsoy havzasining qadimgi dehqonchilik va shaharsozlik madaniyati asosida paydo bo'lgan Koson – Kosonsoy shahri 2100-2200 yillik uzluksiz tarixga egadir. Albatta bu davr ichida nafaqat kulolchilik buyumlari balkim allomalarni xotirlash maqsadida turli tuman shakldagi qayroq toshlarga bezakli bitik yozuvlari ham ishlanganligini guvoni bo'lamiz. Bu bilan yosh avlodni o'z tariximiz va o'zligimizni anglashga undovchi tasviriy san'at asarlarini naqadar bebaho noyob osori-atiqalarimizligini tushuntirish vaqti kelganligi ham muhimdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. Жўракулов М., Исомиддинов М. Ўрта Осиё кулолчилиги тарихидан. – Самарқанд, 1999.
2. Нозилов Д. Ўрта Осиё меъморчилиги ва меҳмонхоналар. – Т.: “Ўзбекистон”, 1977.
3. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2013.

О‘ЗБЕКИСТОН ДУНГАНЛАРИ ЗАМОНАВИЙ ЖАРAYONLAR FONIDA: OILA, NIHOH VA ETNOMADANIY UZVIYLIK

ДУНГАНЕ УЗБЕКИСТАНА НА ФОНЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОЦЕССОВ: СЕМЬЯ, БРАК И ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ ЦЕЛОСТНОСТЬ

THE DUNGANS OF UZBEKISTAN AGAINST THE BACKDROP OF CONTEMPORARY TRENDS: FAMILY, MARRIAGE, AND ETHNOCULTURAL COHESION

Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

e-mail: yosin@namdu.uz

Tel: +998 97 230 23 07

Annotasiya.

Ushbu maqola O'zbekistonda yashaydigan dungan diasporasining etnomadaniy identikligini saqlash mexanizmlariga bag'ishlangan. Ayniqsa, oila va nikoh amaliyotining

ularning madaniy o'zligini saqlashdagi roli, endogam va ekzogam nikohlarning hududiy tafovutlari tahlil qilinadi. Toshkent, Andijon kabi mintaqalarda dunganlarning nikoh amaliyotidagi farqlar, shuningdek, gansu va shensilik guruhlarining integratsiya darajasi qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada dunganlarning zamonaviy sharoitga qaramay, o'z an'analarini saqlab qolishining ijtimoiy-madaniy omillari ko'rib chiqiladi.

Аннотация.

Статья посвящена анализу механизмов сохранения этнокультурной идентичности дунганской диаспоры в Узбекистане, с акцентом на институтах семьи и брака. Исследуются региональные различия в практике эндогамных браков (97% в Ташкентской области, 83% в г. Ташкенте, 52% в Андижане), а также степень интеграции субгрупп дунган (ганьсуйцы vs. шэньсийцы). Особое внимание уделяется историческим связям ганьсуйских дунган с уйгурами, что объясняет их более высокую склонность к межэтническим бракам. На примере современных урбанизационных процессов показаны адаптивные стратегии сохранения традиционной культуры.

Abstract.

This article examines the mechanisms of ethnocultural identity preservation among the Dungan diaspora in Uzbekistan, focusing on the role of family and marriage traditions. It analyzes regional differences in endogamous and exogamous marriages (e.g., 97% endogamy in Tashkent Region vs. 52% in Andijan) and compares the integration levels of Gansu and Shaanxi Dungan subgroups. Despite urbanization and migration, Dungans maintain cultural continuity through adaptive strategies, with historical ties to Uyghurs facilitating interethnic marriages among Gansu Dungan. The study highlights how demographic factors, linguistic subgroups, and local interactions shape evolving identity preservation methods.

Kalit so'zlar.

Dunganlar, etnomadaniy identifikatsiya, endogam nikoh, eksogam nikoh, oila instituti, madaniy uzviylik, Gansu va Shaanxi dunganlari, demografik o'zgarishlar, integratsiya

Ключевые слова.

Дунгане, этнокультурная идентичность, эндогамный брак, экзогамный брак, институт семьи, культурная преемственность, ганьсуйские и шэньсийские дунгане, демографические изменения, интеграция.

Key words.

Dungans, ethnocultural identity, endogamous marriage, exogamous marriage, family institution, cultural continuity, Gansu and Shaanxi Dungan, demographic shifts, integration.

Dungan diasporasi O'zbekistonning ko'p millatli tarkibida o'ziga xos madaniy qatlam sifatida ajralib turadi. Har qanday diaspora singari, dunganlar ham zamonaviy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy omillar va madaniy integratsiya bosqichlarida o'zining etnomadaniy mohiyatini asrash yo'lida turli mexanizmlarni ishlab chiqqan. Ayniqsa, oila instituti va nikoh amaliyoti etnik identiklikni saqlashda asosiy vositalardan biri sifatida maydonga chiqadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda yashovchi dunganlar turmush tarzida yuz berayotgan zamonaviy o'zgarishlar fonida etnomadaniy o'zlikning qanday saqlanayotgani, ayniqsa endogam nikohning hududiy va guruhlararo tafovutlari asosida bu jarayon qanday tus olayotgani tahlil qilinadi.

Dunganlar turmush tarzida sodir bo'laётgan zamonaviy o'zgarishlarga qaramay, etnomadaniy o'zligini ham saqlab kelmoqda. Oila jamiyatda nafaqat

ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni, shu bilan birga etnomadaniy an‘analarni uzatuvchi vazifani nufuzini o‘shishiga xizmat qiladi. Bu esa milliy urf-odat va an‘analarning davomiyligi uchun zamin yaratadi. Chunki, diaspora hayoti davomiyligini ta‘minlovchi omillardan biri ularning nufuzidir[1].

O‘zbekiston dunganlari nisbatan anchagina kam sonli bo‘lsada, bugungi kunga qadar o‘z madaniy qadriyatlarini saqlab kelmoqda. Bu haqida xitoylik tarixchi Di Yongjun (邸永君) dungan oilasini ta‘riflay turib, “... biz fazoviy vaqt tunnelidan o‘tib, yuz yil orqaga qaytib qolgandek bo‘ldik”[2], deb yozadi. Muallif o‘z tadqiqotlari davomida xitoy madaniyatining faqatgina kitoblarda saqlanib qolgan ko‘rinishini dunganlar hayotida uchrashini ta‘kidlagan.

Dungan oilasida kelinni faqat ota-ona tanlaydi va buning sababi ularda nikoh asosan endogam nikohga asoslanganidir[3]. Shuning uchun ham ular munosib kelinni kamsonli nomzodlar ichidan birini tanlaydi yoki qo‘shni respublikalardan olib kelinadi. Albatta, endogam nikoh hududiy jihatdan farqlanadi. Tadqiqot davri mobaynida olib borilgan umumiy hisob-kitoblarga ko‘ra hududiy farqlar taqriban quyidagicha:

Toshkent viloyati dunganlarida – 97%;

Toshkent shahri dunganlarida – 83%;

Andijon shahri dunganlarida – 52%.

Endogam nikohlarning hududlari kesimida farqlanishi ham o‘ziga xos sabablarga ega bo‘lib, ularni quyidagi tarzda ko‘rib chiqish mumkin:

birinchidan – joylashuv hududidagi dunganlarning umumiy soni. Buning ahamiyati shundaki, yashayotgan hududda dunganlar sonining ko‘pligi aynan munosib kelin topish imkoniyatini oshiradi, etnomadaniy identiklikka chegarani mustahkamroq qo‘yadi, o‘zlikni saqlash birmuncha barqaror bo‘ladi;

ikkinchidan – mazkur guruh dunganlarning qaysi guruhiga mansubligi. O‘zbekiston va umuman olganda, Markaziy Osiyo dunganlari til lahjasiga va shunga mutanosib ravishda kelgan hududiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadi. Bularning birinchisi gansu shevasida gaplashuvchi Gansu provinsiyasidan kelib joylashgan dunganlar. Ularning ekzogam nikohga moyilligi shensilik dunganlarinikiga qaraganda yuqoriroq bo‘lib, buning sababi Toshkent shahri va Andijon shaharlarida yashovchi dunganlarning ko‘pchiligi gansuliklar guruhiga mansubligidir.

Bu o‘rinda shunday savol tug‘iladiki, nima uchun gansuliklarda aralash nikohga moyillik yuqori? Ta‘kidlash kerakki, gansulik dunganlar azaldan hududiy jihatdan uyg‘urlar bilan qo‘shni bo‘lgan bo‘dib, ular Markaziy Osiyo hududiga ko‘chib kelishidan avval ham uyg‘urlar bilan aralash nikohlar ko‘p bo‘lgan va shu sababli o‘zaro madaniy chegaralar birmuncha zaif bo‘lgan. Shu sababli ham yangi hududga ko‘chib o‘tgandan keyin uyg‘urlar bilan deyarli juda yaqin madaniyatga ega bo‘lgan mahalliy madaniyat ularga begona tuyulmagan, chegarlar qattiq ko‘rinmagan. Ular ko‘chib kelgan vaqtida ham mahalliy aholi bilan bimalol mahalliy turkiy tilda gaplasha olgan. Mahalliy aholi vakillariga o‘zini tanitishda ko‘proq uyg‘urlarning bir tarmog‘i sifatida ko‘rsatgan[4].

Yana shuni ham qo‘shimcha qilish kerakki, gansulik dunganlarning mahalliy aholi bilan aralash joylashishligi ularning tilni o‘rganish oson bo‘lganligi va qisman bilganligi, deb qayd etish mumkin. Bu,

birinchidan – dunganlarning aholi orasida tarqoq joylashuviga xizmat qilgan;

ikkinchidan – ularning mahalliy millat vakillari bilan aralash nikohlarga kirishishiga sabab bo‘lgan. Aralash nikohlar dastlabki paytlarda dungan qizlarining yetishmasligi sababidan ham ko‘p kuzatilgan. Bu hol ham gansulik dunganlarda ko‘p kuzatiladi. Qizlarning kamligi sababli ularga to‘lanishi kerak bo‘lgan qalin pullari ham keskin oshib ketgan. Bu esa dunganlarning mahalliy millat vakillarining qizlariga uylanish uchun sabablardan biridir[5].

uchinchidan – *etnomadaniy identiklik*. Albatta, hududda dunganlarning kam bo‘lishi til va madaniyatning ko‘plab jihatlarini saqlash jarayonini qiyinlashtiradi, bu esa mahalliy madaniyat ta‘siriga tushib qolishga sabab bo‘ladi. O‘zga madaniyatning ta‘siri esa etnomadaniy identiklikning kuchni qirqadi. Buning natijasi sifatida bo‘lajak kelinning millatiga qo‘yilgan talabning ahamiyati pasayadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashovchi dunganlar zamonaviy urbanizatsiya, migratsiya va madaniy almashinuvlarga qaramay, oila va nikoh institutini etnomadaniy o‘zlikni saqlash vositasi sifatida faol qo‘llab kelmoqda. Endogam nikoh darajasining hududlar kesimida farqlanishi, dungan guruhlari o‘rtasidagi lingvistik va tarixiy tafovutlar, shuningdek, ular yashayotgan mahalliy muhitga bo‘lgan integratsiya darajasi bu jarayonga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, gansulik dunganlarning tarixiy tajribalari va madaniy ochiqligi ularning boshqa etnik guruhlar bilan madaniy va nikoh aloqalarini nisbatan erkin yuritishlariga sabab bo‘lgan. Bu esa, umumiy nuqtai nazardan, dunganlar etnomadaniy identikligini moslashuvchan shakllarda saqlab qolayotganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. Allworth E. Central Asia: 130 Years of Russian Dominance, A Historical Overview. Duke University Press. 1994. – P. 134.
2. 邸永君. 你知道东干人吗? //民族之林. 科百科知识. 2006.9. 第57-58页. (Di Yongjun. Siz dungan xalqini bilasizmi? // Milliy rang-baranglik. Ilmiy ensiklopediya. 2006. №9. – B. 57-58).
3. Laruelle M. Central Asian Dungan Communities: Migration, Identity, and Integration. Springer. 2020. – P. 176-177.
4. Dala yozuvlari. Andijon shahri “Yangi turmush” mahallasi. 2019-yil.
5. Abashin S. The Dungan Communities of Uzbekistan: Ethnicity and Adaptation. Journal of Eurasian Studies. 2014. – P. 232.

II SHO‘BA. FARG‘ONA VODIYSINING O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATI. QO‘QON XONLIGI TARIXI MUAMMOLARI.

XORAZMSHOHLAR VA NAYMANLARNING FARG‘ONA VODIYSI UCHUN OLIB BORGAN KURASHLARI (XIII ASR BOSHLARI)

THE STRUGGLES OF THE KHWARAZMIANS AND NAYMANS FOR THE FERGANA VALLEY (EARLY 13TH CENTURY)

БОРЬБА ХОРЕЗМИЙЦЕВ И НАЙМАНОВ ЗА ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ (НАЧАЛО XIII ВЕКА)

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Namangan Impuls tibbiyot instituti, O‘zbekiston.

Telefon (Telegram): +998 93 345 19 69

E-mail: qozoqov69@mail.ru

Аннотация

Ushbu maqolada xorazmshohlar va naymanlar davlatlari o‘rtasida Farg‘ona vodiysini egallash uchun olib borilgan kurashlari bayon etilgan. Farg‘ona vodiysining mo‘g‘ul davlati tarkibiga qo‘shib olinishi va uning sabablari birlamchi manbalar asosida tahlil qilingan.

Annotation

This article describes the struggle between the Khorezmshahs and the Naiman states for the occupation of the Fergana Valley. Based on primary sources, the annexation of the Fergana Valley to the Mongol state and its causes are analyzed.

Аннотация

В данной статье описывается борьба между хорезмшахами и найманскими государствами за оккупацию Ферганской долины. На основе первоисточников анализируются присоединение Ферганской долины к Монгольскому государству и его причины.

Калит сўзлар

Qoraxoniylar, Qoraxitoylar, mo‘g‘ullar, Axsikent, Naymanlar, Kuchluk, Jo‘ji, Xorazmshohlar, jang, Sharqiy Qoraxoniylar, Sirdaryo, bo‘linish, Alouddin Muhammad Xo‘taniy, Jebe No‘yon, zulm.

Key words

Karakhanids, Karakitayans, Mongols, Akhsikent, Naimans, Kuchluk, Jochi, Khorezmshahs, war, Eastern Karakhanids, Syrdarya, division, Alauddin Muhammad Khotani, Jebe Noyan, oppression.

Ключевые слова

Караханиды, Каракитайцы, Монголы, Ахсикент, Найманы, Кучлук, Джучи, Хорезмшахи, война, Восточные Караханиды, Сырдарья, разделение, Алауддин Мухаммад Хотани, Джебе Ноян, угнетение.

Hozirgacha bo‘lgan tarixiy asarlarda Farg‘ona vodiysining mug‘ullar davlati tarkibiga qay tarzda kiritilganligi masalasi bayon etilgan emas. So‘ngi 60-70 yil ichidagi arxeologlar tomonidan yozilgan asar va maqolalarda esa, Farg‘ona

vodiysini mug‘ullar qo‘shini bosqin orqali egallaganligi yozib kelindi [1, B.9.; 13, B. 8.; 5, B.19]. Taassufki, bu yozilgan ma‘lumotlarda buning uchun biron bir tarixiy manbani asos qilib keltirmadilar. Barcha ma‘lumotlar arxeologlarning taxminiy-xayoliy hissiyotlari natijasi sifatida e‘lon qilib borildi. Asli tarixiy manbalarni bilmaslik yoki mensimaslik, har qanday ilmiy asosdan o‘z taxminlarini ustun qo‘yishlik alaloqibat vodiy tarixining ushbu davrini soxtalashtirilishiga olib keldi.

Qoraxoniylar davlati Sulaymon Arslonxon-Sulaymon binni Yusuf (1032-1040 yy) zamonasida ikkiga bo‘lingach, Farg‘ona vodiysi, Qoshg‘ar hamda Xo‘tan viloyatlari, Yettisuv, Ili vodiysi Sharqiy Qoraxoniylar davlati, deb atalib, Bolasog‘undan boshqarilgan [11, B.4-54]. Poytaxt Samarqand sanalgan G‘arbiy Qoraxoniylar tasarrufiga Movarounnahr va Xurosoning bir qismi qaragan.

XII asr boshlariga kelib, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Movarounnahrni o‘z ichiga olgan ulkan Qoraxoniylar saltanatiga sharqdan ko‘chmanchi Qoraxitoylar bostirib kira boshladi. Qoraxitoylar go‘rxoni Farg‘ona va Movarounnahrda hujum qilib, 1137 [7, S.245]. va 1141 yilgi janglardan so‘ng, Movarounnahr va Farg‘onani o‘z davlatiga qaram qildi [12, B.401]. Bu qaramlik 1212 yil Xorazmshoh Alouddin Muhammad tomonidan Taroz jangida Qoraxitoylarning mag‘lub etilishigacha davom etdi.

Taroz jangidan so‘ng, naymanlar sardori Kuchlukning elchilari Sulton Muhammadga kelib, Qoraxitoylarga birgalikda hujum qilish haqida Sulton bilan kelishish uchun taklif bilan keladilar. Bu kelishuvning shartlariga ko‘ra, sharqdan Kuchluk, g‘arbdan Xorazmshoh Go‘rxonga hujum qilishi, agar dushmanni Sulton Muhammad avvalroq mag‘lub etsa, Xo‘tan va Koshg‘argacha Sultonniki bo‘lishi, agarda bu ishni Kuchluk avvalroq bajarsa, Qoraxitoylar tasarrufida bo‘lgan Banokat (Fanokat) irmog‘igacha bo‘lgan yerlar unga berilishiga kelishiladi [6, B.326-331]. Bu o‘rinda Kuchluk ildamroq harakat qilib, go‘rxonni mag‘lub etdi va uning ixtiyorida bo‘lgan Xo‘tan, Olmaliq va Koshg‘ardan to Banokatgacha bo‘lgan yerlarni tasarrufiga kiritdi [9, B.376]. Shunday qilib, Farg‘ona vodiysi endilikda Kuchluk boshchilik qilayotgan Naymanlar davlatiga tobe’ bo‘lib qoldi.

Ammo, Sulton Alouddin Muhammad va naymanlar sardori Kuchluk o‘rtasida Farg‘ona vodiysi uchun kurash yana bir necha yillar davom etdi. Bu davrda xorazmshoh g‘arbiy yurishlar bilan bandligi bois, sharqiy yurishlarga katta e‘tibor qarata olmadi. Bundan foydalangan Kuchluk bu yerdagi musulmonlarga nihoyatda diniy taqiqlar qo‘llab, cheksiz zulm o‘tkazdi. Bu zulmlar Chingizxon qo‘shinlari tomonidan 1219 yilning boshlarida Kuchluk davlati yo‘q qilingunga qadar davom etdi.

Ushbu jarayonni batafsil o‘rgangan Mirzo Muhammad Haydar ham bunday deb yozgan edi: “...Kuchluk Qashg‘ar i Xo‘tanni bosib olgach, nasroniylikdan budparastlikka qaytdi. Aholini esa, o‘zining asl dini (Islom dinidan-T.Q.)dan qaytib, otashparastlar diniga, haqiqatning yorqin yo‘lini iymonsizlik va zulmat dahshatiga, rahmdil Robbiga bo‘ysunishni esa, la‘natlangan iblisga bo‘ysunishga o‘zgartirdi. Insonlar yo uning diniga o‘tishga yoki xitoycha ust-bosh kiyishga majbur etildilar. Azon, ibodatlar to‘xtatilib, taqiqlab qo‘yildi” [9, - C.365].

Mug‘ullar mahalliy tinch aholining mol-mulkiga tegmagan holda juda katta miqdordagi boyliklarni qo‘lga kiritdilar. Jebe no‘yon esa, Chingizxonga tuhfa tariqasida minglab otlarni sovg‘a qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ismoil boshchiligidagi Farg‘ona qo‘shini esa, mo‘g‘ullar bilan birgalikda naymanlarga qarshi yurishlarda ishtirok etdi [2, - C.470].

Shu bilan birga akademik V.Bartold yana-da aniqroq qilib Xorazmshohning bunga munosabatini quyidagicha: “...Qoraxoniylarning avvalgi mulklaridan sanalgan Farg‘ona va uning shimoli hamda sharqidagi, shuningdek, Chirchiq va Arisdan boshlangan taraqqiy etgan viloyatlarni Kuchlukning foydasiga voz kechishga majbur bo‘ldi. Musulmon tarixchilari esa (bu yerda Ibn al-Asir nazarda tutilyapti-T.Q.), bu hududlar Kuchlukka o‘tib ketmasligi uchun u yerlarni xorazmshoh o‘zi vayron qilganligini yozadilar. Biroq, 1221- yilda bu yerlardan o‘tib borgan xitoy tarixchisi Chan-Chun hech qanaqa vayronalik izlari yo‘qligini yozadi”, deb xulosalar bergan edi [3, - C.139].

Juvayniy Kuchlik qo‘l ostidagi musulmonlarga nisbatan o‘ta berahmliklar qilganligini yozib: “...Zo‘ravonlik va zulm bilan Muhammad (s.a.v.) diniga ishonganlar ovozi o‘chirdi va ularni o‘z e‘tiqodiga bo‘ysunishga imkon bermadi”, degan edi [6, - B.126].

Shu o‘rinda zamonamizdagi ayrim tarixchilar Ibn al Asirning Chingizxonning Movarounnahrda bosqini haqidagi “Chingizxon odamlarini bir necha guruhga ajratdi. Shulardan bir guruhini u Farg‘onani egallash uchun yubordi” [7, - S.360], degan jumllarini mug‘ullarning Farg‘onaga yurishlari uchun asos sifatida keltiradilar. Ammo, birinchidan, biron bir manba bu yurish haqida lom-mim deyilmagan. Ikkinchidan, ko‘plab o‘rta asr geograflari Xo‘jandning Farg‘ona mintaqasiga taalluqli shahar sifatida ta‘riflaganlar [7, - B. 30.; 9, - B.136]. “Boburnoma”da “Xo‘jandni ba‘zi doxili Farg‘ona emas derlar”, deb muallif bu yerni ba‘zilar Farg‘onaga kiritmaganligidan ajablanganligini yozadi. Bundan Ibn al Asir Farg‘ona, deganda Xo‘jandni nazarda tutganligi oydinlashadi, xolos. Bu degani, mug‘ullar Farg‘ona vodiysiga hujum qildi, degani emas. Balki, aksincha Xo‘jand, garchi, Farg‘ona shaharlaridan biri sanalsada, ammo siyosiy jihatdan G‘arbiy Qoraxoniylar davlati tarkibida bo‘lgan. Shu bois, mug‘ullarning bu yurishini, G‘arbiy Qoraxoniylar mulkini egallagan Xorazmshohlarning sharqdagi chegara shaharlaridan biri bo‘lgan Xo‘jandga yurishi sifatida tushunish kerak.

Garchi, 1212- yil G‘arbiy Qoraxoniylar davlati qulatilgan bo‘lsada, ammo, Sharqiy Qoraxoniylar davlati mug‘ullar davrida ham mavjud bo‘lganligini, xitoy manbalarida, akademiklar V.Bartold va K.Shoniyozovlar o‘z asarlarida yozib qoldirganlar. Akademik Karim Shoniyozov o‘z asarida Munkxon (1251-1259 yy) Arslonxon qarluqning o‘g‘lini O‘zgan davlati va Farg‘onaga hukmron qilib tayinlaganligini yozgan. Shu bilan birga olim Farg‘ona davlati XIII asrning 60-70-yillarigacha hukm surib, biroq, Qoraxoniylarning bu davlati qaysi davrgacha o‘z mustaqilligini saqlab qolganligi aniq emasligini yozgan edi [16, - B.134].

Mustamlaka holatiga tushgan Sharqiy qoraxoniylar hukmdorlari bu zulmlardan qutilish uchun Chingizxonga murojaat qildilar.

Chingizxon o'zining hujumkorlik strategiyasiga muvofiq, Jebe no'yonga Sharqiy Turkiston va Yettisuv va Farg'onaga katta otryad bilan bostirib borib, Kuchluk davlatini yo'q qilishni buyurdi. Jebe bu topshiriqni 1219 yilda bajardi. Shunday qilib, Chingizxonning Sirdaryo qirg'oqlariga, hamda Movarounnahr va Xorazmga borishi uchun yo'l ochildi [12, B.428].

1218 yilning oxiri 1219 yilning boshlarida Jebe No'yon boshliq mug'ul qo'shini Kuchlukni tor-mor etib, uni qatl etgach, Sharqiy Turkiston va Farg'ona vodiysi Chingizxon davlati tarkibiga kiritildi. "Shundan so'ng, Xo'tan va Koshg'ar viloyatlari Sayhun, deb ataluvchi Fanokat daryosigacha bo'lgan hamda yana bir qancha joylar Chingizxon davlatiga kiritildi" [15, B.171]. Bu haqida Mirzo Ulug'bek ham "Xo'tan va Koshg'ar shaharlari Obi fasokatki, uni Sayhun, derlar, Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam mulklariga qo'shib olindi" [10, B.132]. E'tibor berilsa, Sharqiy Turkistondan hozirgi Sirdaryo bo'ylaridagi Xo'jand va Binokatgacha bo'lgan yerlarni bosib emas, qo'shib olindi, deyilmoqda.

Qoraxitoylar saltanati xarobalari o'rnida Kuchluk Xo'tan, Yorkend, Koshg'ar, Yettisuv, Farg'onadan iborat unchalik mustahkam bo'lmagan davlat tuzgan edi. G'arbga yurish boshlagan Chingizxon qo'shinlarining dinga, xususan, Islom diniga e'tiqodi uchun ta'qibga va kamsitishlarga yo'l qo'ymayotganligini ko'rgan musulmonlar, tezda mug'ullar tomoniga o'tib, Kuchlukka hech qanday yordam ko'rsatmadilar [8, S.307]. Aksincha, mahalliy aholi bu imkoniyatdan zolimlar o'lkadan quvib chiqarish uchun foydalandilar.

Turkistonning o'rta asarlar tarixi yuzasidan talaygina ishlarni amalga oshirgan akademik V.V.Bartold qadimgi qo'lyozmalarni tahlil qilish jarayonida Sharqiy Qoraxoniylar davlati hududlari (Farg'ona vodiysi, Yettisuv va Qoshg'ar) mug'ul davlati tarkibiga deyarli qon to'kmasdan kiritilganligini yozgan edi. Buning o'ziga xos sabablari bo'lib, bu bevosita qoraxitoylar davlatining tugatilishi va unga qaram bo'lgan o'lkalar - Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Farg'ona vodiysining qisqa vaqt oralig'ida naymanlar sardori Kuchluk davlati tarkibida bo'lganligi edi. Bu yerlarda Kuchluk diniy zulmni o'ta kuchaytirib yuborgach, aholining noroziligi haddan ziyoda oshdi. Ayni shu davrda mug'ullar tomonidan naymanlarning tor-mor etilishi, ularning yuqoridagi o'lkalarga kirib kelishi va mahalliy musulmon e'tiqodidagi aholini ularning zulmidan ozod qilishi, islom diniga e'tiqod qilishga mone'lik qilmaganligi albatta ijobiy hodisa edi.

Akademik V.Bartoldning yozishicha, Bolasog'unga bo'ysunuvchi va gurxonning yaqin kishisi bo'lgan Koson yoki Axsikentning hokimi Ismoil ismli shaxs Farg'ona vodiysini naymanlar zulmidan ozod qilayotgan mug'ul qo'shiniga shahar oqsoqollari bilan birgalikda peshvoz chiqib, itoat izhor qilgan. Bu haqida Jebe Chingizxonga ma'lum qilgach, xoqonning buyrug'i bilan Ismoil, Jebe no'yon qo'shinining avangardiga kelib qo'shildi. "Chingizxon o'rnatgan qat'iy tartib-intizomga muvofiq, Jebe boshliq qo'shin, Muhammad Xorazmshoh bilan qiyoslaganda "haloskor" vazifasini o'tay oldi", deydi akademik V.Bartold [2, S.469-470]. Juvayniyning ma'lumotlariga ko'ra, qashg'arliklar bu yerlarga mug'ullarning kirib kelishiga "Allohning rahmati", deb qaraganlar. "...Mug'ullar Qashg'arga kirgach, azon, takbir va namozni erkin qildilar (ya'ni, ruxsat berdilar-

T.Q.). Har bir odam o‘z dini va urf-odati talablarini bimalol erkin tarzda qila olishlari mumkinligi haqida jarchiga aytirdilar. Biz o‘sha qavmning borligini Tangri rahmatlaridan biri, deb hisoblaymiz”, deb yozadi Otamalik Juvayniy [6, B.124].

“...Mug‘ul qo‘mondoni diniy erkinlik himoyachisi bo‘lib maydonga chiqib, har bir inson o‘z ota-bobolari diniga erkin e‘tiqod qila olishligi mumkinligini ma‘lum qildi. Shu bois, Yettisuvning janubi, Farg‘ona va Qoshg‘ar deyarli qon to‘kilmasdan egallandi. Kuchlukka qaram va itoatda bo‘lgan musulmonlar (ular orasida Farg‘ona hukmdori ham bor edi) mug‘ullar tomoniga o‘tdilar” [3, S.141], deb tadqiqotlariga xulosa qilgan V.Bartoldning fikrlarini XX asrning taniqli tarixchilaridan A.Bernshtam ham tasdiqlaydi [4, S.140].

Tarixshunoslikdagi yana bir muhim masala, umuman Farg‘ona vodiysini mug‘ullar bosqiniga uchragan yoki uchramaganligi masalasi hozirgacha tarixiy tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Eng muhimi, Farg‘ona vodiysi umuman xorazmshohlar davlati tarkibiga kirmagan. Ya‘ni, Farg‘ona G‘arbiy Qoraxoniylar mulki bo‘lib, bu yer mug‘ullar davlati tarkibiga bosib emas, yuqoridagi sabablarga ko‘ra, qo‘shib olingan edi.

Achinarlisi, XX asrning 60- yillaridan to bugungi kungacha bo‘lgan deyarli barcha tarixiy asarlarda Farg‘ona vodiysi shaharlarini Chingizxon qo‘shinlari bosib olib, vayron qilganligi haqidagi asosiz ma‘lumotlar berib kelinmoqda. Buni birgina Axsikent misolida tahlil qilinsa, masalaga ancha oydinlik kiritiladi.

Yaqin yillargacha Axsikent tarixini faqat arxeologlar bergan ma‘lumotlar asosidagina yoritib kelindi. Tarixiy manbalardan bexabarlik yoki noto‘g‘ri talqin qilish yoxud manbalarni mensimaslik oxir oqibatda shahar tarixini taxminlar asosida yoritilishining sabablaridan bo‘ldi.

So‘nggi paytlarda Axsikentni o‘rganish hukumat darajasiga ko‘tarilishi oqibatida, shahar tarixini manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi, voqealar jarayoni mutlaqo boshqacha kechganligini isbotladi. Ya‘ni, Farg‘ona vodiysi, xususan, Axsikent XX asrning 50- yillaridan e‘tiboran ta‘kidlab kelinganidek, mo‘g‘ullar bosqini davrida emas, 1621 yildagi zilzila oqibatida vayronaga aylanganligi ilmiy jihatdan qayta isbotlandi. Nima sababdan qayta isbotlandi? Chunki, bu yangi ilmiy kashfiyot emas edi. Axsikentning mo‘g‘ullar vayron qilganligi haqidagi cho‘pchakni birinchi bo‘lib, Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimi bo‘lgan Yu. G. Chulanov o‘tgan asrning 50- yillari oxirlarida fanga olib kirib, “ilmiy kashfiyot” qilgan edi [14, 197-206].

Shu bois, taxminlarga tayanib tarix yozishdan voz kechgan holda, manbalarni sinchiklab o‘rganib tarix bitish payti yetib kelganligini anglash lozim.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ахроров И., Қосимов Ё. Ахсикент тарихидан лавҳалар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
2. Бартольд В. В. Сочинения. Том I.-Москва: Восточная литература, 1963.
3. Бартольд В. В. Сочинения. Том II. Часть I.-Москва: Восточная литература, 1963.

4. Бернштам А.Н. Древняя Фергана.-Ташкент: Издательство Академии Наук Уз ССР, 1951.
5. Гуломов Я., Ахроров И. Ахсикент обидалари изидан //Фан ва Турмуш, №8.
6. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи) /Масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. - Тошкент: Mumtoz so‘z, 2015.
7. Ибн ал Асир. Ал камил фит тарих (Польный свод истории).-Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
8. История народов Узбекистана. Том 1. (С древнейших времен до начала XVI века).-Ташкент: Издательство АН Уз ССР, 1960.
9. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
10. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи.-Тошкент: Чўлпон, 1994.
11. Ходжаев А., Турдиева Д. Қорахонийлар хоқонлиги тарихи Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида.-Тошкент: Фан зиёси, 2021.
12. Ўзбекистон СССР тарихи. Тўрт томлик. Т.І. – Тошкент: Фан, 1970.
13. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар.-Тошкент: Фан, 1990.
14. Чуланов Ю.Г. Городище Ахсыкет //Советская археология, 1963.-№3.
15. Шарафуддин Али Яздий Зафарнома. I китоб.-Тошкент: Фан, 2022.
16. Шониёзов К. Карлуқ давлати ва карлуқлар.-Тошкент: Шарқ, 1999.

BUYUK ALLOMALAR YURTI

СТРАНА ВЕЛИКИХ УЧЕНЫХ

LAND OF GREAT SCHOLARS

Madraximov Zoxid Sharofovich

Namangan davlat universiteti, Tarix kafedراس dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

e-mail: zohidmadrahimov1980@mail.com

Tel: +998 94 277 56 95

Annotatsiya

Ushbu maqolada, o‘rta asrlarda hozirgi Namangan viloyati hududidagi Pop, Axsikent va Koson kabi qadimiy markazlardan yetishib chiqqan buyuk faqihlar, tasavvuf allomalari, adiblar faoliyati, ularning ilmiy va ma‘naviy merosi haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar:

Namangan, Pop, Axsikent, Koson, ilm-fan markazlari, Umar Bob Farg‘oniy, Axsikatiylar, Asiruddin Axsikatiy, Abu Bakr Kosoniy, faqih, “Badoi”, Maxdumi A‘zam.

Annotation

This article explores the contributions of great jurists, Sufi scholars, and literary figures who emerged from the ancient centers of Pop, Axsikent, and Koson in the present-day Namangan region during the medieval period. It highlights their scientific and spiritual legacy.

Keywords:

Namangan, Pop, Axsikent, Koson, centers of science, Umar Bob Farg‘oniy, Axsikatiy scholars, Asiruddin Axsikatiy, Abu Bakr Kosoniy, jurist, Badoi, Maxdumi A‘zam.

Аннотация

В данной статье дается информация о деятельности великих правоведов, деятелей суфиев и литераторов, вышедших из древних центров, таких как Пап, Ахсикент и Касан на территории современной Наманганской области в средние века, а также об их научном и духовном наследии.

Ключевые слова:

Наманган, Пап, Ахсикент, Касан, научные центры, Умар Баб Фергани, Ахсикентцы, Асируддин Ахсикати, Абу Бакр Касани, правовед, "Бадои", Махдуми Аъзам.

Movarounnahr zaminida IX – XII, XIV – XV asrlar davomida yuzaga kelgan Uygʻonish davrida Muso al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al Fargʻoniy va boshqa ulugʻ olimlar qatorida, hozirgi Namangan viloyati hududidagi Pop, Axsikent, Koson kabi qadimiy markazlarda ham jahon ilm-fani rivojiga katta hissa qoʻshgan allomalar ijod qilgan.

X asrda Pop shahridan ulugʻ shayx va donishmand Umar Bob Fargʻoniy yetishib chiqdi. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida IX – X asrlarda Turkistonda oʻtgan mutasavviflar haqida xabar berar ekan, bu kishining nomini ham tilga oladi va uning avliyo darajasida ekanligi toʻgʻrisida voqea bayon etadi [1 – B. 95]. Abdurahmon Jomiy ham Umar Bob Fargʻoniyning tasavvuf ilmidagi salohiyatini qayd etadi.

Oʻrta asrlarda Fargʻonaning markaziy shaharlaridan boʻlgan Axsikent yirik madaniy markazga aylangan. Sayyoh va olim Yoqut Hamaviyning asarida keltirilgan quyidagi fikrlar fikrimizning yorqin dalilidir: "Fargʻona – keng yer, unga qarashli shahar va qishloqlar ham katta, uning ulkan shahri Axsikentdir. Shaharga olimlar, fozillar, ilm-fanning porloq yulduzlari, qoʻli gul ajoyib binokorlar, xullas, yetmish xil hunarning sohibkor kishilari toʻplangan" [17 – B. 14].

Axsikentda dunyoga kelib ijod qilgan va oʻziga Axsikatiy nisbasini olgan olimlar koʻpchilikni tashkil etib, ayrim adabiyotlarda Axsikatiy nisbasidagi olimlar yigirmataga yaqin ekanligi toʻgʻrisida maʼlumotlar keltiriladi [7 – B. 22].

Yirik soʻz sanʼatkori, tarixchi, faylasuf, ilk Uygʻonish davri madaniyatining eng yorqin namoyondalaridan biri boʻlmish Abulfazl Muhammad Tohir Asiruddin Axsikatiy olimlar orasida oʻziga xos, alohida oʻrin tutadi.

Asiruddin Axsikatiy (Abulfazl Muhammad Tohir) XII asrda Axi shahridan yetishib chiqqan oʻzbek maʼrifatparvari, yuksak isteʼdod egasi hisoblanib, u haqida Muhammad Avfiy (XII asr), Muhammad Rovandiy (XII asr), Taqiddin Koshiy (XIV asr), Davlatshoh Samarqandiy (XV asr) va boshqa tazkiranavis va tarixchi olimlar maʼlumot beradilar.

Davlatshoh Samarqandiy oʻzining "Tazkirat ash-shuaro" nomli asarida Asiruddin Axsikatiy haqida quyidagi maʼlumotlarni keltiradi: "Donishmand va fozil kishi boʻlib, soʻzamollikda oliy martabaga ega edi. ...Asli Turkistondan, Fargʻonaga qarashlik Axsikatning nohiyatidandir. ...Axsikatiy soʻzni donishmandona aytur edi..." [5 – B. 23].

Zamonasining "Malik ush-shuaro" Asiruddin Axsikatiy turli tarixiy va adabiy manbalarga koʻra, 1108 – 1110- yillar (hijriy 502 – 504- yillar) orasida tavallud topgan [8 – B. 124]. Uning bolaligi va ilk oʻqish- yillari Axi shahrida oʻtdi. Asiruddin ulgʻayib, balogʻatga yetgach, oʻzidagi mavjud bilimni yanada oshirish maqsadida oʻsha davrlarda butun dunyoga mashhur boʻlgan ilm-fan markazlari – Balx, soʻngra esa Hirot va Marv shaharlariga sayohat uyushtirgan. Xususan, Asiruddin Axsikatiy Saljuqiylar mamlakati markazi, fan va madiyat rivoj

topgan shaharlardan biri Marvda riyoziyot (matematika), tibbiyot, kimyo, astronomiya, falsafa, grammatika va boshqa fanlarni o'rgangan [7 – B. 24]. Adabiyotdan bilim va malakasini takomillashtirib, she'riy ijod bilan muntazam shug'ullangan. Keng qamrovli bilim egasi va yetuk shoir bo'lib yetishgan.

Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjarga qarshi 1153- yilda ko'chmanchi o'g'uz qabilalari tomonidan ko'tarilgan isyon, toj-taxt uchun kurashlar bilan qo'shib ketishi natijasida mamlakatda notinchlik va tartibsizliklar avj olgan [12 – B. 129]. Bunday vaziyatda Asiruddin ham Xurosondan chiqib ketishga majbur bo'lgan va g'arbiy Eronga yo'l olgan. Iroq va Ozarbayjon hukmdorlari saroyida xizmatda bo'lgan.

Ma'rifatparvar Asiruddin Axsikatiy keyinchalik, Isfaxon, Tabriz, Shirvon, Ray, Hamadon, Nishopur, Ganja Zangon, Ko'histon, Xolxol singari katta-katta shaharlarda qirq- yil davomida hayot kechirgan [17 – B. 23]. Ulug' vatandoshimiz bu yerlarda olimlar-u, fozillar, shoirlar suhbatini, ilmu ma'rifatidan bahra olgan. Faqat o'zgaralar ijodidan bahramand bo'lish bilangina cheklanib qolmay, o'zining katta mahorat bilan yozilgan ruboiylari va g'azallari bilan adabiyot muxlislari qalbini zabt etib, ularning diqqat-e'tiborini qozongan. Asiruddin Axsikatiy, anchagina yillar mobaynida Arslon ibn To'g'ul (1160 – 1179-yy.) hamda Qizil Arslon (1185 – 1191-yy.) saroyida o'sha zamon ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish sohasida sidqidildan xizmat qilgan [4 – B. 76].

Asiruddin Axsikatiyning faoliyati va xizmatlari saljuqiy hukmdor Arslon shoh davrida yuksak baholanib, ma'rifatparvar olimga “Amir ul-shuaro” (Shoirlar amiri), “Malik ush-shuaro” (Shoirlar shohi) kabi unvonlar berilgan [18 – B. 77].

Asiruddinning forsiy devoni bizgacha yetib kelgan bo'lib, mazkur devon 13 ming misradan ortiq she'rni o'zida jamlagan [4 – B. 78], lekin ba'zi adabiyotlarda devonning hajmi 8 ming baytdan iborat ekanligi ta'kidlanadi [7 – B. 24]. Shuningdek, Axsikatiyning ijodiy merosi 120 qasida, 220 g'azal, 80 qit'a, 4 tarkibband va tarje'band, 24 fard, 80 ruboiyni tashkil etadi [8 – B. 127].

Asiruddinning devoni, 1313- yilda Abdulmo'min Ulviy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, mazkur devon London shahridagi “Indiana Ofis” kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek, ikkita qo'lyozma Hindistonda, 11 tasi Eronda, ikkitasi Dushanbeda, ikkitasi Berlindagi kutubxonalarda saqlanmoqda [7 – B. 24].

Asiruddin Axsikatiy umrining oxirida qiyinchiliklarga duchor bo'lgan: fitna orqali saroydan quvilgan, nochor ahvolda qolib, so'fiyona hayot kechirgan va 1196- yil (1198-y [15 – B. 18.])da Ozarbayjonning Xolxol shahrida vafot etgan [4 – B. 77].

Tadqiqotchilardan Sadridin Ayniy, Sharif Husanzoda, Rasul Hodizoda ingliz olimi Hammer, chex olimi Yan Rikka, Eron olimlari Rizoza, Shafak, Zabexullo Safo va boshqalar shoir she'riyatini yuzasidan ilmiy ishlar yaratganlar.

“Malik ush-shuaro”, “Amiri shuaro” unvonlariga sazovor bo'lgan yetuk iste'dod egasi – Asiruddin Axsikatiy o'zidan yosh shoirlarning ijodiy o'sishlari, she'riyatda yuqori martabani egallashlari uchun g'amxo'rlik qiladi, bag'rikenglik, jonkuyarlik ko'rsatadi. Chunonchi, asli buxorolik, keyincha Isfaxonga borib,

saljuqiy sultonlar saroyida qaror topgan Javhariy Zargarni u ustozlik mehri bilan tarbiyalaydi [17 – B. 26].

Mashhur Axsikatiylardan yana biri, Abu Rashod Axsikatiy – 1073- yilda Axsikent shahrida dunyoga kelgan va o‘z zamonasining mahoratli adibi hamda olimlari qatoridan o‘rin oldi. Abu Rashod olimning taxallusi hisoblanadi [18 – B. 77]. Abu Rashod Axsikatiy “Zul Fozil” (“Fazilatlar sohibi”) laqabi bilan mashhur bo‘lib, unga Axsikentda Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So‘fiy ta‘lim bergan.

Abu Rashod forscha she‘rlardan iborat devon tuzgan. Arab shoiri As-Sa‘moniy u haqda: “Al-Axsikatiy adib va fozil, lug‘at va nahv (sintaksis) ilmida juda mohir va nasrda peshqadam edi. ...Xurosonning ko‘pchilik fozillari adabiyotni Al-Axsikatiydan o‘rganganlar, unga shogird tushganlar”, – deya ma‘lumot beradi [17 – B. 19]. Tarixchi sifatida Abu Rashod “Kitob fit-tarix” asarini yozgan. Ma‘rifatparvar olim 1134- yil 23-aprelda vafot etgan [7 – B. 23].

Abul Vafo Axsikatiy Abu Rashod Axsikatiyning inisi. U ham Axsikentda Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So‘fiyda tahsil olgan. Tarix ilmini chuqur egallagan bo‘lib, zamondoshlari orasida “Zul Manoqib” (“Maqtovgazazovor xislatlar egasi”) degan nomga sazovor bo‘lgan. Olim haqidagi ma‘lumotlar bizning davrimizgacha Yoqut Hamaviyning “Mu‘jam al-Buldon” va “Irshod ul-Aribila Ma‘rifat il-adib” nomli asarlari orqali yetib kelgan [17 – B. 20].

Muhamad ibn Muhammad ibn Umar al-Axsikatiy va Hisomiddin al-Axsikatiylar fiqh asoslariga oid masalalarni o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lib, islom huquqi sohasida qator asarlar yaratdilar, ilmda yuqori cho‘qqilarga yetishdilar [17 – B. 15].

Tojuddin Abu Bakr al-Axsikatiy XII asr oxiri – XIII asr birinchi yarmida yashab, ijod qilgan olimdir. U Axsikentda tug‘ilib, keyinchalik Xo‘jandga ko‘chib borgan. Olim “Fatoviyn Xo‘jandiy” nomli fiqh ilmiga oid fatvolar majmuasidan iborat asarlar to‘plamini yozgan. Bu asar shariat masalalariga oid 54 kitobni o‘z ichiga oladi. Asarning bir nechta nusxasi bugungi kunda O‘zRFA Sharqshunoslik ilmiy tekshirish institutida 4832 raqami bilan saqlanmoqda [7 – B. 24].

XVI asr adabiyoti taraqqiyotida esa axsikentlik Mavlono Oxund va Mavlono Muhammad Vajhiylarning o‘rni beqiyos. XVI asrning birinchi yarmida Axsikentda tug‘ilgan Mavlono Poyanda Oxund bilimdon, donishmand kishi bo‘lib, tasavvufda kamolotga erishdi. Axsiiy taxallusi bilan she‘rlar yozib, istedadli shoir sifatida nom chiqardi. 1601- yilda Buxoroda vafot etdi [17 – B. 21].

Mavlono Vajhiy haqida ilm ahli tomonidan iliq fikrlar bildirilgan bo‘lib, Vajhiyning she‘r aytishda shirinkalomligi ta‘kidlanadi. Shoir, asosan, ruboiylar yozgan.

XVI asr birinchi yarmida yashagan Sayfiddin Axsikatiy yirik tarixshunos olim bo‘lib, uning “Majmu‘ at-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”), “Tuhfat ut-tavorixi xoniy” (“Xoning tarixdan tuhfasini”), “Nasabnomayi o‘zbek” (O‘zbeklarning nasabnomasi”) va boshqa asarlari muhim ilmiy qimmatga ega. Bu asarlarda olim 92 o‘zbek qavmini va Koson (Kosonsoy)da yashab o‘tgan mashhur shayxlarni

qayd etadi [17 – B. 15]. Shuningdek, qirg'izlar va boshqa turkiy qabila, urug'lar haqida yarim afsonaviy, yarim tarixiy ma'lumotlarni keltiriladi [7 – B. 25].

Namanganning yana bir ko'hna shahri Koson (Kosonsoy) ham ko'plab allomalarni, ilm-fan darg'alarini yetishtirib bergan. Bu o'lkadan yetishib chiqqan mashhur allomalardan biri, mashhur faqih Abu Bakr Kosoniydir.

Abu Bakr Kosoniy XIII asrda yashab ijod qilgan taniqli olim va shoir. Ma'rifatparvar olimning to'liq ismi Alouddin Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad Kosoniy. U fiqh ilmiga, tasavvufga oid asarlar yozgan, she'riy ijod bilan shug'ullangan. Alouddin Kosoniyning tavallud sanasi haqida aniq ma'lumot yo'q. Uning vafoti 1191- yilga to'g'ri kelishi tadqiqotchi olimlar tomonidan aniqlangan [19 – B. 85].

Koson – Movarounnahrdaagi Shosh (Toshkent) viloyatining orqasida, Farg'ona vodiysi mintaqasi – Sayhun (Sirdaryo)ning shimoliy qismida joylashgan shaharlardan biri. Alouddin Abu Bakr ibn Ahmad al-Kosoniy mana shu shaharda tug'ilganligi uchun unga Kosoniy deb nom berilgan.

Alouddin Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad Kosoniy “Malik al-ulamo”, “Sultonul ulamo” (Ulamolar sultoni), va “Alouddin” (“Dinni ulug'lovchi”) kabi unvonlar bilan shuhrat topgan.

Abu Bakr Kosoniy o'z yurtida ilmni va ulamolar majlislarini sevib ulg'aygan. Balog'at yoshiga yetgach Buxoro shahriga kelib u yerda Alouddin Muhammad ibn Abi Ahmad Samarqandiyning (vaf. 1145-y.) [10 – B. 62]. qo'lida tahsil olgan. U ustozining “Tuhfat ul-fuqaho” asariga “Badoi' us-sanoi' fi tartibish sharoi” (“Shariat hukmlarini tartibga solishdagi mahoratlarning badiyatlarini”, qisqacha – “Badoi'”) nomli sharh yozib, ustoziga taqdim etdi [13 – B. 26]. Bundan xursand bo'lgan Samarqandiy olim va faqiha qizi Fotimani Kosoniyga nikohlab beradi. Ikki ilmi tolibdan hosil bo'lgan oila timsolida o'ziga xos maktab vujudga keldi. Chunki, bu vaqtda Alouddin Kosoniy ham, uning fiqh, husnixat, hadis ilmida yetuk bo'lgan rafiqasi Fotima ham Alouddin Samarqandiy darajasida fatvo berish maqomiga yetgan edi. Ular ilm istab Turkiya va Shom mamlakatlarida bo'lishadi.

Alouddin Abu Bakr Kosoniy yuksak bilim, hikmat-zakovat va g'ayrat-shijoat bilan uzoq yillar Halabda olib borgan faoliyatlari natijasida o'lkadagi aqidaviy, fiqhiy ixtiloflarga barham berildi, mazhablar orasidagi bir-biriga bo'lgan birdamlik, hurmat oshdi.

Abu Bakr Kosoniyning qoldirgan asarlari ko'p bo'lmasa-da, ilmiy saviyasini yuqori bo'lganini ko'rsatib bera oladi. Olimning bizgacha islom fiqhiga oid yagona asari “Badoi' us-sanoi' fi tartibish-sharoi” (“Shariat qonunlarini tartiblashda go'zal qonunlar”) yetib kelgan. Abdulhay Laknaviy (vafoti 1304/1886-y.) esa Abu Bakr Kosoniyning bizgacha yetib kelmagan yana bir “Kitobul-Jalil” nomli asari haqida aytib o'tgan.

O'zbekiston musulmonlari idorasining fundamental kutubxonasida saqlanayotgan 7 juz'dan iborat (5 ta kitob holidan nashr etilgan) Abu Bakr Kosoniyning “Badoi'” asarida allomaning favqulodda iste'dod va mahorati mujassam bo'lgan. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari bu

kitobga shunday ta'rif bergan edilar: “Bu – ulkan kitob. Undan hamma faqihlar foydalanib kelgan va bundan keyin ham foydalanadi, inshoolloh”.

Fiqh ilmi qomusi bo'lgan “Badoi” Shayx Alouddin Mansur tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, 2018- yilda “Sharq” nashriyatida chop etildi. “Badoi”ni tarjima qilgan Shayx Alouddin Mansur “O'rganayotganimiz “Badoi’ us-Sanoi”” boshqa fiqhiy kitoblardan farqli ravishda mukammal va mufassal asardir. Unda har bir masalaning dalili izchil tekshiriladi, ixtilofli masalalarning sabablari izlanib, ular to'la va atroflicha o'rganiladi”, – deb yozadi [3 – B. 19].

Naqshbandiya tariqatining pirlaridan, naqshbandiya tariqati ta'limotini bir tizimga solgan, silsila va amaliyoti, shuningdek, tasavvuf ta'limotining nazariy muammolari bo'yicha asarlar yaratgan mutasavvif, naqshbandiylikning ijtimoiy-siyosiy ta'sirining ortishi, kengayishi va tarqalishida favqulodda sa'y-xarakat va qat'iy irodalilik ko'rsatgan ulug' zot, orifiy ilmlar sohibi, Kosonsoy farzandi Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Kosoniydir.

Mahdumi A'zam – Sayyid Ahmadi ibn Mavlono Jaloliddin Kosoniy 1461-yilda tavallud topgan [2 – B. 7.]. Yosh Sayyid Ahmad Kosoniy dastlabki bilimlarini kasonlik ustoz Mir Sayyid Alidan oladi. Keyinchalik, bilimni oshirish uchun ustoz Mir Sayyid Alining maslahati bilan Xoja Axror Valiyning shogirdi Mavlono Muhammad Qozi xuzuriga borib, ul zotga shogird tushadi. Shu tariqa Sayyid Ahmad Kosoniyning naqshbandiya tariqatidagi faoliyati boshlanadi.

Tez orada Sayyid Ahmad Kosoniyning shuhrati butun Movarounnahr, Xurosonga yoyiladi. Karmana va Miyonqol hokimi bo'lmish Jonibek sultonning taklifi bilan Sayyid Ahmad Kosoniy Samarqandga ko'chib keladi. Dastlab Karmanada yashaydi, so'ngra Miyonqolning eng so'lim va hosildor yerlaridan unga joy ajratib beriladi. Manbalarga qaraganda, Sayyid Ahmad Kosoniy bu joyni obod qilib, dastlab o'n tup tol o'tkazgan. Shu bois mazkur mavze Dahbed (O'n tol) degan nom olgan. Sayyid Ahmad Kosoniy bu yerda keyinchalik tasavvuf olamida dong'i ketgan Dahbed maktabiga asos soldi [9 – B. 5].

Sayyid Ahmad Kosoniy Turkistondagi naqshbandiya tariqatining yetakchilaridan biri bo'lgan. Bu ulug' zot chuqur ilm sohibi va tariqat ta'limotidagi favqulodda iste'dod va qobiliyati tufayli o'z davrining ulamolari tomonidan “Mahdumi A'zam” unvoniga musharraf bo'lgan.

“Mahdum” – xizmat qiluvchi odam. Odatda, u piru ustozlarga beriladigan tahallus, chunki ularga o'z muridlari va shogirdlari xizmat qilishadi. Bu tahallusni ba'zi joylarda piru ustoz va ulamolarning o'g'illariga nisbatan ham ishlatadilar.

“A'zam” – Ulug' degan ma'noga ega. Tasavvuf va fiqhshunoslik ilmlari bobida uch buyuk zot “A'zam” (Ulug') unvonini olishgan. Bular Imomi A'zam, G'avsul A'zam va Mahdumi A'zam.

Mahdumi A'zamning izdoshlari, muridlari va muhlislari juda ko'p bo'lgan. Manbalarda, Mahdumi A'zamni oltmishta avliyoni yetishtirgan murshid (piri shasti) deb atashgan. Ko'pchilik hukmdorlar, davlat arboblari, shoiru ulamolar, unga qo'l berib murid bo'lishgan. Jumladan, mutasavvif shayxlardan Muhammad Islom (1494 – 1563), Mavlono Lutfulloh, (1487 – 1571), Mavlono Poyanda (1601-yilda vafot etgan), Shayboniy hukmdorlaridan Ubaydulloxon (1538- yilda vafot

etgan), Abdulazizxon (1550- yilda vafot etgan), Jonibek Sulton (1529- yilda vafot etgan), temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530) unga murid tushishgan [16 – B. 15-16].

Mahdumi A'zamdin bizga katta ilmiy me'ros qolgan. Tariqat, falsafa, fiqh, ahloq sohalarida o'ttizga yaqin ilmiy-diniy risolalar yozgan Mahdumi A'zam Islom dinining 1400 yillik tarixida uchinchi va oxirgi bo'lib A'zamlik – buyuklik darajasiga musharraf bo'lgan insondir [14 – B. 3].

Mahdumi A'zam quyidagi asarlar muallifidir: “Risolai vujudiya” (“Vujud haqida risola”), “Pucolai fanoiyya” (“Fano haqida risola”), “Risolai battixiyya” (“Qovun haqida risola”), “Guli navruz” (“Navruz guli”), “Risolai bukoiyya” (“Yig'i haqida risola”), “Nafahotu us-solikin” (“Tariqat ahlining muattar bo'ylari”), “Risolai shaybiyya” (“Keksalik risolasi”), “Ganjnoma” (“Boylik haqida risola”), “Sharhi savodi-l-vajh” (“Yuz qoraligi iborasining sharxi”), “Sharhi ruboiyoti Ubaydiy” (“Ubaydiy ruboiylariga sharxlar”), “Zubdat us-solikin va tanbiyat us salotiyn” (“Soliklar sarasi va sultonlar tanbehi”), “Me'roj ul-oshiqiyn” (“Oshiqlar me'roji”), “Risolai boburiyya” (“Bobur xatiga javob”), “Risolai obvolil-ulamo va umaro” (“Olimlar va hukmdorlar ahvoli haqida risola”), “Risolai ilmiyya” (“Ilm haqida risola”), “Tanbixu-l-ulamo” (“Ulamolarni ogohlantirish”), “Mir'otu-s-safo” (“Soflik ko'zgusi”), “Risolai fathnoma” (“G'alaba risolasi”), “Risolai bayoni silsila” (“Naqshbandiya silsilasi xaqida risola”), “Risolai adab us-siddiqiyn” (“Siddiqlar odobi haqida risola”), “Silsilai us-siddiqiyn” (“Siddiqlar silsilasi”), “Risolai murshidu-s-solikin” (“Soliklar murshidi haqida risola”), “Voqelai xaqqoniyya” (“Xaqqoniy tush”), “Risolai bayoni voqea” (“Voqea bayoni haqidagi risola”), “Dar manoqibi Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyn” (“Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyni manoqibi”), bu asarning yana bir nomi “Risola dar sanadi Xojagoni tariqat”ir, “Risolai zikr” (“Zikr haqida risola”), “Risolai samoiya” (“Musiqqa xaqida risola”), “Risolai chahor kalima” (“To'rt kalima haqida risola”), “Munojot”, “Asror un-nikoh” (“Nikoh sirlari”), “Nasihatu-s-solikiyn” (“Tariqat ahliga nasihat”), “Sharxul-valadi sirru abiyhi” (“Farzand otasining sirridir” degan hadis sharhi), “Risolai odob us-solikin” (“Tariqat ahli odoblari”) [6 – B. 37-38].

Hazrat Mahdumi A'zam 1542- yilda Dahbed qishlog'ida vafot etgan va vasiyatlariga binoan o'zlari bunyod etgan bog'ning o'rtasidagi nok daraxti ostiga dafn etilgan. Hazrat Mahdumi A'zamning nabiralari Xoja Hoshim Kosoniyya qo'l berib murid bo'lgan Samarqand hukmdori Yalangto'sh Bahodir Mahdumi A'zam dafn etilgan dahma atrofini Nurota marmaridan devor oldiradi hamda ana shu dahmaning janubiy qismida 1619- yili hashamatli masjid va 41 hujrali madrasa qurdiradi. Yalangto'sh Bahodir vafotidan oldin jasadini Mahdumi A'zam qabrlarining oyoq tomoniga dafn etishlarini vasiyat qilgan. Hozirgi kunda Dahbed qo'rg'onidagi Mahdumi A'zam Kosoniy qabrlarining oyoq tomonida Yalangto'sh Bahodir va uning o'g'illaridan tashqari, Samarqand hukmdori Shoh Qosim va Afg'oniston shohlari Shoh Hidoyat va Shoh Saodatlar qabri ham joylashgan.

Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati va Oqdaryo tumani hokimiyatlarining rahbarliklari hamda moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari

tufayli Hazrat Mahdumi A'zam dahmalari va ul zot nomidagi muhtasham masjid qayta ta'mirlanib, obod ziyoratgohga aylantirildi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Namangan qadimdan ko'pdan-ko'p iste'dod egalarini yetishtirib bergan madaniyat va ma'rifat markazlaridan biridir. Bu makonda yashab ijod etgan har bir taraqqiyparvar yurtimiz ilm-fani, madaniyati rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. Shuning uchun ham, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "...Namangan azaldan ne-ne buyuk zotlar parvozigacha qanot bergan muqaddas zamin. ...Bu ko'hna yurtda tug'ilib ijod qilgan Maxdumi A'zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namongoniy, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda singari shoir va ma'rifatparvarlarning nomlarini xalqimiz hurmat bilan tilga oladi" [11 – B. 73].

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIOTLAR (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2001.
2. Turayev V. Maxdumi A'zam - mutafakkir. – T.: IBXMN, 2013.
3. Алоуддин Мансур. Бадоеус саноеъ фи тартибиш шароеъ. (Шариат қонунини тартиблашда гўзал санъатлар) // Ҳидоят. – 2012. – №. 3.
4. Ахсикент. Тузувчилар: Умматов Р., Юсупов И., Мирзалиев Э. – Т.: Mumtoz so'z, 2009.
5. Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. – Т.: Фан, 1967.
6. Зоиров Э. Махдуми Аъзамнинг фалсафий ва ижтимоий-сиёсий қарашлари: Фалсафа фан. номз... дисс.. – Тошкент: ЎзФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2007.
7. Исмоилов Ю., Рўзинов Б. Ахсикент – қадимий Фарғона пойтахти. – Наманган, 2013.
8. Исоқов Б. Тарих – тарбия таянчи. – Наманган, 2018.
9. Каттаев К. Махдуми Аъзам ва Дахбед. – Самарқанд: Сўғдиёна, 1994.
10. Комилов М. М. Мовароуннаҳр фикҳ илми ривожида Алоуддин ас-Самарқандийнинг ўрни ва “Тухфа ал-Фуқоҳо” асарининг аҳамияти: Фалсафа фан. номз... дисс.. – Тошкент, ЎзРФА, 2000.
11. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
12. Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи (IV асрдан XVI аср бошларигача). – Т.: Ғофур Ғулом, 2004.
13. Ноёб фикҳий асар // Ҳидоят. – 2011. – №. 12.
14. Нуриддинов А. Махдуми Аъзам Косоний. – Т.: Фан, 2008.
15. Содик Сайхун. Тўрақўрғоннома. – Наманган: Ибрат, 1992.
16. Тўраев Б., Муҳаммаджонова Ф. Саййид Аҳмад ибн Мавлоно Жалолиддин Хожаги Косоний Махдуми Аъзам. – Т.: Наврўз, 1995.
17. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. – Наманган, 2007.
18. Халилбеков А. Наманган адабий ҳаёти тарихидан // Наманган тарихидан лавҳалар. I китоб. – Наманган, 2010.
19. Ҳомиджон Ҳомидий., Аширов А., Умаралиев М. Косонсой тарихи. – Т.: EXTREMUM PRESS, 2010.

**FARG'ONA VODIYSINING O'RTA ASRLAR TARAQQIYOTIDA
TADBIRKORLIK FAOLIYATINING HUQUQIY VA IJTIMOYIY-
FALSAFIY JIHATLARI**

**LEGAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF
ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF THE
FERGHANA VALLEY DURING THE MIDDLE AGES**

**ПРАВОВЫЕ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В СРЕДНИЕ ВЕКА**

Ismoilov Ixtiyorjon Arzamjonovich

Farg'ona davlat universiteti, Falsafa fanlari bo'yicha PhD

Dadaboyev Farhodjon Fozilovich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
dadaboyevfarhod733@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida o'rta asrlarda shakllangan tadbirkorlik faoliyatining huquqiy tartibga solinishi va uning jamiyatdagi ijtimoiy-falsafiy maqomi tahlil etiladi. Maqola shariat qonunchiligi, tarixiy manbalar va islomiy iqtisodiy falsafa asosida yozilgan. Fiqh manbalari, tarixiy sayohatnomalar va zamonaviy tadbirkorlik nazariyalari asosida o'rta asrlar iqtisodiy faoliyati chuqur o'rganilgan.

Аннотация.

В статье анализируется правовое регулирование предпринимательской деятельности в Ферганской долине, сложившееся в средние века, и ее социально-философский статус в обществе. Статья основана на законах шариата, исторических источниках и исламской экономической философии. Глубокое исследование средневековой экономической деятельности, основанное на юридических источниках, исторических путевых записях и современных теориях предпринимательства.

Abstract.

This article analyzes the legal regulation of entrepreneurial activity in the Fergana Valley in the Middle Ages and its socio-philosophical status in society. The article is based on Sharia law, historical sources, and Islamic economic philosophy. The economic activity of the Middle Ages is deeply studied based on fiqh sources, historical travelogues, and modern entrepreneurial theories.

Kalit so'zlar

Farg'ona vodiysi, tadbirkorlik, huquq, shariat, ijtimoiy falsafa, o'rta asrlar.

Ключевые слова.

Ферганская долина, предпринимательство, право, шариат, социальная философия, средневековье.

Key words.

Fergana Valley, entrepreneurship, law, Sharia, social philosophy, Middle Ages.

Farg'ona vodiysi o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning muhim iqtisodiy va madaniy markazi sifatida rivojlangan. Savdo-karvon yo'llari, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi asosida shakllangan iqtisodiy tizimda tadbirkorlik asosiy o'rinni

egallagan. Shariat qonunlariga asoslangan bu tizimda adolat, halollik, mas'uliyat kabi ijtimoiy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etgan.

O'rta asrlardagi Farg'ona vodiysi – Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan hududlardan biri bo'lib, o'zining murakkab, lekin uyg'un jamiyat tuzilishi bilan ajralgan. Bu davrda vodiydagi shaharlar (Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan va boshqalar) savdo, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi markazlariga aylangan. Tadbirkorlik faoliyati ushbu jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lgan. Aholi o'rtasida mehnat taqsimoti, savdo-karvon yo'llari orqali olib borilgan aloqalar va mahalliy hunarmandchilik turlari vodiy iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lib xizmat qilgan.

Tadbirkorlikning huquqiy asoslari ko'p jihatdan shariat va urf-odat qonunlariga tayangan bo'lib, xususiy mulk daxlsizligi, adolatli savdo va mehnat huquqi kabi tamoyillar amaliyotda keng qo'llangan. Savdo ishlarida muhtasiblar, bozor nazoratchilari adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Bu esa, o'z navbatida, huquqiy tizim bilan axloqiy mezonlarning chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

“Har qanday taraqqiyotning asosida tadbirkorlik, ya'ni insonning yaratish va bunyodkorlik qobiliyati turadi. Biz tarixiy merosimizga tayanadigan, halol mehnat, adolat va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan tadbirkorlik muhitini yaratishimiz shart.” [1].

Ushbu fikrlar Farg'ona vodiysidagi tarixiy tadbirkorlik madaniyatiga ham to'laqonli daxldor. Chunki o'rta asrlarda ham tadbirkorlik nafaqat boyish vositasi, balki jamiyatga manfaat yetkazish, xo'jalik tizimini barqarorlashtirish, ehsonchilik va ijtimoiy ehtiyojlarni qoplash vositasi sifatida qaralgan. Mehnat madaniyati, halollik, mas'uliyat va jamoa oldidagi burch degan tushunchalar tadbirkor shaxsning asosiy falsafiy mezoni bo'lgan.

Shu ma'noda, bugungi kunda yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun o'rta asr tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-falsafiy merosini qayta o'rganish, ilmiy tahlil qilish va zamonaviy islohotlarga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar qo'llanildi. Manbashunoslik uslubida Ibn Battuta, Narshaxiy, Biruniy, Imom G'azzoliy va Ibn Xaldun asarlari o'rganildi. Zamonaviy tadbirkorlik nazariyalari bilan tarixiy modellar solishtirilib, klassik islom huquqiy-falsafiy tizimi bilan bugungi iqtisodiy siyosat o'rtasida o'xshashlik va tafovutlar tahlil qilindi.

Unda Farg'ona vodiysida o'rta asrlardagi tadbirkorlik faoliyatining huquqiy va ma'naviy-axloqiy jihatlari kompleks yondoshuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi nazariy asoslar va ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotda tarixiy manbalar asosida Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va tadbirkorlikning rivojlanishi tahlil qilindi.

Ibn Battuta o'z sayohatnomasida Farg'ona vodiysidagi bozorlar, hunarmandchilik markazlari va mehmonxona tizimi haqida shunday

yozadi:”Farg‘onada savdo-sotiq juda faol, har bir shaharda to‘rt kunlik bozor o‘tib, kishilar unda erkin ishtirok etishadi.” [2].

Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida shunday deydi:”Hunarmand va savdogarlar har bir mahallada uyushgan holda faoliyat yuritar edilar va har biri mutaxassisligiga ko‘ra tanilgan edi.” [3].

Biruniy esa iqtisodiy munosabatlarni madaniy an‘analar bilan bog‘lab, shunday ta‘kidlaydi: “Mamlakat taraqqiyotining asosi - uning hunarlari, ilm va savdosidir.” [4].

Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishda shariat qonunlari alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotda fiqh ilmiga oid manbalardan, xususan Imom G‘azzoliy va Ibn Xaldunning asarlaridan foydalanildi.

Imom G‘azzoliy tadbirkorlik faoliyatida halollik, niyat pokligi va inson manfaatini ta‘minlashni asosiy prinsip sifatida ko‘rsatadi:”Har bir kasb yoki hunar – agar u halol bo‘lsa, u ibodatga teng keladi.” [5].

Ibn Xaldun “Muqaddima” asarida tadbirkorlikning jamiyatdagi roliga alohida to‘xtaladi:”Xususiy mulkchilik va savdo jamiyatning tabiiy ehtiyoji bo‘lib, davlat bu jarayonga shunchaki to‘siqsiz erkinlik emas, balki mas‘uliyat va nazorat asosida yondashishi lozim.” [6].

Tadbirkorlik - bu faqat boyish vositasi emas, balki jamiyat oldidagi mas‘uliyatni his qilish, ish o‘rni yaratish, ehson qilish, tafakkurni rivojlantirish kabi ma‘naviy tamoyillarni ham o‘z ichiga oladi. Bu g‘oya “etika va iqtisod uyg‘unligi” tamoyili asosida baholandi.

Tadqiqotning yana bir muhim metodi - zamonaviy tadbirkorlik nazariyalari bilan o‘rta asr amaliyotini taqqoslashdan iborat bo‘ldi. Hozirgi kundagi erkin bozor iqtisodiyoti, liberal mulk huquqi va davlat bilan tadbirkor o‘rtasidagi munosabatlar tarixi modeli bilan taqqoslandi.

- Farg‘ona vodiysida tadbirkorlik faoliyati shariat va urf-odatga asoslangan huquqiy normalar bilan tartibga solingan.

- Bozorlar faoliyati muhtasiblar nazoratida bo‘lgan.

- Tadbirkorlik jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi axloqiy faoliyat deb qaralgan.

- Vaqf instituti orqali iqtisodiy tenglik saqlangan.

- Mehnat – ibodat sifatida qadrlangan.

Farg‘ona vodiysining o‘rta asr tadbirkorlik modeli bugungi global biznes muhitidagi axloqiy inqirozga qarshi muqobil falsafiy asos sifatida muhim. Islom huquqida “halol kasb – ibodat” degan tamoyil asosida barpo etilgan tarixiy model hozirgi tadbirkorlik etikasi uchun zarur namuna bo‘la oladi.

Farg‘ona vodiysidagi tadbirkorlik faoliyatining faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki muayyan ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy tizim bo‘lganini ko‘rsatadi. O‘rta asrlardagi iqtisodiy munosabatlar, xususan, xususiy mulkka egalik, savdo va hunarmandchilik faoliyatlari shariat qonunlari orqali aniq huquqiy asoslarga ega bo‘lgan. Bunda adolat, halollik, shaffoflik, mas‘uliyat va niyat pokligi kabi falsafiy prinsiplar muhim o‘rin tutgan. Bu esa tadbirkorlikni nafaqat shaxsiy boyish, balki ijtimoiy adolat va barqarorlikka xizmat qiluvchi vositaga aylantirgan.

Islom huquqi tizimida “Al-kasb al-xalol” - halol rizq topish konsepsiyasi tadbirkor faoliyatining ma’naviy asosi sifatida qayd etilgan. Imom G‘azzoliy ta’kidlaganidek, “Tijorat va hunar egalari halol mehnat bilan jamiyatga foyda yetkazsa, ularning amali ibodatga tengdir.” [7]. Bu e’tiqod asosida harakat qilgan tadbirkorlar nafaqat mol-dunyo orttirishga, balki jamiyatni barakali hayotga yetaklashga intilishgan. Shu bilan birga, tadbirkorlik jamiyatdagi moddiy ehtiyojlarni qoplash, xayriya ishlarini amalga oshirish va aholining ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lgan.

Ibn Xaldun esa bu holatni “ijtimoiy taraqqiyot manbai” deb batafsil izohlaydi:

“Iqtisodiy faoliyat – inson tabiatidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirishning tabiiy yo‘li bo‘lib, bu jarayonda davlat faqatgina nazarotchi va adolatni kafolatlovchi institutsiya sifatida harakat qilishi kerak.” [8].

Mazkur falsafiy yondashuv zamonaviy kapitalistik tizimdan keskin farq qiladi. Zamonaviy modellarda tadbirkorlik ko‘proq shaxsiy manfaat, foyda va raqobat asosida shakllansa, tarixiy Farg‘ona modelida – birdamlik iqtisodi, ijtimoiy manfaat, inson qadri, moddiy-ma’naviy barqarorlik kabi tamoyillar ustuvor bo‘lgan. Shu sababli, tadbirkorlik -bu faqat bozorda faoliyat olib borish emas, balki jamiyatning ma’naviy va iqtisodiy ehtiyojlariga mas’ul bo‘lishdir.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda ham mazkur tarixiy falsafani qayta jonlantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Tadbirkor - jamiyatning hal qiluvchi kuchi, faqat iqtisod emas, ma’naviyatni ham shakllantiradigan inson.” [9].

Shu bois, tadqiqot natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, Farg‘ona vodiysidagi tadbirkorlik modeli bugungi kunda faqat ilmiy emas, balki amaliy jihatdan ham qayta o‘rganilishi va tadbiriq qilinishi lozim. Bu model jamiyatda insonlarning ham moddiy, ham ma’naviy ehtiyojlarini barobar ta’minlashga yo‘naltirilgan.

O‘rta asrlar Farg‘ona vodiysidagi tadbirkorlik faoliyati – bu shaxsiy manfaat emas, balki jamoaviy barqarorlik, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy adolat asosida shakllangan iqtisodiy-falsafiy tizimdir. Bugungi O‘zbekistonda axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan tadbirkorlik modelini shakllantirishda ushbu tarixiy merosdan foydalanish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shu nuqtaiy nazardan Farg‘ona vodiysidagi o‘rta asr tadbirkorlik madaniyati – bu iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy-falsafiy tizimning o‘zaro uyg‘un va barqaror namunasidir. Bu tizimda tadbirkorlik faoliyati shaxsiy boyluk orttirish maqsadida emas, balki jamiyat manfaati va barqaror taraqqiyot yo‘lidagi mas’uliyatli vazifa sifatida namoyon bo‘lgan. Savdo va hunarmandchilik faoliyatlari shariat qonunlari bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan, jamiyatning ma’naviy-axloqiy mezonlari esa tadbirkorni halollik, adolat, inson qadri va ijtimoiy burch tamoyillari asosida tarbiyalagan.

Bugungi globallashuv jarayonlarida, axloqdan xoli raqobat muhiti, monopoliyalashuv, kapitalning beqaror taqsimlanishi, sog‘lom biznes muhitini izdan chiqarishi mumkin bo‘lgan sharoitlarda, aynan Farg‘ona vodiysidagi tarixiy

tadbirkorlik modeli juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tuzilmalar ham bugungi kunda “inson kapitaliga asoslangan tadbirkorlik”, “biznes etika” kabi g‘oyalarni faol ilgari surmoqda. Bu esa o‘rta asrlardagi islomiy iqtisodiy modeliga yaqin tushunchalardir.

O‘zbekistonda ham bugungi kunda axloqiy tadbirkorlik, huquqiy kafolatli iqtisodiyot, ijtimoiy sheriklik, hunarmandchilikni rivojlantirish kabi tushunchalar amaliyotga joriy etilmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Tadbirkor-mamlakat kelajagini belgilovchi asosiy kuch. Uning har bir qadami nafaqat bozor, balki jamiyat oldidagi mas’uliyat hamdir.” [10].

Shu ma’noda, tarixiy meros asosida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish – bu nafaqat milliy taraqqiyotning, balki global barqarorlik va insoniylik qadriyatlariga asoslangan taraqqiyotning ham muhim shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR. (REFERENCES)

1. SH.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – T.: “O‘zbekiston” nashri. 2021.
2. Ibn Battuta. “Rihla” – “Sayohatnoma”, Tunis nashri, 1355 yil, Arab tilidan inglizchaga tarjima: H.A.R. Gibb, London, Hakluyt Society, 1958. p. 278.
3. Абу Бакр Наршахий. “Таърихи Бухоро”. – Т.: Фан, 1989, 56-бет.
4. Абу Райхон Бируний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. – Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 1975. 201-бет.
5. Imom G‘azzoliy. “Ihyoi ulumiddin”, Qohira: Dorul Maorif, 1967, 2-tom, 84-bet.
6. Ibn Xaldun. “Muqaddima”, Beyrut: Dorul Fikr, 2005, 144-bet.
7. Ihyoi Ulumiddin, 2-tom, 84-bet, Qohira: Dorul Maorif, 1967.
8. Muqaddima, Beyrut: Dorul Fikr, 2005, 144-bet
9. SH.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – T.: “O‘zbekiston” nashri., 2021.
10. SH.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent: “O‘zbekiston” nashri. 2021. – B.118

ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ХУНАРМАНДЧИЛИГИДА МАРГИЛОНЛИК ТЎҚУВЧИ ХУНАРМАНДЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

THE ROLE OF MARGILAN WEAVERS IN THE HANDICRAFT INDUSTRY OF THE KOKAND KHANATE

РОЛЬ МАРГИЛАНСКИХ ТКАЧЕЙ В РЕМЕСЛЕННОМ ПРОИЗВОДСТВЕ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
ЎЗР ФА Тарих институти бош илмий ходими

Аннотация.

Мазкур мақолада Қўқон хонлигининг бутун даврида марғилонлик тўқувчи ҳунармандларнинг фаолияти, соҳанинг ривожланиши масалалари ҳамда халқ ҳунармандчилигида ўзига хос ўрни ва аҳамияти борасида сўз боради.

Abstract.

This article discusses the activities of Margilan weaver artisans throughout the entire period of the Kokand Khanate, the development of the weaving craft, and their unique role and significance in traditional folk craftsmanship.

Аннотация.

В данной статье рассматривается деятельность маргиланских ткачей-ремесленников в течение всего периода существования Кокандского ханства, вопросы развития ткацкого ремесла, а также их особая роль и значение в народном прикладном искусстве.

Калим сўзлар.

Қўқон хонлиги, Марғилон Ҳунарманчилик, тўқувчилик, ипак қурти, бўз, чит, фута, хоса, газлама.

Key words.

Kokand Khanate, Margilan, handicraft, weaving, silkworm, coarse cotton cloth, printed calico, striped fabric, embroidered silk, fabric

Ключевые слова.

Кокандское ханство, Маргилан, ремесло, ткачество, шелкопряд, боз (грубая хлопчатобумажная ткань), чит (набивной ситец), фута (полосатая ткань), хоса (вышитый шелк), ткань.

XVI-XIX асрнинг биринчи ярмида Туркистонда мураккаб сиёсий, ижтимоий-иқтисодий жараёнлар юз берди. Уларда тарихи узок ўтмишга бориб тақалувчи, иқтисодий ҳаётнинг йирик марказлари бўлган шаҳарлар муҳим роль ўйнадилар. Бундай шаҳарлар жумласига Туркистон хонликларида мавжуд бўлган Бухоро Самарқанд, Хива, Қарши, Тошкент, Қўқонлар билан бир қаторда Фарғона водийсининг йирик марказларидан бўлган Марғилонни ҳам киритиш мумкин.

Марғилон ҳам 16-19-юзйилликнинг биринчи ярмида Туркистоннинг бошқа шаҳарлари каби турли ҳунармандчилик соҳалари мавжуд бўлган, уларнинг айримлари тараққий этган, бошқалари эса ўз бошидан инкирозли босқичларини кечираётган йирик марказлардан бири эди. Шаҳарда турли ҳунар соҳиблари яшаб, ўз меҳнатлари билан ушбу марказ иқтисодий ҳаётининг ривожланишига муҳим ҳисса қўшганлар. Улар дид билан ҳудуднинг табиати, талаб ва одатларидан келиб чиққан ҳолда ўзларининг такрорланмас маҳсулотларини яратганлар.

Марғилонда Қўқон хонлигининг бошқа марказларидаги каби ҳунармандчиликнинг энг ривожлаган асосий соҳаларидан бири тўқимачилик эди. Марғилонлик тўқувчилар яратган кўпдан-кўп маҳсулот турларига нафақат ушбу шаҳар, балки қўшни қишлоқлар, бошқа шаҳарлар, мамлакатлар, дашт аҳли орасида талаб катта эди. Улар яратган маҳсулотлар орасида ип газламалар алоҳида ўрин тутган. 1813 йилда Қўқон хонлигига келган Ф.Назаров Марғилонда ип матолар ва кўплаб ишлаб чиқарилганлиги ва ипак қурти катта ҳажмда етиштирилганлигини қайд этган эди. Ип газламаларнинг ичида аҳолининг турли ижтимоий қатламлари орасида

карбас (бўз)га эҳтиёж катта бўлган. Унга нафақат Туркистон, балки унга туташ худудлар – дашт аҳли орасида эҳтиёж катта эди. 16-юзйилликда яшаган муаррих Фазлуллоҳ ибн Рўзбехоннинг таъбири билан айтганда, дашт аҳлига “кийим ва кафан”, “кўйлак ва кийим зарур бўлиб, уларнинг асосий қисмини карбас ташкил қилиб”, бу маҳсулотлар Туркистон шаҳарларидан, хусусан, Фарғона водийсидан ҳам етказилар эди.

Ип газламалар ичида чит алоҳида ўрин тутган. Бу газламани ишлаб чиқариш билан шуғулланган ҳунармандлар читгарлар деб аталган. Улар бир хил рангдаги бўз (карбас)га турли ранглардаги гулларни босганлар. Қолиплар ёрдамида бўзга гул босиш анча мураккаб иш жараёни бўлиб, у ҳунарманддан катта маҳоратни талаб этган [9. С. 66-67]. Бу жараёни Тошкент читгарлари мисолида кузатиш мумкин. 19-юзйиллик муаллифларининг қайд этишича, Тошкент бўзга гул босишнинг йирик марказларидан бирига айланган. Наманган, Андижон каби Қўқон шаҳарлари билан бир қаторда Марғилон ва Қашғардан Тошкентга жуда катта ҳажмда оқ бўз келтирилиб, читгарларга топширилар эди. Бу ҳунармандларнинг устахоналари шаҳар ва унинг атрофларида жойлашар ва “Читгархона” деб аталар эди. Матога гул босувчи читгарлар ўсимликлардан олинадиган маҳаллий бўёқлар - кўк, сафсар, мош ва қизил ранглардан фойдаланганлар. Читгарлар кўпроқ оила аъзолари, баъзи ҳолларда, ёлланма ишчилар меҳнатидан фойдаланганлар [2. С. 103]. Бу маълумотлардан шу нарса аён бўладики, 19-юзйилликнинг биринчи ярмида читга талабнинг ошиши натижасида ярим тайёр маҳсулот - бўз читгарлик кенг ривожланган марказларга бошқа шаҳарлардан ҳам келтирилган бўлиб, бу ишни савдогарлар ўз зиммаларига олганлар. Улар бу ишни буюртма асосида амалга оширганлар. Бу ҳолат Туркистон шаҳарлари ўртасида ҳунармандчилик соҳасида ўзига хос меҳнат тақсимоти юз берганлиги, бу жараёндан марғилонлик тўқувчи ҳунармандлар ҳам четда қолмаганлигидан далолат беради.

Марғилон Туркистонда ипак матолар ишлаб чиқариш кенг тараққий этган марказлардан бири эди. Қўқон хонлигининг ҳунармандчилиги ҳақида ёзган тадқиқотчилардан бири “Унинг эътиборга лойиқ ягона соҳаси Наманган, Қўқон ва Марғилон фабрикаларида ипак ва ярим ипак газламалар ишлаб чиқаришдир”, - деб ёзган эди [14. С.43].

Бу матоларнинг турлари ҳақида қуйидагиларни қайд қилиш лозим. Туркистон шаҳарларда ишлаб чиқарилган ипак матоларга уларнинг ўзида, қўшни шаҳарлар ва давлатларда эҳтиёж катта эди. Шундай газламалардан бири бахмал бўлиб, у 16-юзйилликда Самарқандда кенг ишлаб чиқарилган. Бу ҳақида Заҳириддин Муҳаммад Бобур “Самарқанднинг яна бир матои қирмизи маҳмалдурким, атроф ва жавонибқа элтарлар”, - деб ёзади [4. Б.46]. Самарқандда ишлаб чиқарилган бу мато Туркистоннинг бошқа шаҳарлари, хусусан, Қўқон хонлиги шаҳарларида ҳам кенг ишлаб чиқарилган. Бундай шаҳарлардан бири Марғилон бўлиб, 19-юзйиллик бошларида Қўқон хонлигига келган Ф. Назаровнинг кўрсатишича, унда тўқимачилик кенг

ривожланган эди. “Шаҳарда турли фабрикалар жойлашган бўлиб, уларда форс парчалари, бахмаллар ва турли Осие газламаларини тайёрлайдилар. Уларни Бухоро ва Қашғарга юборадилар”, - деб қайд этади Ф. Назаров [10. С. 49].

Марғилонлик тўқувчи-хунармандлар шунингдек, ипак газламалардан яна бири шойи-канаусни ҳам ишлаб чиқарганлар. Туркистон хонликларида бу мато тури ҳар хил номланган. Бухоро хонлиги шаҳарларида бу мато тури “канаус” деб аталган, Қўқон хонлиги шаҳарларида, хусусан, Марғилонда бу газлама “атлас” ёки “жиба-арқоқ” номлари остида машҳур эди [3. С. 514].

Қўқон хонлиги шаҳарларида кўп миқдорда ярим ипак газламалар ҳам ишлаб чиқарилган. Бундай газламалар жумласига 19-юзйилликда катта ҳажмларда ишлаб чиқариш йўлга қўйилган “пари-поша” матосини киритиш мумкин. Бу газлама айрим ҳолларда соф ипаклик бўлиши ҳам мумкин эди. Бундай ҳолда бу газламани тўқиш учун олий навли ипакдан фойдаланилар эди [3. С. 514]. Қўқон хонлиги шаҳарларида “оқ чизиқли кўк мато – “пари-поша” ва шунингдек, “тўқ чизиқли оқ мато – “банорас” ҳам тўқилган. Бу матоларни ишлаб чиқаришда жун ва ипакдан кенг фойдаланганлар. Улардан паранжи ва чакмон тикилган [11. С. 124].

Наманган, Қўқон ва Марғилоннинг тўқувчилик устахоналарида адрас ва бекасаб ҳам тўқилиб, улар ярим ипак газламалар турига кирар эди. 19-юзйиллик муаллифларининг кўрсатишича, уларнинг шу номдаги Бухоро газламаларидан сифати анча пастроқ бўлсада, бу матоларга талаб катта эди [14. С. 43].

Қўқон хунармандчилиги ҳақида ёзган муаллифлардан бири “Уни турли деб бўлмайди. Унинг диққатга сазовор ягона соҳаси бу Наманган, Қўқон ва Марғилон фабрикаларида ипак газламалар ишлаб чиқаришдир. Бу газламалар шойи (канаус), адрас ва бекасабдир. Охирги иккитаси ярим ипакдир. Уларнинг шу номдаги Бухоро газламаларидан сифати анча пастроқ”, - деб ёзади [14. С. 43].

Қўқон хонлиги марказларида кўп миқдорда жун газламалар ҳам ишлаб чиқарилган. 19-юзйиллик бошларида Қўқон хонлигига келган ҳиндистонлик Мир Иззатулланинг гувоҳлик беришича, Марғилонда катта ҳажмда форсча - курк, туркча - тибит, деб аталадиган шол рўмоллар тўқишда ишлатиладиган жун ишлаб чиқарилган. Бу ерда кашмир шол рўмоллари каби шол рўмоллар ҳам тўқилган [13. С. 48].

Тўқувчи-хунармандлар шунингдек, саллалар ва белболар учун ишлатиладиган майда кўк тўртбурчак шакли туширилган ип газлама – фута, саллалар сифатида фойдаланилган оқ рангдаги “хоса” деб аталган газмол турини ва дока ҳам тўқиганлар. Дока ҳам хосага ўхшаган юпқа мато бўлиб, 19-юзйиллик муаллифи “хоса билан доканинг фарқи газламанинг энида эди; дока хосага қараганда юмшоқроқ эди”, - деб қайд этади [3. С. 513]. Асосан салла учун ишлатилган доканинг “оқ ва кўк” хиллари ҳам машҳур эди [6. С. 148].

Қўқон хонлиги шаҳарларида, хусусан, Марғилонда кийим-бош ишлаб чиқаришга ихтисослашган ҳунармандчилик соҳалари ҳам кенг ривожланган эди. Кўпдан-кўп ҳунармандлар шаҳар, қўшни қишлоқлар, бошқа шаҳарлар, дашт аҳли ва баъзи ҳолларда айрим мамлакатлар аҳолиси эҳтиёжларини қондирадиган маҳсулотлар яратганлар. Бундай ҳунармандлар жумласига бош кийим, хусусан, дўппи тикувчилар, оёқ кийим тикувчи - кафшдўзлар, этикдўзлар ва бошқаларни киритиш мумкин.

Тикувчи-ҳунармандлар томонидан катта ҳажмларда ишлаб чиқарилган кийим-бош турлари жумласига турли матолардан тикилган тўнлар, рўмоллар, қийиқлар, дастрўмолларни киритиш мумкин. Турли матолар - ип ва ипакдан тайёрланган бу кийим-бошга ҳар хил ишлов берилган. Айниқса рўмоллар, қийиқлар, дастрўмоллар ва дўппиларга кашталар билан безак беришга катта эътибор қаратганлар. Бу иш билан кўпроқ аёллар машғул бўлар эдилар. Бухоро аёллари мисолида 19-юзйилликнинг 20-йилларида Е.К. Мейендорфнинг “улар шойи рўмолларга йўрмадўзлик билан Ҳофиз асарларидан олинган шеърий парчаларни битадилар”, - деб ёзган қайди Туркистоннинг бошқа шаҳарлари аҳолиси ҳам учун характерли ҳолат эди [8. С. 117]. Қийиқлар, рўмоллар ва дўппилар йўрмадўзлик билан безатилиб, бозорларда сотилгани, бу ҳунар тури билан кўпроқ уйларда ва асосан аёллар шуғулланганини Туркистоннинг бошқа шаҳарлари, жумладан, Марғилон мисолида ҳам кузатиш мумкин.

Қўқон хонлигининг турли марказларида, хусусан, Марғилонда ҳам нафақат кийим-бош, балки кундалик турмуш учун зарур бўлган уй-рўзғор анжомлари - кўрпа, кўрпача ва ёстиклар ишлаб чиқарилувчи ҳунар соҳалари ҳам ривожланган ва уларда машғул бўлган ҳунармандлар томонидан яратилган маҳсулотлар билан кенг савдо амалга оширилган эди. Айниқса, инжиқ таабли юқори табақа вакиллари, аслзодалар учун ишлаб чиқарилган бу уй-рўзғор анжомлари кўп ҳолларда айнан ипак матолардан тикилган. Бунда марғилонлик ипакчи ҳунармандларнинг ҳиссаси катта эди.

Ипакчиликда доимо тут баргига эҳтиёж катта бўлган. Бу эҳтиёжни қондиришда аҳоли ўз томорқалари ва далалари атрофига тут дарахтларини экиш ва ипакчиларни тут барги билан таъминлашга ҳаракат қилганлар. Айрим ҳолларда тут барги билан ҳам савдо қилинган. Туркистонда ипакчилик кенг ривожланган ҳудудларда “бозори барги тут” номи билан машҳур бозорлар баъзи манбаларда эслатиб ўтилади. Жумладан, 19-юзйиллик ўрталарида Самарқандда бундай бозорлар мавжуд бўлиб, ипак қуртини боқиш билан машғул бўлган шахслар барг танқислиги сезилганда уни бу ердан сотиб олиш имконига эга бўлганлар. Шаҳардаги Шердор мадрасаси ёнидаги кўчат бозорида эса бошқа дарахтларга қараганда тут дарахтининг “балхий” ва “хоразмий” навлари кўп миқдорда сотилган [1. С. 516]. Бундан ташқари, ипакчилик билан фаол шуғулланувчи ҳудудлардаги шаҳар бозорларида мавсуми келганида ипак қурти уруғи билан кенг савдо амалга оширилган. 19-юзйиллик бошларида Қўқонда бўлган Ф. Назаров “Биз шаҳарга кирганимизда ҳамма бозорлар ипак қурти уруғи солинган қутилар

билан тўла эди”, – деб қайд этади [10. С. 51]. . Шу билан бирга ушбу муаллифнинг таажубга солган бир ҳолат ҳақида тўхтаб ўтиш жоиз, деб ҳисоблаймиз. Унинг ёзишича, ипак қуртни бозордан сотиб олинганидан сўнг аёллар уларни 12 кун давомида ҳўл матога ўраган ҳолда кўкракларининг тагида олиб юрганлар. Унда ипак қуртини боши кўриниши билан офтобга қўйганлар. Бунда ҳам уларни ҳўл матога ўраб қўяр ва уларни тут барги билан озиклантирар эдилар.

Хонликда ипак жуда катта ҳажмларда етиштирилган. Шоҳидлардан бирининг гувоҳлик беришича, бу ерда етиштирилган ипак қозоқ дашти, Бухоро хонлиги ва бошқа ерларга олиб кетилганидан сўнг ҳам унинг катта қисми хонликда қолар эди.

Ипакни, матоларни бўяш, одатда, махсус устахоналар ёки ҳунармандларнинг уйларида амалга оширилган. Бўёқчилик устахоналари Туркистонда мавжуд бўлган анъаналарга кўра кўпгина марказларда асосан бозор яқинида ёки улар худудида жойлашар эди [9. С.80-81]. Шу билан бирга, бўёқчилар ўз ҳунарлари билан асосан шаҳар маркази ёки бозорлардан ташқари унинг чеккаларида сувлар – ариқлар бўйида ҳам шуғулланганлар.

Ипак газламалар ишлаб чиқариладиган устахоналар қандай бўлган, деган савол ҳам бу ерда ўринлидир. Марғилондаги ипак газламалар ишлаб чиқариш устахонасининг 19-юзйиллик охирларига оид куйидаги тавсифига эгамиз: “Тўқиш жойи шипдан кичик тешиқлар орқали ёритиладиган ярим қоронғи саройда жойлашган. Ерга қазиб ўрнатилган қозонлари билан бўёқхона ҳам унча катта қизиқиш уйғотмайди, ўтин ёқишдан чиққан тутун фақат очиқ эшиқлар орқали чиқиб кетади [15. С. 54].

Бўёқчилар нафақат тайёр маҳсулот – газлама турларинигина эмас, балки тайёр ипакни ҳам бўяшга ихтисослашган эдилар. Улар асосан ҳам ипак ва пишитилган ипакни турли рангларга бўяр эдилар. Бу соҳа вакиллари кўп ҳолларда тўқувчилар ёки ипак билан савдо олиб борувчи маҳаллий савдогарлар буюртмаси асосида иш олиб борар эдилар [6. С.160]. .

Туркистон хонлиқларида, хусусан, Қўқонда ҳам бўёқчилар газлама, ип ва ипакни бўяшда турли ранглардан фойдаланганлар. Бўёқларни тайёрлашда асосан турли рангларни берувчи маҳаллий табиий воситалардан фойдаланганлар. Хусусан, қизил ранг бериш учун рўянни ишлатганлар. Сарик рангни испаракдан, тут дарахтида ўсувчи пўқакдан сарғимтир барг рангга бўяшда, маҳаллий боғларда ўсувчи дарахтдан барг ранг – тухмак, шойини қора рангга бўяшда ишлатиладиган ранг гулхайридан ва бошқалардан олинган [7. С.209-210]. Гули-махсардан эса пушти ранг бўёқ олганлар [8. С.115-116]. Шу билан бирга, бўёқчилар ишлатган ранглар ичида қирмиз бўёғи бўлиб, уни топиш ва тайёрлаш анча мураккаб ҳамда машаққатли жараённи ташкил этган. У қирмис деб аталувчи ҳашаротдан олинар эди. Флорио Беневени “чўлда ҳашаротларнинг биридан қирмиз деб аталувчи бир қимматбаҳо бўёқ олинади, – деб гувоҳлик берар экан, – яҳудийлар бу ҳашаротларни эзиб, ушбу бўёқни оладилар”, – деб қўшимча қилади [12. С.85]. Бу бўёқ тури бошқа хонлиқларга ҳам етказилган.

Фарғоналик хунармандлар, Туркистоннинг бошқа хонликларидаги каби, бошқа юртлардан келтирилган бўёқлардан ҳам фойдаланганлар. Жумладан, Туркистонга Ҳиндистондан шамшид дарахти – “чўб-и сандал” келтирилган [4. С.78]. Ундан маҳсулотларни кўк ва жигаррангга бўяшда фойдаланилган. Чет мамлакатлардан келтириладиган яна бир бўёқ тури – бақам бўлиб, ундан бўёқчиликда тўқ гунафша ва қизил ранг сифатида фойдаланилган. 19-юзйилликка оид маълумотларга кўра, Туркистонга “қизил бақам” ва “қора бақам”лар ҳам келтирилган [7. С.209-210].

Матоларни бўяшда писта дарахтидан олинадиган сарғиш кичкина уруғлар – бузғунчдан ҳам фойдаланганлар. Бўёқчилар маҳаллий бузғунч билан биргаликда четдан олиб келинган бузғунчдан ҳам кенг фойдаланганлар. 19-юзйилликнинг 20-йилларига оид маълумотларига кўра бузғунч Бухорога Машҳаддан келтирилган ва у боёқ хонликларга ҳам элитилган [8. С. 115].

Туркистонга келтириладиган бўёқ воситаларидан энг кўп тарқалгани – нил (индиго) бўёғи бўлиб, у кўплаб миқдорда Ҳиндистондан келтирилар эди. У билан асосан мато ва бошқа нарсаларни қора ёки тўқ кўк рангга бўяшда фойдаланилар эди. Нил буёғининг Туркистон шаҳарларига келтирилиши 18-юзйилликнинг иккинчи – 19-юзйилликнинг биринчи ярмида жуда ошди. Айниқса, 19-юзйилликнинг биринчи ярмида Қарши, Шаҳрисабз, Бухоро, Хива ва бошқа шаҳарлар қатори Қўқон хонлигидаги марказлар карвонсаройлари бу мол билан тўла эди. Бу шу даврда айнан мана шу бўёқ турига талаб ошганлиги ва ўз навбатида бўёқчилик ва тўқимачиликнинг кенг кўлам ёйганлигидан далолат беради.

Шундай қилиб, 16-19-юзйилликнинг биринчи ярмида яратилган манбалар маълумотлар бевосита ёки билвосита тарзда бўлсада Қўқон хонлиги бошқа марказлари каби Марғилонда турли-туман хунармандчилик соҳалари кенг ривожланганлигини кўрсатади. Шаҳар хунармандлари ўзлари яратган турли-туман газламалар, кийим-бош, уй-рўзғор буюмлари – кулолчилик, темирчилик, дурадгорлик маҳсулотлари, озик-овқат турлари билан шаҳар аҳли, қўшни қишлоқлар, бошқа шаҳарлар ва ўзга юртлар аҳолисини эҳтиёжини қондирганлар ҳамда ушбу марказ, қолаверса, хонлик иқтисодий тараққиётига муҳим ҳисса қўшганлар.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар (REFERENCES)

1. Адамолли Ю. Разведение шелковичных червей в Средней Азии//Материалы для статистики Турк. края. – Спб., 1872. – Вып. 1.
2. Гейер И., Назаров И. Кустарные промыслы в Ташкенте. Тетрадь 1. – Т.: Изд. В.М. Ильина, 1903.
3. Гребенкин А. Ремесленная деятельность таджиков Зарафшанского округа // Материалы для статистики Турк. края. – Спб., 1872. – Вып. 1.
4. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). – М.: Наука, 1983.
5. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома/ Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Т.: Юлдузча, 1990.

6. Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов Самаркандской области // Справочная книжка Самарканд. области. Вып. V. – Самарканд, 1897.
7. Краузе И.И. Заметки о красильном искусстве туземцев // Рус. Туркестан. – М. – 1872. – Вып. II.
8. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975.
9. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла Самарканда и Бухары в XVI в. – Т.: Фан, 1976.
10. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – М.: Наука, 1968.
11. Пашино П.И. О фабричной и торговой деятельности в Туркестанской области // Изв. Имп. Рус. Геогр. о-ва. – Спб., 1867. – Т. 3. – № 4.
12. Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. – М.: Наука, 1986.
13. Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство в 1812 году // Тр. САГУ. Нов. сер. Вып. LXXVIII. Ист. науки. Кн. 11. – Т., 1956.
14. Хорошхин А.П. Очерки Кокана // Сб. ст., касающихся до Турк. края А.П. Хорошхина. – Спб., 1876.
15. Щербин-Крамаренко Н. По мусульманским святыням Средней Азии (Путевые заметки и впечатления) // Справочная книжка Самарканд. обл. в 1896 г. – Самарканд, 1896. – Вып. IV.

QO‘QON XONLIGI HUDUDIDA TOG‘- KON ISHLARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TARIXI

ГОРНОЕ ДЕЛО НА ТЕРРЕТОРИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА И ЭТАПЫ ЕГО РАЗВИТИЕ

MINING IN THE TERRITORY OF THE KOKAND KHANATE AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT

Turayeva Sayyora Rustambayevna

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik Universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası professori, tarix fanlari doktori (DSc)

e.mail: turayevasayyora9@gmail.com

Tel: +998 94 619 85 79.

Аннотация.

В статье на примере золота, серебра, свинца, железа, соли, лазурита, селитры, серы, нашатыря, ртути изучены способы добычи золота, серебра, свинца, железа, выплавка руды и несколько способов добычи полезных ископаемых в Кокандском ханстве. На основе материалов различных источников были проанализированы способы и традиции добычи полезных ископаемых. Проанализированы сведения об изменениях в развитии горного дела в XVI-XIX веках Кокандском ханстве разделении труда в горном деле.

Ключевые слова.

Способы горного дела, выплавка руды, золото, серебро, свинец, железо, соль, лазурит, селитра, сера, нашатырь, ртуть, добыча полезных ископаемых.

Abstract.

In the article, using the example of gold, silver, lead, iron, salt, lapis lazuli, saltpeter, sulfur, ammonia, mercury, methods of mining gold, silver, lead, iron, ore smelting and several methods of mining in the Kokand khanate are studied. Based on materials from various sources, methods and traditions of mining were analyzed. Information about changes in the development of mining in the 16th-19th centuries in the Kokand khanate, the division of labor in mining is analyzed.

Key words.

Mining methods, ore smelting, gold, silver, lead, iron, salt, lapis lazuli, saltpeter, sulfur, ammonia, mercury, mining.

Qo‘qon xonligi tarixan Farg‘ona vodiysi hududlari bo‘lib, tog‘lar bilan o‘ralgan tabiiy ma‘danlarga boy joy hisoblanadi. Manbalarda o‘tmishdagi Qo‘qon xonligi Turkistonning sharqiy qismida joylashgan g‘arbdan Xiva va Buxoro bilan, janubda Qorategin, Darvoz va Ko‘lob bilan, sharqda Qoshg‘ar chegaradosh ekanligi qayd etiladi. Avvallari “Farg‘ona” deb nom olgan viloyat Sirdaryoning chap qirg‘og‘i bo‘yi va Qorategin o‘zanida joylashgan. Bu o‘lkaning Namangan shahari katta shahar bo‘lib, boshqa shaharlari kabi Sirdaryoning o‘ng sohilida joylashgan. Asosiy shaharlar joylashuvi to Alatau tog‘igacha boradi.

Xo‘jand tarixda mustaqil boshqaruvdagi hudud bo‘lib, XIX asr birichi choragida Qo‘qon xonligiga bo‘ysundirilgan. O‘ratepa viloyati Xo‘jand va Buxoro xonligi oralig‘ida joylashib, avvallari u ham mustaqil bo‘lgan 1813 yildan Qo‘qon xonligiga bo‘ysundirilgan hudud bo‘lgan. Qurama Sirdaryoning o‘ng sohilida Xo‘jand va Toshkent oralig‘ida joylashgan. Azret Qo‘qonning eng shimoliy viloyati bo‘lib, Bad-bah dala yoki Och qolgan dashtiga tomon cho‘zilgan. Balxash ko‘li oralig‘idagi yerlar Burutomi yoki Yovvoyi toshli qirg‘izlar yerlari bo‘lgan. Billur tog‘ning sharqiy yon bag‘irlari, ko‘chmanchi qirg‘izlar yerlari Sharqiy Turiston hududlariga Qo‘qonga tegishli bo‘lgan. Qoratagin, Darvoz, Ko‘lob va Shugian, Billur tog‘ning g‘arbiy burilishi joyidagi yerlar 1830 yilda Qo‘qon honligiga bo‘ysundirilgan [1:177]. Ushbu tarixiy hududda manbalarda quyidagicha qaydlar mavjud. Xususan, 982 - 983 yillarga oid “Hudud ul- olam” asarida: “Farg‘ona- katta va obod nohiyat, unda noz-ne‘matlar farovon erur: tog‘lar ko‘p, dashtu shaharlari, oqar suvlari bor. Turkistonning eshigidir. U yerga ko‘plab turk qullar keltiriladi. Tog‘lari *oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, novshadil (ammiak), simob, chirog‘ [sang], poy zahr toshi (bezoar), magnit toshi* va [turli]. minerallarga boy: u yerda tabarxun va antiqa dorilar tayyorlashda ishlatiladigan giyohlar bor. Qadimda Farg‘ona podshohlari muxtoriyat [huquqiga ega]. podshohlardan bo‘lganlar va ularni dehqon deyishgan [2:15].

Chirog‘ [sang]. - yonartosh- fors, toshpaxta, yoki qora mum deb ataluvchi neft, arab tilida u *hajar al- fatala* deb ataladi [3:186]. M. Masson fikriga ko‘ra, bu atama asbestga nisbatan ishlatilgan. Beruniy fikriga ko‘ra, bu yerda ozokerit nazarda tutilgan. Bu toshga yog‘ surtilsa, u cho‘g‘ga o‘xshab yongan. Uning hajmi kamayganda, uni olovga tashlasa, u yana o‘z holiga qaytgan. Al-Moqaddasining yozishicha, O‘rta asrlarda undan tosh dasturxonlar ishlab chiqarilgan, agar kir bo‘lsa, uni olovda yondirishar va uning kirlari ketib, yana toza bo‘lgan. Yonish xususiyatiga ega bo‘lgan tosh so‘nggi asr manbalarida Maxmud ibn Vali ham qayd etilgan [4:23; 65; 92]. Badaxshonda bu tosh XX asr boshlarida ham ma‘lum bo‘lib,

Gumay va Darvoza tog'laridan olingan. Bu yerdagi Qal'ai Vamar qishlog'idan quyiroqda joylashgan bir tog' Fatila sang, ya'ni "fatila toshi" deb ataladi. Odamlar bu toshni fitil sifatida ishlatganlar, bu toshlardan bittasi bir yilga yetar edi [5:30-31]. Yana "Chadg'al [6]. - Farg'onadagi nohiyat, tog'-daralarda joylashgan: shaharchalari bor. Qishloqlari ko'p. U yerda qo'rg'oshin qazib olinadi. Ma'danlar bor. Ko'plab qo'y boqiladi", - deb xabar beriladi [2:15]. Mazkur vodiya tegishli bo'lgan "Axsikat [7]. - Farg'onaning qasabasi. Amir va mas'ul a'yonlarning qarorgohi erur: katta shahar, Xashart daryosi bo'yida joylashgan: tog' etagida. Uning tog'larida kumush va oltin konlari ko'p. Odamlari musallasni ko'p ichadi [2:16]. "- deb ta'riflanadi. Ushbu vodiya oid Yasho'x- shaharchasi bo'lib, u yerdan simob [qazib]. olinganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Qo'qon xonligi xududiga tegishli Toshkent viloyati Ohangaron vodiysi, qadimdagi Iloq haqidagi qiziqarli ma'lumotlar diqqatga sazovordir. "Iloq - katta nohiyat, tog' va cho'l oralig'ida joylashgan. Aholisi ko'p, ekinzorlari bor, obod joy: odamlari oddiy. Unda shahar va rustolar ko'p. Rustolar aholisida ko'proq oq kiyimlilar odati bor. Ular jangavor va qat'iyatli. Tog'larida kumu shva oltin koni bor. Uning hududi Farg'ona, Jadg'al (Chadg'al) va Choch hamda Xashart daryosi bilan tutash. Bu nohiyat hokimlarini Iloq dehqonlar muhtoriyat [huquqiga ega]. hokimlar edi",-deb yozilgan [2:17].

XVII asr oid Muhammad Haydarning "Shujoi Haydari" asarida "Turonda ming qavmi odamlarining ko'pchiligi oltin qazib olish bilan shug'ullanadi. Ming qavmi yashaydigan hududlarning pastki qismlarida tog'lar joylashgan. Ushbu tog'larda feruza va la'l, oltin mavjud. Bu hududga Xifchoq (Qipchoq) yerlari ulanib ketadi va tog'lar mazkur hududgacha cho'zilgan. Bu mamlakat yerlari serhosil va o'tloqlari ko'p, oqava suvlari serobdir. U yer aholisi bahodir bo'lib, qizil va oq tanlidir. Bu yerlar Turon podshohlari boshqaruvidagi tog'li hududlardir. Bu tog'lardan la'l qazib olinadi. Bu viloyat juda go'zal va oboddir" [8:7b. v]. degan ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Muhammad Haydar Farg'ona tog'laridan feruza, la'l, oltin qazib olinganligi haqidagi ma'lumoti boshqa manbalarda ham o'z tasdig'ini topgan.

Sayid Muhammad Tohir ibn Abul Qosim tomonidan 1640- yilda yozilgan "Ajoyib at-taboqat" ("Yer tabaqalarining ajoyibotlari") asarida "Farg'ona tog'larida oltin, mis, temir, simob, feruza, bisiyordir" - deb eslatib o'tadi [9:171b.v]. U fikrini davom ettirib, "Farg'ona tog'larida qishda iliq haroratli havo, yozda esa salqin bo'ladi. Oltin va kumush kabi qimmatbaho ma'danlar u yerdagi tog'dagi g'orlarda ko'p topiladi. O'shda navshadil koni bor. Farg'ona, Movarounnahr va Turkiston shaharlari yaxshi ishlarga barakali joylardir" - deb qayd etadi. Xonlikning turli hududlarida joylashgan konlar haqida tarixiy manbalar talaygina ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularga ko'ra, Namanganning sharqida, Ketmontepa bo'ylab temir qazib olinishi haqida ma'lumotlar mavjud. Chust qishlog'i aholisi po'lat eritgan. Toshkentdan 65 km uzoqlikda joylashgan Burchmulla qishlog'i yaqinidagi tog'lardan sifatli ma'dan qazib olingan [10:2]. Toshkentliklar Qoratov tog'larida qazib olingan temirdan yaxshi cho'yan eritganlar. Bunday cho'yan idish-tovoq tayyorlash uchun yaroqli bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, temir rudasi yaxshi tozalanmaganligi sababli aholining oz qismigina temirdan foydalangan. Qazib olingan rudaning bu miqdori ko'proq mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yetarli bo'lmaganligi uchun toshkentliklar Rossiyadan temir sotib olganlar. Qo'shota vodiysida, Koson daryosidan 4 km. masofada temir qazib olingan va eritilgan [11:33]. Tuyuqsuv soylaridan ham ma'dan qazib olingan, keyinchalik Qashqasuvda qayta ishlangan, u yerda eritish pechlari bo'lgan [11:157].

Manbada konlar joylashgan yana bir hudud bu - "Kuhisim" tilga olinadi. Ya'ni, "Kuhisim – shaharcha, tog' yon bag'rida. Uning tog'ida kumush koni bor". Bu manzil Nishboshsoyning bo'yida, Qurama tog'lari etagida joylashgan o'rta asr aholi maskani. Hozirgi aholi qadimgi shahar o'rnini Qo'rg'ontepa deb ataydi. Manbada Daxkas shaharchasi "tog'larida margimush [qazib]. olinishi haqida eslatib o'tiladi [2:17]. O. Burievning aniqlashicha, Daxkas-Daxket- Ohangaron daryosining vodiysining yuqori havzasida joylashgan eng baland tog' manzilgohi. Dukentsoyning o'ng sohilida, hozirda u yerda Dukent qishlog'i bor.

Qo'qon xonligi tarixiy hududlariga tegishli yana bir kon Sanglinj tog' etagida joylashgan: Badaxshon yoquti va la'li (konlari) ana shu tog'da. Kon yaqinida issiq ko'l ham bor bo'lgan [2:21].

X asr Ibn Havqal Farg'ona konlari haqida quyidagilarni xabar beradi, "... Farg'onada Naqod, Axsikat va boshqa [shaharlar]. ning nohiyalarida oltin va kumush konlari [bor]. *Simob* Suxda, uning tog'larida [qazib]. olinadi. Yuqori Nayso nohiyasida *qatron, toshpaxta, oltin, kumush, feruza [toshi]. temir, sariq mis va qalay* konlari [bor]. Asbarada qora toshlardan [iborat]. tog' bo'lib, bu [toshlar]. ko'mirga o'xshab yonadi. Ularning kuli bilan kiyimlar oqartiriladi. Asbarada [rang-barang]. *slyuda* tog'lari ham bor. Uning bir qismi saqichga o'xshash qora, boshqasi – ochiq qizil, uchinnchisi- och sariq. Farg'ona tog'larida at- tabarxun o'simligi [o'sadi], uning urug'lari har xil mamlakatlarga olib ketiladi, shuningdek al-kuzanjon [o'simligi]. ulardan boshqa hech qaerda bo'lmaydi. Bu nohiyalarda va turklarning nohiyalarida al- Buttam [tog'lari]. idagi kabi ko'p miqdorda novshadil olinadi." [13:82].

Oltin konlari asosan 3 yerda – Axsikat yaqinidagi Kosonsoy vodiysida, Naqod tog'lari (Qubo yaqinida) va Yuqori Nayso tumani (So'x vodiysi)da to'plangan [14:29].

Simob so'zi fors tilida "kumush suv" ma'nosini bildirgan. Bu ma'dan uchuvchanligi tufayli "ruxlar" guruhiga kiritilgan bo'lib, Utorid (Merkuriy) sayyorasiga nisbatan qilingan. Qadimgi fors tilida simobga nisbatan *jiva* so'zi ham ishlatilgan [15:90-94]. Massonning yozishicha, So'x va Isfara orasidagidavonlardan biri hozirgacha Simob deb ataladi. Qadimgi simob konlarining izlari O'shdan tortib to Xo'ja Baqir'onsoygacha bo'lgan keng hududda hozir ham ko'plab uchraydi [14:29].

"*Slyuda*" - shaffof mineral. Bu tosh talq deb ham atalgan bo'lib, uning nomi qadimgi fors tilidagi talk so'zidan olinagan. Talk oson ishlov beriladigan tog' jinsi bo'lib, asosan uy ro'zg'or buyumlari (qozonlar) yasa shva imoratlarni bezash

ishlarida qo'llanilgan. Jizzah va Nurota atroflarida ham ko'p talk konlari izlari topilgan [13:300].

Amerikalik diplomat Yujin Skaylarning yozishicha, XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoga sayohati davomida Qo'qon haqida ko'rgan-kechirganlaridan quyidagilarni qayd etadi: "biz o'tgan turli imoratlar ichida zarbxonada ishchilar pul emas, egar- jabduqlar uchun kumush bezaklar yasashar, bizga ma'lum qilishlaricha, zarbxona ustasi saroy zargari ham hisoblanib, xon buyurtmasiga ko'ra talab qilingan kumush yoki oltindan tayyorlangan kichik narsalarga ishlov berar edi. Boshqa xona qurol-aslaha quyishga moslashgan bo'lib, bir qancha qurollar ko'zga tashlanar va ular endigina tayyorlangan edi. Qurol-aslahaning boshqa bir xonasi Berdan soyli miltiqlarni yasashga mo'ljallangan" [16:254]. Qimmatbaho metallaga ishlov beruvchi hunarmandlar zargarlak, egar jabduq yasash, pichoqlarga qimmatbaho toshlar qadash, tanga zarb qilish ishlaridan ham boxabar bo'lishganligi diqqatga sazovordir. Mahaliy ustalar, metall bilan, qimmatbaho toshlarga ishlov berish faoliyati bilan bog'liq hunarmandlar o'z mahsulotlarini mahalliy konlardan olingan xom ashyodan tayyorlagan. Xususan, pichoqlar dastasiga ishlatiladigan toshlar ham mahalliy konlardan olingan.

Bobur O'sh haqida yozgan ma'lumotida: "Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu tog'da paydo bo'ldi: pichoq dastasi va tikband va ba'zi nimalar qilurlar. Xeyli yaxshi toshdur. Farg'ona viloyatida safo va havoda O'sh chog'liq qasaba yo'qdur." deb xabar beradi [16:268].

XIX asr o'rtalariga oid manbalarning birida Sirdaryoning yuqori qismi va unda oqib keluvchi daryo irmoqlari atrofidagi qum oltinga boy bo'lib, unda sof tabiiy oltin ko'p topilgan. Shunday tabiiy oltinga boy hudud Qoshg'ar davonda, Qo'qonning janubida ham topilgan. Ushbu yerlarda tog'li tojik aholisi yashaydi. Bu yerning aholisi daryodan hamda bulo va chashmalar atrofidan ko'p oltin topib, uni sotish uchun Qo'qon va Marg'ilonga olib keladilar. Chirchiq daryosi Kendir Tau tog'idan oqib keladi va Sirdaryoga quyiladigan joyida, Toshkent yaqinida oltin mo'l bo'lgan joylar mavjud bo'lgan. Toshkent hukmdori oltin olishning juda oqilona usulini topishgan. Oltin mo'l bo'lgan joylarni anqlab, o'sha joylarga bir necha gilamlarni daryo suvi oqizib ketmaydigan qilib joylashtirilgan. Gilamlar tuklari oqimga qarshi holatda joylangan va shu holatda qoldirib, bir ikki kunda gilamlar tuklariga metall zarralari, donalari ilinib qolgan. Keyin ushbu gilamlarni siqib olinib, quritilgan va qoqib oltin zarra va donlar to'plangan. Chirchiqning yuqori qismida daryo bo'yi oltinli qum juda serob bo'lib, uni yaxshi yig'ib olinsa ko'p foyda olingan.

Qo'qon xonligida XIX asr boshlarida xon oldiga 3-4 tatar millatiga mansub kishilar kelgan. Ular Roosiyaning oltin zavodidan qochgan qochoq shaxslar bo'lib, xonga Alatau tog'ida oltinni yuvish orqali sof oltin olib berish ishini taklif qilganlar. Xon ularning taklifini qabul qilgan va ularga yetarli darajada xavfsizligini ta'minlovchi soqchilar guruhini bergan. Undan tashqari joylardagi shahar xokimlarga ma'lum qilib, shahar va qishloqlar aholisi ularga hamkorlik qilib, nima yordam so'rasa qanoatlantirilishi haqida ko'rsatma bergan. Bu tatar millatiga mansub shaxslar bir qancha yangi oltin mavjud konlar joyini topgan edi.

Ammo ularni qo‘riqlayotgan askarlar tog‘li noqulay sharoitda yurish joniga tegib, tez-tez ochlik, qahraton sovuq, izg‘iridan toliqib, bu konchilarni o‘ldirgan. Xonga esa ular baxtsiz hodisa tufayli vafot etdi deb, ma‘lumot berganlar [1:183-184]. Mahalliy tog‘-konchilik ishlarini rivojlantirishda tog‘ konchilik sohasida tajribaga ega xorijlik shaxslarning ham hamkorligi bo‘lganligidan dalolat beradi. Ammo bu hamkorlik doimo yaxshi samarali yakunlanmagan bo‘lishi achinarli holat, albatta. Ammo bunday hamkorlik mahalliy konlarni o‘zlashtirilishida, ularni davlat va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida foydalanishga xizmat qilishi mumkin edi.

Kumushga boy konlar Sirdaryoning shimoliy tomonida, *Alatau tog‘ida* ko‘plab joylashgan edi. Namangandan ikki kunlik masofadagi yerdan kumush olingan. Aholi yozning uch oyida kumushni qazib olganlar. Boshqa payt bu yerda sovuq hukmron bo‘lgan, qalin qor yog‘gan. Bu tog‘ning eng baland joyi bo‘lib, rudaga boy bo‘lgan. Namangandan 4 kunlik masofada *Ketmontepa* yo‘lida yana bir kumush koni bo‘lgan. 1839 yil xon u yerga konchilarni jo‘natgan. Ular 1000 charik ruda qazib olib keldila. Undan 100 chorik qo‘rg‘oshin chiqqan. Unga ishlov berilganda esa, 1 chorik toza kumush olingan. Kumush olish jarayoni juda murakkab va qiyin bo‘lgan. Bunga sabab suv tanqisligi va Alatauning bu joyida juda kuchli sovuq izg‘irinli shamol halaqit bergan. Deyarli barcha konchi ishchilar kasal bo‘lib qaytgan [1:184].

Qo‘qonda har yili bir oz miqdorda mis olingan. Qo‘qonliklar aytishicha, bir tog‘li davon bo‘lib. Mis rudasiga juda ko‘p. U yerning havosi toza emasligidan konchi ishchilari u yerda uzoq qololmagan. Temir rudasi *Xo‘jand* yaqinidagi tog‘lardan olingan. *Toshkentning* atrofida ham temir konlari mavjud. *Alatau tog‘ida* qo‘rg‘oshin rudali kon bo‘lib, harbiy qo‘shin qurollari uchun bo‘lgan ehtiyojni to‘la qoplagan. Qo‘qonda faxrlanishga arzugulik, Badaxshon feruzasi sifatidak sifatli feruza ham qazib olingan. Yaxshi feruza sof havo rangda bo‘lib, hech qanday dog‘larsiz bo‘lgan. *Isfara* shahri yaqinidan va daryoning yuqori oqimidan Qo‘qonga o‘tadigan qismidan shunday sifatli feruza olingan. Tog‘li tojik aholisi feruzani qazib olish ishlari biolan shug‘ullangan. Mahsulotni Qo‘qon va Marg‘ilonga olib kelib sotgan. Feruzaning ulgurji savdosi o‘tkazilib, olib sotuvchilar feruzani katta bo‘lak granitini kichik qismlarga bo‘lib sotib ham foyda ko‘rganlar. Feruzaning past navlisi sal yashil tusli bo‘lgan. *Isfara* atroflarida tog‘da Qora-qirg‘izlar yashovchi joylarda firuzadan tashqari, zumrad, yoqut, qizil yoqut ham qazib olganlar va savdosi bilan shug‘ullanganlar. Ularning eng yaxshi koni *Lal-kon* degan joyda bo‘lgan. Boshqa joylarda lapis-lazurit ko‘p uchragan. Qo‘qon yoqut toshi juda qadlangan va qimmatbaho sanalgan.

Yu.Skaylarning Qo‘qon haqida yozishicha, “xonlikda joylashgan tog‘lar minerallarga boy. *Isfara* yaqinida va bir necha shimoliy tog‘larda ko‘mir qazilma boyliklarining konlari topilgan. Neft va neft quduqlari ko‘plab joylarda, ayniqsa xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari, *Ketmontepa* yaqinida topilgan. Aytishlaricha, mis, qo‘rg‘oshin va temir, ush bilan birga sifati past feruza ham topilgan.” [16:271].

Oltinugurt va selitra juda ko‘pligidan bu yerda arzon mahsulot sanalgan. Xoning porx ishlab chiqaruvchi zovodlari *Qo‘qon* shahrida bo‘lib, asosan mahalliy

xom ashyodan tayyorlanadi. Tuz konlarining katta qismi Qoshg'ar devonda, O'sh yaqinida bo'lgan. Sof tuz ko'p joylardan olingan. Xo'jand va Toshkent oralig'ida joylashgan *Kender tau* tog'idan ham olinagan.

Sharqshunos olim A. Kunning shahidlik berishicha, "Qo'qonning mineral boyliklari kam o'rganilgan. Tuzdan tashqari boshqa ma'danlarni mahalliy xalq qayta ishlamaydi. So'nggi davrlarda Hudoyorxon rus mutaxassislari ko'magida bir necha neft konlarni ishga soldi va kerosin olib, Toshkentga olib kelgan". Yuqoridagi ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, sharqshunos olim A. Kunning mulohazalarini to'la tasdig'ini topgan deb bo'lmaydi.. Mahalliy aholi o'zlari yashayotgan hududdagi ma'danlarni imkon qadar qayta ishlashga harakat qilgan. Faqat ular o'z davriga nisbatan takomilalashgan samarali usul va vositalarni qo'llay olmagan. Ushbu qaloq usullar foydali ma'danlarni ko'p xarj evaziga, xom ashyoni ko'p isrof etilishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Xullas, Qo'qon xonligida har yili bir necha pud oltin olingan. Shuning uchun Qo'qon va Marg'ilon bozorlarida oltinning tez- tez sotuvga chiqarilish holatlari manbalarda qayd etilgan. Qo'qonda sifati yuqori feruza va yoqut olinib, o'z davrida mashhurlikka erishgan. Tog'-kon ishlarida mahalliy aholi orasiga kelib qo'shilgan boshqa mamlakat vakilaridan bu sohada ilg'or bo'lgan xorijiy tajriba o'rganish imkoniyati bo'lgan. Aksariyat tog'- kon ishlari, konchilar mehnati og'ir va qimmatga tushganligi bois, mamlakatning hukmdori ushbu ishlarni molyalashtirgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Обозрение Коканского ханства в нынешнем его состоянии. // ЗРГО кн. III. – СПб. 1849.
2. Худуд ул-олам //форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев.- Т. "Ўзбекистон"-2008.
3. Ал-Беруни, Абу-р-Райхан Мухаммед ибн Ахмед. Собрание сведеней для познания драгоценностей (Минералогия) / Перевод А.М.Беленицкого. –Л. 1963.
4. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География)/ Введение, перевод, примечания. Указатели Б.А.Ахмедова. –Т, 1977. – С 23.
5. Кушкеки, Бурхан уд-дин Хан. Каттаган и Бадахшан. Данные по географии страны, естественно- историческим, условиям, населению, экономике и путям сообщения с 34 картами / Перевод с персидского В.В. Введенского, Б.И.Долгополова и Е.В.Левкиевского. - Т -1926 – С.197.; Массон М.Е. К истории горного дело на территории Узбекистана. – Т. 1953.
6. Чадғал- ҳозирги Чотқол тизмаси (Ғарбий Тяньшанда) // Худуд ул-олам //форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев.- Т. "Ўзбекистон"-2008.
7. Ахсикат- Сирдарё бўйидаги ўрта аср шаҳри: унинг харобалари Наманган вилоятидаги Задарё туманинг Ахси қишлоғида.// Худуд ул-олам //форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев.- Т. "Ўзбекистон"-2008.
8. Muhammad Haydar. Shujoi Haydari. O'zRFASHI in № 2467 raqamli qo'lyozma - 76 varaq.
9. Muhammad Tohir ibn Abdul Qosim. Ajoyib at- taboqat. O'z R FA SHA № 9042, 171b varaq .

10. Веберь В. Древняя и современная руднопромышленность Туркестана // Поверхность и недра № 4 (13) – Петроград. 1917.
11. Мушкетов И.В. Путешествие на Алай и Памир в 1877 году. - Собр. Соч., вып. 2, – СПб., 1912.
12. Емельянов Н. Материалы для статистики горной промышленности Туркестанского края. // Туркестанские сборник. Т. 459. – Тошкент. 1909.
13. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. // араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи, т.ф.д., проф. Ш.С.Камолитдин. – Т. 2011.
14. Массон М.Е. К истории горного дело на территории Узбекистана. – Т. 1953.
15. Каримова С.У. IX-XI аср кимё ва доришунослик фанлари тарққийетида Марказий Осиё олимларининг ўрни. – Т. 2002.
16. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари / кириш, инглиз тилидан қисқартирилган таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи- т.ф.н., доц. З.А.Саидбобоев – Тошкент “O‘ZBEKISTON”. 2019.
17. Обзорение Коканского ханства в нынешнем его состоянии. // ЗРГО кн. III. – СПб. 1849.

УМИДИЙНИНГ “МАКТУБЧАЙИ ХОН” ВА “ТАРИХЧАЙИ ТУРОНИЙ” АСАРИ ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ТАРИХИГА ОИД МУҲИМ МАНБА

UMIDIY'S WORKS “MAKTUBCHAI KHAN” AND “TARIKHCHAI TURONI” ARE AN IMPORTANT SOURCE ON THE HISTORY OF THE KOKAND KHANATE

ПРОИЗВЕДЕНИЯ УМИДИ “МАКТУБЧАЙ ХАН” И “ТАРИХЧАЙ ТУРАНИ” ВАЖНЫЕ ИСТОЧНИКИ ПО ИСТОРИИ КОКАНСКОГО ХАНА

Воҳидов Шодмон

тарих фанлари доктори, профессор

Тоҷикистон давлат педагогика институти илм ва инновациялар бўйича проректори

Аннотация

Мақолада Муҳаммадумар - Умидий ва Ҳавоий тахаллуси билан ижод қилган шоир ва муарри ҳамда унинг иккита тарихий асари - “Мактубчайи хон” ва “Тарихчайи Туроний” ҳақида сўз боради. Қўқон хонлари тарихига бағишланган мазкур асарлар хонлик тарихини турли даврларини ёритишига яқиндар ёрдам беради. Муаллиф Умидий-Ҳавоийнинг тарихнавислиги ҳалигача тадқиқот объекти сифатида махсус ўрганилмаган.

Калим сўзлар

Қўқон хонлиги, Худоёрхон, минг сулоласи вакиллари, Умидий, Ҳавоий, Фаргона водийси, Абдурахим афанди.

Annotation

The article discusses the poet and historian Muhammadumar - Umidi and Havaii, who wrote under the pseudonyms, and his two historical works - “Maktubchai Khan” and “Tarihchai Turoni”. These works, dedicated to the history of the Kokand khans, help to shed light on various periods of the history of the khanate. The historiography of the author Umidi-Havaii has not yet been specifically studied as an object of research.

Keywords

Kokand Khanate, Khudoyor Khan, representatives of the ming dynasties, Umidi, Havaii, Fergana Valley, Abdurahim Afandi.

Аннотация.

В статье рассматриваются две исторические произведения поэта и историка Мухаммадумара, писавший под псевдонимами Умиди и Хавайи, “Мактубчайи Хан” и “Тарихчайи Турани”. Эти труды, посвященные истории Коканских ханов, помогают пролить свет на различные периоды истории ханства. Историкографическая деятельность Умидий-Хавои специально не изучалась как объект исследования.

Ключевые слова

Коканское ханство, Худояр-хан, представители династии минг, Умиди, Гавайи, Ферганская долина, Абдурахим-эфенди.

Умидийнинг асл номи Мухаммадумар қори бўлган. Отасининг исми Неъматуллоҳ охун. Марғилон шаҳрида 1835 йили оламга келган. 1905 йили Тошкентда вафот этган шоир ва тарихчи Мухаммадумар “Умидий” ва “Хавоий” тахаллуслари билан ижод қилган. Хаёти Фарғона ва Марғилонда, Шарқий Туркистон (Қашқар)да кечган, Фуркат, Муқимий ва бошқа шоирлар билан якин ижодий ҳамкорликда бўлган. Ижодий фаолияти XIX асрнинг 2-ярмида Фарғонадан бошланган; адабий мероси кичик ҳажмдаги лирик ва сатирик шеърлар ҳамда эпик дostonлардан иборат. Унинг “Маснавийи Умидий”, “Девони Умидий” (1881), “Қачқули Қаландарий” (1891-92; назмий ва насрий йўл билан ёзилган ҳикоялар, афсона ва ривоятлар тўплами) асарлари, “Бадавлатнома ёки Тарихи Хўқанд” (1880), “Мактубчайи хон” (1884), “Жангнома” (1888), “Ҳайрат ул-олам” ва б. тарихий, фалсафий-дидактик дostonлари етиб келган. Умидий лирикасида ватанпарварлик, вафо ва садоқат, соф муҳаббат каби инсоний фазилатлар тараннум этилса, дostonларида Фарғона водийси ва Шарқий Туркистондаги турли жангу жадалларда хароб бўлган юрт, халқ аҳволи ҳаққоний тасвирланади.

Умидий лирикасида ватанпарварлик, вафо ва садоқат, соф муҳаббат каби инсоний фазилатлар тараннум этилса, дostonларида Фарғона водийси ва Шарқий Туркистондаги турли жангу жадалларда хароб бўлган юрт, халқ аҳволи ҳаққоний тасвирланади. Масалан, 2700 мисрадан иборат “Бадавлатнома ёки Тарихи Хўқанд” дostonида Умархон вафоти (1822) дан 1875 йилгача бўлган Қўқон тарихи ва Ёқуббек (Мухаммад Ёқуббек Бадавлат)нинг (1820-1877) ҳарбий юришлари ҳикоя қилинади. Унинг астрономия ва тиббиёт илмлари билан шуғулланганини кўрсатувчи маснавийлари ҳам бор. Асарларининг қўлёзмалари Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти, Россия ФА Санкт-Петербург бўлими фондларида сақланади.

Назмда маснавий шаклида битилган “Мактубчайи хон” асари, ўзбек тилида ҳижрий 1302-1885 йили ёзилган. Бу асар бизгача икки нусхада етиб келган. Биринчиси Россия Фанлар Академиясининг Шарқшунослик институти Санкт-Петербургда (қўлёзма С 575 рақам остида) ва иккинчиси Ўзбекистон жумҳурияти қўлёзмалар институти хазинасида қўлёзма 1902-у рақам остида сақланади “Мактубчайи Хон” асари зикр қилганимиздек, шеърда ёзилган бўлиб, Қўқон хони Худоёрхон ҳаётининг охириги йллари

йилномасидир. Унда Худоёрхон ҳаётига оид масалалар билан бир қаторда, XIX аср Қўқон хонлигининг кўп сиёсий воқеалари ҳам асардан ўрин олган. Асар Шарқ тарихнавислик анъаналарига риоя қилган ҳолда ёзилган.

Асарнинг ёзилиш сабаблари дебоча-кириш қисмида умумий тарзда айтиб ўтилган. “Бу китоб фақир инсон Умидийнинг китоби ва ундан эсдалик бўлиб, ҳожи жаноблари Абдурахим афанди илтимослари билан ёзилди... Бу асар Шермухаммадалихон давригача бўлган замондан бошлаб, Худоёрхон даврини ҳам ўз ичига олади”.

Сўнгра муаллиф учта таърихда (иккитаси тожик ва бири ўзбек тилида) асарнинг ёзилиш йилини кўрсатган. Тожик тилида келтирилган рубойи ҳамда “Қуръон” ояти “насру мин Аллоҳи ва фатҳун қарибун” абжад ҳисоби билан 1302 сонини беради. Бу эса милодий 1885 йилга тенгдир.

Бизнинг нусхамиз насрий дебоча (130^б-132^а) ва асосий қисмдан (132^б-156^б) иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири алоҳида “бисмиллоҳ” билан бошланади. Асарнинг мазмунидан аён бўладики, Туркия фуқароси Абдурахим афанди Афғонистонда тахтдан тушган Худоёрхон билан учрашади. Бу савдогар Ҳиндистондан қайтаётган экан. Шу учрашувдан сўнг, бу тожир (?) тақдирида муайян ўрин эгаллайди. Маълумки, Худоёрхон ҳаждан қайтаётган вақтда Ҳирот яқинидаги Қуруҳ номли мавзеда 1881 йили вафот этади. Ўлимидан олдин Худоёрхон Абдурахим афанди билан Истамбулга бориб, Русиянинг Туркиядаги элчиси орқали император Николай II га илтимоснома ёзиб юборади ва ўз номасида ундан Тошкентга қайтиши учун ижозат сўрайди. Шоҳ бунга розилик бериб, Туркистон генерал-губернаторига тегишли буйруқ ҳам юборади.

Бир муддат ўтгандан кейин, Абдурахим афанди Худоёрхон ўлимидан хабардор бўлиб Ўрта Осиёга йўл олади. У Хива орқали Тошкентга келиб, кейин Қўқонга боради ва Худоёрхоннинг яқин кишилари билан учрашади. Шу ерда у Муҳаммад Умидий-Намангонийдан Худоёрхон ҳаёти таржимаи ҳолини ёзиб беришни илтимос қилади ва бу истакни шоир Умидий бажаради.

Дебоча (мадх, васф, салтанят) дан сўнг, Худоёрхон даври баён келтирилган. Умидий Худоёрхоннинг тахтга чиқишини 1843 йил деб кўрсатадики, бу бошқа манбалардаги санадан фарқ қилади. Асарнинг Салтанят қисми эса Туркия султони Абдулҳомид II (1876-1905 йиллари салтанат сурган)га бағишланган. Асарнинг баъзи лексик жиҳатлари шундан далолат берадики, “Мактубчайи Хон” турк ўқувчиларига ҳам мўлжаллаб битилган асардир. Асарда XIX асрнинг охирларида ўзбек тилига хос бўлган баъзи хусусиятлар ўз аксини топган. Шунинг учун ҳам бу асар шевашунослар ва тилшунослар диққатини ҳам жалб этиши табиийдир.

Гарчи асарнинг маддоҳона руҳда ёзилиб, айрим воқеликлардан кўз юмилгани, саёз баён услуби асарнинг тарихий жиҳатларига путур етказса-да, унинг тил ва давр нуқтаи назаридан қийматини унчалик пасайтирмайди. Яъни Қўқон тарихнавислар мактабида “Мактубчайи Хон” асари ва унинг муаллифи Умидий ҳам маълум ўрин эгаллашга сазовордир. “Мактубчайи Хон” XIX аср иккинчи ярмида Қўқон историографиясини тадқиқи қилиб,

баҳолаш учун муҳим манба саналади. Асар Қўқон хонлигининг Русия маъмурияти давридаги шароитини ўрганишда ҳамда дин пешволаридан бўлмиш Қўқон хонлари тақдирларини ёритиш учун муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Бу асарнинг нашр қилиниши, маълумотларини илмий муомалага киритилиши Туркистон халқлари тарихини чуқурроқ ўрганишга ёрдам беради.

Асар Қўқоннинг рангли қоғозларида, қора рангда кўчирилган. Хати чиройли настаълиқ бўлиб, матн икки устунда жойлашган. Котиби Мулло Низомуддин. Асарнинг охири йўқ. 146-148 варақларига баъзи доғлар тушган. Муқоваси қалин мағздан ранги кўк. 26+ (3) варақи бор.

Муҳаммад Умар қори Умидий Марғилоний. “Мактубчаи хон”. Табдил ва нашрга тайёрловчи т.ф.н. О.Жалилов. – Т., 2007. 44б. Рисолада Қўқон хонлиги тарихчиси Муҳаммад Умар қори Умидий Марғилонийнинг назмда ёзилган “Мактубчаи хон” номли тарихий асари кирилл ёзувига табдил ётилиниган ва керакли изоҳлар тузилган. Асарда Қўқон хонлигининг 1842-1876 йиллардаги тарихи баён этилган.

“Тарихчайи Туроний” асари ҳам Муҳаммад Умар Марғилоний, тахаллуси Умидий бўлган шоир ва тарихчига мансуб бўлиб, настаълиқ хатида, рус фабрика қоғозида кўчирилган эди. Муқоваси оддий, ясама турида бўлиб, лабаки ва таякилари қизил матодан, улчами 20,5x12,5; Қоғози жой-жой рангли, чизиқлидир. Матни ўлчови 13,5x8 см. 13 сатрдан иборат. Асарга муаллиф Умидий “Тарихчайи Туроний”, деб ном қўйган.

Қўлимиздаги асар Умидий қаламига мансуб янги асари бўлиб, унинг ягона нусхаси Шохрухбек ака Саййидумаровнинг оилаларида сақланиб келган. Сабаби муаллиф ўз даврида Саййид Умарбек оиласига яқин бўлиб, борди-келдиси бўлган. Муаллиф Сўфибекнинг ўғли Назирбек билан жуда қалин дўст бўлган экан. Саййид Умарбек мана шу Назирбекнинг қизига уйланган эди.

Тарихчайи Туроний асарани анча йиллар олдин нашрга тайёрамоқчи бўлишган. Ўткир Атаматов номли, асл касби ҳайдовчи бўлган акамиз уни табдил қилмоқчи бўлганлар. Охиригача етказолмай қолдирган.

“Тарихчайи Туроний” асари Қўқон хонлиги тарихини жуда мухтасар тарзда баён қилиб, хонлик ҳудудларини Россия империяси босиб олиниши жараёнини ҳам тасвир этади. Муаллиф хонликнинг охириги хонлари томонидан амалга оширилган ободонлик ишларига аҳамият беради.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар. (REFERENCES)

1. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги тарихи (Қўқон хонлиги манбаларда). – Тошкент, 2012. – 6.133-135.
2. Муҳаммад Умар Умидий Марғилоний. Тарихчайи Туроний. / Кириш, эски араб ёзувидан табдил, изоҳлар Ш.Воҳидовники. – Тошкент, 2012. – 152 б.
3. Умаров Ш. Худоёрхон авлодлари тарихи. – Тошкент, Адабиёт учқунлари. – 2016. – 344 б.

“БОБУРНОМА”ДА МОВАРОУННАХРНИНГ ТАШҚИ АЛОҚАЛАРИ ХУСУСИДА

О ВНЕШНИХ СВЯЗЯХ МАВЕРАННАХРА В “БАБУРНАМЕ”

ON THE FOREIGN RELATIONS OF MAVERANNAHR IN “BABURNAMA”

Анвар Ашурович Эркўзиев

Наманган давлат университети Тарих кафедраси доценти,

тарих фанлари номзоди

e-mail: anvar_ercouziyev@mail.ru

Тел: +99897 254 93 39

Аннотация

Ушбу мақолада Мовароуннахрнинг XV аср тарихига бағишланган мемуар асарда минтақанинг ташқи алоқалари, ушбу алоқаларнинг йўналишлари, Мовароуннахрни хорижий мамлакатлар билан боғлаган савдо йўллари, ушбу йўллар орқали хориж мамлакатларга олиб чиқилган маҳсулотлар таркиби ҳақида маълумотлар тақдим этилади. Шунингдек, ҳаж мавсумида маовароуннахр хожиларининг ҳаж сафарига элтувчи йўллар ҳақида маълумот берилади.

Аннотация

В данной статье, посвященной истории Мавераннахра в XV веке, приводятся сведения из произведения мемуаров, в которых описаны внешние связи региона, направления этих связей, торговых путей, связывающих Мавераннахр с зарубежными странами, а также о составе продукции, экспортируемой в зарубежные страны по этим путям. Также предоставлена информация о маршрутах, ведущих к совершению хаджа для паломников из Мавераннахра в сезон хаджа.

Abstract

This article, dedicated to the history of Maverannahr in the 15th century, provides information from a memoir that describes the external relations of the region, the directions of these relations, the trade routes connecting Maverannahr with foreign countries, as well as the composition of the products exported to foreign countries along these routes. Information is also provided on the routes leading to the Hajj for pilgrims from Maverannahr during the Hajj season.

Калим сўзлар

“Бобурнома”, Конибодом, Хурмўз, бодом, Ҳиндистон, тошйўнар усталар, Чиннихона, Форс кўрфази, инглиз чити, инглиз рўмоли, Кольбер.

Ключевые слова

“Бабурнаме”, Канибадам, финики, миндаль, Индия, каменҳики, Чиннихана, Персидский залив, английский материал, английский платок, Кольбер.

Keywords

“Baburnama”, Kanibadam, dates, almonds, India, masons, Chinnihana, Persian Gulf, English material, English shawl, Colbert.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурни нафақат Ўзбекистон тарихида, балки жаҳон тарихида ҳам кўпқиррали фаолият ва ижод соҳиби, буюк подшоҳ, мумтоз шоир, назарийтчи адабиётшунос, фақиҳ тилшунос, санъатшунос, этнограф, ҳайвонот ва наботот оламининг билимдони сифатида тилга

олинади. Биргина „Бобурнома” асари ўзи унинг йигирмадан ортиқ соҳаларга қизиққанлигига яққол мисол бўла олади.

Бобур Мовароуннаҳр шаҳарлари тасвирида унинг географик хусусиятлари билан бир қаторда ташқи алоқалари, иқтисодий имкониятлари ҳақида ҳам муҳим маълумотларни тақдим этади. Энг муҳим жиҳати бу маълумотлардан Мовароуннаҳрнинг жаҳон савдосининг фаол иштирокчиси бўлганлигини, минтақа маҳсулотлари дунё бозорларига савдо йўллари орқали етказиб берилганлигини тасдиқлайди.

“Бунга тобе мавзулардан бири Кандибодомдир. Шаҳар деб бўлмайдию, аммо яхшигина шаҳарчадир. Бодоми яхши бўлади. Бу жиҳатдан шу исм билан аталган. Хурмўз ва Ҳиндистонга кўпроқ шу ернинг бодоми боради [1,30].

XV асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Ўрта Ер денгизи хавзасида Усманийлар давлати ўз ҳукмронликларини ўрнатиши, савдогарлар ва савдо карвонлари учун хавфнинг ортишига сабаб бўлди. Португалияликлар томонидан Форс кўрфазидаги савдо йўлининг ёпиб қўйилиши*, шунингдек, Усманийлар давлати билан Эрон ўртасида тез-тез бўлиб турадиган урушлар, европаликларнинг Шарқ мамлакатлари аҳолиси билан Усманийлар давлати орқали савдо алоқаларини қийинлаштирарди. Тез орада Усмонли туркларнинг бу йўл орқали амалга ошириладиган ипак билан савдода барча воситачиликни ўз қўлига олишга қаратилган ҳаракатлари бу йўлнинг фаолиятини тугашига олиб келди.

Буюк географик кашфиётлар натижасида Ҳиндистонга денгиз йўлининг очилиши билан Ўрта Осиёга турли европа саноати моллари ҳам кириб келган. Аммо, Ҳиндистон учун Европа давлатларининг ўзаро қурашлари натижасида Ўрта Осиёга европа молларини кириб келиши турли даврларда турлича бўлган. Дастлабки даврларда савдо йўллари ва бозорлар фаолияти ҳақидаги маълумотларга асосий эътибор қаратилган бўлса, европа молларининг Ўрта Осиёга олиб келиш асосан инглиз савдогарлари томонидан амалга оширилган. Инглиз моллари денгиз орқали Абуш бандаргоҳига, ундан ўн кунлик карвон йўли бўйлаб Шерозга олиб келинган. Бу ердан савдо моллари икки йўл билан Ўрта Осиёга қараб йўл олган. Ҳирот орқали Бухорога олиб борадиган йўл Эрон орқали Машҳад ва Марв шаҳарларига олиб борадиган йўлдан хавфсиз ва яқин бўлган [2,178]. Бухорога Қобул орқали инглиз юпқа газламаси, пахтанинг турли навларидан тайёрланган инглиз чити, турли рангдаги инглиз рўмоллари олиб келинган [3,77-78].

Ҳиндистон тевааридаги денгизлар, унинг ғарбий кўрфазларини босиб олган португаллар XVI асрда Форс кўрфази орқали Хурмўзга борадиган савдо йўлини ёпиб қўйдилар. Шу муносабат билан шимоли-ғарбий Ҳиндистондан Хуросон ва Эрон орқали ўтадиган карвон йўли яна катта аҳамият касб эта бошлади. 1622 йилда инглизлар Хурмўзни босиб олиб, денгиз йўлини очганлар [4,41]. Форс қўлтиғида жойлашган Хурмўз шаҳри йирик савдо шаҳри бўлиб, бу ерга бутун Ҳиндистондан савдо моллари олиб

келинади. Бу савдо молларини оз фурсатда ва сифатли тарзда Эрон, Каспий денгизи, Россия дарёлари орқали Ярославлга ва ундан дарё ҳамда денгиз орқали Англияга олиб бориш мумкин эди [5,104].

Темурийлар даврида халқаро аҳамиятдаги Буюк ипак йўлининг фаолияти савдо йўлидаги хавфсизлик ҳам адолатнинг таъминлангани билан бевосита боғлиқ эди. Бу биринчи навбатда ҳукмдорларнинг адолатли ташқи муносабатларига боғлиқ бўлса, иккинчидан Мовароуннаҳр обрўси ва ибрати ҳисобланар эди.

“Умаршайх мирзонинг адолати шу даражада эдики, Андижоннинг шарқий тарафидаги тоғларнинг пастида Хитойдан келаётган минг қорамоллик карвонни қор босдики, икки киши қутулиб қолди, холос. Хабар топиб одамларни юбориб, карвоннинг ҳамма нарсаларини йиғдирди. Ўша пайтларда карвонни ворислари бўлмаганидан, эҳтиёт юзасидан сақлаб, бир-икки йилдан сўнг Самарқанд ва Хуросондан ворисларини суриштириб, топтириб келиб, молларини эсон-омон топширди [1,32].

Темурийларнинг Хитой билан муносабатлари Марказий Осиё дипломатиясида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, иқтисодий имкониятларга эгалик қилиш асносида ўзаро сиёсий-ҳарбий рақобат характериға ҳам эга эди. Кўп ҳолларда бу рақобат ўзаро ишлаб чиқариш тажрибаларининг ҳам алмашиш воситасида ҳам амалга ошириб борилган. “Яна Кўҳак тепалигининг этагида Улуғбек Мирзо Боғи Майдон деб ном олган бир боғ солгандир. Ушбу боғчада яна бир чордара иморат солган, изораси (асосининг ташқи беази) бутунлай чиннидан, Чиннихона дейдилар. Хитойдан одам юбориб келтирганлар [1,57].

Ўрта Осиёдан Шимолий Ҳиндистонга олиб борадиган савдо йўллари икки хил йўналишда бўлган. Улардан бири Пешавор йўналиши бўлиб, у ҳар доим савдо карвонлари билан серқатнов бўлган. Бу шаҳар Ўрта Осиёнинг Ҳиндистон билан Афғонистон орқали бўладиган савдосида асосий савдо омбори вазифасини ўтаган. Пешаворга бориш учун қуйидаги йўллардан фойдаланиш мумкин эди [6,52].

1. Бухоро, Балх ва Қобул орқали (узунлиги 1136 мил)
2. Самарқанд, Бадахшон, Помир ва у ердан Читрал-Дахар ва Сват орқали (узунлиги 1593 мил)
3. Самарқанд, Бадахшон, Помир ва Қобул орқали (узунлиги 1340 мил)

Ҳиндистон шаҳарларидан бошланиб, Қобул, Бадахшон ерлари орқали Хитойга олиб борувчи йўл миссионер иезуитларнинг асосий қатнов йўли бўлган. Бу йўлдан Астрахань, Бухоро ва форс савдогарлари йирик карвонлар ҳаракатлангандагина фойдаланишган. Бу йўлдан 1603-1605 йилларда португал иезуити Бенедикт Гозэс Ўрта Осиё орқали Хитойга борган [7,91].

Бобурийлар Ҳиндистонининг Ўрта Осиё билан алоқалари икки минтақа савдогарларининг қизгин савдо муносабатларини таъминлаган. Шу сабабдан Ўрта Осиё савдогарларини Ҳиндистон бозорларида, ҳинд савдогарларини Ўрта Осиё бозорларида кўплаб учратиш мумкин эди. XVI аср бошида европалик савдогарларнинг янги кашф этилган Ҳиндистонга ташрифлари

натижасида Ўрта Осиё иқтисодий ҳолати ва савдо моллари билан яқиндан танишиш имконияти туғилган. Шунингдек, савдогарлар томонидан Ҳиндистон ва унга қўшни ҳудудлар тўпланган маълумотлар Европа давлатлари иқтисодий манфаатлари доирасини кенгайтиришда муҳим рол ўйнаган.

XVII – XVIII асрлар Европасида Ҳиндистон орқали Ўрта Осиёнинг иқтисодий имкониятлари ҳақида энг кўп маълумот тўплаган мамлакат Франция ҳисобланади. Чунки, бу даврда французларнинг шимол-шарқий савдо йўлида инглизлар билан манфаатлари тўқнашган эди. Шимолдан Ўрта Осиё орқали Ҳиндистонга кириб келишни хоҳлаган инглизларга, французлар Ҳиндистон орқали жанубий йўл билан жавоб бермоқчи эди. Бу даврда Ҳиндистон ва унга қўшни мамлакат билан савдо олиб бориш ва улар ҳақида маълумотлар тўплаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Бу сиёсат қирол Людовик XIV кардинал Ришелье ва қиролнинг молия вазири Кольбер даврида ўзининг юқори даражасига эришган. Шу сабабдан бу даврда Ҳиндистон ва Яқин Шарқ ўлкаларига жуда кўплаб француз сайёҳлари юборилган. Бу сайёҳлар эса ўз кудаликлари ва эсдаликларида Ўрта Осиё савдогарлари ва савдо моллари ҳақидаги маълумотларни қайд этганлар.

1659-1672 йилларда бобурийлар саройида яшаган француз сайёҳи Ф. Берньенинг гувоҳлик беришича, бобурийлар шоҳи Аврангзеб Оламгир (1659-1707) Ўрта Осиёдан олиб келинган меваларни қабул қилиш пайтида мевалар келтирилган юрт хонлари шаънига мақтовлар айтган, меваларнинг чиройли, хуштаъмлиги ва кам учраши тўғрисида узоқ гапирган. Шунингдек, сайёҳнинг таъкидлашича, мевалар келтирилган юртнинг замини серҳосил бўлиб, йилнинг барча фаслида Ҳиндистоннинг ҳамма раста ва дўконлари Бухоро ва Самарқанддан келтирилган қуруқ мевалар билан тўла бўлган [8,263]. Яна Самарқанд шаҳрининг Оҳанин дарвозасига яқин қалъанинг ичида тошдан бир жомеъ масжиди солган, у ерда аксарият Ҳиндистондан олиб келинган тошйўнарлар ишлатилган.[1,56].

Франсуа Бернье Ҳиндистонда бўлган пайтда (1659-1672) Ўрта Осиёдан борган элчилар билан суҳбатда бўлган. Суҳбат мобайнида у ўрта осиеликлардан ўз мамлакатлари ҳақида кўпроқ маълумот олишга интилан. Унинг айтишича, элчилар ҳатто ўзлари яшаётган ерларнинг-Ўзбекиянинг чегарасини ҳам билишмайди [9,131]. Бу ерда элчилар сиёсий вазиятни назарда тутиб ўз давлатлари ҳақида ажнабий кишиларга айтарли маълумот бермаган. Чунки шу даврда Бухоро хони Абдулазизхоннинг Ҳиндистон шоҳи Аврангзеб билан муносабатлари яхши бўлмаган.

Шунингдек, Ф. Бернье Ҳиндистоннинг қўшни мамлакатлар билан иқтисодий алоқларини ўрганиб, ўз маълумотларини ҳисобот тарзида мактуб орқали Франция қироли Людовик XIV нинг молия вазири Кольберга (1619-1683)га жўнатиб турган.

Шимолий Ҳиндистондан Фарғона ва ундан узоқроққа жанубий Синьцзян шаҳарлари орқали бориладиган яна бир йўл бор эди. Бу йўл Сринагар (Кашмир)дан Лех (Ладакх) орқали Хўтан ва Қошғарга ўтган, у

ердан Тарак доволлари орқали Ўшга, Қўқонга ва ундан Ўрта Осиё йўлларига ўтган.

Маккага элтувчи жанубий йўли ҳам анча серқатнов бўлиб, маҳаллий аҳоли Маккага Ҳиндистон, афғон ерлари орқали ўтган йўлдан фойдаланган ҳолда зиёратни амалга оширган. И. Низамутдиновнинг ёзишича, Ўрта Осиё зиёратчилари бу йўлдан XIV асрда, тахминан 1332 – 1333 йилларда тошкентлик шоир Бадриддин Чочий Маккадан Ҳиндистон орқали қайтган[10,135].

Ҳаж амалларини бажарилиши, Мовароуннаҳрнинг ташқи алоқалари тизимида Маккага элтувчи зиёрат йўллари хавфсизлиги муҳим аҳамиятга эга эди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам “Бобурнома”нинг XVI аср бошларига оид маълумотлари қисмида қуйидагиларни ёзади: “Ҳиндистон била Хуросон орасида хушки йўлдин икки бандардур. Бир Кобул яна бир Қандаҳор. Қошғар ва Фарғона ва Туркистон ва Самарқанд ва Бухоро ва Балх ва Ҳисор ва Бадахшондин карвон Кобулға келурлар. Хуросондин карвон Қандаҳорға келур. Ҳиндистон била Хуросонға восита бу вилояттур. ... Ҳар йили етти-саккиз-ўн минг от Кобулға келур. Қуйи Ҳиндистондин ўн-ўн беш-йигирма минг ўйлуқ карвон Кобулға келур”, - дейди [1,178]. “Бобурнома”даги амрлар зикрида Ҳофиз Муҳаммад дўлдойни 1504 йилдан аввалроқ, Маккага отланиб, унинг Ҳинд йўли орқали сафар қилганлиғни ёзади[1,36].

XV аср ўрталарида Мирзо Абулқосим Бобур (1452-1457) замонида шайх Муҳаммадшоҳ Фароҳий, шайх Мавлоно Рукниддин Муҳаммад ал-Хофийларнинг Хўрмуз орқали Маккага сафар қилиб, бу йўл Хирот-Ҳамадон-Шероз-Аберкух-Язд-Хўрмуз йўналишида давом этган. Кейинчалик Ҳусайн Бойқаро ҳукмронлиги даврида (1469-1506) хўжа Мажиддин Эроннинг Кирмон йўли орқали Ҳижозга бориб, Хирот-Табриз-Шом-Миср-Ҳижоз-Макка-Мадина йўналишида ҳаж сафарини амалга ошириб ватанига қайтган[10, 137].

Мовароуннаҳрнинг ўрта асрлар даври тарихининг сиёсий жараёнлари минтақанинг дунё миқёсида алоҳида эътиборда бўлишига сабаб бўлди. Шу сабабдан ташқи алоқаларнинг муҳим жиҳати савдо-иқтисодий алоқаларга эътибор қаратилди-ки, шу аснода маҳаллий шароитда ишлаб чиқарилган ёки моҳир меҳнат асосида етиштирилган маҳсулотларни хорижий мамлакатларга чиқариш кўпайди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар. (REFERENCES)

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент., О‘qituvchi, 2008.
2. Небольсин П.И. Очерки торговли Россией с Средней Азией. – СПб., 1856.
3. Записки о Бухарском ханстве. – Москва, Наука, 1983.
4. Байкова Н.Б. Россия билан Шарқ ўртасидаги иқтисодий алоқалар тарихидан. – Тошкент., Фан, 1964.
5. Шахмалиев Э.М. Об англо-русских торговых противоречиях на Переднем Востоке второй половины XVI века // Ученые записки Азербайджанского Университета. – Баку, 1958. – №5.
6. Байкова Н.Б. Из истории караванной торговли между Средней Азией и Северной Индией. – Ташкент., Фан, 1964.

7. Соколовский Г.Н. Филипп Авриль как географ. / Известия Государственного Русского географического общества. – СПб., 1925. – № 1-2. Т.57.
8. Абрамов М.М. Социально-экономическая и культурная жизнь Самарканда в XVI - первой половине XIX в. Дисс... на учен. степ. док. ист. наук. – Самарканд., 1989.
9. Бернье Ф. История последних политических переворотов в государстве великого Могола. – М-Л. 1936.
10. Таниева Г.М. XVI-XIX аср ўрталарида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи ва тарихшунослиги. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2021.

ҚЎҚОН ХОНЛИГИ СИЁСИЙ ҲАЁТИДА ТОҒЛИ ТОЖИКЛАРНИНГ ЎРНИ

**(Муҳаммад Ҳакимхоннинг “Мунтахаб ат - таворих” асари
маълумотлари асосида)**

МЕСТО ГОРНЫХ ТАДЖИКОВ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

**(по сведениям сочинение “Мунтахаб ат-таварих” Мухаммада
Хакимхана)**

THE PLACE OF MOUNTAIN TAJIKS IN THE POLITICAL LIFE OF THE KOKAND KHANATE

**(according to the work “Muntakhab at-tawarikh” by Muhammad
Hakimkhan)**

Абдукаримов Жамолиддин Ахмадалиевич

Академик Б. Фафуров номли Хужанд давлат университети тожик халқи тарихи

кафедраси доценти

e-mail: abdukarimov_1979@mail.ru

Тел: +992 92 832 07 79

Аннотация.

Мазкур мақолада сўз Қўқон хонлигининг XIX аср биринчи ярмидаги сиёсий ваъияти ва унда тоғли тожикларнинг ўрни таҳлил қилинган. Мавзуга оид масалалар Қўқон хонлиги тарихнавислик мактабининг йирик вакили Муҳаммад Ҳакимхоннинг “Мунтахаб ат-таварих” асари маълумотлари асосида келтирилган.

Аннотация.

В данной статье анализируются политическая положения Кокандского ханства в первой половине XIX века и роль горных таджиков в ней. Вопросы, связанные с темой, изложены на основе информации труда “Muntakhab at-tawarikh” Мухаммада Хакимхана, одного из крупного представителя историографической школы Кокандского ханства.

Abstract.

This article analyzes the political situation of the Kokand Khanate in the first half of the 19th century and the role of mountain Tajiks in it. Questions related to the topic are presented on the basis of information from the work “Muntakhab at-tawarikh” by Muhammad Hakimkhan, one of the major representatives of the historiographic school of the Kokand Khanate.

Калит сўзлар.

Ўрта Осиё, “Мунтахаб-ат-таворих”, Муҳаммад Ҳақимхон, Олимхон, Умархон, Ражаб-қушбеги, девонбеги.

Ключевые слова.

Средняя Азия, “Мунтахаб- ут- таворих”, Мухаммада Ҳақимхана, Алимхан, Умархан, Раджаб-қушбеги, девонабеги.

Key words.

Central Asia, “Muntahab-ut-Tavorikh”, Mukhammad Khakimkhan, Alimkhan, Umarkhan, Rajab-kushbeghi, devonbeghi

Муҳаммад Ҳақимхоннинг “Мунтахаб ат-таворих” номли асари Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлиги тарихига оид нодир манба ҳисобланади. Мазкур асар беш боб, ўн икки тоифадан (фаслдан) иборат бўлиб, унинг хронологик ҳудуди “олимнинг яратилишидан” то XIX асрнинг 40-чи йилларини ўз ичига олади.

“Мунтахаб ат-таворих”- нинг бешинчи боби ўн иккинчи тоифаси ҳажман катта бўлиб, асарнинг ярмини ташкил этади ва асосан Қўқон хонлиги таърихига бағишланган.

Муҳаммад Ҳақимхоннинг “Мунтахаб ат-таворих” асари ўрганилишининг муҳим чихати шундаки асарда сиёсий, ҳарбий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий муносибатлар билан биргаликда, Қўқон хонлигида олиб борилган давлатчиликнинг муҳим компонентларидан бири бўлган маъмурий бошқарув тизимига оид бошқа манбаларда умуман учрамайдиган маълумотлар ўрин олган. Муҳаммад Ҳақимхоннинг бу борадаги асарда келтирилган маълумотлари ўзининг аниқлиги билан ажралиб туради, чунки асар муаллифи Қўқон хонлари билан қариндошлик алоқалари мавжуд бўлиб, қисқа муддат бўлсада давлат бошқарури ишларида фаъл қатнашган эди [4: 25-б].

Муҳаммад Ҳақимхон Қўқон зодагонлар оиласида туғулиб, она томонидан Қўқон хони Норбўтабийнинг (1770-1799) невараси, Олимхон (1799-1810) ва Умархоннинг (1810-1822) жияни эди, ота томонидан эса машхук сўфи шайхлардан Аҳмад Хўжаги Косоний авлодидан эди. Ҳақимхоннинг отаси Маъсумхонтўра Қўқон хонлигида катта обрўга эга эдилар. Муҳаммад Ҳақимхон ёшлик чоғиданоқ тоғалари билан биргаликда ҳарбий юришларда, саройдаги турли тадбирларда қатнашиши унинг шаклланишида катта аҳамиятга эга эди.

Муҳаммад Ҳақимхоннинг “Мунтахаб ат-таворих” асари Ўрта Осиё халқлари жумладан тожик халқи тарихини ўрганишда муҳим нодир манбалардан бири ҳисобланади. Асарда хонликнинг сиёсий ва ҳарбий ҳаётида муҳим мавқега эга бўлган тожик халқи аجدодлари ҳақида нодир маълумотлар мавжуд.

Олимхон даврида Қўқон хонлигининг сиёсий аҳамияти ошади. У тоғли тожиклар: қаротегинликлар, шуғнонликлар, бадахшонликлар, эронликлар ва бошқалардан иборат ёлланма аскар қўшинлари тузади. Бу қўшин ҳокимиятни марказлаштириш учун курашда унинг суянчи, таянчи бўлиб у тузган катта қўшиннинг ядроси бўлиб қолади [2: 25- 26-б].

Қўқон хонлигининг асосий қўшинлари тожик сарбозларидан иборат бўлиб, улар ўз навбатида бир неча қисмларга бўлинган. Чунончи, унинг бир қисми- хоннинг шахсий сипоҳийлари бўлиб, саройда қоровуллик вазифасини бажарар эди. Улар ўртача 2000 кишидан кам бўлмай, анча мерган бўлиб, жанговарликлари учун “гала ботирлар” ёки хон гвардияси, деб ном олганлар [5: 33-б]. Бундан ташқари Олимхон тоғли тожикларга нисбатан махсус этибор қаратар, улардан иборат икки янги ҳарбий қўшин тузган эди: биринчиси 3700 нафардан иборат қаротегинликдан ва иккинчиси 2200 нафар дарвозликлар, бадахшонликлар, шугнонликлар, рушонликлардан иборат эди. Мазкур ҳарбий қўшин хон хазинаси ҳисобидан маош, кийим бош, яроқ билан таъминланган. Тарихий манбаларда улар “мирбача”, “бекбача” номи билан тилга олиниб уларга нисбатан “тожик” этноними ишлатилган [1: 95-б].

Қўқон хонларининг тоғли тожикларга бўлган этиборининг яна бир сабаби улар ҳамиша қипчоқлардан ташвишда турганлар. Қипчоқлар, гарчи ўзларини ўзбек қавмларидан деб ҳисобласаларда, доимо қирғизлар билан яқин туриб, кўчманчи ҳолда яшаганлар. Қипчоқларнинг асосий қисми Фарғона водийсининг Шахрихон, Балиқчи, Қора дарё билан Норин дарёси оралиғидаги жойларда яшар эдилар. Уларнинг хавфидан қутилиш учун Қўқон хонлари мунтазам қўшинларини маҳаллий гуруҳлар билан боғлиқ бўлмаган тоғли тожиклардан ва Ўрта Шарқдан чиққан сипоҳийлардан тузарди. Улар сарой гвардиясининг асосий қисмини ташкил этарди. Маълумотларга кўра, 1800 йилларда хоннинг 10 мингга яқин суворийлар полки бўлган [3: 33-б]. Бундан ташқари хонларнинг тоғли тожикларга бўлган этиборининг ошиши ҳарбий қўшин бошлиқлари мазкур соҳада ўзига хос талиму тарбия ва тажрибага эга эмас эдилар. Бу даврда нафақат хонлик ҳудуди, балки Ўрта Осиё давлатлари ҳудудида ҳарбий бирор бир ҳарбий талим марказлари мавжуд бўлмаган [2: 35-б].

Қўқон хонлигининг XIX аср биринчи ярми сиёсий ва ҳарбий ҳаётида муҳим ўринни эгаллаган шахслардан бири тоғли тожикларга мансуб Ражабқушбеги ҳисобланади. Муҳаммад Ҳакимхон Олимхон ва Умархон даврининг муҳим сиёсий ва ҳарбий воқеаларини ёритиш жараёнида Ражабқушбеги фаолияти ва унинг хонлик мавқесини оширишдаги хизматлари ҳақида тўлиқ маълумот берган.

Мазкур мақоланинг ёзилишидан мақсад ҳозиргача Ражабқушбеги фаолияти оид бирор бир махсус илмий тадқиқот олимлар томонидан амалга оширилмаган. Бундан ташқари Ражабқушбеги мисолида тожик халқи аждодларининг Қўқон хонлиги сиёсий ва ҳарбий ҳаётидаги тутган ўрни ҳақида муҳим маълумотларни олишимиз мумкин.

Муҳаммад Ҳакимхон асарида Олимхоннинг Тошкент мулки ҳокими Юнусхўжага қарши юриши тафсилотларини тасвирлаш жараёнида Ражабқушбегининг кўрсатган шужоати ва мардонаворлиги ҳақида шундай ёзади: “Тапнинг қисқаси шуким, ўша вақтда Юнусхожа саййидлик паноҳи Хонхожани урушда енгиб, қочиргани ва сўнг қўлга туширганидан қувончидан терисига сиғмаган эди. Чунки банги ҳаёлига “энди бу оламнинг

тўрт бурчаги мендан каттароқ ҳурмат ва эътиборга лойиқ подшоҳ қолмади”, деган фикрлар келган ва мияси шундай истак ва манманлик ҳаваслари билан тўлганди. Бир куни ана шу хаёл орқасида кўнглига Хўқанд мамлакатларини эгалаш ҳаваси тушди. Ўша кезлари ўғилари ичида кичиги Ҳошимжон исмли фарзанди бўлиб, ўша ўғлига жуда дабдабали бир тўй қилиб бериш иштиёқида юрарди. Аммо, бундай тўйни ўтказишга етарлича маблағи ва керакли матоҳлари бўлмади, боридан ҳам кўнгли тўлмасдан тўйни ўтказиш муддати кундан- кун орқага сурилиб бораётганди. Бу нарса банги хаёлидан жой олиб, беихтиёр, “амирлар урушга тайёргарлик кўриб, Хўқанд томон юзлансинлар ва фарзандимиз тўйини Хўқандни фатҳ этгач ўша ерда катта қилиб ўтказамиз”, дея буйруқ берди. Ўша амалга ошмас орзуда тез фурсат ичида қозоқ лашкари билан Хўқанд томонга юзланди... Бу юриш хабари амир Олимхон қулоғига етди. Дарҳол отланиб, елдек тезучар чопарни тезликда Хўжандга Ражабдеворбеги олдига юборди, ўзи эса зўр бериб дабдаба билан фаридунлик шавкати парини темир дубулғали бошига қадаб, Юнусхожага қарши жанг сари юзланди. Ражабдеворбеги воқеадан хабар топгач, Хўжандни холи ташлаб, лашкар билан тез суръатда кечасиёқ йўлга тушиб, бир окшом ичида дарёдан ўтиб олди ва ўзини Ғурумсарой мавзесига етказди. Ўша вақтда Хонхожанинг катта ўғилари Юсуфалихожа ва Юнусалихожа қачон бўлса ҳам отаси қони учун ўч олиш мақсадида ўтирган бўлиб, булар ҳам ана шундай қасосли дамлар етишганидан фурсатни ғанимат санаб, тезликда барча амирлардан олдинроқ жанг майдонига етиб бордилар... Анча уриш- сўқиндан сўнг зафар насими амир Олимхон томонидан эсиб, Юнусхожа молу асбоб, сипоҳу хазинасини ташлаб, юрагида неча доғу ҳасрат билан қочиш қарорини ихтиёр айлади. Ул фалокатга тўла ҳалокат майдонидан не-не меҳнату машаққатлар гирдобидида беш- олти нафар маҳрамлари билан зўрға қутулиб чиқиб, Тошканд томонга қараб қочди. Амир Олимхон эса қувлаб бориб, Тошканд кўшинидан бир бўлагини ўлдиришди, анчасини асир олдилар. Амир Олимхон бу катта ғалабани ғайбий атолардан бирига йўйиб, улўғ фатҳ шукронасини адо этди. Ўша куни Юнусалихожа ва Юсуфалихожа ҳамда Ражабдеворбегининг тожик амирлари мардлик намунасини кўрсатдилар.. [5: 280- 283-б].

Умархон ҳокимият тепасига келгандан кейин Ражабдеворбегига нисбатан подшоҳона меҳрибонлик кўрсатиб, уни Тошкент шаҳри ҳокими вазифасига тайинлади.

Муҳаммад Ҳакимхон Умархоннинг Дашти Қипчоқ тарафига кўшин тортгани ва Туркистоннинг фатҳ этилиши воқеасини тасвирлаш жараёнида ҳам Ражабдеворбегининг кўрсатган матонати ҳақида махсус қайд қилиб ўтади: “Амир Умархон келгуси йили баҳор фаслида Фарғона лашкари билан Тошканд томон юзланди. Сайхун дарёсидан кечиб, тоғ доворидан ўтгач, Қурама вилоятидаги Оҳангарон чўлғоҳига кириб борди ва у ердан кўчиб, Тошканд вилоятига кўш ташлади. Тошканд ҳокими Раҷабқушбеги хизматкорлик тариқи ва меҳмондорлик равишини бекаму кўст адо этди. Ўша вақтда ҳозир Туркистон номи билан машҳур ва султони авлиё Хожа Аҳмад

Яссавий қабри жойлашган Ясси қалъаси амир Ҳайдар подшоҳ тасаруфи остида эди. Амир Умархон ул вилоятни эгаламоқни истаб, ба ҳақда амирларга маслаҳат солди. Шу чоғда йиғинда ўтирган Ражабдеванбеги ўртадан чиқиб, агар жаҳон паноҳ ҳазратим каминани Тошканд ҳокимлигидан бўшатиб, ўз даргоҳлари остонасини ўпиш шарафига муяссар қилиб Хўқандга олиб кетсалар, худо хохлаसा, ўзим шу Ясси вилояти фатҳига мутасаддийлик қилгумдир, деб қолди. Амир Умархон унинг сўзини қабул қилди ва тўхтовсиз равишда ул вилоят сари юзланди. Тошканд вилоятидан чиққач, Ражабдеванбегини лашкарнинг илғори қилиб, олдинроқ кетишга рухсат берди. Ўзи отланиб, унинг орқасидан кетаверди. Ражабдеванбеги урушқоқ ва ботир жангчилар билан Ясси томон равона бўлгач, ўн кунлик йўлни уч кеча-кундузда тез суръатда босиб ўтиб, қалъага бир фарсахлик ерда ярим кечаси жангчиларини отдан тушириб, секин- аста қалъа томон юзланди. Тонг отмасдан Ясси қўрғонига етиб олишди. Дарвозага етгач, қарасалар, дарвозабонни ғафлат уйқуси элтибди. Жангчилардан бир нечтаси не азобда нарвонларни қалъа деворига шундай жипслаб ёпиштирдиларки, Бухоро минорасининг тош банди ҳақидаги ривоят одамлар ёдидан чиқиб кетди. Нарвон пиллапоясини битта- битта босиб, қалъа тепасига кўтарилдилар ва ўзларини таппа- таппа қўрғон ичкарасига ташлаб, дарвозахонага етдилар. Ноз уйқуда ётган дарвозабонларни барини қилич дами билан то қиёматгача уйғонмайдиган қилгач, бу жиҳатдан кўнгиллари тинчиб, дарвозани Ражабдеванбегига очиб бердилар. Девонбеги одамлари дарҳол ўзларини кутбул ақтоб султонил орифин Аҳмад яссавий мозори ичига урдилар. Ва бу букъа Амир Темур соҳибқирон қурдирган бинолардан бўлиб, жуда бир баланд иморатдир. Ким шу макон ичига кириб олса, шаҳар ўша кишиники бўлади деган нақл бор. Шаҳар аҳли ва Бухоро лашкари фалакнинг бу каби ўйинидан воқиф бўлгач, ҳайрат бармоғини тишлаганча бу балога не илож топишни билмай, ҳайрон ва саргардон туриб қолдилар, фарғоналик жангчилар эса қулларини қатл ва талон- торож учун чўздилар... Ражабдеванбеги вилоятни эгалаш ишларидан қутулгач, амир Умархон олидига суюнчилаш учун одам юборди. Амир Умархон икки кундан кейин шаҳарга кириб борди ва тўппа- тўғри малаклар посбонлик қилувчи ул муқаддас даргоҳга етиб, зиёрат шартларини бажо келтирди... Амир Умархон Дашти Қипчоқ вилоятининг Ўкуз тоғдан то Хазар денгизигача ерларга тўла ҳукмрон бўлгач, Ясси ҳукуматини Шайх Бадал Мирзога берди. Ўзи Хўқанд тарафига қайтиб, Тошканд шаҳрига етишганда ўз ваъдасига вафо қилди Ражабдеванбегини мансабидан озод қилиб, ўрнига Лашкар қўшбегини қўйди.. [5: 342- 345-б].

Ражабқушбеги йиллар давомида хонликнинг сиёсий ва ҳарбий мавқейини оширишда мардонавор хизмат қилган бўлсада, саройдаги баъзи бир фисқу фасодчиларнинг нопок амаллари натижасида Аҳси мавзесида фожеали қатл қилинади. Муҳаммад Ҳакимхоннинг маълумотиغا кўра Ражабқушбеги умри муддати олтмиш олти йил бўлиб, тақрибан 1751- 1817 йиларда яшаган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар (REFERENCES)

1. Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи.- Тошкент, 1996.- 200 с.
2. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии.- М.,1958.- 234 с.
3. Йўлчи Қосимов. Қўқон хонлиги тарихи очерклари.- Тошкент-Намангон, 1994.- 78 с.
4. Маҳмудов Ш. “Мунтахаб ат-таворих”- Қўқон хонлиги давлат бошқарувида оид муҳим манба// Профессор Ҳамид Сулаймон номли ре спублика ёш манбашинослари ва матншиносларининг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 15 йиллигига бағишланган илмий анжумани материаллари.- Тошкент, 2006.- 72 с.
5. Муҳаммад Ҳакимхон, “Мунтахаб ат- таворих” (форс- тожик тилидан таржумон, муқаддима, изоҳлар муаллифи Шодмон Воҳидов).- Тошкент, 2010.- 716 бет.

QO‘QON XONLIGIDA MANSAB VA UNVONLAR

ДОЛЖНОСТИ И ТИТУЛЫ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ

POSITIONS AND TITLES IN THE KOKAND KHANATE

Nabijonov Umidjon Abdug‘ani o‘gli
University of business and science talabasi
umidjonkak@gmail.com
+998 97 571 05 08

Annotatsiya

Ushbu maqola Qo‘qon xonligida mansab va unvonlar tizimi davlat boshqaruvi, harbiy tuzilma va ijtimoiy ierarxiyasi, martabali amaldorlar, harbiy qo‘mondonlar, diniy rahbarlar va mahalliy boshliqlar va qo‘shbegi, mingboshi, devonbegi kabi yuqori martabali amaldorlar faoliyati hamda harbiy sohada to‘qsaba, yuzboshi, o‘n boshi kabi unvonlar haqida ma‘lumot berilgan.

Аннотация

В данной статье представлена информация о системе чинов и званий в Кокандском ханстве, государственном управлении, военной структуре и социальной иерархии, деятельности высокопоставленных чиновников, военачальников, религиозных лидеров и местных начальников, а также высокопоставленных чиновников, таких как кушбеги, минбаши, диванбеги, и военных титулах, таких как токсаба, юзбаши и онбаши.

Abstract

This article provides information on the system of ranks and titles in the Kokand Khanate, state administration, military structure and social hierarchy, the activities of high-ranking officials, military commanders, religious leaders and local chiefs, as well as high-ranking officials such as kushbegi, mingbashi, divanbegi, and military titles such as toksaba, yuzbashi, and onbashi.

Kalit so‘zlar:

Mingboshi, Qushbegi, Parvonachi, Otaliq, yovar, qo‘rboshi, xudaychi, yuzboshi, podaboshi, qoravulbegi, eshikog‘aboshi.

Ключевые слова

Мингбоши, Кушбеги, Парвоначи, Оталик, Йовар, Курбаши, Худойчи, Юзбаши, Подабоши, Коравулбеги, Эшикогабоши.

Keywords

Mingbashi, kushbegi, parvanachi, atalik, yovar, kurbashi, xudoychi, yuzbashi, padabashi, karaulbegi, eshikogabashi.

Mustaqillikka erishgan kungacha O'zbekiston o'tgan yillar ichida o'ta mashaqqatli va sharaflı yo'lnı bosib o'tgan. Buni oldından yaxshi bilgan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda "O'z taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan halos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarnı bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'ldir" deb o'zining O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida kitobida yozib qoldirgan [1.27]. Aynan shu davrlarda vatanimiz tarixi, yurtimizdagi qadimgi davlatlar, ularning ijtimoy-siyosiy hayoti, iqtisodiyoti, davlat xavfsizlik masalalari, bir so'z bilan aytganda vatanimiz tarixini o'rganish ishtiyoqi kuchayib borgan. Bu izlanishlar orasida Qo'qon xonligi tarixi ham tarixchilar tomonidan o'rganilgan. Bu maqolada ham aynan Qo'qon xonligi davridagi mansablar va unvonlarnı keltirilgan.

Turkiston davlatlarida joriy bo'lgan vazifa va unvonlar, mansablar, ularning sohiblari haqidagi ba'zi ma'lumotlar olimlardan A. Kun, Ch. Valixonov, V. V. Bartold, A. Semyonov, B. Ahmedov, A. Vildanova, A. L. Troitskaya, R. Nabiyeu asarlarida uchraydi. Bular ichida B. Ahmedovning "Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati" maqolasi juda qiymatlidir [2.3-5]. Markaziy Osiyo davlatlarining "tarixini o'rganish tarixchi va huquqshunos olimlar oldida turgan muhim va aslo kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir, chunki bunday ilmiy izlanishlarning ilmiy va nazariy ahamiyati benihoya kattadir" deb yozadi Bo'riboy Ahmedov. Shu kabi mulohazalarga tayanib va o'nlab mahalliy tarixchilarning XIX asrda yozilgan tarixiy asarlarining ma'lumotlari asosida bizni qiziqtirayotgan masalalarnı yoritish yo'li bugunga kelib ochilgan. Qo'qon tarixiga oid asarlarning soni o'ttizdan oshadi, ammo ulardagi muhim ma'lumotlar ilmiy izlanishlar doirasiga to'liq jalb etilmagan. Afsuski, bu ma'lumotlar tarqoq va parishon holatda haligacha qolib ketmoqda. Qo'qon xonligidagi unvon, mansablar va amallarga mahalliy mualliflardan "Turkiston viloyatining gazetı" muharriri Mullo Olim Mahdum Xo'ja "Tarixi Turkiston" nomli asarida to'xtalib o'tgan [3.164-165]. Mullo Olim xonlikdagi amaldorlarnı 24 darajaga bo'lib, quyidagi ma'lumotlarnı beradi: "Xo'qand xonliklari asrıda joriy bo'lub turgan har xil mansablar, chunonchi:

Mingboshi va Amiri lashkarlik mansabi. Bu mansab voyennuy ministirlik qatorida bo'lub, ondin boshqa hukumatning hamma ishiga mudoxalasi, chunonchi, xorijiya, doxiliya ishlariga tamom daxli bo'ludur. Ikkinchi Qushbegilik mansabi. Bu mansabdagi odamlar doimo xon huzurida maslahatchi qatorida turub va yoki biror katta shaharga hokimi bil-istiqbol nasib qilatur. XIX asrning 70- yillarida Qo'qonda bo'lgan Aleksandr Kun ma'lumotiga qaraganda, qushbegidan quyida bo'lgan mansabdorlar xon qabuliga kira olmay, uning ahli rikob (uzangi ahli) qatoriga kirmaganlar. Bu mansabdorlardan ba'zilarining yillik daromadi quyidagicha bo'lgan: Inoq – xonlikda uch kishi bu mansabga sohib bo'lib, har birlari 1000 tangadan; zakotxona mehtari – 500 tanga; jarchiboshi – 300 tanga;

founded by thousands of clans, representatives of the local population. For example, the depression in the political and social life of the Ashtar Khanates in the late 17th and early 18th centuries, the growth of the economic independence of the Fergana Valley, and the rebellion of the Chodak khodas in 1704 and the seizure of part of Fergana created the conditions for this. However, although the Koson, Asht, and Chodak regions in the north and north-west of Fergana were under the control of the khodas, they could not establish an independent state.

Аннотация.

Известно, что Кокандское ханство занимает важное место в узбекской государственности, как и Бухарский эмират и Хивинское ханство. Процесс образования Кокандского ханства имеет особое значение как процесс, связанный с Шохрух бием. В начале XVIII века в Ферганской долине образовалось новое государство – Кокандское ханство, основанное тысячами родов, представителями местного населения. Например, упадок политической и общественной жизни Аштарских ханств в конце XVII – начале XVIII веков, рост экономической независимости Ферганской долины, восстание Чодак-хода в 1704 году и захват части Ферганы создали для этого условия. Однако, хотя Косонский, Аштский и Чодакский районы на севере и северо-западе Ферганы находились под контролем ходов, они не смогли создать независимое государство.

Kalit so‘zlar.

Ming urug‘i, xonlik, Chodak, xo‘qand, Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara, Qal‘ai Rahimbiy, Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh, Baliqchi, Quva, Asaka, Shahrixon, O‘sh, Poytug‘.

Keywords.

Ming clan, khanate, Chodak, Khoqand, Kokand, Namangan, Margilan, Konibodom, Isfara, Qal‘ai Rahimbiy, Kulob, Hisar, Badakhshan, Darvoz, Maschoh, Balikchi, Kuva, Asaka, Shahr Khan, Osh, Poytug.

Ключевые слова:

Род Мин, ханство, Чодак, Коканд, Коканд, Наманган, Маргилан, Канибадом, Исфара, Калай Рахимбий, Куляб, Хисар, Бадахшан, Дарвоз, Мачох, Баликчи, Кува, Асака, Шахрихан, Ош, Пойтуг.

O‘zbek davlatchiligi tarixida Markaziy Osiyo xonliklari xususan Buxoro amirligi, Xiva xonligi bilan bir qatorda Qo‘qon xonligi xam aloxida ahamyat kasb etadi Qo‘qon xonligi XVIII asrning boshlarida Farg‘ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo‘qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo‘lgan ming urug‘i asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg‘ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o‘sishi hamda 1704 yilda Chodak xo‘jalarining isyon ko‘tarib, Farg‘onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg‘onaning shimoli va shimoli – g‘arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo‘jalar qo‘l ostida bo‘lsa – da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar. Ma‘lumotlarga ko‘ra, ming urug‘ining boshlig‘i, taxminan 1669-1670 yillarda tug‘ilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) [1,14-20]. Chodak xo‘jalari qo‘lida bo‘lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710 yilda Farg‘ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to‘la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniy Abulfayzxonidan so‘ng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqda tadqiqotchilarning ham fikrlari munozaralidir. Nima bo‘lganda

ham, Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo'lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan. Shohruhbiyning o'g'li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) taxtga o'tirganidan so'ng minglar tasarrufidagi yerlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724 yilda Andijonni, 1725 yilda Xo'jandni, 1726 yilda O'ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo'shib oldi. U qisqa muddat bo'lsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo'rg'onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo'qon (Xo'qand) qishlog'i o'rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal'ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo'qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi. 1733-1750 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiy asosiy etiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo'qonda Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o'ratib oldi. Shu bilan birga u 1741-1745 yillardagi qalmoqlar (jung'orlar) ning Farg'onaga qilgan hujumlariga zarba berdi [1,94-98]. Abdulkarimbiy qalmoqlarga qarshi kurashda qirg'iz-qipchoqlar va O'ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi. Abdulkarimbiy 1750 yilda vafot etganidan so'ng xonlik taxtiga uning o'g'li Abdurahmon o'tirdi. Ammo, u taxtga to'qqiz oy o'tirib, so'ng Marg'ilonga hokim etib jo'natildi hamda taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy o'tirdi. 1753 yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo'lida garov sifatida o'shalab turilgan Bobobek xonlik taxtiga ko'tarildi. Lekin, oradan bir yil ham o'tmay O'ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o'ldirildi hamda Erdonabiy (1755-1769 yy.) qayta Qo'qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma'lumotlariga ko'ra, uning hukmronligi davrida, 1759-1760 yillarda Farg'ona to'rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonga bo'lingan bo'lib, ular ichida Qo'qon yetakchilik qilgan. Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruhbiyning uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o'tiradi. Uning taxni egallashida urug' oqsoqollarining ko'magi katta bo'lgan bo'lsada u atigi 6 oy hukmdorlik qildi. 1770 yilda Qo'qon taxtiga Abdurahmonbiyning o'g'li Norbo'tabiy (1770-1801 yy.) o'tiradi. Norbutabiy Markaziy hikimiyatni mustahkamlashda, bo'ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U Chust va Namangandagi g'alayonlarni bostirganidan so'ng, bu shaharlarga o'z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbutabiy bir qancha urinishlardan so'ng Andijon, O'sh, Xo'jand va yaqin atrofdagi qo'shni hududlarni bosib oladi. U 1799 yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo, uning yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Norbutabiydan so'ng uning o'g'li Olimxon (1801-1810 yy.) taxtga o'tirib, Qo'qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e'tibor berdi. Natijada Qo'qon xonligining siyosiy mavqeyi oshib bordi [2,47-48]. Olimxon davriga kelib Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo'qon davlati kuchayib borishi bilan davlatning siyosiy maqomi ham o'zgaradi. Agar

Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari “biy” va “bek” unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo‘lsalar, Olimxon davridan boshlab (1805 yil) hukmdorlar rasman “xon” deb yuritila boshlandi. O‘z davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib o‘ziga yangi viloyatlarni, jumladan Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Turkistonni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. Qisqa muddat O‘ratepani ham egalladi, Jizzax va Zominga yurishlar qildi. Harbiy islohatlar o‘tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo‘lgan ayrim zodagonlar guruhi unga qarshi fitna tayyorlay boshladilar. Olimxon o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o‘ldirtirib yuboradi. Manbalarning ma‘lumot berishicha, bu voqyealardan so‘ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada, 1810 yilda Olimxon Toshkentdan Qo‘qonga qaytayotganda, Oltiqush mavzesida o‘g‘li Shohruhbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o‘ldiriladi. Manbalarga ko‘ra, Umarxon (1810-1822 yy.) hukmdorligi davrida yirik yer egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqeyi yanada oshadi [2,130-131]. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun – qoidalar o‘rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818 yilda Umarxon ruhoniylarning roziligi bilan “amir al-muslimin” unvonini olib ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo‘ladi. Muhammad Hakimxon ma‘lumotlariga ko‘ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. Shuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallaydilar. Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o‘zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O‘z davrida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo‘natilganligi ma‘lum. N. Petrovskiy Umarxon hukmronligi davri haqida quyidagi ma‘lumotlarni beradi: “Umarning xonligi ham oldingi xonlarnikidek davom etdi, ya‘ni, u o‘z yerlarini kengaytirdi. Bu xon davrida Turkiston viloyati musulmonlarning Hazrat (Sulton al-orifin Ahmad Yassaviy davf etilgan Turkiston) shahri bilan birga zabt etildi. Umarxon halq sevib ardoqlagan xonlardan biri bo‘ldi. Qo‘qonda ikki qator she‘r tarqalgan bo‘lib, unda Umarxon haqida juda iliq va yaxshi so‘zlar aytilar edi”. 1822 yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Muhammadalixon (Madalixon) (1822-1842 yy.) o‘tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg‘izlarning ba‘zi tumanlari xonlikka qo‘shib olinadi hamda Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschok kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar. Manbalarga ko‘ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826-1831 yillar davomida Qashg‘arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda 70 ming uyg‘ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko‘chirib keltirdi. Natijada din peshvorlari Muhammadalixonga “G‘oziy” (“din homiysi”, “din yo‘lida kurashuvchi”) unvonini berdilar. 1840 yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo‘lgan Haqquli

mingboshining tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo‘lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo‘lib, asosiy vaqtini haramida o‘tkaza boshladi. Natijada davlatni boshqaruv ishlarida suiste‘molliklardan umumiy noroziliklar boshlanib, xonni ag‘darish uchun fitna tayyorlana boshladi. Lekin o‘z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko‘zi yetmagan bir guruh Qo‘qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrulloga noma yozib, undan yordam so‘rashdi. Qo‘qon yurishi uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo bu taklifni tezda qabul qilib, 1842 yil aprelda Qo‘qonni bosib oldi. Qo‘qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammadalixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi. Amir Nasrullo Qo‘qon xonligining Buxoroga qo‘shib olinganligini e‘lon qilib, Qo‘qonda o‘z noibi Ibrohim dodhoh Mang‘itni qoldiradi. Ammo, Ibroxim dodhohning Qo‘qon halqiga o‘tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo‘zg‘olon ko‘tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etadilar. Qipchoqlar Muhammadalixonning qarindoshi Sherali boshchiligida Qo‘qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etdilar hamda Sheralixon (1842-1845 yy.) taxtni egalladi [3,53-55]. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda yetakchi mavqeyga ega bo‘ldilar. Qo‘qonda bo‘lgan voqyealardan xabar topgan amir Nasrullo 1842 yilning kuzida yana Qo‘qonga yurish qildi, ammo bu safar unga omad kulib boqmad. Muhammadalixon davrida yuzboshi bo‘lgan Musulmonquli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib Qo‘qonga keladi va qo‘qonliklarni taslim bo‘lishga ko‘ndirish o‘rniga bir tan – bir jon bo‘lib amir Nasrulloga qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko‘ra Qo‘qonda himoya vositalari kuchaytirildi. Bir oydan ziyodroq Qo‘qonni qamal qilgan amir Nasrullo o‘ziga qarshi suiqasd uyushtirilayotligi hamda xivaliklar chegaraga joylashgan Buxoro qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni olib Buxoroga qaytishga majbur bo‘ldi. Buxoroliklarning ketishi bilan Qo‘qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Sheralixon keksa odam bo‘lib oqko‘ngil va muloyim inson edi. Uning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, davlat boshqaruvini o‘z qo‘llariga oldilar. Ammo, 1845 yilda Buxoroda bo‘lgan Olimxonning o‘g‘li Murodxon (Qo‘qonda 11 kun xon bo‘lgan) amir Nasrulloning yordami bilan Qo‘qonga kelib Sheralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo‘lgan mingboshi Musulmonquli bu voqyeadan xabardor bo‘lgach Sheralixonning besh o‘g‘lidan biri Xudoyorxonni olib Qo‘qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga o‘tqazadi (1845-1853, 1863, 1865-1875 yy.). 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonquli mamlakatni deyarli o‘zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida ikkita kuch – o‘troq aholi va ko‘chmanchi turkiy qabilalar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylandi.

Xususan, Shodmonxo‘ja, Said Mahmudxonto‘ra, Aliqulilar Sulton Saidxon boshchiligida Marg‘ilon tomondan kelib Andijonni bosib oldilar va uning atroflaridagi Baliqchi, Quva, Asaka, Shahrixon, O‘sh, Poytug‘ mavzellarini talon-taroj qildilar. 1863 yil 26 aprelda Sulton Saidxonning qo‘shini Mingtutga kelib,

Qo‘qonni qamal qildi. Amir Muzaffarning Xudoyorxonga yordami tufayli qirg‘iz-qipchoq lashkari Asaka tomonga ketib, Qo‘rag‘ulcha darasida himoyaga o‘tdi [4,65-67].

Ma‘muriy–hududiy tuzilishi va aholisi. XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg‘ona vodiysidan iborat bo‘lib, bu davrda Norbo‘tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o‘z itoatiga kirgizib, ularni Qo‘qonga bo‘ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg‘ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki – viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo‘ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamalari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qilinib, 1817 yilda O‘ratepa bosib olinadi. Muhammadalixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g‘arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi yerlar – Shug‘non, Ro‘shon va Vaxon (bu hudud Qo‘qonga nomigagiga qaram bo‘lgan) Ko‘lob bilan, sharqda Qashg‘ar bilan chegaralangan. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin O‘rtasida joylashgan Farg‘ona hududlari, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Namangan, Xo‘jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko‘ligacha bo‘lgan qirg‘izlar yashaydigan yerlar, ko‘chmanchi qirg‘izlar yashaydigan Billur tog‘ining sharqiy etaklari, 1830 yildan boshlab g‘arbiy etaklari ham kirgan. XIX asr manbalarida Qo‘qon xonligi **beklik**, ba‘zan **viloyat va sarkorlik** sifatida tilga olingan ma‘muriy – hududiy qismlarga bo‘lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo‘qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo‘qon va uning atrofi, Marg‘ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon. “Turkestanskiye vedomosti” (1876, №13) to‘plamida esa Asaka, Marg‘ilon, Baliqchi O‘sh, So‘x, Koson va O‘zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi. Hokimlar va hududiy bo‘linma boshliqlari xon oilasi a‘zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o‘g‘illari va yaqin qarishdoshlari tomonidan boshqarilgan [5,72-75]. O‘z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o‘zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo‘lib berganlar. Qo‘qon xonligining ma‘muriy-hududiy boshqaruv tizimida **bek** (hokim, voliy) va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan **hokim** va **qozi** ko‘plab vakolatlarga ega bo‘lgan. Bek o‘rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo‘lib, ular mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq hamda to‘lovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vassallari bo‘lib, mamlakatni idora etishida uni qo‘llab-

quvvatlashlari, zarur bo'lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo'yishlari, kerakli vaqtda o'z qo'shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtiroq etishlari va sovg'a-salomlar yuborib turishlari lozim bo'lgan. Qo'qon honligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi. XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan. Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir – biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysining sug'orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo'lib, ular o'troq hayot kechirganlar. Sahro, tog' va tog' oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yashagan. Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma'lumotlar beradilar [6,74-75]. Bu ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo'shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o'rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko'plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi. Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li rayonlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashaganlar. Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga

majbur bo'lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar. Turkiston gubernatorligi tashkil topganidan so'ng yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar [8,57-58].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abdullaev, R.. O'zbekiston tarixi: iqtisodiy jihatlar. Toshkent: Fan. (2005)
2. Alimov, U.. Qo'qon xonligida pul tizimi va soliq islohotlari. Toshkent: Ilmiy Meros. (2019)
3. Bekmurodov, I. (2018). Qo'qon xonligi va Rossiya iqtisodiy munosabatlari. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Bregel, Y.. Central Asia: An Historical Overview. Bloomington: Indiana University Press. (1999)
5. Holbekov, M. Markaziy Osiyo iqtisodiy aloqalari va savdo yo'llari. Samarqand: Ilmiy Nashr. (2015).
6. Madrahimov, T. O'rta Osiyoda bozor iqtisodiyoti shakllanishi: Qo'qon misolida. Toshkent: Yangi Asr Avlodi. (2013)
7. Niyozov, S. Qo'qon xonligi iqtisodiy tarixi. Toshkent: Sharq nashriyoti. (2010).
8. Qodirov, A. Markaziy Osiyodagi savdo yo'llari va ularning iqtisodiy ta'siri. Buxoro: Iqtisodiyot va Tarix. (2016).
9. Ross, E. The Silk Roads: A New History of the World. London: HarperCollins. (2007).
10. Vamberi, A. Travels in Central Asia. London: John Murray (1873) .
11. https://daryo.uz/yoqolgan-manaviy-meros-qoqon-xonligi-saroy-kutubxonasi-tarixidan?utm_source=chatgpt.com/2021/02/23
12. https://daryo.uz/ozbek-davlatchiligiga-berilgan-kuchli-zarba-qoqon-xonligining-tugatilganiga-145-yil-toldi?utm_source=chatgpt.com/2021/03/05
13. https://www.researchgate.net/publication/Iqtisodiyot_nazariyasi_I_tom_darslik/3737976
- 14.

ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАРИДА ЭЛЧИЛИКЛАРНИНГ ТАРКИБИ

THE COMPOSITION OF EMBASSIES IN THE DIPLOMATIC RELATIONS OF THE KOKAND KHANATE

СОСТАВ ПОСОЛЬСТВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Шерзодхон Махмудов

*Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих институти, “Ўрта асрлар тарихи бўлими”
бошлиги, т.ф.н., доц.*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Qo'qon xonligining tashqi siyosati doirasida olib borilgan diplomatik aloqalar va ushbu aloqalarda ishtirok etgan elchiliklar tarkibi tahlil qilinadi. Xususan, elchilik delegatsiyalarining ijtimoiy-ma'muriy maqomi, ularning vazifalari, soni, tarkibidagi shaxslar va ularning tayyorlanish darajasi tarixiy manbalar asosida o'rganiladi. Maqolada Qo'qon xonligi tashqi siyosatining o'ziga xos jihatlari, qo'shni davlatlar bilan olib borilgan muzokaralarda

elchilar tutgan o'rni va roli ham yoritiladi. Tadqiqot, ayniqsa, 18–19-asrlardagi elchilik amaliyotini yoritishda muhim manba va ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Annotation.

This article analyzes the diplomatic relations of the Kokand Khanate within the framework of its foreign policy and examines the composition of the embassies involved in these relations. In particular, it studies the social and administrative status of embassy delegations, their duties, size, the individuals comprising them, and their level of preparation, based on historical sources. The article also highlights the specific features of the Kokand Khanate's foreign policy and the role of ambassadors in negotiations with neighboring states. This research serves as an important source and academic foundation for understanding embassy practices, especially during the 18th–19th centuries.

Аннотация.

В статье анализируются дипломатические отношения Кокандского ханства в рамках его внешней политики, а также состав посольств, участвовавших в этих отношениях. Особое внимание уделяется социально-административному статусу посольских делегаций, их обязанностям, численности, составу и уровню подготовки на основе исторических источников. В статье также освещаются особенности внешней политики Кокандского ханства и роль послов в переговорах с соседними государствами. Исследование служит важным источником и научной основой для изучения посольской практики, особенно в XVIII–XIX веках.

Kalit so'zlar.

Эрдонахон, Муҳаммад Раҳимхон, шайхулислам, хожакалон, Али Акбар ҳожи нақиб, Абулқосимхон эшон, Эшон қози ибн Низомиддин.

Keywords.

Erdonakhon, Muhammad Rahimkhan, Shaykh al-Islam, Khoja Kalon, Ali Akbar Haji Naqib, Abulqosimkhan Eshon, Eshon Qazi ibn Nizomiddin.

Ключевые слова.

Эрдонахон, Мухаммад Рахимхан, шейх-уль-ислам, ходжа-калон, Али Акбар ходжа нақиб, Абулкасимхан эшон, Эшон казы ибн Низамиддин.

Дипломатик миссияларнинг самарали натижаларга эришишида элчининг ақл-заковати, тафаккури, ахлоқи, муомала маданияти ҳамда насаби ва ижтимоий мавқеи муҳим ўрин тутди. Ҳар бир давлат дипломатик муносабатларни ўрнатишда иқтидорли, салоҳиятли давлат арбоблари, савдогарлар ёки диний уламолардан элчи сифатида фойдаланган.

Қўқон ҳукмдори Эрдонахон Бухоро ҳокимиятига манғитлар сулоласи келгандан сўнг, улар билан элчилик алоқаларини ўрнатар экан, дастлаб ўз хонадонига мансуб шахсларни элчиликка танлаган эди. У ўз синглисининг ўғли бўлган Хонхўжа Юсуфалихўжа ўғлини Бухорога элчи қилиб юборди [21, 124]. Манғитлар етакчиси ҳам бу йўлни тутишга ҳаракат қилганлиги манбалардаги маълумотларда қайд этилади. Унга кўра, Муҳаммад Раҳимхон ҳам Қўқонга ўз укаси Ёвқочтибийни Қўқон элчисининг қайтишида унга қўшиб бирга элчи қилиб юборди. Бу ўринда ҳар икки сулола етакчилари дастлаб ўзига яқин бўлган кишиларни элчиликка танлагани ҳам бежиз эмас. Уларнинг бундай йўл тутиши, бир томондан, яқин ҳамкорликни англатиши билан бир қаторда, ўша даврда Ўратепа ва Ҳисор бекликларини бўйсундиришга қаратилган ҳарбий келишувлари билан ҳам боғлиқ эди.

Кўп ҳолларда элчилик юборилаётган давлатнинг салоҳияти, давлат ҳукмдорларининг дунёвий ва диний қарашлари, элчиликдан кутилаётган натижалар моҳиятидан келиб чиққан ҳолда элчилар тайинланган. Буни Туркистон хонликларининг Усманийлар билан дипломатик алоқалари мисолида кузатиш мумкин. Бу ўринда қайд этиб ўтиш лозимки, умумий тарзда Туркистон хонликларининг Усманийлар давлати билан олиб борган дипломатик алоқалари ёки Бухоро, Хоразм ва Қўқон хонликларининг ҳар бири бу давлат билан алоҳида элчилик муносабатларини олиб борганлигига доир тадқиқотлар кўлами кенг бўлишига қарамай, уларда элчилар шахси ёки мавқеи масаласига эътибор қаратилмаган [8].

Қўқон хонлигини Усманийлар давлати билан нафақат унинг халифалик маркази ва диний-маънавий раҳнамолик сифатидаги устивор мавқеи, балки Россия империяси тажовузидан ҳимояланиш масаласи ҳам яқинлаштирди. Юзага келган ушбу сиёсий вазият Туркистон хонликларини Усманийлар билан дипломатик алоқаларини янада жадаллаштириш, халифалик маркази деб қаралган давлат билан янада яқинлашиш ва икки ўртадаги муносабатларни самарали олиб боришга лаёқатли муносиб элчиларни танлаш масаласини кун тартибига қўйди. Хонликлар ҳукмдорларининг танлови бу масалада, асосан, диний уламоларга тушди. Буни 16 – 19-юзйилликларда ёзилган тарихий асарлар, расмий ёзишмалар ва архив ҳужжатлари яққол тасдиқлайди. Уларнинг кўрсатишича, Қўқон хонлигининг хорижий мамлакатлар билан дипломатик муносабатларида элчилик вазифасини бажарганлар кўпроқ диний уламолардан танланган бўлиб, бунинг бир қанча омиллари мавжуд эди. Энг асосий омил – элчининг дунёқараши, ақл-заковати, жамият ижтимоий-сиёсий ва маънавий ҳаётида тутган ўрнидан келиб чиқар эди. Низомулмулкнинг ифодаси билан айтганда, “Подшоҳнинг элчи юборишдан мақсади хат ёки мактуб юбориш эмас, балки унинг сафардан кўзда тутган қатор мақсадлари ва сир-асрорлари мавжуд” [15]. бўлгани каби, бу вазифани жуда маромига етказиб адо этган диний уламоларнинг элчиликка асосий номзод сифатида танланишига сабаб бўлган. Қолаверса, диний уламолар, диний қатлам вакиллари давлат бошқарув тизимида муайян мансаб ва унвонларга эга бўлганлиги уларни давлат сиёсатига яқинлаштирган, оқибатда уларнинг кучли сиёсий тафаккури ҳамда ахлоқий кўрсаткичлари, хусусан, муомала маданиятига эгаллиги элчи сифатида танланишига сабаб бўлган.

Элчиликка танланган дин уламолари кўп ҳолларда давлат бошқарувида *шайхулислом*, *хожакалон* каби мансабларда ёки *нақиб* каби унвон соҳиби бўлганлар. Баъзилари эса тасаввуф лидерларидан ёки машҳур нақшбандия тариқати вакиллари Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор ёки Жўйбор хўжаларининг авлодларидан бўлган диний уламолар эди.

Бошқа мамлакатларга юбориладиган элчиларнинг номзоди ҳам *шиғовул* томонидан ҳукмдорга тавсия этилган. Бу ҳақда 1863 – 1865 йилларда Қўқон хонлигида шиғовул лавозимида фаолият юритган Муҳаммад Юнус Тойиб ўзининг “Тарихи Алиқули амирлашқар” асарида “Одамзод ҳамма баробар

эмас, балки зукколиги, ақлу ва ҳушу фаҳми ўткирлиги билан ажралиб туради” [12, 61], деб тасаввуфнинг Нақшбандия-мужаддия тариқати пешвоси Миён Халил Соҳибзода ҳазратнинг элчилик фаолияти тўғрисида сўз юритади [12, 61]. Миён Халил Соҳибзода Муҳаммад Алихон (1822 – 1841) томонидан 1841 йилда Санкт-Петербургга элчи сифатида танланган бўлиб, унинг дипломатик фаолияти ижобий натижалар билан яқунланган эди.

Албатта, диний уламолар мадрасаларда таҳсил олиб, мукаммал билим ва кўникмага эга бўлганлар. Муҳаммад Юнусжоннинг ўзи Қўқон хонлиги марказий бошқарув тизимида *шиғовул* лавозимида ишлаганлиги боис бош вазир Алиқули амирлашқарга Россия империяси тажовузи туфайли мураккаб сиёсий вазият юзага келган вақтда мусулмон мамлакатларидан ёрдам сўраб юбориш учун айнан машҳур диний уламолар Али Акбар хожи нақиб, Абулқосимхон эшон, Эшон қози ибн Низомиддин қози каби шахсларни элчиликка тавсия қилган [4, 61]. Ушбу маълумот Туркистонда вужудга келган мураккаб сиёсий вазиятни мусулмон давлатлари билан дипломатик алоқаларни мустаҳкамлаш орқали ҳамда ушбу алоқаларни амалга оширишдаги асосий воситачи – элчиларни тайинлашда диний уламоларга кўпроқ эътибор берилганлигини кўрсатади.

Элчиларни диний уламолардан тайинланиши бошқа хонликлар тажрибасида ҳам қўлланилган. Жумладан, “Усмонли архиви” фондидаги ҳужжатлардан маълум бўлишича, Бухорода аштархонийлар хонадони вакили Убайдуллахон (1702 – 1717) томонидан 1707 йилда Хожа Муҳаммад Амин элчи қилиб Истанбулга юборилган. У аштархонийларнинг давлат бошқарувида энг муҳим лавозимларни эгаллаган. “Дастур ул-мулк” асарида Хожа Муҳаммад Амин саййидлардан эканлиги ҳам кўрсатилади [21, 196]. Мир Муҳаммад Амин Бухорийнинг “Убайдуллонома” асарида Хожа Муҳаммад Аминни *мухтасиб* лавозимида фаолият юритиб, *иноқ* унвонига эга бўлганлиги қайд этилади [11, 13]. Бундан ташқари, бу шахс Абулфайзхон ҳукмдорлигида муҳрдор лавозимида ҳам фаолият юритган [11, 13]. Одатда, муҳрдорлик давлат бошқарувида ҳукмдорга энг яқин шахс зиммасига юклатилган. Келтирилган ушбу маълумот, Хожа Муҳаммад Аминнинг олий ҳукмдорга яқин бўлганлигини кўрсатади.

Субҳонқулихон (1681 – 1702) билан Балх ҳокими ўртасида юзага келган зиддиятли ҳолатни ҳам Хожа Муҳаммад Амин элчи сифатида илиқлаштиришга эришган эди. Унинг ўта юқори муомала маданияти, инсоннинг кўнглини хушнуд этувчи латиф сўзлари билан душманнинг қалбидаги ғазабни йўқота олиш қобилияти Хожа Самандар Термизий томонидан бежиз таърифланмаган [21, 196]. Шу боис ҳам Убайдуллахон уни халифалик маркази деб қаралган Усмонийлар давлатига элчи сифатида танлаган эди.

Хоразм ҳукмдори Элбарсхонга (1728 – 1740) қадар Урганчдан Усмонийлар давлатига элчилар юборилганлиги тўғрисида маълумотлар йўқ. 1735 йилда Хоразм хонлигидан Истанбулга Элбарсхоннинг элчи юбориши икки давлат ўртасидаги дастлабки дипломатик муносабатларнинг дебочаси

сифатида баҳоланиши мумкин. Ушбу элчиликка ҳам бошқа хонликлар ҳукмдорлари каби Хоразм ҳукмдори диний уламолардан бўлган Мулла Охунд Авазни танлаган эди [3, 18].

19-юзйиллика келиб Қўқон хонлиги билан Усмонийлар давлати ўртасидаги дипломатик алоқалар анча фаоллашган. Усмонли архиви ҳужжатлари ҳамда тарихий асарлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, Қўқондан Истанбулга 12 марта элчилик юборилган бўлиб, шундан 6 таси махсус дипломатик миссия тарзида ташкил этилган эди. Қолганлари эса, бу мамлакат ҳудуди орқали ҳаж зиёратига боришни ихтиёр этган шахслар бўлиб, улар зиммасига расмий элчилар зиммасига юкланадиган муайян топшириқлар берилган эди. Усмонли архивидаги ҳужжатлар асосида шуни таъкидлаш мумкинки, Истанбулга юборилган элчиларнинг барчасининг шахслари маълум бўлиб, уларнинг 6 таси диний уламолар ва тасаввуф тариқати вакилларидан эди [1, 61-67].

Қўқондан Истанбулга юборилган дипломатик миссиялардан Хожа Мир Қурбон, Муҳаммад Зоҳидхўжа ва Саййид Ёқубхўжа эшон бошчилигидаги элчиликлар энг нуфузлиси ҳисобланади [1, 61-67]. Бу шахслар Умархон (1810 – 1822), Муҳаммад Алихон (1822 – 1841), Султон Саййидхон (1863 – 1865) ҳукмронлиги даврида хонликнинг энг йирик диний уламоларидан ҳисобланган эдилар.

Истанбулга Қўқон хонлиги томонидан дастлабки элчилик юборилиши Умархон даврида амалга оширилган ва икки давлат расмий дипломатик муносабатларга киришган [2, 287-290]. Дастлабки элчиликка ҳамадонлик *саййид*лардан бўлган Хожа Мир Қурбон танланган эди [1, 61-67].

“Усмонли архиви” ҳужжатларига кўра, 1837 йилда Қўқондан Истанбулга юборилган Саййид Муҳаммад Зоҳид хожа *хожа-калон* унвонига эга бўлган [19]. Шунингдек, у Қўқон хони Муҳаммад Алихон томонидан усмонли султони Маҳмуд II га (1808 – 1839) юборилган мактубнинг усмонличага таржимасида Жўйбор шайхлари сулоласидан бўлганлиги қайд этилади [18].

“Усмонли архиви” жамғармасида сақланаётган икки мактуб Аликули амирлашкар элчиси Саййид Ёқубхон тўра шахсиятига оид анча тўлиқ ва аниқ маълумотларга эга. Мактубда кўрсатилишича, Саййид Ёқубхон тўра Қўқон хонлигида *қози ал-қуззот* лавозимида [10]. фаолият кўрсатиши билан бир қаторда, *нақиб* [14]. унвонига ҳам эга бўлган.

Элчи Саййид Ёқубхон тўрани турк олими М.Сарай Туркистон етиштирган энг кучли дипломатлардан бири эди, деб таърифлайди [3, 69]. Шунингдек, турк олими томонидан элчи Саййид Ёқубхон тўра Усмонли давлатининг Туркистон мусулмонлари учун ижобий таъсир этишига қаратилган янги ташаббуслар билан чиққанлиги қайд этилади [3, 70].

Қўқондан юборилган уламоларнинг хонлик диний бошқарувидаги диний рутбасига алоҳида эътибор қаратилган. Шуни алоҳида қайд этиш керакки, ўзбек давлатидан элчи сифатида танланган уламолар “*Аҳли байт*” вакилларидан эди. Уларнинг пайғамбаримиз Муҳаммад С.А.В. хонадонига

мансублиги дипломатик мактубларда алоҳида эътироф этилиши, Туркистондан халифа хузурига элчиликка номзодларни танлашда уларнинг саййидлигига ҳам алоҳида эътибор қаратилишини англатади. Бу бир жиҳатдан мусулмон дунёсида халифалик мақомига эга Усмонли султонларига яқинлашиш учун қўлланилган усул, деб баҳолаш мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, 19-юзйилликнинг биринчи ярмида Туркистон худудига Россия босқини таҳдиди амалий жиҳатдан ўсиб борди. Бундан хавотирланган Туркистон хонликлари ҳукмдорлари ушбу масала борасида бирлашиш эмас, балки ташқаридан ўзига сиёсий ҳамкор излаш йўлидан бордилар. Ҳатто Қўқон ҳукмдорлари бирлашиш ғоясини ўртага қўйиб, бунда Усманийлар давлатидан ёрдам кутди. Албатта, бу мушкул масалаларни дипломатик йўли билан, унинг турли усулларида фойдаланган ҳолда, нозик тарзда ҳал қилишга уриндилар.

Усманийлар давлатига юборилган элчиликларни ўрганар эканмиз, Бухородан ҳам, Хоразмдан ҳам, Қўқондан ҳам кўп ҳолларда диний уламолар, тариқат вакиллари, муайян диний билимга эга бўлган шахслар элчиликка танланганлигининг гувоҳи бўламиз. Фикримизча, бу ҳолатнинг икки жиҳати мавжуд бўлиб, уларни қуйидагича изоҳлаш мумкин. Биринчидан, юқорида таъкидланганидек, Туркистон ҳукмдорлари давлат бошқарувида асрлар давомида шаклланган анъаналардан воз кечмаган. Зеро, бу анъаналарга мувофиқ, муайян давлатга элчи тайинланганида унинг билими, диний илмлардан бохабарлиги, сўзамоллиги ва бошқа хислатларига эътибор қаратилган. Иккинчидан, Туркистон хонликларининг ҳукмдорлари бу даврда Халифалик раҳнамоси ва маркази ҳисобланган Усманийлар давлатига айнан диний олимларни элчиликларга бош қилиб жўнатиш орқали ўз истак ва хоҳишларининг тезроқ эшитилиши, ўртадаги муносабатларнинг тушунарли ва шаффоф бўлишига интиланлар.

19-юзйилликнинг бошларига келиб эса Қўқон – Бухоро муносабатларида ҳам диний уламолар элчиликка танланганини кўрсатади. Умархон ҳукмронлигида Тўрахожа хожакалон Бухорога элчи қилиб юборилган эди [13, 27]. Муҳаммад Алихон ҳам бу анъанани давом эттирган. У Бухорога ҳам нуфузли уламоларни элчи қилиб юборганлиги тарихий асарлардан маълум. 1824 йилда Бухорога дастлаб Азимбой додхоҳ элчи қилиб юборган бўлса, кейинги элчиликка Султонхон тўра Адо танланган эди.

Умархон даврида Хоразм билан ўрнатилган дастлабки элчилик алоқаларида ҳам диний уламолардан элчи танланганлигини кўриш мумкин. 1815 йилда Саййид Муҳаммад Хожа Хоразмга элчи бўлиб борган эди.

Дипломатик муносабатларда диний уламолар доим ҳам элчи сифатида тайинланмаган. Манбалар маълумотларидан элчиликка кўп ҳолларда сарой амалдорлари тайинланганини кузатиш мумкин. Бунга Умархоннинг Хоразмга юборган иккинчи элчилиги мисол бўлади. У томонидан 1821 йилда Абдухолик қоровулбеги исмли амалдор Хоразмга элчи қилиб юборилган эди [7, 185]. Бундай танлов икки сулола етакчилари томонидан ҳарбий иттифоқчилик келишуви билан боғлиқлигини кўрсатиб ўтиш мумкин. Бу

ўринда элчиликка танлаш дипломатик алоқаларнинг йўналишига қараб белгиланганлиги билан ифодаланади.

Худоёрхон даврида Хоразм билан дипломатик алоқалар жуда ҳам фаоллашган вақтда деярли барча элчилар давлат амалдорларидан танланганлигини тарихий маълумотлар тасдиқлайди. Хусусан, Худоёрхон 1848 йилда Холмуродбий, Баҳодир додхоҳни, 1854 йилда Муҳаммад Карим баҳодирбошини элчи қилиб юборган эди. Бу вақтда Россия империясининг хонлик шимолий ҳудудларини босиб олиш жараёнида икки хонлик ўртасида муносабатлар жадаллашган эди. Шу нуқтаи назардан масалага ёндошган ҳукмдорлар элчиларни, асосан, ҳарбийлар орасидан танлашга ҳаракат қилганликлари кўринади.

Айрим ҳолларда элчиликка карвонбошилар ҳам танланган ҳолатлар юз берган. Бунга 1853 йилда хонликдан Россияга юборилган элчи Йўлдошбой карвонбошини мисол келтириш мумкин [6, 121].

Кўқондан Пекинга юборилган элчиларнинг аксарияти эса давлат амалдорлари бўлган. Абдуллоҳ понсадбошининг “Тарихи сиғарий” асарида қайд этилишича, 1831 йилда Пекинга юборилган Кўқон элчиси Аълам почча эди [5]. Аълам поччанинг Пекинга элчи бўлиб борганига оид маълумот Тождир Хўжандийнинг “Ғаройиби сипоҳ” асарида ҳам қайд этилади [17, 55]. Аълам почча диний уламолардан бўлганлигига доир маълумот мавжуд эмас. Аммо унинг тошкентлик савдогар бўлганлиги маълум [9, 136]. Бу ўринда Аълам почча бежиз элчи сифатида танланмаганлигини кўрсатиб ўтиш лозим. Чунки Кўқоннинг Чин империяси билан дипломатик алоқаларининг асосий йўналиши Шарқий Туркистон ва у ердаги савдони назорат қилиш билан боғлиқ эди. Шу ҳолатдан келиб чиққан ҳолда, дипломатик алоқаларнинг мақсадига қараб элчилар танланган.

Россияга элчи юборишда ҳам Кўқон ҳукмдорлари вазиятдан келиб чиқиб ҳаракат қилганликларини кузатишимиз мумкин. Бу олис юртга юборилган элчиларнинг аксарият қисмини амалдорлар ташкил этган. Жумладан, Россия империясига юборилган дастлабки элчилар Шоқирбек оталиқ ва Раҳматилла кушбеги исмли давлат мулозимлари бўлган эди. Кўқон хонлигидан Россияга юборилган кейинги дипломатик миссияларга ҳам давлат амалдорлари элчиликка танланганлигини кўриш мумкин. Жумладан, 1859 йилда Маллахон Раимбек додхоҳ исмли мулозимни элчи қилиб юборган эди [16, 2]. 1874 йилда эса Худоёрхон Мирза Ҳаким парвоначи бошчилигидаги элчиликни Россияга юборади. Россия империясига 1850 йиллардан кейин фақат давлат мулозимларининг элчи қилиб танланиши сиёсий вазият билан боғлиқ бўлган.

1829 йилда Саййид Мирқурбон ва Турсунхўжа судур, 1841 йилда эса Миён Халил Соҳибзода элчиликка танланган уламолар вакиллари эди. Миён Халил Соҳибзоданинг элчилик фаолияти жуда машҳур бўлганлиги учун Худоёрхон ҳам 1853 йилда уни яна қайта Санкт-Петербургга элчи қилиб юбормоқчи бўлган. Империянинг Сибирь ҳудудларида мавқеи ниҳоятда кучли бўлган ва улар орасида кўп сонли муридларга эга Миён Халил

Соҳибзодага элчилик вазифаси таклиф қилинганда, у хизмат ҳаққи учун 3000 тилло сўраган. Бу эса кенгашда муҳокама қилинар экан, ҳукумат аъзолари хазинадан бундай катта маблағ беришни маъқулламаганлар [6, 121]. Қўқон хонлигининг Олий кенгашида муҳокама натижасида Йўлдошбой карвонбоши элчиликка танланган. У элчилик вазифасини бажариш хизмати учун 500 тиллага рози бўлган эди [6, 122].

Ҳиндистонга юборилган элчилар ҳам, асосан, давлат амалдорларидан танланган. 1857 йилда Маллахон Худойназар қоровулбегини, 1864 йилда Султон Сайидхон томонидан Ҳожибек эшикоғаси, Назар додхоҳ, Тошхўжа судур каби давлат амалдорлари элчи этиб Ҳиндистонга юборилган.

Қўқон хонлигида элчиликка танланган номзодларни ўрганиш натижасида шуни алоҳида қайд этиш мумкинки, Усманийлар давлатига элчилар, асосан, диний уламолардан белгиланган. Усманийлар давлатига юборилган элчиликлардан фарқли равишда Қўқон хонлигидан Чин, Россия, Ҳиндистонга эса, асосан, давлат амалдорлари ёки йирик савдогарлар элчиликларга бош қилиб жўнатилганлигини тарихий далиллар кўрсатмоқда. Бу эса хонликда элчилар тайинлаш борасида ўзига хос ёндашувлар шаклланиши, ҳар бир давлатга дипломатик муносабатларнинг йўналишлари ҳамда белгиланган мақсадларидан келиб чиққан ҳолда элчилар белгиланганлигини кўрсатади. Шу билан бирга Қўқон хукмдорларининг дипломатик алоқаларда маҳорати ва тафаккури ошиб борганлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Mahmudov Sh. 1864 Yılında Hokand'dan İstanbul'a Gönderilen Diplomatik Misyon // İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi. 2020
2. Mahmudov Sh. The Interrelations of Kokand khanate with Ottoman Empire (1st half of the 19th of century) // International scientific conference about “XVIth Turkish congress of history” Ankara. 2015.
3. Saray M. Rus isgali devrinde Osmanli devleti ile Turkistan hanliklari arasindeki siyasi munasabetsler (1775 – 1875). – Ankara: Turk tarih kurumu, 2017.
4. The Life of Alimqul. A Native Chronicle of Nineteenth Century Central Asia.
5. Абдуллоҳ понсадбоши. Тарихи сиғарий.
6. Абу Убайдуллоқ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол.
7. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. – Тошкент: Академнашр, 2019.
8. Болтабоев Н. Амир Умархоннинг мактуби // Ўзбекистон адабиёти ва санъати 1997 йил 24 октябр. № 43; Komatsu H. Khoqand and Istanbul: An Ottoman document relating to the earliest contacts between the khan and sultan // Asiatische Studien Etudes Asiatiques LX.4.2006. P. 963-986; Erdogru A. The Khoqandi Envoys in Ottoman Istanbul // Central Asian Journal 52/1. 2008. P. 1-1.; Бабаджанов Б. Кокандское ханства: власть, политика, религия. Ташкент-Токио: Янги нашр, 2010. 744 с; Васильев А.Д. Знамя и Меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв). – Москва, 2014. 356 с.; Levi S. The Rise and Fall of Khoqand 1709-1876. Central Asia in the global age. Published by the University of Pittsburgh Press, 2017. 258 p; Mahmudov Sh. The Interrelations of Kokand khanate with Ottoman Empire (1st half of the 19th of century) // International scientific conference about “XVIth Turkish congress of history” – Ankara, 2015. P.

287 – 290; Mahmudov Sh. 1864 Yılında Hokand'dan İstanbul'a Gönderilen Diplomatik Misyona // İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi. (Türkiye) Volume 9, Issue 4. 2020. P. 61-77.

9. Кузнецов В. Экономическая политика цинского правительства в Синьцзяне в первой половине XIX в. – Москва: Наука, 1973.

10. Қози ал-қуззот – Қўқон хонлиги марказий бошқарув аппаратида қозиларнинг раҳбари – олий судья вазиғасига тенг бўлган.

11. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. – Ташкент, 1957.

12. Мухаммад Юнусжон шиғовул. Тарихи Алиқули амирлашкар. ЎзРФАШИ, қўлёзма инв № 12136. 64 б варақ; A Native Chronicle of Nineteenth Century Central Asia, Edited and translated by Timur Beisembiev. London: 2003.

13. Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в. – Душанбе, 1964.

14. Нақиб – диний унвонлардан саналиб, Қўқон хонлигида бу унвон Пайғамбаримиз Мухаммад САВ авлодларига берилган.

15. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. (Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, А.Эркинов). – Тошкент: Адолат, 1997.

16. РГВИА. Ф.483.оп.1. уд.хр. 50.

17. Тожир Хўжандий. Фаройиби сипоҳ. Эрон Миллий кутубхонаси. – 55 а варақ. *موسى بنیاد کتابخانه ملی ایران /2949614 نامه و تاریخ امرای خوقند*

18. ТССДАВОА, Натт-1 Нумайун Дафтари, nr.,657/32100 С.

19. ТССДАВОА, Натт-1 Нумайун Дафтари, nr., 657/32100 Е.

20. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулк. – Тошкент, 2001.

21. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). – Тошкент, 2014.

TURK SAVDOGARI ABDURAHIM AFANDINING QO‘QON XONLIGI BILAN BOG‘LIQ TAQDIRI

СУДЬБА ТУРЕЦКОГО ТОРГОВЦА АБДУРАИМА ЭФЕНДИ В СВЯЗИ С КОКАНСКИМ ХАНСТВОМ

THE FATE OF THE TURKISH MERCHANT ABDURAHIM EFFENDI IN CONNECTION WITH THE KOKAN KHANATE

Qo‘ldoshev Sherali Temiralievich

Tarix fanlari doktori, dotsent.

O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi

E-mail: sherali.kuldoshev@mail.ru

+998909268360

Annotatsiya.

Ushbu maqolada, Usmoniylar imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi siyosiy, harbiy va madaniy aloqalariga o‘z hissasini qo‘shgan istanbullik savdogar Og‘a Abdurahim afandi ibn Abdualazizning hayoti va faoliyati haqida yoritilgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasiga qarshi kurashda Qo‘qon xonligining harbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida qilgan sayi-xarakatlari muhim ahamiyat kasb etgan. Qo‘qon xonligining oxirgi hukmdori Xudoyorxon va uning avlodlari bilan bo‘lgan do‘stona munosabati tarixiy manba va adabiyotlar asosida o‘rganildi.

Аннотация.

В статье рассматривается жизнь и деятельность Аги Абдурахима Эфенди ибн Абдулазиза, стамбульского купца, внесшего вклад в политические, военные и культурные

связи между Османской империей и Кокандским ханством. В частности, большое значение имели усилия Коканского ханства по повышению боевой готовности в борьбе с Российской империей. На основе исторических источников и литературы изучены дружеские отношения между последним правителем Коканского ханства Худоёр-ханом и его потомками.

Annotation.

This article discusses the life and work of Agha Abdurahim Effendi ibn Abdualaziz, a merchant from Istanbul who contributed to the political, military and cultural relations between the Ottoman Empire and the Kokand Khanate. In particular, his efforts to increase the military preparedness of the Kokand Khanate in the fight against the Russian Empire were of great importance. His friendly relations with the last ruler of the Kokand Khanate, Khudoyar Khan, and his descendants were studied on the basis of historical sources and literature.

Kalit soʻzlar:

Abudrahim afandi, Qoʻqon xonligi, Xudoyorxon, Maktubchai xon, tahlil, ilmiy, xulosa.

Ключевые слова:

Абудрахим-эфенди, Коканское ханство, Худояр-хан, Мактубчай-хан, анализ, научность, вывод.

Key words:

Abudrahim Effendi, Kokan Khanate, Khudoyar Khan, Maktubchai Khan, analysis, scientific, conclusion.

XIX asrda yashagan istanbullik savdogar Ogʻa Abdurahim afandi ibn Abdulazizning Markaziy Osiyoga kelganligi haqidagi maʼlumotlar kam xisoblanadi. U haqdagi maʼlumotlar asosan Muhammad Umar Umidiy (1906-yilda vafot etgan)ning “Maktubchai xon” va “Tarixchayi Turoniy” asarlarida berilgan. Ogʻa Abdurahim afandining Qoʻqon xonligi(1709-1876)ning tashqi siyosatida, jumladan, Usmoniylar imperiyasi (1517-1924) oʻrtasidagi harbiy sohadagi aloqalari tarixida muhim rol oʻynagan. Shuningdek, ushbu shaxs Qoʻqon xonligining oxirgi hukmdori Xudoyorxon (1845-1875), va uning farzandlari bilan doʻst boʻlishi hamda Qoʻqon adabiy muhitiga taʼsiri ham muhim ahamiyatga ega xisoblanadi.

Oʻrta Osiyo xonliklarining Usmoniy turklari bilan harbiy sohadagi aloqalari XVI asr oʻrtalaridan boshlangan[7: 121]. Qoʻqon xonligi bilan esa asosan Muhammad Alixon (1820-1842) davrida kuchaygan. Qoʻqon xonligi harbiy qoʻshinini texnik jihatdan tayyorlash uchun va tashqi dushmanlaridan himoyalaniish maqsadida Muhammad Alixon tomonidan Istanbulga Zohidxoʻjani elchi sifatida harbiy mutaxassislar va harbiy anjomlar soʻrab yuborilgan[2: 70]. XIX asr oʻrtalarida Qoʻqon xonligi bilan Usmoniylar imperiyasi oʻrtasidagi harbiy sohada olib borilgan aloqalar haqida Muhammad Aziz Margʻiloniyning “Tarixi Aziziy” asarida yozilishicha, Qoʻqon xonligida kuchsizlangan davlat tepasiga chiqqan Xudoyorxon, “... sallotlari (askarlari) sonini juda koʻpaytiradi va yaxshi toʻplarni mavjud qilib, yaxshi miltiqlarni Islambul (Istambul)dan oldirib keladi”[3: 15]. Oʻsha davrdagi Istanbulda chop etilgan gazetalarda yozilishicha, Usmoniylar davlati turli musulmon davlatlaridan doimo elchilar kelib turgan. Jumladan, “Levand Gerald” gazetasining 1873-yil 1-iyun sonida yozishicha, oxirgi uch yilda Usmoniylar poytaxtiga Buxoro, Qoʻqon va Yorkenddan doimo vakillar kelib turgan[9: 112]. Muhammad Umar Umidiyning “Tarixchayi Turoniy” asarida

Abdurahim afandi va qo‘qonlik savdogar Sayiidxon Xojini Istanbulda uchrashganligi yozilgan. Sayiidxon Xoji Qo‘qon xonligi shahzodasi Sayiid Muhammadaminbek (1857-1923) buyrug‘iga ko‘ra, Rossiya imperiyasi bilan bo‘ladigan jang uchun Turkiyadan harbiy mutaxassislar, kitoblar, to‘p va miltiq quyadigan asboblarni Qo‘qonga olib borishi lozim edi. Sayiidxon hojining xorijga chiqib ketishidan oldin “shuhrati Makkai mukarramag‘a borib joy olib takya soladur deb (yolg‘on) ovoza” qilingan[5: 115]. Abdurahim afandi Istambuldan yuboriladigan barcha harbiy ashyolarni o‘zi bosh bo‘lib, dengiz yo‘li orqali avval Hindistonga, keyin Ladak yo‘li Qashqarga olib kelgan. Chegarada to‘p quyadigan “zobud” bo‘laklarini, Farg‘onaga boradigan “ipak qurtini boqish uchun va pillani quritadigan “zobudi asboblari” deb aldab o‘tkazib kelgan. Arxiv xujjatlarda, 1873-1876-yillarda Usmoniylar davlati tomonidan Qashqarga 24 ta miltiq va 7200 ta o‘q yuborilganligi va 1875-yilning yozida esa Istambuldan Qashqarga 200 ga yaqin askarlar, harbiy mutahassislar, ustalar o‘zlari bilan birga, 200 ta qurol, 10 dona to‘p olib kelganligi keltirib o‘tilgan. Bundan ko‘rinadiki, ular orasida Abdurahim afandi olib kelgan to‘p va miltiqlar ham bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Xarbiy mutaxassis bo‘lgan o‘g‘li Eminbek afandini Sayiidxon hojining o‘zi bilan birga Rossiya imperiyasi hududi orqali Farg‘onaga olib kelishi kerak edi. Ammo, bu vaqtga kelib Qo‘qon xonligi Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan bosib olingan edi. Tarixchay Turoniy”da “Oqmasjid yetganda Sayyidxon hoji birla Eminbek afandi muloqot bo‘lub hasratu nadomat ila ajraldilar” deb yozilgan[5: 115]. Ammo, Eminbek afandi o‘z yurtiga qaytib ketmagan. “Ma’lumotlarga qaraganda, Turkiyadan taklif etilgan Eminbek afandi Sayid Muhammadaminbekka turk tili va harbiy sohadan dars bergan”[8:102]. Abdurahim afandi va uning o‘g‘li Eminbek afandining Qo‘qon xonligi bilan bo‘lgan taqdiri hususidagi ma’lumotlar O‘rta Osiyo xonliklari va Usmoniylar imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlar tarixi mavzumida tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar ishlarida uchramaydi[6: 139]. Balki, Qo‘qon xonligining oxirgi yillarida Usmoniylar imperiyasidan Qo‘qonga 200 dan ortiq ko‘plab harbiy qurollar, mutaxassislar, turli harbiy risolalar yuborilganligi bois, e‘tibordan chetda qolgan bo‘lishi mumkin.

“Maktubchai xon” asari 1885-yilda o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, bizgacha ikki nusxasi yetib kelgan. Birinchisi Rossiya fanlar fkaademiyasining Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburgdagi bo‘limida (qo‘lyozma S 575 raqam ostida) va ikkinchisi O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti xazinasida qo‘lyozma 1902-u raqam ostida saqlanadi. Bu asar Sheralixon davrigacha bo‘lgan zamondan boshlab, Xudoyorxon davriga qabar o‘z ichiga olgan ma’lumotlardan iborat. Shuningdek, Abdurahim afandi bilan Xudoyorxon o‘rtasidagi ilk tanishuv ham berilgan: Sobiq xon Xudoyorxon 1877-yilning oxirida Turdali ismli kishi yordamida Orenburgdan qochib, Afg‘onistonga o‘tib, u yerdan Eron orqali haj ziyoratiga keladi. “Maktubchai xon” asarida yozilishicha, Hindistondan qaytayotgan istanbullik savdogar Abdurahim afandi Jidda shahrida Xudoyorxonni va uning 25 askarini ko‘rib, uning kimligi bilan qiziqib qoladi. Makka mukarramaga ketayotganda

yo'lda u bilan tanishib, hamroh va hamsuhbat bo'lib, haj ziyoratini birga amalga oshiradilar. Ushbu savdogar bilan Xudoyorxon tahminan besh oy birga yurib, o'zaro suhbat chog'ida Xudoyorxon o'z boshidan o'tgan barcha voqea-hodisalarni unga aytib beradi. Shundan so'ng ular Bag'dod shahriga kelib joylashgan vaqtda bu yerdagi ingliz hukumati Bag'dodni tark etish uchun Xudoyorxon va uning 25 askariga uch kun muhlat beradi. Xudoyorxonning mushkul ahvolda qolganini ko'rgan Abdurahim afandi "o'z yurtingizga boring, yaqinlaringiz va farzandlaringiz orasida yashang", deb maslahat beradi[4: 32]. Bu borada, Xudoyorxon Abdurahim afandidan yordam so'rab, unga to'rtta maktub yozib, Rossiya imperiyasining Istanbuldagi elchixonasi orqali Rossiya imperatori va farzandlariga yuborishni iltimos qiladi. Xudoyorxonning Rossiya imperatoriga, Turkiston general-gubernatoriga, shuningdek, farzandlariga yozgan xatlarini Istanbulga kelib Rossiya elchixonasiga topshirgan. Xudoyorxonning o'g'li Sayiid Muhammadaminbekka yozilgan maktub haqida SH.Umarov shunday yozgan: "1881-yilda sobiq xon Xudoyorxon nomidan Turkiyaning Istanbul shahridan Sayiid Muhammadaminbek nomiga kelgan maktub, uning hayotini butunlay o'zgartirib yuboradi. Maktubda xon Xudoyorxon o'g'illariga otalarcha nasihat qilib, xonlikdan musova bo'lish sabablari noahilchilik, o'zaro qonli qirg'inlar, qirg'iz-qipchoqlarning hiyonati, xonlikdagi amallarga noloyiq kishilarni tayinlanishi, ayniqsa, harbiy tayyorgarlik, qurol-aslahalar ibtidoiy ekanligini yozgan edi"[8: 103].

Abdurahim afandi o'z vazifasini a'lo darajada bajargan va Bag'dodga qaytib Xudoyorxon bilan olti oy hamsuhbat bo'lgan. Imperatorga yuborilgan maktub ijobiy natijasini beradi. Imperator Turkiston general-gubernatoriga buyruq berib, Xudoyorxonni Toshkentda, o'z oilasi bilan yashashiga ruxsat beradi. 1880-yil 29-iyulida Vladimir shahrida surgunda bo'lgan Xudoyorxonning to'ng'ich o'g'li Sayiid Muhammad Nasriddin (1850-1882) va uning oilasiga Toshkentga borishga ruxsat beriladi. Nasriddinxon Turkistondagi ukalari Fansurillohbek (1872-1931) va Orenburg kadetlar korpusidan kasal bo'lib Turkistonga kelgan yana bir ukasi O'rmonbek (1867-1883)ni olib Toshkentga keladi. Toshkentda esa Xudoyorxonning boshqa o'g'illari Sayiid Muhammadaminbek (1857-1923), Sayiid Umarbek (1863-1928), Sayiid Bin Yaminbek (1876-1918) va boshqa qarindoshlari Toshkentdagi Zanjirli mahallasidagi Olimxo'ja ismli kishidan olingan hovlida yashay boshlaydilar. Ularga Rossiya imperiyasi tomonidan faqatgina nafaqa puli berilgan bo'lib, mol-mulki yo'q edi.

Abdurahim afandi Rossiya imperatori tomonidan Toshkentga qaytishi mumkinligi to'g'risidagi ruxsatnomasini Xudoyorxonga olib borib beradi. Xudoyorxon Bag'doddan to'g'ri Eron orqali Hirotga keladi. Ammo, Hirot yaqinidagi Karruhda kasal bo'lib qoladi va bu yerda vafot etadi. Bu vaqtda Abdurahim afandi Istanbuldan besh-olti oy yo'l yurib, Navholga savdo ishlari bilan boradi. Xivaga borganda Xudoyorxonning Karruhda vafot etganini eshitadi. Xivadan Buxoroga, so'ng Toshkentga kelib, Xudoyorxon farzandlari va yaqinlarini topib ularga amaliy yordam beradi. Ammo, Abdurahim afandi Toshkentga kelganda, Xudoyorxonning to'ng'ich o'g'li Nasriddinxon kasal tufayli vafot etgan

edi. Demak, Abdurahim afandi Toshkentga 1883-yil boshlarida kelgan bo‘lishi kerak. “Maktubchai xon”da yozilishicha, Abdurahim afandi Toshkentda Xudoyorxon avlodlariga yordam berish uchun, bir necha marta Turkiston general-gubernatorligi mahkamasiga, Toshkent qozisiga uchraydi[4: 37]. Shundan so‘ng Turkiston general-gubernatori tomonidan Sayiid Muhammadaminxon va boshqa yaqinlariga Toshkentning Yangishahar qismidagi Qashqar mahallasidan uy-joy sotib olishga ruxsat beriladi. “Maktubchai xon”da Abdurahim afandi Toshkentdan ketar chog‘ida ularni Mulla Ohunjon ismli sahiy kishiga topshirib ketganligi yozilgan. Sh. Vohidov o‘z asarida, Umidiyni “Muhammad Umar-Umidiy Namangoniy” deb keltirib, T.Xodjiboevga iqtibos keltiradi[1: 131]. Ammo, T. Xodjiboevning bu tadqiqotida esa, Umidiyni Marg‘ilonda yashaganligini e‘tirof etadi[10: 43].

Umidiyning “Maktubchai xon” nomli qo‘lyozma asar masnaviy janrda bo‘lib, debocha va asosiy qismdan iborat. Debochaning nasriy qismida muallif asarning yozilishi sabablari, tarixi va uning mundarijasini bayon etadi. Asar Xudoyorxon va uning oilasining yaqin, ishonchli kishilardan bo‘lgan istambullik Og‘a Abdurahim afandi ismli kishining topshirig‘i bilan yozilgan. Ammo, T.Xojiboev yozishicha, Mullo Oxunjon bilan Abdurahim afandi Marg‘ilonga kelib, Muhammad Umar Umidiyni topib, Xudoyorxonning hayoti va faoliyati haqida bir asar yozishni iltimos qilganlar[10: 43]. Doston oxirida muallif yana shu mavzuga qaytib, Og‘a Abdurahim afandining chet eldagi fojeali sarguzashtlari haqida xabar olib kelganini, bu yerdagi o‘zining do‘stlariga ularni barini bayon etuvchi bir asar yaratilishiga istak bildirganini va shunday asar yaratilgan taqdirda, Istanbulga qaytib borib, uni chop ettirish niyati borligini aytadi. Bu haqda asarning muqaddima qismida shunday yozilgan: “Bul kitobi mutatob kaminai mutaxallusi Umidiydin nishonai yodgornomadurkim, afzalul tujjor (savdogar) hojiul haramayn an-sharafayn Ag‘o Abdurahim afandizoda Allohu taolo zayyoda umrahu va davlatahu (Ollohu ta’ola uning umrini va davlatini ziyoda qilsin)ning iltimosnomalari sababidin bahri noloyiq va noqobillik birlan qabul tariqasidin bo‘lak hech xotirg‘a xatur bo‘lmagan yuzidin naolaj bo‘lib iltimosnoma yuzidin Ho‘qand mamlakatig‘a islom obodliq zamonida o‘tgan xonu hoqonlar to zamoni Amir Shermuhammad Alixondin to hoqoni ibn al-xoqon manba’ al-jud val-ehson Abul Muzaffar val-Mansur Sayyid Muhammad Xudoyorxonning farmonravoliqlari va avlodlarining ahvollari ul Bori ta’olo Fa’’olon limo yuridning irodasi birlan na yerga anjom topilg‘on voqeasini jahdu ehtimom ko‘rguzub va bir necha abyoti tab’i zod aylab kog‘az yuziga qalam yurgizib bir maktubcha murattab aylab ismini “Maktubchai xon” qo‘ydim”[4: 7].

Bir muddat o‘tgandan keyin, Abdurahim afandi Xudoyorxon o‘limidan xabardor bo‘lib O‘rta Osiyoga yo‘l oladi. U Xiva orqali Toshkentga kelib, keyin Qo‘qonga boradi va Xudoyorxonning yaqin kishilari bilan uchrashadi. Shu yerda u Muhammad Umidiy-Namangoniydan Xudoyorxon hayoti tarjimai holini yozib berishni iltimos qiladi va bu istakni shoir Umidiy bajaradi. Debocha (madh, vasf, saltaniyat) dan so‘ng, Xudoyorxon davri bayon keltirilgan. Umidiy

Xudoyorxonning taxtga chiqishini 1843-yil deb ko'rsatadiki, bu boshqa manbalardagi sanadan farq qiladi.

Shuningdek, qo'qonlik shoir va tarixchi Mahzun (Ziyovuddin Ho'qandiy) ham Xudoyorxonning farmoniga binoan "Shohnoma" asarini yozgan. Bu noyob va yagona qo'lyozma kitob Turkiyada "Osiyo tarixi" nomi bilan saqlanmoqda. Asarda asosan Qo'qon xonligi tarixi bayon etilgan. Ushbu asarni Farg'ona Turkiyaga borib qolishida ham Abdurahim Afandi bilan bog'langan: "Xudoyorxon Orenburgdan qochg'ondan keyin boshqa nom va boshqa qiyofa bilan Makkaga boradi. O'n uch oy qadar o'zini tanitmasdan yuradi. So'ngra Abdurahim afandi nomli birisiga kim bo'lg'onini bildiradi va Farg'onadan chiqar vaqtida ba'zi boylarga topshirib ketgan aqchalarini olib o'g'illariga taslim uchun uni vakil qilib Farg'onaga yuboradi. Abdurahim avval Istambulga kelib, "Xudoyorxon"ning boshqa qiyofa birla Makkada bo'lg'onini "Sulton Hamid"ga xabar beradi va so'ngra O'rta Osiyoga keladi. Toshkentda Xudoyorxonning katta o'g'li Muhammadaminbek bilan ko'rishgan holda Qo'qon va Andijonlarga boradi va aqchalarni boylardan to'plab, xonzodalarga topshiriq uchun yana Toshkentga qaytmoqchi bo'ladi. Bu kitob ham shu vaqtda muallif Mahzun tomonidan xonzodalarga topshirish uchun Abdurahimga beriladi. Bu ma'lumot muallifning o'z bayonotidan anglashiladi. Bundan so'ngra Abdurahim qaysi yo'l bilan bo'lsa bo'lsun kitobni o'zi bilan birga Turkiyaga olib ketadi. Kitobning sababi ta'lifi, qaysi yilda yozilg'oni, Abdurahim afandining ba'zi ishlari va kitobining unga topshirilishining ko'rsatgan fikrlari muallifning o'z ilovasidan naql etamiz: "...Mahzun aytdiki, muncha odamning ishi saranjom bo'ldi. Mening ham bu orada bir arzim bordir. Afandi ota muncha odamning arzini yetkazib o'zlariga duo oldilar. Endi man ham Afandiga arzimni aytayin: Zeroki yigirma ikki yil bo'ldi shul kitobni boshlag'onimga. Muncha yildan beri mehnat qildim. Ul podshoh Said Muhammad Xudoyorxon o'zlari menga hukm qildilar. O'z hukmlari bilan muni bitkazdim. Bu kitobni o'zlari qo'llariga olib o'qur edilar. "Suxanaro" xonimga o'qutur erdilar, ko'b manzur bo'lg'on erdi. Ammo ul podshoh Xudoyorxon taxt va baxtlaridan judo bo'lib ketdilar. Mening kitobim orada qoldi... Xon hazrat aytib erdilarki, mendan bir Shohnoma qolsin. Ul vaqtda bu kitob, iqboli ochilgan yo'q edi. Olam buzildi... Alharmiz o'zinga o'zim o'yladimki, mening shuncha qilg'on mehnatim bekor ketmasun. Og'a Abdurahim afandiga bu kitobni beray, eltib shahzoda Said Muhammadamin begim va Said Umar begimga ko'rsatsanglar.." [1: 142].

Xullas, Abdurahim afandi o'z davrining ma'rifatparvar insonlaridan biri bo'lib, uning tashabbusi bilan ko'plab kitoblar yozilgan. Turkiy xalqlarning o'zaro do'stligini targ'ib qilishda uning faoliyati yaqqol misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (генезиси, функцияси, вакиллари, асарлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 231б.
2. Mert O. Buhara emirinin elchisi Muhammad Parsa efendinin Istanbuldeki faoliyeti (1867-18669). Ankara: Turk kulturi arastirmalari. XV. 1976. – 170b.
3. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. – Тошкент: Фаъ, 1999. – 212б.

4. Муҳаммад Умар қори Марғилоний. Мактубчаи хон // нашрга тайёрланган табдилчи: тарих фанлари номзоди О.Ҳ. Жалилов. – Тошкент: Ҳамид Сулаймон босмаҳонаси, 2007. – 93б.

5. Муҳаммадумар Умидий. Тарихчайи Туроний. / Табдил, таржимон, кириш ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги авлод, 2013. – 351б.

6. Раҳмонқулова З. Б. XVI – XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усманийлар давлати ўртасида ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи: Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент: ЎзМУ, 2002. – 152в.

7. Сейди Али Раис. Мират ул мамолик. Таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. Зуннуновники. – Тошкент: Фан, 1963. – 324б.

8. Умаров Ш. Худоёрхон авлодлари тарихи // Масъул муҳаррир Ш. Воҳидов. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 312б.

9. Фадеева И.Л. Официальные доктрины в идеологические и политика Османское империи. – Москва: Наука, 1985. – 235с.

10. Ҳожибоев Т. Шоир Умидийнинг ҳаёти ва ижоди // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. № 3. 1970. – Б 42-49.

QO‘QON XONLIGIDA ILM-FAN, ADABIYOT VA TARIXNAVISLIK.

SCIENCE, LITERATURE AND HISTORIOLOGY IN THE KOKAN KHANATE.

НАУКА, ЛИТЕРАТУРА И ИСТОРИОЛОГИЯ В КОКАНСКОМ ХАНСТВЕ.

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

“University of Business and Science” “Ijtimoiy fanlar kafedrası” o‘qituvchisi

e-mail: tursunboydadajonov5@gmail.com

Tel: +998 93 051 96 50

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi davrida ilm-fan, adabiyot va tarixnavislik sohalarining rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Xonlik davrida yuzaga kelgan madaniy muhit, ilmiy-ma‘rifiy faoliyatga bo‘lgan e‘tibor va bu boradagi davlat siyosati asosida shakllangan ilmiy maktablar va adabiy an‘analari ko‘rib chiqiladi.

Abstract.

This article analyzes the development of science, literature, and historiography during the Kokand Khanate. The cultural environment that emerged during the Khanate, the attention paid to scientific and educational activities, and the scientific schools and literary traditions formed on the basis of state policy in this regard are examined.

Аннотация.

В статье анализируется развитие науки, литературы и историографии в период Кокандского ханства. Рассматривается культурная среда, сложившаяся в период ханства, внимание, уделяемое научно-образовательной деятельности, научные школы и литературные традиции, сформировавшиеся на основе государственной политики в этом отношении.

Kalit so‘zlar.

Qo‘qon xonligi, ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik, tarixiy tafakkur, ma‘naviy hayot, madaniy meros, tarixiy manbalar, yozma asarlar, tarixchilar, olimlar, adiblar, madrasa, ilmiy maktablar, saroy muhiti, ma‘rifat, qo‘lyozmalar.

Keywords.

Kokand Khanate, science, literature, historiography, historical thought, spiritual life, cultural heritage, historical sources, written works, historians, scientists, writers, madrasah, scientific schools, palace environment.

Ключевые слова.

Кокандское ханство, наука, литература, историография, историческая мысль, духовная жизнь, культурное наследие, исторические источники, письменные произведения.

Markaziy Osiyoning tarixiy taraqqiyoti jarayonida Qo‘qon xonligi alohida o‘rin tutadi. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida mavjud bo‘lgan ushbu davlat faqat siyosiy yoki harbiy jihatdan emas, balki madaniy-ma‘naviy rivojlanish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik va diniy-ma‘rifiy sohalarida yuzaga kelgan jonlanish Qo‘qon xonligining madaniy muhitini boyitdi. Bu davrda faoliyat yuritgan allomalar, tarixchilar va shoirlar o‘z asarlari orqali nafaqat davr muhitini aks ettirgan, balki keyingi avlodlarga boy ilmiy-ma‘naviy meros qoldirganlar. Mazkur mavzu doirasida Qo‘qon xonligi davridagi ilmiy hayotning asosiy yo‘nalishlari, tarixiy manbalarni yaratgan mualliflar, ilm-fan rivojiga ta‘sir ko‘rsatgan omillar va tarixnavislik an‘analarining shakllanishi o‘rganiladi [1,32-35]. Shu bilan birga, xonlik davrida yaratilgan tarixiy asarlarning mazmun-mohiyati, ularning uslubiy xususiyatlari va tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. So‘nggi o‘rta asrlarga kelib O‘rta Osiyoning deyarli barcha hududlaridagi ilm-fan, ta‘lim va ma‘rifat sohalarida diniy ta‘limotlar hukmronlik qila boshladi. Boshlang‘ich maktablarda ham, madrasalarda ham asosiy e‘tibor diniy ta‘lim berishga qaratilgan. Diniy fanlarni o‘qitish madrasalarning asosiy vazifasi hisoblanib, dunyoviy fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlar taraqqiyotida bir muncha turg‘unlik kuzatiladi. Madaniy hayotda yuzaga kelgan bunday vaziyat Qo‘qon xonligidagi ilm-fanning ahvoriga, ayniqsa, bu soha rovojining biryozlamalik xususiyatiga sabab bo‘lgan edi. Bu davrda aniq va tabiiy fanlarning xo‘jalik va maishiy hayotda, ya‘ni amaliyotda qo‘llaniladigan sohalarigagina e‘tibor qaratilgan. Kundalik turmushda tibbiyot, me‘morchilikda matematika va handasa, sug‘orma dehqonchilikda o‘simlikshunoslik, gidrologiya va muhandislik ilmidan foydalanilgan. Shunga ko‘ra, xonlikda aniq va tabiiy fanlardan tibbiyot, geografiya, tabiatshunoslik fanlari bilan shug‘ullangan olimlarni ko‘rsatish mumkin. Toshkentlik Muhammad Solih (Qaroxo‘ja eshon domla) o‘lkashunosgeograf, tabiatshunos-zoolog olim sifatida ijod qilgan. U o‘zining “Tarixi jadidai Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) asarida Toshkent shahri va vohasining geografiyasi, toponimikasi, o‘simlik olamini yoritgan [1,51-53]. Tabobat bilan shug‘ullangan Mullo Avaz Muhammad tibbiyotga oid “Mavarix al-qulub” (“Qalblar sururi”) nomli asar muallifidir. U tabib sifatida bemorlarini o‘tlar (giyohlar) yordamida davolash bilan ham mashhur bo‘lgan. Xo‘jandlik Hoji Yusuf Hay‘atiy eski maktabda tahsil olib, o‘zi mustaqil ravishda astronomiya, tabiat, geografiya fanlarini o‘rgangan. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlariga sayohat qilgan Hoji Yusuf uzoq yillar davomida o‘zining “Falakiyot” nomli asarini yaratgan. Ammo ushbu asar bizning kunlarimizgacha yetib kelmagan. Qo‘qonlik

Muhammad Hakimxonto‘ra o‘zining “Muntaxab ut-tavorix” (“Saylangan tarixlar”) asarida Turkistonga oid geografik va seysmologik ma’lumotlar berib, 1823 yilda Farg‘onada yuz bergan zilzila haqida batafsil bayon qilgan. Uning geografiyaga oid ma’lumotlari esa O‘rta Osiyo geografik adabiyotining sarguzasht-sayohat janri bo‘la oladi [2,12-17]. Umuman olganda, xonlikda aniq va tabiiy fanlar o‘z rivojida davr talablaridan orqada qolib ketgan bo‘lsa-da, ijtimoiy-gumanitar fanlardan tarix va tarixnavislik, adabiyot ko‘proq rivojlandi. Qo‘qon tarixnavislik maktabiga mansub asarlar she‘riy yoki qisman she‘riy uslub yo‘lida yozilganligi bilan ajralib turadi. Garchi bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarda maqtov, balandparvoz gaplar, hukmdor shaxsini ulug‘lash kabi xususiyatlar ko‘zga tashlansada, bu asarlar o‘z davrining mahsuli sifatida, o‘sha davr haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalar sifatida juda qimmatlidir. Bular qatoriga Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy”, Mirza Olim ibn Mirza Raxim Toshkandiyning “Ansab-ul salotin va tavorix ul-xavoqin”, Otabek Fozil o‘g‘lining “Mufassal tarixi Farg‘ona”, Akmal Shermuhammad Xo‘qandiyning “Amirnoma”, Fazliy Farg‘oniyning “Umarnoma”, Mirzo Qalandar Mushrifning “Shohnomai Nusratpayom”, Muhammad Hakimxonto‘raning “Muntaxab at-tavorix”, Mullo Avaz Muhammadning “Tarixi jahonnamoy”, Toxiri Xo‘jandiyning “G‘aroyibi sipoh” kabi ko‘plab tarixiy asarlarni kiritish mumkin [2,65-67].

Qo‘qon adabiy muhiti. Qo‘qon xonligi madaniy hayotida adabiyotning o‘rni ayniqsa yuqori edi. Shuning uchun adabiyot rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi xonlikda madaniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo‘ldi. Iste’dodli shoir va shoirlar, yozuvchilar, ya’ni o‘z ilmining ustalari tomonidan shakllangan Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyati – uning vakillari ikki yo‘nalishda ijod qilganliklaridadir. Birinchi yo‘nalishga mansub ijodkorlar saroy shoirlari bo‘lib, ularning asarlarida boy tabaqa vakillari madh etilgan. Ikkinchi yo‘nalish vakillarining asarlarida esa xalqning orzu umidlari, intilishlari, dardu-hasratlari o‘z ifodasini topgan. Har ikkala yo‘nalish vakillarining umumiy jihati ham mavjud bo‘lib, bu ularning asarlarida Vatan timsoli, unga muhabbat hissining ilgari surilganligidir. Qo‘qon adabiy muhitining vakillari va asarlaridan Amiriy taxallusi bilan falsafiy va lirik g‘azallar bitgan Umarxonni, Fazliy va Mushrif tomonidan yozilgan “Majmuat ush-shuaro”(“Shoirlar to‘plami”) tazkirasini, Huvaydoning “Devoni Huvaydo”, “Rohati dil” asarlarini, Gulxaniy va Maxmur asarlarini, Muhammad Yunus Toib, Muhsiniy, Nasimiy, Xo‘qandiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Nodira begim, Uvaysiy, Anbar otin, Dilshod, Zebuniso kabi ko‘plab shoir va shoiralarni keltirish mumkin [3,41-45]. Tadqiqotchilarning fikricha, Qo‘qon xonligidagi adabiy muhit va madaniy hayotni shakllantirishda temuriylar davriga taqlid yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buni hukmdor Umarxon davrida shakllangan, uning boshchiligida faoliyat ko‘rsatgan adabiy muhit va adabiyot namoyondalari misolida, yaratilgan asarlarning shakli va janrlarida ko‘rish mumkin. Madaniy hayot va adabiy muhitda ham ming sulolasini ulug‘lashga intilish ustunlik qildi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Qo‘qon xonligi nohoyatda murakkab, siyosiy kurashlar avj olgan bir davrda vujudga kelib, shakllandi. Chunki, xonlik tashkil topgan davr O‘rta

Osiyoda buyuk imperiyalar davri o'tib, mahalliy yo'lboshchi sulola vakillari turli yo'llar bilan hokimiyatni qo'lga olib, qabilaviy konfederatsiya asosida davlat tuza boshlagan davrga to'g'ri keldi. Urushlar va o'zaro kurashlarga boy bo'lgan Qo'qon xonligi davlat boshqaruv shakliga ko'ra mutlaq monarxiya bo'lib, mamlakatda mulkdor tabaqalar, yetakchi urug'lar (ming, qipchoq, qirg'iz, saroy)larning zodagonlari, ruhoniylar, ayniqsa sayyidlar va xo'jalar yuksak maqomga ega edilar [4,19-25]. XIX asr o'rtalaridagi siyosiy boshboshdoqlik, o'zaro urush va nizolar mamlakat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, Qo'qon xonligi hayotining barcha sohalarida tushkunlik davri boshlanadi. Bundan unumli foydalangan Rossiya imperiyasi "o'z chegaralarida" tinchlikni o'rnatish bahonasida xonlik hududlarini bosib oldi va uning o'rniga 1876 yilda Farg'ona viloyati tashkil topdi. Shunga qaramasdan, Qo'qon xonligi mintaqadagi yirik davlatlardan biri sifatida o'ziga xosliklarga ega bo'lib, O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Qo'qon xonligi davri Markaziy Osiyo madaniy hayotining yorqin sahifalaridan biridir [5,54-59]. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik va diniy-ma'rifiy faoliyat sezilarli darajada rivojlandi. Xonlik saroyida ilm ahliga nisbatan ko'rsatilgan e'tibor, maktab va madrasalarning faoliyati, shuningdek, tarixiy asarlarning yaratilishi ushbu hududda yuksak ilmiy muhit shakllanganidan dalolat beradi [6,42-43]. Tarixchilarning asarlari nafaqat xonlik ichki siyosatini, balki xalq hayoti, urf-odatlarini, diniy qarashlari va o'sha davrda kechgan muhim voqealarni ham aks ettirgan. Qo'qon xonligida faoliyat yuritgan tarixnavis olimlar, masalan, Muhammad Hakimxon To'ra, Ahmad Donish, Shorahim Mirza kabi shaxslar o'z asarlari bilan nafaqat davr voqealarini hujjatlashtirdi, balki tarixiy tafakkurni shakllantirishda ham muhim rol o'ynadi. Ularning asarlari bugungi kunda ham muhim tarixiy manba sifatida qadrlanadi. Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ilmiy-ma'naviy taraqqiyot markazi sifatida ham tarixda o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu davrda yaratilgan ilmiy va tarixiy meros bizga o'tmishni chuqurroq anglash va qadrlash imkonini beradi [7,45-52].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abdurahmonov, A. (1998). Tarixiy manbashunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti.
2. Alimova, D., & Ahmedov, E. (2001). O'zbekiston tarixi qadimgi davrdan hozirgacha (2-jild). Toshkent: Sharq.
3. Bobojonov, Sh. (2002). Qo'qon xonligi: Siyosiy tarix, ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Donish, A. (1990). Navodir ul-vaqoe' (Nodir voqealar). Toshkent: Fan.
5. Karimov, A. (2010). Qo'qon xonligi davrida tarixiy tafakkur va tarixnavislik an'analari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
6. Mirzayev, T. (2007). O'zbek adabiyoti va tarixiy tafakkur. Toshkent: Fan.
7. Qodirov, B. (2005). "Qo'qon xonligida ilmiy-ma'rifiy hayotning rivojlanishi", O'zbek tili va adabiyoti jurnali, № 4.
8. Saidov, A. (2013). Markaziy Osiyo tarixiy manbalarda. Toshkent: Akademnashr.
9. To'ra, M. H. (1993). Temurnoma (nashrga tayyorlovchi: N. M. Mallaev). Toshkent: Sharq nashriyoti.
10. Yakubov, Sh. (2012). "Qo'qon xonligi davrida tarixiy asarlar va ularning ahamiyati", Tarix va madaniyat jurnali, № 3.

QO‘QON XONLIGIDA MA‘NAViy VA MADANIY HAYOT.

SPIRITUAL AND CULTURAL LIFE IN THE KOKAN KHANATE.

ДУХОВНАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В КОКАНСКОМ ХАНСТВЕ.

Mo‘sajonova Feruzabonu Abdusamad qizi

“University of Business and Science” “Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti” tarix yo‘nalishi talabasi.

e-mail: feruzabonumosajonova@gmail.com

Tel: +998 880400825

Anotatsiya.

Ushbu ilmiy maqolada O‘rta Osiyo xonliklaridan biri bo‘lgan Qo‘qon xonligining ma‘naviy va madaniy hayoti, xonlik davridagi ta‘lim, ilm-fan taraqqiyoti, adabiyot va san‘ati, me‘morchiligi kabi muhim masalalarga e‘tibor qaratilgan.

Abstract.

This scientific article focuses on important issues such as the spiritual and cultural life of the Kokand Khanate, one of the Central Asian khanates, education during the khanate, the development of science, literature and art, and architecture.

Аннотация.

В данной научной статье рассматриваются такие важные вопросы, как духовная и культурная жизнь Кокандского ханства, одного из ханств Средней Азии, образование в период ханства, развитие науки, литературы и искусства, архитектуры.

Kalit so‘zlar.

Ma‘naviyat, madaniyat, ta‘lim, adabiyot, san‘at, me‘morchilik, madrasalar, maktablar, tariqat, mudarrislar.

Keywords.

Spirituality, culture, education, literature, art, architecture, madrasas, schools, tariqat, mudarris.

Ключевые слова.

Духовность, культура, образование, литература, искусство, архитектура, медресе, школы, тарикат, мударрис.

Qo‘qon xonligida ilmiy, madaniy-adabiyot muhitning shakllanishi va rivojlanishida bevosita maktab va madrasalarning o‘rni ahamiyatga molikdir. Ular xalqni ma‘rifatli qilish, an‘naviy ta‘limni va madaniy-ma‘naviy hayotni yuksaltirishda katta rol o‘ynagan. So‘nggi O‘rta asrlarga kelib O‘rta Osiyoning deyarli barcha hududlaridagi ilm-fan, ta‘lim va ma‘rifat sohalarida diniy ta‘limotlar hukmronlik qila boshlagan. Boshlang‘ich maktablarda ham, madrasalarda ham asosiy e‘tibor diniy ta‘limga qaratilgan. Diniy fanlarni o‘qitish madrasalarning asosiy vazifasi hisoblanib, dunyoviy fanlar, ayniqsa tabiiy fanlar taraqqiyotida bir muncha turg‘unlik kuzatiladi [1,23-25]. Madaniy hayotda yuzaga kelgan bunday vaziyat Qo‘qon xonligidagi ilm-fanning ahvoliga, ayniqsa, bu soha rivojining biryoqlamalik xususiyatiga sabab bo‘lgan edi. Bu davrda aniq va tabiiy fanlarning xo‘jalik va maishiy hayotda, ya‘ni amaliyotda qo‘llaniladigan sohalariga e‘tibor qaratilgan. Toshkentlik Muhammad Solih (Qoraxo‘ja eshon domla) o‘lkashunos-geograf, tabiatshunos-zoolog sifatida ijod qilgan. U o‘zining- Tarixi jadidai

Toshkent-(Toshkentning yangi tarixi) asarida Toshkent shahri va vohasining geografiyasi, toponomikasi, o'simlik olamini yoritgan. Qo'qon xonligida ta'lim maktablari, madrasalar va qo'rixonalardan iborat bo'lgan. Maktablar, asosan, masjidlar qoshida hamda ruhoniylar va boylarning uylarida tashkil etilgan. Odatda, maktablarda o'quvchilarning soni qishloq maktablariga nisbatan ko'proq edi. O'quvchilar yaxshi yoritilmagan xonalarda sholcha va bo'yralarda o'tirib o'qiganlar. Y.Qosimov maktablarda ta'lim uch bosqichda olib borilganligi haqida ma'lumot bergan: „... ta'limning birinchi bosqichida arab alifbosi o'rgatilgan, ikkinchi bosqichda “Haftiylik” (arab tilida)ni hijjalab o'qiganlar. Uchinchi bosqichda esa “Chorkitob” o'qilgan. Unda Hofiz, So'fi Olloyor, Fuzuliy, Ahmad Yassaviy va boshqalarning asarlari (she'rlari) o'qitilgan” [2,17-19]. Bundan tashqari, arifmetika, namoz o'qish qoidalari ham o'rgatilgan. Qiz bolalar esa maktabdor boylar va ruhoniylarning uylarida tashkil etilgan maktablarda o'qitilgan. Maktablardan tashqari ko'zi ojiz bolalar uchun alohida qo'rixonalar tashkil etilgan. Qorixonada ta'lim olgan bolalar Qur'onni yod olganlar. Maktabni tamomlagan bolalar madrasada o'qishni davom ettirganlar va tabiiyki, bunday imkoniyatga faqatgina boylar va ruhoniylarning bolalari ega bo'lganlar. Madrasada arab, fors va turkiy til mukammal o'rgatilgan. Tabobat, matematika, geometriya, adabiyot, falsafa, mantiq, tarix, geografiya kabi fanlar o'qitilgan. Qur'onni o'qish uslublari, qiroat va tavsifga hamda fiqh ilmiga katta e'tibor qaratilgan [3,95-96]. Madrasada o'qish adno (boshlang'ich), avsat (o'rta) va a'lo (yuqori) deb nomlangan uch bosqichda bo'lgan va har bosqich o'rtacha 3-4 yil davom etgan. Talabalar imkoni boricha juma namozida (ayniqsa jome' masjidida) bo'lishga harakat qilganlar. Namozdan so'ng Qur'on va shariat qonunlari borasida bahs munozaralar bo'lgan. Bu talabalar uchun o'z bilimlarini oshirishda foydali bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning o'zlari ham shu munozaralarda qatnashishlari va yirik amaldorlar, ruhoniylar, mulkdorlar hamda olimlarning nazariga tushishga imkon ham edi. Madrasani tamomlagan talabalar davlat ishlarida turli mansablarda, maktab va madrasalarda ish bilan ta'minlangan. Ayrim bitiruvchilar turli sohalarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar, ayrimlari esa Buxoro, Samarqand kabi shaharlardagi nufuzli madrasalarda o'qishni davom ettirganlar. Xonliklar davrida, xususan, Qo'qon xonligida madaniyat haqida so'z yuritilganda, avvalo, islom diniga to'xtalib o'tish kerak. Chunki, Mavarounnahrda Naqshbandiya, Kubroviya va Yassaviya tariqatlarining vujudga kelishi hamda rivojlantirishi xonliklar davri madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Tariqat insonning islom diniga munosabatini yanada chuqurlashtirgan. Undagi tenglik, bag'rikenglik, birodarlik, mehnatkashlik, poklik kabi g'oyalar barcha tabaqalar orasida jamiyatga munosabatni o'zgartirmoqda edi. Tariqat vakillari xonlikda endigina ko'chmanchilar hamda o'rtoqlasha boshlagan yarim ko'chmanchilar orasida islom dinining keng va chuqur kirib borishiga yordam bergan. Natijada, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tipik feodal davlat bo'lgan Qo'qon xonligida kambag'al tabaqa vakillari tenglik va birodarlik targ'ib etilayotgan tariqatdagina katta obro' e'tiborga

ega bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun shayxlarning muridlari va tariqatni qo'llab quvvatlovchilar ko'p bo'lgan [4,45-49].

Qo'qon xonligida Naqshbandiya tariqati vakillaridan biri Mahdumi A'zamning obro'si yuqori bo'lgan. Asl nomi Shayx Sayiid Ahmad Xo'jagon Kosoniy (1461-1542) bo'lgan shaxs XVI asr boshlarida Farg'ona vodiysining Kosonsoy hududida tug'ilgan, o'z davrining tasavvufiy olimlari Muhammad Qozi, Xo'ja Ahror Valilardan naqshbandiylik g'oyalarini o'rgangan.

Mahdumi A'zam avlodlarining ta'siri Qo'qonda ham katta edi. Ma'sumxon To'ra bobolari kabi xonlikdagi eng obro'li shaxslardan biri bo'lgan. U Olimxon va Umarxon davrida shayxulislom lavozimini egallagan bo'lib, saroyda xon maslahatchisi hisoblangan. Tariqat Qo'qon xonligida ruhoniylar va siyosiy hokimiyat vakillari, hukmron va kambag'al tabaqa, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida aloqalarni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shgan. Ijtimoiy tizim sifatida shakllangan tariqat jamiyatning barcha a'zolari uchun majburiy bo'lgan shaxsiy va ommaviy axloq hamda diniy me'yorlarni shakllatirgan [5,27-28].

O'rta Osiyo xalqlari tarixida ijtimoiy fanlar, shu jumladan, tarix fani ham doimo muhim o'rin egallab kelgan. Qo'qon xonligi davrida yirik tarixchilar yetishib chiqqanligi tarixnavislik sohasida sezilarli darajada muvaffaqiyatlarga erishilganligini ko'rish mumkin. Junayid Mulloning "Tarixi Jahonnomayi", Fazliy Namangoniyning "Majmuat ut-shuaro", "Shoxnoma", "Umarnoma", "Zafarnoma", Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix", Buxoriyning "Buxoro, Xo'kand va Qoshg'arda ba'zi bir hodisotlar", Shavqiy Namangoniyning "Jome' ul-havodis", "Tarixi Ho'kand", "Pandnomai Xudoyorxon" kabi asarlar tariximizni o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Qo'qon xonligida adabiyot va san'at. Qo'qon xonligi davrida o'zbek adabiyotining rivojlanishiga hissa qo'shgan iste'dodli yozuvchilar, shoir va shoirlar yetishib chiqqan. Oqibatda, tariximizda mashhur bo'lgan Qo'qon adabiy muhiti vujudga kelgan. Adabiyotning rivoj topishiga Akmal, Amiriy, Boqixonto'ra, Gulxaniy, Zavqiy, Mahmur, Muqimiy, Mushrif, Muhsiniy, Nasimiy, Nizomiy, Nodir, Sadoiy, Umidiy, Furqat, Shuhrat kabi iste'dodli shoirlar hamda Anbar Otin, Baxriy Otin, Zebiniso, Nodira, Saidabonu, Uvaysiy, Xayriniso kabi shoirlar katta hissa qo'shganlar. Qo'qon xonligi madaniy hayotida adabiyotning o'rni ayniqsa yuqori edi. Shuning uchun adabiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi xonlikda madaniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'ldi. Iste'dodli shoir va shoirlar, yozuvchilar ya'ni o'z ilmining ustalari shakllangan. Qo'qon adabiy muhitining o'ziga hos xususiyati-uning vakillari ikki yo'nalishda ijod qilganliklaridadir. Birinchi yo'nalishga mansub ijodkorlar saroy shoirlari bo'lib, ularning asarlarida boy tabaqa vakillari madh etilgan. Ikkinchi yo'nalishga mansub ijodkorlarning asarlarida esa, xalq orzu umidlari, intilishlari, dardu-hasratlari o'z ifodasini topgan. Ikki yo'nalish vakillarining ham umumiy jihati mavjud bo'lib, bu ularning asarlarida Vatan timsoli, unga muhabbat hissining ilgari surilganidadir.

O'zbek milliy madaniyati markazlaridan yana bir bu Qo'qon shahri edi. XVIII-XIX asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida yashab ijod qilgan

iste'dodli va isyonkor shoir Boborahim Mashrab (1640- 1711) dir. U Namanganda tug'ilgan. Yetti yoshida mashhur shayx Mullo Bozor Oxund qo'lida ta'lim olib xat-savodini chiqargan. Shoir Mashrab ijodini o'rganishda Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan boshqa bir qator manbalar, jumladan, "Tazkirai fahmiy", " Muntahab at-tavorix" va Mashrab zamondoshi, u bilan birga bo'lgan Is'hoq Bog'istoniyning "Tazkirai qalandaron" asari g'oyatda qimmatlidir.

Shoir Mahmud(XVIII asr oxiri – 1844) . U o'z davrining yirik satirik shoiri edi. Ziyoli oilasidan bo'lgan Mahmurning otasi Mulla Shermuhammad madrasada mudarrislik qilgan. Akmal taxallusi bilan she'rlar yozib, ijodiy ish bilan shug'ullangan. Mahmurning asl ismi Mahmud. Mahmud shoirlik taxallusidir. U otasi dars beradigan Mir madrasasida tahsil ko'rgan.Undagi qobiliyatni sezgan saroy ahllari Mahmudni saroy shoiriga aylantirishga harakat qiladilar. Mahmud saroyda askar bo'lib xizmat qilish bilan birga ijodiy faoliyatni ham davom ettiradi. Saroy shoirlari uni masxaralab, ustidan kular edilar. U saroy shoirlari bilan kelisholmasdan saroyni tark etadi. U umrining oxirigacha qashshoqlik va muhtojlikda Hapalak qishlog'ida yashadi. 1844- yilda xor – zorlikda vafot etdi. Uning " Hapalak" she'ri shoir ijodining yuksak pog'onasi bo'lib, unga katta obro' e'tibor keltirdi [5,63-66].

Gulxaniy. Asl ismi Muhammad Sharif bo'lgan Gulxaniy XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida yashab ijod qilgan. U taxminan 1770- yillarda Darvozda (hozirgi Tojikistonning Tavildara va Qal'ai xum tumanlari) kambag'al oilada tavallud topgan. Gulxaniy Qo'qon xoni Olimxon saroyida bo'lsada, og'ir iqtisodiy sharoitda edi. Shu tariqa u XIX asrning birinchi yarmida qashshoqlik va muhtojlikda bu dunyoni tark etadi. Gulxaniyga katta hurmat va obro' keltirgan asar so'zsiz "Zarbulmasal"dir.

Zinnat shoir (a), davlat arbobi, dodhoh. V. P. Nalivkin va M. S. Nalivkinalar "Ocherki bita jenshin osedlogo tuzemnogo neseleniya Fergani" nomli kitobida "Qo'qonda ikkita shoira yashagan, birining taxallusi Zinnat, ikkinchisi esa Mahzuna taxallusli . Ishontirib aytmoqdalarki, ulardan biri esa ochiq yuz bilan erkaklarcha kiyinib xon saroyiga kelar ekan va uning dodhoh unvoni ham bo'lgan. Ikkalasining ham g'azallari Umarxonniki singari "Majmuat ush-shuaro nomli she'rlari to'plamiga kiritilgan deb yozilgan .

Qo'qon xonligi tarixiga hozircha ma'lum bo'lgan ayol dodhohlardan faqat Qurbonjon dodhohni (1811_1907) bilamiz. Ammo, Umarxon davrida tuzilgan "Majmuat ush – shuaro " nomli to'plamga uning g'azali kiritilganligini e'tiborga olsak, u mahalda Qurbonjon yosh qizcha bo'lgan edi. Zinnat kim bo'lishidan qat'iy nazar, uning yozgan she'rlari va g'azallari mazmundor va yetuk bo'lgan. Ushbu satrlar mualliflaridan birining shaxsiy kutubxonasida bir qo'lyozma bayoz kitob bor. Unga Zinnatning " Bahru odobi... " so'zlari bilan boshlangan she'ri kiritilgan [6,97-99].

Mohzoda Begim(XIX asr) – o'zbek shoirasi. Uning yashagan davri va tarjimai holiga oid ma'lumotlar kam saqlangan. Mohizoda Begimning "Jahon xitob" deb ataluvchi she'ri qo'qonlik ma'rifatparvar shoir Ibrohim Davron (1874-1922) bostirib chiqargan "Ashori nisvon" ("Ayollarning she'rlari ", O'zRFA

Sharqshunoslik instituti, inv.N° 16704) kitobiga kiritilgan. Shoira bu she'rida o'z davridagi xotin- qizlarning ayanchli qismati, ularning huquqsizligi va mudhish hayotini tasvirlab, o'zi yashayotgan tuzumning adolatsizligidan shikoyat qiladi.

Mahzuna. Mehribon mulla Boshmon qizi (XIX asr) -o'zbek shoirasi . Uning hayoti va faoliyati haqida to'la ma'lumot yo'q. Mahzunaning devoni haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsada, hali bu devon topilmagan.

Jahon otin Uvaysiy (1778-1845). Jahon otin Marg'ilon shahrining Childurtaron mahallasida tavallud topgan. Oilasi o'zbek davrining ilg'or va ma'rifatli oilalaridan biri bo'lgan . Otasi o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Onasi Chinnibibi maktabdor edi. Akasi Oxunjon Hofiz ham o'z davrining taniqli madaniyat va san'at xodimlaridan hisoblangan. Umarxon Marg'ilonga hokim bo'lgan (1806- 1807) kezlarda Uvaysiy el o'rtasida nomdor shoira sifatida tanilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Qo'qon xonligidagi adabiy muhit va ma'naviy hayotni shakillantirishda temuriylar davriga taqlid yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni hukmdor Umarxon davrida shakllangan, uning boshchilida faoliyat ko'rsatgan adabiy muhit va adabiyot namoyandalari misolida, yaratilgan asarlarning shakli va janrida ko'rish mumkin. Madaniy hayot va adabiy muhitga ham ming sulolasini ulug'lashga intilish ustunlik qildi.Qo'qon xonligida teatr san'atining qiziqchilik, masxarabozlik, askiya, qo'g'irchoq teatri kabi turlari keng rivojlangan. Sahnalashtirilgan ko'rinishlar aholiga zavq berishdan tashqari, jamiyatda mavjud bo'lgan kirdikorlarni ochish uchun ham qo'llanilgan [7,65-67]. Ayniqsa, XIX asrda Zokirjon, Zokir eshon, Matxoliq qiziq, Sa'di Maxsum kabi taniqli aktyorlar yetishib chiqqan. Bundan tashqari, xonlikda dorbozlik, akrobatika, ot o'yin kabi mahalliy aholi qadrlaydigan san'at turlari bor edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni Xudoyorxon xonlik qilgan davrda, ayniqsa, Qo'qon teatr san'ati yanada gurkirab o'sdi va rivojlandi.

San'atning ayniqsa, teatr san'atining insonlarga ko'rsatadigan ta'sir kuchi va tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi chuqur anglab yetgan Xudoyorxon, o'z xursandchiligi, ayshu-ishrati ayni zamonda g'oyaviy maqsadlarini ko'zlab, saroy-teatr san'atini har tomonlama o'stirish va rivojlantirishga katta ahamiyat bergan.

Shu maqsadda Xudoyorxon xalq ichida tanilgan va shuhrat qozongan san'atkorlarni saroyga to'plab, ulardan o'z maqsadlari yo'lida keng va unumli foydalanib kelgan.

Saroy truppassi tarkibida xalq teatri va dramaturgiyasi namoyondalari, Bidyorshum truppa rahbari, mashhur aktyor Zokir eshon, iste'dodli san'atkorlardan Rizo qiziq,Sa'di Maxsum, Normat qiziq, el-u xalq orasida tanilgan va shuhrat qozongan zamonaning san'atkorlari yetishib chiqqan va ijod qilgan edilar.

Truppaning repertuari asosan, ularning o'zlari tomonidan ijod qilinib yaratilgan va ijro etilgan. "Mudarris", "Avliyo", "Xon hajvi", "Zarkokil", "Qalandarlik", "Darbozlik", "Kelin tushurdi", "Qozi", "Sudxo'r" kabi 200 ga yaqin turli janr va hajmdagi pe'sa, aytishuv, muqallidlardan iborat bo'lgan va tarkib topgan [8,48-49].

Xudoyorxon saroyida tarkib topgan va rivojlangan. Bu an'anaviy yoki qadimiy xalq teatri, uning tomoshalari hamda repertuari haqida yozuvchi Abdulla

Qodiriyning “Mehrobdan chayon “ romani va shu roman asosida O‘zbekiston kinostudiyasi tomonidan yaratilgan shu nomli badiiy filmda aniq va qimmatli ma’lumotlar berilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasida yuz bergan siyosiy voqealar o‘zgarishlar, chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi 1896 yilga kelib, Qo‘qonda Xudoyorxon xonligining tugatilishi, shundan so‘ng Turkistonga ruslarning bostirib kirishi, ularning o‘z mavqeini mustahkamlash siyosatlarini o‘tkazish maqsadida hamma yerda bo‘lganidek, Qo‘qonda ham xalqimizning ko‘p asrlik milliy madaniyati, ma’naviyati va madaniyati o‘rniga, o‘z madaniyati va ma’naviyatini o‘rnatish harakati yuz berdi.

Shuni e’tirof etish lozimki, albatta bunday harakatlarning salbiy oqibatlari bilan birga ijobiy tomonlari ham bo‘lgan. Uning Turkiston xalqlari orasida madaniy, ma’rifiy taraqqiyotini tezlashtirish, ma’naviy, badiiy va estetik tushunchasini rivojlantirish, hamda o‘stirish yo‘lidagi roli va ahamiyati katta bo‘lgan.

Buning oqibatida Qo‘qon xonligi tugatilgandan so‘ng shaharda birinchi bor Ovrupa tipidagi musiqiy drama tashkil qilinib, unga 1876 yilgacha Qo‘qon saroy truppasida ishlab, ijod qilib kelgan Ro‘ziyov Nazarmat o‘g‘li rahbar etib tayinlandi va uning rahbarligi 1915 yilgacha davom etdi.

Asrlar davomida an’anaviy yoki qadimiy xalq teatrlarining chiqishlari va tomoshalari asosan shahardagi ochiq maydonlarda va saylgohlarda tashkil qilingan. 1878 yilda Qo‘qonda ham klub tipidagi “Voyennoy sabraniy “ qurib bitkazilib, uning sahnasida dastlab shahar harbiy gornizonning askarlari, shuningdek, rus va mahalliy xalq kishilarida tarkib topgan shahar aholisi havaskor aholiga o‘z tomoshalarini ko‘rsata boshlaganlar.

Shundan so‘ng shahar dumasi tomonida 1880- yilning boshlarida teatr san’ati uchun mo‘ljallangan maxsus “Obshestvennoy sobraniy” binosini qurish ishlari boshlanib ketib bu bino, 1880- yilning o‘rtalarida bitkazilib ishga tushirildi.

Qo‘qon xonligida adabiyot va san’at o‘z navbatida xattotlikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shoirlar, yozuvchilar, miniaturachilar ijodlari o‘ziga xos xattotlik maktabining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Qo‘qon xonligi davrida me’morchilik. Qo‘qon xonligi davrida me’morchilik san’ati rivojlangan. Madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, hammom kabi imoratlar qurilishida Turkiston me’morchiligiga xos uslublardan foydalanilgan bo‘lsa-da, ayrim o‘ziga xos xususiyatlari mavjud edi. Bu mahalliy sharoit, qurilish materiallari, qolaversa, urf- odatlar ta’sirida kelib chiqqan. Masalan Qo‘qonda barpo etilgan jome’ masjidi haqida, bir tomonga uzun cho‘zilgan, ustunlari ko‘p va baland joylashgan ayvonli, yarim yopiq, derazalari kam, ya’ni Farg‘ona vodiysiga xos uslubda qurilgan, deb yoziladi.

Qo‘qon xonligida bunyod etilgan eng yirik inshootlar qatoriga shahar devori va xon o‘rdasini kiritish mumkin. Shaharning ajralmas qismi bo‘lgan, muhim me’moriy yodgorliklar hisoblangan shahar devori hozirgi kungacha saqlanib qolmagan. Shahar devori haqida Qo‘qonda bo‘lgan F.Nazarov, I.Potanin, A.Xoroshxin kabi rus elchilarining esdaliklaridan ma’lumot olish mumkin. Hozirgi

kungacha saqlanib qolgan Xudoyorxon oʻrdasi XIX asrga oid boʻlgan muhim meʼmoriy obida hisoblanadi. Oʻrdaning qurilishida Mir Ubaydulla usta, Usta Soli hoji, Mullo Suyarqul, Fozilxoʻja, Usta Sofi Yoʻldosh kabi qoʻqonlik yoki boshqa hududlardan taklif etilgan usta hamda naqqoshlar bilan minglab xonlik aholisi vakillari ishtirok etganlar.

Xonlikning Qoʻqon, Margʻilon, Andijon, Namangan, Oʻsh, Xoʻjand kabi yirik shaharlarida yuzlab madrasalar qurilgan. H. Bobobekov “Qoʻqon tarixi” asarida madrasalarning bir nechtasiga taʼrif bergan. Norboʻtabiy madrasasi, Madalixon madrasasi, Hazrat Kalon Sohib madrasasi, Madrasai Oliy, Madrasai Hokim oyim, Madrasai Kamol qozi, Madrasai Tunqator, Madrasai Haqquli mingboshi, Mohlaroyim madrasasi kabilar shular jumlasidandir. Madrasalarning ayrimlarigina hozirgi kungacha saqlanib qolgan [7,124-125].

Xonlik davrida barpo etilgan imoratlarning yana bir turi maqbaralardir. Maqbaralarning barchasi bir necha qismdan iborat majmuadir, yaʼni goʻrxonadan tashqari ziyoratxona, masjid kabi imoratlari boʻlgan. Dahmai shohon, Dahmai Modarixon, Xoʻja Amin, Maxdumi Aʼzam kabi maqbaralar qurilishining har biri oʻz tarixiga ega. Masalan, Xoʻja Amin maqbarasi XVIII asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan boʻlib, maqbarani bezashda XIV asr boshida Oʻrta Osiyolik meʼmorlar foydalangan rang-barang sirkor qoplamadan siqib chiqargan oʻyma sopol qoʻllangan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, XVI asrning oxirlarida Shayx Hovandi Tahur avlodlaridan boʻlgan Iminxoʻja Eshon Toshkentdan Namanganga kelib, oʻrnashib qoladi. Unga ixlos qiluvchi kishilar koʻpayib ketadi. Iminxoʻja Eshon qaynotasidan meʼros qolgan boyliklar evaziga Ibrahimgoʻja hotiralari uchun taxminan XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida Ibrohimgoʻja qabrining oldi tarafiga maqbara bunyod etgan. Maqbara qurilishiga oʻsha davrning mohir meʼmorlari jalb qilinib, u juda nozik did bilan qurilgan.

Qoʻqon xonligida bunyod etilgan jamoat inshootlari qatoriga bozorlar, karvonsaroylar, koʻpriklar kabi qurilmalarni ham kiritish mumkin. Bundan inshootlar xonlikning iqtisodiy, ijtimoiy hayotida ham muhim oʻrin tutgan.

Maʼlumotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, maktab va madrasalarda oʻqitishning ayrim kamchiliklari ham bor edi. Masalan, maktablarda ham madrasalarda ham yagona oʻquv standarti boʻlmagan. Mudarrislar oʻz uslublariga koʻra, oʻzlari xohlaganday dars olib borganlar. Oʻquv xonalarining sifati ham talab darajasida boʻlmagan. Oʻquvchi va talabalar sholcha va boʻyralarda oʻtirib oʻqiganlar, talabalarning hujralari qorongʻu va oʻqish uchun noqulay boʻlgan. Bundan tashqari, oʻquvchilar kaltaklangan va bu oʻquv jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, deb tushunilgan. Aksariyat maʼlumotlar esa tushunish oʻrniga faqat yod olingan.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Qoʻqon xonligida nihoyatda murakkab siyosiy kurashlar avj olgan bir davrda vujudga kelib, shakillandi. Chunki, xonlik tashkil topgan davr Oʻrta Osiyoda buyuk imperiyalar davri oʻtib, mahalliy yoʻlboshchi sulola vakillari turli yoʻllar bilan hokimiyatni qoʻlga olib, qabilaviy konfederatsiya asosida davlat tuza boshlagan davrga toʻgʻri keladi. Urushlar va oʻzaro kurashlarga boy boʻlgan Qoʻqon xonligi davlat boshqaruv shakliga koʻra mutlaq monarxiya boʻlib, mamlakatda mulkdor tabaqalar, yetakchi urugʻlar (ming qipchoq qirgʻiz

saroy)larning, ruhoniylar ayniqsa, sayyidlar va xo‘jalar yuksak maqomga ega edilar [8,34-35].

XIX asr o‘rtalaridagi siyosiy boshboshdoqlik, o‘zaro urushlar va nizolar mamlakat hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, Qo‘qon xonligining barcha sohalarida tushkunlik davri boshlandi. Bundan unumli foydalangan Rossiya imperiyasi - o‘z chegaralarida tinchlik o‘rnatish bahonasida xonlik hududlarini bosib oldi va uning o‘rniga 1876 yilda Farg‘ona viloyati tashkil topdi. Shunga qaramasdan, Qo‘qon xonligi mintaqadagi yirik davlatlardan biri sifatida o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, O‘zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Abdullaev, R.. O‘zbekiston tarixi: iqtisodiy jihatlar. Toshkent: Fan. (2005)
2. Alimov, U.. Qo‘qon xonligida pul tizimi va soliq islohotlari. Toshkent: Ilmiy Meros. (2019)
3. Bekmurodov, I. (2018). Qo‘qon xonligi va Rossiya iqtisodiy munosabatlari. Toshkent: Ma‘naviyat.
4. Bregel, Y.. Central Asia: An Historical Overview. Bloomington: Indiana University Press. (1999)
5. Holbekov, M. Markaziy Osiyo iqtisodiy aloqalari va savdo yo‘llari. Samarqand: Ilmiy Nashr. (2015).
6. Madrahimov, T. O‘rta Osiyoda bozor iqtisodiyoti shakllanishi: Qo‘qon misolida. Toshkent: Yangi Asr Avlodi. (2013)
7. Niyozov, S. Qo‘qon xonligi iqtisodiy tarixi. Toshkent: Sharq nashriyoti. (2010).
8. Qodirov, A. Markaziy Osiyodagi savdo yo‘llari va ularning iqtisodiy ta‘siri. Buxoro: Iqtisodiyot va Tarix. (2016).
9. Ross, E. The Silk Roads: A New History of the World. London: HarperCollins. (2007).
10. Vamberi, A. Travels in Central Asia. London: John Murray (1873) .
11. https://daryo.uz/yoqolgan-manaviy-meros-qoqon-xonligi-saroy-kutubxonasi-tarixidan?utm_source=chatgpt.com/2021/02/23
12. https://daryo.uz/ozbek-davlatchiligiga-berilgan-kuchli-zarba-qoqon-xonligining-tugatilganiga-145-yil-toldi?utm_source=chatgpt.com/2021/03/05.
13. https://www.researchgate.net/publication/Iqtisodiyot_nazariyasi_I_tom_darslik/373797614.

QO‘QON XONLIGIDAGI MA‘MURIY- HUDUDIY TUZILISHI VA XONLIKNING AHOLISI.

ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL STRUCTURE IN THE KOKON KHANATE AND THE POPULATION OF THE KHANATE.

АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ УСТРОЙСТВО КУКОНСКОГО ХАНСТВА И НАСЕЛЕНИЕ ХАНСТВА.

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

“University of Business and Science” “Ijtimoiy fanlar kafedrası” o‘qituvchisi

e-mail: tursunboydadajonov5@@gmail.com

Tel: +998930519650

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligining ma‘muriy-hududiy tuzilishi, uning siyosiy va boshqaruv tizimi, shuningdek, xonlik hududida yashagan aholi soni, tarkibi va etnik xilma-xilligi haqida so‘z yuritiladi. Asarda xonlikka qarashli viloyatlar, tumanlar va ularning boshqaruv shakllari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, aholi ko‘chmanchi va joylashgan guruhlarga bo‘linib, ularning xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy tuzilishi kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Abstract

This article discusses the administrative-territorial structure of the Kokand Khanate, its political and administrative system, as well as the number, composition and ethnic diversity of the population living in the territory of the khanate. The work analyzes the regions, districts belonging to the khanate and their forms of government based on historical sources. The population is also divided into nomadic and settled groups and considered in the context of their economic activity and social structure.

Аннотация

В данной статье рассматривается административно-территориальное устройство Кокандского ханства, его политико-административная система, а также численность, состав и этническое разнообразие населения, проживающего на территории ханства. В работе на основе исторических источников анализируются области, округа, входящие в состав ханства, и их формы правления. Население также делится на кочевые и оседлые группы и рассматривается в контексте их хозяйственной деятельности и социальной структуры.

Kalit so‘zlar.

Qo‘qon xonligi, ma‘muriy tuzilma, hududiy bo‘linish, viloyatlar, tumanlar, boshqaruv tizimi, beklar, hokimlar, xonlik boshqaruvi, siyosiy tuzilma, aholining tarkibi, etnik guruhlar, ko‘chmanchi xalqlar, joylashgan aholilar.

Keywords.

Kokand Khanate, administrative structure, territorial division, regions, districts, administrative system, beks, khokims, khanate administration, political structure, population structure, ethnic groups, nomadic peoples.

Ключевые слова.

Кокандское ханство, административное устройство, территориальное деление, области, округа, административная система, беки, хокимы, управление ханством, политическое устройство, структура населения, этнические группы, кочевые народы, оседлое население.

O‘zbekistonning tarixiy merosi va madaniy boyliklari davlatimizning mustahkam asoslaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining ko‘plab nutqlarida, “Tariximizni bilish, milliy merosimizni asrash va rivojlantirish - bizning kelajagimizni mustahkamlashda muhim omildir” deb ta‘kidlagan. Ushbu fikr nafaqat xalqimizning buyuk tarixini o‘rganish, balki o‘tmishda yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni tahlil qilish orqali bugungi kunni rivojlantirishga yo‘l ochadi. Shunday qilib, Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish, bu davrda shakllangan ma‘muriy-hududiy tuzilma va aholining jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida chuqur ilmiy tahlillar olib borish, bugungi kunimiz uchun ham o‘ta muhim ahamiyatga ega [1,28-29]. Qo‘qon xonligi, Markaziy Osiyo tarixining

muhim davrlaridan biri bo'lib, o'zining siyosiy va ma'muriy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy strukturalari bilan ajralib turadi. "Rashidov"ning ta'kidlashicha, "Qo'qon xonligi ma'muriy boshqaruvi har bir hududda milliy birlikni ta'minlab, xalqni birlashtirgan" [1,39-42]. Bu xonlikda hududiy boshqaruvning qanday tashkil etilishi, uning aholi bilan bo'lgan aloqalari va ijtimoiy tuzilma bilan bog'liq masalalar, ilmiy jihatdan o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardandir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining bir qancha nutqlarida: "Bizning maqsadimiz - o'z tariximizni o'rganib, bugungi zamon talablariga mos ravishda taraqqiyot sari intilishdir" deb aytgan.

Qo'qon xonligi tarixi va uning ma'muriy-hududiy tuzilmasini o'rganish, nafaqat tarixiy ma'lumotlarni yodda saqlash, balki davlat qurilishi jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Qo'qon xonligi davri, hududiy bo'linishlar, ijtimoiy va siyosiy tuzilmalar, aholining ma'muriy boshqaruv tizimidagi o'rni haqida gapirganda, bu xonlikning o'rni Markaziy Osiyo tarixidagi muhim o'zgartirishlarni anglatadi. "Bobojonov"ning aytishicha, "Qo'qon xonligi davlati o'zining hududiy bo'linishi va aholi tuzilmasi orqali barqaror iqtisodiy va ijtimoiy tizimni yaratishga erishgan". Ushbu maqolada, aynan shu masalalar, ya'ni Qo'qon xonligining hududiy tizimi va aholisining ma'muriy boshqaruvi batafsil yoritiladi. XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o'z itoatiga kirgizib, ularni Qo'qonga bo'ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg'ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki – viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo'ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamallari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qilinib, 1817- yilda O'ratepa bosib olinadi.

Muhammadalixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi [2,98-99]. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g'arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi yerlar – Shug'on, Ro'shon va Vaxon (bu hudud Qo'qonga nomigagiga qaram bo'lgan) Ko'lob bilan, sharqda Qashg'ar bilan chegaralangan [3,105-107]. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin O'rtasida joylashgan Farg'ona hududlari, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Namangan, Xo'jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko'ligacha bo'lgan qirg'izlar yashaydigan yerlar, ko'chmanchi qirg'izlar yashaydigan Billur tog'ining sharqiy etaklari, 1830 yildan boshlab g'arbiy etaklari ham kirgan. XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan.

Ayrim manbalar (A. Kun) Qo‘qon xonligidagi 15 ta beklilikning nomini keltiradi. Bular: Qo‘qon va uning atrofi, Marg‘ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon. “Turkestanskiye vedomosti” (1876, №13) to‘plamida esa Asaka, Marg‘ilon, Baliqchi O‘sh, So‘x, Koson va O‘zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi. Hokimlar va hududiy bo‘linma boshliqlari xon oilasi a‘zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklilik xonning o‘g‘illari va yaqin qarishdoshlari tomonidan boshqarilgan. O‘z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o‘zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo‘lib berganlar. Qo‘qon xonligining ma‘muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko‘plab vakolatlarga ega bo‘lgan. Bek o‘rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo‘lib, ular mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq hamda to‘lovlar hisobidan kun kechirishgan [4,124-126]. Beklar xonning itoatkor vassallari bo‘lib, mamlakatni idora etishida uni qo‘llab-quvvatlashlari, zarur bo‘lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo‘yishlari, kerakli vaqtda o‘z qo‘shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtiroq etishlari va sovg‘a-salomlar yuborib turishlari lozim bo‘lgan. Qo‘qon honligida Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘nlab shaharlar mavjud bo‘lgan. Xonlikning poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi [4,137-139]. XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal‘a va istehkomlar muhofaza qilgan.

Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To‘qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo‘ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal‘alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo‘lgan botirboshilar bo‘lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan. Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir – biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysining sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo‘lib, ular o‘troq hayot kechirganlar. Sahro, tog‘ va tog‘ oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashagan. Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma‘lumotlar beradilar. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo‘shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o‘rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko‘plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma‘muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg‘ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi. Aholi tarkibida o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga nisbatan

ko'pchilikni tashkil etgan [5,57-59]. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar [5-120-123]. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li rayonlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan [6,45-51]. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashaganlar. Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar [7,67-69]. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar. Qo'qon xonligi tarixida ma'muriy-hududiy tuzilmaning shakllanishi va rivojlanishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Xonlik hududi bekklik va tumanlarga bo'lingan bo'lib, bu birliklar orqali markaziy hokimiyatning siyosiy va iqtisodiy ta'siri butun xonlik bo'ylab yoyilgan [8,97-98]. Har bir bekklik o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega bo'lgan va mahalliy boshqaruvchilarning faoliyati qat'iy nazorat ostida bo'lgan. Aholi tarkibining etnik va ijtimoiy jihatdan xilma-xil bo'lishi xonlik ichida murakkab, ammo uyg'un jamiyat shakllanishiga imkon yaratgan. Ko'chmanchi va joylashgan aholining hamkorligi, shahar va qishloq ahlining o'zaro iqtisodiy aloqalari xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlagan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyati aholining asosiy tirikchilik manbai bo'lib, bu sohalar ma'muriy boshqaruv orqali nazorat etilgan. Umuman olganda, Qo'qon xonligi o'ziga xos ma'muriy-hududiy modeli va ijtimoiy tuzilmasi bilan o'z davrining taraqqiy etgan davlatlaridan biri bo'lgan. Mazkur tarixiy tajriba hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan davlat boshqaruvi va aholi siyosati tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyatga ega [10, 99-114].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abdurahmonov A. (2006). O'zbekiston tarixidan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi.
2. Bobojonov O. (2012). Qo'qon xonligi davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Fan.
3. Karimov A. (2010). O'zbekistonning ma'muriy-hududiy rivojlanish tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Mamatov M. (2015). Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi.

5. Nabiev, N. (2008). Qo‘qon xonligi: Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma. – Farg‘ona: FDU nashriyoti.
6. Rashidov Sh. (2016). Qo‘qon xonligi ma‘muriy boshqaruvi. – Andijon: Adabiyot.
7. Sodiqov A. (2013). Markaziy Osiyoda ko‘chmanchi xalqlar va ularning jamiyatdagi o‘rni. – Toshkent: Sharq.
8. Tursunov B. (2011). Xonliklar davrida boshqaruv tizimi. – Toshkent: Ma‘naviyat.
9. Yusupova G. (2020). Qo‘qon xonligining demografik manzarasi. – Namangan: Ilm ziyo.
10. Ziyayev H. (2004). O‘zbekistonning qadimiy davlat tuzilmalarida aholi va boshqaruv. – Buxoro: Nurli zamin.
11. O‘zbekiston Respublikasi Tarix instituti rasmiysi
<https://www.history.uz>

FARG‘ONA VODIYSINING O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATI

СРЕДНЕВЕКОВАЯ ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

MEDIEVAL HISTORY AND CULTURE OF THE FERGANA VALLEY

Ahmadjanova Umidaxon Tohirjon qizi

University of Business and Science

Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada qadimgi Farg‘ona vodiysining o‘rta asrlar davri tarixi va madaniyati haqida o‘rganiladi. Shu bilan birga Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati, Farg‘ona vodiysining kulolchiligi, hunarmandchiligi va savdo aloqalarining taraqqiyoti tarixi haqida ma‘lumot berilgan.

Аннотация.

В статье исследуется история и культура древней Ферганской долины в средневековый период. В то же время дается информация о значении Великого Шелкового пути, истории развития гончарного дела, ремесел и торговых связей в Ферганской долине.

Abstract.

This article examines the history and culture of the ancient Fergana Valley in the Middle Ages. It also provides information about the importance of the Great Silk Road, the history of the development of pottery, crafts, and trade relations in the Fergana Valley.

Kalit so‘zlar.

Farg‘ona vodiysi, davlatchilik tarixi, vodiy shaharsozligi, buyuk ipak yo‘li, Farg‘ona madaniyati, madaniy va xalqaro savdo aloqalari.

Ключевые слова.

Ферганская долина, история государственности, градостроительство долины, Великий Шелковый путь, культура Ферганы, культурные и международные торговые связи.

Keywords.

Farg‘ona vodiysining o‘zbek davlatchilik tarixida o‘rni va ahamiyati katta. Farg‘ona vodiysining hududida eng qadimgi odamlarning makoni topilganligi va qo‘shni hududlar bilan savdo aloqalarining rivojlanganligi barchamizga ma‘lum. Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyoda, tog‘lar orasida joylashgan va bu vodiya yirik tog‘ tizmalari botiqlaridan biri bo‘lib, shimolda Tyanshan, janubda Hisor-Oloy va Turkiston tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan, eng ahamiyatlisi shundaki ushbu hudud O‘zbekiston, qisman Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari hududida joylashgan. Farg‘ona vodiysining uzunligi 300 km, eni 60-120 km, eng keng joyi esa 170km hisoblanib, maydoni 22ming km² ni tashkil etadi. Farg‘ona vodiysida bronza davridan boshlab shaharlarga asos solina boshlandi. Farg‘ona vodiysining shaharsozligi yoki bo‘lmasam urbanizatsiya jarayonlarini madaniyatiga oid yodgorliklarni oxirgi yarim asr mobaynida ko‘plab olimlar (A.N.Bernshtam, V.I.Sprishevskiy, E.A.Davidovich, A.A.Anarbaev, B.Abdulg‘ozieva, B.X.Matboboev, G.P.Ivanov va boshqalar) tomonidan o‘rganilgan va ularda bu muammo bo‘yicha so‘nggi bronza davridan o‘rta asrlargacha ko‘plab materiallar to‘plangan. Ularning keltirgan ma‘limotlarida so‘nggi bronza davriidan o‘rta asrlargacha ko‘plab matryallar topib o‘rganilgan. Farg‘ona vodiysining shaharsozligi bu davrlar mobaynida ma‘lum taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligini ko‘rsatadi va bular qisman o‘rganilgan.

Rivojlangan o‘rta asrlar davrida (IX-XII) Farg‘ona vodiysining yirik shaharlari har tomonlama gullab-yashnaydi. Masalan, Axsikat 400 gektardan ziyod maydoni va 200mingdan ziyod aholisi bilan o‘z davrining megapolisiga aylandi. Miloddan avvalgi XII-XI asrlarda Farg‘ona vodiysi hayotidagi ilk urbanizatsiya jarayonlaridan yana biri Chust (Bibi ona) va Dalvarzin kabi yodgorliklar o‘rnida ham ilk shahar tipidagi qarorgohlar (“protoshahar”) shakllandi. Ishlab chiqarishda hunarmandlarning guruhlari paydo bo‘la boshlaydi. Xususan, sopol idishlar ishlab chiqarishda kulollar, metall buyumlar va qurollar tayyorlashda mutaxassis ustalar ajralib Shahar aholisining alohida qatlami sifatida shakllana bordi. Uy joylar ham devor, paxsa va katta hajmdagi xom g‘ishtlardan qurila boshlagan. Shahar aholisining turar joylari ham xom g‘isht, paxsa loydan qurilgan. Shu bilan birga, yerto‘la ko‘rinishidagi turar joylar ham bo‘lgan. Turar joylarning hammasida xonaning o‘rtasida o‘choq joylashgan. Umuman olganda, bronza davrida ilk shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi tufayli dastlabki davlatchilikning ilk ko‘rinishlari paydo bo‘la boshladi. Buni mudofaa devorlarini qurilishi, arkni alohida ajralib turishi va turar joylarni farqlanishida kuzatish mumkin.

Qadimgi shaharsozliklardan biri Chustliklar hayotida 3ta xo‘jalik tarmog‘i o‘ziga xos o‘rin egallagan: dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik. Dehqonchilikda asosan boshqoqli o‘simliklar ekilgan.

Hunarmandchilik ko‘p tarmoqli bo‘lgan: bronzadan zeb-ziynat va xo‘jalik buyimlaridan tortib jangovar qurollargacha ishlab chiqarilgan. Kundalik hayotda sopol idishlarning o‘rni katta bo‘lgan. Xo‘jalikda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, pishirish va istemol qilishda asosan sopol idishlardan foydalanilgan.

Idishlar qo'lda yasalganligiga qaramay, ularning ko'pi och va to'q qizil rangli bo'yoq bilan qoplangan bo'lib, sifati yaxshi bo'lgan. Oshxona idishlarining ma'lum bir qismiga to'q va och qizil rang bilan har xil geometric bezaklar berilgan [4;B.21].

Tadqiqotlar davomida Farg'ona urbanizatsion jarayonlari quyidagicha davrlashtirildi:

1. Ilk shaharlar davri – mil.avv. XII-IV (III) asrlar;
2. Antik davr shaharsozligi – mil.avv. IV- milodiy IV asrlar;
3. O'rta asrlar davri shaharsozligi – milodiy V-XIII asrlar

Shaharlarni paydo bo'lishi va rivojlanishida iqtisodiy – ijtimoiy, siyosiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga fizik-jo'g'rofiy omillar: foydali qazilma boyliklari, shaharni joulashgan o'rni, suv bilan ta'minlanganligi, tashqi dunyo (savdo aloqalari) ham katta ahamiyatga ega. [5; B.14.]. Tashqi savdo aloqalariga to'xtaladigan bo'lsak, aynan antik davrdan boshlab qadimgi Farg'ona (Davan) podsholigi tarkib topadi va bu o'lkadan Buyik ipak yo'lining muhim tarmog'i o'z faoliyatini boshlaydi, shaharlar sonining ortishi, aholi soning ko'payib borishi tufayli savdo – sotiq ishlari ham yuksala boshlaydi. Ipak yo'li bo'yidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalar tufayli qadimgi Farg'ona mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarda faol qatnasha boshlaydi. Miloddan avvalgi II asrda Farg'onaga kelgan Xitoylik elchi Chjan Syan vodiya 70 dan ortiq katta - kichik shaxarlar borligi, ularning xar biri mustaqil boshqaruv tizimiga ega ekanligi, zarurat tug'ilganda mamlakat o'z mustaqilligini ximoya qila oladigan xarbiy kuchga ega ekanligi e'tirof etildi.

Farg'ona vodiysi orqali o'tgan xalqaro savdo yo'lining shimoliy va janubiy yo'nalishlari ham Axsikat orqali o'tgan. Masalan, IX asrda karvonlar Samarqanddan chiqib Ustrushona orqali Xo'jandga kelgan, so'ng Samgar, Xojiston, Turmikon qishloqlari va Bob (Pop) shahri orqali Farg'onaga (Axsikat) borgan. U yerdan Qubo (Quva), O'sh, O'zgan orqali Otboshi shahriga kelgan, so'ngra at-Tubbot va sharqiy Turkistonga o'tgan. Xo'jandga kelgan karvonlar Samgar va Xojiston qishloqlari orqali tog'- kon sanoatiga boy Iloqqa borgan. Bu davrda Kend (Konibodom) va Ho'qand (Qo'qon) orqali o'tgan yo'l ikkinchi darajali bo'lgan. X asrning boshlarida Sug'ddan kelayotgan savdo karvonlari Xo'jand, Kend orqali o'tib So'xga kelgan, so'ng Rishton, Zanderamish, Qubo orqali O'sh va O'zganga borgan. Farg'onaning poytaxti Farg'ona – Axsikatga ham So'x va Ho'qand orqali borilgan. Axsikatga ikki yo'l orqali borilgan: ulardan biri Bobga borib, so'ng Axsikatga o'tgan bo'lsa; ikkinchisi Qo'qondan Markaziy Farg'ona orqali to'g'ri Axsikatga borgan. Bu davrda Samgarva Xojiston orqali o'tgan Shimoliy yo'l ikkinchi darajali bo'lib qolgan. [4;B.46]

Xulosa qilib aytganda, shaharlarning tasnifi va mahobati shakllanishiga vodiyning qadimgi aholisi ong – shuuridagi diniy qadryatlar qanchalik ta'sir ko'rsatganligidan dalolat bergan, hamda bu holot so'nggi bronza davridan so'nggi antik davrigacha o'rganilgan yodgorliklarda kuzatilgan. Keyingi ilk o'rta asrlar davrida zardushtiylik dini keng tarqalgan bo'lib, undagi me'moriy inshootlar o'ziga xos va oldingilardan farqli bo'lgan. Yer yuzida shaharlarni paydo bo'lish

sabablari, ularni tarixiy taraqqiyotdagi o'zni masalasi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki insoniyat tarixini ma'lum bir davrlarini rivojlanishini shaharlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ya'ni shaharlar va urbanizatsiya jamiyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshlaydi. Urbanizatsiya deganda fanda bir tomondan shaharlar paydo bo'lishi va rivojlanishi tushinilsa, ikkinchi tomondan sanoat rivojlangan shaharlarni jamiyat taroqqiyotiga ta'siri tushiniladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, qadimgi Farg'onaning ilk poytaxt shaharlari bo'lgan Eylaton va Mingtepa, keyingi poytaxt Axsikent, Popdagi Munchoqtepav a Balandtepalar, boringki hamma arxeologik yodgorliklar xalqimizning tarixi, madaniy va ma'naviy boyligidir. Ularni asrab avaylash umumdavlat va umumxalq ishi bo'lib, oliy ha kam – tariximiz uchun hamma teng javobgardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlar va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'zni – Toshkent: 2021.
2. Абдухолик Абдурасул. Қадимги Фарғона тарихидан – Тошкент: 2002.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи – Тошкент: 2007.
4. Ablat Xo'jaev. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar – Farg'ona: 2013-yil.
5. Abdullayev B.M. Farg'ona vodiysi antik va ilk o'rta asrlar davrida urbanizatsiya jarayonlari//Usturshona Buyik ipak yo'lida, uning mintaqalararo siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarini rivojlantirishdagi o'zni. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Guliston, 15-16.
6. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик излари // Ўзбекистон тарихи. Тошкент; 2002.
7. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта аср даври маданияти – Самарқанд: 2009.

AMIR TEMUR VA AMIR HUSAYN MUNOSABATLARINING BUZILISHIGA ASOSIY SABABLAR

MAIN REASONS FOR THE BREAKDOWN OF RELATIONS BETWEEN AMIR TEMUR AND AMIR HUSSEIN

ОСНОВНЫЕ ПРИЧИНЫ РАЗРЫВА ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ АМИРОМ ТЕМУРОМ И АМИРОМ ХУСЕЙНОМ

Hakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi.

e-mail:adhambekhakimov71@gmail.com

Tel: +998 97 336 37 30

Annotatsiya.

Mazkur maqolada tarixiy manbalar va adabiyotlar tahlili asosida Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'lgan voqea va hodisalar tafsilotlari bayon etilgan.

Abstract.

Based on the analysis of historical sources and literature, the article describes the details of events and incidents that led to the aggravation of relations between Amir Hussein and Amir Temur.

Аннотация.

В статье на основе анализа исторических источников и литературы описываются подробности событий и инцидентов, приведших к обострению отношений между Амиром Хусейном и Амиром Темуrom.

Kalit soʻzlar.

Movarounnahr, Amir Temur, Amir Husayn, Amir Musabek, Ali Darvesh, Oʻrda Xotun, Tarmashirinxon, Xoʻjand, Sher Bahrom, Amir Hinduka, Amir Qaro, Oʻljoy Turkon ogʻa.

Keywords.

Movarunnahr, Amir Temur, Amir Hussain, Amir Musabek, Ali Darvesh, Orda Khotun, Tarmashirin Khan, Khujand, Sher Bahrom, Amir Hinduka, Amir Karo, Oljoy Turkon Agha.

Ключевые слова.

Моваруннахр, Амир Темуr, Амир Хусейн, Амир Мусабек, Али Дарвеш, Орда Хотун, Тармаширин Хан, Худжанд, Шер Бахром, Амир Хиндука, Амир Каро, Олджой Туркон Ага.

XIV asrning 60- yillarida Movarounnahrda siyosiy-ijtimoiy vaziyatga bevosita mahalliy amir va beklarning taʼsiri boʻlganligini oʻsha davrga oid manbalarni qiyosiy tahlil etish orqali birmuncha anglashimiz mumkin boʻladi. Amir Temur va Amir Husayn oʻrtasidagi munosabatlar ham bundan mustasno emas. Ikki amir oʻrtasidagi munosabatlarni keskinlashuviga mahalliy yirik amirlar ham sababchi boʻlganligini muarrixlar tomonidan yozilgan maʼlumotlar ham tasdiqlaydi. Quyida keltirilgan 1364-1368- yilgi voqealar tafsiloti yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi.

Amir Musabek va Ali Darvesh kabi yirik amirlar Amir Temur va Husaynbek oʻrtasida nizo chiqarishga erishdilar. Lekin turli fisqu fasodlar bilan nizo chiqarib, Amir Temur tomonida boʻlishga ahd qilgan amirlar, birinchilardan boʻlib Amir Husayn tomoniga oʻtib ketdilar. “Ul jihattin fasod bunyod ettilar. Musabekkim, Boyazid Jaloyir oʻgʻli erdi va Ali Darveshkim, qayin agʻosi erdi, ikkalasi ittifoq qilib, makr huqqasin boshin ochturub, Oʻrda Xotun bilan mashvarat qilib, yalgʻon xati bitib, Husaynbekka yibardilir. Va bu Oʻrda Xotun Tarmashirinxonning xotuni erdi va aning qizikim, Husaynbekning nikohida erdi, xatni anga yibardilar. Mazmuni ulkim, “Falon kishi, yaʼni hazrat sohibqiron, xon bila va sening bila muxolifat andishasi bor va sening ishingdin va soʻzingdin asru koʻp xotiri ozurda boʻlub turur. Azm etibturkim, sening bila razm qilgʻay va urush tartibi bila mashgʻul turur. Ul xotun xatni Husaynbekka koʻrsatti. Husaynbek ul voqeani xonga aytti va xon yorligʻi boʻldikim, hazrat sohibqiron bila ul jamʼikim, aytib yibarib tururlar, Samarqandga borib Oʻrda Xotun oldida yigʻilsunlar va bu soʻzni yaxshi tafaxxus qilsunlar. Hazrat sohibqironning koʻnglida hech yamonliq yoʻq erdi, andisha qilmay betavaqquf Samarqand sori yurdi. Musabek va Ali Darvesh eshittilarkim, hazrat sohibqiron Samarqand sori tavajjuh etib turur, qoʻrqunchdinkim rasvo boʻlmagʻaylar, Xoʻjand sori kettilar” [1.42]. Ammo Natanziy maktub haqida soʻz yuritmaydi. Uning fikricha Amir Temurning dabdabali ov tashkil qilishi ikki oʻrtada fitna qoʻzgʻatuvchilar uchun bahona boʻlib xizmat qilgan. “Ushbu voqeadan keyin oradan ikki-uch oy oʻtgach, Sultoni gʻoziy

diqqinafaslikni yozdirish uchun shikor uyushtirdi va bag‘oyat katta ov bo‘ldi. Amir Muso, Ali Darvesh va Farhod qoraunos kabi hasadgo‘ylar buni orttirib-bo‘rttirib, turli tuhmatu bo‘xtonlarni aralastirib, amir Husayn qulog‘iga yetkazishdi. Bu orada aksar amirlar bir qancha sabablarga ko‘ra amir Husayndan ko‘ngillari sovigan edi. Ular bir necha bor Sultoni g‘oziyni yog‘iy bo‘lmoqqa undadilar, ammo u qabul qilmadi. O‘sha voqeadan so‘ng orada shubhalar paydo bo‘lgach, zaruratdan ul guruhning so‘zlariga quloq soldi” [2.73]. Yuqorida ta‘kidlanganidek, bu ma‘lumotda ig‘vo maktubi xususida so‘z yuritilmagan. Ammo ig‘vogarlar safida boshqa manbalardan farqli ravishda Farhod qoraunas haqida so‘z boradi. Xondamir ham o‘z asarida xatning mualliflari sifatida Ali Darvesh va Farhod ismlarini keltirgan [3.56]. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki “Bek” nufuzi bu vaqtda katta bo‘lmagani uchun Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiylar tomonidan tilga olinmagan ko‘rinadi.

Ushbu maktub masalasi ilmiy adabiyotda ham tahlil etilgan bo‘lib, “Temur va Ulug‘bek davri tarixi” asarida xatning mazmunida O‘rda xotunning qizi nomiga dog‘ tushirilganligi, Amir Husaynning Samarqanddagi odamlari uning muallifi sifatida Amir Temurni ko‘rsatganliklari, bu esa nizoni kuchaytirib yuborganligini ta‘kidlaydilar [4.77]. Afsuski, ishonchli manbalarda xatning mazmuni O‘rda Xotunning qizi nomiga dog‘ tushirilishi, uni yozishda Amir Temur ayblanganligi haqidagi ma‘lumotlar mavjud emas.

Fitnachilarning Xo‘jandga qochib ketishi bilan masalaning mohiyati to‘la ochilmay qoldi. Ammo Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasiga ishonchsizlik tushgan edi. Shuning uchun Amir Temur raqibiga qarshi ochiq kurash boshlashga qaror qildi. Nizomiddin Shomiyning ta‘kidiga ko‘ra u amir Bahrom jaloyir va amir Sher Bahromga o‘z qarorini bildirdi [5.53]. Ular Amir Temurni qo‘llashga so‘z berib, o‘zaro ittifoq tuzdilar. Sharofiddin Ali Yazdiy Amir Temur o‘z qarorini amir Bahrom Jaloyir va Sher Bahromga yetkazishining sababi ularning ham Amir Husaynga nisbatan dushman bo‘lganliklari edi, deb izoh beradi. “Hazrat Sohibqiron bildikim, Husaynbekning xotirida g‘ubori paydo bo‘lub turur va burungidek maosh qilmaydur. Hazrat sohibqiron ani o‘zgacha ko‘rub bildikim, anga o‘zga e‘tamid qilib bo‘lmas. Va bu andishada doim o‘zi bila fikr etar edi. Sher Bahrom va Bahrom Jaloyirkim, alar Husaynbek bilan yamon erdilar va doim bu fikrda erdilarkim, nechuk ish qilgaylarkim Husaynbek bilan Sohibqiron orasida muxolifot voqi’ bo‘lgay, bilmaslar erdi. Bir kun hazrat sohibqiron alarni chorlab bu so‘zni aytti. Alarkim, bu so‘zni eshittilar murodlariga yetib dedilarkim: “Husaynbek hech qaysimiz bilan yaxshi ermas. Savob uldurkim, har necha aning ishini botroq qilsaq yaxshi o‘q bo‘lg‘usi turur, andin burunkim ul fikrini qilg‘on bo‘lgay. Va ul ishni qilg‘ondin so‘ng pushaymonliq foyda qilmas”. Alar behad bo‘lub, mubolag‘a qildilar. Va dedilarkim, hazrat sohibqironning muborak ko‘nglida tushub erdi, ko‘brak bo‘lub, alir bilan Husaynbekning muxolifatiga ittifoq qilib ahd qildilar” [1.42].

Amir Temur o‘z ittifoqchilarining sadoqatini mustahkamlash maqsadida bir necha tadbirlarni amalga oshirdi. Chunki o‘zaro urushlarda shakllangan bu amirlarning ahdiga ishonch katta emas edi. Nizomiddin Shomiyning yozishicha,

ittifoq shartlariga ko'ra Sher Bahrom Xuttalondagi mulkiga o'zi bilan Amir Temurning Odil ismli navkarini olib ketdi va Barotxo'ja ismli askarini esa Sohibqiron huzurida qoldirdi [5.53]. Ular o'zaro ittifoqning garovlari edi. Sharofiddin Ali Yazdiy Borotxoja nomini Toy Xo'ja shaklida keltirgan [1.42].

Birinchi bo'lib isyon harakatini Sher Bahrom boshlagan ko'rinadi. Shomiyning ta'kidlashicha u o'z mulkiga borganidan so'ng mudofaa harakatini boshlagan, ammo ko'p o'tmay qo'rquv g'olib kelib, Amir Husaynga borib bo'ysungan [5.53]. Sharofiddin Ali Yazdiy bu voqealarni batafsil bayon etib, amir Sher Bahrom qo'shin to'plaganligi, o'z qo'shinini Bastark yayloviga olib kelganligi va shu yerda Amir Husaynga qarshi muxolifat e'lon qilganligi, ammo Amir Husayn tomonidan o'tkazilgan diplomatik tadbirlardan so'ng o'z ahdiga hiyonat qilib, uning tomoniga o'tib ketganligini ta'kidlagan [5.53].

Bahrom Jaloyirning Amir Temur bilan tuzilgan ittifoqqa munosabati, shu bilan bog'liq faoliyati va ushbu ahddan ko'zlagan maqsadlari B.Usmonov tomonidan alohida tadqiq etilgan: "Amir Temur ularni (Amir Muso va Ali Darveshni) jazolash uchun Xo'jandga qo'shin jo'natdi. "Bu tomondan hazrat Amir Temur, – deb yozadi Sharafuddin Ali Yazdiy, – Bahrom jaloyir, amir Choko' va Abbas-bahodirga lashkar berib, Xo'jand tomon yubordi va Jaloyir elini zabt etsinlar hamda buzg'unchilik va aldanchiliklarni ana shu dushmanlikka sababchi bo'lgan amir Muso va Boyazidning o'g'li Ali Darveshni qo'lga olsinlar, deb buyurdi. Ular bu ishdan xabar topib, qochib qoldilar. Bahrom esa jaloyir ulusini yig'ib, viloyatga o'zi hokim bo'ldi...". Xo'jandni egallab olgan Bahrom jaloyir ikki amir o'rtasidagi nizoning boshlanishida Amir Temur tomonida turgan bo'lsa-da, ko'p o'tmay betaraflik siyosatiga o'tib oldi. Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy keltirgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Amir Temur topshirig'ini bajarish bahonasida Samarqanddan Xo'jandga kelgan Bahrom jaloyir Ali Darvesh qo'shinini tor-mor keltirib, viloyatni qo'lga kiritgan, lekin Amir Temurning Husayn ustidan g'olib chiqishiga ishonmagani uchun Mo'g'ulistonga yo'l olgan.

Muiniddin Natanziy esa Amir Temur Bahrom jaloyirni Xo'jandga yurish qilish to'g'risida farmon berilganligi xususida so'z yuritmagan. Muarrix Amir Temur, Bahrom jaloyir va Sher Bahrom Amir Husaynga qarshi birgalikda kurashishga ahd qilgani, kengashib Bahrom jaloyir va Sher Bahrom o'z viloyatlariga qo'shin to'plab kelish maqsadida borgan, Xo'jandga yetib kelgach, fikri o'zgarib, Mo'g'ulistonga ketganini bayon qiladi. Ma'lum bo'lishicha, Natanziy Bahrom jaloyirning Xo'jand atroflarida merosiy mulklari bo'lganligidan uni o'z viloyatiga qo'shin to'plash uchun borgan, deb xulosaga kelgan.

Manbalardagi ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, Bahrom jaloyir aynan shu merosiy mulklariga tayangan holda amir Muso va Ali Darveshga qarshi kurash boshlagan hamda o'z qabilasidagi asosiy raqiblariga qarashli mulklarni talon-taroj qilgan. Oxir oqibat Ali Darvesh tarafdorlarini qirg'in qilib, o'zi jaloyirlarning yetakchisiga aylanib oladi. Garchi u Mo'g'ulistonga ketishga majbur bo'lgan bo'lsa ham jaloyirlar ichidagi raqiblarini yo'qotishga erishgan edi. Amir Bahrom jaloyirning Mo'g'ulistonga borishdan yana bir maqsadi, xon yordami bilan

Movarounnahrning sharqiy qismidagi viloyatlarida hukmronligini o'rnatish bo'lganligi keyingi voqealar rivoji ko'rsatib beradi. Amir Temur va Amir Husayn o'rtasidagi o'zaro kurash unga maqsadini amalga oshirish uchun qulay imkoniyat yaratib berayotgan edi" [6.69-72].

Amir Bahrom Jaloyirning xiyonatidan keyin Amir Husayn qarshisida bir o'zi qolgan Amir Temur zudlik bilan o'z lashkarini mustahkamlashga intildi. U dastlab navkar to'plash uchun Samarqand tomon yo'l oldi. Bu vaqtda Samarqand atroflarida yasovuriylarning ta'siri katta bo'lgan. Yasovuriylarning yetakchisi, Amir Temurning do'sti Xizr Yasovuriy ayni damda vafot etgan edi. "Hizr Yasuriy vafot bo'lub erdi, inisi Ali va Ilyos va Hoji Mahmudshoh Yasovuriylar bila itoat kamarini jon bellariga bog'lab, hazrat sohibqiron xizmatiga keldilar. Va hazrat Qaro Hinduka Barlosni Samarqand ichida dorug'a qo'yub qaytti. Va Hinduka yamon baxtidin qochar hayolin qilib, Husaynbek qoshig'a bordi va qaro zabt va yasaqdan ojiz erdi, o'zini telbaliqqa soldi" [1.42]. Nizomiddin Shomiy amir Qaro va Hindukani alohida shaxslar sifatida qayd etgan. Uning fikricha, amir Qaro Amir Temurning birodari bo'lgan. Ushbu ikki amir Sohibqiron tomonidan Samarqandni muhofaza qilishga tayinlangan. Hinduka Amir Husayndan cho'chib, uning tomoniga o'tib ketgan bo'lsa, Amir Qaro o'zini telbalikka solgan [5.54]. Bu o'rinda Nizomiddin Shomiy ma'lumotlariga asoslanish to'g'ri bo'ladi. Sharofiddin Ali Yazdiy tomonidan berilgan ma'lumotni tahlil qilish natijasida keltirilgan ma'lumotlar biroz chalkash ekanligi, u yerda ham ikki shaxs haqida so'z borayotganligini anglash mumkin.

Ko'p o'tmay yuqorida aytilganidek, Amir Temur tomonidan Samarqand hokimi etib tayinlangan Hinduka ham Husaynbek xizmatiga o'tadi. Bu orada kasallik sababli Amir Husaynning singlisi, Amir Temurning rafiqasi O'ljoy Turkon og'a vafot etadi [7.14]. Natijada ikki amir o'rtasidagi qarindoshlik aloqalari ham uzilib, ashaddiy dushmanga aylandilar. Lekin Muiniddin Natanziy bu vaqtda Amir Temurga xiyonat qilganlar soni bundan ham ko'p ekanligini, Amir Hindukadan avval amir Sulaymon va Jovarchilar xiyonat yo'liga kirganligini ta'kidlaydi: "Sultoni g'oziy ular o'z va'dasiga vafo qilmaganini ko'rgach, tavakkal qilib otga mindi va yasovuriylar elini zabt qilishga jo'nadi. Unga hamroh bo'lgan guruhdan amir Sulaymon va amir Jovarchi undan yuz o'girib, amir Husayn oldiga ketishdi. Ammo Sultoni g'oziy yasovuriylarni zabt qilib, Samarqandga keldi. Amir Hindukani ukasi bilan Samarqandda dorug'a qilib qoldirib, O'ljoy Turkon og'o kasalga chalingani tufayli o'zi Shaxrisabzga keldi" [2.74].

1366- yili ikki amir ham bir-biriga qarshi lashkar yig'ib yurish boshladilar. Amir Temur o'zining eng ishonchli amiri Sayfuddinbekni ilg'or sifatida ilgari yuborib, Chakchak dovonini qo'riqlashni, raqiblarni o'tkazmaslikni buyurdi. Amir Husayn esa jang qilishga shoshilmay, Amir Temur qo'shinidagi amirlarni o'z tomoniga og'dirib olish uchun harakatlarni davom ettirdi. Amir Temur ham vaziyatni keskinlashtirmasdan, asosiy kuchlarni Keshga to'plagan holda voqealar rivojini kuzata boshladi. Urush muqarrarligi ayon bo'la boshlagach, shu kuchlari bilan Boysun atroflariga yetib keldi [5.56].

“Mansur cheriki Qahlag‘adin o‘tub, Boysunda tushub erdikim, Malik va Ibodulloh etishtilar. Va Husaynbek so‘zini va ahdonomasini arzadosht qildilar va mubolag‘a qilib dedilarkim, “Albatta kerakkim, yarash qilg‘aysiz”. Sohibqiron g‘ayb ilhomidin bildikim, aning ahdig‘a e‘timod qilsa bo‘lmas, qabul qilmadi. Ammo Yasovuriylar ul qo‘rqunchdinkim shoyad bular sulh qilg‘aylar, qo‘rqub muxtalif bo‘ldilar. Ul mahalda Jakubek va Abbos Bahodurkim Bahrom Jaloyir bilan Xo‘jand sori borib edilar, ettilar. Va ittifoq bilan maslahat mundoq ko‘rdilarkim, Yasovuriylarning ulug‘larinikim, muxolifat andishasi ko‘ngullarida bor turur, tutub berkitgaylar. Ammo hazrat sohibqiron bu ma‘niga rozi bo‘lmay man‘ qildi va davlat tilini ochib dedikim, “Agar mundoq ish qilsak mundin nori alarg‘a bir kek soridin e‘timodlari bo‘lmag‘ay va bizga zarar tekkay. Davlat evimiz yaxshiliq bila bino bo‘lsa anga hech kishi zarar etkura olmag‘ay. Va ul yag‘ochkim adl va ehsondin suv ichan komronliq mevasin bergay”. Bu so‘zdin so‘ng Yasovuriylarni yaxshi siylab ijozat berib, o‘z yurtlariga qayturdi. Va o‘zga cherikni taqi ijozat berib, o‘zi qaytib Qarshiga tushti. Va Husaynbek qalin cherik yig‘ishturub Sher Bahrom bila hazrat Sohibqiron sori mutavajjuh bo‘ldi. Muborakshoh va Shayx Muhammad Bayon Sulduzning o‘g‘likim, hazrat sohibqiron sori ko‘b mayllari bor erdi, ammo Husaynbek bor jihatidin zarurat bo‘lub anga qo‘shuldilar” [1.44]. Ushbu voqealar Nizomiddin Shomiy va Natanziy tomonidan ham shu taxlidda yoritilgan [5.55-56].

Ammo ular Amir Husayn tomonidan elchi qilib yuborilgan Malik va Ibodullohni asir olishni taklif etgani, Amir Temur esa bu taklifni rad etib, ularni qaytarib yuborganligini ta‘kidlashadi. Bu o‘rinda Sharofiddin Ali Yazdiy bayoni haqiqatga yaqin deyish o‘rinli. Malik va Ibodulloh tomonidan bildirilgan sulh taklifi Amir Temur tomonidan rad etilgan bo‘lsa ham ushbu muzokaralar yasavuriylarning ko‘nglida ikkilanishni vujudga keltirgan. Shuning uchun Amir Joku va Abbos Bahodur tomonidan yasavuriylarning yetakchilarini asir olish taklif etilgan. Amir Temur Amir Husaynning elchilarini ortga qaytarish bilan birgalikda yasovuriylarni o‘z yurtlari tomon ketishlariga ruxsat bergan. Bundan ko‘rinadiki, aslida Amir Temur qo‘shini Boysundayoq parokandalikka uchragan. Amir Temur sulhni rad etgan bo‘lsa ham yurishni davom ettirmay, Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiylarning talqinida Qarshi shahriga, Muiniddin Natanziyning bayoniga ko‘ra esa Shahrisabz shahriga chekingan. Amir Temur tezlik bilan o‘z qo‘shinlarini qayta tashkil etish harakatini boshlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997.
2. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Гулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011.
3. Хондамир Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин. Буюклик хислати: “Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар” китобининг Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблари. / Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи И.Бекжонов. – Т.: Шарқ, 2011.
4. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон. 2013.

5. Темур ва Улуғбек даври тарихи / Бош муҳаррир академик А. Асқаров – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.
6. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни “Зафарнома”га ёзган “Зайл”и(“Илова”)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996;
7. Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва Темурийлар даврида –Фарғона: “Фарғона”, 2019.
8. Ensar Macit. Timurlu devleti'nin askerî teşkilâtı. - -Erzurum, 2012.

MUNDARIJA

| | | |
|--|--|-----|
| 1. | <i>Boymirzayev K.M.</i> Kirish so‘zi..... | 3 |
| I SHO‘BA. FARG‘ONA VODIYSI ARXEOLOGIYASI VA ETNOLOGIYASI MUAMMOLARI | | |
| 2. | <i>Anarbayev A.</i> Axsikent arxeologiya parki (<i>natijalar va istiqboldagi vazifalar</i>)..... | 5 |
| 3. | <i>Eshov B.J.</i> Farg‘ona vodiysidagi qadimgi davrga oid yodgorliklar tarixi tarixshunosligi tahlillari..... | 16 |
| 4. | <i>Bekmirzayev I.I.</i> Farg‘ona vodiysining G‘ovasoy vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar | 23 |
| 5. | <i>Eshov B.J.</i> Antik davr Farg‘ona vodiysidagi himoya inshootlarining qiyosiy tahlillari | 28 |
| 6. | <i>Nasriddinov Sh.N.</i> Qirxujra (Chilxujra) – arxeologiya yodgorligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar | 32 |
| 7. | <i>Normatov Sh.M.</i> So‘nggi bronza va ilk temir davri Farg‘ona vodiysidagi Chust va Eylaton yodgorliklari himoya inshootlarining o‘rganilishi tahlillari | 35 |
| 8. | <i>Beknazarov B.E.</i> Farg‘ona vodiysi arxeologik yodgorliklarining davlatchilik tarixidagi o‘rni (Chust yodgorligi misolida) | 39 |
| 9. | <i>Normatov Sh.M.</i> Farg‘ona vodiysidagi Dalvarzin yodgorligi himoya inshootining o‘rganilishi tahlillari | 43 |
| 10. | <i>Abduhamidov D.Y.</i> Farg‘ona vodiysi arxeologik yodgorliklari | 47 |
| 11. | <i>Xayitova Sh.M.</i> Farg‘ona vodiysida kulolchilik, shaharsozlik va me‘morchilik (Axsikent yodgorligi misolida) | 50 |
| 12. | <i>Abduvohidova R.D.</i> Farg‘ona arxeologik yodgorliklari – dunyo nigohida (ko‘hna Axsikent timsolida) | 56 |
| 13. | <i>Jumayev A.M., Otaqulova P.I.</i> Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi va zamonaviy usullar | 60 |
| 14. | <i>Arslanov B.</i> XIII asr boshlarida Axsikent shahrining mudofaa devori: qurilish usullari va ahamiyati | 65 |
| 15. | <i>Турсунов Б.Р., Джурабаева М.</i> Формирование городских и сельских поселений Ферганской долине | 71 |
| 16. | <i>Maxmudov A.B.</i> Farg‘ona vodiysida temirga ishlov berish texnologiyalari tarixi | 78 |
| 17. | <i>Abdullayev U.S.</i> O‘zbek xonliklari aholisining etnik tarkibi | 85 |
| 18. | <i>Лукашова Н.М., Юсупов З.У.</i> К историографии темы о сущности термина «сарт».. | 91 |
| 19. | <i>Safarov T. T.</i> XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida yashagan tojik, arab, o‘zbek urug‘lari | 95 |
| 20. | <i>Юсупов А.А., Алиева М.Б.</i> Национальная одежда – зеркало духовности | 100 |
| 21. | <i>Namozov I.X.</i> Chust shahri tarixi, geografik joylashuvi, madaniyati va hunarmandchiligi, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti | 108 |
| 22. | <i>Esonov Z.Y.</i> Farg‘ona vodiysi aholisining hunarmandchilik homiy-pirlari bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlari | 113 |
| 23. | <i>Ashirov A.A.</i> Islom dini va marosimlar haqida ayrim mulohazalar | 119 |
| 24. | <i>To‘lanboyev Sh.A.</i> Islomda ekologiya masalalari talqini | 126 |
| 25. | <i>Isxakov B.B., Karimboyeva S.I.</i> Analysis of environmental problems in zoroastrianism | 131 |
| 26. | <i>Sarimsokov A.A., Nosirjonova Yu.T.</i> Namangan viloyati qoraqalpoqlarida hunarmandchilik an‘analari | 135 |
| 27. | <i>Yo‘ldoshev S.V.</i> Xalq o‘yinlari ijtimoiylashuvning samarali vositasi va omili | 139 |
| 28. | <i>Azizov A.A.</i> O‘qchilik o‘yinlari jihozlariga oid ayrim ma‘lumotlar | 146 |
| 29. | <i>Sarimsokov A.A.</i> O‘zbeklarning taqvimiy marosimlari: bahoriy sayillar | 152 |
| 30. | <i>Raximova Sh.X.</i> Ramzlar bilan bog‘liq qarashlar – tarixiy va etnografik tadqiqotlarda.... | 157 |
| 31. | <i>Xalmuratov B.R.</i> O‘z davrida xondan keyin turgan shaxs | 162 |
| 32. | <i>Isxakov B.B.</i> Ekologik madaniyatga oid xorijiy manba va adabiyotlar tahlili | 166 |
| 33. | <i>Isaqov A.Q.</i> Oila va nikoh tushunchalarining ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-huquqiy, tarixiy talqini | 170 |

| | | |
|---|--|-----|
| 34. | <i>Сатыбалдиева Ч.Т.</i> Традиционное ковроткачество кыргызов – один из важнейших элементов культурного наследия Центральной Азии..... | 175 |
| 35. | <i>Nurmatov A.</i> Фарғона водийси ва Марказий Тяньшан ўлкалари этномаданий алоқалари..... | 180 |
| 36. | <i>To‘uchiyev I.M.</i> Chust tumani etnoturistik salohiyatini oshirishda pichoqchilik va do‘ppichilikning o‘rni | 185 |
| 37. | <i>Qobuljonov R.</i> Namangan tumani va Mirishkor qishlog‘i tarixi | 191 |
| 38. | <i>Tojiboyev J.I.</i> Farg‘ona vodiysida birinchi jahon urushi harbiy asirlari | 195 |
| 39. | <i>Ruzinov B.A., Asqarov B.B.</i> Farg‘ona vodiysi dizayn tarixi an‘analari | 199 |
| 40. | <i>Ortiqov Y.A.</i> O‘zbekiston dunganlari zamonaviy jarayonlar fonida: oila, nikoh va etnomadaniy uzviylik..... | 204 |
| II SHO‘BA. FARG‘ONA VODIYSINING O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATI. | | |
| QO‘QON XONLIGI TARIXI MUAMMOLARI. | | |
| 41. | <i>Qozoqov T.Q.</i> Xorazmshohlar va naymanlarning Farg‘ona vodiysi uchun olib borgan kurashlari (XIII asr boshlari) | 208 |
| 42. | <i>Madraximov Z.Sh.</i> Buyuk allomalar yurti | 213 |
| 43. | <i>Ismoilov I.A., Dadaboyev F.F.</i> Farg‘ona vodiysining o‘rta asrlar taraqqiyotida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini | 221 |
| 44. | <i>Azamova G.A.</i> Kўkon xonligi xunarmandchiligiда марғилонлик тўқувчи хunarmandларнинг тутган ўрни | 225 |
| 45. | <i>Turayeva S.R.</i> Qo‘qon xonligi hududida tog‘-kon ishlari va uning rivojlanish bosqichlari tarixi | 232 |
| 46. | <i>Воҳидов Ш.</i> Умидийнинг «Мактубчайи Хон» ва «Тарихчайи Туроний» асари Кўкон хонлиги тарихига оид муҳим манба | 239 |
| 47. | <i>Эркўзиев А.А.</i> «Бобурнома»да Мовароуннахрнинг ташқи алоқалари хусусида | 243 |
| 48. | <i>Абдукаримов Ж.А.</i> Кўкон хонлиги сиёсий ҳаётида тоғли тожикларнинг ўрни (Муҳаммад Ҳақимхоннинг «Мунтахаб ат-таворих» асари маълумотлари асосида).. | 248 |
| 49. | <i>Nabijonov U.A.</i> Qo‘qon xonligida mansab va unvonlar | 253 |
| 50. | <i>Bozorova M.I.</i> Qo‘qon xonligida savdo va pul munosabati | 259 |
| 51. | <i>Xaydarov S.A.</i> Qo‘qon xonligini iqtisodiy va siyosiy muammolari | 267 |
| 52. | <i>Xolikova M.H.</i> Qo‘qon xonligining vujudga kelishi tarixi | 271 |
| 53. | <i>Маҳмудов Ш.</i> Кўкон хонлиги дипломатик алоқаларида элчиликларнинг таркиби... | 278 |
| 54. | <i>Qo‘ldoshev Sh.T.</i> Turk savdogari Abdurahim afandining Qo‘qon xonligi bilan bog‘liq taqdiri | 286 |
| 55. | <i>Dadajonov T.A.</i> Qo‘qon xonligida ilm-fan, adabiyot va tarixnavislik | 292 |
| 56. | <i>Mo‘sajonova F.A.</i> Qo‘qon xonligida ma‘naviy va madaniy hayot | 296 |
| 57. | <i>Dadajonov T.A.</i> Qo‘qon xonligidagi ma‘muriy- hududiy tuzilishi va xonlikning aholisi.. | 303 |
| 58. | <i>Ahmadjanova U.T.</i> Farg‘ona vodiysining o‘rta asrlar davri tarixi va madaniyati | 308 |
| 59. | <i>Hakimov A.A.</i> Amir Temur va Amir Husayn munosabatlarining buzilishiga asosiy sabablar | 311 |

“FARG‘ONA VODIYSI TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari
(2025- yil 15-16- may)